

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT  
UNIVERSITETI**

**A.E.Ishmuhamedov, M.R.Rahimova,  
L.A.Ishmuhamedova**

**MINTAQAVIY IQTISODIYOT**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'limi ilmiy-  
uslubiy va o'quv-uslubiy birlashmalari faoliyatini  
muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan iqtisodiyot  
yo'nalishidagi oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik sifatida  
tavsiya etilgan

**Toshkent – 2007**

A.E.Ishmuhammedov, M.R.Raximova, L.A.Ishmuxamedova. Mintaqaviy iqtisodiyot. Darslik. – TDIU. 2007. – 296 bet.

Darslikda inson va jamiyatning jahon iqtisodiyotiga transformasiyasi jarayonlari negizi bo'lgan, iqtisodiyot to'g'risida tasavvur beradigan asosiy ijtimoiy-iqtisodiy kategoriyalar va tushunchalar nazariy mazmuni jihatidan tahlil qilinib, milliy iqtisodiyotning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlari, ular amalga oshirilishini jadallashtirish masalalari, milliy iqtisodiyotning bozor iqtisodiyoti sharoitida o'ziga xos rivojlanish tamoyillari, O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining iqtisodiy asoslari, milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish jarayonidagi ustuvorliklar, mintaqalarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi, xalqaro hamkorlik va xavfsizlikni mustahkamlash yo'llari, amaliy misollar va raqamlar asosida ko'rsatilgan.

Darslik oliy o'quv yurtlarining iqtisodiyot va boshqa ta'lim yo'nalishlari talabalari, magistrantlari, kollej talabalari, lisey o'quvchilari, shuningdek, professor-o'qituvchilar hamda iqtisodiyot nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanayotgan mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir: i.f.d., prof. Xodiev B.YU.

Taqrizchilar: akademik, i.f.d., prof. Xasanjanov Q.  
professori, i.f.d., Abirkulov K.

A.Ишмухамедов, М.Рахимова, Л.Ишмухамедова “Региональная экономика”.  
Учебник ТГЭУ, 2007

В учебнике рассмотрены теоретические и практические основы региональной экономики: метод, цель, задачи региональной экономики и региональной политики государства, развитие и размещение производительных сил региона, территориальные аспекты развития промышленности, транспортная коммуникация, АПК регионов, трудовые, финансовые, природные ресурсы регионов, а также социально-экономическое развитие и возможности регионов.

Для студентов, аспирантов, преподавателей экономических вузов, практических работников экономических служб предприятий и организаций.

Ответственный редактор доц. А.Б.Хайитов

Рецензенты: к.э.н., Хайдаров М.Т.

К.э.н.Холтаев Ж.Т.

A.Ishmuhammedov, M.Rahimova, L.Ishmuhammedova “Regional economy”. The textbook TSEU, 2007

In the text-book such theoretical and practice foundations of an regional economy as: case, method, tasks, regional economy 2 placement of produceable local forces, territory aspects of an industry, transport communication, regional agricultural complex, labour, financial, natural resources of current areans. 2 social-economical development 2 regions' potential were analysed.

Dedicated to the students, Ph.D. degree's seekers, teachers of economical universities practical employers of factory economical services organizations.

Editor in chief: dos. Rhaitov A.B.

Reviewers: p.h.d., prof.Xaydarov M.T.

## **Kirish**

Mamlakatni yangilash va demokratlashtirish, Uzbekistonda fukarolik jamiyatini kurish borasidagi maksadlarga izchillik bilan erishishda mintakaviy rivojlanish konsepsiyasining ishlab chikish davlat va jamiyat kurulishi tizimidagi roli va axamiyatini tubdan kuchatirish vazifasi birinchi navbatda fukarolarimizning siyosiy va ijtimoiy faolligini oshirish, axolining xoxish-irodasini ifoda etish, ularning markazda va joylarda davlat xokimiyatini shakllantirish masalalarida bevosita ishtirok etishini ta'minlashning xal kiluvchi vositasi sifatida muxim urin tutadi.

Jamiyatimizni siyosiy yangilash va islox etishning xozirgi boskichida ana shu vazifani amalga oshirish davlat-xukukiy tizimini yanada demokratlashtirish va mamlakatimizni modernisasiya kilish jarayonida eng ta'sirchan turtki va muxim omil bulishiga shubxa yuk.

Mintakalarda fukarolik institutlarini shakllantirish va fukarolarning erkinliklarini ta'minlash, iktisodiyotning barkakror rivojlanishiga erishish borasida tarixan uzok yulni bosib utgan xorijiy mamlakatlarning boy tajribasi va kulga kiritilgan yutulklari aynan shundan dalolat beradi

Ayniksa, Uzbekistan Respublikasining Prezidenti mintakalarni 2007-2011 yillarda kompleks rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish komissiyalarini tashkil qilishi va bu farmoyishni amalga oshirish yakin va istikbolda, mintakalarda tabiiy, mineral-xomashyo va suv-er imkoniyatdan okilona foydalanish; mintakalarning demografik xolatini va axolini ish bilan bandligini; bozor tuzilmasi, transport yullar va kommunikasiya xolati (energetika, issik suv ta'minoti, tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan); mintakalarni moliyaviy barkarorligi (uz-uzini moliyalashtirish). Maxalliy byudjetni kamomadi va investisiya resurslarini kuchaytirish imkoni yaratiladi.

2007 yil – ijtimoiy ximoya yilida davlatimizning insonparvarlik siyosati yanada chukurlashadi va yangi ajoyib samaralar beradi.

Tasdiklangan 2007 yilning davlat byudjetida axolining ijtimoiy ximoyalash buyicha ajratilgan mablaglar anchagina oshirishi kuzda tutilgan. Agar bu maksad uchun ajratilgan mablag 2006 yilda davlat byudjetining 51 foizini tashkil etgan bulsa, bu kursatkich 2007 yilda 51

foizni tashkil etadi. Bu esa axolisi zich mintakalar uchun, kishini nixoyatda xursand kiladigan rakamlar. Endi, buning ustiga, 2007 – ijtimoiy ximoya yili uchun yana aloxida Davlat dasturi tuzilgan. Uzbekiston mintakalarida Dasturda belgilangan nixoyatda ulkan miqyosdagi ishlar, bir-biridan xayrli rejalarni ruyobga chikarish maksadida davlat va nodavlat tashkilotlar xamda saxovatli xomiylarimiz tomonidan yana 100 milliardlab xamda kushimcha mablaglar sarflanadi.

YUqoridagilardan kelib chiqib mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirishning mintaqaviy jihlatlarini o’rganish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

“Mintaqaviy iqtisodiyot” fanining **asosiy maqsadi** – talabalarda mintaqaviy iqtisodiyotning mohiyati, mintaqalarning turli tabiiy – iqlim sharoitlari, iqtisodiy salohiyatlari, bozor islohotlarini amalga oshirish avvalo hududiy darajada namoyon bo’lishini, mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda hududiy boshqaruv organlari ma’suliyati va ularning vakolatlarini kengayishini hamda muhim iqtisodiy masalalar tarmoq, umumrespublika miqyosidan hududiy darajaga o’tkazilishini amalda qanday borayotganini o’rgatishdan iborat.

Fanning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: «mintaqaviy iqtisodiyot» tushunchasini, mohiyatini, turli mintaqalarning geografik o’rni, tabiiy sharoiti, resurslari, ixtisoslashuvdagi farqli va o’xshash tomonlarini aniqlab, ularning xususiyalarini tahlil qilishga o’rgatish, mamlakat hududi va uning mintaqalarini tabiiy-resurs salohiyatini, rivojlanish darajasini, etakchi tarmoqlar joylashuvi haqida tushuncha berish, har bir mintaqaning tabiiy-iqtisodiy, demografik, ekologik va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda iqtisodiyotni yuksaltirish bo’yicha vazifalarini hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan mushtarak holda amalga oshirishning o’ziga xos xususiyatlarini o’rgatishdan iborat.

«Mintaqaviy iqtisodiyot» fanini «Makroiqtisodiyot», «Iqtisodiy geografiya», «Mikroiqtisodiyot», «Iqtisodiyot nazariyasi», «Tarmoqlar iqtisodiyoti», «Mehnat iqtisodiyoti», «Tashqi iqtisodiy aloqalar», «Iqtisodiy statistika» va boshqa shu kabi iqtisodiy fanlar bilan chambarchas bog’liqdir.

«Mintaqaviy iqtisodiyot» fanini o’qitishda talabalar tomonidan fanni to’liq o’zlashtirishni ta’minlash maqsadida mavzularda ko’rilayotgan masalalarning mohiyatidan kelib chiqqan holda ilg’or

pedagogik texnologiyalarning insert, aqliy hujum, «kichik guruhchalar», «bumerang» va klaster usullaridan foydalaniladi.

Mashg'ulotlarni to'laqonli natijaviylik darajasini oshirish uchun har bir mavzuni yoritishda maxsus kompyuter dasturlari, slaydlar, eshitish (audio) va ko'rish (video) vositalari, multimediya vositalari hamda Internet sahifalari va xizmatlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. SHuningdek, internet tarmog'i orqali xorijiy mamlakatlarning hududiy rivojlanishi va mahalliy o'z-o'zini boshqarish tizimi to'g'risidagi nazariy va amaliy ma'lumotlardan foydalanish tavsiya etiladi.

# **I-BOB. MINTAQAVIY IQTISODIYOT FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI**

## **1.1. Mintaqaviy iqtisodiyot fanining mohiyati**

Mintaqaviy iqtisodiyot fanining predmeti mamlakat ishlab chiqarish kuchlarining joylashuvini, hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini, muhim tabiiy-iqtisodiy, demografik va ekologik xususiyatlarini hamda ularning hudud ichidagi, hududlararo va davlatlararo iqtisodiy aloqalarini o'rganadi. Boshqacha aytadigan bo'lsak, mintaqaviy iqtisodiyot fanining asosiy vazifasi ijtimoiy ishlab chiqarishning hududiy jihatlarini o'rganishdan iborat.

Mintaqaviy iqtisodiyot fan sifatida ishlab chiqarish kuchlari va ijtimoiy infratuzilma elementlarini, qonuniyatlari va tamoyillarini hududiy jihatdan tadqiq etadi; mamlakat umumiy rivojlanish strategiyasi va ekologik holatini hisobga olgan holda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish yo'nalishlarini belgilaydi; hududlar iqtisodiyotini va hududlararo iqtisodiy aloqalarni o'rganadi. Bundan tashqari, mintaqaviy iqtisodiyot ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish masalalarini mamlakat miqyosida yaxlit o'rganadi. Zero, har bir hudud iqtisodiyoti, eng avvalo, mamlakat yagona xo'jalik majmuasining tarkibiy qismidir.

SHu bilan birga, mazkur fan mamlakat va hududlarning tabiiy resurs salohiyatini, mamlakatning jahon xo'jaligi tizimidagi o'rni, aholi, mehnat resurslari va hozirgi demografik muammolarni o'rganadi; bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat va hududlarning iqtisodiy darajasini tahlil qiladi hamda ishlab chiqarish kuchlarining asosiy omillarini aniqlaydi.

Mintaqa - mamlakat yagona xalq xo'jalik majmuasining hududiy kichik tizimi hisoblanadi. U demografik, tabiiy-ekologik, ijtimoiy-iqtisodiy va texnik-iqtisodiy jarayonlarning ichki aloqasi va o'zaro munosabati tufayli hosil bo'lgan yaxlit birlikdir.

Hozirgi paytda tubdan o'zgarib borayotgan O'zbekistonning zamonaviy xo'jalik majmuasi murakkab tarmoqlar tizimini tashkil etadi. Mustaqillik yillarida elektrotexnika va elektronika, metallurgiya, mikrobiologiya va ximiya sanoati tarmoqlarida ko'plab yangi turdagi mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Asakadagi «O'zDEUavto» va Samarqanddagi «O'zOtayo'l» korxonalarining ishga tushirilishi bilan O'zbekiston jahondagi avtomobil ishlab chiqaruvchi mamlakatlar safiga

28-chi bo'lib qo'shildi. Ayni paytda qishloq xo'jaligi, hamda bu soha mahsulotlarini qayta ishlash va xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizda iqtisodiyotni erkinlashtirish, respublika markaziy boshqaruv organlari vazifalarining asosiy qismini mahalliy hokimiyatlar va o'zini-o'zi boshqarish organlari zimmasiga yuklash hamda ularning vakolatlarini oshirish bo'yicha ko'pgina ishlar amalga oshirilmoqda (jumladan, 2 palatali parlament tizimining barpo etildi). SHundan kelib chiqib, endilikda mintaqaviy iqtisodiyot fani mamlakat hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasini ishlab chiqishi, mintaqaviy rivojlanishga va investisiyalarni joylashtirishga ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy vositalarni aniqlashi lozim.

Respublikamiz Prezidenti I.Karimov o'zining Idoralararo muvofiqlashtiruvchi kengash majlisida so'zlagan nutqlarida: «... uzoq va davomli rejalarni, prognozlar va makroiqtisodiy balanslarni tuzmasdan, ustuvor va strategik yo'nalishlarni aniqlab olmasdan, bu strategiyaga mamlakat iqtisodiyoti rivojining falsafasini bo'ysundirmasdan bozor iqtisodiyoti o'zidan o'zi rivoj topishi mumkin emas»ligi haqida gapirgan. SHundan kelib chiqib, hududiy dasturlar ishlab chiqish va ularni bajarilishi bo'yicha doimiy monitoringlar tashkil etish hudud iqtisodiyotining muhim vazifalaridan hisoblanadi.

**Mintaqaviy iqtisodiyot predmeti** hududiy moliya-kredit munosabatlarini va mintaqalardagi qimmatli qog'ozlar bozorining shakllanish jarayonini ham o'rganadi.

Bo'lajak iqtisodchilar iqtisodiy bilimlarining shakllanishi iqtisod fanlari tizimidagi konkret hudud bilan shug'ullanadigan yagona soha - mintaqaviy iqtisodiyotni o'rganishdan boshlanishi kerak. Shu narsaga e'tibor berish lozimki, har qanday iqtisodiy faoliyat muayyan hududda ro'y beradi. Bunda iqtisodchi resurs salohiyati, xo'jalik tizimi va uning rivojlanish darajasi xususiyatlarini mukammal bilishi zarur.

SHunday qilib, mintaqaviy iqtisodiyot - ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish masalalarini, mamlakat va hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tabiiy-ekologik sharoitlar bilan bog'liq holda o'rganadigan fandir.

Mamlakatimizning bozor iqtisodiyotiga o'tishi munosabati bilan mintaqaviy iqtisodiyot fanining ahamiyati ortib bormoqda. Mintaqalarni o'rganishda hozirgi paytda ularda ro'y berayotgan holatni chuqur tushunish lozim (qaysi jihatlari ortmoqda)

Bozor munosabatlariga o'tish davrida O'zbekistondagi har bir mintaqaning iqtisodiy rivojlanish darajasi turlicha. Masalan, Toshkent shahri, Toshkent va Farg'ona viloyatlari asosiy xalq xo'jalik tarmoqlarining rivojlanishiga ko'ra respublikaning boshqa mintaqalaridan oldinda turadi. Aksincha, Surxondaryo, Sirdaryo, Jizzax viloyatlari va qoraqalpog'iston Respublikasi bu ko'rsatkichlar bo'yicha quyi o'rinlarni egallaydilar. qishloq xo'jaligidagi ortiqcha ishchi kuchlarining mavjudligi - Farg'ona vodiysi viloyatlari oldidagi dolzarb muammolardan hisoblanadi. Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida esa, aksincha, qishloq xo'jaligini xodimlar bilan ta'minlash o'tkir muammo bo'lib turibdi. Navoiy viloyatida ishsizlik darajasi yuqori.

Hozirgi paytdagi mintaqaviy siyosatning muhim vazifalaridan yana biri - iqtisodiy kooperasiya va mintaqalararo hududiy mehnat taqsimotini takomillashtirishdan iborat.

Mintaqalar rivojlanishidagi eng muhim vazifalardan biri - turli hududlar aholisining turmush darajasi bo'yicha tafovutlarni bartaraf etishdan iborat. Ushbu vazifani bajarishda taraqqiyot darajasi past bo'lgan hududlarni rivojlantirish uchun maxsus davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish, tabiiy resurslarga boy mintaqalarda hududiy ishlab chiqarish mintaqalarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

## **1.2. Mintaqaviy iqtisodiyot fanining boshqa fanlar bilan aloqasi**

Mintaqaviy iqtisodiyot - ijtimoiy fandir. U muayyan hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tadqiq etadi, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni o'rganadi. Mintaqaviy iqtisodiyot iqtisod nazariyasi, sosiologiya, tarmoqlar iqtisodi, iqtisodiy geografiya, demografiya va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bilan uzviy aloqador. Bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi mamlakat xo'jaligining hududiy tashkil etilishi bilan chamcharchas bog'liq. Mintaqaviy iqtisod va siyosatning nazariy va amaliy muammolarini o'rganish (renta munosabatlari, hududiy ijtimoiy jarayonlar va h.k.) iqtisod nazariyasini yanada boyitadi, yangi ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi. Mamlakatimizda ijtimoiy va demografik yo'nalishdagi tadqiqot ishlari izchil amalga oshirilmoqda.

Mintaqaviy iqtisodiyot va iqtisodiy geografiya fanlari olib borayotgan ilmiy tadqiqotlarning maqsadlari o'zaro juda o'xshash.



Amaliy jihatdan ular iqtisodiyot hududiy tuzilmasini takomillashtirishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish masalalari bilan shug'ullanadilar. Lekin tadqiqot uslublari va yo'nalishlari bo'yicha tafovutlar mavjud. Mintaqaviy iqtisodiyot texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimiga tayanadi, ishlab chiqarish kuchlarini hududiy rivojlantirishda iqtisodiy samaradorlikni hisoblash usullarini keng qo'llaydi, ishlab chiqarishni joylashtirishning iqtisodiy boshqarish mexanizmini o'rganadi.

SHuning uchun mintaqaviy iqtisodiyotda ko'pgina iqtisodiy omillarni (mehnat unumdorligining o'sishi, milliy daromadni hududiy taqsimlash, renta munosabatlari, asosiy fondlarning tarkibi va samaradorligi, baho va tariflarning hududiy tafovutlari va h.k.) chuqur tahlil etiladi va shular asosida ushbu fan ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilaydi.

### **1.3. Mintaqaviy tadqiqotlarning uslublari**

Mintaqaviy iqtisodiyot bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borishda bir qancha ilmiy uslublardan foydalaniladi. Ulardan eng muhimlari quyidagilar:

Tizimli tahlil. Ushbu uslub bosqichlilik tamoyiliga asoslanadi (maqsad qo'yish, vazifani aniqlash, ilmiy taxminni bayon etish, tarmoqlarni joylashtirish xususiyatlarini kompleks o'rganish); u tarmoqlar tuzilmasi, ularning o'zaro aloqadorligini o'rganish imkonini beradigan ilmiy bilish uslubidir.

Tizimlash uslubi. U o'rganilayotgan hodisalarni alohida belgilariga ko'ra guruhlariga ajratish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda tasniflash, tipologiya, umumlashtirish va boshqa usullar qo'llaniladi.

Balans uslubida iqtisodiy tahlillar tarmoq va hududiy balanslar yordamida tushuntiriladi. Iqtisodiy-geografik tadqiqotlar uslubi o'z navbatida yana 3 tarkibiy qismdan iborat: hududiy usul (ijtimoiy ishlab chiqarishni joylashtirish va rivolantirish yo'llarini mintaqaviy darajada o'rganish); tarmoq uslubi (tarmoqlar iqtisodiyotini geografik aspektda tadqiq etish); mahalliy uslub (ishlab chiqarishni uning birinchi bo'g'ini - alohida shahar, aholi punkti darajasida joylashtirish va rivojlantirishni o'rganish).

Kartografik uslub. Ushbu uslub ishlab chiqarish xususiyatlarini ko'rgazmali aks ettirish imkonini beradi.

Iqtisodiy-matematik modellashtirish (mintaqa iqtisodiyoti rivojlanishining hududiy proporsiyalarini modellashtirish, mintaqa

xo'jaligini tarmoqlar bo'yicha modellashtirish, mintaqa xo'jalik majmualarining shakllanishini modellashtirish). Taksonomik uslub. Ushbu jarayon muayyan hududni unga bo'ysunuvchi ierarxik taksonlarga ajratib chiqishdan iborat. Taksonlar - ierarxik pog'onaning quyi bosqichlarini egallab turgan ma'muriy-hududiy birliklar hisoblanadi. Masalan, viloyatga nisbatan tuman va shaharlar.

Ijtimoiy so'rovlar uslubi. Ular juda xilma-xil: standart holda intervyu; alohida tarmoqlar vakillari bilan yakka tartibda suhbat, olimlar, mutaxassislar va mintaqalar rahbar xodimlarining ochiq chiqishlari bo'yicha faktlarning tahlili va b.q. Shunday qilib, mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarni o'rganish nihoyatda ko'plab usul va vositalarga tayanadi. Ulardan mintaqashunos mutaxassislar o'zlarining ish jarayonlarida, shu bilan birga, talabalar va aspirantlar kurs, diplom ishlari va dissertasiyalarini yozish davomida foydalanishlari mumkin.

### ***Qisqacha xulosalar***

Mintaqaviy iqtisodiyot mamlakat va hududlarning tabiiy resurs salohiyatini, mamlakatning jahon xo'jaligi tizimidagi o'rni, aholi, mehnat resurslari va hozirgi demografik muammolarini o'rganadi; bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat va hududlarning iqtisodiy darajasini tahlil qiladi.

Mintaqaviy iqtisodiyot iqtisodiyot nazariyasi, sosiologiya, tarmoqlar iqtisodi, iqtisodiy geografiya, statistika, demografiya va boshqa ijtimoiy-iqtisodiy fanlar bilan uzviy aloqador.

Mintaqaviy iqtisodiyot bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borishda tizimiy tahlil, balans uslubi, iqtisodiy-geografik tadqiqotlar, iqtisodiy-matematik modellashtirish, kartografik, taksonomik va ijtimoiy so'rov usullaridan keng foydalaniladi.

### ***Nazorat va muhokama uchun savollar***

1. Mintaqaviy iqtisodiyot fani nimani o'rganadi?
2. «Mintaqa» va «hudud» tushunchalarining farqi tushuntirib bering?
3. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida ushbu Mintaqaviy iqtisodiyot fani zimmasiga qanday yangi vazifalar qo'yildi?
4. Mintaqalar rivojlanishidagi eng muhim vazifalar nimalardan iborat?
5. Mintaqaviy iqtisodiyotning boshqa fanlar bilan aloqalari qanday?

6. Mintaqaviy iqtisodiyot bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borishda qanday ilmiy usullardan foydalaniladi?

### *Asosiy adabiyotlar*

1. Dorogov N. Regionalnaya ekonomika v sisteme ro'nochno'x otnosheniy (metodologicheskie aspekto' upravleniya) [http://www.ptpu.ru/issues/4\\_97/14\\_4\\_97.htm](http://www.ptpu.ru/issues/4_97/14_4_97.htm)
2. Regionalnaya ekonomika pod redaksii TG Morozovoy YUNITI Moskva 2000
3. M.Rahimova «Mintaqa va mahalliy xo'jalik iqtisodiyoti»; o'quv qo'llanma T.: 2004
4. L.M.Toshpo'latova Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati. Toshkent, 2004.
5. Regionalnaya ekonomika. Osnovnoy kurs: Uchebnik / Pod red. V.I.Vidyapina, M.V. Stepanova. – M.: INFRA-M, 2006. – 686 s.

## **2-BOB. MINTAQALARNING MINERAL XOM ASHYO VA TABIIY RESURSLARI**

### **2.1. Mineral-xom ashyo resurslari tushunchasi mazmuni va ularning xududiy joylashuvi hamda uning iqtisodiyotda tutgan o'рни**

Mineral-xom ashyo resurslari har bir mamlakatning eng muhim boylik manbaidir. Undan olinayotgan mahsulotlar insonning xilma-xil ehtiyojini qondiradi. Mineral-xom ashyodan turli metallar, yoqilg'i, qurilish materiallari, himikatlar, qishloq xo'jaligi uchun o'g'itlar ishlab chiqarishda foydalaniladi.

Er ostidagi mineral hosilalar qidirilmagan va baholanmagan bo'lsa, u holda ular mineral xom ashyo sifatida ko'rib chiqilishi mumkin, holbuki ularni aniqlashga va qidirishga mehnat sarflangan. Ammo er ostidagi bunday mineral xom ashyo zahiralari potensial resurslar hisoblanadi, xolos. Ular er bag'ridan qazib olingandan keyingina xaqiqiy mineral xom ashyo hisoblanadi. Mineral xom ashyo tushunchasi foydali qazilma tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir.

Foydali qazilma - bu ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishning hozirgi darajasida sanoatda foydalanish uchun yaroqli bo'lgan er qobig'idagi tabiiy mineral moddalardir. Ular er ostidan qazib olingandan keyin mineral xom ashyo ko'rinishiga ega bo'ladi. SHunday qilib, er bag'ridan qazib olingan, xalq xo'jaligi ahamiyatiga ega bo'lgan foydali qazilmalar mineral xom ashyo deyiladi. Mamlakatda muayyan muddatda qidirilgan, aniqlangan, baholangan hamda prognoz qilingan foydali qazilmalar esa mineral resurslar deb ataladi<sup>1</sup>.

Foydali qazilmalar tabiatdagi miqdori, foydalanishdagi maqsadiga ko'ra ma'danli va noma'dan foydali qazilmalarga bo'linadi. Suyuq va gazzimon foydali qazilmalar alohida guruhni tashkil etadi.

Konlarning geologik o'rganilish darajasi, geologik tuzilmalari, foydali qazilmalari tarkibi va xossalarini o'rganish darajasi, tog' ishlari miqdori va xarakteri hamda ishlab chiqarish texnologiyasiga qarab, kon zapaslari 4 kategoriyaga bo'linadi. Bular: A, V, Cl, C2.

---

<sup>1</sup> Кобахидзе Л.П. Экономика геологоразведочной отрасли. Москва. Недрa, 1990, стр.22

A kategoriyaga foydali qazilmalarning turlari va texnologik xossalari o'rganilgan zahiralari kiradi.

Foydali qazilmalarning V kategoriyadagi zahiralari ruda jismlarining yotishi hollari, tabiiy turlari va sanoat sortlari aniqlanib hisoblanadi. Bunday zapaslar qidirib topilgan va chegaralangan bo'ladi.

C1 kategoriyaga kiritilgan foydali qazilmalar zahiralari konlarning alohida uchastkalaridan olingan texnologik namunalarni o'rganish asosida aniqlanadi, ammo rudalarning xillari, sifati va texnologik xarakteristikasi aniqlanmagan bo'ladi.

Zahiralalar geologik, sanoat ahamiyatiga molik va ekspluatasion xillarga bo'linadi.

Mineral resurslarga bo'lgan talab vaqtga qarab o'zgarib turadi va u jamiyatning rivojlanish darajasiga, ishlab chiqarish ehtiyojlariga, shuningdek texnika taraqqiyotiga va iqtisodiy imkoniyatiga bog'liq bo'ladi. Tabiiy mineral moddalar ularga bo'lgan ehtiyoj va amalda ulardan foydalanish usullari paydo bo'lgandagina mineral resurslarga aylanadi. Texnika bilan qurollanganlik darajasi nechog'li yuqori bo'lsa, foydali qazilmalar assortimenti shunchalik ko'p bo'ladi va mineral xom ashyoning ko'plab yangi turlari sanoat ishlab chiqarishga jalb etiladi. Masalan, sanoat ahamiyatiga ega bo'lgan toshko'mirdan faqat XVII asr oxiridan, neftdan XIX asr o'rtalaridan, alyuminiy, magniy, xrom va nodir elementlar ma'danlaridan va kaliyli to'zlardan XIX asr oxiri va XX asr boshlaridan, uranli ma'danlardan esa XX asr o'rtalaridan boshlab foydali qazilma sifatida foydalanib kelinmoqda.

Odatda, foydali qazilmalar zahiralari va prognoz qilingan resurslar miqdoriy jihatdan baholanadi. Dunyo va ayrim mamlakatlar mineral-xom ashyo balansida, har bir foydali qazilma turi, zahiralarning 70-80% dan ortig'i yirik va juda katta konlar hisobiga to'g'ri keladi, qolganlari o'rtacha kattalikdagi va ko'plab mayda konlarga jamlangan.

Umuman qidirib topilgan foydali qazilmalarning talaygina qismi ma'dan miqdoriga nisbatan oz bo'lgan, yoki katta chuqurlikda va murakkab tog'-geologik sharoitlarda joylashgan konlarda jamlangan.

Mineral resurslarni sanoat yo'sinida o'zlashtirish ularni baholashga (ilmiy-tadqiqot, izlash va geologik qidiruv ishlari) va hajmiga, sanoatning o'ziga xos xususiyatlariga va jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga, xo'jalik mineral-xom ashyo sektorining mamlakat iqtisodiyotidagi roli bilan belgilanadi hamda qazib chiqarish, boyitish va qayta ishlashni o'z ichiga oladi.

Mineral resurslarning qaytadan tiklanmasligi, ulardan oqilona foydalanish zarurati, qazib chiqarish, qayta ishlash va tashishda nesnobud bo'lishini kamaytirish, shuningdek ikkilamchi xom ashyo sifatida ishlatish va mineral resurslardan foydalanishda ekologik iqtisodiy yondoshuvga rioya qilish lozimligi bilan izohlanadi.

Mineral-xom ashyo resurslariga bo'lgan ehtiyoj iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishga nisbatan jadal ortib bormoqda. Bu asosan ishlab chiqarishni rivojlantirish va takomillashtirish, uning energetik va texnikaviy qurollanganlik darajasini oshirish uchun ko'p miqdorda tabiiy resurslar zarurligi bilan izohlanadi.

Mineral-xom ashyo resurslari rolining ortib borishi ularga nisbatan ehtiyojning o'sishi bilangina emas, balki ularning o'ziga xos xususiyatlari va mehnat unumdorligiga ta'siri bilan shartlanadi. Bundan tashqari, ishlab chiqarishni rivojlantirish sur'atlari va darajasi ko'p jihatdan foydali qazilmalardan foydalanish samadorligi ko'lamlari va darajasiga bog'liqdir.

## **2.2. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mineral-xom ashyo resurslaridan oqilona foydalanish**

O'zbekiston Respublikasida ishga solinayotgan foydali qazilma konlari boshqa mamlakatlardan o'zining juda katta zahiralari bilangina emas, balki quyidagi bir qator xususiyatlari bilan ham ajralib turadi:

*Birinchidan*, tabiiy va mineral-xom ashyo zahiralari yirik konlarda to'plangan bo'lib, ularni qazib olingan joyning o'zidayoq kompleks qayta ishlash imkoniyati bor;

*Ikkinchidan*, foydali qazilmalarning ko'pgina turlari tarkibida foydali komponentlar yuqori darajada bo'libgina kolmay, katta miqdorda yo'ldosh elementlarga ham ega;

*Uchinchidan*, konlarning ko'pchiligida ochiq usulda ishlash mumkin, rudalarni boyitish texnologiyasi ham nisbatan oddiy. Bu texnologiya ko'p miqdorda foydali komponentlar chiqarishni va jahon bozorida xaridorgir mahsulot olishni ta'minlaydi;

*To'rtinchidan*, ko'pgina foydali qazilma konlari yaxshi o'zlashtirilgan, aholi zich yashaydigan hududlarda joylashgan. Ular qulay transport infratuzilmasiga, shu jumladan suyuq va gaz holatidagi foydali qazilmalar uchun quvur transportiga ega.

Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida mineral-xom ashyo resurslari ham ichki, ham tashqi bozorning iste'mol ob'ekti bo'lib

hisoblanadi. SHu tufayli, tog'-kon sanoati ishlab chiqarayotgan mahsulotlar milliy iqtisodiyotni quyidagi muammolarini echishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim:

- xalq xo'jaligi talabini an'anaviy turdagi mineral-xom ashyolar bilan to'liq ta'minlash;
- tashqaridan kirib kelayotgan mineral-xom ashyolar o'rnini to'ldirish;
- milliy xo'jalikning yangi sohalarini xom ashyo bilan ta'minlash;
- ekologik vaziyatni (kimyoviy o'g'itlarni tabiiy o'g'itlarga almashtirish) va sanitar-gigienik vaziyatni (yod, brom, shifobaxsh minerallar) yaxshilanishini tashkil etish;
- tashqi bozorni o'zlashtirish va ijobiy savdo balansini tashkil etish.

SHulardan kelib chiqib, bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakat mineral-xom ashyo bazasini mustahkamlashda ulardan samarali va oqilona foydalanilishi lozim.

### **2.3. O'zbekiston Respublikasi mineral-xom ashyo resurslarining hozirgi holati**

O'zbekistonda Mendeleev davriy jadvalining deyarli barcha elementlari topilgan. Hozirga kelib respublikada 2900 dan ortiq foydali qazilma konlari va ular namoyon bo'lgan istiqbolli joylar, 100 xilga yaqin mineral-xom ashyo qidirib chamalangan, shundan taxminan 65 turidan hozirdayoq sanoatda va qishloq xo'jaligida foydalanilmoqda.

1000 taga yaqin kon, shu jumladan 168 ta neft, gaz va kondesat koni, 51 ta qimmatbaho metallar koni, 41 ta rangli, nodir va radioaktiv metallar koni, 3 ta ko'mir koni, 22 ta kon - ma'dan, 14 ta kon - kimyoviy va 24 ta yarqirama tosh xom ashyosi koni, 522 ta turli maqsadda foydalaniladigan qurilish materiallari va 151 ta chuchuk va mineral er osti suvlari konlari qidirib chamalangan. Hozircha ularning 45 foizi ishlatishga jalb qilingan.

Respublikamizning umumiy mineral-xom ashyo saloxiyati taxminan 3,5 trillion dollarni tashkil kiladi. Ishlatish uchun tayyorlab qo'yilgan foydali qazilmalar zahiralari 1025 mlrd. AQSH dollariga baholanmoqda. SHuni qayd qilish kerakki, respublikada nisbatan qisqa muddat ichida 200 mlrd. dollar miqdorida xom-ashyo qazib olindi.

Tayyorlab qo'yilgan zahiralari negizida respublikada 535 ta kon, shaxta, karer, neft-gaz konlari, 420 ta suv olish joylari, balneologik shifoxonalar, shifobaxsh suvlarni quyish shoxobchalari ishlab turibdi. O'zlashtirishga tayyorlab qo'yilgan mineral-xom ashyo zahiralari nafaqat ishlab turgan kon qazib chiqarish majmualarning o'zoq muddatli istiqbolini ta'minlaydi, balki ularning quvvatini oshirish, eng muhim foydali qazilmalar (oltin, uran, mis, ko'rg'oshin, rux, kumush, litiy, fosforitlar, kaliy tuzlari, flyuorit, kvars-dala-shpat, agrokimyoviy ma'danlar va boshqalar) qazib olishni qaytadan tashkil etish imkonini ham beradi.

Har yili respublika konlaridan taxminan 5,5 mlrd. dollar miqdorda foydali qazilmalar olinmoqda va ular o'rniga 6-7 mlrd. dollarlik yangi zahiralari ko'shilmogda.

Respublikamiz muhim foydali qazilmalar qatoriga kiruvchi: oltin, uran, mis, tabiiy gaz, volfram, kaliy to'zlari, fosforitlar va kaolinlarning tasdiqlangan zahiralari va ularning kelajakdagi istiqbollari bo'yicha dunyoda etakchi o'rinlarni egallaydi.

## **2.4. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mineral xom ashyo bazasini mustaxkamlash, ulardan foydalanishni takomillashtirish**

Aksariyat konlarning bir-biriga yaqin joylashganligi va uchraydigan foydali qo'shimchalarni qazib olish mumkinligi ob'ektlarning ahamiyatini ancha oshiradi. Ammo mineral-xom ashyo negizini rivojlantirishda katta imkoniyatlar borligiga qaramay, bu sohada kurgina muammolar ham mavjud.

Keyingi yillarda jahon bozorida oltin va boshqa rangli metallarning narxi juda pastlab ketdi. Bu hol energetika xom ashyosiga ham taalluqlidir. Bunday sharoitda faqat yuqori sifatli, ya'ni tarkibida foydali qo'shimchalar miqdori ko'p, ishlatish sharoitlari va ma'danlarni qayta ishlash usuliga ko'ra texnologik jihatdan ilg'or va ekologik ta'minoti yuksak darajada bo'lgan mineral xom ashyo zahiralari raqobatbardosh bo'lishi mumkin.

Bugungi kunda mamlakatimiz mineral xom ashyo bazasini mustaxkamlash maqsadida quyidagi vazifalar amalga oshirilmoqda:

1. Respublikada yagona bo'lgan metall parchalari hisobiga ishlovchi O'zbekiston metallurgiya kombinatini xom ashyo bilan ta'minlash maqsadida Davlat geologiya qo'mitasi temirga oid geologiya-



kidiruv ishlarini olib bormoqda. Hozirgi vaktida 450 mln. tonna ma'dan (o'rtacha temir miqdori - 15%) zahirasiga ega bo'lgan Tebinbuloq (Qoraqalpog'iston Respublikasi), 70 mln. tonna ma'dan (miqdori - 33%) zahirasiga ega bo'lgan Temirkon (Jizzax viloyati) va 16 mln. tonna, (miqdori - 34%) ma'dan zahirasiga ega bo'lgan Syurenota (Toshkent viloyati) singari uchta kon mavjud..

2. qorakalpog'iston Respublikasining Qo'ng'iro't shahrida osh to'zi va ohaktoshdan iborat xom ashyo negizida yiliga 210 ming tonna kaustik va kalsiyli soda ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan soda zavodining I navbati ishga tushirildi. Zavodning to'la quvvatda ishlay boshlashi bilan respublikamiz o'zini o'zi soda bilan to'la ta'minlaydi.

3. Navoiy viloyatida Qizilkum fosforit kombinati qurilmokda. Zavodning quvvati yiliga 1190 ming tonna bo'lgan konsentratni tashkil etadi. Korxonaning ishga tushirilishi bilan, respublikada fosforitga bo'lgan talab to'laligicha qondiriladi. Bugungi kunda mamlakatimizga fosforit qo'shni Qozog'iston Respublikasidan keltirilmoqda.

4. Qashqadaryo viloyatida quvvati yiliga 300 ming tonna bo'lgan kaliy xlor ishlab chiqaradigan kaliy zavodini qurish loyihalashtirmoqda. Korxonaga ishga tushishi bilan, respublikaning kaliy xlorga bo'lgan talabi qondiriladi. Hozirgi kunda kaliy xlor Rossiya va Belorussiyadan keltirilmoqda.

5. O'zbekistonda Avstriya bilan hamkorlikda kvars kumi ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Kvarspesok" qo'shma korxonasi tashkil etilgan. Kvars qumi ilgari respublikamizga Tojikiston Respublikasidan olib kelinar edi.

6. Issiqlikni o'tkazmaydigan materiallar (vermikulit, bazalt va b.) konlari bo'yicha geologiya ishlarini olib borish lozim. Bugungi kunda mamlakatimizga vermikulit Rossiyadan keltirilmoqda.

YUqorida bayon etilgan masalalar o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, zamonaviy texnika va texnologiyani maqbul boshqarishni, respublika iqtisodiyotidagi muammolarni anik belgilab, ularni xal qilishning samarali yullarini izlab topishni taqozo qiladi. Bu esa katta mablag talab qiluvchi geologiya-qidiruv ishlari, tog'-kon sanoatini rivojlantirish kabi iqtisodiyotdagi muhim vazifalarning qay darajada hal etilishiga bog'liq.

## **Qisqacha xulosalar**

Foydali qazilma - bu ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishning hozirgi darajasida sanoatda foydalanish uchun yaroqli bo'lgan er qobig'idagi tabiiy mineral moddalardir.

O'zbekistonda Mendeleev davriy jadvalidagi mineral resurslarning deyarli barcha turlari mavjud.

Respublikamizda mineral xom ashyo resurslari nihoyatda notekis joylashgan.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Kon zapaslarining A, V, C<sub>1</sub>, C<sub>2</sub> kategoriyalari o'zaro qanday farqlanadi?

2. O'zbekistonda ishga solinayotgan foydali qazilma konlari boshqa mamlakatlardan o'zining qaysi xususiyatlari bilan ajralib turadi?

3. O'zbekiston oltin qazib chiqarish va uni eksport qilish bo'yicha dunyoda nechanchi o'rinni egallaydi?

4. Respublikada mineral xom ashyo resurslarining joylashuvi qanday?

5. Foydali qazilmalar zaxiralari va prognoz qilingan resurslar qanday baxolanadi?

6. Respublikada foydali qazilmalar zahiralari qancha?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. L.M. Toshpo'latova Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati. Toshkent, 2004

2. Z.YU. Yo'ldoshov Milliy iqtisodiyot, o'quv qo'llanma T., 2004.

3. Mintaqaviy iqtisodiyot, O'zbekiston Milliy universiteti. 2003.

4. M.Raximova Mintaqa va mahalliy xo'jalik iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma T.: 2004

5. A.E. Ishxamedov O'zbekiston Milliy iqtisodiyoti. Darslik. T.: 2006y.

6. L.N.Ishxamedov Ekonomika prirodopolzovaniya. Uchebnoe posobie. T.: 2005.

## **3-BOB. O'ZBEKISTONNING MA'MURIY- HUDUDIY BO'LINISHI**

### **3.1. O'zbekiston ma'muriy-hududiy bo'linishining qisqacha tarixi**

Keyingi bir asr davomida mamlakatimiz geografik xaritasi tez-tez o'zgarib turdi. 1917 yilda hozirgi O'zbekiston hududi Turkiston general-gubernatorligi, Xiva xonligi va Buxoro amirligi o'rtasida taqsimlangan edi. 1924 yilda yuz bergan O'rta Osiyoning milliy-hududiy taqsimlanishi natijasida O'zbekiston SSR tashkil topdi. 1924-1929 yillar davomida Tojikiston ASSR uning tarkibida bo'ldi. 1930 yilga qadar respublika poytaxti Samarqand shahrida joylashgan. 1936 yilda uning tarkibiga ilgari RSFSR da bo'lgan qoraqalpog'iston ASSR kiritildi. 1939 yilda ushbu avtonom respublikaning poytaxti To'rko'l shahridan Nukusga ko'chirildi.

Viloyat bo'linishlari O'zbekistonda 1938 yil yanvaridan boshlab vujudga keldi. Dastlab 5 viloyat tashkil etildi: Buxoro, Samarqand, Toshkent, Farg'ona va Xorazm. 1941 yil martida ular safiga Andijon, Namangan, Surxondaryo, 1943 yil yanvarida qashqadaryo viloyatlari qo'shildi. 1945 yilda O'zbekistonda 9 viloyat va 1 avtonom respublika mavjud bo'lgan.

1960 yilda Namangan va qashqadaryo viloyatlari tugatildi. Bunda Namangan Andijon va Farg'ona viloyatlari o'rtasida taqsimlangan bo'lsa, qashqadaryo butunlay Surxondaryo viloyatiga qo'shib yuborildi. 1963 yil fevral oyida Mirzacho'lning yangi o'zlashtirilgan erlarida Sirdaryo viloyati tuzildi. Ushbu mintaqa Samarqand va Toshkent viloyatlari negizida tashkil topgan bo'lib, ma'muriy markazi dastlab Yangi-Yul, keyinchalik Guliston shahri qilib belgilandi.

1964 yilda qashqadaryo, 1967 yilda esa Namangan viloyatlari qaytadan tiklandi. 1973 yil oxirida Sirdaryo viloyatidan Jizzax viloyati ajralib chiqdi. O'zbekistonning eng kenja viloyati bo'lgan Navoiy 1982 yilda Buxoro va Samarqand viloyatlari tumanlari negizida vujudga keldi. SHunday qilib, respublikada viloyatlar soni 12 taga etdi.

1988 yilda viloyatlar soni yana 10 taga tushib qoldi. Jizzax viloyati Sirdaryo viloyati tarkibiga qo'shib yuborildi. Navoiy viloyati tumanlari Buxoro va Samarqand viloyatlariga bo'lib berildi. Lekin tezda ushbu ma'muriy chegaralar yana o'z holiga qaytarildi: 1989 yilda Jizzax viloyati, 1992 yilda esa Navoiy viloyati qaytadan tiklandi.

Bunday o'zgarishlar mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining muayyan bosqichidagi ob'ektiv zarurat, ba'zan esa masalaga sub'ektiv yondoshuvlar natijasida ro'y beradi.

### **3.2. O'zbekiston ma'muriy-hududiy bo'linishining hozirgi holati**

Hozirgi paytda mamlakatimiz ma'muriy jihatdan 14 mintaqaga (Toshkent shahri, 12 viloyat va qoraqalpog'iston Respublikasi) bo'lingan. O'z navbatida ushbu mintaqalarda 119 shahar, 113 shaharga 159 qishloq tumanlari, 1464 qishloq fuqarolik kengashlari 11838 qishloq aholi punktlari va 7801 mahalla yig'inlari mavjud. Toshkent shahri tarkibida 11 ta shahar tumanlari joylashgan (jadvalga qarang). Mamlakat maydonini ma'muriy-hududiy birliklarga ajratish chog'ida tabiiy sharoit, xo'jalik ixtisoslashuvi, aholining tarixiy shakllangan an'analari, mintaqaning siyosiy va harbiy jihatdan ahamiyati va boshqa juda ko'plab omillar hisobga olinadi. Aholi soni va hudud maydoni - ushbu omillar orasida eng asosiylaridan bo'lib hisoblanadi. Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida bu ko'rsatkichlar bo'yicha alohida mintaqalar orasida tafovutlarning ortib ketishiga yo'l qo'ymaslik - mintaqaviy siyosatning o'zagini tashkil etadi.

Mamlakatimiz ma'muriy-hududiy birliklari orasida aholi soni bo'yicha farq 3,5 martani (Samarqand va Navoiy viloyatlari), hudud maydoni bo'yicha esa 39,7 martani (qoraqalpog'iston Respublikasi va Andijon viloyati) tashkil etadi.

Ma'muriy-hududiy birliklar soni bo'yicha ham turli mintaqalar o'rtasida muayyan tafovutlar mavjud. Jumladan, Toshkent viloyati shaharlar (16ta) va shaharga (18ta), Farg'ona viloyati qishloq fuqarolik kengashlari (164ta) soni bo'yicha eng yuqori o'rinlarni egallasalar, Samarqand viloyati qishloq aholi punktlarining (1935ta) soniga ko'ra hammadan oldinda turadi. Bunday tafovutlarni ayrim tumanlar misolida ham ko'rish mumkin. Masalan, qishloq fuqarolik kengashlarining (20ta) soni bo'yicha qashqadaryo viloyati CHiroqchi tumani, qishloq aholi punktlarining (266 ta) soni bo'yicha esa Buxoro viloyati /ijduvon tumani respublikada eng yuqori o'rinlarni egallaydilar.

Mamlakatimizdagi mavjud ma'muriy-hududiy birliklarni ierarxiya tizimiga ko'ra 3 bo'g'inga ajratish mumkin:

*yuqori bo'g'in* - Toshkent shahri, 12 viloyat va qoraqalpog'iston Respublikasi;

*o'rtta bo'g'in* - viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar, qishloq va shahar tumanlari;

*quyi bo'g'in* - tumanga bo'ysunuvchi shaharlar, shaharga, qishloq fuqarolik kengashlari va mahalla yig'inlari.

Mamlakatning ma'muriy-hududiy bo'linishida shaharlar muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda shaharlar respublikaga bo'ysunuvchi, viloyatga bo'ysunuvchi va tumanga bo'ysunuvchi shaharlar toifalariga ajratiladi. SHaharlarning toifalari asosida ularning huquqiy holati belgilanadi, u erlarda shunga mos keladigan davlat idoralari tashkil etiladi, xalq xo'jaligining turli yo'nalishlari bo'yicha rahbarlikni amalga oshiruvchi tashkilotlar to'ziladi.

### **3.3. O'zbekiston shaharlari**

Hozirgi paytda respublikamizda 119 ta shahar mavjud. SHu jumladan:

1 ta respublikaga bo'ysunuvchi shahar; 29 ta viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar; 89 ta tumanga bo'ysunuvchi shaharlar.

Respublikaga bo'ysunuvchi shaharlar qatoriga yirik iqtisodiy, madaniy va ma'muriy markazlar kiradi. Bunday shaharlarda yashagan aholi soni 500 mingdan ortiq bo'lishi shart. Toshkent - respublikaga bo'ysunuvchi shaharlar toifasiga mansub bo'lgan mamlakatimizdagi yagona shahar hisoblanadi.

Viloyatga, respublikaga (+R) bo'ysunuvchi shaharlar jumlasiga muhim sanoat ahamiyatiga molik iqtisodiy va madaniy markaz hisoblangan hamda aholisi 30 mingdan kam bo'lmagan shaharlar kiradi. Ba'zi sabablarga ko'ra ya'ni sanoat va madaniy-siyosiy jihatdan alohida ahamiyatga ega bo'lgan hamda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini hisobga olgan holda ayrim shaharlar aholisi 30 mingdan kam bo'lsa ham viloyatga bo'ysunuvchi shaharlar qatoriga kiritiladi. Bular jumlasiga SHirin (Sirdaryo viloyati), Xonobod (Andijon viloyati) shaharlarini kiritish mumkin.

**O'zbekiston Respublikasi mintaqalarining ma'muriy-hududiy bo'linishi**  
**1.07.2004 yil holatiga**

<b>Mintaqalar</b>	<b>ma'muriy-hududiy birliklar soni</b>							
	<b>Viloyatga</b>	<b>qishloq tumanlari</b>	<b>shaharlar tarkibi dagi tumanlar</b>	<b>tuman ga bo'ysunuvchi shaharlar</b>	<b>shaharchalar</b>	<b>qishloq fuqarolik kengashlari</b>	<b>qishloq aholi punktlari</b>	<b>mahalla yig'inlari</b>
<i>nomi</i>	<b>Bo'ysunuvchi SHaharlar</b>							

qoraqalpog'iston

Respublikasi	2	14	-	10	16	123	1183	159
--------------	---	----	---	----	----	-----	------	-----

viloyatlar:

Andijon viloyati	3	14	-	8	5	95	536	844
------------------	---	----	---	---	---	----	-----	-----

Buxoro viloyati	2	11	-	9	2	121	1536	264
-----------------	---	----	---	---	---	-----	------	-----

Jizzax viloyati	1	12	-	6	8	104	558	277
-----------------	---	----	---	---	---	-----	-----	-----

Navoiy viloyati	2	8	-	4	7	54	627	343
-----------------	---	---	---	---	---	----	-----	-----

Namangan viloyati	1	11	-	7	11	99	509	640
-------------------	---	----	---	---	----	----	-----	-----

Samarqand viloyati	2	14	-	9	12	125	1949	1018
--------------------	---	----	---	---	----	-----	------	------

Sirdaryo viloyati	3	8	-	2	5	72	284	287
-------------------	---	---	---	---	---	----	-----	-----

Surxondaryo viloyati	1	14	-	7	7	114	847	667
----------------------	---	----	---	---	---	-----	-----	-----

Toshkent viloyati	6	15	-	9	18	146	954	1202
-------------------	---	----	---	---	----	-----	-----	------

Farg'ona viloyati	4	15	-	5	10	164	1180	968
-------------------	---	----	---	---	----	-----	------	-----

Xorazm viloyati	1	10	-	2	7	101	612	345
-----------------	---	----	---	---	---	-----	-----	-----

qashqadaryo viloyati	1	13	-	11	4	146	1063	339
----------------------	---	----	---	----	---	-----	------	-----

Toshkent shahri	-	-	11	-	1	-	-	448
-----------------	---	---	----	---	---	---	---	-----

<b>Respublika bo'yicha</b>	<b>29</b>	<b>159</b>	<b>11</b>	<b>89</b>	<b>113</b>	<b>1464</b>	<b>11838</b>	<b>7801</b>
----------------------------	-----------	------------	-----------	-----------	------------	-------------	--------------	-------------



Ushbu toifaga mansub shaharlarni tashkil etish bo'yicha ayrim muammolar mavjud. Respublika Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 30 sentyabrdagi 459-sonli qaroriga binoan mamlakat bo'yicha viloyatlarga bo'ysunuvchi 19 ta shahar qoldirilib, qolgan barchalari tumanga bo'ysunuvchi shaharlar toifasiga o'tkazildi. Ular orasida aholisining soni 60 ming kishidan ham ortiq bo'lgan SHahrihon (59,1 ming), CHust (61,5 ming), Xo'jayli (70 ming), Denov (64 ming) kabi shaharlarning mavjudligi bu sohada yangicha yondoshuvlar zarurligini ko'rsatmoqda. Ayniqsa, 90 ming kishi istiqomat qiladigan, Markaziy Osiyoning madaniy markazlaridan biri hisoblangan SHahrisabz shahri boshqaruvning huquqiy va iqtisodiy richaglardan mahrumligi uning taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tumanga bo'ysunuvchi shaharlar qatoriga sanoat korxonalari, kommunal xo'jaligi, ko'p qavatli turarjoy binolari, ijtimoiy-madaniy tashkilotlar, savdo-sotiq va umumiy ovqatlanish, maishiy xizmat ko'rsatish korxonalari mavjud bo'lgan hamda aholisi 7 mingdan kam bo'lmagan aholi punktlari kiradi. Bunday shaharlardagi aholining uchdan ikki qismidan ko'npog'i ishchi va xizmatchilardan iborat bo'lmog'i lozim.

O'zbekistonda aholi punktlariga shahar maqomini berish mahalliy hokimiyat organlarining takliflariga muvofiq, respublika Oliy Majlisi tomonidan hal etiladi.

### **3.4. Xududiy va mahalliy hokimiyat organlarining isloh qilish yo'llari.**

Tez o'zgarib borayotgan dunyoda hayot voqeyligi turmushning barcha sohalarini isloh qilishni taqozo etmoqda. Respublikamizda amalga oshirilayotgan ma'muriy islohotlar bundan mustasno emas.

Buning uchun qator me'yoriy hujjatlar, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida»gi qonun qabul qilindi. Ushbu qonun hududiy darajada davlat hokimiyati shakillanishining, joylarda ijro hokimiyatining negizlarini mustahkamlashning asosiga aylandi. Hududiy hokimiyat organlariga ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish vazifalarini amalga oshirish, joylarda Oliy majlis qonunlarini, boshqa qarorlarini; Prezident va Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan xujjatlarni, halq deputatlari Kengashlari va xokimlarning qarorlarini bajarish, O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan



fuqorolarning o'zini – o'zi boshqarish organlari o'rtasidagi aloqani yo'lga qo'yish, viloyat, tuman va shaharni boshqarishga aholini jalb etish yuklandi.

Xududiy boshqaruv organlari faoliyatini kompleks tahlil etishda davlat boshqaruvida hamon eski ma'muriy-buyruqbozlik tizimi qoliplari saqlanib qolinayotganligi e'tirof etildi. Eng avvalo, bu hokimiyat vakolatlarini amalga oshirish istagida – hech kimga naf keltirmaydigan va keraksiz turli-tuman buyruqlar, yo'riqnomalar, ko'rsatmalar, me'yoriy hujjatlar chiqarishda kuzatildi. Hanuzgacha korxonalarining xo'jalik faoliyatiga bevosita aralashuvdan kadrlar masalasini hal etish va uni to'g'ridan-to'g'ri boshqarishdan voz kechilgani yo'q.

Davlatimiz raxbari tomonidan ishlarning ahvoriga haqiqiy baho berildi: «... hozirgi kunda barcha darajada mavjud davlat, tarmoq va hududiy boshqaruv tizimi olib borilayotgan iqtisodiy va demokratik islohotlar yo'lida katta to'siq bo'lib turibdi». Ma'muriy islohotlarni izchil davom ettirish zarurligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 18 iyuldagi majlisidagi ma'ruzasida ifodalab berilgan.

SHu munosabat bilan Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 5 yanvardagi 2-qarorini qabul qilinishi hududiy boshqaruv organlarini isloh qilishning muhim bosqichi hisoblanadi. Ushbu qaror mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ma'muriy islohotlarning uzviy qismidir.

Mazkur qarorda belgilangan qoidalardan kelib chiqib, umuman respublika bo'yicha viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimliklarida va mahalliy korxonalarda 5991 nafar boshqaruv apparati o'rni qisqartirildi. Viloyat hokimliklarida 53 nafar boshqaruv hodimi, tuman va shahar hokimliklarida – 447 va mahalliy bo'sunishdagi korxonalarda 5508 o'rin qisqartirildi. Bundan tashqari, xududiy boshqaruv samaradorligini oshirish maqsadida beshta shaharda (Samarqand, Buxoro, Farg'ona, Namangan, Navoiy) sakkizta tuman tugatildi, bu erda tuman hokimliklari va hududiy boshqaruv organlari yopildi. Ular: Siyob, Bog'ishamol, Temiryo'l, Fayzulla Xo'jaev, To'qmachilik, Qirguli, Davlatobod va Karmana tumanlaridir. Ularning vazifalari yuqorida turuvchi shahar hokimliklari va funksional boshqaruv organlariga berildi.

Hududiy xokimiyat organlarini ma'muriy isloh qilish qaysi yo'nalishda amalga oshirilmoqda? Bulardan biz qanday real natijalar kutmoqdamiz?

1. Bugunning o'zidayoq iqtisodiyotni boshqarishda davlatning o'rni keskin kamayganligi sezilarlidir. Joylardagi davlat boshqaruvi tuzilmalari va davlat boshqaruv organlarini ta'minlash xarajatlari qisqardi.

2. Islohotlar amalga oshirilishi joylardagi mavjud ishlar ahvoli, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal etish, ish bilan ta'minlash va odamlarning farovonligini oshirish uchun barcha darajadagi hokimliklarning mas'uliyati oshirildi.

Ushbu yo'nalishda bugunning o'zidayoq muayyan qadamlar qo'yildi ya'ni ayrim vazifalar hududlarga berildi. Ortiqcha vertikal ma'muriy tuzilmalar tugatildi. Bizning fikrimizcha, davlat xizmatchilarining samarali ishlashi ma'muriy islohotlarning mohiyatini tashkil etish zarur. Agar sening xududing, sening xizmat joyingda ishlar yaxshi borsa, bu erda yashovchi aholining farovonligi ham o'sishi kerak. Ish samaradorligini davlat xizmatchilarining o'zi emas, balki fuqoro baholashi zarur.

### **Qisqacha xulosalar**

Hozirgi paytda mamlakatimiz ma'muriy jihatdan 14 mintaqaga (Toshkent shahri, 12 viloyat va qoraqalpog'iston Respublikasi) bo'lingan. O'z navbatida ushbu mintaqalarda 119 shahar, 113 shaharcha, 159 qishloq tumanlari, 1464 qishloq fuqarolik kengashlari 11838 qishloq aholi punktlari va 7801 mahalla yig'inlari mavjud.

## ***Nazorat va muhokama uchun savollar***

1. 1945 yilga qadar O'zbekiston mintaqalarining ma'muriy-hududiy tarkibi qanday bo'lgan?
2. Hozirgi paytda respublika ma'muriy-hududiy tarkibi qanday?
3. Aholi punktlariga shahar maqomini berish chog'ida qanday mezonlarga amal qilinadi?
4. Ma'muriy – xududiy birliklar soni bo'yicha turli mintaqalar o'rtasida qanday tafovutlar mavjud?
5. Ma'muriy-xududiy birliklarni qanday uchta bo'g'inga ajratish mumkin?
6. O'zbekistonda aholi punktlariga shahar maqomini berish qaysi organlar tomonidan amalga oshiriladi?
7. Hududiy va mahalliy xokimiyat organlarini isloh qilish qanday amalga oshiriladi?
8. Hududiy xokimiyat organlarini ma'muriy isloh qilish qaysi yo'nalishda amalga oshiriladi?

## ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Obzor sosialno-ekonomicheskogo razvitiya regionov Respubliki O'zbekistan. Jurnal Ekonomicheskoe obozrenie №8-9, 2001.
2. S.A. Tarxov Izmeneniya administrativno-territorialnogo deleniya postsovetskogo prostranstva//Geografiya, № 34/99, s. 1.
3. Mintaqaviy iqtisodiyot, O'zbekiston Milliy universitet. 2003.
4. S.A. Tarxov Izmeneniya administrativno-territorialnogo deleniya stran SNG. [http://www.tur-02.h1.ru/links/html/main\\_SMI\\_Gazeta\\_centralanae\\_Geografia.html](http://www.tur-02.h1.ru/links/html/main_SMI_Gazeta_centralanae_Geografia.html)

## **4-BOB. ISHLAB CHIQUARUVCHI KUCHLARNI JOYLASHTIRISHNING (ICHKJ) NAZARIY ASOSLARI**

### **4.1. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bo'yicha xorijiy nazariyalar**

O'tish davrini boshidan kechirayotgan, o'zlarining mustaqil mintaqaviy siyosatini joriy etayotgan mamlakatlar, jumladan, O'zbekiston uchun xorijiy olimlar va mintaqashunos mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan ishlab chiqarishni joylashtirishning nazariy asoslari muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Ular chuqur ilmiy izlanishlarga, boy tajribaga va mintaqaviy ekspertizalarga asoslangan.

Ishlab chiqarishni joylashtirish bo'yicha nazariyalar orasida I. Tyunen va, A. Veberning «Standartlar nazariyasi», A.Leshning «Bozor mintaqasi nazariyasi», V. Kristallerning «Markaziy o'rin nazariyasi», F.Perruning «O'sish qutblari va rivojlanish markazlari nazariyasi» kabilar muhim o'rin egallaydi.

SHtandortlar nazariyasiga muvofiq sanoatni joylashtirish quyidagi omillar orqali aniqlanadi:

- korxonalarini joylashtirishda transport xarajatlarini hisobga olish orqali amalga oshiriladi;
- korxonalarini joylashtirishda arzon ishchi kuchini hisobga olish orqali amalga oshiriladi;
- korxonalar sanoat rayonlari va uzellarida joylashtiriladi.

Ushbu nazariyada transport xarajatlari omili etakchi rol o'ynaydi. Xom ashyo va materiallarning transportabelligi xarajatlarga ta'sir ko'rsatadi va shu bilan bo'lg'usi korxonaning joyini aniqlaydi.

O'zbekiston sharoitida, tashqi bozorga chiqish transport xarajatlariga ko'p jihatdan bog'liq. SHuning uchun mazkur omil transportni kam talab etadigan, xom ashyoni qayta ishlab tayyor mahsulot ishlab chiqaradigan sohalarni rivojlantirishni taqozo etadi. Markazdan uzoqda joylashgan mintaqalar - qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Surxondaryo viloyatlari korxonalarida transport xarajatlari mahsulot tannarxi tarkibida katta o'rin egallaydi. SHuning uchun transport omili mazkur mintaqalar uchun muhim ahamiyatga ega.

Arzon ishchi kuchi va aglomerasiya omiliga asoslangan ikkinchi va uchinchi yo'nalishlar mamlakatimiz uchun xarakterli bo'lib,

mehnatni ko'p talab etadigan tarmoqlarni joylashtirish hamda sanoat rayonlari, zonolari va uzellarini tashkil etishni rag'batlantirish uchun xizmat qiladi. Respublikamizning deyarli barcha mintaqalari ishchi kuchini ko'p talab etadigan tarmoqlarni joylashtirish uchun etarli mehnat resurslariga ega.

A.Leshning «Bozor zonasi nazariyasi»ga muvofiq, ob'ekt qurilishi uchun joy tanlashda foyda, soliq, demping, bojxona to'lovlari va boshqa bozor indikatorlari muhim omil sifatida ishtirok etadi. Muallif, iqtisodiy-matematik modellardan foydalangan holda, mahsulot sotilish radiusini aniqlaydi va bunga ko'ra, radiusdan tashqarida mahsulot sotish iqtisodiy jihatdan o'zini oqlamaydi.

A.Lesh mintaqani muayyan chegaraga ega bo'lgan va mintaqalararo raqobatga tortilgan bozor sifatida ko'radi. Bunda hududga mutlaqo bir jinsli va bir qiymatli bo'shliq sifatida qaraladi hamda faqat ikki omil: ishlab chiqarishni bir joyda to'planishining samarasi va mahsulotni iste'molchiga etkazishning hudud bo'ylab tekis taqsimlangan transport xarajatlari hisobga olinadi.

«Bozor zonasi nazariyasi» o'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlar, xususan MDH davlatlari iqtisodiyotida hozircha etarli darajada qo'llanilmayapti. O'zbekistonda sanoat korxonalarini joylashtirishda bozor indikatorlaridan foydalanilmayotir.

V. Kristaller «Markaziy o'rin nazariyasi»ning asoschisidir. U matematik hisob-kitoblar orqali hududiy ierarxiya bir darajadan boshqa darajaga to'g'ri geometrik progressiya orqali o'tishini isbotladi. Masalan, viloyat bir necha tumanlardan, o'z navbatida tumanlar ko'plab qishloq fuqarolari yig'inlaridan iborat. Har bir qishloqqa o'ziga tegishli bo'lgan tovar va xizmatlar yo'naltirilgan. SHunday qilib, olim aholi punktlari guruh tizimini tashkil etishning optimal variantini aniqlash orqali markaziy o'rinlar nazariyasini yaratdi. Mazkur nazariya asosida bozor mintaqasining eng samarali tuzilmalarini, tovar va xizmatlar harakatining oqilona yo'nalishlarini, shahar va aholi punktlari boshqaruvi ma'muriyatining optimal tuzilmasini shakllantirishni aniqlash mumkin.

## **4.2. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyatlari**

Bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda muayyan qonuniyatlar namoyon bo'lmoqda. Ular muayyan tarixiy bosqichda ijtimoiy taraqqiyot qonunlarining o'zaro harakati natijasida shakllanadi.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyatlari ishlab chiqarish kuchlari va hududlar o'rtasidagi umumiy munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy rivojlanishning hozirgi bosqichida ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirishda ishlab chiqarishning yuqori samaradorligiga, maksimal daromad olish imkoniyatlariga katta e'tibor berish lozim. Ayni paytda, tabiiy-resurs salohiyatlaridan tejamkorlik bilan foydalanish, ekologik sharoitni yaxshilash masalalari ham hisobga olinadi.

Bozor sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy qonuniyatlari quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish kuchlarini oqilona va samarali joylashtirish;
- mintaqalarni kompleks rivojlantirish;
- mintaqalar o'rtasidagi hududiy mehnat taqsimoti;
- mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini tenglashtirish.

*Ishlab chiqarish kuchlarini oqilona va samarali joylashtirish* deganda mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini minimal holatga keltirish va ishlab chiqarishning barcha (tayyor mahsulotgacha bo'lgan) bosqichlarini muayyan hududga joylashtirish tushuniladi. Mamlakatimizning turli hududlari tabiiy resurslar zahiralarning miqdori, komponentlarning tarkibi, geologik salohiyatlariga ko'ra o'zaro farq qiladi. Bunda ishlab chiqarishning xom ashyo, yoqilg'i, energiya va iste'mol manbalariga yaqinligini ta'minlaydigan transport omili katta ahamiyatga ega.

Kooperasiyalashtirish va kombinatlashtirish hamda chiqindisiz texnologiyalarni ishlab chiqarishga jalb etish ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning muhim shartlaridan hisoblanadi.

*Mintaqalarni kompleks rivojlantirish* uchun bozor infratuzilmasi elementlari, ishlab chiqarish tarmoqlari, aholi ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq sohalar hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma

tarmoqlarining mushtarakligiga erishish lozim. Mintaqalar xo'jaligining kompleksligi turli tarmoqlar va sohalar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni kuchaytirishni taqozo qiladi.

*Mintaqalar o'rtasida hududiy mehnat taqsimoti* bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirishning muhim shartlaridan hisoblanadi. Mintaqalarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, tabiiy-resurs salohiyati, tarixiy va demografik xususiyatlariga ko'ra o'zaro farq qiladi. SHuning uchun har bir mintaqa faqat o'zigagina xos bo'lgan xususiyatlar asosida muayyan sohaga ixtisoslashadi va iqtisodiy aloqalar asosida boshqa mintaqalar bilan mahsulot ayirboshlaydi.

Xo'jalik yuritishning yangi sharoitida mintaqalar orasida hududiy mehnat taqsimotini yanada takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Bunda hukumat va alohida hududlar manfaatlarining mushtarakligi hisobga olinishi, turli ma'muriy-hududiy birliklar resurslarining umumlashtirilishi lozim.

*Mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini tenglashtirish.* Bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatning barcha mintaqalari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini tenglashtirish katta ahamiyatga ega. Hozirgi bosqichdagi muhim vazifalardan biri, hukumat tomonidan alohida e'tiborga molik mintaqalar belgilanib, ularning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini ta'minlash uchun davlat byudjetidan qo'shimcha mablag'lar ajratilishi va aniq rejalar tuzishdan iborat.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyatlari bozor iqtisodiyotining rivojlanishi qonunlarida namoyon bo'ladi. Ular o'zaro ajralmagan holda rivojlanadi va bir-birlarini taqozo qiladi.

### **4.3. Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish tamoyillari**

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyatlari bilan birgalikda ularni joylashtirish tamoyillari ham katta ahamiyatga ega. Joylashtirish tamoyillari mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muayyan davri mobaynida ishlab chiqarish hududiy taqsimotida namoyon bo'ladi. Ushbu tamoyillarni xo'jalik yuritish usullari sifatida ko'rib chiqishimiz mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarishni joylashtirish tamoyillarini davlat iqtisodiy siyosatining o'ziga xos ilmiy nizomi sifatida tushunish mumkin.

Turli mamlakatlarda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish tamoyillari bozor iqtisodiyotining rivojlanish modelini o'rganish va tajribalaridan foydalanish asosida shakllanadi va rivojlanadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki bosqichida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda quyidagi tamoyillari ajralib turadi:

- ishlab chiqarishning energiya, xom ashyo, yoqilg'i manbalariga va iste'mol mintaqalariga yaqinlashuvi;
- tabiiy resurslarning eng samarali turlarini o'zlashtirish va ulardan kompleks foydalanish;
- ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish, tabiatni muhofaza qilish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni ko'rish va tabiatdan oqilona foydalanish;
- xalqaro mehnat taqsimotining iqtisodiy qulayliklaridan foydalanish, xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarni tiklash va rivojlantirish;
- korxonalarni va infratuzilma ob'ektlarini joylashtirishda favqulodda holatlarni (er qimirlashi, suv bosishi, tog' va jarliklarning surilishi, sel va h.k.) hisobga olish.

Ishlab chiqarishni energiya, xom ashyo, yoqilg'i manbalariga va iste'mol mintaqalariga yaqinlashtirish tamoyili amalga oshirilganda uzoq masofaga yuk tashishni va ishlab chiqarish jarayonidagi xarajatlarni kamaytirish bilan bog'liq muammolar echiladi. Bu o'z navbatida iqtisodiy samaradorlikning o'sishiga olib keladi.

Ayniqsa, energiyani ko'p talab etadigan korxonalarining yoqilg'i va energiya manbalariga yaqin bo'lishi katta ahamiyatga ega (masalan, rangli metallurgiya yoki kimyo sanoati tarmoqlari). Xom ashyo manbalariga material ko'p talab qiluvchi sanoat tarmoqlari yaqin joylashadi (qora metallurgiya, og'ir mashinasozlik). Engil va oziq-ovqat sanoat tarmoqlari mahsulotlarini ishlab chiqarish iste'mol mintaqalariga, fanga ehtiyoj sezuvchi tarmoqlar esa yuqori malakali mehnat resurslari bilan ta'minlangan mintaqalarga yaqinlashadi.

Bozor sharoitida ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish jarayonida mintaqalarda tabiatdan foydalanish muammosi dolzarb bo'lib turibdi. Hozirgi paytda tabiatga zarar keltirish, ekologik toza bo'lmagan mahsulot ishlab chiqarish, tabiiy resurslarni dunyo narxlaridan ko'ra arzoniga sotish kabi iqtisodiy mas'uliyatsizlik illatlari bartaraf etilishi zarur. Iqtisodiy holatni yaxshilash, tabiatdan samarali foydalanishga erishish uchun quyidagi iqtisodiy dastaklar lozim:



- ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish va rivojlantirish doirasida mintaqalar va ekotizimlar bo'yicha ekologik cheklashlar tizimining qonuniy va me'yoriy asosini yaratish;
- takror ishlab chiqarish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni rag'batlantiruvchi ekologik soliq va tabiatdan foydalanganlik uchun to'lovlar tizimini kiritish;
- tabiiy resurslar iste'molini, ifloslantiruvchi moddalarning chiqarib tashlanishini cheklash, chiqindilarni joylashtirish, shuningdek tabiiy resurslardan samarali va kompleks foydalanish ko'rsatkichlari tizimini shakllantirish.

Keyingi yillarda xalqaro mehnat taqsimotiga, xorij davlatlari bilan aloqalarga suyanib, mamlakatimizdagi mavjud iqtisodiy qulayliklardan foydalanish katta ahamiyat kasb etmoqda.

Ma'lumki, har qanday mamlakat ishlab chiqarish kuchlarining joylashtirilishi xalqaro mehnat taqsimoti doirasida amalga oshirilishi lozim. Bunday holatda davlatlar o'rtasidagi aloqalar teng huquqlik, ishonch, o'zaro manfaat va mustaqillikni saqlab qolish tamoyillari asosida qurilishi kerak. Xorijiy mamlakatlar bilan hamkorlik ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining va mavjud resurslardan foydalanishning to'la, oqilona va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Xalqaro mehnat taqsimoti xo'jalikning tarmoq va mintaqaviy tizimiga, ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashuviga katta ta'sir ko'rsatadi. Xorij davlatlari bilan hamkorlik avvalambor hukumatlararo to'ziladigan ikki tomonlama kelishuv asosida amalga oshiriladi.

Hozirgi sharoitda birgalikda moliyalashtirish va xo'jalik ob'ektlarini qurish, qo'shma korxonalar tuzish, moliya va bank sohalarida hamkorlik qilish, kompensasion asosda hamkorlik qilish, tashqi savdo kabi iqtisodiy hamkorlikning turlari katta ahamiyatga egadir.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishda boshqa tamoyillar ham hisobga olinadi, masalan, katta shaharlarning o'sishini boshqarish tamoyili, kichik va o'rta shaharlar rivojlanishini faollashtirish va boshqalar.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyatlari va tamoyillari bilan birgalikda nazariy jihatdan ishlab chiqarishning lokalizatsiyasini aniqlab beradigan, ba'zi xo'jalik tarmoqlarining joylashuviga, turli toifadagi mintaqaviy komplekslarning iqtisodiy rayonlar, viloyatlar va tumanlardagi hududiy ishlab chiqarish

majmualari (HIM) shakllanishiga ta'sir etadigan omillar ham katta ahamiyatga ega.

### ***Qisqacha xulosalar***

Ishlab chiqarishni joylashtirish bo'yicha nazariyalar orasida I. Tyunen va, A. Veberning «Standartlar nazariyasi», A.Leshning «Bozor mintaqasi nazariyasi», V. Kristallerning «Markaziy o'rin nazariyasi», F.Perruning «O'sish qutblari va rivojlanish markazlari nazariyasi» kabilar muhim o'rin egallaydi.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning asosiy qonuniyatlari quyidagilardan iborat:

- ishlab chiqarish kuchlarini oqilona va samarali joylashtirish;
- mintaqalarni kompleks rivojlantirish;
- mintaqalar o'rtasidagi hududiy mehnat taqsimoti;
- mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini tenglashtirish.

Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning quyidagi muhim tamoyillari mavjud:

- ishlab chiqarishning energiya, xom ashyo, yoqilg'i manbalariga va iste'mol mintaqalariga yaqinlashuvi;
- tabiiy resurslarning eng samarali turlarini o'zlashtirish va ulardan kompleks foydalanish;
- ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish, tabiatni muhofaza qilish bo'yicha samarali chora-tadbirlarni ko'rish va tabiatdan oqilona foydalanish;
- mehnat taqsimotining iqtisodiy qulayliklaridan foydalanish, xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarni tiklash va rivojlantirish.

### ***Nazorat va muhokama uchun savollar***

- 1 F.Perruning «O'sish qutblari va rivojlanish markazlari nazariyasi»ning mohiyatini tushuntirib bering.
- 2 Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning qanday asosiy qonuniyatlari mavjud?
- 3 Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning muhim tamoyillaridan qaysilarini bilasiz?
- 4 Ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishda qanday omillar hisobga olinadi?
- 5 Ishlab chiqarish kuchlarini oqilona va samarali joylashtirish deganda nimani tushunasiz?

- 6 Xududlar o'rtasidagi mehnat taqsimoti nima?
- 7 Xalqaro mehnat taqsimoti doirasida ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish qanday amalga oshiriladi?
- 8 Ishlab chiqarish lokalizatsiyasi nima?

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Obzor sosialno-ekonomicheskogo razvitiya regionov Respubliki O'zbekistan. Jurnal Ekonomicheskoe obozrenie №8-9, 2001.
2. Mintaqaviy iqtisodiyot, O'zbekiston Milliy universiteti 2003.
3. Regionalnaya ekonomika pod redaksii T.G. Morozovoy YUNITI Moskva 2000
4. M.Raximova Mintaqa va mahalliy xo'jalik iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. – T.: 2004
5. Regionalnaya ekonomika. Osnovnoy kurs: Uchebnik / Pod red. V.I.Vidyapina, M.V. Stepanova. – M.: INFRA-M, 2005. – 686 s.

## **5-BOB. MIKTAQALAR AHOLISI VA MEHNAT RESURSLARI**

### **5.1. O'zbekiston mintaqalarining demografik holati**

Har bir o'lka, hudud, viloyat yoki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi avvalo, shu joyda yashovchi aholining mehnat faoliyatiga bog'liq. Mahalliy aholining mehnat madaniyati, jamoa ishlaridagi ijtimoiy faolligi, bilim va malakalari, oilaviy tarkibi, yoshi va jinsi shu o'lkada iqtisodiy taraqqiyotning rivojlanshida katta rol o'ynaydi. 1960–1990 yillarda mamlakat aholisi 8,4 mln.dan 20 mln.dan ortiqroqqa yoki 2,8 marta ko'paygan.

1990 yilda aholi 20,3 mln. kishidan iborat bo'lgan bo'lsa, 2004 yilga kelib, 25,8 mln. kishiga etdi. Aholining tabiiy ko'payishi har 1000 kishiga 22,8 kishini tashkil etdi. Ayni vaqtda aholining yillik tabiiy o'sishi shaharda 0,8 foizdan, qishloqda esa 2,7 foizdan iborat. 2004 yilda respublika bo'yicha aholining har ming nafari hisobiga tug'ilganlar 20,4 kishini, o'lganlar 5,3 kishini tashkil etdi. O'zbekiston aholisining 2002 yilda 25115,8 ming, 2004 yilda 25812 ming nafari (63,3 %) qishloqlar hissasiga to'g'ri keladi. Umuman, O'zbekistondagi demografik vaziyat quyidagi xususiyatlari bilan xarakterlanadi: respublikada tug'ilishning mutlaq miqdori 6 foizga; shahar joylarda 3,7 foizga qisqardi; tug'ilishlar o'rtasidagi yillar uzunligi ortdi; yoshi 35 dan yuqori bo'lgan ayollar o'rtasida homiladorlik holatlari kamaydi; migrasiya qisqardi.

Keyingi yillarda aholining migrasion harakatlanishi susayishi natijasida qishloq aholisi soni birmuncha ortdi. Bu jarayon ayniqsa, Farg'ona vodiysi viloyatlarida yaqqol ko'zga tashlandi. Hududlarda aholining tabiiy o'sish darajasi differensiyalashadi:

– o'lim asosan keksalar hisobiga ortdi. 1999 yilda 130,6 ming kishi o'lgan bo'lsa, bu boradagi ko'rsatkich 2004 yilda 9,9 ming kishiga ortdi;

– tug'ilish koeffisienti asosan shahar aholisi o'rtasida tez pasaymoqda, qishloq aholisi o'rtasida esa sekinlik bilan bormoqda.

Respublikada o'tgan asrning 90-yillarida boshlangan o'rtacha bolalik jarayoni deyarli shakllanib bo'ldi, kam farzandlilik jarayonini to'la shakllantirish uchun esa 20 – 25 yil kerak va u 2020 – 2025 yillarda yakunlanadi.

Xullas, aholining kengaytirilgan takror ishlab chiqilishi (tug'ilishning o'limdan ko'pligi) natijasida mehnat resurslari soni

ko'payadi. Ayrim hududlarda inson resurslarining miqdoriga aholi migrasiyasi ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Demografik omilning o'zgarib borishi global muammo bo'lib, u ko'p jihatdan jamiyatning holati va rivojlanishini belgilaydi.

2000 yilda sayyoramiz aholisining soni 6 milliard kishidan oshdi. Ko'payish sur'ati birmuncha qisqarayotganligiga qaramay, uning o'sish jarayoni davom etmoqda va 2050 yilga borib, 12 milliard kishiga etishi mo'ljallanmoqda.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitlarida aholi soni ancha kamaygan. MDHning Belorussiya, Ukraina va Qozog'iston kabi mamlakatlaridan farqli o'laroq, O'zbekistonda aholi soni oshib bormoqda. Bu erda tug'ilish, tabiiy ko'payishning nisbatan yuqori koeffisientlari va o'limning past koeffisienti saqlanib qolmoqda. An'anaviy ko'p farzandli oiladan o'rtacha farzandli oilaga o'ziga xos yo'l bilan demografik o'tish ro'y bermoqda.

5.1-jadvald O'zbekistonning asosiy demografik ko'rsatkichlari a keltirilgan. Undan ko'rinib turibdiki, 1897 yilda O'zbekiston hududida atigi 3,9 mln. kishi yashar edi, ya'ni o'tgan 100 yildan sal ko'proq vaqt mobaynida bu erda aholi 6,3 baravar ko'paydi. XX asrda O'zbekiston aholisining soni bir tekis oshgani yo'q. Uning dastlab ikki hissa ko'payishi salkam 60 yil davomida, keyingi ikki hissa ko'payishi esa 20 yil ichida ro'y berdi. Respublika aholisi 2001 yilning oxiriga kelib, 1980 yildagiga nisbatan 1,6 baravar ko'payishi kutilgan edi. Aholining uchinchi marotaba ikki hissa ko'payishi esa yuzaga kelgan ko'payish sur'atini saqlangan taqdirda XXI asrning ikkinchi o'n yilligi oxirida ro'y berishi kutilmoqda.

Aholi ko'payishi bilan uning zichligi ham ancha oshmoqda. 1940 yilda har kv.km.ga 14,6 kishi to'g'ri kelgan bo'lsa, 2000 yilda 54,1 kishi to'g'ri keldi (zichlik 3,7 baravar oshgan). Hozirgi vaqtda O'zbekistonning 14 ta hududiy bo'linmasidan 10 tasi, shu jumladan, Toshkent shahri aholi zich bo'lgan hududiy bo'linmalar jumlasiga kiradi.

Vaholanki, ular O'zbekiston hududining atigi choragini, aholi uncha zich bo'lmagan to'rtta viloyat esa to'rtidan uch qismini egallagan. Aholi nihoyatda zich bo'lgan mintaqalarga butun aholining mehnat resurslari, iqtisodiy faol va ish bilan band aholi, tug'ilgan bolalar va aholi tabiiy ko'payishning beshdan to'rt qismi, yalpi mahsulotning 74

foizi, investisiyalarining 79 foizi va iste'mol xarajatlarining 88 foizi to'g'ri kelmoqda.

Aholining ko'payishi uni oziq-ovqat mahsulotlari va ichimlik suvi, ish o'rinlari bilan ta'minlashda qiyinchiliklar, shuningdek, ekologik oqibatlar va kasallik ko'payishini keltirib chiqaradi.

O'zbekistonning aholi nihoyatda zich bo'lgan mintaqalarida ishlab chiqaruvchi kuchlar eng yuqori darajada rivojlangan va yashashni ta'minlash shart-sharoitlari qulay bo'lgan hududiy bo'linmalar bor. SHU sababli ularda aholining ko'payishi ihsizlik darajasiga mayinroq ta'sir etdi.

Aholi nihoyatda zich bo'lgan mintaqalar hissasiga respublika mehnat resurslarining 81 foizi to'g'ri kelayotgan bo'lsa, ihsizlar ular umumiy sonining atigi 55 foizidan iborat. Umuman, O'zbekiston bo'yicha rasmiy ihsizlik darajasi 0,5 foizni tashkil etayotgan bo'lsa, aholi nihoyatda zich bo'lgan mintaqalarda 0,8 foizdan iborat.

Aholi zichligi past darajada bo'lgan mintaqalarda kamroq rivojlangan ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar, tor yo'naltirilgan tarmoq ixtisoslashuvi va ekotizimga putur etishining oqibatlari sezilarliroq.

5.1-jadval

O'zbekistonning asosiy demografik ko'rsatkichlari

Yil	Aholi soni, mln. kishi	Aholining o'rta yillik ko'payishi, ming kishi	Aholi ko'payishining o'rtacha sur'ati	Tug'ilish koeffisienti, %	O'lim koeffisienti, %	Tabiiy ko'payish koeffisienti, %
1897	3,95	-	-	-	-	-
1960	8,52	72,6	1025	39,9	6,0	33,9
1980	15,76	362,0	3,15	33,8	7,4	26,4
1999	24,23	445,6	2,30	22,3	5,3	17,0
2000	24,91	332,2	1,4	-	-	-
2025	33,4	233,7	0,75	-	-	-

Manba: «Aholishunoslik» markazi ma'lumotlari.

Respublika aholisi sonining o'sishi uni shakllantirish manbalari bo'lgan tabiiy va mexanik tarzda ko'payish bilan bog'liq. 1997 – 2004 yillarda respublikada aholining yosh tarkibi progressivroq bo'lib qoldi. Mehnatga layoqatli yoshga etmagan bolalar va o'smirlar ulushi 2004 yil 1 yanvar holatida butun mamlakat aholisining 41 foizini, mehnatga layoqatli yoshdagilar ulushi 52 foizini, mehnatga layoqatli yoshdan kattaroqlar ulushi 7,5 foizini tashkil etdi.

Ko'payib borish ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan qishloq aholisi sonining doimiy oshib borishi va respublika aholisi umumiy miqdorida uning ulushi yuqoriligi O'zbekiston demografik rivojlanishining o'ziga xos xususiyatidir. Ayni qishloq aholisi respublika aholisining uchdan ikki qismini tashkil etib, birinchi navbatda tabiiy ko'payish, tug'ilish va chaqaloqlar o'limi hajmlarini belgilaydi.

Avvalo, qishloq joylarga xos bo'lgan tug'ilish darajasi yuqoriligi respublika hukumatidan alohida e'tiborni talab qiladi. Ko'p bolali oilalarga beriladigan nafaqalar, maktabgacha tarbiya va boshlang'ich ta'limning xizmat infratuzilmalarini kengaytirish, sog'liqni saqlash xizmatlarini keng yo'lga qo'yish chora-tadbirlari tug'ilish darajasi bilan bevosita bog'liq. Hukumat aholini ijtimoiy muhofazalash ustuvorligini va o'tish davrida jamiyatning keskin tabaqalanishiga yo'l qo'ymaslikni ta'minlash barobarida jamiyatni ko'p bolali oilalarni faqat nafaqalar hisobidan boqish mumkinligi bilan ko'p yillardan buyon bog'liq bo'lib kelayotgan boqimandalik kayfiyatidan xalos eta borishi ham kerak. Aks holda manzilsiz tus olgan va deyarli butun aholini qamragan, samaradorligi pasaygan ijtimoiy muhofazalash tizimdagi shusiz ham qiyin vaziyat yanada murakkablashtiradi.

2004 yilning 1 yanvar holatiga respublikada aholi soni 25,8 mln. kishini tashkil qildi va yil davomida 273,4 ming kishiga yoki 1,1 foizga ko'paydi. Aholining tabiiy o'sishi 372,4 ming kishini tashkil etdi. Aholi o'sishining qariyb to'rt dan uch qismi qishloq hududiga to'g'ri keladi. 2003 yilda migrasiya saldosi minus 99,3 ming kishidan iborat bo'ladi (2002 yilda minus 83,3 ming kishi edi).

2003 yilda tug'ilganlar soni 509,4 ming kishini tashkil qildi va 2002 yildagidan 23,1 ming kishi yoki 4,3 foizga kamaydi, respublika bo'yicha tug'ilish koeffitsienti 19,8 promilleni tashkil etdi (2002 yilda 21,0 promille).

Tug'ilish darajasining pasayishi respublikaning ko'pgina hududlarida qayd etildi. Eng katta pasayish Surxondaryo (24,4

promilledan 22,4 promillega), Sirdaryo (22,8 promilledan 20,9 promillega) va Jizzax (23,4 promilledan 21,8 promillega) viloyatlarida kuzatildi. Tug'ilishning eng past darajasi esa, Qashqadaryo viloyatida (23,5 promillega) saqlanib qolmoqda.

## **5.2. Mehnat bozorining rivojlanishi va uni tartibga solish**

Mehnat bozori bozor infratuzilmasida ishchi kuchini yollash va undan foydalanish bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy va mehnat munosabatlari majmui bo'lib, mehnatga bo'lgan talab va taklifda o'z ifodasini topadi.

Ma'lumki, mehnat bozorida uchta sub'ekt faoliyat ko'rsatadi: ish beruvchi, yollanma ishchi va davlat. Agrar mehnat uzoq vaqt rejalashtirilgan iqtisodiyot sharoitida amalga oshirilishi natijasida qoloq professional iqtisodiyot, past mehnat unumdorligi hamda ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifning muvozanatsizligi oqibatilari girdobida bo'lishi mehnat motivasiyasi pasayib ketishiga olib keldi. Bu esa, ishchi kuchining sun'iy tanqisligini yuzaga keltiradigan yuqori mehnat sig'imi natijasi bilan bog'liq. SHu munosabat bilan rejalashtirilgan iqtisodiyot sharoitida davlat monopolist sifatida ish haqining sun'iy pasaytirilgan darajasini qo'llab-quvvatlashni ma'qul ko'rdi, chunki bu u yuritayotgan siyosatini asosiy vositalaridan biri edi.

Mehnat bozorini o'rganish jarayonida quyidagilar juda muhim hisoblanadi: «iqtisodiy muvozanat» tushunchasi, mehnat bozori segmentasiyasi, bandlik hajmining belgilanishi.

Mehnat bozorida iqtisodiy muvozanatning mohiyati quyidagilardan iborat: talab, taklif, ishchi kuchi bahosi va raqobat. Ishchi kuchiga bo'lgan talabning hajmi hamda mehnat resurslariga bo'lgan talabning hajmi mehnat resurslariga bo'lgan talab va ularning bahosiga bog'liq. Taklif esa, asosan, demografik xususiyatlarga asosan belgilanadi.

Mehnat bozorning asosiy ko'rsatkichlaridan biri raqobat quyidagicha belgilanishi mumkin: agrar talab va taklifning solishtirilish jarayonida taklif talabdan ko'proq bo'lsa, demak, raqobat mavjud bo'ladi. Uni ta'minlash uchun esa, birinchi navbatda tovar ishlab chiqaruvchilarda erkinlik bo'lishi lozim.

Mehnat bozorida iqtisodiy muvozanat shunday holatki, unda talab, taklif va ishchi kuchi bahosi egri chiziqlari bir nuqtada bir-



birlarini kesib o'tadi. Egri chiziqlar bir-birlarini kesib o'tadigan nuqta esa, mehnat bozoridagi iqtisodiy muvozanat nuqtasi hisoblanadi. Lekin, bozorning bunday holatda bo'lishi juda kamdan-kam uchraydi. Bu bozor sharoitlaridagi iqtisodiyotning iqtisodiy muvozanatda emasligidan dalolat beradi. Mehnat bozoridagi iqtisodiy muvozanatda talab, taklif va ishchi kuchining qaysi holatida ishsizlik, qaysi holatida ishchi kuchi etishmasligi kuzatiladi. Bunda mehnat bozorini boshqarishga bo'lgan ishchi kuchining muvozanatlashganini baholash juda katta rol o'ynaydi.

Bozor iqtisodiyoti nuqtai nazaridan, ish haqi darajasi ishchi kuchining narxi muvozanatlashgan narxdan yuqori o'rnatilganda taklifning talabga nisbatan ko'pligi paydo bo'ladi, talab oshgan sari ish haqi ham oshadi, talab kamaygani sari esa, ish haqi ham kamayadi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, respublikadagi past darajali mehnat ta'minotiga ega bo'lgan xo'jaliklarda mehnat natijalari erkinligining yo'qligi past daromad olinishiga sabab bo'ldi. Bu esa ularga ishchi kuchini takror ishlab chiqarish imkoniyatini bermaydi. Ayni shu sabablarga ko'ra, ushbu xo'jaliklarda ishchi kuchi tanqisligi sun'iy yo'l orqali paydo bo'ladi. Ishchi kuchi bilan yuqori darajada ta'minlangan xo'jaliklarga xos bo'lgan daromad olish tendensiyalari ayni ishchi kuchi bilan past darajada ta'minlangan xo'jaliklarga xos bo'lgan tendensiyalar bilan bir xil, faqat ikkinchi holatda ishchi kuchi ta'minoti bahosi va talabi ko'payishiga imkoniyat bo'lmaydi. SHuning uchun ham, bunday xo'jaliklarda ishchi kuchining ortiqchaligi yoki yashirin ishsizlik mavjud.

Mehnat bozoriga tegishli bo'lgan muhim masalalardan biri bandlik hajmini aniqlashdir. Bozor klassik nazariyasiga muvofiq, bandlik hajmi yalpi talab va yalpi takliflarning kesib o'tish nuqtasi orqali aniqlanadi. Ayni shu nuqtada kutilgan tadbirkorlik foydasi maksimal darajada bo'ladi. Bandlik hajmining o'sishi aholining iste'mol qilishga moyilligiga hamda ish joylarining ko'payishi uchun kerak bo'lgan investisiyalar hajmiga bog'liq. YALpi daromad o'sishi bilan iste'mol qilish ham o'sadi, shuningdek, jamiyatning yalpi investisiyalar bilan bog'liq bo'lgan xarajatlari ham oshadi.

Mehnatga bo'lgan talab miqdorini aniqlash uchun cheklangan mehnat unumdorligi egri chizig'i bilan real ish haqi egri chizig'i bir-birini kesib o'tishi mehnatning maksimal foyda olishni ta'minlovchi miqdorini ko'rsatadi.

Agrar ishlab chiqarish sohasidagi ishsizliklarning maqomini aniqlash ham muhim masalarga kiradi. Ma'lumki, qishloq joylarda yashovchi ishchilarning deyarli har biri tomorqa xo'jaligiga ega bo'lib, bunday xo'jalik qishloq oilasi yalpi daromadining 40 – 60 foizini beradi hamda ishchi kuchining qisman takror ishlab chiqarilishi va ikki tomonlama bandlikni ta'minlaydi. SHaxsiy tomorqa xo'jaligiga egalik qiluvchi va ijtimoiy qishloq xo'jaligidagi ishidan mahrum bo'lib qolgan ishchini ishsiz deb ta'riflash va uni ishsizlik bo'yicha nafaqa olish uchun mehnat birjasida ro'yxatga olish to'g'rimi?

Agar to'g'ri bo'lsa, shaxsiy tomorqa xo'jaligida band bo'lgan ishchiga xususiy tadbirkor maqomi berilishi e'tiborga olinishi kerak.

Tarkibiy segmentasiya tashqi bozorni regional va mahalliy bozorlarga taqsimlashdan iborat. Omilli segmentasiya esa, asosan ichki bozorga taalluqlidir. Bizning fikrimizcha, ikki bozordagi segmentasiya ham birinchi navbatda quyidagilar bo'yicha amalga oshirilishi lozim malaka bo'yicha; mulkchilik bo'yicha; ma'lumot bo'yicha; ish haqi bo'yicha; yosh jihatidan va boshqalar.

Bundan tashqari, ichki bozor birlamchi va ikkilamchi bozorlarga taqsimlanadi. Birlamchi mehnat bozori barqaror bandlik va ish haqining yuqori darajasi bilan belgilanadi. U asosan, ma'lumoti va malakasi yuqori darajada bo'lgan ishchilardan iborat. Ikkilamchi mehnat bozori esa, bandlik darajasining beqarorligi, ishchi kuchi bahosi va malakasining past darajasi bilan belgilanadi.

O'tish davri iqtisodiyoti oldida turgan dolzarb muammolardan biri mehnat bozorini shakllantirish va samarali rivojlantirishdir. Buning uchun, avvalo, ijtimoiy va iqtisodiy tizimlar rivojlanishining ob'ektiv qonunlaridan ongli ravishda foydalanish zarur.

Ma'lumki, taraqqiyot sohibi bo'lib xizmat qiluvchi inson – jamiyatning asosiy ishlab chiqarish kuchidir. U bir vaqtning o'zida moddiy boyliklar va xizmatlarning ishlab chiqaruvchisi va iste'mol qiluvchisi bo'lganligi sababli, aynan uning tufayligina «ishlab chiqarish - iste'mol» tizimida muvozanatga erishiladi.

Faqat kishi ehtiyojini juda muhim deb bilgan va u samarali takror ishlab chiqarilishini ta'minlagan jamiyatgina eng yuqori taraqqiyotga erishadi. Jamiyatning boshqa barcha vositalari: mulkchilik shakllari, ishlab chiqarish va ilmiy salohiyat, moliya, narxlar va hokazalar ushbu asosiy maqsadga bo'ysinishi kerak. Bu degani, bugungi

bozorga qarab iqtisodiy tizim harakatini to'g'ri mo'ljalga olmoq o'tish davrini tezlatmoq yoxud sekinlashtirmoqdir.

Mehnat erkinligi va ixtiyoriyligi mehnat bozori shakllanishining asosiy shartidir.

SHu bilan bir qatorda mehnat bozorining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatayotgan bir qator iqtisodiy, ijtimoiy, demografik, tabiiy-iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlar va omillar mavjudki, ularni quyida batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Mehnat bozori shakllanishining asosiy iqtisodiy sharti bo'lib yollanma xodimlarni o'z ishchi kuchlariga nisbatan shaxsiy mulkchiliklari va ish beruvchilarning ish joylariga jamoa yoki xususiy mulkchiligi xizmat qiladi.

Bu o'rinda shuni nazarda tutish kerakki, mazkur sub'ektlar o'zaro almashuv munosabatiga kirishishiga ularning shaxsiy manfaatlari majbur qiladi, buning orasida esa shaxsiy iste'molchilik yotadi.

Ular ham o'z navbatida qayta takror ishlab chiqarishda aholi ijtimoiy-iqtisodiy turmushining faqat kerakli ijtimoiy ehtiyojini ifodalaydi.

Mehnat bozorining vujudga kelishi ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi muvozanatga erishish uchun o'zaro raqobat qilishga tayyor erkin va teng huquqli sheriklar iqtisodiy munosabatlarda bo'lishlarini taqazo etadi.

Bozorda yollanma xodim va ish beruvchi shaxsiy erkinlik va iqtisodiy zaruriyat nuqtai nazaridan bog'langan hamda bir-birlariga qaram bo'lsalar ham bir-birlariga qarashib turadilar.

Ishchi kuchi talab va taklifi o'rtasida bozor muvozanatiga erishish mehnat bozorining shakllanishida hal qiluvchi iqtisodiy shartlardan biri hisoblanadi. Ammo bunday muvozanat mavjud emas. Buning asosiy sababi – taklif qilingan mehnatga layoqatli aholi sonining talab miqdoriga nisbatan tez o'sishidir. Iqtisodiyotning barcha sektorlaridagi tarkibiy o'zgarishlar hozirgi sharoitda mehnat bozorida ishchi kuchiga talab va taklifning yangi harakatini belgilovchi eng muhim iqtisodiy shartlardan hisoblanadi. Bular sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlarida yangi ish joylari yaratish va hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida sifat o'zgarishlarini asoslab beradi. Bunday sharoitlarda bir tomondan, mehnat bozorining yangi infratuzilmasi ko'p sonli mehnat talab qiladigan tarmoqlar va ishlab chiqarish bo'g'inlarini

qamrab olsa, boshqa tomondan iqtisodiyotning an'anaviy sektorlarida bozor munosabatlarini vujudga keltiradi va rivojlantiradi.

Ishchi kuchi narxining o'zgarishi mehnat bozori shakllanishining muhim iqtisodiy sharti hisoblanadi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish amalga oshirilayotgan mamlakatlarda ish haqi haqiqiy darajasining pasayish tendensiyasi kuzatiladi. Nazariy jihatdan bunday vaziyatda ish haqini qiymatidan pastroq belgilash uchun qulay imkoniyatlar yaratiladi. Ammo bunday imkoniyatlardan foydalanishni davlat qonunchilik yo'li bilan «to'sib qo'yish»ga harakat qiladi. SHu maqsadda minimal ish haqi va kun kechirish uchun zarur miqdor darajasi rasmiy ravishda belgilanadi. Bunday holda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti normal faoliyat ko'rsatgan minimal ish haqi kun kechirish uchun zarur miqdor darajasidan kam bo'lmasligi kerak. Mehnat bozori konyunkturasi shakllanishining ijtimoiy shart-sharoitlari orasida yollanma xodimlar va ish beruvchilarning sifat ko'rsatkichlarini oshirish etakchi o'rin egallaydi.

Agrosanoat kompleksi va xizmat ko'rsatish tarmoqlari ko'lamlarining kengayishi, ularning intensiv rivojlanishi, o'z vaqtida moddiy-texnik va moliyaviy resurslar bilan ta'minlanishi, mehnatkashlar qayta tayyorgarlikdan o'tishini va yangi zamonaviy kasblarni (universal ishchi va xizmatchi, tadbirkor, menejment, marketing va hakozo) egallashlarini talab qiladi.

Demografik shart-sharoitlar ishchi kuchi taklifining shakllanishiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Masalan, yuqori darajadagi tug'ilish mehnat bozoriga aholi oqimi kelishini asoslaydi (5.2-jadval).

Ish beruvchi va yollanma xodim o'rtasida tuzilgan mehnat shartnomasi (kontrakt) mehnat bozorida ishchi kuchini sotish, sotib olishning hal qiluvchi huquqiy sharti hisoblanadi. /arb mutaxassslarining mehnat huquqi bo'yicha ilmiy ishlarida mehnat shartnomasi «xodimni ish haqi evaziga mehnat qilish majburiyatini olish va huquqiy bo'ysunishi mavjudligi haqidagi kelishuv» sifatida ifodalanadi. SHartnoma xususiy-huquqiy xaridorlarning turlicha ko'rinishi bo'lib, unga nisbatan fuqarolik huquqiga xos me'yorlar, qoidalar, konseptual konstruksiyalarni qo'llash imkoniyatlari va zaruriyatini asoslaydi.

5.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2003 yilda ish bilan band mehnat resurslari soni 2002 yildagiga nisbatan 660 ming kishiga ko'paydi va hisob-kitoblarga qaraganda, 9589 ming kishini yoki

mamlakat aholisining 27,3 foizini tashkil qiladi. Ishga joylashtirilganlarning umumiy sonidan 58,3 foizi yoshlardan (16 – 30 yashar shaxslar) iborat.

Mehnat organlarida ro'yxatga olingan ish qidirayotgan fuqarolarning eng ko'pi Xorazm viloyatida (3,4 ming kishi) yoki respublika bo'yicha murojaat etganlar umumiy sonining 12,4 foizini tashkil qiladi. Ular Qoraqalpog'iston Respublikasida (3,3 ming kishi yoki 11,1 foizi) va Samarqand viloyatida (4,8 ming kishi yoki 16,1 foizi) qayd etildi. Mehnat organlarida ro'yxatga olingan ish bilan band bo'lmagan fuqarolarning 32,2 ming nafari (ishga joylashtirishni so'rab murojaat etilganlarning 87,2 foizi) ishsizlik maqomiga ega bo'lgan. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, 2003 yilda «Bandlik» dasturini amalga oshirish doirasida respublika bo'yicha 429,6 mingta (2002 yildagiga nisbatan 98,5 foiz) ish joylari tashkil qilingan.

YAngi ish joylari umumiy sonining 43,9 foizi korxonalar va tashkilotlarda, jumladan, 31,2 foizi kichik va o'rta biznes korxonalarida, 16,6 foizi fermer xo'jaliklarida, 9,9 foizi dehqon xo'jaliklarida, 29,6 foizi yakka tadbirkorlikda tashkil qilindi. Respublika bo'yicha tashkil qilingan yangi ish joylarining 69,9 foizi (300,3 mingta ish joyi) qishloqlarga to'g'ri keladi.

Aholining oqilona bandligi ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasidagi bozor munosabatlariga erishishni bildiradi. Bunday holda ishsizlikning yo'l qo'yilishi mumkin (tabiiy) darajasi vujudga keladi.

Bunday muvozanat ish beruvchilar va «mehnatga qobiliyatli» kishilarning iqtisodiy manfaatlari eng muqobil darajada amalga oshirilishini ta'minlaydi. Bunda ishchi kuchiga kasb-malakal tayyorgarligi bo'yicha mos narxlar belgilanadi. Xuddi shular tufayli aholining oqilona bandligi, ijtimoiy takror ishlab chiqarish va ishchi kuchi qiymati asosida «mehnat qilish qobiliyati»ni bozorda sotish uchun taklif qilinganlarning turmush darajasi shakllanishi kam ta'minlanadi.

5.2-jadval

**Iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha band aholining taqsimoti  
(tegishli davr bo'yicha o'rtacha, ming kishi)**

	2004 y.	Umumiy band bo'lganlarga nisbatan %da	2005 y. *)	Umumiy band bo'lganlarga nisbatan %da	2005 y. 2004 yilga nisbatan %da
Band bo'lgan	9910,6	100,0	10196,3	100,0	102,9
Moddiy ishlab undan:	6710,6	67,7	6839,8	67,1	101,9
sanoatda	1283,9	13,0	1347,5	13,2	105,0
q i	3042,5	30,7	2969,5	29,1	97,6
tr a	317,8	3,2	334,4	3,3	105,2
qurilishda	808,1	8,2	848,5	8,3	105,0
savdo, umumiy	857,6	8,7	903,9	8,9	105,4
boshqa	400,7	4,0	436,0	4,3	108,8
Nomoddiy undan:	3200,0	32,3	3356,5	32,9	104,9
tr a	143,2	1,4	153,7	1,5	107,3
uy-joy va kommunal xo'jaligida hamda aholiga	301,1	3,0	316,4	3,1	105,1
sog'liqni saqlash, jismoniya	689,0	7,0	735,5	7,2	106,7
ta'lim, madaniyat, san'at, fan va ilmiy	1321,0	13,3	1385,1	13,6	104,9
moliya va kredit	52,8	0,5	54,2	0,5	102,7
ma 'm	190,9	1,9	205,7	2,0	107,8
boshqa	502,0	5,1	505,9	5,0	100,8
Davlat	23,1	X	22,9	X	X
Nodavlat	76,9	X	77,1	X	X

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi.

Respublikamizda aholi bandligi shakllanishiga hali to'la erishilgani yo'q. Bunga quyidagilar asosiy to'siq bo'lmoqda: davlat mulkini xususiylashtirish samaradorligining past darajasi; iqtisodiyotda tub tarkibiy islohotlar va ishlovchilar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida bo'lishining sekinligi; mehnat haqi uning yakuniy natijalaridan uzilib qolishi; ish joylarining past sifatli moddiy-texnik jihozlar bilan ta'minlanishi; mehnatga qobiliyatli o'smirlar, ko'p bolali ayollar, nafaqaxo'rlar va nogironlar faoliyatining etarlicha rag'batlantirilmaganligi; ishchi kuchi taklifi unga bo'lgan talabga nisbatan ko'proq o'sayotganligi; bo'sh ish joylari haqida ishonchli axborotlar kamligi va mehnat bozorini samarali tartibga solish mexnizmi takomillashmaganligi. Ular orasida davlat mulkini xususiylashtirish va xalq xo'jaligi tarmoqlarini tarkibiy isloh qilish etakchi o'rinni egallaydi.

Vakant (bo'sh) lavozimlar va ish joylari mavjudligi haqida ishonchli axborotlarning kamligi band bo'lmagan aholini ishga joylashtirishni qiyinlashtiradi. Statistika idoralari faqat sanoat korxonalarini va xizmat ko'rsatish ob'ektlaridagi ish joylarining miqdori va tuzilishi bo'yicha axborotlar to'plash va ularni tahlil qilish bilan shug'ullanadi. Amalda sinalgan metodika yo'qligi tufayli qishloq xo'jaligi ish joylarining soni haqidagi axborotlarni yig'ish amalga oshirilmaydi.

Bular va mehnat bozorida munosabatlarni tartibga solishning samarali mexanizmi mavjud emasligi aholining oqilona bandligi shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mavjud mexanizm esa oqilona bandlik shakllanishining asosiy shart-sharoitlarini to'liq hisobga olmaydi. Takomillashtirilgan yangi mexanizm esa quyidagi asosiy shart-sharoitlarning ta'sirini tartibga solishi lozim: ishchi kuchiga talabning oshishi va unga taklifning kamayishi, yollanma ishchi kuchiga mehnat haqi (narxi)ning eng past miqdorini aholi jon boshiga to'g'ri keladigan minimal iste'mol byudjetidan kam bo'lmagan holda belgilash; mehnatga qobiliyatli o'smirlar, nafaqaxo'rlar, ko'p bolali ayollar va nogironlar bandligini oshirishni rag'batlantirish; ishsizlarning malakasi, raqobat qobiliyati va rentabelligini oshirish; bandlik xizmati infratuzilmasining samarali rivojlanishini ta'minlash va boshqalar.

Aholining oqilona bandligining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan holatlardan biri ayollarni ishdan bo'shatish uchun birinchi nomzodlardir. Hisob-kitoblarimizga qaraganda, 2000 – 2004 yillar davomida ish joylarini yo'qotganlarning 60 foizini ayollar tashkil

qiladi. SHunday vaziyat vujudga kelmoqdaki, unda ayol birinchi ishidan bo'shatiluvchilar safida. Ammo bo'sh joyga ega birinchi nomzod emas.

Bozor munosabatlariga o'tishda ayol ishsizligining o'sishi ko'pgina sabablar bilan izohlanadi. Ulardan eng muhimlari –ayol mehnatini qo'llash uchun ish joylari etishmasligi; qishloq xo'jaligi ishlarida qo'l mehnati salmog'i yuqoriligi; yollanuvchilar malakasi darajasi va safarbarligi pastligi. Bular qishloq xo'jaligiga oid bo'lmagan mehnat bilan bandlikni murakkablashtiradi. SHuning uchun mehnat bozorida ayol ishchi kuchiga talab erkak ishchi kuchiga talabga qaraganda ancha kam.

Respublikamizda ayollar bandligini oshirishga yo'naltirilgan kompleks tadbirlarni o'tkazish lozim. U o'z ichiga ko'p bolali va yosh qizlar uchun yangi ish joylarini yaratish, ayollarni bolaga qarash davridan keyin kasbiy moslashtirish va ishlab chiqarishga qaytarish, bolasi bor ayollar malakasini oshirish uchun maxsus kurslar tashkil qilish, ayol mehnati sharoitini yaxshilash uchun sarmoyalar jalb qilishni rag'batlantirish kabi tadbirlarni qamrab olishi kerak. Oqilona bandlikni shakllantirishning barcha demografik, ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa jihatlarini quyidagi mezonlarda o'z aksini topadi: ishchi kuchiga talab va taklif o'rtasida bozor muvozanatiga erishish; qishloq xo'jaligi bo'lmagan ish joylarini ko'paytirish; iqtisodiy faol aholining mehnatda ishtirokini oshirish; mehnat unumdorligining o'sishini ta'minlash; qishloq aholisining mehnat daromadlarini ko'paytirish; ishsizlikni kamaytirish va boshqalar.

Mazkur mezonlar quyidagi ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi: mavjud va yangi yaratilgan ish joylarining soni; bajarilgan ish vaqtining miqdori; aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan YAIMning hajmi; mahalliy va jalb etilgan mehnat resurslarining soni; aholining migrasion oqimi; mehnatning fond va energiya bilan qurollanishi; ijtimoiy infratuzilma xizmatlarining hajmi; mehnatga layoqatlilarning har biri uchun aholi er yuklamasi; o'rtacha yillik ish haqi; aholining uy-joy bilan ta'minlanishi; mehnat resurslarining malaka va ma'lumot darajasi; sanoat korxonalaridagi asosiy ishlab chiqarishda band bo'lmagan shaxslar va ishsizlik soni hamda ularning nafaqasi miqdori; mehnatning umumiy natijalaridan va ijtimoiy infratuzilma xizmatlaridan qanoatlanish darajasi; mulkchilikning turli shakllari, mehnatni tashkil qilishning samaradorligi va h.k.lar



YUqorida qayd etilgan mezonlar va ularning ko'rsatkichlaridan mehnatga layoqatli aholining viloyatlar bo'yicha iqtisodiyotda oqilona bandligini shakllantirishni tartibga solish mexanizmlarini belgilashi mumkin. 5.3-jadvalda 2003 yilda mintaqalar bo'yicha aholining iqtisodiy faoligi keltirilgan.

O'zbekiston hududlarida demografik rivojlanish sur'atining pasayishi kuzatilmoqda. Bunga asosan tug'ilish darajasining pasayishi sabab bo'lmoqda. Biroq bu pasayish mehnatga yaroqli aholi sonining umumiy aholi sonidagi salmog'i o'sish sur'atini hisobga olganda, ijobiy rivojlanish sifatida baholanishi mumkin.

5.3-jadval.

2004 yilda mintaqalar bo'yicha aholining iqtisodiy faoligi

Respublika va viloyatlar	Iqtisodiy faol aholi, ming nafar	SHu jumladan		
		iqtisodiyotda bandlar	ishsizlar	ishsizlik foizlarda
O'zbekiston Respublikasi	9621,2	9589	32,2	0,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	515,3	509,4	5,9	1,1
Andijon	893,7	892,3	1,4	0,2
Buxoro	627,5	627	0,5	0,1
Jizzax	312,9	312,4	0,5	0,2
Qashqadaryo	772,1	770,5	1,6	0,2
Navoiy	356,5	354,5	2	0,6
Namangan	655,4	652,6	2,8	0,4
Samarqand	985	981,6	3,4	0,3
Surxandaryo	612,9	611,1	1,8	0,3
Sirdaryo	265,9	264,9	1	0,4
Toshkent	953,5	952,8	0,7	0,1
Farg'ona	1096,7	1095,3	1,4	0,1
Xorazim	497	490,4	6,6	1,3
Toshkent shahri	1076,8	1074,2	2,6	0,2

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari. – T.: 2004.

Qoraqalpog'iston Respublikasida mehnatga yaroqli aholi orasida ishsizlar sonining o'sishi jadal sur'atlar bilan davom etib, 2004 yilda 1,1 foizni tashkil etdi. Umumiy aholi soni o'sishiga qaraganda ikki baravar tezroq kechgan bu o'sish respublikada ishsizlik muammosi borligini ko'rsatadi. Oxirgi olti yil mobaynida respublikada mehnatga yaroqli aholi sonining umumiy aholi sonidagi salmog'i 1,6 foizga oshdi va 2004 yilning dekabr oyiga kelib, 51 foizni tashkil etdi. Mehnatga yaroqli yoshdagilar orasida ish bilan band bo'lganlar salmog'i 2004 yilda 75,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2004 yilga kelib, 71 foizgacha kamaydi. Biroq, 2000 yildan 2004 yilgacha bo'lgan davr ichida ish bilan band bo'lganlarning o'rtacha soni 6,3 foizga oshdi. Bunga asosan turli xizmat ko'rsatuvchi sohalarning – umumiy davlat boshqaruvi, banklar va sug'urta solig'ini saqlash, kommunal xizmatlar, savdo va umumiy ovqatlanish sohalari rivojlanib borishi sabab bo'ldi. SHuningdek, qurilish sohasida band bo'lganlar sonining 28 foizga oshishi qayd etildi, respublika qishloq xo'jaligida ish bilan band bo'lganlar soni umumiy ish bilan band bo'lganlar sonida eng katta salmoqni saqlab qolib, 2004 yilda 35 foizni tashkil etdi. 2000 – 2004 yillar davomida qishloq xo'jaligida ish bilan band bo'lganlar soni 9,1 foizga kamaydi. Boshqa tarmoqlarda sezilarli o'zgarishlar kuzatilmadi. Qoraqalpog'iston Respublikasida ro'yxatga olingan 1000 kishi hisobiga ish bilan ta'minlanganlar soni 2002 yilda 628 va 2003 yilda 671 kishini tashkil qilgan bo'lsa, shu davrda ro'yxatga olingan ishsizlar soni 1000 kishi hisobiga tegishli 257 va 283 kishiga to'g'ri keldi. 2004 yil boshida ro'yxatga olingan 1000 ishsiz hisobiga bo'sh ish joylari atigi 117 tani tashkil qildi. Respublika va ko'pchilik viloyatlar orasida bu borada katta farq kuzatildi.

2004 yil davomida ish bilan band bo'lganlar sonining eng katta yillik o'sishi davlat boshqaruvi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot va qurilish sohaslarida qayd etildi. Bu davrda ishchilar sonining eng sezilarli qisqarishi qishloq xo'jaligida kuzatildi va hokazo.

### **5.3. «Ijtimoiy siyosat» tushunchasi, ijtimoiy siyosatning xususiyati, ahamiyati va rivojlanish zaruriyati**

Ijtimoiy siyosat deganda, muayyan davlat hokimiyatining ijtimoiy soha bo'yicha o'z oldiga qo'ygan vazifa va maqsadlarini amalga

oshirish bilan bog'liq siyosati tushuniladi. Bu siyosat bevosita aholining turmush darajasini oshirish bilan bog'liq siyosat bo'lib, unga:

- daromad siyosati;
- ijtimoiy ta'minot va mehnat bozorlarini shakllantirish;
- aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sifatini yaxshilash kabilar

kiradi.

Ijtimoiy siyosatning ob'ekti - ijtimoiy sohadir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabki kundanoq ijtimoiy masalalarni qamrab oluvchi bozor iqtisodiyotiga o'tish yo'lini tanladi. Buning uchun avvalo kam ta'minlangan tabaqaga yordam berish siyosatini ishlab chiqish lozim edi. SHunday qilindi ham.

Har bir davlatda kam ta'minlanganlikni belgilashning o'ziga xos uslublari mavjud. Masalan, AqSH, Angliya, Germaniya, Portugaliya kabi davlatlarda yashash minimumining 40% dan 60% gacha bo'lgan, Polsha va Vengriyada esa minimal pensiya miqdori, Bolgariyada esa minimal ish haqi miqdori kam ta'minlanganlikni aniqlashda qo'llaniladigan vositalardir.

Biroq ko'pchilik mamlakatlarda, shu jumladan, O'zbekistonda ham boshqa usul-normativ-statistik usul qabul qilingan. Bu usulning mohiyati shundaki, kambag'allik darajasi o'z tarkibiga eng zarur bo'lgan oziq-ovqatlar, iste'mol buyumlari va xizmatlar to'plamidan iborat bo'lgan eng kam iste'mol savatining qiymati asosida aniqlanadi. Eng kam iste'mol savatini hisoblash tartibi quyidagicha: dastlab oziq-ovqat to'plamining qiymati, so'ngra oila byudjeti ma'lumotlari asosida kam ta'minlangan oilalarning umumiy xarajatlarida oziq-ovqat mahsulotlar va xizmatlarning ulushi aniqlanadi hamda bu hissa eng arzon narxlarda eng kam iste'mol savati qolgan qismining qiymati hisob-kitobiga kiritiladi.

Iste'mol savatining qiymat ifodasi eng kam iste'mol byudjeti deb ataladi. Eng kam iste'mol byudjetiga yoki ko'pincha uning ma'lum bir qismiga (masalan, 50% ga) mos keluvchi daromad kambag'allik chegarasi hisoblanadi. Davlat kambag'allik chegarasidan past darajada yashovchi aholiga ma'lum miqdorda pulli moddiy yordam ko'rsatadi. Aslida ham ijtimoiy himoyaning barcha asosiy choralari aholining aynan shu toifasiga qaratilgan.

Biroq eng kam iste'mol byudjetini qo'llash sohasi bir muncha kengroq. Masalan, uning asosida ish haqi, nafaqalar, stipendiyalarning eng kam miqdori ham belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasida va uning mintaqasida himoya tizimi quyidagi masalalarni echish bilan bog'liq: a) sanoatda rivojlantirishni barqarorlashtirish va rivojlantirish; b) turli manbalardan pul mablag'larini (kichik biznesni rivojlantirish uchun) jalb etish (sanoat sektoriga); v) daromadlar va hayot saviyasidagi farqlarni kamaytirish; d) kambag'allikka qarshi kurash va bozor infratuzilmasini shakllantirish, bank, moliya va sug'urta tizimlarini qayta shakllantirish.

Bu borada bilimdon va zamonaviy fikrlaydigan mutaxassislarni tarbiyalash bo'yicha hali juda ko'p ishlar qilinishi kerak. Respublikada huquqiy baza barpo qilingan, lekin unga amal qilish juda sust bormoqda. Tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ham tashkiliy, iqtisodiy shart-sharoitlar yaratilgan. Biroq, bu borada ham to'siqlar juda ko'p. O'rta va kichik biznes ham yanada jiddiyoq qo'llab-quvvatlashga muhtojdir.

O'zbekistonda olib borilayotgan o'zgarishlarning pirovard maqsadi "Ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo'lgan kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir".

Bozor iqtisodiyotiga o'tish birinchi navbatda hayotimizda, iqtisodiyotimizda barqarorlikka erishi bilan chambarchas bog'langan. SHuning uchun ham iqtisodiyotni, moliyaviy ahvolni barqarorlashtirish iqtisodiy islohotlarimizni amalga oshirishning muhim shartidir. Iqtisodiyot barqaror ishlagandagina bozor munosabatlariga muvaffaqiyatli o'tish mumkin. Hozirgi vaziyat tanglikni bartaraf etish va pulning qadrsizlanishini jilovlashni taqozo etmoqda. Aholi turmush darajasining keskin yomonlashuviga yo'l qo'ymaslik kerak. Buning uchun tezkorlik bilan keskin choralar ko'rilishi lozim. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish – bozorni shakllantirish yo'lidagi qonuniy va muqarrar bosqichdir.

Bozor islohotlarining hamma bosqichlarida oldindan o'tkaziladigan kuchli ijtimoiy siyosat O'zbekistonning o'z istiqloq va taraqqiyot yo'lining etakchi prinsiplaridan biridir.

Bozor iqtisodiyotini barpo etish shunchaki bir maqsad emas. Barcha iqtisodiy, demokratik, siyosiy islohotlarning pirovard maqsadlarining o'zi, eng avvalo, inson uchun munosib turmush va faoliyat sharoitlarini yaratishdir.

Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining to'qqizinchi sessiyasi Prezidentimiz I.A.Karimov ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga ustuvor vazifa sifatida qarash kerakligini e'tirof etdi.

Jumladan, kuchli ijtimoiy siyosat olib borishni, buning uchun esa ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarini yanada rivojlantirish, nafaqa bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish, aholini ekologik va boshqa xavf-xatarlardan muhofaza etish, qisqacha qilib aytganda, odamlarimizning sosial soha bo'yicha talab va e'tirozlarini qondirish masalalariga davlatning doimiy e'tiborini har tomonlama kuchaytirish lozimligini ta'kidladi.

#### **5.4. Ijtimoiy siyosat asoslari.**

Kuchli ijtimoiy siyosat respublikamiz iqtisodiyotini isloh qilishning eng muhim tamoyillaridan biridir. U shaxsning ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarini ro'yobga chiqishni ta'minlashga, oilalarning, har bir insonning farovonligini oshirishga doir chora-tadbirlar majmuasining amalga oshirilishiga erishishga yo'naltirilgan.

Mamlakatimizda islohotlarning dastlabki bosqichlarida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish chog'ida aholiga ijtimoiy kafolatlar yaratib ko'yildi. Fuqarolarning mulkdan ulush olishida tenglik tamoyiliga, shuningdek, xususiylashtirilayotgan korxonalar mehnat jamoasi a'zolarining ijtimoiy himoya qilinishiga kat'iy rioya etildi.

Imtiyozlarning butun bir tizimi ishlab chiqildi. Korxonalar xususiylashtirilgandan keyin ularga yordam berish maqsadida soliq sohasida ham imtiyozlarning ayrim turlari belgilandi. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy kafolatlar tizimi xususiylashtirish jarayonini amalga oshirish uchun ham, shuningdek, xususiylashtirilgandan keyin korxonalar faoliyatini muvaffaqiyatli boshlashi uchun ham imkon boricha ko'proq qulay sharoit yaratishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov mustaqillikning birinchi kunidanoq iqtisodiyot va jamiyatni isloh qilishning beshta asosiy tamoyilini belgilab berdi. Ularning tub mohiyati bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan bozor munosabatlarining kuchli ijtimoiy yo'naltirilganidir. Aynan shu bois O'zbekiston o'sha davrda boshqa mamlakatlarda keng ko'llanilgan «falaj qilib davolash» modelini inkor etib, o'tish davrida aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlagan holda, islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish, ijtimoiy sohaning barcha tarkibiy qismlarini jadal takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqdi. 2000 yilda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Ming yillik deklarasiyasi qabul qilindi. Uni imzolagan 189 davlat rahbarlari o'z mamlakatlari halqlari

farovonligini oshirishga qaratilgan 18 ta asosiy vazifani hal etish uchun barcha imkoniyatlarni ishga soldi. «BMTning Ming yillik deklaratsiyasi» bolalar va onalar o'limini kamaytirish, erkaklar va ayollar tengligini ta'minlash, maktab ta'limi bilan aholini to'liq kamrab olish, toza ichimlik suvdan foydalanish darajasini ko'tarish, ekologik sog'lomlashtirish va atrof-muhit barqarorligini ta'minlash kabi muayyan vazifalar bajarilishini nazarda tutadi.

Bu o'rinda shunday savollar tug'ulishi tabiiy: aholining farovonlik darajasini qanday qilib aniq belgilash mumkin? Farovonlik darajasini qiyosiy ko'rsatkichlarda ifodalasa bo'ladimi? Bu har bir mamlakatning yutuqlarini to'g'ri va xolis baholash, uning xalqaro doiradagi darajasini belgilash istagida bo'lgan sosiologik-iqtisodchilar oldidagi eng dolzarb masalalardan biridir.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilishni yanada kuchaytirish bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish, jamiyatda ezgulik, mehr-muruvvat va hamjihatlik, tinchlik va osoyishtalik muhitini mustahkamlash maqsadida, shuningdek O'zbekiston Respublikasida 2007 yil – "Ijtimoiy himoya yili" deb e'lon qilgani munosabati bilan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoyishida "Ijtimoiy himoya yili" davlat Dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida<sup>2</sup> quyidagi masalalar bilan bog'liq vazifalarni hal etishga alohida e'tibor qaratilsin:

- ijtimoiy himoya tizimining samaradorligini oshirish, aholining ijtimoiy nochor qatlamlariga yordam ko'rsatishda tabaqalashgan holda yondoshuvni kuchaytirish maqsadida huquqiy norma va qoidalarni belgilab beruvchi yangi qonun xujjatlari ro'yhatini ishlab chiqish;

- amaldagi qonun xujjatlari hamda normativ-huquqiy xujjatlarga quyidagilarni nazarda tutgan qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish bo'yia takliflar tayyorlash:

---

“Ижтимоий ҳимоя йили” давлат Дастурини ишлаб чиқиш ва амалга ошириш бўйича ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ф а р м о й и ш и Халқ сўзи 2006 йил 13 декабр

a) aholi nochor qatlamlarining turli toifalariga, birinchi galda yolg'iz keksa fuqarolar, nogironlar, boquvchisini yo'qotgan balog'atga etmagan bolalarga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam normalari va stavkalarini maqbullashtirish;

b) keksalar va nogironlar uylarini, bolalar uylarini hamda kasalliklarga chalingan bolalar uchun internatlari, urush va mehnat faxriylari uchun davolash muassasalarini ta'minlashga sarflanadigan normativ moddiy xarajatlar miqdorini maqbullashtirish;

v) 2 yoshgacha bolalari bo'lgan onalarga, ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalarga mahalla qo'mitalari tomonidan ko'rsatiladigan moddiy yordam va ijtimoiy nafaqalar miqdorlarini qayta ko'rib chiqish;

- "Mehribonlik" uylari va maxsus maktab-internatlarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, boquvchisiz qolgan bolalarga e'tiborni yanada kuchaytirish, "Sen yolg'iz emassan" insonparvarlik shiorini hayotga amaliy joriy etilishini ta'minlash;

- aholining nochor qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish tizimini kuchaytirish, nochor oilalar, nogironlar va yolg'iz keksalarga aniq va samarali ijtimoiy yordam ko'rsatishni oshirish, ularning ehtiyojlarini yanada to'liq qondirilishini ta'minlash, ularga moddiy yordam va ma'naviy madad ko'rsatish, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini amalga oshirishda mahallaning rolini kuchaytirish;

- jismoniy sog'lom, ma'naviy boy avlodni shakllantirish chora-tadbirlarini yanada kengaytirish, onalik va bolalik to'risida g'amxo'rlikni kuchaytirish, "Sog'lom ona – sog'lom bola" harakatini rivojlantirish. Bunda nafaqat moddiy yordam bilan bog'liq, balki maktablarning yuqori sinf o'quvchilari, kasb-hunar kollejlari, akademik liseylar va oliy o'quv yurtlari yoshlari o'rtasida tushuntirish ishlari, turli fakultativ mashg'ulotlarni olib borish bilan bog'liq bo'lgan aniq yo'nalishlar belgilab olinsin;

- "Mehribonlik", "Sahovat" va "Muruvvat" uylarining ijtimoiy xizmat ko'rsatish tizimi xodimlari mehnatini rag'batlantirish va munosib baholash mexanizmini yanada takomillashtirish;

- yoshlarning hayotiy manfaatlarini ta'minlash, ularning qobiliyati va salohiyatini yuzaga chiqarish uchun sharoit yaratish, yosh oilalar mustaqil hayotga qadam qo'yishida ularni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish yo'li bilan qo'llab-quvvatlash, yosh oilalarga imtiyozli kreditlar berish;

- hurmatli faxriylar va pensionerlarning sog'lom va sermazmun hayot kechirishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, yordamga muhtoj odamlarga beg'araz yordam ko'rsatish, jamoatchilik tomonidan ularning keng ko'lamda e'tirof etilishi va qo'llab-quvvatlashini ta'minlash va xokazo.

## **5.5. Chet mamlakatlarda ijtimoiy muhofaza**

Demokratik jamiyatning asosiy maqsadi insonni har tomonlama kamol toptirishdan iborat. Jahon tajribasida muayyan mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish darajasi va reytingini aniqlash uchun ko'pincha BMT tomonidan ishlab chiqilgan Inson salohiyatini rivojlantirish indeksidan foydalaniladi. U uch asosiy ko'rsatkichdan iborat: ta'lim darajasi (savodxonlik va bolalar ta'limi qamrovi), insonning o'rtacha umri qanchaligi va mamlakatda ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga nisbati. Bu indeksni ishlab chiqqan mualliflarning o'zlari ham, ko'rsatkichlar qamrovi kamligi tufayli, u mamlakat farovonligi darajasini aniqlashda har doim ham mos kelavermasligini tan olishadi. YALpi ichki mahsulot hajmining o'sishi, banklar % stavkalari yoki jahon bozorlarida aksiya narxlariga qanchalik muhim bo'lmasin, ular inson turmush darajasini aniq belgilashning yagona mezonini bo'la olmaydi. Masalan, neftga boy davlatlarda aholi jon boshiga daromad yuqori bo'lsada, boylar va kambag'allar daromadlari o'rtasidagi farq eng baland ekani ayon. Daromad darajasining pastligi kambag'allarga ta'lim, tibbiyot, zamonaviy turar-joy va kommunal xizmatlardan keng foydalanish imkonini bera olmaydi.

2003 yildagi Inson taraqqiyoti xaqidagi hisobotda 1991 – 2001 yillarda dunyoning 21 mamlakatida inson salohiyatining rivojlanish ko'rsatkichi pasaygani tashvish bilan qayd etilgan. Ular orasida MDH tarkibidagi Armaniston, Belarus, Qozog'iston, Moldova, Rossiya, Tojikiston, Ukraina kabi mamlakatlari hamda Afrika kit'asidagi 14 davlat bor.

Jumladan, Qozog'istonda yalpi ichki mahsulot o'sish darajasi yuqori. Ammo BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi vaqtda mamlakat aholisining 22 % dan ortig'i oziq-ovqat mahsulotlari taqchilligiga duch kelmoqda (bu xuddi shunday tadqiqot o'tkazilgan 1995 yil ko'rsatkichlaridan ancha past), aholining uchdan bir qismi kashshoklikda kun kechirmoqda.



Qirg'izistonda kuniga 2100 k.kaldan kam oziq-ovqat mahsuloti iste'mol qiladiganlar soni 2001 yilda 55 foizdan ortiq edi. Bu mazkur mamlakatda aholining boy qatlami iqtisodiy o'sish ne'matlaridan ko'proq foydalanayotganini ko'rsatadi.

Kelajak sog'lom avlod ko'lida bo'lishi kerak. SHu bois BMT hisobotida keltirishicha, Afrika mamlakatlarida, Rossiya, Hindiston va Xitoy kabi yirik davlatlarda OITV – OITS bilan kasallanganlar soni keskin oshayotgani tashvishlidir. Bu esa, juda ko'p resurslar yo'qolishiga sabab bo'lishidan tashqari, 2015 yilga borib, ushbu mamlakatlarda odamlarning o'rtacha umri qisqarishiga olib kelishi mumkin.

Taniqli iqtisodchi, Nobel mukofoti laureati YAnosh Kornai «hozirgi zamon iqtisod fani o'tish davrining barcha omillarini ilmiy asosda baholash uchun etarli darajada salohiyatga, aholi turmush darajasi va farovonligiga bu davr ta'sirini ob'ektiv baholashga qodir emasligini tan oldi. SHunday qilib, o'tgan asrning 90-yillari boshida ishlab chiqilgan inson salohiyati rivojlanish indeksi ko'rsatkichlarini bugungi kunda muayyan mamlakat taraqqiyotini va aholi farovonligini xolisona baholovchi samarali vosita deyish qiyin. Ayniqsa, iqtisodiyoti o'tish davrini boshidan kechirayotgan va aholisining demografik tarkibi turlicha bo'lgan mamlakatlarda bu tajribani qo'llash kutilgan natijani bermaydi. Masalan, O'zbekistonda aholining 60 %dan ortig'ini yoshlar tashkil qiladi. Rivojlangan /arb mamlakatlarida esa aholining ko'pchiligi keksalardan iborat. SHunday ekan, inson salohiyati rivojlanishining strategik maqsadlari ham bir xil bo'la olmasligi kundek ravshan.

Mingyillik deklarasiyasi maqsadlariga erishish uchun turli yoshdagi aholining turmush darajasi va sifatini ifodalovchi ko'rsatkichlar doirasini kengaytirish darkor. Xalqaro tajribada taqqoslash uchun ko'llanadigan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning 50 dan ortiq ko'rsatkichi tahlil muayyan mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini aks ettiruvchi va aholining ijtimoiy farovonligi darajasiga bevosita ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlarning eng muhim o'n ikki guruxini ajratish imkonini berdi. Ularga quyidagilar kiradi:

- **demografiya va salomatlik** (insonning o'rtacha umri qanchaligi, bolalar va onalar o'limi darajasi, umumiy o'lim koeffisienti);
- **ta'lim** (savodxonlik, aholining bazaviy ta'lim qamrovi);

- **turmush darajasi** (aholi jon boshiga real yalpi ichki mahsulot darajasi);
- **bandlik** (ishsizlik darajasi);
- **hayot uchun zarur ta'minot** (ichimlik suv ta'minoti, sanitariya sharoitlari);
- **oila instituti rivojlanishi** (nikoxsiz bolalar tug'ilishi, ajralish darajasi va oiladan tashqarida tarbiyalanayotgan bolalar soni);
- **oziq-ovqat xavfsizligi** (umumiy iste'mol doirasida oziq-ovqat mahsulotlari importi ulushi);
- **jinoyatchilik** (aholi o'rtasida jinoyatchilik darajasi);
- **kasalliklar tarkalishi**;
- **iqtisodiy xavfsizli** (yalpi milliy mahsulotga nisbatan tashqi qarz hajmi);
- **bazaviy ijtimoiy ehtiyojlarga ketadigan xarajatlar** (sog'liqni saqlash va ta'limga sarflanadigan byudjet xarajatlarining yalpi ichki mahsulotga nisbatan miqdori);
- **aholi daromadlarining daromadlar bo'yicha farqlanishi** (butun aholi umumiy daromadida aholining eng kam ta'minlangan 20%i daromadlari ulushi).

Xalqaro hisobotlar, jumladan, «Ijtimoiy monitoring, UNICEF, 2003», «Dunyo rivojlanishi to'g'risida hisobot, Jahon banki, 2002» kabi manbalardan olingan. Bu ma'lumotlar ijtimoiy farovonlik ko'rsatkichini hisoblash uchun ko'llaniladigan tartib asosida yagona indeksga jamlandi. Jamlanma indeks bo'yicha turli mamlakatlarni taqqoslash shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston aholi jon boshiga nisbatan yalpi ichki mahsulot hajmi bo'yicha hozircha pastki o'rinlardan bo'lsa-da, aholi farovonligining yuqoridagi ko'rsatkichlari indeksi asosida jamlangan indeksga ko'ra MDH mamlakatlari o'rtasida peshqadam hisoblanadi (5.4.-jadval).

5.4.-jadval

MDH mamlakatlarning ijtimoiy farovonlik ko'rsatkichi

Davlat	Ijtimoiy farovonlik ko'rsatkichi (jamlanma ko'rsatkich)	Reyting
Ozorbboyjon	0,717	3
Armaniston	0,585	11
Belarus	0,719	2

Gruziya	0,602	9
Qozog'iston	0,667	4
Qirg'iziston	0,598	10
Moldova	0,580	12
Rossiya	0,626	6
Tojikiston	0,619	8
Turkmaniston	0,652	5
Ukraina	0,622	7
O'zbekiston	0,738	1

Bunday baholash dunyodagi eng nufuzli mustakil tadqiqot markazlaridan biri bo'lgan Pyu Riserch Senter ijtimoiy tadqiqotlar markazi (AQSH) o'tkazgan tahlil natijalarida ham bilvosita o'z tasdig'ini topdi. Bu markaz yaqinda dunyoda muhim o'rin tutuvchi 44 mamlakat, shu jumladan, MDH davlatlaridan O'zbekiston, Rossiya va Ukrainada so'rov o'tkazdi. Bu so'rov natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston aholisining 70%i mamlakatdagi ahvoli va yashash sharoitlaridan mamnun. Vaholanki Xitoyda bu ko'rsatkich 50 %dan past, Rossiyada 20, Ukrainada 9%ni tashkil qilgan.

SHuningdek, so'rov natijalaridan fuqarolarning o'z mamlakati rahbariga munosabati bo'yicha O'zbekiston Renspublikasi Prezidenti Islom Karimov jahondagi davlat rahbarlari o'rtasida eng yuqori reytingga ega ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu tabiiy hol, chunki so'ralganlarning 95 foizi uni qo'llab-quvvatlagan.

## **5.6. Respublika iqtisodiyotining ijtimoiy yo'naltirilganligi**

Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan bozor islohotlarining «O'zbek modeli» amalga oshirilishi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarning dastlabki yillarida aholi turmush darajasi keskin pasayishiga yo'l qo'ymaslik va keyinchalik barqaror ijobiy natijalarga erishish imkonini berdi. Jumladan, 1989 – 1998 yillarda O'zbekistonda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot hajmi nafaqat MDH, balki Boltiqbo'yi mamlakatlari va SHarkiy Evropaning ba'zi davlatlari orasida eng kam darajada pasaygani kuzatildi (O'zbekistonda – 21, Rossiyada – 48, Ukrainada – 60, Gruziyada – 67, Latviya va Litviyada – 33,

Bolgariyada – 27 % va hokazo). Mamlakat rahbariyati tomonidan ko'rilgan izchil, bosqichma-bosqich chora-tadbirlar natijasida O'zbekiston MDH mamlakatlari o'rtasida 2000 yilda yalpi ichki mahsulotining miqdori bo'yicha islohotlargacha bo'lgan darajasiga chikib olgan birinchi davlat bo'ldi. MDHning qolgan mamlakatlarida ushbu ko'rsatkich 40 %dan 78 %gacha tashkil etdi. 1996 yildan boshlab O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning yiliga o'rtacha 4 % barqaror o'sishi ta'minlandi va 2004 yilda 7,7%ga etdi.

Inflyasiya darajasining 2002 yildagi 21 %dan 2004 yilda 3,7 %gacha pasayishi hukumat va Markaziy bank tomonidan kat'iy fiskal va pul-kredit siyosatini tartibga solishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilishi natijasidir. SHu maqsadda davlat byudjeti taqchilligini qoplash uchun jalb etilgan Markaziy bank kreditlari hajmi izchil qisqartirib borildi, 2004 yildan esa, butunlay to'xtatildi. Davlat byudjeti takchilligi 1998 yildan beri yalpi ichki mahsulotning 2 %idan oshmadi, 2004 yilda esa 0,4 %ni tashkil etdi.

O'tish davrida, o'z iqtisodiyotining haqiqiy imkoniyatlarini hisobga olmay, tashqi qarzlar olish yo'li bilan qiyinchilikni engib o'tishga intilgan ko'plab mamlakatlardan farqli o'laroq, respublikamizda bu borada puxta o'ylangan siyosat olib borilmoqda. CHunonchi, O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotga nisbatan tashqi qarz hajmi 25 %ni tashkil etadi, ayni paytda Qirg'izistonda bu ko'rsatkich 125%, Rossiya 70%dan yuqori, Qozog'istonda 38 %ga teng. Afsuski, sobik sho'ro tuzumidan O'zbekiston iqtisodiyotiga og'ir nomutanosibliklar meros bo'lib kolgan edi. Negaki, mustakillikkacha mamlakatimiz «sossialistik mehnat taksimoti»da faqat xom ashyo manbai bo'lib kelgan.

SHuni aytish kerakki, respublikamiz eksportining 90 %i xom ashyo resurslari va ularning birlamchi qayta ishlash mahsulotlariga to'g'ri kelar edi. 2004 yilda respublikamiz sanoat mahsulotlari, iste'mol tovarlari va ayrim xom ashyo turlari eksporti 52%, importi 48%ni tashkil qildi. Holbuki, 1990 yilda umumiy import hajmida uskunalar ulushi 10%dan oshmagan. Istiqloq yillarida iqtisodiyotni jadallashtirish va modernizasiya qilish, ko'shimcha kiymat ulushi yuqori mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish bo'yicha ko'rilgan izchil chora-tadbirlar mamlakatimiz importi tarkibini sifat jihatidan o'zgarishiga olib keldi. So'nggi 4 – 5 yil ichida uskunalar va butlovchi qismlarning importdagi hissasi 60 % etdi. Bu, MDH davlatlari orasida eng yuqori ko'rsatkichlardan biri sanaladi. SHuningdek, ko'rilgan chora-tadbirlar

eksport xom ashyo ustunligini bartaraf etadi. Hozirda eksporti paxta tolasi 20 % kamaydi, tayyor mahsulot ulushi 2 baravar ortdi. Ayni paytda eksport tarkibida mashina va uskunalar ulushi 1995 – 2004 yillar davomida uch baravar oshdi, gazlama, kimyoviy va plastmassa mahsulotlari, avtomobillar va xizmatlar ulushi ko'paydi va 2004 yilda 52%ni tashkil qildi.

## **5.7. Davlat byudjetidan ijtimoiy ehtiyojlar uchun yo'naltirilgan sarf-xarajatlar**

Islohotlar davrida davlat iqtisodiy siyosatining asosiy vositalaridan biri hisoblangan davlat byudjeti, avvalambor, ijtimoiy rivojlanishning ustuvor vazifalarini amalga oshirishga yo'naltirildi. Bu esa inson salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan uzoq muddatli investisiyalarning darajasining barqarorligi yuqori bo'lib turishini ta'minladi.

Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga sarflanayotgan xarajatlar davlat byudjeti sarf-xarajatlari muntazam ravishda salmoqli o'rin egallab kelmoqda. Masalan, 2004 yilda jami byudjet sarf-xarajatlarning qariyb 48 % ana shu maqsadlarga yo'naltiriladi. Bunda ijtimoiy soha xarajatlarning 83 % inson salohiyatini rivojlantirishga, ya'ni ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va fanga to'g'ridan-to'g'ri yo'naltirganini alohida ta'kidlash joiz.

2004 yilda bevosita ijtimoiy ta'minotga, ikki yoshga to'lmagan bolasi bor onalarga to'lovlar, kam ta'minlangan va 18 yoshga etmagan farzandlari bor oilalarga nafaqalar to'lashga yo'naltirilgan byudjet xarajatlari 15 % ko'paytirildi.

MDH mamlakatlarida ta'limga davlat byudjetining

7,5 dan 18 %gacha qismi sarflanayotgan bir paytda, O'zbekistonda ta'lim uchun byudjetdan ajratilgan mablag'lar umumiy xarajatlarning qariyb 38 %ini tashkil etmoqda. Maktablarni darsliklar, kam taminlangan oilalar farzandlarini qishki kiyim va poyabzal, birinchi sinf o'quvchilarini o'kuv qurollari, maktablar, maktabgacha tarbiya muassasalari, akademik lisey va kasb-hunar kollejlarni mebel, o'quv uskunalari, sport anjomlari va boshqa zarur jihozlar bilan ta'minlash, kompyuter va internet-sinflar tashkil etish hamda binolarni ta'mirlash – bular ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan ezgu ishlardan ayrimlari, xolos.

Ta'lim tizimida o'z mohiyati va ko'lami bo'yicha noyob hujjat – kadrlar tayyorlash milliy dasturi muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Hozirgacha 575 akademik lisey va 842 kasb-hunar kolleji kurilib, ishga tushurildi. Kelgusi besh yil ichida yana 704 ming o'kuvchiga mo'ljallangan 113 akademik lisey va 869 kasb-hunar kolleji foydalanishga topshiriladi.

Byudjet mablag'lari hisobidan 2005 yil kapital qurilish uchun ajratilgan mablag'larning 60 %dan ortig'ini kasb-hunar kollejlari va akademik liseylar qurilishini moliyalashga sarflanishi ko'zda tutilgan.

Davlat ilmiy-texnik salohiyatini kengaytirish uchun mustahkam asos bo'ladigan fan va madaniyat kabi jamiyat xayotining muhim sohalarini rivojlantirishga, iqtisodiyotni modernizatsiyalash va raqobatbardoshligini oshirishga katta e'tibor qaratmoqda.

Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish dasturida sog'liqni saqlashning birlamchi bo'g'inini mustaxkamlash, shoshilinch tibbiy yordam tizimini kengaytirish, onalik va bolalikni muhofaza qilishni kuchaytirish ko'zda tutilgan. Inson salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan mazkur chora-tadbirlar har tomonlama puxta o'ylangan. Ko'lami va ahamiyatini hisobga olgan xalqaro moliya institutlari va tashkilotlari ushbu dasturga qiziqish bilan qarashmoqda va uni amalga oshirishda moliyaviy yordam ko'rsatilmoqda. Xususan, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Islom tarqqiyot banki, YAponiya, Ispaniya va Quvayt hukumatlari tomonidan jami 172,5 million AQSH dollari miqdorida mablag' ajratildi.

2005 yil «Sihat salomatlik yili» deb e'lon qilindi va uni amalga oshirish borasida maxsus dastur ishlab chiqildi.

Har yili «Oila manfaatlari amalga oshirilishini ta'minlash», «Sog'lom avlod», «Ona va bola», «Qariyalar manfaatlarini himoya qilish», «Obod mahalla», «Mehr va muruvvat» kabi davlat ijtimoiy dasturlari qabul qilinib, muvaffakiyatli amalga oshirilmoqda. Profilaktika va aholi salomatligini mustahkamlash tizimida jismoniy tarbiya, birinchi navbatda, bolalar sportini rivojlantirish muhim o'rin tutmoqda.

Qishlok aholisi turmush sharoitini yaxshilash maqsadida qishloq aholisini ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlash davlat dasturi amalga oshirilmoqda. Umuman olganda, mustaqillik yillarida qishloq aholisining tabiiy gaz bilan ta'minlanishi darajasi 19 dan 75 %ga, ichimlik suvi bilan ta'minlanishi esa 55 dan 75 %ga ko'tarildi.

Qishloq joylarda gaz quvurlari 7,2 va suv quvurlari tarmog'i 2,2 baravar uzaytirildi.

Aholini ish bilan ta'minlash amalga oshirilayotgan islohotlarimizning muhim ijtimoiy jihatidir. Respublikamiz aholisi o'rtasida vaqtincha ishsizlik darajasi keyingi 2 yilda 3,6 %ga kamaydi. Bu MDH mamlakatlari orasida eng past ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. Bandlik sohasida qishloq xo'jaligidagi ortiqcha mehnat resurslarini sanoat, savdo, transport, aloqa, qurilishi va boshqa tarmoqlarga jalb qilishda sezilarli o'zgarishlar amalga oshirildi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish aholi bandligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda 250 mingta kichik biznes korxonasi faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda 5,5 million kishi mehnat qilmoqda va yalpi ichki mahsulotning 35 %dan ortig'i ishlab chiqarilmoqda. Kichik va xususiy korxonalarda birgina 2003 yili 375 va 2004 yilda 427 ming yangi ish o'rni tashkil etildi.

Kichik va xususiy korxonalarni rivojlantirish aholi daromadlari tarkibi o'zgarishiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Ushbu daromadlarning 50 %dan ortig'i turli tadbirkorlik faoliyati va xususiy mulkchilikdan olingan daromadlarga to'g'ri keladi, kichik tadbirkorlikda band bo'lganlar soni 6 mln. nafardan ortdi.

Hukumatimiz soddalashtirilgan soliq tizimini joriy qilish, tekshiruvlar sonini qisqartirish, yangi tashkil etilayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarni ro'yxatga olish tartibini soddalashtirish, kichik biznesga kredit ajratilayotgan tijorat banklariga soliq imtiyozlari berish yo'li bilan xususiy tarmoq va kichik tadbirkorlikni faol qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirishga yo'naltirilgan izchil siyosat yuritmoqda. Bu borada xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik kengaymoqda. Ular ishtirokida O'zbekistonda kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha ko'plab dasturlar amalga oshirilayotir. Keyingi yillarda Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki hamda boshqa xalqaro moliya institutlarining jalb qilingan kreditlari, shu jumladan, hukumat kafolati ostidagi kreditlarning umumiy miqdori 0,5 milliard AQSH dollariga etdi.

### **5.8. Ijtimoiy siyosat muammolari va istiqbollari**

Erishilgan betimsol yutuqlarga qaramay, yurtimizda barcha ijtimoiy muammolarni hal etildi, deb o'ylash soddalik bo'lur edi. Aslida dunyodagi biron-bir davlat bu boradagi muammolari to'la-to'kkis hal

qilingani bilan maqtana olmaydi. E'tiborli jihati shundaki, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolar chuqur tahlil etilgan holda ularni hal qilishga qaratilgan uzoq muddatli strategik dasturlar ishlab chiqilib, izchillik bilan amalga oshirilmoqda.

Aholi bandligi va daromadini oshirish imkoniyatini kengaytirishga qaratilgan xorijlik hamkorlar ishtirokida yangi qo'shma korxonalar hamda kichik biznes korxonalarini tashkil etish borasida ham bir qancha dasturlar hayotga tatbiq etilayotir.

Yana bir muammo – qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida ortiqcha ishchi kuchi mavjudligidir. Bu muammo qishloq ho'jaligida mehnat unumdorligini pasaytiribgina qolmay, iqtisodiyotning ushbu tarmog'ida mehnat qilayotgan ishchilar daromad darajasi kamayishiga ham sabab bo'lmoqda. SHu bois qishloq joylarda qishloq xo'jaligi tarmog'iga kirmaydigan qayta ishlash sanoati, qurilish, xizmat ko'rsatish va ijtimoiy xizmatlar sohasida bandlikni kengaytirish uchun sharoitlar yaratish eng muhim vazifa hisoblanadiki, bu borada davlatimiz keng qamrovli ishlarni amalga oshirishmoqda.

Aholi daromadining o'sishi, to'lov layoqatining oshishi o'z navbtida iste'mol bozorini kengaytirishni ta'minlab, mahalliy iste'mol tovarlari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish uchun sharoit yaratishni taqazo etadi. Bu esa aholining ish bilan ta'minlanishi va daromadining yuksalishiga olib keladi.

Mamlakatimiz oldida ta'lim sifatini yanada oshirish borasida ham katta vazifalar turibdi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, uzoq muddatli istiqbol nuqtai nazardan inson uning kamoli uchun sarflanadigan mablag' eng samarali sarmoya hisoblanadi. Ta'limni xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish uchun, amalga oshirilayotgan o'rta maxsus ta'limni isloh qilish dasturi bilan bir qatorda maktab tizimidagi islohotlarni chuqurlashtirishga zamonaviy fikrlaydigan yoshlarni tarbiyalashga qaratilgan yangi, keng qamrovli dasturlar ham hayotga tadbiq etilmoqda.

Albatta, aholiga sifatlí kommunal xizmat ko'rsatish, sog'likni saqlash sohasini takomillashtirish kabi boshqa ijtimoiy muammolar ham bor. Bular ham davlat hokimiyati tegishli idoralarining doimiy diqqat markazida turibdi.

## **Qisqacha hulosalar**



Xulosa qilib aytganda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni mahalliy va xorijiy samarali texnologiya, texnika bilan ta'minlash, sanoat korxonolari va ishlab chiqarish ijtimoiy infratuzilmasi ob'ektlarini vujudga keltirish, mahalliy xodimlarning malakasini, raqobatbardoshligini oshirish, chet elga yuborilishini ko'paytirish, ularda iqtisodiy, ma'naviy va mafkuraviy jihatdan yangicha tafakkurni shakllantirish masalalarini hal etish asosiy vazifalardan bo'lib qoladi. Viloyatlarda mehnatga layoqatli aholining ish bilan bandligining pasayishi, ishsizlikning o'sishi, yangi ish joylarini yaratish va qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish miqdorining qisqarishi, mehnat unumdorligining pasayishi, inflyasiya, mulkchilikning turli shakllari sekinlik bilan vujudga kelishi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar (yaqin kelajakda ham agrar sektor mavqeining saqlanib qolishi) mehnatdan olinadigan haqiqiy daromadlarning kamayishi kabi holatlar vujudga kelgan sharoitlarda ishchi kuchiga talabni oshirish, ya'ni undan samarali foydalanish va uning taklifini pasaytirish bo'yicha tadbirlar ishlab chiqish taqazo etiladi.

YUqoridagilardan shunday xulosa chiqarish mumkin: totalitar tuzumdan murakkab muammolar meros bo'lib qolganiga qaramay, prezidentimiz Islom Karimov iqtisodiyotning barqaror o'sishi, aholi turmush darajasi va sifatini oshirishga qaratilgan iqtisodiy hamda ijtimoiy islohotlar siyosatini ishlab chiqarib, uni amalga oshirish bilan mamlakatni inqirozdan olib chiqdi. Tanlagan yo'limiz to'g'riligini va O'zbekistonda bozor iqtisodiyotini shakllantirish milliy modeli – taraqqiyotning samarali usuli ekanini hayotning o'zi tasdiqladi. O'zbekistondagi jamiyat barqarorligi va ijtimoiy farovonlikning yuqori darajasi bugungi kunda BMT va halqaro mustaqil tadqiqot markazlari tomonidan ham tasdiklangan va umume'tirof etgan haqiqatdir. Qayd etilgan yutuqlarini mustahkamlash borasidagi sa'y-xarakatlarning muntazam rivojlanib borishi, xamma aholi turmush darajasini iqtisodiyot va jamiyatni isloh qilishning navbatidagi bosqichlarida chnada oshirish davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalaridan bo'lib qolaveradi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. O'zbekiston viloyatlarida mehnat bozori qanday holatda?
2. O'zbekiston viloyatlarida mehnat bozori qanday imkoniyatlarga ega?

3. O'zbekiston mintaqalarining demografik holati, deganda nimani tushunasiz?
4. Mehnat bozori rivojlanishi uchun nimalar qilish kerak?
5. Mehnat bozorini tartibga solish uchun nimalar qilish kerak?
6. Respublika viloyatlarida mehnat bozorini tartibga solish xarajatlarini tahlil qilib bering?
7. Viloyatlarda mehnatga layoqatli aholining ish bilan bandligi nega pasaygan?
8. Qoraqalpog'iston Respublikasida mehnatga yaroqli aholi orasida ishsizlar soni nega o'sgan?
9. O'zbekiston hududlarida demografik rivojlanish sur'atining pasayishi kuzatilyaptimi? Buni sababi nimada?
10. 2005 yilda mintaqalar bo'yicha aholining iqtisodiy faolligi oshadimi?
11. Ijtimoiy siyosat asoslari nimalardan iborat?
12. CHet mamlakatlarda ijtimoiy muhofazaga qanday amal qilinadi?
13. Iqtisodiyotning ijtimoiy yo'naltirilganligi qanday xarajatlar bilan ifodalanadi?
14. O'zbekistonda ijtimoiy siyosat hayotga qanday tatbiq etilmoqda?
15. Ta'lim sohasida qanday dastur amal qilmoqda?
16. Aholining muxtoj qatlamlarini himoya qilishga qanday e'tibor berilmoqda?
17. Respublikaning qishloq joylarda suv, gaz ta'minoti qanday holatda?
18. O'zbekistonda nechta oliy o'quv yurti bor?
19. Respublikaning ilmiy potentsiali qanday?
20. Tibbiy xizmat ko'rsatish tizimi qanday rivojlanyapti?

### **Asosiy adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2003.
2. I.A Karimov. «Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni moderinizasiya va isloh etishdir». – T. O'zbekiston, 2005. 96-b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2005 yil 3 maydan boshlab ish haqi, nafaqalar, stipendiyalar va ijtimoiy nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida»gi Farmoni. – Xalq so'zi, 2005y., 26 mart.

4. O'zbekiston Respublikasining «Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi qonuniga sharhlar. (O'zR Mehnat vaziri SH.Ibragimov umumiy tahriri ostida. SHarh mualliflari A.Akbarov, A. To'raev). – T.: SHarq, 2000., – 384 b.
5. Q.X Abdurahmonov «Mehnat iqtisodi – nazariya va amaliyot». – T.: Mehnat, 2004. –670 b.
6. Inson taraqqiyoti to'g'risida hisobot. – T.: O'zbekiston, 2002 – 180 b
7. M.R Raximova . Mintaqa va maxalliy xo'jalik iqtisodiyoti. O'quv-qug'o'llanma.T.: 2004y.
8. «Internet veb-saytlari.  
[WWW.ceep.uz](http://WWW.ceep.uz).  
[WWW.bearingpoint.uz](http://WWW.bearingpoint.uz).  
[WWW.pca.uz](http://WWW.pca.uz).

## **6-BOB. O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA SANOAT TARMOQ/INI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIIY JIHLTLARI**

### **6.1. Sanoat tarmoqlari va ularning rivojlanish ko'rsatkichlari**

Tarmoqlar orasida asosiy bo'g'in sanoatning ishlab chiqarish majmuasi hisoblanadi. Sanoat majmuasining muhim xususiyati shundaki, uning barcha tarmoqlarida mehnat vositalari va iste'mol tovarlari, milliy daromadning katta qismi yaratiladi, ilmiy-texnika taraqqiyotiga erishiladi. Ayni paytda O'zbekistondagi mehnatga yaroqli aholining asosiy qismi ham sanoat ishlab chiqarishida band. Sanoat ishlab chiqarishi jamiyatning ob'ektiv iqtisodiy qonunlari hamda respublikamizda so'nggi yillarda qabul qilingan qonun va qarorlar asosida rivojlanmoqda. O'zbekiston sanoati ayni vaqtda o'z tarmoqlari va boshqa ijtimoiy tarmoqlar uchun moddiy-texnik vositalar hamda xalq ehtiyojiga kerak bo'ladigan mahsulotlarni ham uzluksiz tayyorlab bermoqda. SHu boisdan ham sanoat ishlab chiqarishi darajasi va samaradorligining o'sishini ta'minlash lozim. CHunki sanoat ishlab chiqarishi darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, respublikamizning iqtisodiy poydevori shuncha mustahkam, aholining turmush sharoiti ham shuncha yaxshi bo'ladi.

SHuni ham aytish lozimki, sanoat majmuasining har qanday tarmog'i ichki tuzilmasidagi o'zgarishlar amalda boshqa tarmoqlar – qishloq xo'jaligi, agrosanoat majmuasining boshqa sohalari, qazib oluvchi tarmoqlar bilan uzviy bog'liq.

Endilikda sanoatning ahamiyati tobora oshib bormoqda. Iste'mol bozoridagi tanqislik tufayli sanoat tarmoqlari ilgarigiga nisbatan keng ko'lamda xalq iste'moli mollari ishlab chiqarishga yo'naltirilmoqda hamda xususiylashtirilmoqda. Iste'mol mollarini ko'plab ishlab chiqarish, ayniqsa, chetga xom ashyo emas, balki tayyor mahsulot chiqarish hamda qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirish nafaqat sanoat ishlab chiqarishining ahamiyatini oshiradi, balki jahon bozorida O'zbekiston iqtisodiyotiga bo'lgan ishonchni ham mustahkamlaydi. Hozirgi kunga kelib, sanoat tarmog'ida yalpi ichki mahsulotning 17 foizi yaratiladi. Bu shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyotining rivojlanishi natijasida mamlakat iqtisodiyoti industriallashtirish iqtisodiyot sari

rivojlanmoqda. Sanoat tarmoqlaridagi 2004 yilgi 9,4 % li o'sish, sanoat majmuasi tarmoqlari va ishlab chiqargan mahsulot 8074,8 mlrd. so'mlikni tashkil etgani ham shundan dalolat bermoqda.

Sanoat majmuasi mahsulotlariga uning tarmoqlari quyidagicha hissa qo'shmoqda: yoqilg'i sanoati va energetika – 18,3%; metallurgiya – 13,9%; engil sanoat – 18,6%; ximiya sanoat – 5,2%; mashinasozlik – 15,8%; oziq-ovqat – 10,8%; qurilish materiallari – 6,5%; yog'ochni qayta ishlash – 2% va boshqalar.

Sanoat xalq xo'jaligining yirik sohasi bo'lib, unda 1 mln.dan ortiq ishchi va xizmatchi band. Bu ish bilan band aholining sakkizdan bir qismini tashkil etadi. Sanoatda 100 dan ortiq tarmoq bo'lib, ulardan 6 tasi bazaviy hisoblanadi. Asosiy fondlarning 40 %i sanoat hissasiga to'g'ri keladi, yalpi ichki mahsulotning 16 %dan ortiqrog'i sanoatda yaratiladi. O'zbekiston sanoatida elektr energiyasi, gaz, neft, ko'mir, benzin, po'lat, avtomobillar, traktorlar, paxta terish mashinalari, elektrdvigatellar, transformatorlar, akkmulyatorlar, kabellar, ekskavator, ko'priqli ko'targichlar, yigiruv mashinalari, samolyotlar, otingugurt kislotasi, mineral o'g'itlar, sun'iy tolalar, sement, turli qurilish materiallari, gazlamalar, paxta moyi, un, guruch, kiyim - kechak, oziq-ovqat mahsulotlari va boshqalar ishlab chiqariladi. Respublika sanoatida tarmoqlarning tutgan o'rni har xil (7.1-jadval).

Sanoat tarmoqlari orasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi va agrosanoat majmuasiga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar tarixan etakchi mavqega ega. Bular paxta tozalash, shoyi to'qish, konserva, yog'-moy va boshqa sanoat tarmoqlaridir. SHuningdek, kimyo va neft kimyosi, mashinasozlik, elektronika, energetika, metallurgiya, engil va qurilish materiallari sanoati jadal sur'atlarida rivojlanmoqda.

Sanoat taraqqiyotida yoqilg'i-energetika majmuasining o'rni alohida. Uning tarkibiga gaz, neft va neftni qayta ishlash, ko'mir va energetika tarmoqlari kiradi. Bu majmuaning hissasi sanoat ishlab chiqarishida 26,8% dan iborat. O'zbekiston jahondagi gaz ishlab chiqaruvchi o'nta yirik mamlakat jumlasiga kiradi. Respublikada qudratli gidroelektr stasiyalari va issiqlik elektr stasiyalari mavjud.

Metallurgiya majmuasi tarkibiga ma'dan xom ashyosini, qora va rangli metallarni qazib chiqaruvchi korxonalar kiradi. Oltin, kumush, mis, qo'rg'oshin, rux, volfram, molibden, litiy, uran, alyuminiy xom ashyosi, nodir metallar va boshqa bir qator qazilma boyliklarning aniqlangan zahiralari ko'p. O'zbekistonda oltinning 30 ta koni topilgan.

O'zbekiston MDH mamlakatlari orasida qazib olinadigan oltinning umumiy miqdori bo'yicha ikkinchi, kumush, mis, qo'rg'oshin, rux va volfram bo'yicha uchinchi o'rinni egallaydi, jahon hamjamiyatida oltin ishlab chiqarish miqdori bo'yicha sakkizinchi, uni aholi jon boshiga ishlab chiqarish bo'yicha esa beshinchi o'rinda.

Kimyo va mashinasozlik majmualari sanoatning muhim sohalaridir. YAngi iqtisodiy sharoitda bu tarmoqlarda chuqur tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ular mamlakatning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga yo'naltirilgan.

Jami iste'mol mollarining uchdan bir qismi engil sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilmoqda. Bu borada an'anaviy etakchi soha to'qimachilikdir.

6.1-jadval

### Sanoat mahsulotlarining tarmoqlar bo'yicha tarkibi (%)

Tarmoqlar	2003y.	2004y.
Butun sanoat	100,0	100,0
YOqilg'i-energetika majmua	21,7	24,1
Metallurgiya	14,3	17,9
Kimyo va neft sanoati	5,7	5,6
Mashinasozlik va metallni qayta ishlash	11,8	12,0
YOg'ochsozlik sanoati	1,0	1,0
YOg'ochsozlik sanoati	4,4	4,1
Qurilish materiallari sanoati	20,3	19,4
Engil sanoat	11,7	9,6
Oziq-ovqat	6,4	6,3
Boshqalar		

Energetika respublika xalq xo'jaligining negiz tarmog'i, iqtisodiyot va texnika taraqqiyotining mustahkam poydevori hisoblanadi. O'zbekiston energetika tizimi umumiy o'rnatilgan quvvati 11,5 mln.kVt bo'lgan 37 issiqlik va gidravlik elektr stansiyalarida yiliga 55 mlrd. kVt.s dan ortiq elektr energiya ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. Bu tizimning barcha kuchlanishlardagi elektr tarmoqlari umumiy uzunligi qariyb 228 ming km. ni tashkil qiladi. Tarmoq transformatorlarining umumiy quvvati 42,6 MVA ga teng. Hozir respublika energetika tizimida 60 mingga yaqin kishi ishlaydi.

O'zbekistonda elektr quvvatidan asosan XX asr boshlaridan foydalanila boshlandi. O'sha davrda Toshkentda 2 elektr stansiya qurilgan bo'lib, biri (quvvati 1450 kVt, 5 dizel) tramvayni tok bilan ta'minlash, ikkinchisi (Pavlov elektr stansiyasi, quvvati 125 kVt ) shaharni yoritish uchun ishlatilgan. 1913 yilda O'zbekiston hududida umumiy quvvati 3 MVt chamasida bo'lgan 6 kichik dizel elektr stansiyasi bo'lgan, yillik elektr energiyasi hosil qilish 3,3 mln.kVt.s ga etgan.

O'tgan asrning 20-yillarida O'zbekistonda issiqlik energetikasi dizel va mayda bug' turbinali elektr stansiyalarini qurish yo'nalishida rivojlandi. Dizel elektr stansiyalar umumiy maqsadlarda hamda issiqlik energiyasiga ehtiyoji bo'lmagan paxta zavodlari, nasos stansiyalari, kanallar va boshqa korxonalar qoshida qurildi, dastlabki bug' turbinali elektr stansiyalari Farg'ona va Kattaqo'rg'on yog'-moy zavodlarida barpo etildi. Farg'ona yog'-moy zavodining «SHarq tongi» issiqlik elektr markazi (IEM)umumiy maqsadlardagi elektr stansiyasi bo'lgan birinchi IEM dir.

1934 yil 25 sentyabrda O'zbekiston energetika tizimining tashkiliy asosi – «O'zbekenergiya» energetikasi boshqarmasi, Energetika va elektrlashtirish vazirligi tuzildi.

30-yillar boshidan CHirchiq-Bo'zsuv GES lar kaskadi barpo etildi. O'zbekistonda birinchi gidroelektrstansiyasi – Bo'zsuv GES shu traktida qurilib, 1926 yilda ishga tushirilgan edi. CHirchiq – Bo'zsuv gidroenergetika qurilishi tez sur'atlar bilan davom ettirilib, 1926 yildan 1940 yilga qadar mazkur trakt gidroelektrstansiyalarida 67 ming kVt generator quvvatlari ishga tushirildi.

O'zbekiston Energetika va elektrlashtirish vazirligi tarkibida loyiha, qurilish-montaj, sozlash, ta'mirlash va ishlatish tashkilotlarining to'la majmua energetika tizimining ishonchli ishlashini va istiqbol taraqqiyotini ta'minlaydi. O'zbekiston energetika tizimi hozir respublika xalq xo'jaligi va aholisining elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojlarini to'la ta'minlamoqda va elektr energiyasi qisman qo'shni davlatlarga eksport qilmoqda. 2002 yilda O'zbekistonda 56,0 mlrd. kVt soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi.

**YOqilg'i sanoati.** Respublikada yoqilg'i energetika sanoati er qa'rida topilgan va qazib olinayotgan ko'mir, neft, tabiiy gaz konlari negizida shakllandi va rivojlanib bormoqda. Respublikada 160 ga yaqin neft-gaz koni ochilgan, ularning 115 tasi Buxoro-Xiva geologik

provinsiyasida, 27 tasi Farg'ona vodiysi, 10 tasi Surxondaryo, 7 tasi Ustyurtda joylashgan. Konlarning gaz, gaz-kondensatli tulari mavjud. Hozir 71 neft, gaz va gaz-kondensat konlari, 2 ko'mir konidan foydalanilmoqda. 50 dan ortiq neft, gaz va gaz-kondensat koni esa kelajakda ishga tushirish uchun tayyorlab qo'yilgan.

YOqilg'i sanoati respublika yoqilg'i - energetika majmuaning asosiy tarmog'ini tashkil etadi va barcha yoqilg'ini qazib olish, tabiiy gazni tozalash va etkazib berish, neft mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalaridan iborat. Ular xalq xo'jaligining barcha bo'g'inlariga xizmat ko'rsatadi. Yirik korxonalar Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida joylashgan. Respublika sanoat mahsulotining umumiy hajmida yoqilg'i-energetika majmuasi mahsulotlari salmoqli o'rin tutadi (1980 yilda 8,8%).

Respublika sanoatida band bo'lgan ishchi-xizmatchilar (sanoat ishlab chiqarishi xodimlari)ning 6%i yoqilg'i sanoati tarmoqlarida ishlashmoqda (80 ming nafardan ortiq). Respublikada 1992 yilda yoqilg'i sanoatida qazib olingan yoqilg'i (shartli yoqilg'i – 7000 kilokaloriya hisobida) umumiy hajmida neftning hissasi 8,3 % ni, gazning hissasi 87,3% ni, ko'mir hissasi 4,4% ni tashkil etgan. Ko'kdumaloq neft-gaz kondensat koni ochilishi va ishga tushirilishi bilan neft sanoatining yoqilg'i sanoati majmuadagi mavqei ortib bormoqda. (6.2-jadval).

Gaz sanoati - yoqilg'i energetika majmuasining eng rivojlangan tarmog'i. Uning respublikada qazib olinayotgan yoqilg'i balansidagi hissasi 87,2% ni tashkil etadi. Neft bilan yo'ldosh tarzda uchraydigan tabiiy gazni qazib olish ikkinchi jahon urushidan oldingi yillardan boshlangan.

6.2-jadval

**O'zbekistonda neft va gaz qazib olish hajmining o'sishi**

	1960 y.	1980 y.	1990 y.	2000y.	2002 y.
Neft (gaz kondensati b-n birga), ming t. Gaz.mln.m <sup>3</sup>	1603,0 446,6	2005,3 42094	1805,4 4504,6	8500,0 5500,0	9000,0 5750,0



Keyingi yillarda ko'rilgan keskin tadbirlar natijasida neft (gaz va kondensati birga) qazib olish hajmi yuqori sur'atlarda o'sdi. Respublikaning neft mustaqilligi ta'minlandi.

Neft gazidan sanoat maqsadlarida foydalanish uchun 15 km. uzunlikdagi birinchi gazoprovod «Andijonsanoat» Andijon shahri o'rtasida qurilgan. Gazni alohida sanoat usulida chiqarib olish o'tgan asrning 50-60 - yillarida boshlandi. Gaz qazib olish sanoati joylashgan asosiy tumanlar – Buxoro va Qashqadaryo, shuningdek, Farg'ona, Surxondaryo viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasidir.

**Ko'mir sanoati.** O'zbekistonda ko'mirni sanoat usulida qazib olish 1930 yillar oxiridan boshlangan. Toshkent viloyati Ohangaron vodiysida Angren ko'mir, Surxondaryo viloyatida SHarg'un, Boysuntog' toshko'mir konlari bor.

1990 yilda 10,4 mln. t. ko'mir qazib chiqarildi. Keyingi yillarda bu ko'rsatkich sezilarli darajada pasaydi. 2004 yilda respublikamizda 2700 ming t. ko'mir qazib olindi. Angren va YAngi Angren GRESlari to'la qattiq yoqilg'iga o'tkazilishi bilan respublikaning ko'mirga bo'lgan ehtiyoji ormoqda.

**Metallurgiya sanoati.** O'zbekiston erlarida rudadan metall olish 4 ming yildan ziyod tarixga ega. Qadimda misdan turli bezak buyumlar tayyorlangan. Keyinroq rudali metallar – qalay, kumush, oltin va boshqalarni eritish, quyish va qizdirib ishlash o'zlashtirilgan.

Qora metallurgiya sohasida faoliyat ko'rsatadigan yagona korxonalar Bekobod shahridagi O'zbekiston metallurgiya zavodidir. Zavodda qora metallurgiya mahsulotlarining eng muhim turlari (po'lat, cho'yan, po'lat quvurlar va po'lat prokat) ishlab chiqariladi, temir-tersak, metall chiqindilari eritiladi.

**Rangli metallurgiya** – respublika metallurgiya sanoatining etakchi tarmog'i. Bu soha mahalliy mineral xom ashyo resurslari negizida o'tgan asrning 30-yillaridan rivojlandi. Respublikada rangli kamyob va qimmatli metallar (oltin, mis, qo'rg'oshin, rux, volfram, molibden, simob va boshqalar) konlari, Qoramosor mis qo'rg'oshin-rux koni, Obirahmat, Burchimulla, Oqtuz, Takob, Ingichka, Qo'ytosh mis konlari va boshqalar topilib, ular sanoat miqyosida o'zlashtirilishi bilan rangli metallurgiya sanoati shakllandi va respublika rangli metallar ishlab chiqarish bo'yicha jahonda oldingi o'rinlardan birini egallagan mamlakatga aylandi.

Respublikada 2004 yilda rangli metallurgiya mahsulotlari ishlab chiqarish indeksining o'sishi 5,0%ni tashkil etib, 2003 yildagi pasayish ko'rsatkichlarini qopladi. Jahon bozorida rangli metallarga bo'lgan narxlarning o'zgarishi mazkur sohada o'sishga sabab bo'ldi. Qora metallurgiyada ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari ichki va tashqi bozorda mahsulotlarga bo'lgan talab ortishi bilan uzviy bog'liq. Birgina 2004 yilda qora va rangli metallarni ekport qilish 74,4%ga ortdi.

**Kimyo sanoati** respublika iqtisodiyotida muhim o'rinni egallaydi. O'zbekiston kimyo sanoatida 750 dan ortiq nomdagi mahsulot ishlab chiqariladi. Mamlakat sanoat mahsulotlari umumiy hajmda kimyo sanoati korxonalari mahsulotlari hissasi 4,6% ni tashkil etadi. Respublika kimyo sanoatida tabiiy gaz, neft, ko'mir, oltingugurt, turli minerallar, ohaktosh, grafit, shuningdek, rangli metallar, paxta va kanopni qayta ishlash chiqindilaridan xom ashyo tarzida foydalaniladi. O'zbekiston kimyo sanoatida ishlatiladigan xom ashyoning asosiy qismi (70%ga yaqini yoki 650 dan ortiq turdagi mahsulot) hamda ehtiyot qismlar va asbob-uskunalar chetdan olib kelinadi (Rossiyadan toluol, yog'och sellyulozasi, kaustik soda, Qozog'istondan fosforitlar va boshqalar). Ayni paytda kimyo sanoati mahsulotlari (mineral o'g'itlar, kaprolaktam, kimyoviy tolalar hamda iplar, sintetik ammiak, lak-bo'yoqlar va boshqalar) eksport qilinadi.

**Mashinasozlik sanoati.** O'zbekistonda mashinasozlik sanoatining dastlabki korxonalarini XX asr boshlarida vujudga keldi. Dastlabki paytlarda O'zbekistonda metallga ishlov berish sanoati asosan 14 ta kichik ta'mirlash ustaxonalaridan iborat edi. Ularda temir yo'l, paxta tozlash va yog' zavodlarining ta'mirlash ishlari bajarilardi. Qishloq xo'jaligiga kerak paxta terish mashinasi, kultivator, traktor ishlab chiqilgan. O'zbekistonda mashinasozlik sanoatining muhim tarmog'i hisoblangan yangi avtomobilsozlik–avtomobillar (Asaka avtomobil zavodi), ularning dvigatellari (Toshkent motor zavodi), avtomobillarga ehtiyot qismlar, turli jihozlar va boshqa asboblarni ishlab chiqarish respublika mustaqillikka erishganidan keyin shakllana boshladi. O'zbekistondagi bir necha avtomobil tuzatish zavodlari, engil mashinalarga xizmat ko'rsatadigan «O'zavtotexxizmat», «O'zavtoVAZxizmat» ishlab chiqarish birlashmalari korxonalar, tashkilotlar va avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatib kelgan. Asakada engil avtomobillar, Samarqandda yo'lovchi va yuk avtomobillari chiqarilmoqda.

Respublika mashinasozlik tarmog'i ishlab chiqarishi 2004 yilda 34,5% ortdi. Bunday yuqori sur'atlardagi o'sishga avtomobilsozlik mahsulotlariga talab ortishi hisobiga erishildi. Engil avtomobillar ishlab chiqarish 72,6%ga, ularning eksporti umumiy ishlab chiqarish hajmida 52%ga ortdi. Asosiy iste'mol bozori MDH mamlakatlari bozorlari hisoblanib, ularning hisobiga jami eksport qilingan avtomobillarning 97%i to'g'ri keldi. Televizor, kondensiyer, muzlatkich kabi tovarlar ishlab chiqarish hajmi ortdi. Masalan, 2003 yilda 14770 dona rangli televizor ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2004 yilda bu ko'rsatkich 53345 taga etdi yoki 3,6 marta ko'paydi.

## **6.2. Strategik ahamiyatga ega tarmoqlarning milliy iqtisodiyotdagi o'rni**

Sosialistik davlatlarda milliy boylik butun jamiyatniki, ya'ni davlat va kooperativ tashkilotlar ixtiyorida bo'lgan. U xalq manfaatlariga xizmat qilib, jamiyat a'zolarining tobora oshib borayotgan moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini to'laroq qondirishga sarflanishi mo'ljallangan edi.

Biroq yagona davlat rejasi asosida rivojlanish ittifoqdosh respublikalar va hududlar milliy boyligi xalq uchun emas, balki umumittifoq mehnat taqsimotini hisobga olib o'tkazildi. Oqibatda ayrim

respublikalar, xususan, O'zbekiston ham xom ashyoga ixtisoslashgan hududga aylanib qoldi. SHunga qaramasdan, respublika hududida bu davr mobaynida foydali qazilmalarni o'rganish va ulardan xalq xo'jaligida foydalanishda sezilarli ishlar amalga oshirildi. Zero, mamlakatimizda strategik sohalarni rivojlantirishning asosi hisoblangan – uran, oltin, mis, neft, tabiiy gaz va boshqa ko'plab tabiiy boyliklar mavjud.

Milliy boylikni rivojlantirishda O'zbekiston o'tgan asrning 30-yillari oxirida boshqa respublikalar qatori o'z tarmoqlarida sezilarli yutuqlarga erishdi. Lekin, ikkinchi jahon urushi boshlanishi tufayli respublika iqtisodiyotini qisqa muddatlarda harbiy izga ko'chirishga majbur bo'ldi. Barcha milliy boylik urush ehtiyojini qondirishga safarbar etildi.

Respublikamizga frontga yaqin hududlardan zavod va fabrikalar ko'chirib keltirildi va tez fursatlarda ishga tushirildi. Urush yillarida elektroenergetika, kimyo sanoati, rangli metallurgiya, mashinasozlik va boshqa sanoat tarmoqlari rivojlanishi milliy boylik hajmini oshirdi. Mamlakatimiz tez orada ko'p tarmoqli industrial va qishloq xo'jaligi rivojlangan respublikaga aylandi.

Toshkentga yirik samolyotsozlik zavodlaridan biri joylashtirildi. U hozirgi «IL-76» transport samolyoti ishlab chiqaradigan MDHdagi birdan bir korxonadir. Mashinasozlik va metallurgiya korxonalari orasida «Bekobod metallurgiya kombinati», «Toshkent traktor zavodi» ishlab chiqarish birlashmasi, «O'zbekqishloqmash», «Toshqishloqmash», «CHirchiqqishloqmash», «Toshkimyoqishloqmash» zavodlari barpo etilib, butun ittifoq iqtisodiyotiga xizmat kilgan.

O'zbekistonda mineral xom ashyo bazasi mavjudligi 60 – 80 yillar mobaynida respublika xalq xo'jaligining muhim tarmoqlarini, ayniqsa, gaz, oltin va uran ishlab chiqarish, energetika, kimyo, rangli metalurgiya, ruda bo'lmagan xom ashyolar va qurilish materiallari sanoatlarini tez sur'atlar bilan rivojlantirish imkoniyatini berdi.

Respublikada topilgan konlar orasida Olmaliq va Navoiy tog'-metallurgiya kombinati, Angren kimyo - metallurgiya zavodi, plavik shpat korxonalari, Ingichka va Ko'ytash boshqarmalari, Muruntov tog'-metallurgiya kompleksi, gaz, neft, betonit, pardozlash toshlari, turli qurilish materiallari, biryuza, grafit chiqaruvchi va qayta ishlovchi yirik korxonalar ishga tushirildi.

Hozirgacha respublikada 90 xil xom ashyo bazasi ochilgan. 650 ta sanoat miqyosidagi va 500 istiqboldagi tog'-kon sanoati korxonalari, gaz va neft korxonalari, shaxtalar, karerlar, yirik suv inshootlari ishlab chiqarishining yillik hajmi 120 million tonnani tashkil etadi. Birgina 2004 yilda 59 milliard kubometr tabiiy gaz, 65 million tonna neft qazib chiqarildi. Bir kecha-kunduzda 2500 ming kubometr er osti suvlari olinmoqda.

O'zbekiston hududida strategik ahamiyatga ega bo'lgan uran, oltin mis, rux, volfram, molibden, flyuorit, shuningdek, alyuminiy va magniy rudalari, nodir metallar, oltingugurt, osh tuzi, kaliy, fosfor va boshqa tabiiy tuz qatlamlari, kaolin, o'ta chidamli xom ashyolar, bentonit, marmar va boshqa bezak toshlari, uncha qimmat bo'lmagan pardozlash toshlarining (biryuza, oniks, xolsedon, ametist va boshqalar) ulkan zahiralari mavjud. YOqilg'i resurslari bo'yicha esa ko'mir, tabiiy gaz va neft konlari ochilgan bo'lishiga qaramasdan, respublikaga chetdan mineral xom ashyolar tashib keltirilishi jiddiy iqtisodiy sarf-harajatlarga hamda transport balansining asossiz ravishda kuchaytirilishiga olib keldi.

Respublikada topilgan konlar orasida Olmaliq tog'-kon metallurgiya va Bekobod metallurgiya kombinatlarida xom ashyoni qazib olish, boyitish va ikkilamchi metallni qayta ishlash yo'lga ko'yilgan. Angren, Olmaliq kon sanoati asosan hududda joylashgan rangli metallurgiya, mis olish, qiyin eriydigan va o'tga chidamli metallar, oltin ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Olmaliq kon-metallurgiya kombinati sobiq SSSRning bu tarmoqdagi eng yirik korxonasi edi. U O'zbekiston tasarrufiga olingandan so'ng respublika iqtisodiyotiga barakali ulush qo'shib kelmoqda. Respublikada aniklangan volfram rudalari va molibden konlari negizida CHirchiq shahrida «O'zbekistonda qiyin eriydigan va o'tga chidamli metallar» kombinati ishlab turibdi.

Respublika metallurgiya sanoati barcha sanoat mahsuloti hajmining 10 foizidan ko'prog'ini ishlab chiqarmoqda. Konlar foydalanishga topshirilishi respublikaning ayrim hududlari iqtisodiyotini o'zgartirib yubordi. YAngi tog' sanoat komplekslari bunyod qilindi.

Angren, Olmaliq, Zarafshon, Uchquduq konlari esa tog' va bo'z erlarning sanoat jihatidan o'zlashtirilishiga asosiy omil bo'ldi. Hozirgi davrga kelib, aniqlangan milliy boylik manbalarida ishlab chiqarish korxonalarini uzoq muddat davomida oltin, mis, uran,

ko'rg'oshin, rux, volfram, molibden, litiy, alyuminiy xom ashyosi hamda boshqa nodir metallar va foydali qazilmalarning katta zahiralari bor. SHuni e'tiborga olganda respublika metallurgiya sanoatining umumiy sanoat mahsuloti hajmidagi hissasi bundan buyon ham ortib boradi. Respublika tassarufiga metallurgiya majmuasi olinishining boisi shundaki, birinchi galda rangli va asil metallardan ishlab chiqarilgan mahsulotlar jahon bozorida kamyob mahsulotlar jumlasiga kiradi va eksportni rivojlantirishning muhim sharti hamda mamlakat valyuta zahirasini oshirishning asosi bo'lib xizmat kiladi.

Muhim strategik ob'ektlar O'zbekiston tasarrufiga olinishi tufayli bu korxonalar jahonning ko'pgina davlatlari (AKSH, Kanada, Avstraliya, va Yaponiya) bilan iqtisodiy aloqalar o'rnatdi, jahondagi mashhur firmalar – «Nyumon», «Moribeni», «Misibisi», «Bridj-stoun», «Katerpillar», «SHell», «Spektra anolitika instruments», «Nukem», «Xitachi», «Nissa Ivai» va boshqalar bilan uzoq muddatga mo'ljallangan hamkorlik rishtalari bog'langan. «Nyumont Mayning korporeyshin» firmasi bilan hamkorlikda vujudga kelgan «Zarafshon – Nyumont» korxonasi Muruntov kareri chiqindilaridan 100 tonna oltin ishlab chiqardi.

### **6.3. O'zbekistonning neft mustaqilligi asoslari**

Buxoro – Xiva neft-gaz rayonlari ochilishi munosabati bilan neft zahiralari ega konlar yana beshtaga ortdi. Lekin bu konlar 1961 – 1965 yillarda atigi 306,7 ming tonna neft berdi, Farg'ona vodiysidagi 15 ta kondan 7 mln. 516 ming tonna, Surxondaryo viloyatidagi 3 ta kondan 1 mln. 29,3 ming tonna va Buxoro-Xiva neft-gaz viloyatidagi 5 ta kondan bor-yo'g'i 306,7 tonna neft qazib olindi. SHu tariqa, respublikada qazib olingan neft 1924 yilda 5,6, 1940 yilda 119, 1958 yilda 1297, 1961 yilda 1709 va 1965 yilda 1800 ming tonnani tashkil qildi. Keyingi besh yilda respublikada neft ishlab chiqarish keskin kamaydi. 1965 yilda tashqaridan neft olib kelish 1962 yildagiga qaraganda 1,7 baravar oshgan edi.

Ushbu yillarda respublikada neft mustaqilligi zaiflashishiga avvalo bu hududdagi ikkita neftni qayta ishlash zavodining mahalliy neft bilan ta'minlanishining pasayishi, etmagan xom ashyo /arbiy Turkmanistondan keltirilishi, keltirilgan neftning narxi Farg'ona va Buxoro neftidan ikki baravar yuqoriligi sabab edi. Bu, albatta, neftni qayta ishlash zavodlarining iqtisodiy ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir ko'rsatardi.

To'g'ri, O'zbekistonda neft qazib chiqarish va uni qayta ishlash sanoati yangidan barpo etildi va rivojlandi. Farg'ona vodiysi, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryoda yangi neft konlari izlab topildi va ishga tushirildi. 1970 yilda O'zbekistonda 1672 ming t. neft qazib chiqarildi. Bu sobiq SSSRda qazib olingan neftning 5% ini tashkil etardi.

Keyingi yillarda O'zbekistonda 80 dan ortiq turli (yuqori zahiraga ega kategoriyali) neft-gaz konlari topildi. Farg'ona, Surxondaryo, Buxoro-Xiva, Ustyurt kabi neft-gaz konlari, havzalari va viloyatlari kashf etildi. Buxoro-Xiva viloyatida Gazli, Kogon, Muborak, Dengizko'l rayonlari bilan birga yangi konlar ochildi va ochilish arafasida. O'zbekistonda neft konlari asosan yura, bo'r, paleogen va neogen davri cho'kindi jinslarining har xil qatlamlarida qatnashgan va joylashgan.

Neftning fizik xossasi uning tarkibiga bog'liq. Tarkibida 87% gacha uglevodorod, 10 – 15% gacha vodorod, 0,05 – 0,5, ba'zan 5% gacha kislorod, juda oz miqdorda vanadiy, fosfor, kaliy, nikel, temir uchraydi. Dunyo miqyosida qazib olinayotgan barcha neftlarda oltingugurt miqdori, odatda, 1% dan ortiq. Surxondaryo vodiysida qazib olinayotgan paleogen neftlari, ayniksa, oltingugurtga boy (3,1-6,3%).

Respublikada qazib olinadigan neftdan XIX asrning 2-yarmigacha faqat kerosin olinib, qolgani chiqindiga chiqarib tashlanardi. Ichki yonuv dvigatellarining ixtiro etilishi va texnik taraqqiyot benzina bo'lgan talabni oshirdi. Neftdan dastlab kerosin, benzin, dizel yoqilg'isi, keyinchalik esa sintetik tolalar, 100 dan ortiq kimyoviy xom ashyo va o'g'itlar olinib boshlandi.

Birgina 1965 – 1970 yillar davomida Farg'ona va Oltiariq neftni qayta ishlash zavodlarida benzin ishlab chiqarish 13, kerosin ishlab chiqarish 21, dizel yonilg'isi ishlab chiqarish 81, moylash yog'lari olish 59 va mazut ishlab chiqarish 64% ga oshdi.

Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish va chuqurlashtirish davrida neft resurslaridan oqilona foydalanish, chuqur qayta ishlashga asoslangan holda yangi mahsulotlar ishlab chiqarish keng miqyosda o'zlashtirilmoqda. 1991 – 2002 yillarda bu sohani boshqarish strukturasi va texnik jihozlash, neft qazishni takkomillashtirish tufayli neft va gaz ishlab chiqarish hajmi oshdi. Natijada 1995 yilda respublikaga neft chetdan import qilinmadi va O'zbekiston neft mustaqilligiga erishdi. Bu mustaqillik sobiq SSSR tarkibidagi boshqa respublikalarda iqtisod chuqur inqirozga uchragan,

ya'ni iqtisodiy aloqalar va savdo aloqalari uzilgan, narxlar oshgan va inflyasiya zo'raygan davrga to'g'ri keldi.

Neft mustaqilligiga erishishda «Muborakneftgaz» davlat korxonasi geologlari, parmalovchilari, quruvchilarining hissasi ayniqsa katta bo'ldi. CHunki bu korxonada mustaqillik yillarida 15 neft-gaz va 14 gazokondensat konlaridan juda katta miqdorda mahsulot qazib olindi. CHunonchi, 2000 yilda 3743,7 tonna neft, 2475 ming tonna kondensat ishlab chiqarilgan bo'lsa, 2002 yilda tayyorlangan neft 3600,0, kondensat esa 2430 ming tonnaga etdi. Bu, respublikada qazib olingan neft va kondensatning 90% dan ko'pini tashkil qiladi. Bundan tashqari, bu korxonada 2000 yilda 34164 va 2002 yilda 36000 mln m<sup>3</sup> tabiiy gaz qazib oldi va iste'molchilarga etqazib berdi, 2002 yilda Turkmaniston Respublikasiga 240 ming t. neft sotdi, qolgan tovar mahsulotlarni Muborak (MGPZ), Buxoro (Qoravulbozor) va Farg'ona neftni qayta ishlash zavodlariga va gaz uzatish boshqarmasiga topshirdi.

O'zbekistonda neft mustaqilligi mustahkamlanishiga asosan 1997 yilda «Ko'kdumaloq» konida gaz yuqori bosimda neft konlariga xaydalangani, Buxoroda 2,5 mln. tonna gaz kondensatini qayta ishlash quvvatiga ega zavod ishga tushirilishi asos bo'ldi. To'g'ri, keyinchalik neft konlarida zahiralar kamayishi mumkin. Ammo kelajakda asosan gazokondensat quduqlar hisobiga neft mustaqilligini saqlash imkoni bor.

Respublikamizda neft qazib chiqarish asosan neft atrofida joylashgan suv yoki gaz bosimini oshirish, qatlam g'avaklaridagi neftni quduq zoboyiga yig'ish usuli bilan amalga oshiriladi. Suv bosimi, odatda, boshlang'ich neft zahirasining 50 – 80%ini, gaz esa atigi 20 – 50% ini siqib chiqaradi. Biroq, tashqaridan berilayotgan suv qazib chiqarilayotgan neftning o'rnini to'la egallay olmaganligidan bosim kamayib ketadi. Natijada neftning favvora bo'lib tabiiy otilishi tugaydi. SHundan keyin neft kompressor yordamida chiqariladi. Aynan 1997 yilda «Ko'kdumaloq» konida ishga tushirilgan (yo'llari bosimi 50 atm.) kompressor stansiyasi ushbu ishni boshqargan va u gazkondensat qazib olish hajmini ko'paytirishga imkon bermoqda.

Neftni kompressor bilan chiqarishda quduqqa gaz yoki havo haydaladi, ular neftga aralashib, zichligini kamaytiradi, natijada neft va gaz aralashmasining soxta quduq yuzasigacha ko'tarilib, neftning favvora bo'lib otilishi davom etadi. O'zbekistonda neft quduqlardan nasoslar yordamida ham olinadi.



Qatlam bosimi uzluksiz pasaya borishi natijasida kuduq debiti tushishi neft chiqarishning iqtisodiy ko'rsatkichlarini yomonlashtiradi. Neft konlarini ishga solish, ayniksa, er osti gidrodinamikasi rivojlanishi natijasida neft chiqarishning yangi usullari yaratildi. Ular yordamida neft qatlamlariga suv yoki gaz haydash yo'li bilan qatlam bosimini butun ekspluatasiya mobaynida birday ushlab turish mumkin.

Bu yutuqlarga asosan 1992 yilda neft sohasida uchta strategik va asosiy tomoyillarni bajarish asosida erishildi:

- neft va gaz qazib olishni kuchaytirish va respublikaning neft mustaqiligini ta'minlash uchun Ko'kdumaloq, Alan Urga, Janubiy Tandirchi va boshqa konlarda katta ishlar bajarildi;

- neft va gazni qayta ishlash texnologiyasini chuqurlashtirish va ularning sifati xalqaro standart va talablarga javob berishini ta'minlash uchun 1997 yilda Buxoro neftni qayta ishlash zavodini ishga tushirish, Farg'ona neftni qayta ishlash zavodini ta'mirlash va yangi texnologiya kompleksi – gidrosulfizasiya uskunasi o'rnatilishi asosiy vazifa qilib qo'yildi.

Yangi texnologik uskunalar ishga tushirilishi natijasida tozalangan mahsulot hajmini kupaytirish imkoni yaratildi. Respublikada neftni qayta ishlash sanoati rivojlandi va og'ir industriyaning neftni qayta ishlovchi hamda neft mahsulotlari tayyorlovchi sohasiga aylandi.

O'zbekiston neft mustaqilligi va ekologiya borasidagi xalqaro majburiyatlarni bajarishi kelajakda yoqilg'i-energetika sohasida ilmiy-texnikaviy va ekologik siyosat olib borish jarayonida davlat tomonidan amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligiga bog'liq. Mazkur chora-tadbirlar neft mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning energiya sarfini kamaytiruvchi texnika va texnologiyani joriy qilishda huquqiy va iqtisodiy muhitni barpo etish, neft resurslari samaradorligini oshirish, zahiralarni ko'paytiradigan innovasiya texnologiyalari iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan qo'shimcha investisiyalarni shakllantirish va rag'batlantirishdan iborat. Bu esa, neft mustaqilligi davomiyligini ta'minlashga asos bo'ladi.

### **Qisqacha xulosalar**

Sanoat respublika iqtisodiyotining eng muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Sanoat majmuasi o'z harakteriga ko'ra, milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini qayta qurollantirish, rekonstruksiya qilish, iqtisodiy islohotlarning asosi sanaladi.

Sanoat o'z ichiga bir qancha funksional majmualarni – yoqilg'i sanoati va energetikasi, metallurgiya, engil sanoat, kimyo, mashinasozlik, oziq-ovqat, qurilish materiallari, yog'ochni qayta ishlash sanoatlarini oladi.

Sanoat majmuasini harakterlovchi ko'rsatkichlar tarkibiga sof mahsulot, balans foyda, sof foyda, ishlab chiqarish rentabelligi, mahsulot rentabelligi, mehnat unumdorligi, fond qaytimi va fond sig'imi kabilar kiradi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Sanoat majmuasi nima uchun xalq xo'jaligining bir tarmog'i hisoblanadi?
  2. Sanoat majmuining asosiy tarmoqlariga qaysi tarmoqlar kiradi?
  3. Sanoat mahsulotlarining tarmoqlar bo'yicha tarkibi nimalardan tashkil topgan?
  4. Sanoat ishlab chiqarish dasturlarining mohiyati nimadan iborat?
  5. YOqilg'i-energetika sohasi qaysi viloyatlarda rivojlangan?
  6. O'zbekistonda po'lat qaysi zavodda eritiladi?
  7. Qaysi tarmoqlar strategik ahamiyatga ega?
  8. O'zbekistonda qachondan boshlab engil avtomobillar chiqarilmoqda?
  9. Kommunikasiyaga qaysi sohalar kiradi?
10. Axborot texnologiyalari nimaga kerak?

### **Asosiy adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2005 yil maydan boshlab ish haqi, nafaqalar, stendiyalar va ijtimoiy nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida»gi Farmoni. – Halq so'zi, 2005 yil, 26 mart.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «To'g'ridan – to'g'ri xususiy xorijiy investisiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni. – Xalq so'zi, 2005y., 12 aprel.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. – 2005y., 15 aprel.
4. A.G. Granberg Osnovo' regionalnoy ekonomiki. Uchebnik.– M.: GUVSHE, 2004, - 495 s.

5 Z.YU. Yo'ldoshev Milliy iqtisodiyot, - T.: Fan, 2004, - 185 b.

6. Regionalnaya ekonomika. Osnovnoy kurs: Uchebnik / Pod red.

V.I.Vidyapina, M.V. Stepanova. – M.: INFRA-M, 2005. – 686 s.

4. Internet veb-saytlari.

[www.ceep.uz](http://www.ceep.uz).

[www.bearingpoint.uz](http://www.bearingpoint.uz).

[www.pca.uz](http://www.pca.uz).

[www.micro-macroiqtisodiyout.fan.uz](http://www.micro-macroiqtisodiyout.fan.uz)

## **7-BOB. QISHLOQ XO'JALIGINING HUDUDIY IXTISOSLASHUVI**

### **7.1. Agrosanoat majmuini rivojlantirish muammolari**

Xalqimiz tumush farovonligini yaxshilashda, umuman, mamlakat iqtisodiyotini mustahkamlashda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining ahamiyati beqiyos ekanligi barchamizga ma'lum. Agrosanoat majmuining taraqqiyoti nafaqat oziq-ovqat ta'minotini yaxshilash, balki muhim xom ashyo etkazib beruvchi tarmoq sifatida mamlakat industriyasining taraqqiyoti uchun ham o'ta zarur. Ma'lumki, hozirgi paytda O'zbekiston qishloqlaridagi xilma-xil xo'jaliklarda qariyb 4,5 mln. gektar maydonda dehqonchilik bilan shug'ullanilmoqda. SHuncha kenglikdagi ziroatni o'stirishda katta va kichik texnika vositalari dehqonga qudratli qanot bo'lmoqda. Mustaqillik yillarida bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil qilingan «O'zqishloqxo'jalikmashxolding» va «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» kompaniyalari ana shu tarmoqni mukammal va samarali texnika vositalari bilan ta'min etishni asosiy faoliyat sifatida belgilab olishgan.

Respublika Prezidenti Islom Karimov aytganidek, qishloq xo'jaligini ish samaradorligi yuqori bo'lgan, zamonaviy texnika vositalari bilan lizing asosida ta'minlash tizimining joriy etilishi oldinga tashlangan muhim qadam bo'ldi. To'g'ri, lizing tizimini qo'llash ko'lami hozircha unchalik keng emas, lekin shu narsa aniqki, qishloq mehnatkashlarini texnika bilan ta'minlashning bu usuli katta istiqbolga ega.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, qishloq xo'jaligi samaradorligini yuksaltirishning asosiy sharti sermehnat yumushlarni texnika gardaniga yuklashdir. Jahon tajribasi tarmoq ishlab chiqarishining barqarorligi, yuqori unumdorligi ishlab chiqarish kuchlarining kompleks rivojlanishi, ilmiy-texnika taraqqiyoti, moddiy-texnika bazasining kuchliligi va kadrlar uchun shart-sharoit yaratilganligi bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi.

Buni fermerlar misolida ham ko'rish mumkin. Masalan, bir fermerga AQSHda o'rtacha 150 gektar ekin maydoni to'g'ri keladi. Bu ko'rsatkich Kanadada 190, Buyuk Britaniyada 70, Fransiyada 35, Irlandiyada va Lyuksemburgda 33, Daniyada 32, Olmoniyada 18,

Gollandiyada 17, Italiyada 8 gektar. Er, texnika, fan yutuqlaridan unumli foydalanilgandagina natijalar yuqori bo'lishi mukinligini ular amalda isbotlashdi. Umuman, tarmoqdagi iqtisodiy ko'rsatkichlar texnikadan oqilona foydalanishga va uning sifatiga ko'p jihatdan bog'liq deyishimizga to'la asos bor.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 31 yanvardagi qaroriga binoan qishloq xo'jaligi mashinalarini ishlab chiqarish maqsadida «O'zqishloqxo'jalikmashholding» kompaniyasi tashkil etilgan edi. Bu tuzilma tarkibiga 16 ta korxonalar, 9 ta qo'shma korxonalar, 17 ta mintaqaviy texnika markazi, 72 ta tuman va tumanlararo bo'linmalar, shu jumladan, mashina-traktor parklari va savdo uylari kiradi.

SHuni ta'kidlash kerakki, 2001 yil natijalariga nazar tashlasak, kompaniyaga qarashli korxonalar ancha murakkab davrni boshidan kechirganligi ayon bo'ladi. Ketma-ket ro'y bergan suv taqchilligi pirovard natijalarga ta'sir etmay qolmadi. Aksariyat joylarda mahsulot ishlab chiqarish hajmini avvalgi yillardagiga nisbatan kamaytirmaslik, erishilgan maromni yo'qotmaslik uchun kurash ketdi.

Keyingi yillarda kompaniya rivojlangan davlatlarning tarmoq texnikasi ishlab chiqaradigan firmalari bilan hamkorlik qilayotganligi ham ijobiy samara bermoqda. Masalan, 9 ta qo'shma korxonalar ishga tushirildi va bugungi kunda jahon talablariga javob beradigan texnika vositalari ishlab chiqarmoqda. «O'zKeystraktor», «O'zKeysservis», «Agroxim» korxonalari shular jumlasiga kiradi. Ular tomonidan faqat o'tgan yilning o'zida mamlakatimiz agrosanoat majmuiga 2760 ta traktor, 971 ta aravaka, 100 ta paxta terish mashinasi, 118 ta plug, 994 ta borona, 80 ta pichan o'radigan kombayn, 1066 ta kultivator, 1 mln. so'mlik ehtiyot qismlar va boshqa texnika vositalari hamda ularning muayyan qismlari etkazib berildi. SHu jumladan, lizing asosida 2 mingta traktor va 404 ta aravaka ishlab chiqarilib, dehqonlarga jo'natildi. Respublikada hozirgi paytda nufuzli kompaniya va firmalar vakillari bilan hamkorlikda bir qancha qo'shma korxonalar tuzish bo'yicha loyiha – izlanish ishlari olib borilmoqda. Germaniyadagi «KLASS» va «KYUN» firmalari bilan «Toshqishloq mash» hissadorlik jamiyatida em-xashak o'rish kombayni, «O'zqishloq mash» hissadorlik jamiyatida g'alla ekadigan seyalka, «Agregat zavodi» korxonasida frezerli kultivator ishlab chiqarish uchun tayyorgarlik ko'rilmogda.

Qishloq xo'jaligi mashinasozligi uzluksiz va o'zaro chambarchas tizimga ega. Bu ilmiy - tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini bajarilishini, konstruktorlik ishlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va ketma-ketlikni ta'minlaydi. Tarmoqning ilmiy-tadqiqot, loyiha institutlari hamda konstruktorlik byurolari mavjud. Kompaniya muammolar echimini ta'minlaydigan dasturlar ishlab chiqib, respublika ilmiy-texnika taraqqiyotini Muvofiqlashtirish kengashi (sobiq fan va texnika davlat qo'mitasi) bilan hamkorlikda ish olib bormoqda. O'tgan yili kompaniya bo'yicha 25 mlrd. 255,9 mln. so'mlik texnika vositalari, 622,5 mln. so'mlik xalq ist'moli mollari ishlab chiqarildi. Ijobiy siljishlar qatorida korxonalarining debitor va kreditorlik qarzlari kamayganligini tilga olish mumkin.

Kompaniyaning chet el sarmoyasini jalb qilishdan, umuman, uning investisiya faoliyatidan maqsadi ba'zi korxonalaridagi ishlab chiqarish texnikasini yangilashdir. Masalan, yaqin kelajakda Toshkent traktor zavodi, Agregat zavodi, Motor zavodi, «Texnolog» hissadorlik jamiyatlarida xorij sarmoyasini jalb etish, zamonaviy talablarga javob beradigan texnika vositalari ishlab chiqarish ko'zda tutilmoqda. Hozirgacha kompaniyaga qo'shma korxonalar ustav jamg'armasini shakllantirish uchun 28,2 mln. AQSH dollari miqdoridagi chet el sarmoyasi olib kirildi.

Hukumatimizning mahalliy ashyodan mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha dasturiga ko'ra, «Keys» paxta terish kombaynlari va traktorlariga butlovchi qismlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. O'tgan yili «O'zKeysmash»da paxta terish mashinalarining zamonaviy bo'yash majmui va boshqa ba'zi qismlari ta'mirlandi. «Toshqishloqmash» korxonasida paxta terish mashinasining bunkeri, uning ba'zi qismlarini ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Tarmoq texnikasi uchun gidrosilindrlar tayyorlaydigan chet el dastgohi sotib olinmoqda.

## **7.2. Agrosanoat majmui rivojlanishining asoslari**

Agrosanoat majmui (ASM) – qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish, saqlash, qayta ishlash va iste'molchilarga etkazib berish bilan band bo'lgan xalq xo'jaligi tarmoqlarining jamlanmasidir. ASMga kiruvchi tarmoqlarning barchasi pirovard natijada muhim vazifani – mamlakatni oziq-ovqat va qishloq xo'jalik xom ashyosi bilan ta'minlash vazifasini bajaradi.

ASM tarkibida uchta soha ajralib turadi:

- qishloq xo'jaligi va unga aloqador tarmoqlar uchun ishlab chiqarish vositalari etkazib beradigan, shuningdek, qishloq xo'jaligiga ishlab-chiqarish, texnika xizmati ko'rsatadigan sanoat tarmoqlari (masalan, qishloq xo'jaligi mashinasozligi);
- qishloq xo'jaligining o'zi;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va iste'molchilarga etkazib berish (tayyorlash, saqlash, qayta ishlash, tashish, sotish) bilan band bo'lgan tarmoqlar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida bu infratuzilmani rivojlantirish mamlakat aholisi ehtiyojini qondirish bilan bir qatorda uning tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantiruvchi kuchga aylanishi mumkin.

Mustaqillik yillarida ASMDa juda ko'p yutuqlarga erishish bilan birga muayyan, kamchiliklarga ham yo'l qo'yildi, iqtisodiy islohotlar jarayonida yangi muammolar ham yuzaga chiqdi. Endigi vazifa ushbu kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini, muammolarni chuqur tahlil qilib, ularning echimini topishdan iborat. Agrar sektorning bundan keyingi rivojlanishida quyidagi muammolarga e'tibor berish zarur:

- ❖ mustaqillik yillaridagi faoliyatni kuzatish shuni ko'rsatadiki, barcha bo'g'inglarda kadrlar yangicha ishlashga, bozor munosabatlariga to'liq moslasha olmayotirlar. Bu, ayniqsa, tumanlar va xo'jaliklar miqyosida ko'proq ko'zga tashlanmoqda. To'g'ri, har yili kadrlar o'quvi o'tkazilmoqda, ammo aksariyat rahbar kadrlar ish yuritishni bozor munosabatlari asosida emas, balki, eskicha – ma'muriy-buyruqbozlik asosida olib borishmoqda;
- ❖ agrar soha uchun muhim bo'lgan ekologiya masalalari islohot jarayonidan birmuncha chetda qolmoqda. Vaholanki, bu muammo o'ziga e'tiborni talab qiladi. Bugungi kunda tuproq unumdorligining pasayib borishi, og'ir texnika va samarasi past texnologiyalar qo'llanilayotganligi oqibatida tuproq tarkibining buzilishi, sho'rlanish darajasining ortib borishi shundan dalolat bermoqda. SHuningdek, aholini ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash masalasi ham alohida e'tiborni talab qiladi;
- ❖ ba'zi iqtisodchilar, qishloq xo'jaligida islohotlarni qo'shimcha mablag' sarflamasdan olib borish mumkin, degan fikrni ilgari

surmoqdalar. Ularning fikriga qo'shilish qiyin. Negaki, rivojlangan mamlakatlar tajribasiga qarasaq, ularning ko'pchiligida bu boradagi ko'rsatkich fermerlar daromadining 40 – 50 va hattoki 60 %ini tashkil qiladi. SHuni hisobga olib, agrar sohani qo'llab-quvvatlash fondini tashkil qilish va uning mablag'i qishloq aholisining ijtimoiy hayoti, ekologik muvozanatni saqlash, moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga qaratilishi zarur;

- ❖ qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish moliya-kredit mexanizmini takomillashtirishni talab qiladi. CHunki, xo'jaliklar to'g'ridan-to'g'ri kredit olishlari nihoyatda murakkab, ayniqsa, uzoq muddatli kreditlar hajmi kamayib ketishi natijasida ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yangilab borish imkoniyatlari chegaralanib qolmoqda. Albatta, lizing tizimining tuzilishi bu muammoni biroz engillashtiradi, ammo u barcha turdagi asosiy vositalarni qamrab olmagan;
- ❖ qishloq xo'jaligining moddiy ta'minoti, texnika, mineral o'g'it, yoqilg'i-moylash materiallari bilan ta'minlanishi bugungi kun talablari darajasida emas, moddiy-texnika resurslarining narxi qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxiga nisbatan bir necha barobar yuqori va tez oshib bormoqda. Qishloq xo'jaligi uchun kerakli sanoat mollariga narx belgilashni ham tartibga solish lozim. Qishloq xo'jaligi korxonalariga servis xizmati ko'rsatish talab darajasida emas, shuningdek, xizmat haqlarining bahosi nihoyatda yuqori;
- ❖ o'zlari qabul qilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari uchun tayyorlov tashkilotlari vaqtida haq to'lamayotganligi natijasida xo'jaliklarning moliyaviy holati og'irlashmoqda, buning ustiga inflyasiya og'irligi ham butunlay qishloq xo'jaligi korxonalari elkasiga tushmoqda;
- ❖ qishloq xo'jaligini qiyin ahvoldan olib chiqish uchun qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan barcha sohalar unga o'z yordamini ko'rsatishi zarur. SHundagina ular qishloq xo'jaligidan arzon va sifatli xom ashyo oladilar, o'z navbatida, qishloq ularning mahsulotlari uchun muhim bozor vazifasini bajaradi;



- ❖ hozirgi kunda mamlakatimizda iqtisodiyotni erkinlashtirish jarayoni kechmoqda, endilikda bu jarayonda agrar sektorni boshqarishdan uni tartibga solishga o'tish, narx-navoni erkinlashtirish bilan birga uni davlat tomonidan tartibga solish taqozo etiladi. SHuni hisobga olib, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining pastki va yuqorigi narxlari chegarasini davlat tomonidan nazorat qilish tizimini yaratish zarur.

Iqtisodiy islohotlar O'zbekistonda birinchi navbatda, agrar sektorda boshlandi. Buning o'ziga xos ramziy ma'nosi bor, chunki aholining 60% dan ko'prog'i, ish bilan band aholining 44%i qishloq joylarda yashab, mehnat qilmoqda, YAIMning 30%i, valyuta tushumining 55%i, tovar mahsulot almashinuvining 70 %i, oziq-ovqat mahsulotlarining 90%i agrar sektor hissasiga to'g'ri keladi.

1991 yilning 11 yanvarida mamlakatdagi shaxsiy yordamchi xo'jaliklarni yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha tadbirlar belgilandi. Prezident ko'rsatmasi asosida yana 1 mln. 221 ming 477 oilaga sug'oriladigan paxta dalalaridan 137 ming 246 gektar er qo'shimcha tomorqa sifatida bo'lib berildi. Bunday amaliy g'amxo'rlik g'ayrat-shijoatli odamlar harakatiga qanot bag'ishladi.

SHaxsiy yordamchi va tomorqa xo'jaliklari uyushmasi tashkil etilishi lozim. Keyinchalik esa shu asosda dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasi yuzaga keladi, ya'ni shaxsiy yordamchi xo'jaliklar zahirida dehqon va fermer xo'jaliklari shakllanadi. Ularni imtiyozli soliqqa tortish, o'z mahsulotlarini eksport qilishi uchun qulay shart-sharoit yaratib berish, xo'jalik a'zolarini nafaqa va pensiya bilan ta'minlashga doir tartiblar joriy etiladi.

Iqtisodiyotimizning tayanchiga aylanib borayotgan minglab dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyati bu tarmoqning istiqboli biz o'ylagandan ko'ra porloq ekanidan dalolat beradi. Uning tarixi esa, shaxsiy tomorqa xo'jaliklariga, 1989 yilning yozida davlatimiz rahbari uzoqni ko'zlab boshlagan keng ko'lamli ishlarga borib taqaladi.

Mulkchilikning barcha shakllariga, shaxsiy tashabbus va xususiy tadbirkorlikka o'sha murakkab davrda asos solingan.

Bugungi kunda (2003y.) mamlakatimizda 240 mingdan ortiq mikrofirma, kichik va o'rta korxonalar tashkil etilib, 3 mln.dan ziyod dehqon-fermer xo'jaliklari faoliyat yuritmoqda. Ular qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 78 %ini berishmoqda.

Keyingi paytda mamlakatimizda xususiy mulkni qishloq joylarda qaror toptirish, uni rivojlantirish va himoya qilish borasida jiddiy ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida»gi Farmoni va Vazirlar Mahkamasining «2003 – 2004 yillarda korxonalarni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida», «Xususiylashtirilgan korxonalarining koorparativ boshqarmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari alohida ahamiyatga ega. Zero, aynan ushbu hujjatlar zamirida yurtboshimizning «Ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish va unda xususiy mulk etakchi o'rin egallashini ta'minlash zarur» degan g'oyasi yotadi.

Bu g'oya esa, chuqur ilmiy va hayotiy mulohazalardan kelib chiqqan bo'lib, milliy iqtisodiyotimizning agrosanoat majmuidagi mulkiy tuzilishni o'zgartirishni ko'zda tutadi.

Markaziy Osiyodagi eng yirik korxonalardan biri «Toshkent traktor zavodi» davlat aksiyadorlik birlashmasi sanaladi. Bu erda ishlar bir maromda bormoqda. Xorij sarmoyasini jalb etish ishlari ikki yo'nalishda davom ettirilayapti. Avvalo, bu «Keys-Nyu-Xolland» firmasining universal haydov traktorlariga butlovchi qismlar ishlab chiqarish bo'yicha bo'lsa, keyingisi Xitoy krediti asosida mini traktorlar tayyorlashdir. Bunday mitti texnikalarni dehqon va fermer hamda shirkat xo'jalikariga, shu bilan birga tomorqa egalariга etkazib berish mo'ljallanmoqda.

Raqamlarning mag'zini chaqishga, ular zamirida yashiringan mehnat maromini ilg'ashga harakat qilinmoqda. Masalan, yangi asrning dastlabki yilida korxonada 2966 ta traktor, 1033 ta aravaka ishlab chiqardi. Xo'sh, bu ozmi yo ko'p? Agar uni 2000 yildagi natijaga taqqoslaydigan bo'lsak, ko'p. Qishloq xo'jaligidagi ehtiyojimizni nazarda tutadigan bo'lsak, oz. Albatta, hech bir harakat beiz ketmaganidek, ishlab chiqarish bo'g'inidagi biror uzilish o'z ta'sirini sezdirmay, yangi muammo tug'dirmay qolmaydi. Gap faqat texnika vositalarini butlash uchun ayrim qismlar taqchilligidagina emas, balki ana shu texnikaga muhtoj bo'lgan xo'jaliklarning to'lov qobiliyati pastligi bilan bog'liq. Aytaylik, 1997 yilda traktorlar va ehtiyot qismlar ishlab chiqarish 97,6 %ga chiqqan bo'lsa, 1999 yilda bu ko'rsatich 56,4 %ni tashkil etdi. Ehtiyojning bunday past darajada qondirilishi hosil salmog'iga ham tasir ko'rsatadi.

«O'zqishloqxo'jalikmashxolding» kompaniyasiga qarashli bir qancha korxonalarda eksport imkoniyatlaridan etarli foydanilmayapti. Achinarli tomoni ularda mahsulot eksporti bo'yicha aniq belgilangan dasturning o'zi yo'q. Yana bir tang soha: korxonalarda aksiyalarni sotish qoniqarsiz ahvoldaligidir. Bunday kamchiliklar yurtimiz iqtisodiy salohiyatini oshirish yo'lidagi intilishlarimizga to'liq bo'ladi.

Boy tabiiy resurslarga ega bo'lgan O'zbekistonimiz zaminida qishloq xo'jaligi mahsulotlari mo'l-ko'lligini ta'minlash orqali cheksiz imkoniyatlarni ishga solish mumkin. Hamma gap ana shu imkoniyatlarni ko'ra bilishda, ulardan oqilona foydalanishda. Biz so'z yuritayotgan kompaniya rahbarlari bu ma'suliyatni yanada chuqurroq his etishlari zarur. Prezidentimiz yuritayotgan iqtisodiy siyosat talablari, xalqimiz kutayotgan umidlar ana shuni his etib ishlashni taqozo etadi.

Bozor iqtisodiyoti qishloq xo'jaligi infratuzilmasidagi barcha bo'g'implarda hisob-kitob bilan ishlashni taqozo etadi. Biz so'z yuritgan har ikkala korxonada mulk shakli jihatidan ham, xo'jaliklararo munosabatlar nuqtai nazaridan ham bozorning o'ziga xos talablarini hisobga olgan holda tuzilgan. Maqsad ichki imkoniyatlarimizni ishga solish hisobiga import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ko'paytirish, eksport salohiyatini oshirish va lizing xizmatini rivojlantirishga qaratilgan. Endilikda nafaqat texnika, ayni paytda ana shu texnika jilovi qo'lida bo'lgan kompaniyalar ham dehqonning qudratli qanotiga aylanmog'i lozim.

Rivojlangan xorij davlatlari xalq xo'jaligida lizing xizmatining alohida o'rni bor. O'tgan asrning 40 – 50 yillaridan boshlab, Amerikada ilk bor joriy etilgan bu xizmat turi ayni paytda jahonning ko'plab mamlakatlarida keng qo'llanilmoqda. Respublikamiz iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar mazkur xizmat turini joriy etish masalasini taqozo etdi. Ko'p mablag' sarflamasdan ishlab chiqarish vositalarini yangilash, zamonaviy texnikaga ega bo'lish uning afzalliklaridan biridir.

Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 30 oktyabrdagi qaroriga ko'ra, respublikamiz qishloq xo'jaligini zamonaviy texnika bilan ta'minlash va tarmoq mashinasozligini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadida «O'zqishloqxo'jalikmashlizing» kompaniyasi tashkil etildi. Kompaniya o'z faoliyatini boshlagan 2000 yildayoq lizing asosida tarmoqqa 700 mln. so'mlik 471 dona texnika etkazib berdi. O'sha paytda texnikaga bo'lgan talabning yuqoriligi lizing hajmi oshirilishini taqozo qilardi. Buning uchun past foizli, yirik miqdordagi kredit mablag'larini

jalb etish, mashinasozlik zavodlari bilan kompaniya faoliyatini muvofiqlashtirish, hisob-kitob mexanizimini takomillashtirish, xo'jaliklarga imtiyozlar berish zarur edi. Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 2 noyabrdagi qarori ushbu muammolarni hal etishga qaratildi.

O'tgan yillar lizing kompaniyasi uchun shakllanish, ya'ni oyoqqa turish davri bo'ldi. Ishni to'la yo'lga qo'yish va lizing xizmatini keng miqyosda amaliyotga kiritish uchun bir qancha masalalar bosqichma-bosqich hal etiladi.

Ma'lumki, kompaniya respublikamiz lizing bozorida faoliyat ko'rsatayotgan eng katta tashkilotdir. 2004 yili kompaniyaning joylardagi 13 ta filiali orqali 2339 ta traktor, 100 ta «Keys – 2002» rusumli paxta terish mashinasi va 494ta turli xil texnika vositalari shirkat va fermer xo'jaliklariga etkazib berildi.

Kompaniyaning moliya bozoridagi faoliyati u malakatimiz iqtisodiyotida alohida o'ringa ega ekanligini ko'rsatdi. Birinchidan, qishloq xo'jaligining lizingga berish sohasi joriy etildi. Ikkinchidan, mulk shaklidan qat'i nazar tarmoqdagi jamoalar davlatning g'amxo'riligini sezishdi. Lizing xizmati joriy etilgach, odamlar ish bilan ta'minlandi va ishlab chiqarish samaradorligi oshdi. Yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, qishloq xo'jaligi mashinasozligi korxonalari ham jonlandi.

Lizing kompaniyasi ayni paytda o'z mijozlariga berilayotgan texnika qiymatining 15%ni oldindan to'lashni taklif qilib, ularga katta qulaylik yaratdi. Lekin texnikaning to'liq qiymati to'langunga qadar u kompaniya mulki hisoblanadi. SHu bois lizingga olingan texnikadan samarali foydalanish va uning to'g'ri ishlatilishini nazorat qilish nafaqat mijozning, balki kompaniyaning ham bevosita faoliyatiga kiradi.

Lizing xizmati fermerlar uchun katta imkoniyat yaratdi. Hozir yangi tartibda texnika oluvchilarning uchdan bir qismini fermerlar tashkil qilmoqda. Ma'lumki, ilgari fermer biror-bir texnika vositasi uchun shirkat xo'jaligi yoki MTPga murojat qilardi. Bu unga ortiqcha tashvish keltirar, ya'ni qo'shimcha xarajat qilishga to'g'ri kelardi. Bugun esa mazkur xizmat tufayli o'z mashina-traktor parkini tuzatayotgan fermerlar ham ko'p. Texnikalarning lizing asosida berilishi raqobat kuchayishiga, xizmat sifati yaxshilanishi va etishtirilayotgan mahsulot tannarxi pasayishiga olib kelmoqda.

Ba'zida lizingga texnika ololmayotgan, hattoki dastlabki badal pulini to'lagan bo'lsada, bu ish cho'zilayotgan hollarga duch kelamiz.

Buning sababi esa kompaniyaning joylardagi bo'limlari mijozlarini texnika bilan o'z vaqtida ta'minlay olmayotganliklaridadir. Afsuski, bunday hollar, kam bo'lsa-da, uchrab turibdi.

Ushbu masalaga aniqlik kiritish maqsadida lizing kompaniyasiga murojaat etdik. U erdagi mutaxassislar muammo jiddiy ekanligini, masalaning bir tomoni Moliya vazirligi huzuridagi qishloq xo'jaligiga texnikalar etkazib berishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga borib taqalishini aytishdi. Demak, jamg'arma mutasaddilari bu borada dehqonlarga madadkor bo'lish choralari ishlab chiqishlari lozim.

### **7.3. Agrar siyosatdagi ustuvorliklar**

Yirik tarmoq bo'lmish qishloq xo'jaligi mamlakat iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. O'zbekiston milliy xavfsizlikni ta'minlash, turli qishloq xo'jaligi ekinlari, shu jumladan, texnik ekinlar o'stirish uchun juda qulay, hududda joylashgan, paxta etishtirish bo'yicha dunyoda (AQSH, Hindiston, Xitoy, va Pokistondan keyin) 5, uni eksport qilish bo'yicha 2-o'rinda. O'rta Osiyoda etishtiriladigan jami paxta hajmining 75%i O'zbekiston hissasiga to'g'ri keladi. Bundan tashqari, respublikada har yili 5 million tonnadan ko'proq sabzavot va meva etishtiriladi. O'zbek qorako'l terilariga va pillasiga jahon bozorida talab katta.

Qishloq xo'jaligi aholini oziq-ovqat mahsulotlari, sanoatning turli tarmoqlarini esa xom ashyo bilan ta'minlaydi. Mamlakat aholisining 63%i qishloqlarda yashaydi. Aholining ancha qismi shu sohada mehnat qiladi. Mamlakat ichki mahsulotining 28%i qishloq xo'jaligi ulushiga to'g'ri keladi. Paxta etishtiriladigan maydonlarning deyarli hammasi sug'oriladigan erlardir. Bu erlarda qudratli irrigasiya tizimi mavjud.

Mustaqilik yillarida o'tkazilgan islohotlar davomida qishloqda yangi xo'jalik tuzilmasi shakllandi. Erga bo'lgan mulkchilik jarayoni kuchaydi. Bu agrar siyosatdagi eng muhim masaladir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24 martdagi "Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida"gi PF-3226-sonli Farmoni agrar sohada tub o'zgarish ufqlarini belgilab berdi. Mazkur hujjatda iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida past rentabelli va zarar ko'rib ishlovchi

shirkat xo'jaliklari negizida fermer xo'jaliklari tashkil etish ustuvor yo'nalish deb qayd etildi.

SHuni aytish kerakki, keyingi yillarda 159 ta shirkat xo'jaligi tugatilib, ularning negizida 9 mingdan ortiq fermer xo'jaligi tashkil qilindi. Jumladan, Mehnatobod, Mirzaobod, YOziyovon, Romiton va Amudaryo tumanlari xo'jaliklari to'liq tugatilib, fermer xo'jaliklariga aylantirildi. 7.1-jadvalda qishloq xo'jaligida turli mulkchilik shakllarida mahsulot etishtirishning 2003 – 2004 yillardagi holati berilgan.

Ko'rinib turibdiki, fermer xo'jaliklarida kartoshkachilik rivoj topgan, paxtachilik va g'allachilik etarli darajada rivojlanmagan, sut, go'sht tuxum va sabzavot etishtirishda dehqon xo'jaliklarining ulushi yuqori. Jamoa xo'jaliklari paxta va g'allachilikda ustun. SHuning uchun xam yuqorida tilga olingan farmon asosida 2003 yilda yana 177 jamoa xo'jaligi negizida fermer xo'jaliklari tuzilgan.

#### 7.1-jadval

Respublika qishloq xo'jaligida turli mulkchilik shakllarida mahsulot etishtirishning 2003 – 2004 yillardagi holati

	YAlpi hosil (ming tonna)		Qishloq xo'jaligi korxonalar		Dehqon xo'jaliklari		Fermer xo'jaliklari	
	2003y.	2004y.	2003y.	2004y.	2003y.	2004y.	2003y.	2004y.
Paxta	2803,3	3535,4	1741,8	1707,1	-	-	1061,5	1828,3
Bug'doy	5625,6	5502	2805,4	2085,2	789,9	832,4	2030,3	2584,9
Sabzavot	3301	3315,9	626	355,6	2321,9	2575,9	353,5	384,4
Kartoshka	834,4	892,7	49,7	45,7	751,2	803,9	33,5	43,1
Meva	765,8	646,3	231,5	215,9	477,7	520,9	56,6	109,5
Uzum	401,8	577,8	160,5	264,3	278,5	256,4	22,5	56,9
Poliz mahsulotlari	587,3	571,3	77,8	46,2	331,7	351,0	177,8	174,1

Manba: O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2004 yil, № 8, SISIM, T.: 2005.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, hatto zarar bilan ishlayotgan jamoa xo'jaliklari ham fermer xo'jaliklariga aylantirilsa, ularda ishlab chiqarish rivojlanadi, moddiy resurslar tejaladi, moliyaviy ahvol yaxshilanadi. Fermer xo'jaliklariga o'z rivoji jarayonida erkin iqtisodiy faoliyat yuritish uchun quyidagi imkoniyatlar yaratilgan:

- er maydonlari tanlov asosida 50 yilgacha muddat va meros qoldirish huquqi bilan ijaraga beriladi;
- berilgan er maydonlari shirkat xo'jaliklari balansidan chiqariladi;

- yollanma xodimlar, shu jumladan, oila a'zolari o'rtasidagi mehnat munosabatlari, mehnat qonunchiligiga muvofiq, mehnat shartnomalariga asoslanadi.

Hozirda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda agrar siyosatning ustuvorligi mujassamlashgan, fermer xo'jaliklarining 2003 – 2010 yillarga mo'ljallangan rivojlanish konsepsiyasi yaratilmoqda. Qishloqda zamonaviy bozor infratuzilmasini rivojlantirishning shu muddatga mo'ljallangan kompleks dasturi esa tayyorlandi.

YAqin yillarda mahalliy sharoitlarni, qishloq xo'jaligi erlarini, mehnat va suv resurslarining ahvoli hamda ho'jaliklar qayta tashkil etilishi natijasida bo'shab qolgan xodimlarni ish bilan ta'minlash istiqbollarini chuqur tahlil qilish asosida viloyat va tumanlar bo'yicha xo'jaliklarni rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish ustidagi ishlar davom ettiriladi.

Agrar siyosatda tilga olingan ustuvorliklar ijrosi aniq belgilangan reja asosida barcha bo'g'inglarda islohotlarning mohiyatini anglagan holda olib boriladi. Bu esa milliy xavfsizlikni ta'minlashda asosiy omil bo'ladi.

#### **7.4. Kredit qishloq ho'jaligi ravnaqida muhim omil sanaladi**

Qishloq xo'jaligi moddiy ishlab chikarishning asosiy tarmog'i bo'lib, sanoatning ko'plab tarmoqlarini xom ashyo bilan ta'minlash hamda respublika eksport salohiyati va valyuta tushumining muhim manbasi hisoblanadi. SHu bois mamlakatimiz Prezidenti va hukumati mazkur sohani rivojlantirishga jiddiy e'tibor karatmoqda. Ayniqsa, YUrtboshimizning «O'zbekiston o'z taraqqiyotini fermerlik rivojida ko'radi va bu borada dunyoning ilg'or mamlakatlari erishgan yutuklarga tayanadi» degan fikrlari soha taraqqiyotida dasturilamal vazifasini o'tamoqda.

Bir so'z bilan aytganda, fermerlarga qator imtiyozlar berilib, keng imkoniyatlar yaratilmoqda, me'yoriy-huquqiy baza tobora takomillashtirib borilmoqda.

Qishloq xo'jaligidagi asosiy tadbirkorlik sub'ektlari, ya'ni fermer xo'jaliklarini rivojlantirish yo'li bilan iste'mol bozorini sifatli qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat va engil sanoat mahsulotlari bilan to'ldirish, aholiga ish o'rinlari yaratish orqali iqtisodiyotimizni jadal

yuksaltirish imkoniga ega bo'lamiz. SHuning uchun kichik biznes, shu jumladan, dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish hukumatimiz tomonidan izchil amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishiga aylandi.

Dehqon va fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida 2003 – 2004 yillarda tijorat banklari tomonidan 39 mlrd. so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratildi.

Vazirlar Mahkamasining «Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishni mablag' bilan ta'minlash mexanizmini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, ayniqsa, fermer xo'jaliklari rolini oshirish, ularda mulkdan jalb etiladigan mablag'lardan samarali foydalanish uchun iktisodiy javobgarlik hissini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu qarorga ko'ra, Buxoro, Farg'ona, Namangan va Xorazm viloyatlaridagi fermer xo'jaliklarining davlat ehtiyojlari uchun paxta va g'alla etishtirish bo'yicha xarajatlarini tayyorlov korxonalari orqali bo'naklash mexanizmi o'rniga ularga xizmat ko'rsatuvchi tijorat banklari orqali to'g'ridan-to'g'ri imtiyozli kreditlar ajratish mexanizmi ishlab chiqildi. Bu mexanizm 2003 yil hosilidan boshlab tajriba sifatida sinab ko'rildi.

Davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtiruvchi fermer xo'jaliklariga imtiyozli kreditlar qaytmaslik xatarining oldini olish yoki garovni sug'urtalash shartnomalari bo'yicha sug'urta mukofotlarini to'lash, ish haqi to'lovlari, mineral o'g'it, kimyoviy preparatlar, polietilen plyonka, yonilg'i-moylash mahsulotlari sotib olish, mashina-traktor parklari, shu jumladan, muqobil MTPlar, kollektor-drenaj tarmoqlarini tozalash, elektr quvvati, yagona er solig'i va boshqa xarajatlar to'lovi (hosilni yig'ib olish bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda) uchun maqsadli kreditlar ajratish yo'lga qo'yildi.

Jumladan, 2003 yil davomida paxta xom ashyosi tayyorlovchi fermer xo'jaliklaridan tijorat banklariga taqdim etilgan 9691 ta kredit arizasi to'liq ko'rib chiqilib, ularga 15227 mln. so'mlik, g'alla etishtiruvchi fermer xo'jaliklari tomonidan tushgan 5617 ta kredit arizasi bo'yicha esa 1484,2 mln. so'mlik imtiyozli kreditlar ajratildi. Ularning samarasi albatta, yuqori bo'ldi. Birgina 2003 yili ana shu to'rtta viloyatda imtiyozli kredit olgan fermer xo'jaliklari tomonidan mo'ljalidagi 166,1 ming tonna o'rniga 183,8 ming tonna don etishrildi. Natijada 11,0 mlrd. so'm o'rniga 13,5 mlrd. so'm daromad olinib, 5,5



mlrd. so'm sof foyda ko'rildi. Masalan, Uchko'rg'on tumanidagi «Rahimjon hoji» fermer xo'jaligi 2002 yilda 45 gektar erda g'alla etishtirib, 4,7 mln. sof foyda olgan bo'lsa, 2003 yilda kreditlash mexanizmi qo'llanilgach, bu ko'rsatkich 7,4 mln. so'mni tashkil etdi. Rentabellik darajasi esa avvalgi yildagiga nisbatan 3 % o'sdi.

SHuningdek, imtiyozli kredit olgan paxta etishtiruvchi fermer xo'jaliklari 2004 yili 50,6 mlrd. so'm daromad, shu jumladan, 20,5 mlrd, so'm sof foyda olishga erishdilar. Bir misol: Buxoro tumanidagi «Ibod bobo» fermer xo'jaligi 29 gektar maydonda paxta etishtiradi. Ushbu xo'jalik 2002 yilda 12,6 mln. so'm daromad qilgan bo'lsa, 2003 yilda bu ko'rsatkich 23,0 mln. so'mni tashkil etdi. Imtiyozli kreditlash natijasida jamoada hosildorlik 1,4 sentnerga, sof foyda esa 1120 ming so'mga ko'paydi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, yangi kreditlash mexanizmiga o'tilgach, salmoqli natijalarga erishgan fermer xo'jaliklari soni to'rtala viloyatda ham ancha ko'paydi.

Fermerlarga ajratilgan to'g'ridan-to'g'ri imtiyozli kreditlar samarasini ular rejadagiga nisbatan ortiqcha daromad olganligida ham yaqqol ko'rish mumkin. Pirovardida, 2005 yil 1 oktyabr holatiga ko'ra, tijorat banklari tomonidan davlat ehtiyojlari uchun g'alla hosili etishtiruvchi fermer xo'jaliklariga berilgan kredit mablag'lari yakuniy hisob-kitoblarga ajratilgan mablag'lar hisobidan to'liq qaytarildi.

Respublikamizda paxta va don mahsulotlariga davlat buyurtmalari joriy etilishi esa bir tomondan, fermerlarning mahsulotlariga barqaror talabni vujudga keltirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, etishtirilajak g'alla va paxta xom ashyosi qiymatining 50 % i miqdorida oldindan bo'nak puli olish imkonini yaratdi.

YAngi mexanizmning oldingi uslubdan yana bir qulay tomoni bor. Davlat ehtiyojlari uchun sotiladigan paxta xom ashyosi va g'alla etishtiruvchi fermerlarga to'g'ridan-to'g'ri imtiyozli kredit berilishi ular uchun ehtiyoj sezilgan xarajatlarni o'z vaqtida moliyalashtirish va mablag'larni mustaqil ravishda tasarruf etish imkonini berdi.

Fermerlik rivoji qishloqda yangicha bozor infratuzilmasi yaratilishini takozo etadi. Bu borada respublikamizda olib borilayotgan ishlar xususida to'xtalib o'tganda shuni ta'kidlash kerakki, Prezidentimiz Vazirlar Mahkamasining 2004 yil yakunlariga bag'ishlangan yig'ilishidagi ma'ruzasida qishloq xo'jaligi taraqqiyotiga ko'maklashuvchi bozor infratuzilmalarini yaratish va ular tomonidan,

ayniqsa, fermerlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta'kidlagan edi. Bu vazifani amalga oshirish fermer xo'jaliklariga moddiy-texnik resurslar etkazib beruvchi, mahsulotlarni saqlash, tashish, qayta ishlash va sotishga ko'maklashadigan xizmat ko'rsatuvchi korxonalar tarmog'ini shakllantirish, bank, axborot-maslahat markazlari hamda fermerlar manfaatlarini himoya qiluvchi uyushmalar, fondlarni tashkil etish va ularni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishni nazarda tutadi. Davlat bu yo'l bilan fermerlikning rivojini bevosita qo'llab-quvvatlaydi.

Xususan, davlat ehtiyojlari uchun mahsulot etishtirayotgan fermer xo'jaliklarining iqtisodiy va moliyaviy mustaqilligini to'liq ta'minlash, bozor sharoitida biznesni boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lgan fermer xo'jaliklari rahbarlari va mutaxassislarini tayyorlash, qishloqda fermer xo'jaliklarining ehtiyojlariga qarab barcha zarur xizmatlarni ko'rsata oladigan zamonaviy ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini jadal rivojlantirish maqsadida Prezidentimizning «2004 – 2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmon ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan «2004 – 2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi» ishlab chiqildi. Bu hujjatda esa er-suv munosabatlari, fermerlarni moliyalashtirish va kreditlash tizimi, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, mahsulotni tayyorlash, qayta ishlash va sotish tizimi hamda mehnat munosabatlarini takomillashtirish va kadrlar tayyorlash masalalarini 2006 yilgacha bosqichma-bosqich bajarish belgilab berildi.

Qarorga ko'ra, shuningdek, 2004 – 2006 yillarda zarar ko'rib ishlayotgan, past rentabelli va istiqbolsiz shirkat xo'jaliklaridan 1020 tasi fermer xo'jaliklariga aylantiriladi. YAngidan tashkil etilayotgan fermer xo'jaliklariga bank xizmatlari ko'rsatish, qo'shimcha qulayliklar yaratish maqsadida qishloqda ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini rivojlantirish dasturlariga asosan, shu muddat mobaynida 701 ta, jumladan, joriy yilning o'zida 178 ta mini bank tashkil etilishi belgilandi. E'tiborlisi, hududlarda tashkil etilayotgan fermer xo'jaliklariga joylarda joriy yilning o'tgan 4 oyi mobaynida har tomonlama qulay bo'lgan 180 ta mini bank tashkil etildi. Umuman, hozirgi paytda faoliyat ko'rsatayotgan jami mini banklar soni 982 taga etdi. Ularning qanday ishlayotganini tasavvur etish uchun yana bir misol

keltiramiz. «O'zuyjoyjamg'armabank»ning Jizzax viloyati filialiga qarashli, Jizzax tumani markazidan 15 qilometr uzoqlikda joylashgan «Uchtepa» mini banki hozirgi kunda 227 ta mijozga, shu jumladan, 167 ta fermer xo'jaligiga sifatli xizmat ko'rsatib kelmoqda.

SHu o'rinda kreditlash masalasi echimiga oydinlik kiritish maqsadida so'nggi paytda fermerlar kredit olish ancha oson bo'lib qolganini ta'kidlamog lozim.

Iqtisodiy munosabatlarning yaxlit, mukammal tizimini barpo etish yuzaga kelayotgan muammolarni izchil va o'z vaqtida echishni talab etadi. Bu borada Markaziy bank tomonidan bir talay ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, tegishli vazirliklar va idoralar bilan birgalikda to'g'ridan-to'g'ri imtiyozli kreditlash bo'yicha 2003 yilda 4 viloyatda orttirilgan tajribalar asosida «Fermer xo'jaliklarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan mahsulotlar xarajatlarini tijorat banklari tomonidan kreditlash tartibi to'g'risidagi Nizom» ishlab chiqildi. Bu me'yoriy hujjatda qishloq xo'jaligi mulkdorlaridan yil davomida olingan takliflar e'tiborda tutildi, shu asosda ularga bir qator qulayliklar va imkoniyatlar yaratilmoqda.

Mazkur Nizomga muvofiq Andijon, Buxoro, Jizzax, Namangan, Navoiy, Samarqand, Farg'ona va Xorazm viloyatlaridagi fermer xo'jaliklariga tijorat banklari tomonidan kredit mablag'lari muntazam berib kelinmoqda. Respublikamizning qolgan 5 ta viloyatida esa ushbu mexanizm keyingi yildan boshlab joriy etiladi. \*

Kredit mabalag'lari ajratishda bunday uzluksiz jarayonning ta'minlanishi mamalkatimizda fermerlik harakatini yanada rivojlantirishda muhim omil bo'ladi.

## **7.5. Fermer xo'jaliklarining mintaqaviy xususiyatlari**

O'zbekiston Rspublikasida mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligini isloh qilish uchun bozor iqtisodi talablari asosida juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Asosiy ishlab chiqarish vositasi – erlar o'z egalari: dehqon va fermerlarga berilib, mulkchilik shakllari o'zgartirdi, dehqon va fermerlar uyushmalari tuzilib, mahsulotlarni etishtirish va esport qilish ishlari batamom yangi yo'lga qo'yildi.

---

\* Кредит: фермерлик равна=ида муштим омил. – Хал=сызи, 2004йил, 2 июнь.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston hukumati tomonidan dehqon va fermer xo'jaliklarini tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha huquqiy va normativ hujjatlar ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan «Fermer va dehqon xo'jaliklari to'g'risida»gi (30.04.1998 y, № 605. 1-sonli) Qonuni va Vazirlar Mahkamasining bu qonunni hayotga tatbiq qilish bo'yicha qator qarorlari ular orasida alohida o'rin tutadi. Ularga ko'ra, erlarni o'z egasi - dehqon va fermerlarga berib, fizik-kimyoviy tarkibini yaxshilash va unumdorligini oshirish choralari belgilandi, fermerlarga shuningdek, ixtiyoridagi erdan umrbod foydalanish huquqi berildi. O'zbekistonda 2000 yil 1 noyabrda dehqon va fermer xo'jaliklari soni 41743 ta bo'lgan bo'lsa, 2001 yilning shu davriga kelib, bu ko'rsatkich 55208 taga etdi.

2001 yili respublikada 2142 mlrd. so'mlik qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtirildi. 2004 yilga kelib, bu ko'rsatkich ikki barobar oshdi. Dehqonchilik mahsulotlarining salmog'i dehqonchilikda olingan foydaning 65 % ini yoki 4732 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda fermer va dehqon xo'jaliklarining ulushi 45 % bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasida «Fermer va dehqon xo'jaliklari tug'risida»gi qonun hayotga tatbiq etilib, respublika fermer va dehqon xo'jaliklari uyushmasi tuzilgan. Unga a'zo bo'lgan fermerlar soni 2000 yilda 37274 ta bo'lgan bo'lsa, 2001 yilda 43568 taga etdi, dehqon xo'jaliklaridan esa bu erga 2000 yilda 26660 ta a'zo bo'lgan bo'lsa, 2001 yilda 34918 taga etdi. Fermer va dehqon xo'jaliklarining er maydoni 2000 yilda 661,9 ming gektar edi. U 2001 yili 728,1 ming, 2004 yilda 2194,4 ming gektarga etdi. 2000 yili bir fermerga o'rtacha Sirdaryo viloyatida eng ko'p – 35,9 sotix, Navoiy viloyatida eng kam – 6,5 sotix er to'g'ri keldi. 2004 yili bu ko'rsatkich Qoraqalpog'iston Respublikasida eng ko'p – 35,5, Navoiy viloyatida eng kam – 9,7 sotixni tashkil etdi. Respublikamiz bo'yicha har bir dehqon va fermer xo'jalik eri o'rtacha 2000 yilda 17,3, 2004 yilda 16,2 sotixdan iborat bo'ldi.\*

Respublikada dehqonchilik uchun zarur mashinalar tizimi yaratildi, ilmiy-tadqiqot institutlari, tajriba stansiyalari, tayanch punktlari

---

\* Ўзбекистон итсодиёти. Тащдилиий шарщ. СИСМ. Т.: 2005, №8, 50-б.

tarmoqlari rivojlantirildi, qishloq xo'jaligini malakali mutaxassislar bilan ta'minlaydigan oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari tashkil etildi.

O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ilmiy ishlab chiqarish markazining 17 ilmiy-tadqiqot instituti, ularning 12 ta filiali, 15 ta tayanch punkti, 9 ta eksperimental bazasi va 50 ga yaqin boshqa bo'limlarida qishloq xo'jaligi, o'rmon xo'jaligi va agrosanoat majmuining turli sohalarida nazariy va amaliy ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda, fan yutuqlari ishlab chiqarishga joriy etilmoqda. Respublikada Toshkent davlat agrar universiteti, Andijon, Samarqand qishloq xo'jaligi, Qarshi agrar-iqtisodiyot, Toshkent irrigasiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash injenerlari institutlari, qator kollejar ishlab turibdi. Respublika oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarini qishloq xo'jaligi ixtisosliklari bo'yicha har yili 5 mingdan ortiq oliy ma'lumotli, 12 mingdan ziyod o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislar bitirib chiqmoqda.

Respublikada qishloq xo'jaligi sohasidagi umumiy siyosatni respublika Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi amalga oshiradi. Davlat boshqaruvining quyi bo'g'ini bo'lgan tuman qishloq va suv xo'jaligi boshqarmalari jamoa xo'jaliklari, davlat xo'jaliklari, shirkatlar uyushmalari ijara xo'jaliklarida umumiy rahbarlikni olib boradi. Ixtisoslashuviga ko'ra, bog'dorchilik, tokchilik, ayrim issiqxona xo'jaliklari mustaqil «O'zmevasabzovotuzumsanoatxolding» xolding kompaniyasiga qaraydi. Ayrim tarmoqlarga rahbarlikni amalga oshirish uchun Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining «O'zbekqorako'l», «O'zbek ipagi», «O'zparandasanoat», «Asal» kabi respublika ishlab chiqarish uyushmalari tashkil etilgan.

O'zbekiston hududi qishloq xo'jaligi jihatidan 3 mintaqaga bo'linadi: tog' va tog' oldi mintaqasi respublika hududining 20 % dan ortiqrog'ini tashkil etadi. Asosan lalmikor dehqonchilik (bug'doy, arpa, no'xat, zig'ir), bog'dorchilik va tokchilik taraqqiy etgan bu mintaqada bahorgi-kuzgi mavsumiy yaylovlar bor, chorvachiligi go'sht-jun etishtirishga ixtisoslashgan. Sug'orma dehqonchilik mintaqasi respublika hududining qariyb 20 %ini tashkil etadi. Bu mintaqqa Farg'ona vodiysi, Mirzacho'l, Dalvarzin cho'li, CHirchiq-Ohangaron, Zarafshon, Qashqadaryo va Surxon-SHERobod vodiylari, hamda Quyi Amudaryoni o'z ichiga oladi. Unda asosan paxta, shunigdek, kanop, don (bug'doy, makkajo'xori, sholi), kartoshka, sabzovot-poliz mahsulotlari (qovun, tarvuz, qovoq), em-xashak ekinlari (beda, sudano't,

perko va boshqa) etishtiriladi. Bog' va tokzorlar, tutzorlar, rezavor meva maydonlari bor, go'sht-sut chorvachiligi rivojlangan.

Cho'l-yaylov mintaqasi respublika hududining 50 % ni tashkil etadi, asosan cho'l va suvsiz tekisliklardan iborat, Buxoro, Qashqadaryo viloyatlari, Qoraqalpog'istonda va Farg'ona vodiysining markaziy qismida joylashgan.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligining asosiy ishlab chiqarish vositasi bo'lgan er davlat mulki hisoblanadi. Davlat qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanadigan korxonalar va xo'jaliklarga, shuningdek, fuqarolarga muddatsiz yoki vaqtinchalik foydalanish uchun er ajratib beradi. Davlat va er fondi er egaligi yoki erdan foydalanuvchilar hududdagi barcha erlar – haydalma erlar, daraxtzor, yaylov, pichanzor, o'rmon, qo'riq er, qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan erlardan iborat. Respublikaning 2003 yildagi umumiy er fondi 44797,7 mingga, barcha qishloq xo'jaligi erlari 27987 mingga. SHundan sug'orishga yaroqli erlar 5 mln.gektar, sug'oriladigan er maydoni 4238,6 ming. gektar, qishloq xo'jaligida foydalaniladigan erlarning umumiy maydoni salkam 32 mln, ekiladigan erlar 4090,2 ming, haydalma erlar 4475,5 ming gektarga etdi. (7.1-jadval) Respublika er fondining asosiy qismi (62 % ga yaqini) qishloq xo'jalik er turlari toifalariga mansub, qolgan qismi fuqarolar erlari – tomorqa (7 %), o'rmon va to'qayzorlar (3,2 %), qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan erlardan (34,2 %) iborat. Sug'oriladigan erlar jami er resurslarining 9,2 % ini tashkil etishiga qaramay, respublika qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining 98,5%i shu erlarda etishtiriladi.\*

O'zbekistonda XX asrda sug'oriladigan erlar maydoni sezilarli darajada ko'paydi (1914 yilda 1809,5 ming ga; 1994 yilda 4238,6 ming ga). Keyingi o'n yilliklarda irrigasiya-meliorasiya ishlariga katta e'tibor berildi. Respublika aholisi

---

\* Ўзбекистон Республикаси «ишло» ва сув хўжалиги вазирлиги маълумотлари. Т.: 2004.

## 7.1-jadval

### Er maydoni va qishloq xo'jaligi erlarining erdan foydalanuvchilar bo'yicha taqsimoti, mingga

	Umumiy er maydoni	Barcha toifadagi qishloq xo'jaligi erlari	SHu jumladan		
			haydalm a erlar	pichan zor erlar	yaylovlar
<b>Jami er</b>	44797,7	27987,1	4474,5	109,4	22855,6
Qishloq xo'jaligi korxonalari va xo'jaliklari erlari	31970,0	25925,2	4458,8	107,4	20824,6
Dehqon (fermer) xo'jaliklari erlari	82,8	76,8	32,9	0,3	42,1
Fuqarolar erlari	571,3	477,5	382,5	-	-
Zahiradagi va xo'jalik erlari	10203,9	1975,3	9,0	2,0	1954,1
Boshqa toifadagi erlar	2623,8	86,6	6,7	-	76,9

Manba: O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari. T.: 2005.

sonining o'sish sur'atlari sug'oriladigan erlarni kengaytirish sur'atlaridan o'sib ketishi natijasida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sug'oriladigan haydalma er maydoni yildan-yilga kamayib bordi.

Erlardan oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish, tuproq unumdorligini tiklash, tabiiy muhitni asrash va yaxshilash, xo'jalik yuritishning hamma shakllarini teng huquqlar asosida rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish maqsadida respublikada er munosabatlari O'zbekiston Respublikasining Er kodeksi (1998 yilning 1 iyulidan kuchga kirgan) bilan tartibga solinadi. Islohotlar natijasida fermer xo'jaliklari rivojlantirish orqali O'zbekistonning boshqa hududlaridagi kabi Toshkent viloyatida ham paxtachilik va boshqa sohalarda o'sishga erishildi (7.2-jadval). Fermer xo'jaliklari tomonidan 2003 yilda 55339 tonna sabzavot, 8376 tonna kartoshka, 11804 tonna poliz, 1510 tonna uzum, 5564 tonna meva va 79974 tonna em-xashak etishtirildi.

7.2-jadval

**Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan fermer va dehqon xo'jaliklarining asosiy ishlab chiqarish ko'rsatkichlari (tonna)**

Ko'rsatkichlar	Fermer xo'jaligi		Dehqon xo'jaligi	
	2000 y.	2004 y.	2000 y.	2004 y.
Go'sht, tirik vaznda	1132	1205	64080	79180
Sut mahsulotlari	5542	5355	250776	282403
Tuxum, ming dona	484	1122	164905	175905
Jami boshqoli don	25571	33298	-	-
Bug'doy	25571	33258	7613	8700
Kartoshka	7125	8376	9208	30440
Uzum	0	1510	12017	14120
Meva	3133	5564	23311	25217
Sabzavot	44265	55338	274719	286223
Poliz	11364	11804	15264	16034
Paxta	21436	31389	0	0
/alla	19248	21773	0	0

Manba: O'zbekiston Respublikasi qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari, T.: 2005.



Viloyatda chorvachilik sohasiga ham jiddiy e'tibor berilmoqda. 2003 yili chorvachilik yo'nalishidagi fermerlar soni 463 ta bo'lgan bo'lsa, 2004 yilda 493 tani tashkil etmoqda. Viloyat bo'yicha 14102,9 ta shartli mol mavjud. Yil davomida viloyat chorvadorlari tomonidan 891 tonna go'sht, 5355 tonna sut va 1122 dona tuxum etishtirildi. Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 4 martdagi «Fermerchilikni, xususiy tadbirkorlikni hamda kichik va o'rta biznes sub'ektlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 75-sonli qaroriga asosan viloyat dehqon va fermerlarini qo'llab-quvvatlash, ularning iqtisodiy bazasini mustahkamlash, mamlakat ichki bozorini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan yanada yuqoriroq darajada to'ldirish, aholi faravonlikni oshirish maqsadida tijorat banklari tomonidan viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan 640 ta dehqon va fermer xo'jaliklariga 851700000 so'm miqdorida mikrokraditlar ajratildi. SHundan 425 tasi fermer xo'jaliklariga, 215 tasi dehqon xo'jaliklariga berildi. Yo'nalishlar bo'yicha kreditlarning 512 tasi yoki 680808000 so'mi chorvachilik, 67 tasi yoki 70761000 so'mi urug' uchun, 30 tasi yoki 58650000 so'mi texnika uchun, 31 tasi yoki 414800000 so'mi boshqa sohalarga ajratildi. Ajratilgan kreditlar maqsadli ravishda ishlatilishini ta'minlash choralari ko'rilmogda.\*

## **7.6. Fermerlik harakati va uning imkoniyatlari**

O'zbekiston qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy maqsadi sohada mulkdorlar sinfini shakllantirish orqali raqobat muhitini yuzaga keltirishdir. Amalga oshirilgan islohotlar natijasida bugungi kunga kelib etishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining 99 foizi nodavlat sektor ulushiga to'g'ri kelmoqda.

Keyingi yillarda O'zbekistonda fermerlik harakati jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Qishloq xo'jaligi yuritish borasidagi dunyoviy tajribalar fermer xo'jaliklarining boshqa xo'jalik shakllariga nisbatan bar qancha afzalliklarga egaligini ko'rsatdi. SHu sababli hukumat tomonidan fermer xo'jaliklarini rivojlantirish har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirishga bunday ustuvorlik berilishi chuqur o'ylangan agrar siyosat natijasidir.

Keyingi yillarda ko'pgina shirkat xo'jaliklari mavjud resurslardan foydalanishda, mahsulot sotish va boshqa sohalarda nisbatan kichik, lekin bozor sharoitiga moslashgan fermer xo'jaliklari

---

\* Экономические обозрение. 2004, №12. – 34-б.

bilan raqobat qila olmay qoldilar Katta hajmdagi boshqarish tizimi xarajatlari va boshqa transaksion xarajatlar yo'qligi mahsulot tannarxining arzon bo'lishi fermer xo'jaliklariga shirkatlarga nisbatan o'z mahsulotlarini arzonroq sotishga sabab bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yildagi 243 va 543 - sonli qarorlariga asosan Xorazm, Sirdaryo viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasidagi istiqbolsiz deb topilgan 17 ta xo'jalik tajriba tariqasida to'laligicha tugatilib, ularning negizida 1022 fermer xo'jaligi tashkil etildi.

Tajriba dastlabki paytdanoq ijobiy natija bera boshladi. O'sha yildagi suv taqchilligiga qaramasdan qayta tashkil etilgan xo'jaliklarda g'alla hosildorligi o'rtacha 9 sentnerga ortdi. SHu bilan birgalikda, tahlillarning ko'rsatishicha, fermer xo'jaliklarida modiy-texnika resurslaridan foydalanish samaradorligi yuqori bo'lgan. Masalan, Xorazim viloyati Urganch tumanidagi A.Temur nomli xo'jalikda ozuqa sarfi 50 foizgacha kamaygan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2000 yildan boshlab qator qarorlar qabul qilindi. Ularga muvofiq 2001 yilda 52 ta istiqbolsiz xo'jalik negizida 3428 ta, 2002 yili 83 ta xo'jalik negizida 3099 ta va 2003 yilda 177 xo'jalik negizida 11383 ta fermer xo'jaligi tashkil etildi. Natijada 2003 yil boshiga kelib, fermer xo'jaliklari soni 71406 taga, ularning er maydonlari esa 1591,7 ming gektarga etdi (7.3-jadval).

Fermer xo'jaliklarining mamlakat iqtisodiyotida tobora mustahkam o'ringa ega bo'lib borishi quyidagi ko'rsatkichlar orqali yaqqol ko'zga tashalanadi: fermer xo'jaliklarining ulushi 1992 yilda paxta etishtirishda 0,002 foizni, g'alla etishtirishdi 0,6 foizni tashkil etdi. Bu toifadagi xo'jaliklarda shuningdek, qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligi boshqa xo'jalik shakllaridagiga nisbatan birmuncha yuqori bo'lmoqda.\*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 27 oktyabrdagi «2004 – 2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish Konsepsiyasi tug'risida»gi 3342-sonli Farmoniga muvofiq 2004 – 2006

---

\* Ёзбекистон Республикаси деш=он ва фермер хыжаликлари уюшмаси маълумотлари. Т., 2004.

yillar mobaynida zarar bilan ishlayotgan past rentabelli 1022 ta shirkat xo'jaligini fermer xo'jaliklariga aylantirish ko'zda tutilgan.

### 7.3-jadval

#### O'zbekistonda fermer xo'jaliklari rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari

	O'lchov birligi	1992	1994	1996	1998	2000	2004
Fermer xo'jaliklarining soni	dona	5942	14236	18848	23048	43759	72406
Er maydoni	ming ga	45,1	193,1	351,6	446,5	889,7	1591,7
Band bo'lgan ishchilar soni	ming kishi	20,9	62,9	104,2	137,9	295,0	487,9
/alla	ming t	5,1	29,1	141,8	291,6	520,8	1375,6
SHoli	ming t	1,7	7,6	16,6	16,9	22,9	39,3
Paxta	ming t	0,7	28,4	158,1	269,9	493,0	981,2
Kartoshka	ming t	0,5	6,8	6,9	19,7	30,8	29,9
Sabzavot	ming t	6,5	34,9	52,8	77,4	129,4	218,6
Poliz mahsulotlari	ming t	4,4	24,2	27,5	29,3	33,6	78,9
Go'sht	ming t	4,2	13,4	18,1	10,6	11,1	16,9
Sut	ming t	23,6	52,6	56,1	50,7	54,1	81,9
Tuxum	mil dona	1,2	3,3	4,8	7,5	12,0	46,1

Manba: O'zbekiston Respublikasi dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasi ma'lumotlari. T., 2005.

Fermer xo'jaliklarining o'rtacha er maydonlari respublikamiz mintaqalari bo'yicha turlicha. Masalan, xar bir fermer xo'jaligiga to'g'ri keladigan o'rtacha maydon Qoraqalpog'iston Respublikasida 198 gektarni, Xorazm viloyatida 20,9 gektarni, Toshkent viloyatida 25,6 gektarni tashkil etadi. Farg'ona vodiysi va aholi zich yashaydigan boshqa mintaqalarda bu ko'rsatkich yanada past.

Fermer xo'jaliklari bilan bog'liq boshqa muammolar ham ko'p. Toshkent viloyatida olib borgan monografik kuzatishlarimiz shuni ko'rsatdiki, ko'pgina joylarda tugatilayotgan shirkat xo'jaliklarining kreditorlik qarzlari yangi tashkil etilayotgan fermer xo'jaliklari zimmasiga yuklanmoqda. Masalan, «YAngiobod» xo'jaligining 48,7 mln. so'm kreditorlik qarzi yangi tashkil etilgan fermerlik xo'jaliklariga taqsimlangan va bir fermer xo'jaligi zimmasiga to'g'ri kelgan qarz miqdori o'rtacha 812 ming so'mni tashkil etgan. U. YUsupov nomli

xo'jalik negizida tashkil etilgan fermer xo'jaliklariga esa o'rtacha 1,33 mln. so'mdan qarz to'g'ri kelgan. Tadbirkorlik faoliyatining qarz to'lashdan boshlanishi yangi korxonani birmuncha qiyin ahvolga solib qo'yishi o'z-o'zidan ma'lum.\*

Fermer xo'jaligining moliyaviy barqarorligi ko'p jihatdan etishtirilgan mahsulot marketingini muvaffaqiyatli tashkil etishga bog'liq. O'zbekistonda marketing hamda baho shakllanishining ikkita tizimi mavjud. Birinchi tizim davlat buyurtmasiga kirgan paxta va g'allani o'z ichiga olib, bunda marketing tovar uyushmalari orqali tartibga solinadi. Amaliyotda davlat buyurtmasi tizimi g'alla uchun yirik marketing kanallaridan biri, paxta uchun esa yagona marketing kanali hisoblanadi. Boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish yuzasidan mahalliy hokimiyat organlari ma'lum darajada nazorat o'rnatgan bo'lsada, ular uchun davlat buyurtmasi mavjud emas. Bu mahsulotlar uchun baho belgilash va sotish to'la erkinlashtirilgan. Ammo er maydonlarining kichikligi va moddiy-texnika resurslari etishmasligi ishlab chiqarish hajmini ko'paytirishga to'siq bo'lmoqda. Lekin shunga qaramasdan fermer xo'jaliklarining ulushi oshib bormoqda (7.4-jadval).

Davlat buyurtmasining mavjudligi paxta va g'alla uchun bozordagi imkoniyatlarni ma'lum darajada cheklaydi. Mahsulot ishlab chiqaruvchilar duch kelayotgan muammo shuki, davlat xarid narxlarida mahsulot sotish tijorat jihatidan foydali emas. Bir vaqtning o'zida mahsulot ishlab chiqarish bozoridagi talab va taklifga qarab belgilanmasligi oqibatida uni sotishdagi qiyinchiliklar qishloq xo'jaligi korxonalarining moliyaviy nobarqarorligiga olib keladi.

Baholarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, g'allaning davlat xarid narxi va bozor narxi orasidagi farq ancha katta. «O'z paxtasanoat» uyushmasining  
qayta

---

\* Ёзбекистон республикаси «ишло» ва сув хыжалиги вазирлиги маълумотлари. Т, 2005.

## 7.4.jadval

### O'zbekiston Respublikasi fermer xo'jaliklarining yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishdagi ulushi

Mahsulot turi	1992 y.	1993 y.	1994 y.	1995 y.	1996 y.	1997 y.	1998 y.	1999 y.	2000 y.	2002 y.	2004 y.
Paxta	0,02	0,15	0,7	2,6	4,5	2,14	10	11,7	NA	20,2	31,3
Bug'doy	0,6	0,8	1,1	3,8	4,8	8,1	7,5	10	14	21,0	27,3
SHoli	0,6	0,9	1,2	1,6	3,7	4,8	4	8,3	13		
Kartoshka	0,4	0,7	1,5	2,0	1,9	2,8	2,4	3,4	4	4,2	3,9
Sabzavot	0,3	0,3	1,3	1,8	2,1	3,1	2,8	5,5	5	5,5	7,5
Poliz mahsulotlari	0,7	1,2	1,2	4,8	5,9	9,9	9,2	11,3	11	11,3	16,5
Meva	1,2	1,2	1,4	1,8	1,8	3,4	2,2	3,6	4	3,6	7,1
Uzum	1,0	1,1	1,5	1,7	1,4	3,4	2,4	4,5	5	4,6	6,6
Go'sht	0,4	0,5	1,6	2,1	2,3	1,3	0,9	1,3	1	1,4	2,1
Sut	0,3	0,1	1,4	1,9	1,6	1,5	1,2	1,4	1	1,5	2,2
Tuxum	0,3	0,5	0,2	0,4	0,4	0,6	0,3	0,6	2	1,0	3,4

**Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. T, 2005.**

ishlovchi korxonalarini paxtani sotib oluvchi monopoli korxonalar hisoblanadi. O'tkazilgan so'rovlardan ma'lum bo'lishicha, paxtaning davlat xarid narxi g'allaning xarid narxidan kamida ikki barobar yuqori bo'lishiga qaramasdan fermerlar 2 ta sabab tufayli g'alla etishtirishni afzal deb bilishadi: birinchidan, o'zining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va g'allaning o'z ixtiyorida qolgan qismini sotish orqali

qo'shimcha daromad olishadi; ikkinchidan, paxtani yuqori xarid narxlarida sotishda, uning tannarxi ham yuqoriligi. Tovar uyushmalari qayta ishlash korxonalariga topshiriladigan mahsulotlarning asosiy qismiga baho «xarajat – foyda» tamoyili asosida shakllantiriladi. Paxta va g'allaning davlat buyurtmasiga kirgan qismidan tashqari barcha mahsulotlar bahosi ikkita parallel bozorga bevosita bog'liq. Birinchisi – mahsulot bahosi o'zaro kelishiladigan va to'lov o'sha vaqtning o'zida naqd pul bilan amalga oshiriladigan bozor bo'lsa, ikkinchisi – mahsulot ishlab chiqaruvchilar va qayta ishlovchilar bilan kelishilgan baholarda tuziladigan kontraktasiya shartnomalaridir. Mahsulot ishlab chiqaruvchilar uchun bozor to'g'risidagi axborotlarning, mahsulotlarni saqlash omborlarining etishmasligi yil davomida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bahosi o'zgarib turishiga olib kelmoqda. SHartnoma tizimi bozor nobarqarorligining oldini oluvchi vosita bo'lsada, xususiy ishlab chiqaruvchilar kelgusidagi bozor kon'yunkturasini bilmasligi tufayli fyuchers shartnomalari tuzmaslikka harakat qilishadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtiruvchilarning o'z ehtiyojlari uchun qoldiradigan mahsulotlari avvalo, xo'jalik yuritish shakliga bog'liq. O'rganilgan ko'pgina fermer xo'jaliklari etishtirilgan mahsulotni to'laligicha bozorda sotadilar yoki qisman o'z ehtiyojlari uchun olib qo'yadilar. Buxoro viloyatidagi fermer xo'jaliklarining 85 foizi etishtirilgan g'allani to'laligicha davlatga, atigi 15 foizi bir qism g'allani bozorda sotganlar. Bozorda yoki vositachilar orqali eng ko'p sotiladigan mahsulotlar kartoshka (75 foiz) va sabzavotlar (52 foiz) hisoblanadi. Aniqlanishicha, fermer xo'jaligi nisbatan daromadli xo'jalik shakli bo'lganligi sababli fermerlar o'z tomorqalarida etishtirilgan mahsulotlarni oilaviy pudratchilarga nisbatan bozorda kam miqdorda sotadilar. Tahlillarga qaraganda, shirkat xo'jaliklari sholining 71 foizini, bug'doyning 23 foizini o'z ehtiyojlari uchun olib qoladilar. SHu bilan birga etishtirilgan sabzavotlar, kartoshka va em-xashak bozorlarda yoki oldindan tuzilgan shartnomalar asosida sotib yuboriladi. Ko'pgina shirkat xo'jaliklari o'zlarining omborxonalariga ega bo'lib, bu ularga mahsulotning bir qismini saqlab, keyinchalik – talab yuqori bo'lganda qimmatroq sotish imkonini beradi.

Qishloq xo'jaligi tovar mahsuloti etishtiruvchilarning aksariyati (65 foizi) mahsulotni sotishda yuz bergan ijobiy o'zgarishlarni ta'kidlagan. SHu bilan birgalikda ular mahsulot sotishda ba'zi bir

qiyinchiliklar hamon saqlanib qolganligini ham e'tirof etishadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar duch kelgan muammolarni tahlil qilish ularni quyidagi tartibda joylashtirish imkonini beradi: fermerlar birinchi o'ringa saqlash muammosini, ikkinchi o'ringa mahsulotlarni shahar bozorlariga olib borishdagi qiyinchiliklarni, uchinchi o'ringa narxlarning pastligini qo'yadilar.

7.5-jadval

Fermerlar tomonidan MTR uchun to'lovlarning amalga oshirilishi

MTR	Manba	Etkazib berishga nisbatan to'lov			
		oldindan to'lov	etkazib berish vaqtida	etkazib berilgan dan keyin	mavsum oxirida
Urug'lik g'alla	shirkat xo'jaligi	64,4	4,6	27,6	3,4
	davlat ta'minoti	63,8	13,8	10,1	12,3
CHigit	shirkat xo'jaligi	71,6	0,24	27,1	1,2
	davlat ta'minoti	74,5	3	17,3	5,2
O'g'it	shirkat xo'jaligi	62,4	4,5	17,7	15,4
	davlat ta'minoti	76,3	4,0	22,5	0,8
Kimyoviy vositalar	shirkat xo'jaligi	80	10	10	0
Texnika	shirkat xo'jaligi	19	11,8	61,1	8,1
	xususiy	5,7	73,3	15,7	5,3
Yollanma ishchi kuchi	xususiy	21,7	33,3	43,5	1,5
Suv	davlat ta'minoti	0,5	2,4	1,8	95,2

*Manba: 2004 yilda Jizzax viloyatida o'tkazilgan tadqiqotlar ma'lumotlari.*

Ekin maydonlaridan yuqori daromad olish uchun o'z vaqtida va past narxlarda moddiy-texnika resurslari (MTR) sotib olish muhim ahamiyatga ega. MTRni o'z vaqtida olish, ishlab chiqariladigan mahsulot bahosi bilan MTR baholari o'rtasidagi o'zaro nisbat kabi omillar xo'jaliklar daromadiga ta'sir etadi. So'rovlarda qatnashgan fermerlar MTR etkazib beruvchi 3 ta katta tashkilotni qayd etishgan: 1) «O'zagromashservis» va «O'zqishxo'jkimyo» davlat buyurtmasiga kiruvchi mahsulotlar uchun MTR etkazib berish va taqsimlashga javobgarlar; 2) shirkat xo'jaliklari (sobiq) jamoa va davlat xo'jaliklari; 3) xususiy kanallar (do'konlar, kompaniyalar va firmalar).

Xo'jaliklarni moliyaviy jihatdan qo'llb-quvvatlovchi asosiy manba shubhasiz, ularga paxta va g'alla etishtirish uchun beriladigan qisqa muddatli ssudalardir. Jizzax viloyatida o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, berilayotgan bo'nak miqdori bilan MTR xarid narxlari o'rtasida katta tafovut mavjud. Ayniqsa, urug'lik, o'g'it va texnika xizmati narxlarining yuqoriligi fermerlarni qiyin moliyaviy ahvolga solib qo'ymoqda. 7.5-jadvalda fermerlar tomonidan MTR uchun to'lovlarni amalga oshirish haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. O'rganishlarning ko'rsatishicha, olingan bo'nak mablag'lari MTR uchun oldindan to'lovni amalga oshirish bo'yicha sarflangan. O'rtacha farq tufayli 75,1 foiz fermer olingan resurslar uchun vaqtida to'lovni amalga oshirmagan, natijada MTR etkazib beruvchilar oldida moliyaviy qaram bo'lib qolgan. Bug'doy uchun to'lovni kechiktirish hollari qayd etilgan, fermerlarning 3,5 foizida esa bu muddat 1 yilga yaqinligi ko'rsatib o'tilgan. To'lovlarning kechikish muddati o'rtacha paxta uchun 5,5 oyni, bug'doy uchun esa 3,5 oyni tashkil etgan. Etishtirilgan sabzavot mahsulotlari uchun to'lovlarning kechiktirilishi va MTRni majburiy bo'naklash pul mablag'lari etishmasligi tufayli qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini nochor ahvolga solib qo'ymoqda. Masalan, Jizzax viloyatida 2002 yilda o'tkazilgan ijtimoiy so'rov respondentlarining yarmidan ko'prog'i yonilg'ini eng cheklangan resurs deb qayd etdilar. O'zbekiston o'z-o'zini gaz va neft bilan ta'minlayotganiga qaramasdan, qishloq xo'jaligida neft mahsulotlari taqchilligi sezilib turibdi (davlat buyurtmasi bo'yicha mahsulot etishtirish jarayoni bundan mustasno). Bunday vaziyat barcha turdagi MTR bo'yicha kuzatilmoqda.



Bunday hol meniral o'g'itlar ta'minotiga ham tegishli. Ma'lumki kaliydan tashqari barcha mineral o'g'itlar respublikamizda ishlab chiqariladi. SHunday bo'lsada, so'ralgan fermerlarning 62,4 foizi ularni ikkinchi darajada cheklangan resurslar, deb qayd etdilar. YAqin kelajakda er va suv resurslari bilan birgalikda davlat tomonidan subsidiyalanuvchi elektr energiyasi eng kam cheklangan resurs sifatida ko'rsatib o'tildi.

Davlat buyurtmasining (xo'jalik darajasida) hozirgi mexanizmi 2 ta muhim jihatdan tashkil topadi. Birinchidan, ekin maydonlari o'lchamiga ko'ra etishtirilgan mahsulot hajmi davlat buyurtmasiga muvofiq har bir xo'jalik tomonidan bajarilishi lozim. Ikkinchidan, mahsulotning qolgan qismi har qanday sotib oluvchiga sotilishi mumkin. Lekin davlat buyurtmasi bajarilmagan hollarda mahsulotlarining davlat buyurtmasiga tegishli qismi davlat xarid baholarida sotiladi. SHu bois amaliyotda davlat buyurtmasi bo'yicha sotilgan mahsulot hajmi salmoqli bo'lib, etishtirilgan jami mahsulotning 60 – 70 foizini tashkil etadi. Aksariyat ishlab chiqaruvchilar davlat buyurtmasi bo'yicha rejani bajara olmayotganlari uchun xo'jalikda qolishi ko'zda tutilgan mahsulotning bir qismini ham davlat xarid baholarida sotishga majbur.

## **7.7. Mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish yo'llari**

Qishloq xo'jaligi korxonasi amaliyotida marketingdan foydalanish, marketing tadqiqotlarini kengroq sohalarda amalga oshirish ham mamlakat ichkarisidagi, ham tashqi bozorni o'rganish imkonini beradi. Korxonalar bozorlarning turlari va jo'g'rofiy o'rnidan qat'i nazar, raqobatchilar faoliyati tahlilidan, talab va takliflar bo'yicha tadqiqotlar natijalaridan foydalangan holda strategik muqobilliklardan biri asosida ishlab chiqarish va sotish faoliyatini yo'lga qo'yadi.

Ma'lumki, mamlakatimizdagi dehqon va fermer xo'jaliklarida etishtirilayotgan tez buzuluvchi qishloq xo'jaligi mahsulotlari (sabzavotlar, yangi meva, poliz mahsulotlari)ni saqlash imkoniyati yo'q. SHu bois mahsulotlar pishiqchilik davrida serob bo'lib, ularni ichki bozorlarda o'z vaqtida sotish imkoniyatlari cheklangan. Demak, ortiqcha mahsulotlarni sotish o'ta dolzarb masaladir.

7.6-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 1999–2004yillarda «O'zmevasabzavotuzumsanoatxolding» kompaniyasi

tomonidan yangi meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash ko'lamini kengaytib, 542939 tonnani tashkil qildi.

Mahsulotlarni barter asosida eksport qilishga bo'lgan talabning oshib borishi xo'jalik va korxonalar etarli miqdorda aylanma mablag'larga ega emasligi bilan bog'liq.

7.6-jadval

O'zbekistonda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlab chiqarishning tuzilishi va hajmi

	1999 y.	2000 y.	2001 y.	2002 y.	2004 y.
<b>Ishlab chiqarish</b>					
a) Sabzavot va meva Konserva shaklida SHu jumladan: «O'zmevasabzavot uzumsanoat-xolding» XKda	462636  199900	484841  236400	461412  164500	414130  414130	542939  216300
b) Quritilgan sabzavot va mevalar, tonn.	11523	11554	12382	10413	8529
v) Meva va sabzavot sharbati (ming banka)	59393	57490	49023	64464	32486
g) Djem, vareniya, povidlo, ming banka	469	1245	1542	2080	1322
d) Pomidor pastasi, ming banka.	135318	136250	138129	142129	248293

Xo'jalik yuritish tajribasidan ma'lumki, mahsulot eksporti xalqaro bozorga chiqishning eng keng tarqalgan yo'llaridan biridir. Bu strategiya eng kam xarajatlar bilan bozorlarni egallamoqchi bo'layotgan ishlab chiqaruvchilar uchun jozibali, shu bilan birga uni amalga oshirish xorij bilan sotuv tarmog'ini shakllantirishni, ba'zan esa faqat savdo vakolatxonasini ochishnigina talab qiladi, xalos.

Xorijiy bozorlarga chiqishni xohlagan korxonalar oldida ekspansiyaning qaysi turini tanlashga bog'liq muammolar mavjud. Ular ancha xilma-xil: eksport, ishlab chiqarishga lisenziya sotib olish, mahsulotni ishlab chiqarish va boshqalar. Mahsulotni eksport qilishdan tushgan valyutaning 50 foizi rasmiy kurs bilan Markaziy bankka sotilishi tadbirkorlar manfaatini cheklab, bankrot holatiga tushirib qo'ymoqda.

7.6-jadvaldan ko'rinib turibdiki, asosan pamidor pastasi ishlab chiqarish keskin ko'paytirilgan va u Rossiyaga eksport qilingan. Buning uchun olingan kredit mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini qoplashga sarflangan rasmiy kurs bo'yicha hisoblanishi 14860500 so'm zarar ko'rilishiga olib kelgan. Ikkinchi variantda mahsulot tijorat kursida sotilganida 844500 so'm foyda ko'rilgan.

Keyingi paytda qator qishloq xo'jaligi mahsulotlari bozorlarida konyunktura yomonlashuvi mamlakatimiz iqtisodiyotiga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. SHunday ekan, O'zbekistonda:

- tashqi iqtisodiy faoliyatni maqsadga yo'naltirilgan holda materiallashtirish siyosatini o'tkazish;

- eksport va import tizimini ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish yo'li bilan takomillashtirish;

- eksportga mo'ljallagan, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar manfaatlarini himoya qilish va qo'llab-quvvatlash lozim.

Mamlakatimizda takomillashgan bozor axborot tizimini yaratish asosiy masalalardandir. Axborot tizimining ulgurji bozorlar rivojlanishidagi ahamiyati oshib borishi mamlakatimiz bozorlaridagi holat bo'yicha ma'lumotlarga talab ortishiga olib kelmoqda. Jumladan:

- narxlarni davlat tomonidan tartibga solish bozor munosabatlariga o'tish munosabati bilan erkinlashtirilib borilmoqda, bozor, axborot tizimini yaratish esa, tovar ishlab chiqaruvchilarni bozordagi narxlarning o'zgarishi bo'yicha ma'lumotlarga ega bo'lishiga sabab bo'lmoqda;

- ko'p ukladli bozor sharoitida yangi tashkil etilayotgan qishloq xo'jaligi korxonalari moliyaviy zaifligi tufayli bozordagi holatni aniq bilishi ularni bankrotlikdan saqlaydi va daromadlari ortishini ta'minlaydi;

– mulkchilikning turli shakllari paydo bo'lishi ular o'rtasida raqobat vujudga kelishiga olib keladi va bu raqobatda axborot tizimi o'ziga xos rol o'ynaydi;

– qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishda qo'llaniladigan asosiy vositalar va bu mahsulotlarni qayta ishlash uskunalari narxлари bo'yicha ham axborot tizimi yaratilishi qishloq xo'jaligi korxonaları va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalar uchun uskunalар sotib olishda juda qo'l keladi;

– axborot tizimining takomillashtirilishi ulgurji va chakana savdo bozorlari reklamasi yo'lga qo'yilishiga va shu orqali ularning rivojlanishiga hissa qo'shadi;

– axborot tizimi mahsulotlarning bir joyda to'planib qolishiga, boshqa joyda taqchil bo'lishiga yo'l qo'ymaydi.

Hullas, bozor axborot tizimini yaratish O'zbekiston ulgurji savdosining rivojlanishini ta'minlaydi. SHunday ekan, respublikamizda bozor axborot tizimini yaratish zarur. Buning uchun esa quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim:

– respublika miqyosida barcha tarmoqlarni qamrab oluvchi strategiya va tuzilmani ishlab chiqish;

– moliyaviy va mutaxassislar bilan ta'minlangan muassasa yaratish;

– ma'lumotlar to'plovchi kompyuter zanjirini tashkil etish;

– zanjirda barcha bo'g'inlar – mahsulot etishtiruvchilar, uni qayta ishlovchilar, bozorlar, do'konlar va h.k.lar ishtirok etishini ta'minlash;

– axborotlar tarqatish tizimi (gazeta, radio, televidenie va h.k.)ni yaratish;

– kompyuter va kommunikasiya uskunalari ta'minotini yo'lga qo'yish.

Axborot tizimini Bozor islohotlari ilmiy-tadqiqot institutida tashkil etish lozim. Mazkur institut ushbu yo'nalishlarda bir qancha tadqiqot ishlarini olib bormoqda va bu borada etarli mutaxassislarga ham ega. Lekin institutning respublika viloyatlarida tarmoqlararo ofislari yo'q. U narxlar bo'yicha ma'lumotlar ham yig'mayapti. SHu bois bu muhim ishni yo'lga qo'yish kerak.

## **7.8. Eksport – fermerlar faoliyatining bosh yo'nalishi**

Respublikamizda tashqi bozordagi savdo aylanmalari hajmi yildan-yilga ortib, unda rivojlangan mamlakatlarning eksport ulushi ko'paymoqda. 2004 yil mobaynida amalga oshirilgan eksportning 14,9 foizi Rossiya, 1,2 foizi Janubiy Koreya, 3,1 foizi SHveysariya, 1,0 foizi Germaniya, 3,1 foizi AQSH, 1,9 foizi Buyuk Britaniya ulushiga to'g'ri keldi. Keyingi yillarda eksport hajmi oshishi bilan birga uning tarkibi ham yaxshilanib bormoqda.\*

Tashqi iqtisodiy aloqalar jarayonida xato va kamchiliklar ham mavjud. Qishloq xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik sub'ektlarining tashqi bozorga chiqish imkoniyatlari cheklanganligi, tashqi bozorda sheriklarni tanlash borasida yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar hamda eksport va import bo'yicha shartnomalar noto'g'ri rasmiylashtirilishi natijasidagi majburiyatlar bajarimasligi shular jumlasidandir.

Qishloq xo'jaligi barcha davlatlarda moddiy ishlab chiqarish tarmoqlaridan hisoblanadi. Unda xalq xo'jaligida band bo'lgan aholining 45%i faoliyat yuritadi, ishlab chiqarish fondlarining 40% dan ko'prog'i ishlab chiqariladi, milliy daromadning 4% idan ortig'rog'i olinadi. U respublikada asosiy tarmoq bo'lib, sanoatni xom ashyo bilan ta'minlash hamda mamlakat eksport salohiyati va valyuta tushumining muhim manbasi sanaladi.

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligida mahsulot etishtirishni ko'paytirishga qaratilgan iqtisodiy islohot mazmuni va maqsadiga ko'ra, o'zaro bog'liq bo'lgan bir nechta zarur yo'nalishlardan hamda mustaqil tizimlardan tashkil topgan. Ulardan eng asosiysi nodavlat mulk shakllariga asoslangan kichik va xususiy korxonalaridir. Bunday korxonalarni rivojlantirish va ularda mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish bozor iqtisodiyotining muhim shartidir. Ta'kidlash joizki, har qanday jamitda ishlab chiqarishning iqtisodiy negizini mulk va unga egalik qilish tashkil etadi. Respublikada qishloq xo'jaligi mahsulotlari mulkchilikning turli shakllarida etishtirilishi haqidagi ma'lumotlar 7.7-jadvalda keltirilgan.

Ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda oxirgi besh yilda ilk marotaba eng ko'p – 3,5 mln tonna paxta etishtirildi. Bunga ekin maydonlarini

---

\* Ўзбекистон итсодиёти. Тащдилиий шарщ. СИСМ. Т.: 2005, №8, 51-б.

kengaytirish, agrotexnika tadbirlarini o'z vaqtida amalga oshirish, xissadorlik keng yo'lga qo'yilganligi hamda fermer xo'jaliklarida paxta etishtirish ko'payganligi natijasida erishildi.

7.7-jadval

O'zbekistonda 2003 – 2004 yillarda mulkchilikning barcha shakllarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish

№	Mahsulot	2003 yil				2004 yil			
		mulkchilikning barcha shakllarida	qishloq xo'jaligi korxonalarida	fermer xo'jaliklarida	dehqon xo'jaliklarida	mulkchilikning barcha shakllarida	qishloq xo'jaligi korxonalarida	fermer xo'jaliklarida	dehqon xo'jaliklarida
1	Paxta	7803,3	1441,8	1061,5	X	3535,4	1707,1	1828,3	X
2	Don	6319,2	3045,6	2264,1	979,5	6014,1	2211,6	2781,5	1024,0
3	Bug'doy	5625,6	162,3	2030,3	789,9	5502,5	2085,2	2584,9	823,4
4	Guruch	350,8	162,3	145,4	42,8	184,3	54,0	105,7	27,6
5	Kartoshka	834,4	49,7	33,5	751,7	892,7	45,7	43,1	80,9
6	Sabzavot	3301,4	626,0	353,4	2321,9	3315,9	355,6	384,4	2515,9
7	Poliz	584,3	44,8	144,8	331,7	541,3	46,2	144,1	351,0
8	Meva	465,8	231,5	56,6	444,7	846,3	216,9	109,5	520,9
9	Uzum	401,5	160,5	22,5	218,5	544,6	264,3	56,9	256,4

Manba: O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. SISM. T.: 2005, №8, 51-b.

2004 yilda 2003 yildagiga nisbatan don mahsulotlari 312,1 ming tonna, guruch 269,5 ming tonna, poliz mahsulotlari 16 ming tonna kam etishtirildi. Bu ularning ekin maydonlari kamaytirilganligi bilan bog'liq. Ayrim qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish kamayishiga qaramay, ularning eksporti va importi saqlanib qolmoqda (7.8-jadval).

7.8-jadval

O'zbekistonda ayrim turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari bo'yicha eksport va import ko'rsatkichlari (% da)

Mahsulot turi	Yillar					
	1999		2000		2004	
	eksport	import	eksport	import	eksport	import
Sut mahsulotlari, tuxum va parranda go'shti	0,2	46,5	0,1	39,2	0,5	21,5
Sabzavot	47,9	7,0	28,8	3,9	26,1	5,4
Meva, yong'oq va poliz	56,9	3,7	34,4	2,0	42,9	6,6
Un mahsulotlari	0,05	18,5	0,1	142,1	0,3	79,0
Jami	105,5	242,2	63,4	187,2	49,8	112,5

Manba: O'zR Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari, T.,2005.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, sabzavot mahsulotlari eksporti 1999 yilda 47,9% ni tashkil etgan bo'lsa, 2003 yilga kelib, 26,1% ga tushgan. SHu yillarda meva, yong'oq va poliz mahsulotlari eksporti 56,9%dan 42,9%ga pasaygan. Tadqiqotlar qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti hajmini oshirish uchun katta imkoniyatlar mavjudligidan dalolat bermoqda. Ammo hali ulardan etarlicha foydalanilmagan. SHu bois, ayrim turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksporti yildan-yilga kamayib bordi. CHunonchi, 1999 yilda ayrim turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari 105,5 mln. so'mlik eksport qilingan bo'lsa, 2003 yilda bu ko'rsatkich 69,8 mln. so'mni tashkil etdi yoki deyarli 53,5% ga kamaydi. Qayd etilgan mahsulot turlari bo'yicha import ushbu davr mobaynida 242,2 mln. dollarlikdan 112,5 mln. dollarga yoki 51,7% ga pasaydi.

Import o'rnini qoplaydigan mahsulotlar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilishi natijasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqaridan xarid qilish uchun valyuta xarajatlari kamayishini ijobiy baholash, shu bilan birga respublikamiz agrar davlat bo'lishiga qaramay unda hanuzgacha qishloq xo'jaligi mahsulotlari importi salmog'i yuqoriligini qayd etish lozim. Masalan, import hajmi eksportga nisbatan 1999 yilda 3, 2000 yilda 2,9, 2003 yilda esa 1,6 marta yuqori bo'lgan.\*

Bozor iqtisodiyoti sharoitida fermer xo'jaliklarida mahsulot etishtirish samaradorligini oshirish hamda sohada eksport imkoniyatlari shakllanishini tezlashtirish uchun:

- qishloq xo'jaligida bozor iqtisodiyotiga to'liq o'tishning huquqiy asoslarini ta'minlovchi huquqiy qonunlar tizimini takomillashtirish;
- qishloq xo'jaligiga servis xizmati ko'rsatuvchi bozor shakllanishini tezlashtirish va bu bozorda raqobat muhitini yaratish;
- qishloq xo'jaligiga xizmat qiluvchi va ko'maklashuvchi infratuzilmaning barcha bo'g'inlarini vujudga keltirish;

---

\* Ўзбекистон Республикаси =ишло= ва сув хўжалиги вазирлиги маълумотлари, Т., 2004.

- qishloq xo'jaligida etishtirilgan mahsulotlar bozorga erkin chiqarilishini, narx-navo taklifga asosan erkin belgilanishini, narx ustidan davlat nazorati minimal darajaga keltirilishini ta'minlash zarur.

Keyingi yillarda eksport va importda davlat monopoliyasidagi asosiy turlar bo'yicha tashqi savdo aylanmasi hajmi pasayishi kuzatilmoqda. Bu muayyan tadbirlar, jumladan, davlat monopoliyasida bo'lmagan mahsulotlarni ishlab chiqarish, saqlash, qayta ishlash va qadoqlash tizimlari takomillashtirilishini, ishlab chiqarish jarayoniga yangi texnika va texnologiyalar joriy qilinishini taqazo etadi. Xom ashyo sifatida sotilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashni yo'lga qo'yish, sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish maqsadida chet el investisiyalarini jalb etish, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish, fermer xo'jaliklarini rivojlantirish hisobiga qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish mumkin.

Qayd etilgan muammolarning ijobiy hal etilishi respublikamizda etishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tashqi bozorda munosib o'rin egallashi va iste'molchisini topishga imkon beradi.

O'zbekistondagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy taraqqiyot jarayoni qishloq xo'jaligi hamda sanoat ishlab chiqarishi o'rtasidagi hamjihatlikni ta'minlaydi, o'z byudjetini moliyalash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish, yangi avlod taqdirida mayda elementlarga qadar echimini topishi lozim bo'lgan muammolarni hal etish imkonini bermoqda, islohotlarning yangi davri boshlanishi uchun keng yo'l ochmoqda. SHuningdek, O'zbekistonning tashqi aloqalari qudratli va zamonaviy ishlab chiqarishni yanada kengaytirishga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlashda jahon andozasi talablariga javob beradigan texnologiyalarni jalb qilishga va xalq xo'jaligining boshqa tarmoqlari rivojlanishiga keng yo'l bermoqda.

Fermer xo'jaliklari soni 2003–2004 yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Surxondaryo, Sirdaryo, Farg'ona viloyatlarida kamaygan, boshqa viloyatlarda o'sgan, Samarqand viloyatida 2 hissaga ko'paygan. Xullas, mamlakatimizda 2005 yil boshiga kelib, fermerlar 103921 taga etgan. 7.9-jadvalda fermer xo'jaliklarining 2003 – 2004 yillardagi asosiy ko'rsatkichlari keltirilgan.

O'zbekistonda 2005 yil boshiga kelib, fermer xo'jaliklarining umumiy soni 103.921 taga, ularga birlashtirilgan er 2,9 mln.gektarga etdi. Bu toifadagi xo'jaliklarning yalpi qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishdagi ulushi 2004 yilda 2003 yildagi 14,8% dan 20,4 % ga, jami



ekin maydonlari tegishli 36,9% dan 44,4% ortdi. Paxta etishtirish 34,9% dan 51,7% ga, bug'doy 35,8% dan 46,2% ga ko'paydi. Fermer xo'jaliklarida shirkat xo'jaliklariga qaraganda paxta va bug'doy etishtirish unumdorligi yuqori bo'lgan. 2004 yilda shirkat xo'jaliklarida bir tonna paxtaning o'rtacha tannarxi 400 ming so'm bo'lgan bo'lsa, fermer xo'jaliklarida 230 ming so'mni, mos ravishda bug'doyning tannarxi 100 ming so'm va 70–80 ming so'mni tashkil etgan.

7.9-jadval

O'zbekistonda fermer xo'jaliklarining 2003 – 2004 yillardagi asosiy ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkichlar	O'lchov birligi	2003 y.	2004 y.
1	Fermer xo'jaliklari soni	ta	87552	103921
2	Ularga birlashtirilgan er maydoni	ming 20	2148,1	2935,4
3	Fermer xo'jaliklarida ish bilan band bo'lganlar soni	ming kishi	603,0	465,3
4	YAlpi q/x mahsulotlarida fermer xo'jaliklarining ulushi	%	14,8	20,4
	SHu jumladan:	%	13,8	19,3
	- dehqonchilik	%	1,0	1,1
	- chorvachilik			
5	Fermer xo'jaliklarida mahsulot etishtirish sur'atlarining o'sishi	%	140,1	141,2
	SHu jumladan:			
	dehqonchilikda		140,1	142,9
	a		123,8	118,0
	- chorvachilikda			
6	Bir fermerga to'g'ri keladi	ga	24,5	28,2

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash texnologiyasi sifat va samaradorligining yuqoriligi jihatidan jahonda o'ziga xos nufuzga ega bo'lgan davlatlar (Niderlandiya, Isroil va h.k.) bilan hamkorlik mamlakatimiz qishloq aholisining ish bilan bandlik darajasini ortishi uchun xizmat qiladi. O'zbekiston asrlar davomida yaqin xorij davlatlariga quruq meva eksport qilgan. Hozirda esa mazkur sohaning eksport imkoniyatlarini yanada kengaytirish, haqiqiy iste'molchilarini dunyo bozorida izlab topish imkoniyatlari yuqori. Toshkent, Surxondaryo viloyatlarida konserva va qandolat mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalar ko'p.

Raqobatbardosh, sifatli mahsulotlarning ko'payishi mamlakat eksport salohiyati yuqori bo'lishini, bu esa, valyuta fondi ortishini ta'minlaydi. Xulosa qilib aytganda, tashqi savdo investisiyalarga samarali ta'sir ko'rsatadigan eng muhim omillardan biridir. Bugungi O'zbekiston o'zidagi resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish sifati va samaradorligini oshirish, xorijiy mamlakatlar bilan teng hamkorlikda bo'lish yo'lidagi ustuvor vazifalarni belgilab olganligi iqtisodiy islohotlar natijasida ko'rinmoqda.

## **7.9. Fermer xo'jaliklarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'llari**

Ma'lumki, 1998 yilning aprelida Prezidentimizning «Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida» gi Farmoni e'lon qilindi. «Kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish to'g'risida»gi maxsus qaror chiqdi. Ushbu farmon va qarorning ijrosiga jiddiy kirishilgan kezlarda Vazirlar Mahkamasining majlisida yurtboshimiz ana shu masalaga to'xtalib, «Islohotlar taqdiri oxir-oqibatda kishilarimiz faravonligi va mamlakatimizning gullab-yashnashi, kichik va o'rta biznesning taraqqiyoti orqali hal qilinadi», - deya alohida ta'kidladi.

Jahon tajribasidan ma'lumki, kichik va o'rta biznes rivojlangan iqtisodiyotning tarkibini tashkil etuvchi muhim tarmoq – biznesninggina emas, balki butun mamlakat iqtisodiyotining muvaffaqiyatli rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, ichki bozorning iste'mol tovarlari bilan to'ldirilishi va aholiga turli xizmatlar ko'rsatilishi, eksport salohiyatining o'sishi, aholini ish bilan ta'minlash va uning real daromadlarini ko'paytirish masalalarining echimi ham ana shu tarmoqning nechog'lik barqaror rivojlanishiga bog'liq.

Respublikamiz qishloqlari aholisining tabiiy o'sish sur'ati shaharlardagiga nisbatan yuqoriroq. Bu esa, o'z navbatida, qishloqda ishchi o'rinlarining etishmasligiga sabab bo'lmoqda. SHu bois qishloqlarda yangi ish joylarini barpo etish orqali aholini ish bilan ta'minlash muammosini hal qilish g'oyat muhim va dolzarb masalalardan biriga aylandi. SHu jihatdan rivojlangan mamlakatlar tajribasini olib qaraydigan bo'lsak, ularda ichki mahsulotning yarmidan ko'prog'i kichik va o'rta biznes, xususiyy tadbirkorlik hissasiga to'g'ri keladi. SHu bilan birga, bu soha mehnatga layoqatli aholining ko'p qismini ish bilan ta'minlayotir. Misol uchun, hozir AQSHda 8 million, Yaponiyada 5 mln, Italiyada 3 mln.dan ortiq kichik va o'rta biznes korxonalari mavjudligi buning tasdig'idir. Masalaning boshqa nozik tomonlariga e'tiborni qaratadigan bo'lsak, aslida biznes insonlarning ishbilarmonlik qobiliyatlarini namoyon etdi. Boshqacha aytganda, ular ishbilarmonliklari evaziga o'z manfaatlariga erishadilar, bu esa ularni doimo yangiliklar izlab topishga, dadillikka, serg'ayratlikka, boshlagan ishni oxiriga etkazishga undaydi. Ayniqsa, mustaqil qaror qabul qilish foyda keltiradigan tavakkalchilikni taqazo etadi.

SHularni inobatga olgan holda keyingi paytda kichik va o'rta biznesni qishloq xo'jaligida taraqqiy ettirish, tadbirkorlar huquqlarini himoya qilishni kuchaytirish, ularni kredit mablag'lari va moddiy-texnika resurslari bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, 2001 yildan kichik va o'rta biznes, xususiyy tadbirkorlik sub'ektlarini ro'yxatga olish tartibi birmuncha soddalashtirildi. O'z faoliyatini endigina yo'lga qo'yayotgan tadbirkorlarga boshlang'ich kapitalni shakllantirish uchun imtiyozli kreditlar ajratila boshlandi. Yil davomida 34,2 mingta kichik va o'rta biznes sub'ekti ish boshladi, shulardan 10,5 mingtasi ro'yxatga olishning soddalashtirilgan tartibi joriy etilgandan so'ng o'z faoliyatini yo'lga qo'ydi. Ro'yxatga olingan kichik va o'rta biznes, xususiyy tadbirkorlik sub'ektlarining soni 2002 yil 1 yanvar holatiga 201,9 mingtaga etdi. Ma'lumki, 2001 yilda respublikamizda kichik va o'rta biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 24,5 foizni tashkil etgan edi. SHuning o'ziyoq bizda tadbirkorlik uchun etarli darajada imtiyozli sharoitlar yaratilganidan dalolat beradi. Ammo bu yutuqlar bilan chegaralanmaslik kichik va o'rta biznes sub'ektlari sonini yanada ko'paytirish, shu orqali yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi, ayniqsa, qishloq ahlini ijtimoiy muhofaza qilish masalasiga alohida e'tibor qaratish zarur. CHunki

kichik va xususiy tadbirkorlik mulkdorlar sinfini shakllantirish uchun asosiy poydevor yaratadi.

Kichik va o'rta biznesni qanday qilib rivojlantirish mumkin? Dastavval, ularni boshqarishni to'g'ri tashkil etish lozim. Boshqarish bozor prinsiplariga amal qilgan holda to'g'ri yo'lga qo'yilsa, biznesning natijasi ijobiy, samarasi esa yuqori bo'ladi. Misol tariqasida 2001 yilning bu boradagi ko'rsatkichlarini tahlil etadigan bo'lsak, kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirish sur'atlari yanada tezlashganini ko'rish mumkin. Bundan tashqari, boshlang'ich sarmoyaga ega bo'lmagan kichik va o'rta biznes sub'ektlari uchun qo'shimcha imtiyozlar qilinganligi bois 2001 yilda 34,2 mingta mikrofirma, kichik va o'rta biznes sub'ektlari tashkil etildi. Ushbu sub'ektlar tomonidan 2000 yilda 192500 ta yangi ish o'rinlari yaratilgan bo'lsa, 2001 yilda bu ko'rsatkich 372043 taga etdi. Ammo bu yutuqlar bilan chegaralanmaslik kerak. Bu sohani yanada rivojlantirib, shu orqali yangi ish o'rinlarini yaratish, aholini, ayniqsa, qishloq aholisini ijtimoiy himoya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratish zarur.

SHuni tan olmoq kerakki, hozir respublikamizning barcha joylarida ham bu tizim faoliyati etarli darajada deb bo'lmaydi. Demak, bugun qishloq joylarida tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesning jadal rivojlanishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoitlar va kafolatlarni yaratish, dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatining samaradorligini oshirish orqali yangi-yangi ish o'rinlari tashkil etish kerak.

Endi misol tariqasida birgina qishloq xo'jalik xom ashyosi va meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash sohasini olib ko'raylik. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz bo'yicha etishtirilayotgan mevaning 15 foizi, sabzavotning 10 foizi, poliz mahsulotlarining 5 foizi, uzumning 23 foizi, terining 26 foizi, junning 15 foizi, go'shtning 25 foizi, sutning 5 foizi qayta ishlanmoqda. Iqtisodiyotning muhim sohasi bo'lgan tadbirkorlik, kichik va o'rta biznes rivoji uchun qanchadan-qancha imkoniyatlar mavjudligini yuqorida sanab o'tilgan raqamlarning o'zi yaqqol ko'rsatib turibdi. Ana shu imkoniyatlardan to'la foydalanilsa, ular mazkur soha ahlini ish bilan etarli darajada ta'minlashda, muhimi, odamlarning daromadini oshirishda yangi manba sifatida xizmat qiladi. YUqoridagi kabi imkoniyatlar to'g'risida yana ko'p misollar keltirish mumkin. Masalan, bugungi kunda etishtirilayotgan paxtaning faqat 25 foizigina respublikada qayta ishlanmoqda va tayyor mahsulotga aylantirilmoqda. Vaholanki, hisob-kitoblardan ma'lumki, paxta tolasi

uzluksiz va har tomonlama sifatli qayta ishlanib, tayyor mahsulotga aylantirilsa, undan olinadigan daromad 6 – 7 barobar ortar ekan.

Demak, kichik va o'rtta biznesning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rnini shu bilan belgilanadiki, u mamlakat aholisida ishbilarmonlikni, iqtisodiyotdagi asosiy unsur bo'lgan tadbirkorlikni shakllantira oladi. Bozor iqtisodiyoti jarayoni tufayli amalga oshirilayotgan islohotlar respublikamiz iqtisodiyoti tuzilmasini tubdan o'zgartirib yubordi. Unda mulkchilik va xo'jalik yuritishning yangi shakllari paydo bo'ldi va muntazam daromad olish manbalari vujudga keldi. Tashabbuskorlik tufayli xususiy mulkchilikka asoslangan turli xildagi kooperativlar, shirkatlar, ma'suliyati cheklangan jamiyatlar ko'rinishidagi yangi kichik va o'rtta korxonalarni tashkil qilish tobora avj olmoqda. Ularni rivojlantirishga yordam beradigan huquqiy shart-sharoitlar va konstitutsion tuzilmalar vujudga keltirildi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 190 mingtadan ortiq kichik va o'rtta biznes sub'ektlari faoliyat yuritmoqda. 2001 yilning birinchi yarmida 16 ming kichik va o'rtta biznes korxonalari o'z faoliyatini boshladi, natijada 178 mingta yangi ish o'rnini tashkil etildi. Kichik va o'rtta biznes, xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulot tarkibidagi ulushi 1991 yilda 4,5 foiz bo'lgan bo'lsa, 2004 yil natijalariga ko'ra, 3,4 foizni tashkil etdi.

SHuni alohida ta'kidlash kerakki, bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotida band bo'lgan aholining 53 foizidan ko'prog'i kichik va o'rtta biznes, xususiy tadbirkorlik sohasida mehnat qilmoqda. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik va o'rtta biznes sub'ektlarining soni respublikada har ming nafar fuqaroga 6 tadan 7,1 taga ko'payganligi bugungi kunda kichik va o'rtta biznes tizimida ishlab chiqarish samaradorligi oshayotganligi, iste'molchilar talab-ehtiyojlari to'la qondirilayotganligi va ularni rag'batlantirishda muhim omil sifatida yuzaga chiqayotganidan darak beradi. Tadbirkorlikka moyilligi bor va daromad keltiruvchi faoliyat bilan shug'ullanishni istagan har bir kishi o'z qobiliyati va intilishlarini amalga oshirishi uchun, unga iqtisodiy erkinlik va faravonlikka erishishi yo'lidagi qiyinchiliklarni engishiga yordam beradigan hamda rag'batlantirib turadigan muhit bo'lishi kerak. Respublikamiz iqtisodiyotining hozirgi davrida bunday muhitni shakllantirishda davlat muhim o'rin tutadi. U muntazam ravishda barqaror qonunchilik asosini yuzaga keltirishi, makroiqtisodiy

barqarorlikni ta'minlashi, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishga yordam berishi mumkin bo'lgan tarmoqlarni rag'batlantirishi lozim.

Bozor munosabatlari allaqachon shakllanib bo'lgan, iqtisodiy jihatdan o'ta rivojlangan g'arb mamlakatlari tajribasi ham xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesning davlat tomonidan doimo faol ravishda qo'llab-quvvatlanganligi va hozirda ham ushbu jarayonning uzluksiz davom etayotganligini, buning natijasida mazkur sohaning jamiyat hayoti va taraqqiyotida munosib o'rin topganligini ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy adabiyotlarda respublikamizda kichik va o'rta biznesning holati va uning rivojlanishidagi salbiy tendensiyalar va ularning sabablari to'g'risida diqqatga sazovor fikrlar bildirilgan. SHu fikrlarga qo'shilgan holda ta'kidlash lozimki, kichik va o'rta biznesning qoniqarsiz ahvoli ko'p jihatdan uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmi etarliga samarador emasligi va zamon talablariga javob bermasligi bilan bog'liq.

SHu boisdan kichik va o'rta biznesning bozor iqtisodiyoti jarayonidagi ustunlik va kamchiliklarini hisobga olib, mamlakatimizda kichik va o'rta biznes korxonalarini keng va har tomonlama rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

- ishlab chiqarish bilan shug'ullanayotgan kichik va o'rta biznes korxonalariga ichki va tashqi kapital mablag'lar qo'shishni rag'batlantirish, ulardan samarali foydalanish va pirovord natijada mablag' egalarining manfaatdorligini oshirish;

- tovar ishlab chiqarishda kichik va o'rta biznes korxonalari o'rtasida raqobatchilik muhitini yaratish;

- mamlakatda kichik va o'rta biznesni rag'batlantirishning poydevorini mustahkamlash borasidagi qonunchilikni takomillashtirish va tadbirkorlar huquqlarning ishonchli himoyalanihini ta'minlash;

- moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatini soddalashtirish, kichik va o'rta biznes korxonalarini kreditlash ko'lamini kengaytirish hamda foiz stavkalarini kamaytirib borish, uzoq muddatli kreditlarni joriy qilish;

- moddiy-texnika va xom ashyo resurslaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, mamlakatimizda kichik va o'rta biznes korxonalari uchun yangi texnika va texnologik uskunalari ishlab

chiqarishni rivojlantirish, chet el texnika va texnologiyalarini olib kelish imkoniyatlarini yaratish;

- tadbirkorlik sub'ektlarining eksportga yo'naltirilgan mahsulotlarini tashqi bozorlarda sotishga ko'maklashish va rag'batlantirish, ular o'rtasidagi raqobat bozorini tashkil etish;

- tadbirkorlarga, ular ro'yxatga olingandan keyin faoliyat yurita boshlashi uchun lisenziya va ruxsatnomalar berish jarayonini soddalashtirish;

- kichik va o'rta biznes korxonalariga xizmat qiluvchi bank tizimini takomillashtirish va kengaytirish;

- tadbirkorlarning boshqarish tizimini takomillashtirish va soliqlarning rag'batlantiruvchilik rolini oshirish;

- tadbirkorlarning ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy bilimlarini oshirish, ularning moliyaviy ish yuritish uslubi va mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etish maqsadida o'qitishni yo'lga qo'yish;

- oliy o'quv yurtlaridagi tegishli ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda kichik va o'rta biznesning tutgan o'rni va ahamiyatini talabalar ongiga singdirib borish;

- ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi kichik va o'rta biznes sub'ektlarining moddiy va xom ashyo resurslariga bo'lgan ehtiyojini hisobga olgan holda maxsus fondlar tashkil qilish;

- tijorat banklari tomonidan tadbirkorlik sub'ektlariga imtiyozli yoki tijorat kreditlari ajratilishidan oldin joylardagi palata va sug'urta kompaniyalari vakillari bilan bamaslahat ish tutib, ular bergan xulosa bo'yicha kreditlar ajratish;

- tadbirkor kadrlar tayyorlash bo'yicha bepul o'quv kurslari tashkil etish;

- tadbirkorlikka oid me'yoriy hujjatlar qabul qilish jarayonida tadbirkorlik sub'ektlarining, tadbirkorlikka xizmat ko'rsatish va qo'llab-quvvatlashga ma'sul bo'lgan tuzilmalarning ham takliflarini inobatga olish.

Ayniqsa, katta mablag' talab etmaydigan va resurslarning o'sish tezligini kafolatlovchi kichik va o'rta biznes korxonalari iqtisodiyotdagi qayta qurish bilan bog'liq muammolarni nisbatan tez va kam xarajatlar bilan echishga, ichki bozorni moliyaviy resurslar chegaralangan bo'lishiga qaramay, iste'mol mollari bilan to'ldirishga qodirdirlar. SHuningdek, bozorga tez moslashuvchanlik, iste'molchilar talablari va

istaklarini yaxshiroq anglab olish, katta moliyaviy resurslardan samarali foydalanish, yangi texnika va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tez va qisqa muddat ichida joriy etish, raqobat muhitini yaratish va boshqalar kichik va o'rta biznesga xos bo'lgan xususiyatlardir.

Umuman, kichik va o'rta biznesning mamlakatimizda taraqqiy etishi quyidagi ustuvorlik yo'nalishlar bilan chambarchas bog'liqdir:

- jamiyatda siyosiy barorlikni yuzaga keltiruvchi o'rta sinfni shakllantirish;
- mamlakatda kam xarajatlar evaziga ko'plab yangi ish o'rinlarini yaratish va ish bilan bandlik muammosini bartaraf etish;
- turli ijtimoiy guruhlar daromadlari nomutanosibligining cheklovchilik roli mavjudligi.

Hozirgi kunda respublikamizda xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznes korxonalarini tashkil etish va ular faoliyat ko'rsatishi uchun barcha me'yoriy-huquqiy asoslar ishlab chiqilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, fuqarolik, soliq va xo'jalik prosessual kodekslari tadbirkorlik faoliyatining kafolatlarini ta'minlaydi.

Misol tariqasida qishloq xo'jaligi sohasida 2004 yil yakunlariga nazar solsak, mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi 10,1 foizga oshdi. Boshqali don ekinlaridan 5 mln. tonnaga yaqin hosil olindi. Keyingi yillarda birinchi marta paxta xom ashyosi etishtirishda eng katta natija – 3,5 mln. tonna paxta etishtirishga erishildi.

YUqorida qayd etilgan yutuqlar, albatta, qishloq xo'jaligida olib borilayotgan islohotlar natijasida qo'lga kiritildi. Keyingi yillarda ushbu sohada iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish bo'yicha Prezident farmonlari va hukumat qarorlari qabul qilindi. Prezidentimizning 2003 yil 24 martdagi «Qishloq xo'jaligida islohotlarni yanada chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida»gi PF – 3226-sonli, 2003 yil 27 oktyabrdagi «2004 – 2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida»gi PF – 3342-sonli farmonlari va Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktyabrdagi «2004–2006 yillarda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori shular jumlasidandir.

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- davlat xaridi doirasida narx siyosatini qayta ko'rib chiqish;



- dastlab respublikaning to'rtta viloyatida va 2004 yildan boshlab qolgan viloyatlarda fermer xo'jaliklarining davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan paxta xom ashyosi va g'alla etishtirish xarajatlarini tijorat banklari orqali to'g'ridan-to'g'ri imtiyozli kreditlash mexanizmiga o'tildi va birgina 2004 yilda banklar tomonidan fermer xo'jaliklariga 68,8 mlrd. so'mlik imtiyozli kreditlar ajratildi. 2005 yilda to'g'ridan-to'g'ri imtiyozli kreditlar xo'jaliklarga nisbatan ham to'liq joriy etiladi;
- paxta tozalash sanoati va uning mahsulotlarini sotish korxonalarini xususiylashtirish va boshqaruv tizimi desentralizatsiyasini amalga oshirish;
- zarar ko'rib ishlayotgan, past rentabelli va istiqbolsiz shirkat xo'jaliklarini fermer xo'jaliklariga aylantirish borasida prezidentimiz farmonlari va Vazirlar Mahkamasi qarorlari qabul qilindi, shu farmon va qarorlar ijrosi natijasida 2005 yil 1 yanvar holatiga respublika hududida 103 mingdan oshiq fermer xo'jaliklari faoliyat ko'rsatmoqda. Tegishli qarorga binoan zarar ko'rib ishlaydigan, past rentabelli va istiqbolsiz shirkat xo'jaliklarini 2005 – 2007 yillarda fermer xo'jaliklariga aylantirish dasturi qabul qilinib, 2005 yilda 406 ta, 2006 yilda 370 ta, 2007 yilda 334 ta shirkat xo'jaliklarini fermer xo'jaliklariga aylantirish belgilandi. SHu kecha-kunduzda joylarda yuqorida tilga olingan shirkat xo'jaliklarini fermer xo'jaliklariga aylantirish bo'yicha tugatish komissiyalari faoliyat ko'rsatmoqda. Qarorga binoan 2005 yilda 406 ta shirkat xo'jaligi fermer xo'jaliklariga aylantirilishi belgilangan hamda viloyatlarning taklifini inobatga olgan holda yana 39 ta shirkat xo'jaligi fermer xo'jaliklariga aylantiriladigan bo'ldi. SHunday qilib, 2005 yilda 445 ta shirkat xo'jaligi fermer xo'jaliklariga aylantiriladi. Bu toifadagi xo'jaliklarning istiqbollari oid ko'rsatkichlar 7.10-jadvalda keltirilgan.

7.10-jadval

O'zbekistonda fermer xo'jaliklarini rivojlantirish istiqbollari

	2005 yil 1 yanvar	2007 yilda
Fermer xo'jaliklari soni	103929,0	170000,0
Fermer xo'jaliklari er maydoni, ming ga	2935,5	6200,0
Fermer xo'jaliklari tomonidan etishtirilgan g'alla salmog'i	54 foiz	90 foiz

Fermer xo'jaliklari tomonidan etishtirilgan paxta salmog'i	51,5 foiz	90 foiz
--	-----------	---------

Qishloq xo'jaligi sohasidagi islohotlar quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

– qishloqda ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini rivojlantirish;

– paxtachilik va g'allachilik yo'nalishidagi mayda fermer xo'jaliklarining er maydonlarini belgilangan tartibda maqbullashtirish va yiriklashtirish, ularda suv resurslaridan samarali foydalanish, mexanizatsiyalash darajalarini oshirish;

– mamlakatimizda ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi texnikasini lizing asosida etkazib berish va erlarning meliorativ holatini yaxshilash.

Bulardan tashqari qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarining moliyaviy manbalarga bo'lgan ehtiyotlarini to'laroq qondirish hamda ulardan unumli foydalanishni ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan 2005 yil hosilidan boshlab, mulkchilik shaklidan qat'i nazar barcha paxta va g'alla etishtiruvchi qishloq xo'jalik korxonalarini bunaqa mablag'larni tranishlar orqali berish o'rniga to'g'ridan-to'g'ri tijorat banklari orqali imtiyozli kreditlashga o'tkazildi.

### **Qisqacha hulosalar**

Agrosanoat majmui ko'p tarmoqli yirik majmua bo'lib, o'z tarkibiga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtiruvchi va qayta ishlovchi tarmoqlarni oladi. Agrosanoat majmuining taraqqiyoti nafaqat oziq - ovqat ta'minotini yaxshilash, balki muhim xom ashyo manbai sifatida mamlakat industriyasining taraqqiyoti uchun ham o'ta zarur.

Rivojlangan davlatlar xalq xo'jaligida lizing xizmatining alohida o'rnini bor. O'tgan asrning 40 – 50 yillaridan boshlab Amerikada ilk bor joriy etilgan bu xizmat turi ayni paytda jahonning ko'plab mamlakatlarida keng qo'llanilmoqda. Respublikamiz iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar mazkur xizmat turi joriy etilishini taqozo qiladi.

Xavfsizlikni ta'minlashda byudjet, moliya, soliq va agrar siyosatdagi ustuvorliklar aniq belgilangan reja asosida barcha bo'g'inlarda islohotlarning mohiyatini anglagan holda bajarilishi milliy xavfsizlikning asosiy shartidir.

Respublikamiz qishloq xo'jaligi mamlakat xalq xo'jaligining eng muhim va yirik tarmog'i bo'lib, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga, engil va oziq-ovqat sanoati tarmoqlarining xom ashyoga bo'lgan talabini qondiradi. Fermer xo'jaligi o'simlik va hayvonot mahsulotlarini dastlabki yoki to'liq qayta ishlashning turli jarayonlarini ham amalga oshiradi va xalqimiz moddiy faravonligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Respublikamiz fermer xo'jaliklarida mamlakatning iqlim, er-suv, mehnat resurslaridan hamda asrlar davomida to'plangan dehqonchilik madaniyatidan unumli foydalanish negizida paxtachilik etakchi tarmoqqa aylanadi. Ayni paytda g'allachilik, sholikorlik, kanopchilik, lavlagichilik, mevachilik, tokchilik, polizchilik, sabzavotchilik sohalari, chorvachilikning qoramolchilik, qo'ychilik, xususan, qorako'lchilik, echkichilik, parrandachilik, yilqichilik, tuyachilik, asalarichilik, pillachilik sohalari ham asosiy tarmoqlarga aylantiriladi.

YAngi tashkil etilgan fermer xo'jaliklari moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun tarqatilgan xo'jalik qarzini kechib yuborish zarur. Qarzlarni fermer xo'jaliklari yuklash ularning bankrot bo'lish ehtimolini oshiradi.

Asosiy ekinlar uchun zamonaviy marketing tizimining bir necha muhim elementlarini ajratib olish joiz. Birinchidan, tovar uyushmalari paxta va qisman bug'doy etishtirishni va marketingni tartibga soladi. Bu esa fermerlarning ushbu mahsulotlarni sotish imkoniyatlarini chegaralab qo'ymoqda. Ikkinchidan, paxta va g'alla etishtirishda keng tarqalgan bo'nak ajratish tizimi va MTR sotib olishni kreditlash davlat buyurtmasidagi mahsulotlar uchun qisman haq to'lash hisoblanadi.

Davlat buyurtmasini qisqartirish mahsulot baholarini dunyo bozori baholari darajasigacha oshirish bilan birgalikda olib borilishi lozim. Paxta va bug'doyning davlat xarid bahosi bozor baholari bo'yicha belgilanishi lozim. SHartnoma tizimini qo'llash hisobiga ishlab chiqarish samaradorligini oshirish mumkin. Mazkur tizimga muvofiq davlat xaridi hajmi ekin ekish mavsumiga e'lon qilinadi. Umumiy ishlab chiqarish hajmi katta bo'lmagan hajmlarga (lotlarga) bo'linadi va fermerlarga ishlab chiqaruvchilar tomonidan belgilanadigan baholar bo'yicha cheklangan miqdordagi lotlar taklif etiladi. Bu tizimni qo'llash natijasida, davlat fermerlar taklif etilgan arzon baholi lotni tanlab oladi va fermer bilan shartnoma imzolaydi. Bunday holatda fermerlar baho tavakkalchiligidan sug'urtalangan bo'ladi. SHartnomalar bosmadan

chiqariladi va tarqatiladi hamda bozor qiymatiga ega bo'ladi. Bunday shartnomalardan qarz va kreditlarning garovi sifatida foydalanish mumkin. Kelajakda, davlat va fermerlar baho va bozor shartnomalarining o'zgarishiga javoban fyuchers bitimlarini sotadi va sotib oladi yoki hosilni yig'ib olguncha daromadni ko'paytiradi. Qishloq xo'jaligi MTR monopol korxonalar tomonidan ishlab chiqarilguncha va ichki qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari uchun belgilangan baholarda etkazib berilgunga qadar davlat buyurtmasidagi mahsulotlar bahosi ustidan nazorat talab etiladi. Xususiy korxonalarga bozorga yo'l ochish orqali raqobatni qo'llab-quvvatlash baholarni o'zgarmas holda ushlab turishning eng ishonchli usuli hisoblanadi. Lekin xususiy ishlab chiqarish va qayta ishlovchilarning dunyo bozoriga mustaqil chiqishi monopoliya yoki oligopoliya bilan kurashishning eng samarali usuli hisoblanadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Agrosanoat majmui deganda nima tushuniladi?
2. Agrosanoat majmui tarkibiga nimalar kiradi?
3. Agrosanoat majmuida qishloq xo'jaligi qanday o'rin egallaydi?
4. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish dasturining mohiyati nimalardan iborat?
5. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish dasturining qanday ko'rsatkichlari mavjud?
6. Tarkibiy o'zgarishlar nimani o'rgatadi?
7. Byudjet-soliq siyosatining asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
8. Fermer xo'jaligi nima?
9. Kredit ajratishda fermer xo'jaliklariga imtiyozlar qanday yordam beradi?
10. Fermer xo'jaligini rivojlantirish istiqboli qanday bo'ladi?
11. Respublika iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi qanday ahamiyatga ega?
12. Respublika iqtisodiyotida fermer xo'jaligi qanday o'rin tutadi?
13. Fermer xo'jaliklarining mintaqaviy xususiyatlari nimalardan iborat?
14. Fermerlik harakati deganda nimalarni tushunasiz?
15. Fermerlik imkoniyatlari deganda nimalarni tushunasiz?
16. Fermer xo'jaligini rivojlantirishning hududiy jihatlarini takomillashtirish yo'llari nimalardan iborat?

17. Mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish yo'llari nimalardan iborat?
18. Eksport qilish fermer faoliyatining bosh yo'nalishimi?
19. Fermer xo'jaliklarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zarurmi?
20. Qishloq xo'jalik MTRi monopol korxonalar tomonidan ishlab chiqariladimi?

### **Asosiy adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi.–T.: O'zbekiston. – 2003
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida»gi Farmoni. – Halq so'zi, 2003 yil, 25 mart, № 66
3. I.A. Karimov Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. – Xalq so'zi, 2003 yil, 25 aprel,
4. I.A. Karimov Bizning bosh maqsadimiz–jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir. – T.: O'zbekistna, 2005 – 93 b.
5. V.N. Leksin, A.N. SHvesov Gosudarstvo i regiono'. Teoriya i praktika gosudarstvennogo regulirovaniya territorialnogo razvitiya. URSS. Moskva, 2000.
6. L.A.Ishmuxamedova Problemo' razvitiya predprinimatelstva i malogo biznesa – T. 2005
7. A.E.Ishmuhamedov, M.T. Askarova O'zbekiston milliy iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2004.
8. M.T. Hakimova Makroiqtisodiyot. – T.: O'qituvchi, 1996.
9. Novosti Uzbekistana – [www.uzreport.com/](http://www.uzreport.com/)
10. Jurnal Ekonomicheskij obzor. 2004, № 12
11. Internet ma'lumotlari.  
I.A.Karimov «Asarlar to'plami» – [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)  
[www.tconomyta-cultu/uz/](http://www.tconomyta-cultu/uz/)  
[www.cup/uz](http://www.cup/uz)  
[www.bearingpoint.uz](http://www.bearingpoint.uz)  
[www.pca.uz](http://www.pca.uz)  
[www.micro-macroiqtisodiyout.fan.uz](http://www.micro-macroiqtisodiyout.fan.uz)

## **8-BOB. MINTAQALARDA KOMMUNIKASIYA MAJMUASI**

### **8.1. Transportning xalq xo'jaligidagi ahamiyati va uning tarkibi**

O'zbekistonda hozirgi zamon transportining barcha asosiy turlari mavjud. Jumladan, bu erda temir yo'l va avtomobil yo'li, havo va daryo, quvur va elektr transportlari rivojlangan.

Sobiq Sovet davrida asosiy transport yo'llarini tashkil qilish, boshqarish va undan foydalanish huquqi respublikaning o'zida emas edi. Endilikda respublika transporti ona-Vatan taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Mamlakat transportining xalq xo'jaligiga va aholiga xizmat ko'rsatishni tubdan yaxshilash maqsadida transportning boshqaruv tizimi takomillashtirildi. "O'zbekiston havo yo'llari" milliy aviakompaniyasi (1992), "O'zbekiston avtomobil transporti" davlat aksionerlik korporatsiyasi (1993), "O'zbekiston temir yo'llari" davlat aksionerlik kompaniyasi (1994) tashkil qilingan.

### **8.2. Temir yo'l transporti.**

U mamlakatimiz taraqqiyotida va tashqi aloqalarda g'oyat katta ahamiyatga ega. Mamlakatimizda birinchi temir yo'l 1886-1888 yillarda (Krasnovodsk-CHorjo'ning davomi tarzida) Forob bekati (Buxoro viloyati)dan Samarqandgacha o'tkazilgan. Keyinchalik bu yo'l (1895-97 yy.) Ursatevskaya (Xovos)ga va undan qo'qongacha davom qildirilgan. 1899 yilda Ursatevskaya - Toshkent yo'li, 1906 yilda esa Toshkent - Orenburg yo'li qurilgan. XX asrning birinchi choragida respublikaning Janubiy mintaqalarida xam temir yo'llar qurilgan. Jumladan, qarshi-Kitob (1924), Amudaryo-Termiz (1925) va boshqa temir yo'llar qurilgan.

Hozirgi vaqtda mamlakatning barcha mintaqalarida temir yo'l transporti qatnovi yo'lga qo'yilgan. "O'zbekiston temir yo'llari" 50 mingdan ortiq turli tipdagi zamonaviy yuk vagoni Germaniyada tayyorlangan referejatorlar, yo'lovchilar tashiladigan har xil tipli vagonlarga ega. Aksariyat viloyat markazlarida yangi temir yo'l shox bekatlari kurilib ishga tushirilgan.

Buxoro, Guliston, Termiz shaharlarida esa ana shunday yirik shox bekatlar qurilishi tugallanmoqda. 1997 yilda mamlakat temir yo'llarining umumiy uzunligi 6,7 ming km ni tashkil qildi. SHundan umumiy foydalanishda bo'lgan temir yo'llar uzunligi 3,7 ming km. Temir yo'llar yuk aylanmasi 16-18 mlrd. t/km ni, yuk jo'natish esa 46-47 mln. t. ni, yo'lovchi aylanmasi 2,5 mlrd yulovchi km ni, yo'lovchi junatish esa 14-15 mln kishini tashkil etdi.

Temir yo'llarni elektrlashtirish ishlari dastlab 1970 yilda Toshkent-Sirdaryo yo'li (148 km), keyinchalik Xovos - Bekobod va Xovos - Jizzax yo'llari elektrlashtirilgan. Endilikda elektrlashtirilgan asosiy yo'llar uzunligi 350 kmdan oshib ketdi. Mamlakat temir yo'llarining serqatnov qismini 2000 yilgacha elektrlashtirishning bosh dasturi ishlab chiqilgan va u muvaffaqiyatli hal qilinmoqda.

Mamlakat mustaqilligi ayniqsa temir yo'l transportini har tomonlama rivojlantirishni taqozo qilmoqda. SHu jihatdan avvalo mamlakatning yagona temir yo'l transport tizimini yaratish vazifasi hal qilinmoqda. Bu borada, O'zbekiston o'z manbalari hisobidan ikkita yirik strategik muhim temir yo'l magistralini uzunligi 342 kilometr bo'lgan "Navoiy-Uchquduq-Sulton Uvays-Nukus hamda uzunligi 223 kilometr bo'lgan g'uzor-Boysun-qumqo'rg'on magistrali qurilishini 1995 yildayoq boshlab yubordi. Ularni foydalanishga topshirish bu mintaqalarda ishlab chiqarish kuchlarini yanada rivojlantirish, tabiiy minerallarni katta zahiralardan keng foydalanish imkoniyatlarini yaratib beradi.

Turkmanistonni Eron-Turkiya va so'ngra Evropa bilan bog'laydigan 305 kilometrlik Tagan-Saraxs-Mashxad temir yo'lining O'zbekiston uchun ahamiyati juda katta va shuning uchun ham uning 133 kilometrlik Tajan-Saraxs yo'l qurilishida mamlakatimiz quruvchilari faol qatnashdi.

O'zbekiston MOD ning ayrim davlatlari orqali Xitoy va (Xitoy orqali esa Tinch okeani) ga chiqish uchun Toshkent-O'sh-qashg'ar temir yo'li qurilishini ham olib bormoqda. Bu yo'l qurilishida qirg'iziston va Xitoy ham qatnashmoqda.

### **8.3. Avtomobil transporti.**

Avtomobil transportining rivojlanish holati ichki va tashqi aloqalarini rivojlantirishda g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda. O'zbekistonning reliefi ancha murakkabligi (tog'lik, yassi

tog'liklarning mavjudligi) tomondan temir yo'l transportini rivojlantirishni tabiiy ravishda chegaralagan va bunday hududlarda avtomobil transportini rivojlantirishni taqozo qiladi.

Respublika avtotransportida turli xil avtomobillardan foydalanish soni va turi yilma-yil ortib bormoqda. Endilikda avtomobil transportida yo'lovchilar tashishga 14-15 ming avtobus xizmat qilmoqda. Ulardagi marshrut yo'nalishlarining soni salkam 3 mingga etadi. Avtobuslar bilan mamlakatimizning turli mintaqalarida har kuni 5 mln atrofida yo'lovchi tashiladi.

Mamlakat avtotrasportining asosiy ko'rsatkichlariga avtomobil yo'llari uzunligi va ularning sifati ta'sir qiladi. Hozirgi vaqtda tosh yo'llarning umumiy uzunligi 86 ming km. Asfalt-beton qoplamali yo'llar 22 ming km dan ortiq. 3200 km masofadagi yo'llarimiz xalqaro ahamiyatga ega. Yo'llarni ta'mirlash, ularni asfaltlash ishlari tez sur'atlar bilan olib borilmoqda. Respublikada 90 dan ortiq asfalt zavodlari ishlab turibdi. Avtotrasportning yuk aylanmasi yiliga o'rtaicha 10 mlrd. t-km ni tashkil qiladi, yo'lovchilar tashish aylanmasi esa 17,1 mlrd. yo'lovchi - km ga teng.

Mamlakat avtomobil transporti ham isloh qilinmoqda, uning yangi yo'llari qurilmoqda, yirik avtomagistrallar (jumladan, 708 kilometrlik eng uzun Toshkent-Termiz trakti) qayta ta'mirlanmoqda va uning avtomobil o'tkazish quvvati oshirilmoqda.

O'zbekiston Osiyo davlatlarining xalqaro ahamiyatga molik bo'lgan yirik avtomagistrallar qurilishida tashabbuskor bo'lib chiqmoqda. Jumladan, u Xitoyga (va Tinch okeaniga) chiqish imkoniyatini beruvchi "Andijon-Osh-Ergashtom-qashqar" avtomobil yo'li hamda Hind okeaniga chikishga imkon beradigan "Termiz-Hirot-Karochi" avtomobil yo'li qurilishida va shu yo'nalishda mavjud bo'lgan yo'llarni qayta ta'mirlashda o'z ulushini qo'shmoqda.

"O'zbekiston, - deydi Islom Karimov, - Xitoy va Pokistonga olib boradigan Andijon-Osh-Ergashtom-qashqar, shuningdek Buxoro-Saraxs-Mashxad-Tehron va Termiz-Hirot-Qandahor-Karochi avtomobil yo'llarini qurish va qayta ta'mirlash ishlariga hissa qo'shgan holda qatnashishdan ham manfaatdor" .

## **8.4. Havo transporti.**



O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga chuqur kirib borishi bilan havo transporti dolzarflik qilmoqda.

"O'zbekiston havo yo'llari" aviakompaniyasi turli tipdagi havo transporti vositalariga ega. Jumladan unda qishloq xo'jalik ishlariga mo'ljallangan AN-2, mahalliy yo'llarda qatnaydigan AN-24, YAK-40, xalqaro yo'nalishlarda qatnaydigan IL-76, IL-63, IL-86, TU-154, BOING, A-310 kabi samolyotlar bor. Vertolyot parkida esa MI-2, MI-8, ISA-26, kabi mashinalar bo'lib, ulardan mamlakat muassasalari, metereologiya, geologiya-qidiruv ishlarida keng foydalaniladi.

Mamlakat havo transporti xizmatini yaxshilash masalasi o'z-o'zidan aeroportlarning har xil yangi tipdagi samolyotlarni qabul qilishiga ko'ra jihozlanishi va ta'mirlanishini taqozo qilgan. Hozirgi vaqtda mamlakatda 12 ta zamonaviy aerovokzal (aeroport) bor. Ular Toshkent, Samarqand, Andijon, Buxoro, Navoiy, Namangan, Nukus, Termiz, Urganch, Farg'ona, qarshi, qo'qon shaharlarida joylashgan. SHuningdek har bir viloyatdagi yirik shaharlarda mahalliy yo'llarda qatnaydigan o'nlarcha aerovokzallar mavjud.

Mustaqillik sharofati bilan O'zbekiston havo transportining xizmat ko'rsatish ko'lami nihoyat darajada kengaydi. Endilikda O'zbekiston Markaziy Osiyoning barcha davlatlari, Hamdo'stlik jamiyatining barcha davlatlari va yirik shaharlari bilan havo transporti aloqasiga ega. SHuningdek respublikaning uzoq xorijiy davlatlar bilan tashqi iqtisodiy va madaniy aloqalarni yo'lga qo'yishda havo transportining ahamiyati ortib bormoqda.

O'zbekiston havo yo'llarining bir qancha Evropa, Osiyo va Amerika mamlakatlarida vakolatxonalari ochilgan. 1993-1995 yillarning o'zida O'zbekistonda 18 yo'nalishda xalqaro mashrutda samolyot qatnovi yo'lga qo'yildi.

Jumladan, London, Manchester, Franfrukt-Mayn, Tel-Aviv, Jidda, Kuala-Lumpur, Bangkok, Jakarta, Istanbul, Karochi, Pekin, Seul, Afina, Amsterdam, N'yu-York va boshqa chet el shaharlariga muntazam xalqaro aviareyslar tashkil qilingan.

## **8.5. Suv transporti.**

U rayonlararo xalq xo'jalik yuklarini tashish hamda Turkmaniston, Tojikiston, Afg'oniston davlatlari bilan iqtisodiy aloqalar uchun xizmat qiladi.

Respublika suv transporti salohiyatida Amudaryoning ulushi katta. 1950 yilda Amudaryoning Surxondaryo viloyati hududida Termiz daryo porti tashkil etilgan, 1952 yilda esa Xo'jaylida kema ta'mirlash zavodi qurilgan. Amudaryo sohillarida yangi SHarlavuuq, To'rtkul, Beruniy, qoratorov, Xo'jayli bandargoh (pristan) lari qurilgan.

1994 yildan boshlab mamlakat suv transportini yaxshilash maqsadida bir qator tashkiliy ishlar amalga oshirilgan. Jumladan O'rta Osiyo paroxodchiligining O'zbekistondagi bo'limlari negizida "Termiz daryo porti", "Xorazm daryo porti", "qoraqalpog'iston daryo porti" ishlab chiqarish birlashmalari tashkil etilgan (1995). "Uzavtotrans" korporasiyasi huzurida daryo floti ishini muvofiqlashtirish bo'yicha (Toshkentda) boshqarma tuzilgan bo'lib, u mamlakat suv transportiga umumiy rahbarlik qiladi.

### **Qisqacha xulosalar**

Transport xududlar uchun katta axamiyaga ega. Transporting xududiy xususiyatlari shunday iboratki, unda asosiy e'tibor avtomobil transportiga karatiladi.

O'zbekistonda xavo transport sohasida erishgan yutuklar, Toshkent, Samarkand, Buxoro, Xiva aeoportlarini jaxon standartiga mos xolda kayta kurish va jixozlash, yangi-yangi xavo yullarini uzlashtirish kabi masalalar keng yoritilgan.

### **Nazorat va muloxaza savollari:**

1. O'zbekiston transport tarmoqlarining rivojlanish va joylashish xususiyatarini tushuntirib bering?

2. Mustaqillik yillarida transport tarkibidagi o'zgarishlar nimalardan iborat?

3."Buyuk Ipak Yuli" moxiyatini tushuntiring.

4. YAngi xalkaro temir va avtomobil yullari kurilishining axamiyati?

5.YAngi xalkaro xavo yullari uzlashtirilipsh, aeoportlar kurilishi axamiyati?

### **Adabiyotlar ruyxati.**

1 I.A Karimov O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barkarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.:

## **9-BOB. O'ZBEKISTONNING RESPUBLIKA, MINTAQA, VA MAXALLIY BOSHQARUV ORGANLARI O'RTASIDAGI VAKOLATLARNI TAQSIMLASH MEXANIZMI.**

### **9.1. Davlat hokimiyatining turli pog'onalari o'rtasida vakolatlarni taqsimlashning vazifalari va tamoyillari**

Barcha miqyosdagi hokimiyat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirmasdan iqtisodiy rivojlangan davlat qurish, jamiyatda siyosiy va ijtimoiy barqarorlikka erishish mumkin emas.

“Davlat boshqaruvi”, “Mintaqaviy boshqaruv” va «Mahalliy boshqaruv» atamaları murakkab tizimni (davlat boshqaruv faoliyatining o'zaro bog'liq tarkibiy qismlari majmuini) tashkil etadiki, odatda, boshqaruv maqsadlari, vazifalari, prinsiplari, funksiyalari, usullari, shakllari, sub'ektlari va ob'ektlari mazkur tizimning asosiy unsurlari hisoblanadi. Mazkur unsurlar davlat hokimiyati ijro etuvchi organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari tizimining maqomini, ularning maqsadlari, vazifalari va ish prinsiplarini, vakolatlari doirasini, javobgarligini, tashkiliy huquqiy ish shakllarini, shuningdek davlat hokimiyati va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari bilan vertikal yo'nalishda hamda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, fuqarolar va ularning birlashmalari bilan gorizontal yo'nalishda o'zaro aloqalarini belgilash orqali huquqiy rasmiylashtiriladi.

Respublika, mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida vakolatlar aniq taqsimlangan bo'lmasa, bu davlat hokimiyati va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari o'rtasida ziddiyatlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Sub'ektiv omil — tegishli mansabdor shaxslarning xududlarni mutanosib rivojlantirish va aholining turmush darajasini oshirish manfaatlarida respublika, mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlarining samarali o'zaro aloqalarini ta'minlashga yo'naltirilgan oqilona qarorlar ishlab chiqa olmasligi, ba'zan esa — bunday qarorlarni ishlab chiqishni istamasligi yuqorida zikr etilgan muammoni yanada chuqurlashtirmoqda.

Biroq respublika va mintaqaviy hokimiyat organlari zimmasiga xaddan tashqari ko'p ish yuklanganligi, moddiy-texnika, moliya, axborot va boshqa resurslarning taqchilligi natijasida mazkur hokimiyat organlari mahalliy miqyosidagi muammolarni hal etishga etarli e'tibor bermayptilar. SHu bois so'nggi yillarda O'zbekistondan davlat boshqaruvi tizimida yuqorida zikr etilgan hokimiyatniig uch pog'onasi o'rtasida vakolatlarni taqsimlashning samarali mexanizmini yaratish masalasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. 3otan, mazkur msxanizm mamlakatda mahalliy faoliyatini yanada mukammal tartibga solish, uni davlat siyosati va miitaqaviy siyosatning mustaqil sohasiga ajratish imkonini beradi.

O'zbekistonda Respublika, mintaq va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida vakolatlarni o'zaro manfaatli asosda taqsimlash zarurati - mahalliy tuzilmalar faoliyatining quyidagi muhim muammolari bilan belgilanadi:

a) mahalliy tuzilmalar va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining Uzbekiston Respublikasi Konstitusiyasida belgilangan huquqlarini himoya qilish;

b) davlat mulkini respublika, mintaq va mahalliy mulklarga taqsimlash;

v) mahalliy mulkning barcha shakllarini muhofaza qilish mexanizmini ishlab chiqish;

g) mahalliy tuzilmalarning xususiyatidan kelib chiqib, minimal byudjet bilan ta'minlash normativlari asosida belgilanadigan mahalliy byudjetlarning minimal zarur xarajatlarini qoplash uchun daromad manbalarini mustahkamlash yo'li bilan mahalliy byudjetlarning minimal

miqdorini ta'minlash;

d) mahalliy tuzilmalar iqtisodiy faoliyatining barqaror normativ huquqiy negizini ta'minlash;

e) mamlakatdagi mahalliy tuzilmalarning negizini tashkil etuvchi mahalliy o'zini o'zi boshqarish quyi organlarining mustaqil faoliyatini ta'minlash;

j) mahalliy hokimiyat organlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining sud tartibida himoyalanihga bo'lgan konstitusiyaviy huquqini ta'minlash;

z) mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining davlat hokimiyat organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar natijasida yuzaga kelgan qo'shimcha xarajatlarning qoplanishi bilan boqliq konstitusiyaviy xuquqini ta'minlash;

i) mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari o'zlariga berilgan alohida davlat vakolatlarini amalga oshirishlari uchun zarur moddiy va moliyaviy resurslarning berilishini ta'minlash;

k) huquqning kompleks sohasi sifatida mahalliy xuquqni shakllantirish, mahalliy qurilish va mahalliy o'zini o'zi boshqarish sohasida qonunchilik faoliyatini takomillashtirish strategiyasini ishlab chiqish.

Mahalliy boshqaruv organlariga davlat tomonidan kafolatlar berish hamda davlat hokimiyati va mintaqa boshqaruv organlari tomonidan mahalliy hokimiyat organlariga oid qonun hujjatlariga rioya qilinishi va mahalliy boshqaruv sohasida amalda bo'lgan me'yoriy huquqiy hujjatlarning ijro etilishini ta'minlash respublika, mintaqa va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida vakolatlarni samarali taqsimlashning muhim shartidir.

O'zbekistonda respublika, mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida vakolatlarni taqsimlashning quyidagi asosiy tamoyillariga asoslanadi:

- davlat, mintaqaviy va mahalliy siyosat maqsadlari, yo'nalishlari, vazifalari hamda vakolatlarini taqsimlash mexanizmlarining yagonaligi prinsipi;
- Respublika, mintaqa va mahalliy davlat xokimiyati organlari hamda mahalliy boshqaruv organlari o'rtasida o'zaro hamkorlik va aloqa o'rnatish prinsipi;
- mahalliy islohotni amalga oshirishning turli bosqichlarida davlat

siyosatining vorisiyligini ta'minlash prinsipi;

- mahalliy boshqaruv organlarining vakolatlariga davlat hokimiyati yuqori organlarining aralashmasligi prinsipi va xokazolar.

Respublika, mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida vakolatlarni yanada aniq taqsimlash davlat hokimiyatining mazkur bo'g'inlarini boshqarish mexanizmining samaradorligini oshirish, ularning har birining mustaqilligini kengaytirish, muayyan vakolatlar ularni mumkin qadar samarali amalga oshirishga qodir hokimiyat organlari zimmasiga yuklanishi uchun tegishli hududlarning o'ziga xos (jug'rofiy, iqtisodiy, demografik, etnik va h.k.) xususiyatlarini e'tiborga olishni tabaqalashtirish imkonini beradi.

Ortiqcha mehnat resurslarining mavjudligi vaziyatni yanada og'irlashtirayotgan yaxshi rivojlanmagan xududlarda shahar va qishloqdarda mayda tovar ishlab chiqarishni rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, xizmatlar ko'rsatish sohasida va agrosanoat kompleksida kichik tadbirkorlikni rag'batlantirish zarur.

YUqorida zikr etilgan tamoyillarni amalga tatbiq etish O'zbekiston Respublikasida davlat boshqaruvining turli bo'g'inlari o'rtasida samarali o'zaro hamkorlikni o'rnatish va MDHning bir qator davlatlarida kuzatilgan har xil ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlarga yo'l qo'ymaslik imkonini bermoqda.

## **9.2. Respublika, mintaqaviy va mahalliy boshqaruv organlari o'rtasida vakolatlarni taqsimlash jarayonining hozirgi holati**

O'zbekiston Respublikasida mahalliy xo'jalik amaliyoti jahon tajribasidan kelib chiqib, mahalliy hokimiyat organlari tomonidan o'z konstitusiyaviy vakolatlarini amalga oshirishning quyidagi samarali shakllarini qo'llashni nazarda tutadi:

- 1) mahalliy boshqaruv organlari mahalliy ahamiyatga molik quyidagi masalalarni mustaqil hal qilishi uchun shart-sharoitlar yaratish:

- a) mahalliy mulkka, shu jumladan erga egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish;
- b) mahalliy byudjetlarni shakllantirish, tasdiqlash va ijro etish, mahalliy soliqlar va yig'implarni belgilash;
- v) jamoat tartibini saqlash bilan boqliq chora tadbirlar majmuini amalga oshirish;
- 2) fuqarolarning:
  - a) turar joyga ega bo'lishlari;
  - b) o'z sog'lig'ini saqlashi;
  - v) tibbiy yordam olish;
  - g) bilim olish huquqlarini ta'minlash uchun sharoitlar yaratish;
- 3) soliq va byudjet islohotlari doirasida mahalliy o'zini o'zi boshqarishning moliyaviy-iqtisodiy negizini shakllantirishni nihoyasiga etkazish, avvalambor, quyidagilar hiobiga byudjet va soliqlarni tartibga solish tizimini takomillashtirish:
  - a) O'zbekiston Respublikasi sub'ektlarining birlashtirilgan byudjetlarga yo'naltiriluvchi respublika byudjeti mablag'larini qayta taqsimlash, mahalliy tuzilmalarning vakolatlari jumlasiga kiritilgan masalalarni hal qilish uchun mazkur tuzilmalarning moliyaviy mustaqilligini ta'minlash;

b) davlat hokimiyati organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining o'zaro hamkorligi, shu jumladan mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga beriladigan alohida davlat vakolatlarining amalga oshirilishini va davlatniig minimal ijtimoiy standartlarini belgilash prinsinlarini ishlab chiqish;

v) mahalliy o'zini o'zi boshqarish moliyaviy-iqtisodiy negizining muhim tarkibiy qismi — mahalliy mulkni faol shakllantirish;

g) ko'chmas mulk bozorini rivojlantirish va aholining daromadlarini jalb qilish hamda kichik va o'rta biznes vakillarining ishtirokini ta'minlaydigan investisiya siyosatini amalga oshirish;

d) tadbirkorlikni rivojlantirish, mahalliy tabiiy resurslardan samarali foydalanish hamda kichik va o'rta biznes korxonalarining aholini zarur mahsulotlar bilan ta'minlash va ular xizmatlar ko'rsatish faoliyatini muvofiqlashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish;

4) respublika, mintaqaviy, mahalliy davlat hokimiyat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasida vakolatlarni hamda tegishli moddiy va moliyaviy resurslarni taqsimlash;

5) mahalliy boshqaruv va mahalliy o'zini o'zi boshqaruv organlarining O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga rioya qilishlari ustidan samarali davlat nazorati tizimini shakllantirish;



- 6) mintaqa, respublika va xalqaro miqyosda o'zaro hamkorlik qilishlari uchun shart-sharoitlar yaratish;
- 7) mahalliy boshqaruv organlarining faoliyatini davlat tomonidan ilmiy-uslubiy, tashkiliy-uslubiy va axborot bilan qo'llab quvvatlash;
- 8) mahalliy hokimiyat organlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarida ishlash uchun kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va kadrlarning malakasini oshirish samarali davlat tizimini tashkil etish.

Lekin davlat va mahalliy hokimiyat organlarining sa'y-harakatlariga qaramay, mustaqillik yillarida respublika, mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida vakolatlarni taqsimlash jarayonida me'yoriy-huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga molik bir qator umumiy muammolar to'planib qolgan.

O'zbekiston Respublikasining (Konstitusiyasi kuchga kirgunga qadar qabul qilingan respublika normativ-huquqiy hujjatlarining aksariyatida mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining konstitusiyaviy maqomiga mos kelmaydigan qoidalar mavjud edi, bundan tashqari, mahalliy o'zini o'zi boshqarishning alohida masalalarini tartibga soluvchi normalar amaldagi qonun hujjatlarini va boshqa normativ huquqiy hujjatlarni o'zgartirishni talab etardi.

Mahalliy o'zini o'zi boshqarishni tashkil etish va uning faoliyati bilan bog'liq alohida masalalar qonun hujjatlari bilan to'liq tartibga solinmaganligi ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining normalari va qabul qilingan normativ huquqiy hujjatlar mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining ehtiyojlarini hali huquqiy jihatdan to'liq qondirolgani yo'q. Bundan tashqari, mahalliy huquqning ba'zi bir normalari har xil talqin qilinayotganligi ham mahalliy

o'zini o'zi boshqarish organlarining amaliy faoliyatida qiyinchiliklar tug'dirmoqda.

O'zbekistonning bir qator mintaqalarida mintaqaviy hokimiyat organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining va alohida mansabdor shaxslari tomonidan mahalliy o'zini o'zi boshqarish to'g'risidagi amaldagi qonun hujjatlarining qoidalariga rioya qilmaslik, shu jumladan, mahalliy huquq normalarini bajarmaslik holatlari qayd etildi.

Mahalliy o'zini o'zi boshqarishni amalga oshirish bilan bog'liq masalalarni normativ tartibga solish mexanizmining nomukammalligi, davlat hokimiyati organlari va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari o'rtasida vakolatlar huquqiy jihatdan aniq taqsimlanmaganligi ham o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Xal qilinmagan ko'pgina masalalar mahalliy tuzilmalarning moliyaviy-iqtisodiy mustaqilligi etarli darajada ta'minlanmaganligi bilan bog'liq. Mahalliy mulkni shakllantirish, to'laqonli mahalliy byudjetlarni shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish (shu jumladan davlat moliya resurslarini taqsimlashda mahalliy tuzilmalarning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olish), mahalliy tuzilmalar iqtisodiy faoliyatining barqaror normativ negizini yaratish va boshqa masalalar shular jumlasidandir.

### **9.3 Respublika, mintaqaviy va mahalliy boshqaruv organlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va aloqalarning samaradorligini oshirish yo'llari**

Davlatning vakolatlarni taqsimlash muammolarini hal qilish borasidagi faoliyati mahalliy boshqaruvni yanada rivojlantirish, iqtisodiy va ijtimoiy rivojlangan kuchli demokratik davlat qurishning zarur sharti sifatida mahalliy boshqaruvning samaradorligi, roli va maqomini oshirishga yo'naltirilgan davlat boshqaruvi sohasidagi yagona davlat siyosati doirasida amalga oshirilishi lozim.

Mazkur maqsadga erishish uchun respublika, mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida vakolatlarni taqsimlash sohasidagi siyosat:

- fuqarolarning mahalliy o'zini o'zi boshqarishni amalga oshirish konstitusiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarishga;
- mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining o'z

faoliyatiga davlat tomonidan kafolat berilishini nazarda tutuvchi konstitusiyaviy vakolatlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Ushbu yo'nalishlarning har birida quyidagi vazifalarni hal qilish zarur:

1) fuqarolarning mahalliy o'zini o'zi boshqarishni amalga oshiruvchi konstitusiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish, bu quyidagilarni nazarda tutadi:

a) fuqarolarning, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlariga saylash va saylanish, saylab qo'yiladigan va boshqa mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari orqali mahalliy o'zini o'zi boshqarishni amalga oshirish. Xududiy ijtimoiy o'zini-o'zi boshqarish faoliyatini tashkil etish orqali mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilishda ishtirok etish konstitusiyaviy huquqlarini ro'yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratish;

b) mahalliy tuzilmalarning chegaralari o'zgargan taqdirda aholining fikrini e'tiborga olish tartibini qonun hujjatlarida belgilash;

v) mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining aholi bilan samarali o'zaro hamkorligi tizimini tashkil etish.

Respublika, mintaqaviy va mahalliy davlat hokimiyati organlari o'rtasida vakolatlarni samarali taqsimlash mexanizmini muvaffaqiyatli amalga oshirish maqsadida davlat respublika, tarmoq va mintaqaviy davlat hokimiyati organlarida bir qator samarali vositalarga ega. Ularning asosiylari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilishda mahalliy boshqaruv organlarining tashkiliy, moliyaviy va xo'jalik yuritish sohasidagi mustaqilligini huquqiy tartibga solish;

- mahalliy boshqaruv organlariga yordam ko'rsatish masalalari bilan shug'ullanadigan davlat organlari tizimini shakllantirish;

- mahalliy o'zini-o'zi boshqarishning konstitusiyaviy asoslarini ro'yobga chiqarish va mahalliy tuzilmalarni rivojlantirishga ko'maklashadigan respublika va mintaqaviy dasturlarni qabul qilish;

- mutanosib minimal mahalliy byudjetlarni ta'minlash, mahalliy tuzilmalarning soliq negizini maqbullashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish imkonini bsruvchi byudjet va soliq tizimlarini tartibga solish;

- davlat mulkiga mansub bo'lgan, mahalliy o'zini o'zi boshqarish vakolatlarini amalga oshirish uchun zarur ob'ektlarni mahalliy mulk tarkibiga kiritish;

- mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari uchun kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish, shu jumladan, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlariga saylab qo'yiladigan xodimlarning malakasini oshirish, nomzodlar va saylov kampaniyalarning ishtirokchilarini saylovlarga va aholi o'z irodasini to'g'ridan-to'g'ri ifoda etadigan boshqa tadbirlarga tayyorlash;

- mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarini axborot bilan ta'minlash, shu jumladan, mahalliy o'zini-o'zi boshqarishning konstitusiyaviy asoslarini aholiga tushuntirish, mahalliy o'zini-o'zi boshqarishni isloh qilishning borishi va muammolari, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish tizimini tashkil etishda axolining roli haqida axborot berish va hokozolar;

Mintaqaviy va mahalliy boshqaruv organlarining o'zaro munosabatlari tizimini "O'zaro aloqalar mexanizmi" tushunchasi ayniqsa, to'liq ifoda etadi. Mazkur tushuncha yuqorida zikr etilgan organlar o'rtasida mavjud siyosiy, iqtisodiy va tashkiliy-texnikaviy yutuqlarning murakkab xususiyatini aks ettiradi. Mazkur mexanizm o'zaro aloqalar unsurlarining majmuini o'z ichiga oladi. Ular orasida mintaqaviy va mahalliy boshqaruv bo'g'inlarining manfaatlarini ifoda etuvchi hokimiyat organlarining o'zaro aloqalarini amalga oshirish tamoyillari, turlari, shakllari va yo'nalishlarini alohida ajratish zarur.

Bunda mazkur o'zaro aloqalarning yo'nalishlari, avvalambor, mahalliy miqyosda boshqaruv funksiyalarini shakllantirish va amalga oshirish bosqichlari (mahalliy o'zini-o'zi boshqarishni tashkil etish hamda uning vakolatlarini amalga oshirish) bilan bog'liq; tamoyillar esa mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlarining o'zaro munosabatlari quriladigan tub asoslardir.

YUqorida zikr etilgan boshqaruvni tashkil etishning barcha bosqichlarida va o'zaro aloqalarning barcha yo'nalishlarida yuzaga keladigan hamda har xil huquqiy va tashkiliy shakllarda amalga oshiriladigan boshqaruv aloqalarining tiplari yoki turlari o'zaro aloqalar mexanizmining mazmuni uchun muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, o'zaro aloqalarning yo'nalishlari ham, tamoyillari ham universal xususiyatga ega, chunki ular davlat hokimiyatining nafaqat ijro etuvchi, balki boshqa organlarining va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining o'zaro aloqa qilish usullari hisoblanadi,

Boshqaruv aloqalarining asosiy turlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

- vakolatlarni taqsimlash;
- vakolatlarni o'zaro o'tkazish (berish);
- mahalliy hokimiyat organlariga ko'maklashish (davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash);

- turli boshqaruv bo'g'inlari o'rtasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish;

- turli hokimiyat organlarining faoliyati ustidan davlat nazoratini o'rnatish.

Boshqaruv aloqalarining yuqorida zikr etilgan barcha turlari mintaqaviy va mahalliy hokimiyatning o'zaro munosabatlari tizimida muhim o'rin tutishiga qaramay, muvofiqlashtirish va nazorat qilish keng qamrovli xususiyatga ega bo'lib, ularsiz biron-bir boshqaruv vazifasini hal qilishi mumkin emas.

Muvofiqlashtirish boshqaruv faoliyatining tashkiliy jihatdan tobe bo'lmagan sub'ektlari o'rtasida o'zaro munosabatlarni yo'lga qo'yishning

muhim usulidir. Boshqaruv aloqasining turi sifatida, muvofiqlashtirish uyushtiruvchi xususiyatga ega bo'lib, faoliyati muvofiqlashtiriluvchi sub'ektlarning sa'y-harakatlarini muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan. Muvofiqlashtiruvchi aloqa sub'ektlarning o'zaro manfaatdorligiga asoslanadi: o'zaro munosabatlar ishtirokchilarining ehtiyojlari har xil bo'lgan taqdirda ham, muvofiqlashtirish jarayonida manfaatlarni muvofiqlashtirishga o'zaro ehtiyoj shakllanishi uchun shart sharoitlar yaratiladiki, bu umumiy manfaatning shakllanishiga ko'maklashadi. Muvofiqlashtirish o'zaro ta'sir xususiyatga ega: bu nafaqat to'g'ri, balki teskari aloqa hamdir, ya'ni ikkala tomon ham faol ish olib boruvchi sub'ektlar sifatida ishtirok etadi.

Boshqaruv amaliyotini tahlildan o'tkazish mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida yuzaga keladigan muvofiqlashtiruvchi aloqalar quyidagi shakllarda amalga oshirilishini ko'rsatadi:

- 1) davlat boshqaruvining nomlari yuqorida zikr etilgan bo'g'inlari o'rtasida o'zaro munosabatlarning deyarli barcha sohalariga, ayniqsa, qabul qilingan huquqiy hujjatlar haqida o'zaro axborot berishga taalluqli bo'lgan axborot almashish;
- 2) respublika va mintaqaviy hokimiyat organlari tomonidan

mahalliy boshqaruv organlari va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlariga maslahatlar berish;

- 3) me'yoriy-huquqiy hujjatlarni yoki tashkiliy-iqtisodiy faoliyatni muvofiqlashtirish.
- 4) Davlat hokimiyati organlari va mahalliy boshqaruv organlari o'rtasida shartnomalar (bitimlar) tuzish;
- 5) Respublika va mintaqa davlat hokimiyati organlari hamda mahalliy boshqaruv hamda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining vakllaridan hamkorlikdagi boshqaruv organlari tashkil etish va ularning faoliyat ko'rsatishini ta'minlash;
- 6) respublika yoki mintaqa hokimiyat organlari qoshida mahalliy boshqaruv organlarining vakillaridan tarkib topgan mahalliy hokimiyat organlarining vakolatxonalarini tashkil etish va ularning faoliyatini ta'minlash;

Mahalliy boshqaruv organlari ustidan davlat nazorati boshqaruvining mintaqaviy bo'g'inida amalga oshiriladi va nazorat faoliyatining sub'ektiga qarab quyidagi turlarga ajratildi.

- respublika va uning sub'ektlarining davlat hokimiyati qonun chiqaruvchi (vakillik) organ tomonidan amalga oshiriladigan mahalliy o'zini o'zi boshqarish to'g'risidagi qonunlarga rioya qilinishi ustidan nazorat;

- respublika va mintaqa ijro etuvchi hokimiyat organlarining mahalliy o'zini-o'zi boshqarishning qonuniyligi ustidan nazorati;
- mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari va mansabdor shaxslarining faoliyatida qonuniylikka rioya qilinishi ustidan prokuror nazorati;
- sud nazorati;
- boshqa mustaqil davlat organlari tomonidan amalga oshiriluvchi nazorat.

YUqorida zikr etilgan mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari ustidan nazoratning har bir turi o'ziga xos xususiyatlarga, o'z nazorat shakllari yoki vositalari to'plamiga ega bo'lib, bu nazorat faoliyatini amalga oshiruvchi davlat hokimiyati organlarining maqomi va vakolatlarining o'ziga xosliklari bilan belgilanadi. Bundan kelib chiqib, respublika va mintaqa ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan amalga oshiriladigan umumiy va maxsus nazoratni ma'muriy

nazorat deb tavsiflash mumkin. Mazkur nazorat, avvalambor, huquqiy xususiyatga ega bo'lib, mahalliy organlar tomonidan O'zbekiston Respublikasining qonunlari va boshqa normativ hujjatlarining ijro etilishini tekshirishni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan respublika, mintaqaviy va mahalliy organlarning o'zaro munosabatlari tamoyillarini umumlashtirib, mintaqaviy boshqaruv organlari yuqorida zikr etilgan maqsadlarga erishish uchun qo'llashlari mumkin bo'lgan, qonun hujjatlariga va huquqiy nazoratning tabiatiga zid kelmaydigan quyidagi nazorat shakllarini ajratish mumkin:

- mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining me'yoriy hujjatlarini ro'yxatdan o'tkazish (mahalliy tuzilmalarning ustavlari, ularni ro'yxatdan o'tkazish tartibi);
- mahalliy o'zini-o'zi boshqarishning me'yoriy huquqiy hujjatlarini muvofiqlashtirish;

mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining me'yoriy-huquqiy hujjatlarini tasdiqlash;

- mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organining huquqiy akti (organ yoki mansabdor shaxsning harakati) ustidan shikoyat berish;
- mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organining (mansabdor shaxsning)

vakolatlarini to'xtatish.

Davlat nazoratining yuqorida zikr etilgan shakllari bilan bir qatorda, davlat tomonidan berilgan vakolatlarning mahalliy organlar tomonidan amalga oshirilishini ma'muriy nazorat qilishning boshqa bir shakli ham keng nazorat vositalariga ega. Mazkur nazorat shaklini davlat boshqaruvining xususiyatidan kelib chiqib tarmoq nazorati deb tavsiflash mumkin. Bunday nazorat mahalliy boshqaruvning qonuniyligi, samaradorligi va maqsadga muvofiqligiga baho beradi. Tarmoq nazoratining shakllari odatda nafaqat mahalliy o'zini-o'zi boshqarish to'g'risidagi umumiy mintaqaviy qonunlarda, balki mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlariga alohida davlat vakolatlari berish tartibi to'g'risidagi maxsus davlat qonunlarida ham mustahkamlanadi.

Bunda mazkur nazorat turiga xos bo'lgan mahalliy hokimiyat organlariga berilgan vakolatlarning mazmunini ham nazarda tutish kerak. Jumladan;

- davlat vakolatlarini amalga oshirish bilan bog'liq zarur axborotni so'rab olish (20-modda);

- mahalliy o'zini o'zi boshqarish ijro etuvchi organlari rahbarlarining hisobotlarini tinglash (20-modda);

- mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlariga berilgan viloyat mulki ob'ektlari va moliyaviy mablag'lardan maqsadli foydalanilishini tekshirish (21-modda);

- mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining qonun xujjatlariga zid ravishda qabul qilingan alohida viloyat davlat vakolatlarini amalga oshirish masalalariga oid huquqiy hujjatlarining amal qilishini sud qarori chiqarilgunga qadar to'xtatib qo'yish (19-modda).

Davlat vakolatlarini bajarmaganlik yoki nomaqbul ravishda bajarganlik uchun mahalliy hokimiyat va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlariga nisbatan yuqori davlat hokimiyati organlari tomonidan quyidagi sanksiyalar qo'llanilishi mumkin: mintaqa yoki respublika mulki ob'ektlaridan va berilgan moliyaviy mablag'lardan maqsadsiz foydalanish natijasida etkazilgan zararning mazkur organlar tomonidan qoplanishi hamda ulardan alohida davlat vakolatlarining olib qo'yilishi.

Mazkur mexanizmlardan mahalliy o'zini-o'zi boshqarishni qo'llab-quvvatlash uzoq muddatli respublika va mintaqaviy maqsadli dasturlar doirasida kompleks foydalanish O'zbekiston Respublikasida mahalliy boshqaruv organlarini rivojlantirish sohasidagi davlat siyosatini yanada samarali amalga oshirishga yordam beradi.

## **Qisqacha xulosalar**

Respublika, mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlarining samarali o'zaro aloqa qilish mexanizmini yaratmasdan O'zbekiston Respublikasida mahalliy qurilish va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish sohasida davlat siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirish mumkin emas. Bunday mexanizmning o'z vaqtida yaratilishi aholi, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish va davlat hokimiyatining samarali o'zaro aloqa tizimining tashkil topishiga olib kelishi lozim.

Mazkur tizimning samarali faoliyat ko'rsatishi har bir mahalliy tuzilmada aholining turmush sharoitlarini yaxshilash, fuqarolarda



mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan demokratik munosabatlarga kirishish hamda ularning ish samaradorligi ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirish, O'zbekiston mahalliy tuzilmalarining barqaror mustaqil rivojlanishini ta'minlash imkonini beradi.

Bunda mazkur o'zaro aloqalarning yo'nalishlari, avvalambor, mahalliy miqyosda boshqaruv funksiyalarini shakllantirish va amalga oshirish bosqichlari (mahalliy o'zini-o'zi boshqarishni tashkil etish hamda uning vakolatlarini amalga oshirish) bilan bog'liq; tamoyillar esa mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlarining o'zaro munosabatlari quriladigan tub asoslardir.

## **Muhokama va nazorat qilish uchun savollar**

- 1 Nima uchun respublika, mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida vakolatlarni taqsimlash zarur?
- 2 O'zbekistonda Respublika, mintaqaviy va mahalliy hokimiyat organlari o'rtasida vakolatlarni taqsimlash qaysi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi?
- 3 Respublika hokimiyat organlariga davlat boshqaruvining qaysi funksiyalari yuklanadi?
- 4 Mintaqaviy hokimiyat organlariga davlat boshqaruvining qaysi funksiyalari yuklanadi?
- 5 Mahalliy hokimiyat organlariga davlat boshqaruvining qaysi funksiyalari yuklanadi?
- 6 "Davlat boshqaruvini desentralizasiya qilish" (nomarkazlashtirish) atamasi nimani bildiradi?
- 7 Respublika boshqaruv organlari mahalliy hokimiyat organlariga qanday kafolatlar berishi zarur?
- 8 Mahalliy hokimiyat organlari davlat oldida qanday majburiyatlarga ega?

## **Tavsiya etilgan adabiyotlar:**

- 1 O'zbekistoi Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning Oliy Majlis qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi «Bizning bosh maqsadimiz — jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir» Xalq so'zi 2005 yil, 29 yanvar.
- 2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

- «Kommunal xizmatlar tariflarning asossiz ravishda o'sib ketishiga yo'l qo'ymaslik hamda ular uchun o'z vaqtida va to'liq hisob-kitob qilinishi uchun iste'molchilarning ma'suliyatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori Toshkent oqshomi, 2005 yil, 14 fevral.
- 3 Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonunni O'zbekiston Respublikasi qonuning Toshkent viloyatida ijro etilishi to'g'risida 1997yil 5 iyundagi 443a-1 qarori.
  - 4 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Mahalla yili davlat dasturi to'g'risida» 2003 yil 7 fevraldagi 70-son qarori
  - 5 Davlat boshqaruvi xududiy organlarini tuzilmasini takomillashtirish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari. O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlar to'plami, № 1-2, 2004 y. yanvar.
  - 6 S.S. Gulyamov., SH.R.Xolmo'minov., M.Z. Kalanova., tahriri ostida. Mahalliy iqtisodiyot va menejment. T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2004.
  - 7 P.Muyassarov O'zbekiston mintaqalarini iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish. Magistrlik dissertasiya. T.: TDIU, 2004.
  - 8 F.F. Uzakov O'zbekistonda mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirish muammolari. T.: TDIU, Magistrlik diseertasiyasi, 2005yil.

**Internet ma'lumotlari:**

- 1 [www.ceep.uz](http://www.ceep.uz)
- 2 [www.5ballov.uz](http://www.5ballov.uz)
- 3 [www.gov.uz](http://www.gov.uz)

## **10-BOB. MINTAQAVIY IQTISODIY SIYOSAT**

### **10.1. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning mohiyati va vazifalari**

Mintaqaviy siyosatning o'rganish ob'ekti turli ko'rinishdagi hududiy notengliklar yani aholining turmush darajasi va yashash sharoitidagi, ishsizlik va bandlikdagi, alohida hududlarning iqtisodiy o'sish sur'atlaridagi va tadbirkorlik sharoitidagi tafovutlar hisoblanadi.

Mintaqaviy siyosat I - I hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining davlat tomonidan tartibga solinishidir. Uning asosiy vazifasi mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish hisobiga mamlakatdagi barcha hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini imkon qadar bir-biriga yaqinlashtirish, aholining turli qatlamlari o'rtasida moddiy ne'matlar taqsimotidagi hududiy tafovutlarni eng kam darajaga keltirish, hukumatning boshqaruv vazifalarini kamaytirib, mahalliy hokimiyat va o'z-o'zini boshqarish organlari vakolatini oshirishga qaratilishi lozim.

Mintaqaviy siyosatning maqsadi - mamlakatning yaxlit ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga xalaqit beradigan, ijtimoiy kelishmovchiliklarning paydo bo'lishiga xizmat qiladigan hududiy notengliklarni bartaraf etishdan iborat.

Turli mamlakatlarning markaziy hukumatlari, hududiy va mahalliy davlat boshqaruv organlari bunday tafovutlarni bartaraf etish uchun bir qator (mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, davlat tuzilishining tipi, ichki muammolari, hokimiyat tepasida turgan partiyalarning maqsadlari) omillarga bog'liq bo'lgan xilma-xil vositalardan foydalanadilar.

Mintaqaviy siyosatni amalga oshirishdan avval, birinchi navbatda, mamlakatdagi hududiy notengliklarning sabablarini o'rganiladi. Bunda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- tabiiy-iqlim sharoitidagi keskin tafovutlarning mamlakatning ayrim hududlari aholisining turmush sharoiti va tadbirkorlik faoliyatiga ta'siri;

- mintaqalardagi mavjud tabiiy resurslar hajmi, sifati va ulardan foydalanish darajasi;

- mintaqalarning chekka hududlarda joylashganligi natijasida transport xarajatlarining ko'payishi, mahsulot narxlarining ortishi. Bu esa o'z navbatida bozorning torayishiga olib keladi. Transport va

kommunikasion aloqalarning yomonligi chetda joylashgan mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishini qiyinlashtiradi;

- u yoki bu turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi texnologik rivojlanish stadiyasi (xom ashyo resurslari, oraliq mahsulotlar, tayyor mahsulotlar va xizmatlar);

- mintaqaning avtonomiya darajasi, siyosiy shart-sharoitlari, rivojlanish tarixi va b.q.;

- ishlab chiqarish infratuzilmasi: aeroportlar, transport tarmoqlari, sanoat maydonlari, telekommunikasion tizimlar va h.k. bilan ta'minlanishi;

- ijtimoiy-madaniy omillar: shaharlashuv darajasi, aholining ma'lumoti, ilmiy markazlarning mavjudligi va h.k.

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan ko'pgina mamlakatlarda mintaqaviy siyosat kapital qo'yilmalar qayta taqsimlanishini ta'minlashga xizmat qiladigan quyidagi 3 yo'nalishda olib borilmoqda:

***Birinchi yo'nalish*** - kam rivojlangan va sanoat taraqqiyoti past mintaqalarda infratuzilma ob'ektlarini barpo etish va ularning boshqa rayonlar bilan aloqalarini yaxshilash. Ma'lumki, bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda davlat bevosita ishlab chiqarishga aralashmaydi, lekin tadbirkorlarning samarali faoliyat yuritishlari uchun iqtisodiy va huquqiy sharoitlarni yaratish davlatning birinchi darajali vazifasi hisoblanadi. Avtomobil va temir yo'llar, elektr tarmoqlari, gaz va suv quvurlari, aloqa liniyalari mavjudligi bunday hududlarda tadbirkorlikning rivojlanishiga katta yordam beradi.

Hozirda bizning mamlakatimizda qishloq aholi punktlarini tabiiy gaz va ichimlik suvi bilan ta'minlash bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

***Ikkinchi yo'nalish*** – yuqori darajada rivojlangan va sanoati taraqqiy etgan mintaqalar, xususan yirik shaharlarga nisbatan cheklash usullarini qo'llash (ma'muriy yoki moliyaviy cheklashlar orqali amalga oshiriladi). Bunday mintaqalarga yangi sanoat korxonalarini joylashtirishga chek qo'yish orqali hududiy tafovutlar kuchayishining oldi olinadi. Mazkur usul dunyoning deyarli barcha taraqqiy etgan mamlakatlarida aglomerasiya markazlariga nisbatan keng qo'llaniladi. O'zbekistonda yirik va katta shaharlarga yangi sanoat korxonalarini joylashtirishni oldini olish, kichik shaharlar, shahar posyolkalari va qishloq aholi punktlarini rivojlantirish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

***Uchinchi yo'nalish*** - muammoli mintaqalarga sanoat korxonalarini joylashtirish maqsadida xorijiy va xususiy sarmoyalarni jalb etishni rag'batlantirish. Mazkur yo'nalish iqtisodiyotning turli tarmoqlariga mansub korxonalarni joylashtirishda davlat tomonidan muhim e'tibor beriladigan asosiy yo'nalish hisoblanadi.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida mintaqaviy siyosatni amalga oshirishning quyidagi 2 xil usuli keng qo'llaniladi:

Adolatli usul - ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirishning shunday turiki, unga ko'ra mamlakat fuqarolari qaysi hududda yashashlaridan qat'iy nazar, ularning turmush darajasi deyarli bir xil sharoit va imkoniyatlarda bo'lishi ko'zda tutiladi.

Samarali usul - umumdavlat manfaatlari yo'lida har bir mintaqaning mavjud ishlab chiqarish salohiyatlaridan oqilona foydalanishga qaratilgan usuldur.

Har ikki usul turli holatlarda o'zaro bir-birini to'ldiradigan yoki bir-biriga qarama-qarshi bo'lishi mumkin. Bu esa muayyan mamlakat iqtisodiy taraqqiyotning qaysi pog'onasida turganligiga bog'liq. Iqtisodiy salohiyati katta, rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan AqSH, Kanada, YAponiya va /arbiy Evropa mamlakatlari mintaqaviy siyosatida adolatli usul keng qo'llaniladi.

## **10.2. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat bo'yicha xorijiy tajribalar**

Xorijiy adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, hududlarni rivojlantirish va ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bo'yicha turli mamlakatlarda xilma-xil yo'nalishlar mavjudligiga qaramasdan, ular o'rtasida tafovutlar kam, mintaqaviy iqtisodiy siyosatni amalga oshirishdagi maqsadlari esa quyidagi vazifalarni hal etishga qaratilgan:

- iqtisodiy qoloq mintaqalar rivojlanishini rag'batlantirish;
- markaziy hokimiyat vazifalarining katta qismini mahalliy davlat organlari zimmasiga yuklash;
- yirik shaharlarda sanoat ishlab chiqarishi to'planishini cheklash;
- yangi o'zlashtirilgan hududlarda ishlab chiqarishni joylashtirish va rivojlantirishni rag'batlantirish.

Mintaqaviy siyosatni amalga oshirishning eng ommaviy usullaridan biri hududiy rivojlantirish jamg'armalarini tashkil etish hisoblanadi. Birinchi marta 1975 yilda Evropa Ittifoqi qoshida hududiy

muvoqiflashtirish jamg'armasi tashkil etilgan. Boshqa bir qancha mamlakatlarda ham ayrim hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish maqsadida maxsus jamg'armalar (Italiyada davlat subsidiyasi hisobiga faoliyat ko'rsatadigan va janubiy hududlar infratuzilmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan «Janub xazinasi»; Bolgariyada ayrim hududlar rivojlanishini jadallashtirish davlat dasturini ta'minlash bo'yicha jamg'arma, Vengriyada uchta maqsadli jamg'armadan iborat hududlar rivojlanishining markaziy jamg'armasi va boshq.) to'zilgan.

Ko'plab xorijiy mamlakatlar mintaqaviy siyosatining muhim xususiyati shundaki, unda yirik ma'muriy-hududiy birliklar (guberniya, shtat, provinsiya) emas, balki muayyan shahar va munisipalitetlar hududiy muvoqiflashtirish makonlari hisoblanadi. Jumladan, Fransiyada kam rivojlangan Janubi-/arb mintaqasining 9 ta aglomerasiya va 17 shahar, Ispaniyada 10 ta “rivojlanish markazlari” va 2 ta “sanoatni rag'batlantirish markazlari”, YAponiyada 10 ta “sanoat rivojlanishining alohida rayonlari”, 6 ta “yangi sanoat shaharlari”, Italiyada 12 ta “sanoatni rivojlantirish areallari” va 26 ta “industrializasiya yadrolari”, Germaniyada 300 ta “muhim aholi punktlari” va hokazo.

Bu sohada niderlandiyaliklar va belgiyaliklar tajribasi ayniqsa diqqatga sazovor. SHuni alohida ta'kidlash lozimki, shaharlar va qishloqlar rivojlanishini rejalashtirish bo'yicha qonun birinchi marta Belgiyada 1915 yilda qabul qilingan.

Ko'plab mamlakatlarda mintaqaviy siyosat o'zining ichki imkoniyatlari va shart-sharoitlaridan kelib chiqib, turli hududlar uchun turlicha qo'llanilishi mumkin. Masalan, tug'ilishni kamaytirish siyosati nihoyatda qattiq yo'lga qo'yilgan Xitoyning zichlik ko'rsatkichlari ancha past bo'lgan Uyg'ur-Syangan avtonom okrugi va Tibet uchun oilada bolalar soni cheklanmagan.

Rivojlangan mamlakatlar orasida YAponiyaning bu sohadagi tajribasi alohida afzalliklarga ega. Aniq maqsadga yo'naltirilgan uzoq muddatli dasturlar izchil amalga oshirilishi natijasida YAponiya tarixan qisqa davr ichida dunyodagi eng taraqqiy etgan mamlakatlar safidan joy oldi.

YAponiya mintaqaviy iqtisodiy siyosati er va tabiiy resurslarning cheklanganligidan, kishilar faoliyatini tabiiy sharoit bilan uyg'unlashtirish zaruratidan, mamlakat turli hududlari aholisining turmushi bo'yicha bir xil sharoit yaratish talabidan kelib chiqadi.

Umuman, mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining har bir bosqichida mintaqaviy dasturlar ishlab chiqish jamiyat va davlat oldida turgan maqsad va vazifalardan, ularning miqyosi va amalga oshirish imkoniyatlaridan kelib chiqib belgilanadi. YAponiyada moddiy va moliyaviy resurslar hamda ishlab chiqarish quvvatlarini kam rivojlangan, “nomarkaz” mintaqalarga jalb etishning tez moslashuvchan va qulay usuli barpo etildi.

### **10.3. Mustaqillik yillarida O'zbekiston mintaqaviy siyosatining asosiy yo'nalishlari**

Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan boshqa mamlakatlardagi kabi respublikamiz iqtisodiyotida ham “samarali” usulni qo'llash bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Ko'plab foydalanilmayotgan zahiralalar ishga tushirilmoqda; yangi korxonalar asosan kommunikasiyalar bilan yaxshi ta'minlangan kichik va o'rta shaharlarga joylashtirilmoqda; qishloq xo'jaligida tabiiy-iqlim sharoitiga mos ekinlar ekish joriy etilmoqda.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin, birinchi navbatda boy tabiiy-iqtisodiy salohiyatga ega hududlar va shaharlarni rivojlantirishga, mintaqalar iqtisodiy taraqqiyotidagi tafovutlarni kamaytirishga alohida e'tibor berilmoqda. Qishloqda sanoatni, birinchi navbatda qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalarni ishga tushirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma tizimini shakllantirish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki, respublikamizning turli hududlari maydoni, aholi soni, tabiiy-iqlim sharoiti, infratuzilma ob'ektlari bilan ta'minlanishi, shaharlashuv darajasi, aholining turmush sharoiti va boshqalarga ko'ra bir-biridan keskin farq qiladi. Jumladan, mamlakat ma'muriy-hududiy birliklari o'rtasidagi aholi zichligi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toshkent viloyatining Toshkent tumaniga to'g'ri kelsa ( $1 \text{ km}^2$  maydonda 767 kishi), aksincha eng siyrak mintaqa Navoiy viloyatining Tomdi tumani ( $1 \text{ km}^2$  maydonda 0,58 kishi) hisoblanadi.

Surxondaryo viloyatining Bandixon tumani respublika ma'muriy-hududiy birliklari orasida aholi tabiiy o'sishining yuqoriligi bo'yicha eng oldingi o'rinni egallaydi. 2001 yil davomida bu erda har 1000 kishiga nisbatan tabiiy o'sish 26,9 kishiga to'g'ri kelgan. Eng quyi ko'rsatkich esa Navoiy viloyatining Tomdi tumanida 4,7 kishiga teng bo'lgan.

Aholi tabiiy ko'payishida shahar va qishloq o'rtasidagi tafovutlar yaqqol sezilib turadi. Xususan yirik, sanoatlashgan va mahalliy millat vakillari nisbatan kam istiqomat qiladigan shaharlarda aholi tabiiy ko'payishi qishloq joylarga nisbatan bir necha bor past ekanini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, Toshkent viloyatidagi Olmaliq, Ohangaron, CHirchiq shaharlarida tabiiy o'sish respublika o'rtacha ko'rsatkichiga nisbatan 3-5 marta kamdir.

Toshkent shahrining ayrim tumanlari orasida ham shunday tafovutlar uchraydi. Jumladan, mahalliy millat vakillari ko'p istiqomat qiladigan SHayxontohur tumanida aholining tabiiy ko'payishi Mirzo Ulug'bek tumaniga nisbatan esa 3,7, Hamza tumaniga nisbatan 5,5 marta yuqori.

Samarqand viloyati Urgut tumani aholi soni bo'yicha mamlakat ma'muriy-hududiy birliklari orasida eng yuqori o'rinni egallaydi. U erda 335 ming kishi kishi istiqomat qiladi. Buxoro viloyati qorovulbozor tumani esa, aksincha, aholisi eng kam hudud bo'lib hisoblanadi. U erda 13,6 ming kishi yashaydi.

Umuman, har bir tuman yoki shaharning o'ziga xos xususiyatlari haqida bu kabi misollarni yana ko'plab keltirish mumkin. Mamlakatning mintaqaviy iqtisodiy siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda ularning mana shunday alohida jihatlari albatta hisobga olinishi lozim.

### ***Qisqacha xulosalar***

Mintaqaviy siyosatning o'rganish ob'ekti turli ko'rinishdagi hududiy notengliklar bo'lib hisoblanadi. Mintaqaviy siyosat - hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining davlat tomonidan tartibga solinishidir.

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida mintaqaviy siyosatni amalga oshirishning adolatli va samarali usullari keng qo'llaniladi:

Hududlarda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bo'yicha turli mamlakatlar o'rtasida tafovutlar mavjudligiga qaramasdan, mintaqaviy siyosatni amalga oshirishdagi maqsadlari deyarli bir xil.

### ***Nazorat va muhokama uchun savollar***

1. Mintaqaviy siyosatning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat.
2. Mintaqaviy siyosatning adolatli va samarali usullari haqida nima bilasiz?
3. Hududiy notengliklar qanday omillar natijasida kelib chiqadi?



4. Mustaqillik yillarida hududiy jihatdan qanday tarkibiy o'zgarishlar ro'y berdi?
5. Rivojlangan mamlakatlarda mintaqaviy siyosat qanday uch yo'nalishda olib boriladi?
6. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat bo'yicha xorijiy tajribalar nimalarga qaratilgan?
7. Mintaqaviy siyosatni amalga oshirishning eng ommaviy usuli qanday?
8. Xorijiy mamlakatlar mintaqaviy siyosatining muhim xususiyati nimadan iborat?

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Regionalnaya ekonomika pod redaksii TG Morozovoy YUNITI Maskva. 2000
2. M.Raximova Mintaqa va mahalliy xo'jalik iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma – T.: 2004
3. Timonina I. Regionalnaya ekonomicheskaya politika na rubeje vekov. [http://www.japantoday.ru/znakjap/ekonomika/029\\_02.shtml](http://www.japantoday.ru/znakjap/ekonomika/029_02.shtml)
4. Regionalnaya ekonomika. Osnovnoy kurs: Uchebnik / Pod red. V.I.Vidyapina, M.V. Stepanova. – M.: INFRA-M, 2005. – 686 s.

## 11-BOB. MINTAQALAR MOLIVACI VA UNI TARTIBGA SOLISH

### **11.1. Hududiy moliyaning mohiyati va tarkibi.**

Hududiy moliya davlat moliya tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u turli darajadagi (viloyat, tuman, shahar) mahalliy byudjetlar, nobyudjet fonlari, mintaqa ehtiyojini qondirish uchun sarflanadigan xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy vositalaridan iborat. Hududiy moliya aholiga ijtimoiy-madaniy va kommunal-maishiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq tadbirlarni moliyalashtirish bilan shug'ullanadi. SHunday qilib, hududiy moliya - hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jarayonida milliy daromadni taqsimlaydigan va qayta taqsimlaydigan iqtisodiy munosabatlar tizimidir.

Hududiy moliya orqali davlat o'zining ijtimoiy siyosatini faol amalga oshirmoqda. Mintaqaviy hokimiyat organlarining byudjetlari uchun ajratilgan vositalar asosida xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, kommunal xizmat sohaslarini moliyalashtirish amalga oshiriladi.

Mintaqalarning moliyaviy resurslari yordamida hukumat taraqqiyoti turlicha bo'lgan mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasini tenglashtiradi. Bunday tafovutlarni bartaraf etishda maxsus mintaqaviy dasturlar ishlab chiqilib, ularni amalga oshirish uchun mablag'lar muayyan ma'muriy-hududiy birliklar byudjetlarining daromad manbalari hamda yuqori byudjetlarning ajratmalari hisobidan shakllantiriladi.

Hududiy moliyaviy vositalarning shakllanish manbalari quyidagilardan iborat:

1. Mahalliy byudjet
2. Munisipal mulk hisoblanuvchi korxonalarining moliyaviy resurslari.
3. Korxonalar va tashkilotlarning ijtimoiy-madaniy va uy-joy-kommunal ob'ektlarni moliyalashtirish uchun yo'naltirilgan mablag'lari.
4. Hududiy nobyudjet fondlari

### **11.2. Mahalliy byudjet - mahalliy boshqaruv organlari asosiy moliyaviy manbasidir.**

Mahalliy byudjetlar orqali ijtimoiy iste'mol fondlari alohida ma'muriy-hududiy birliklar va aholining turli ijtimoiy guruhlari orasida

taqsimlanadi. SHu bilan birga, mahalliy byudjetdan mahalliy sanoat, oziq-ovqat sanoati, kommunal xo'jalik kabi aholi turmush darajasini yaxshilashga yo'naltirilgan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari ham moliyalashtiriladi.

Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan ayrim mamlakatlarda (masalan, Gro'ziya va Ukrainada) mahalliy hokimiyat organlarining mustaqilliklari cheklangan bo'lib, ular markaziy hukumat tomonidan ajratilgan vositalarni xarajat qilishgagina mas'uldirlar.

Lekin, boshqa ko'plab mamlakatlarda mahalliy boshqaruv organlari uchun o'z hududlarida belgilangan mezonlar bo'yicha soliqlar yig'ish va ularni xarajat qilish vakolatlari berilgan. Jumladan, Rossiya fiskal federasiya xarakteriga ega bo'lib, uning tarkibidagi sub'ektlar keng moliyaviy avtonomiyaga egadirlar. Mahalliy hokimiyat organlarining yalpi davlat xarajatlari tarkibidagi ulushi turli mamlakatlarda turlicha. Jumladan, bu ko'rsatkich Xorvatiyada 15%ni, Rossiyada 50%ni, O'zbekistonda 58%ni tashkil etadi.

Hududiy hokimiyat organlariga (ular transfertlar bo'ladimi, soliq tushumlaridan hududda qoladigan ulushmi yoki mahalliy soliqlar bo'ladimi) o'z xarajatlarini moliyalashtirish manbalari talab etiladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlarning hukumatlari odatda mahalliy hokimiyatlar uchun soliq tushumlarining ulushini va hududlarning o'z daromadlari hajmini cheklashga harakat qiladilar; shu bilan birga, mahalliy soliqlar stavkasini yoki ularning soliqqa tortish bazasini belgilash huquqini o'zida saqlab qoladi. Hududiy hokimiyat organlari ixtiyorida qoldiriladigan soliqlar «mayda» bo'lib (mol-mulk solig'idan tashqari), ular mahalliy hokimiyat organlari daromadlarining juda kam (Vengriyada 6%, Estoniyada 9%, O'zbekistonda 15%) qismini tashkil etadi.

### **11.3. Mol - mulk solig'ining mahalliy byudjetdagi roli**

Mol - mulk solig'i soliq sohasidagi islohotlar natijasida mahalliy hokimiyat organlari uchun mo'ljallangan yagona salmoqli soliq turi bo'lib qolmoqda. Ayni paytda, mazkur soliq turining imkoniyatlaridan to'la foydalanish uchun hali ko'p ish qilinishi zarur. Uy-joy fondining kattagina qismi hamon davlat yoki kommunal mulki bo'lib qolmoqda. Haqiqiy baho belgilash imkoniyatini beruvchi uy-joy bozori esa endiga shakllanmoqda. Bundan tashqari, uy-joylarning haqiqiy narxini aniqlash uchun avvalo ularni qayta baholash lozim. Hozirgi paytda Texnik

inventarizatsiya byurolari (BTI) hujjatlarida qayd etilayotgan narxlar ob'ektning inflyatsiya sharoitidagi haqiqiy bahosini ko'rsatmayotir. SHuning uchun ham mazkur soliq turi bo'yicha tushumlar 1999 yilda O'zbekistonda davlat byudjeti yalpi daromadlarining taxminan 3%ini tashkil etdi, xolos.

Mahalliy hokimiyatlarning o'z soliq daromadlariga qo'shma soliqlar daromdlari ham qo'shiladi. Soliq daromadlarining taqsimoti chog'ida hududiy organlar ulushlarining doimiy belgilanishi ularning daromad olishga bo'lgan ishonchini oshiradi. Lekin ko'p hollarda daromadlar ulushi muntazam bo'lmay, yildan yilga o'zgarib turadi. Bu esa hududiy organlarni hukumat oldida mute qilib qo'yadi.

Hududiy organlarning o'z daromdlari va davlat yalpi daromadlaridagi ulushi ularning xarajatlarini to'la qoplamaydi. Natijada, paydo bo'lgan kamomadni qisqartirish uchun markaziy hukumat tomonidan transfertlar olish zarurati tug'iladi. Mamlakatdagi mavjud transfert tizimi orqali hukumat hududiy organlar uchun davlat xizmatlari standartlarini belgilaydi va ularning byudjet ta'minotini tenglashtirishga harakat qiladi. Lekin amalda, soliq daromdlari va transfertlarning umumiy summasi har doim ham byudjet xarajatlarini qoplash uchun etmaydi.

Jumladan, 1999 yilda byudjet ta'minoti bo'yicha aholi jon boshiga nisbatan ko'rsatkichlarning hududlar o'rtasidagi tafovutlari 3 martani tashkil etgan.

#### **11.4. Byudjetlararo munosabatlar**

Uzoq yillar davomida shakllangan byudjet tizimi va uning mexanizmi mahalliy hokimiyat organlarini o'z-o'zini mablag' bilan ta'minlash yo'llarini qidirib topishdan ko'ra, qanday bo'lmasin, davlat daromdlari va soliqlaridan mahalliy byudjet uchun normativ ajratmalarini oshirishga harakat qilishlarini rag'batlantirib keldi. CHunki "boshqariladigan" daromadlarning ajratma foizlari uzoq muddatli bo'lmay, balki har yili qaytadan tasdiqlanadi. Buning ustiga "biriktirilgan" daromadlar rejalashtirilayotgan yil uchun kamaytirilishi mumkin. SHu bilan birga, yilning boshida qolgan byudjet mablag'larining erkin qoldiqlaridan joriy yilning xarajatlarini qoplashga ishlatilganidan qolgan qismi yilning oxirida yuqori byudjetlar tomonidan olib qo'yiladi.

Mamlakatimizdagi mavjud xususiyatlar va jahon tajribalaridan mushtarak foydalangan holda, bozor iqtisodiyoti sharoitda mahalliy byudjetni shakllantirishning yangicha tamoyillari ishlab chiqilishi lozim. Bu tamoyillar quyi boshqaruv organlarining eng zarur xarajatlarini qoplash kafolatini beradigan emas, balki muayyan daromadlar keltiradigan byudjetni tashkil etishga asoslanishi kerak. Tajriba shuni ko'rsatadiki, turli darajadagi byudjetlar o'rtasida daromad manbalarining qonuniy taqsimlanishi quyi byudjetlar manfaatdorligini oshiradi.

O'zbekistonda jismoniy va huquqiy shaxslardan olinadigan soliqlar bo'yicha asosiy hujjat - Soliq kodeksi bo'lib hisoblanadi. Mazkur hujjat 1998 yil 1 yanvardan boshlab kuchga kiritilgan.

Mahalliy byudjetni shakllantiruvchi birlashtirilgan daromadlar er va mol-mulk soliqlari respublika qonun hujjatlari bilan joriy etiladi va mamlakatning barcha hududlarida undiriladi. Boshqa mahalliy soliqlar va yig'implar esa qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar xamda Toshkent shahar davlat hokimiyatlari tomonidan joriy etiladi. Mahalliy soliqlar va yig'implar stavkalarining eng yuqori miqdorlari (Soliq kodeksi bo'yicha 4% qilib belgilangan mol-mulk solig'idan tashqari) Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Soliq kodeksida barcha soliqlar turlari sistemalashtirilib, ulardan har birining harakat qilish shartlari aniqlangan. To'g'ri soliqlarda soliq to'lashning bir qancha rejimlari ko'zda tutiladi:

- asosiy xo'jalik sub'ektlari foyda solig'ini to'laydilar;
- kichik korxonalar uchun soliq to'lash shartlari soddalashtirilgan bo'lib, ular uchun yagona soliq joriy etilgan;
- savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari yalpi daromad solig'i to'laydilar;
- banklar, sug'urta tashkilotlari, video salonlarga - daromad solig'i to'laydilar.

Keyingi yillarda mintaqalar mahalliy byudjetlarining respublika birlashtirilgan byudjetidagi ulushi ortib bormoqda. Bu ko'rsatkich daromadlar bo'yicha 71,4%ni, xarajatlar bo'yicha esa 67,2%ni tashkil etdi.

YUqorida ta'kidlanganidek, hududlardan yig'iladigan «boshqariladigan» soliq daromadlarining muayyan qismi mahalliy byudjetlarda qoldiriladi. Lekin, mazkur ko'rsatkich turli hududlarda bir-biridan juda katta tafovut qiladi. Bunda asosiy mezon ularning ijtimoiy-

iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlariga qarab belgilanishidir. Jumladan, iqtisodiy salohiyati past bo'lgan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Surxondaryo viloyatida bunday daromadlarning barchasi mahalliy byudjetlarda qoldirilsa, rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan Toshkent shahrida qo'shilgan qiymat solig'ining 21,1%i, aksizlarning 70%i, huquqiy shaxslar daromad (foyda) solig'ining 40%i, jismoniy shaxslar daromad solig'ining 50%i qoldiriladi, xolos. Farg'ona va Toshkent viloyatlarida ham mazkur ko'rsatkichlar kam (jadvalga qarang).miqdorni tashkil etadi. Keyingi yillarda ayrim mintaqalarga ajratiladigan subvensiyalar miqdori ortdi. qoraqalpog'iston Respublikasi byudjeti daromadlari tarkibida subvensiyaning ulushi 35,9%ni, Jizzax viloyatida 29,6%ni, Samarqand viloyatida 23,6%ni, Namangan viloyatida 17,3%ni tashkil etdi.

1 kishiga to'g'ri keladigan byudjet ta'minoti bo'yicha mintaqalararo tafovutlar mamlakatimiz turli hududlari aholisining medisina xizmati, xalq ta'limi, uy-joy va kommunal xo'jaligi qulayliklaridan bir xilda bahramand bo'lmayotganligini ko'rsatadi. 2002 yilda bunday tafovutlar mahalliy byudjetlar xarajatlarini bo'yicha salkam 3 martani tashkil etdi.

Mahalliy byudjetlarning xarajatlarida xo'jalik sub'ektlarini rivojlantirish uchun vositalar ajratish ko'zda tutilmaydi. Bu esa, yangi korxonalar tashkil etish, aholini ish bilan ta'minlash, iste'mol va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish va shular orqali mahalliy byudjetni yanada to'ldirish imkoniyatlaridan to'la foydalanmaslikka, bu ishlarga boshqaruv organlarining befarq munosabatda bo'lishiga olib keladi.

### ***Qisqacha xulosalar***

Hududiy moliya davlat moliya tizimining muhim tarkibiy qismi bo'lib, u turli darajadagi (viloyat, tuman, shahar) mahalliy byudjetlar, nobyudjet fondlari, mintaqa ehtiyojini qondirish uchun sarflanadigan xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy vositalaridan iborat.

Mahalliy byudjet - mahalliy boshqaruv organlari asosiy moliyaviy manbasidir.

Mol-mulk solig'i - mahalliy hokimiyat organlari uchun mo'ljallangan eng salmoqli soliq turi bo'lib hisoblanadi.

### ***Nazorat va muhokama uchun savollar***

1. Qaysi sohalarni moliyalashtirishning katta qismi mahalliy byudjet tomonidan amalga oshiriladi?

2. Mahalliy byudjetni shakllantirish manbalari qanday?
3. Hozirgi paytda byudjetlararo munosabatlarda qanday muammolar mavjud?
4. Mahalliy byudjetning daromadlari nimalardan tashkil topadi?
5. Mahalliy byudjetning xarajatlari tarkibi qanday?
6. Xorijiy davlatlar mahalliy byudjetining daromadlari va xarakatlari qanday?
7. Mol-mulk solig'i nima?
8. Soliq kodeksi nima?
9. Mintaqalar mahalliy byudjetining, respublika byudjetidagi ulushi qancha?
10. Mintaqalarga ajratiladigan subvensiyalar miqdori qancha?

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. N.I Larina., A.A Kiseľnikov . Regional'naya politika v stranax ro'nochnoy ekonomiki. Moskva, Ekonomika, 1998
2. G.L SHERbakova. Mahalliy moliya menejmenti. Toshkent, 2004
3. R.X Alimov, S.A g'anixo'jaev. va boshk. Mahalliy iqtisodiyot va menejment.-T.: TDIU, 2004, - 265 b.
4. M.R Raximova. S.Zokirov. Mintakaviy iqtisodiyot. \_Ma'ruza-matni. T. 2005y.

## **12-BOB. MINTAQALARNING TASHQI IQTISODIY ALOQALARI VA EKSPORTNI KO'PAYTIRISH YO'LLARI**

### **12.1. Jahon hamjamiyati bilan hamkorlik**

O'zbekiston mustaqil rivojlanish yo'liga tushganidan buyon o'tgan tarixan qisqa davr mobaynida uni suveren davlat sifatida qaror toptirish yuzasidan ulkan ishlar amalga oshirildi. Hozir O'zbekiston 165 davlat tomonidan tan olingan, 120 dan ortiq mamlakat bilan rasmiy diplomatiya munosabatlari o'rnatgan. Toshkentda 35 mamlakat o'z elchixonasini ochgan.

Bugungi kunda O'zbekiston to'la huquqli asosda eng obro'li va nufuzli tashkilotlar tarkibiga kirgan bo'lib, barcha qit'alardagi o'nlab mamlakatlar bilan do'stona aloqalarni rivojlantirmoqda, eng yirik bank va moliya organlari, nodavlat va nohukumat tashkilotlari bilan yaqindan hamkorlik qilmoqda. Respublikada 88 ta chet davlat vakolatxonalari ruxatdan o'tgan, hukumatlararo 24 ta tashkilot va 13 ta nohukumat tashkiloti ishlab turibdi. O'tgan yillar mobaynida respublika ko'plab juda muhim xalqaro konvensiyalarga qo'shildi.

O'zbekiston o'z mustaqilligining dastlabki yillaridayoq tashqi siyosiy va iqtisodiy aloqalarni shakllantirish yuzasidan ishlab chiqilgan quyidagi asosiy tamoyillarga amal qilmoqda:

- o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olgan holda davlat milliy manfaatlarining ustunligiga erishish;
- teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- mafkuraviy qarashlardan qat'i nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;
- halqaro huquq normalarining davlat ichki normalaridan ustuvorligi;
- tashqi aloqalarni ham ikki, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish.

Tashqi aloqalarni xalqaro munosabatlarning turli yo'nalishlari bo'yicha muvaffaqiyatli rivojlantirish xavfsizlik va barqarorlik kafolati



hisoblanadi. Hozir dunyo O'zbekistonga juda katta qiziqish bilan qarayotganligini his etmoqdamiz. Bu esa respublikamizning barqaror rivojlanishi uchun eng yaxshi kafolat bo'lib, kapital sarflash, dunyo miqyosida mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash nuqtai nazaridan tobora e'tiborni tortayotganligida ham yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Jahon hamjamiyati bilan keng ko'lamda integrasiyalashgan zamonaviy demokratik davlatni qurishdan iborat strategik vazifani hal qilar ekanmiz, bugungi kunda ushbu hamjamiyat faoliyatining o'zi serqirra bo'lib borayotganligini juda yaxshi tushunamiz.

XX asr oxiri XXI asr boshlarida dunyo jo'g'rofiyasi, siyosatida ulkan o'zgarishlar ruy bermoqda. Ular nafaqat mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, vujudga kelgan qarashlar va ularning mexanizmlarini chuqur uylab ko'rishni, balki ko'p jihatdan qayta baholashni ham talab qiladi. «Sovuq urush» davrida xalqaro munosabatlarga asos bo'lgan ko'p omillar, tamoyil va g'oyalarni tubdan qayta ko'rib chiqish talab qilinmoqda.

Butun dunyo yaxlit va bir-biriga bog'liq tizim bo'lib bormoqda. Unda o'zi-o'zidan qanoatlanishga va mahdudlikka o'rin yo'q. Bu hol hozirgi xalqaro munosabatlarni shakllantirishda, xalqaro tuzilmalar bilan o'zaro aloqalar va faoliyatda ishtirok etganda mutlaqo yangicha yondashuvlarni talab qilmoqda.

XXI asr, shubhasiz, xalqaro munosabatlarda butun dunyo qamrab olinadigan asrdir. Bunday sharoitda integrasiya jarayonini, xalqaro institutlar va tashkilotlarda suveren davlatlarning ishtirok etishini kengaytirish jarayonini faqat tarix taqozosi emas, balqi ayrim mintaqalar hamda sayyoramiz qo'lamida ham sobitqadamlik va barqarorlikning qudratli omili deb hisoblamoq zarur. Bu holda masala xalqaro integrasiya jarayonlarida qatnashish yoqi qatnashmaslik tarzida qo'yilmaydi. Mustaqil O'zbekiston uchun, eng avvalo, tashqi siyosatning oqilona hamda jamiyat va inson manfaatlariga asoslanadigan eng muhim tamoyillariga qat'iy rioya etish ulkan ahamiyat kasb etmoqda.

Mustaqillik o'z erkinligimizni anglashgina emas, balki o'z hayotimizni o'z irodamiz bilan milliy manfaatlarimizni ko'zlagan holda tashkil etish, o'z kelajagimiz uchun mustahkam zaminni o'z qo'limiz bilan qurish huquqidir. SHu bois o'z-o'zidan ayonki, agar integrasiya mamlakatimizning ozodligi, mustaqilligi va hududiy yaxlitligini cheklab qo'ysa yoki qandaydir mafkuraviy majburiyatlar bilan bog'lansa, u

holda chetdan olib kelinadigan har qanday integrasiya biz uchun nomaqbuldir.

Integrasiya haqida gapirar ekanmiz, manfaatlar birikuvining xilma-xil mexanizmlari va shakllari hamda integrasiya turlari mavjudligiga asoslanamiz. Bunga sherikchilik va hamkorlik qilishga intilayotgan mamlakatlarning boshlang'ich shart-sharoitlari turlichaligi sababdir. O'zbekiston bir vaqtning o'zida turli darajalarda dunyo miqyosi va mintaqa ko'lamida integrasiya jarayonlariga qatnasha-da, ammo bir muhim qoidaga: bir davlat bilan yaqinlashish hisobiga boshqasidan uzoqlashmaslikka amal qiladi. Bir sub'ekt bilan sherikchilikning mustahkamlanishi boshqalar bilan sherikchilik munosabatlarining zaiflashuviga olib kelishiga yo'l qo'ymasligimiz kerak. SHu sababli O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi integrasiyalashuvi serqirra jarayondir.

Biz iqtisodiy jihatdan rivojlangan, bozor tizimiga ega bo'lgan demokratik davlat qurish yo'llidan boryapmiz, hozirgi zamon tushunchalariga mos keladigan davlat orqali biz jaxon xamjamiyatiga kirib borayapmiz. Ayni chogda mamlakaъimiz xamjamiyati bilan xamkorligini yanada mustaxkamlangan taqdiridagina, ya'ni xalqaro mehnat taqsimotida munosib o'rnini topganda, mintaqa va butun dunyo xavfsizlik tizimlarini barpo etishda faol ishtirok etganda uni zamonaviylashtirish mumkin.

Xalqaro munosabatlarda O'zbekistonning turli sub'ektlari bilan aloqalari qanchalik chuqur va keng bo'lsa, o'zaro bilan munosabatlarda noaniqliklar, yotsirashlar, muammolar va hal qilinmagan masalalar, kutilmagan voqea-hodisalar shunchalik kam bo'ladi. Xuddi shu jixoz xavfsizlikka solinayotgan tahdidlarni bartaraf etish va barqaror rivojlanishni ta'minlashning zarur shartidir. Qolaversa, mamlakatlar va davlatlarning xavfsizlik darajasi ularning integrasiya jarayonlarida qatnashish darajasiga bevosita bog'liqdir. Mamlakat integrasiya aloqalari bilan qanchalik bog'langan bo'lsa, uning xavfsizligiga tahdid shunchalik kam bo'ladi.

O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi integrasiyalashuvi, BMT faoliyatidagi ishtiroki jahon hamjamiyatidagi integrasiyalashuvi haqida gapirganimizda, eng avvalo, biz ushbu jamiyat faoliyatida ishtirok etishimizni nazarda tutamiz. 2005 yil 2 martda O'zbekiston BMTga a'zo bo'lganligiga o'n to'rt yil to'ldi. Bunday obro'li xalqaro tashkilot ishidagi ishtirokimiz Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik,

tinchlik va totuvlikni ta'minlashning keskin muammolariga jahon jamoatchiligi e'tiborini qaratish imkoniyatidir.

Hozirgi paytda umumiy xavfsizlik muammosiga aloqador xalqaro tashkilotlar g'oyat xilma-xil bo'lishiga qaramay, faqat BMTgina xavfsizlikni saqlash va ta'minlashga xizmat qiladigan, nizolarning oldini olishga qaratilgan diplomatiyadan tortib to tinchlik o'rnatishga qaratilgan operatsiyalarda qatnashishgacha bo'lgan hamma vositalarga ega.

O'zbekistonning tashabbusi bilan BMT rahnomoligida 1995 yili Toshkentda Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik muammolariga bag'ishlangan xalqaro seminar muvaffaqiyatli o'tdi. Unda 20 ta xalqaro tashkilot va 30 dan ortiq mamlakat, shu jumladan, AQSH, GFR, Fransiya, Buyuk Britaniya, Rossiya, YAponiya, Xitoy, Hindiston, Eron va boshqa davlatlarning diplomati korpusi hamda hukumat vakillari ishtirok etishdi.

BMT bilan munosabatlarimiz xalqaro jamoatchilikdan yordam va madad olish istagimizdan ko'ra (garchi, bugungi kunda bu ham juda katta ahamiyatga ega bo'lsa-da), ko'proq BMT sa'y-harakatlari muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga, uning faoliyati yangi mazmun bilan boyishiga ko'maklashishga intilishga asoslanadi. Jahondagi jo'g'rofiy-siyosiy vaziyatning o'zgarishi yangi ming yillikda BMT tarkibiy tuzilishi va uning faoliyatini takomillashtirishni ham talab qilmoqda.

O'tgan asrning so'nggi o'n yilliklarida dunyoda bir qator davlatlar paydo bo'ldi. Bu davlatlar qudratl va jaxon siyosati ko'lamidagi ta'siri ortib borayotganligi tufayli bu davlatlar Xavfsizlik kengashining doimiy a'zolari bo'lishlari mumkin. Ayni vaqtda BMT tuzilmasigina emas, balki uning amaliy ish tartibi va harakatlarni amalga oshirish jarayoni ham buyuk davlatlar va doiralarning eskicha kurash ta'siridan hali qutula olgani yo'q. BMTning mintaqaviy mojarolarni tartibga solish, tinchlik o'rnatish yo'lidagi ishlari hamma vaqt ham muvaffaqiyatli bo'lmayotganligini qisman shu bilan izohlash mumkin.

SHuning uchun ham, O'zbekiston tabiatan jahonshumul va universal bo'lgan bu tashkilotning tarkibiy tuzilishi va faoliyatini takomillashtirishni bundan buyon ham faol yoqlab chiqaveradi.

SHu o'rinda BMTning integrasiya sohasidagi imkoniyatlari g'oyat ulkanligi va uning ixtisoslashtirilgan tashkilotlari bu imkoniyatlarning tashkil etuvchilari hisoblanishini alohida ta'kidlash lozim. O'zbekiston mazkur tashkilotlar bilan bugungi kunning o'zidayoq

samarali hamkorlikni rivojlantirmoqda. BMT doirasida jahon hamjamiyatidagi integrasiyalashuv bo'yicha uning ixtisoslashgan muassasalari – YUNESKO, Jahon sog'likni saqlash tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, YUNKDAT, YUNISEF va boshqalar bilan keng hamkorlik qilinmoqda.

O'zbekistondagi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va jahon hamjamiyatidagi integrasiyalashuvni ta'minlashga xalqaro moliyaviy, iqtisodiy tashkilotlar – Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Evropa tiklanish va tarraqqiyot banki xamda boshqalar ham katta yordam ko'rsatmoqda. Har yili Davos shahrida o'tadigan Jahon iqtisodiy anjumanida Mamlakatimizning ham qatnashishi katta ahamiyatga ega. Anjumanda qatnashish O'zbekistondagi mavjud imkoniyatlar bilan tanishtirish, chet el investisiyalarini jalb etish bilan xam ahamiyatga molikdir.

O'zbekistonning mintaqaviy xalqaro tashkilotlar bilan samarali hamkorligi rivojlanmoqda. Jahon hamjamiyatiga integrasiyalashuvning tarkibiy qismi davlatlarning turli mintaqaviy birlashmalari bilan aloqalarni rivojlantirishdan iborat. Bular orasida Evropa ittifoqi alohida o'rin tutadi. 1996 yilda Evropa ittifoqi bilan O'zbekiston o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishda bir qancha muhim ishlar amalga oshirildi. Fevral oyida Evropa ittifoqi kengashi sherikchilik va hamkorlik to'g'risida bitim tuzish yuzasidan O'zbekiston bilan Tashqi ishlar vazirligi darajasida muzokaralar boshlash haqida qaror qabul qildi, iyul oyida esa bitim imzolandi.

O'zbekiston tashqi iqtisodiyotining Evropa yo'nalishi ancha kengaydi. Ushbu yo'nalish Evropa qit'asidagi mamlakatlar bilan hamkorlik qilishni o'z ichiga oladi. Bu qit'aning o'ziga xos integrasiyasi muvaffaqiyatli amalga oshirilmogda.

Evropa Ittifoqi bilan sherikchilik va hamkorlik O'zbekistonning xavfsizligi va tarraqqiyotini ta'minlashga qo'shilgan yana bir hissadir. CHunki, bu sherikchilik iqtisodiy, madaniy, ilmiy sohalar bilan bir qatorda siyosiy sohani ham nazarda tutadi. Bu hujjat hamkorlik qilishning mutlaqo yangi bosqichini boshlab beradi. O'zbekiston, Evropa Ittifoqi va unga a'zo mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning huquqiy negizini vujudga keltiradi, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, madaniy aloqalar uchun keng imkoniyatlar ochadi, muntazam siyosiy muloqot uchun institusional asos yaratadi.

Imzolangan bitim ikkala tomon ham faol sherikchilik qilishi uchun asos yaratishga intilayotganidan dalolat beribgina qolmasdan, O'zbekistonda demokratik jamiyat muvaffaqiyatli qurilayotganini, inson huquqlarini hurmat qilish, fuqarolarning erkinliklari va huquqiy davlat singari umumiy qadriyatlarini qaror topayotganini ham tasdiqlaydi.

Evropa Xavfsizlik va xamkorlik tashkiloti (EXXT) bilan samarali xamkorlik qilayotganligimiz EXXT bilan birgalikda amalga oshirilayotgan tadbirlarda va bu tashkilot raxbarlarining O'zbekistonga tashrifi ko'zga tashlanmoqda.

1996 yil dekabrda Lissabon Sammitida ishtirok etganimiz O'zbekistonning EXHT bilan munosabatlarini rivojlantirishda muhim voqea bo'ldi. Mazkur anjuman doirasida O'zbekiston xavfsizlik muammosiga doir o'z qarashlarini bayon etish huquqiga va imkoniyatiga ega bo'ldi.

EXHTning Markaziy Osiyodagi faoliyatini kuchaytirishga oid takliflar ishtirokchilar tomonidan tushunib qabul qilindi va u Lissabon deklarasiyasida hujjatlashtirildi. SHu bilan birga so'nggi paytlarda Toshkentda O'zbekiston tashabbusi bilan EXHTning bir qator yirik anjumanlari o'tkazildi. EXHT Demokratik institutlar va inson huquqlari bo'yicha Byurosi (DIIXB)ning «Inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar» mavzusidagi xalqaro seminar-kengashi Markaziy Osiyo, Evropa, Amerikadagi 21 mamlakat ekspertlari, shuningdek, 29 ta xalqaro va nohukumat tashkilotlari vakillari ishtirokida keng muloqot o'tkazish imkoniyatini berdi. Ular Markaziy va SHarqiy Evropada Ombudsman instituti, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar faoliyatini rivojlantirish, qonunchilik tizimlarini takomillashtirish hamda xalq ta'limi va ommaviy axborot vositalarining inson huquqlari sohasidagi roli masalalarini ko'rib chiqdilar.

EXHTning DIIXB tashabbusi bilan «Ommaviy axborot vositalari demokratlashtirish sharoitida» mavzuida seminar o'tkazildi. EXHT kelishtiruv va hakamlik sudi tomonidan tashkil etilgan EXHT xalqaro seminari ham bo'lib o'tdi. Bularning barchasi tinchlik o'rnatuvchi va huquqni himoya qiluvchi ushbu nufuzli tashkilot bilan yaqin va samarali munosabat yo'lga qo'yilganidan dalolat beradi.

Hozirda mamlakatimiz bilan NATOdek xalqaro tashkilot o'rtasida xam o'zaro tushunish va hamkorlik mavjud deb aytish mumkin.

Bizningcha, o'z tarkibiga demokratik davlatlarni birlashtirib turgan NATO faqat Evropa qit'asidagina emas, balki o'zining siyosiy ustqurmasini mustahkamlash va «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturi hisobiga Evroosiyo mintaqasida xam tinchlik o'rnatuvchi omil bo'lishi mumkin. O'zbekiston «Tinchlik yo'lida hamkorlik» dasturiga 1995 yil iyul oyida qo'shilgan. Bu dasturdagi ishtirokimizga mustaqilligimiz va suverenitetimizni mustahkamlash, hozirgi zamon harbiy-texnikaviy yutuqlaridan bahramand bo'lish, harbiy kadrlar tayyorlashda imkoniyatlarimizni kengaytirish nuqtai nazaridan qaraymiz.

NATO Bosh kotibi X. Solana va AQSHning NATOdagi doimiy vakili R. Xanternig O'zbekistonga tashriflari butun dunyo miqyosidagi va mintaqadagi xavfsizlik muammolari borasidagi qarashlarimiz mos kelishini yana bir bor tasdiqladi. Muzokaralar davomida mintaqada tinchlikni saqlashga, Afg'onistondagi mojaroni siyosiy choralar bilan bartaraf etishga, Markaziy Osiyo mintaqasini yadrosiz hudud deb e'lon qilishga qaratilgan tashabbuslarimizga to'la tushunish bilan qaralayotganligi va ular qo'llab-quvvatlanayotganligining shohidi bo'ldik. O'zbekistonning imkoniyatlari mintaqadagi barqarorlashtiruvchi omil sifatida baholanmoqda.

O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorlik qilishida Evropa imkoniyatlari milliy manfaatlarimiz nuqtai nazaridan hayotiy zaruratdir. Evropa va butun g'arb yuksak texnologiyalar va investisiyalar manbai, hozirgi zamon demokratiyasi va inson huquqlarining ramzidir. Bularning barchasi xavfsizligi ta'minlangan va barqaror rivojlanayotgan, yuksak darajada taraqqiy etgan va zamonaviy demokratik davlat bo'lish maqsadida yangilanish va tarraqqiyotni strategik vazifa qilib olgan yosh O'zbekiston davlati uchun nihoyatda muhimdir.

Biz bunda xavfsizlik va tarraqqiyot bir-birini taqozo etishi tamoyiliga amal qilamiz. Bu esa, bir tomondan, iqtisodiyotga investisiyalar olib kelish uchun barqaror xavfsiz muhit yaratishni, ikkinchi tomondan, hayotning hamma sohalarida keng ko'lamda islohotlarni amalga oshiradigan mamlakatgina bunday xavfsiz muhitni ta'minlashga qodir bo'lishini nazarda tutadi.

Jamiyatimizning demokratik o'zgarishlarini chuqurlashtirish yo'lida sobitqadamlik bilan rivojlanib borishiga boshqa xalqaro tashkilotlar bilan va eng avvalo, Osiyo mintaqasidagi tashkilotlar bilan yaqindan hamkorlik qilish ham yordam beradi. Hozirda Osiyo davlatlari bilan hamkorlikda «Buyuk ipak yo'lini tiklash: ma'rifiy turizmni

rivojlantirish, turkiy tilli davlatlarning madaniy merosini qayta tiklash, asrash va barqaror rivojlantirish» dasturini birgalikda ishlab chiqish nazarda tutilmoqda. Bu dasturning maqsadi sayohat yo'nalishlari tarmog'ini va sayyohlikning tegishli infratuzilmasini kengaytirishdan iborat.

YUqorida aytib o'tilganidek, O'zbekiston o'zining tashqi aloqalarini ham ko'p tomonlama, ham ikki tomonlama asosda tashkil etish tarafdoridir. Ikki tomonlama aloqalarni kengaytirish har qaysi tomonning manfaatlarini yanada aniqroq hisobga olish, bir-birimizni yaqindan tanish, uzoq muddatli o'zaro manfaatli hamkorlikka mustahkam zamin hozirlash, shu tariqa barqarorlik va xavfsizlik uchun mustahkam negiz yaratish imkonini beradi. O'zbekiston er yuzining turli chekkalarida ishonchli va manfaatdor sheriklarga ega ekanligi ma'lum. Ularning doirasi muntazam kengayib bormoqda.

AQSH bilan ikki tomonlama munosabatlarimiz davlatlararo aloqalarning g'oyat muhim yo'nalishlari bo'yicha izchil va sobiitqadamlilik bilan rivojlanib bormoqda.

Juda katta siyosiy, iqtisodiy, harbiy-texnikaviy, intellektual salohiyatga ega bo'lgan AQSH bilan ko'p tomonlama munosabatlarni rivojlantirish va chuqurlashtirish hozir biz uchun ustuvorlik kasb etmoqda. Qo'shma SHtatlar jamiyatimizni yangilash, isloh qilish va demokratlashtirish, respublikamizning davlat mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash jarayoniga salmoqli hissa kushmoqda. Biz Amerika kompaniyalari va firmalari bilan qo'shma investisiya loyihalarini amalga oshirishga, ular bilan uzoq muddatli, o'zaro foydali sherikchilik munosabatlarini o'rnatishga, Amerika kapitalining bozorlarimizdagi ishtiroki kengayishiga katta ahamiyat beramiz.

So'nggi yillarda Evropadagi ko'pgina mamlakatlar – Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya, Belgiya, Portugaliya, Gresiya, CHexiya, Slovakiya, Ruminiya va boshqa mamlakatlar bilan bevosita, ikkita tomonlama munosabatlarimiz ancha kengaydi va mustahkamlandi.

SHarqiy va Janubi-SHarqiy Osiyo mamlakatlari – YAponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Vetnam, Malayziya, Hindiston, Indoneziya va boshqa mamlakatlar bilan aloqalarimiz mustahkamlanib borayotganligini alohida ta'kidlab o'tish mumkin. Keyingi vaqtlarda YAponiya mintaqamizning murakkab muammolarini, xavfsizlik va barqarorlikka, tinchlikka erishish, atrof-muhit muhofazasi masalalarini hal qilishda faol va manfaatdorlik bilan ishtirok etmoqda.

O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan mustaqil iqtisodiy integrasiyalashuvi ham mustixkamlanib bormoqda. Bu yillarda MDH mamlakatlari ikki va ko'p tomonlama shartnoma munosabatlari doirasida teng huquqli sherikchilik asosida o'zaro hamkorlik qilishlari uchun keng imkoniyatlar mavjudligi tasdiqlandi. Bunday hamkorlikka Hamdo'stlik mamlakatlarining xududiy yaqinligi va iqtisodiy jihatdan bog'langanigina emas, balki, tarixiy ildizlar, madaniy va ma'rifiy aloqalar, katta tarixiy davr mobaynidagi xalqlarimizning taqdiri mushtarakligi ham asos bo'lmoqda.

Mamlakatlarimiz, xalqlarimizning yaqinlashuvi – tabiiy kechayotgan jarayon. Bu yaqinlik sobiq ittifoq hukumronligidan oldin ham bo'lgan. Bu xalq integrasiyasi bo'lib, sun'iy ravishda joriy etiladigan siyosiy integrasiyadan farqli o'laroq, haqiqiy integrasiyadir. Masalaga bunday yondashishning «MDH mamlakatlarining chuqur integrasiyasi» deb atalgan ba'zi siyosiy g'oyalarga hech bir aloqasi yo'q.

To'rtlar shartnomasi (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Belarus) va ikkilar shartnomasi (Rossiya va Belarus) imzolanganidan beri ancha vaqt o'tdi. Avvalo shuni ta'kidlash kerakki, bu shartnomalarni imzolash va ularni amalga oshirish davlatlarning ichki ishi. Har bir davlat birinchi galda o'z manfaatlarini nazarda tutib, o'z taqdirini va istiqbolini o'zi hal qiladi, har qanday hujjatlarni hamda davlatlararo shartnomalarni qabul qilish va imzolash huquqiga ega bo'ladi.

Agar biron-bir davlatlararo uyushma tashkil etilgudek bo'lsa, nima uchundir, albatta, uning tegishli hokimiyat va boshqaruv organlari ham bo'lishi kerak, deb hisoblashadi. Agar MDH davlat boshliqlari, hukumat boshliqlari va boshqa tuzilmalarning oxirgi majlislari kun tartibi kuzatiladigan bo'lsa, yagona yo'nalish – iqtisodiy va gumanitar integrasiyaning pishib etilgan muammolari, davlatlar va xalqlar o'rtasidagi aloqalarni yaxshilash masalalari o'rniga, nuqul harbiy-siyosiy masalalar, birlashgan qumondonlikni tuzish, chegaralarni birgalikda qo'riqlash va shu kabilar qo'yilayotganligi tasodifiy emas.

Biroq shuni yaqqol anglab olish kerakki, tashkil etilayotgan ittifoqlarda davlatlardan yuqori turadigan tuzilmalar barpo etilsa va shartnoma qatnashchisi bo'lgan har bir alohida mamlakatning tegishli qonuniy organlari bir yoqda qolib, bevosita amal qiladigan, ya'ni barcha organlar va tashkilotlar bajarishi shart bo'lgan qarorlarni mazkur



tuzilmalarning o'zi qabul qilish huquqiga ega bo'lsa, u holda mazkur davlatlarni suveren va mustaqil deb hisoblash qiyin bo'ladi.

O'zbekiston va MDH halqari o'rtasidagi do'stona aloqalar vaqt sinovidan o'tgan va mustahkamlangan. Istiqloq yillari MDH davlatlari rahbarlarining hamfikirligi va siyosiy qat'iyati tufayli mamlakatlarimiz o'rtasida barcha sohada hamkorlikni rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratdi. Biroq, savdo-iqtisodiy hamkorlik yaxshi samara berayotganligiga qaramay, tan olish joizki, hamkorlik qamrovi MDHning hamma davlatlari bilan hozircha salohiyat va imkoniyatlar darajasida emas.

Masalan, O'zbekiston bilan Ukraina o'zaro munosabatlarini muttasil rivojlantirib kelinmoqda. Ukraina MDH mamlakatlari orasida O'zbekistonning eng yirik savdo sheriklaridan biriga aylangan. Mamlakatlarimiz o'rtasidagi savdo-iqtisodiy munosabatlarning huquqiy asosini qirqqa yaqin xujjat, jumladan, «Erkin savdo to'g'risida», «Sarmoyalarni o'zaro himoya qilish va qo'llab-quvvatlash to'g'risida», «Ishlab chiqarish koooperasiyasi to'g'risida» kabi bitimlar tashkil qiladi.

Ikki tomonlama hamkorlikning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish maqsadida O'zbekiston va Ukraina o'rtasida iqtisodiy hamkorlikning asosiy yo'nalishlari to'g'risida bitim imzolangan. Ikki tomonlama munosabatlar muntazam faoliyat ko'rsatib kelayotgan ko'p tomonlama hamkorlik bo'yicha O'zbekiston – Ukraina komissiyasi tomonidan muvofiqlashtirib kelinmoqda.

O'zaro hisob-kitoblar mexanizmi yaratildi, vakolatli banklar o'rtasida o'zaro hisob-kitob va to'lovlar borasida aloqa o'rnatildi. Ayni paytda O'zbekiston bilan Ukraina o'rtasidagi erkin savdo tartibi joriy etilgan. Mamlakatlararo savdo 2003 yilda 244 million AQSH dollarini tashkil etdi va bu avvalgi yildagiga nisbatan 2,3 barobar o'sdi.

SHuni ta'kidlash kerakki, 1993 – 2003 yillar davomida Ukrainaning Ilichevsk bandargohi orqali xorijga 325 ming tonna O'zbekiston paxta tolasi o'tqazildi.

Mamlakatimizda Ukraina ishbilarmonlari bilan hamkorlikda tuzilgan 40 qo'shma korxonalar faoliyat yuritmoqda. SHuningdek, Ukrainada O'zbekiston sarmoyasi ishtirokida tuzilgan 22 qo'shma korxonalar ishlab turibdi.

Hamkorlikni taraqqiy ettirishning ustuvor yo'nalishlariga oid masalalar – ilmiy-texnikaviy, savdo-iqtisodiy, banklararo hamkorlik, transport, harbiy-texnikaviy aloqalar rivojlanadi. Ayni paytda

avtomobil yo'llarini qurish bo'yicha ikki tomonlama konsorsium tuzish lozim. Bu transport yo'lagini barpo etishda hamkorlik qilish uchun keng yo'l ochadi.

MDH doirasidagi munosabatlarda erkin savdo zonasi barpo etish, a'zo mamlakatlar o'rtasida savdo-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish masalalari yanada dolzarblashmoqda. Hamdo'stlik doirasida tashkil etilgan tuzilmalar faoliyatining samaradorligini oshirish hamda tinchlik va barqarorlikka tahdid soluvchi omillarga qarshi hamkorlikda kurashishni kuchaytirishga oid masalalar ham shular sirasiga kiradi.

Markaziy Osiyodagi integrasiya hududiy birlik, kommunikasiyalar, iqtisodiyotning asosiy va etakchi tarmoqlari mushtarakligi, suv xo'jaligi va energetika ob'ektlarini birga ishlatish, energiya zahiralari bilan ta'minlash ehtiyoji taqozo etgan ob'ektiv zaruriyatdir. Bir-biriga chirmashib ketgan umumiy teran tomirlarga ega bo'lgan xalqlarning madaniy, til va ma'naviy birligi esa ularni yanada yaqinlashtiruvchi omillardandir.

Bu mintaqa muayyan bir shaklda hamma vaqt integrasiya bo'lib kelgan. Markaziy Osiyo xalqlari mustaqillikka erishganlaridan keyin birgalikda kuch-g'ayrat sarflab, o'z kelajaklarini qurishlari zarurligini qayta his etdilar. Toshkentda Qozog'iston, Qirg'iziston va O'zbekiston prezidentlari tomonidan Markaziy Osiyo mintaqasining yagona iqtisodiy makonini tashkil etish haqidagi SHartnomaning imzolanishi shu yo'ldagi amaliy qadam bo'ldi.

Markaziy Osiyo respublikalarining integrasiyalashuvi uchun haqiqatdan ham bir qator shart-sharoit va sabablar mavjud. Bular jumlasiga iqtisodiy rivojlanishning boshlang'ich darajasi baravarligi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning bir xilligi, yagona transport-energetika kommunikasiyalari, suv zahiralari ham kiradi. Bundan tashqari ushbu mintaqada yashayotgan barcha xalqlarning xavfsizligiga bir xil tahdidlar ham mavjud. Bular Orolning qurib borayotganligi, narkotik moddalar, qurol-yarog', terrorizm, diniy fundamentalizmning kirib kelishi, Afg'onistondagi notinchlik hamda bir qator boshqa omillardir. Bu tahdidlar, garchi, tarqoq tuyulsa-da, aslida o'zaro bog'liq omillardir. Chunki ularning birontasini ham alohida, o'z kuchiga ishongan holda engib bo'lmaydi.

Ayni shu holatlar Markaziy Osiyo mintaqasining gullab-yashnashi to'g'risida qayg'uradigan barcha siyosatchilar uchun amaliy qo'llanma bo'lib qolishi darkor.

Markaziy Osiyo Hamdo'stligining kelajagiga ishonch bilan qarash uchun hamma asoslar mavjud. Zarur huquqiy va tashkiliy shart-sharoitlar yaratilgan, davlatlararo kengash tuzilgan, Hamdo'stlik dasturlarini ruyobga chiqarish bo'yicha ijroiya qo'mita, Markaziy Osiyo hamkorlik va tarraqqiyot banki tashkil etilgan. Qatnashuvchi davlatlar iqtisodiy integrasiyasining 2010 yilgacha mo'ljallangan, 53 ta muayyan loyihani o'z ichiga oladigan dasturi ishlab chiqildi, yagona iqtisodiy makonni vujudga keltirishga asos solinmoqda.

Biz o'zimizning tashqi mudofaa siyosatlarimizni uyg'unlashtirishga ham bevosita yaqinlashdik. Yagona iqtisodiy makon tashkil etish to'g'risidagi shartnomada qatnashuvchi mamlakatlar mudofaa vazirlari kengashining nizomi tasdiqlandi.

Markaziy Osiyo davlatlari Hamdo'stligining tashkil etilishi aslo ularning boshqa davlatlardan ajralib qolishini bildirmaydi. Biz uni MDH doirasidagi integrasiya jarayonlariga ham qarshi qo'ymaymiz.

Markaziy Osiyo davlatlari, garchi, ijtimoiy-siyosiy, etnik va madaniy jihatdan xilma-xil bo'lsa-da, birgalikda kuch-g'ayrat sarflab, xavfsizlikka tashqaridan tug'ilyotgan tahdidlarga qarshi turish, butun mintaqani barqaror rivojlantirish uchun qulay muhitni yaratadi, amalda bu mintaqani xavfsizlik va barqarorlik mintaqasi sifatida shakllantiradi. SHu tarika bu mintaqa davlatlari butun dunyo tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga munosib hissa qo'shadi.

Zamonni mojarolar va adovat emas, balki xalqlar o'rtasidagi hamkorlik va ishonch olg'a harakatlantiradi. Hozirgi dunyoda xavfsizlik va barqarorlik faqat harbiy-siyosiy jihatlarinigina nazarda tutib qolmaydi. Iqtisodiy, ekologik va madaniy jabhalar ham juda muhim bo'lib, xoh mintaqqa, xoh butun sayyoramiz bo'lsin – bizning tinch va gullab-yashnayotgan umumiy uyimiz ana shulardan tashkil topadi.

## **12.2. Paxta koomleksining eksport salohiyatini rivojlantirish**

Mustaqillikka erishilgan kunlardan boshlab O'zbekiston hukumati tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga ustuvor yo'nalish sifatida qarab kelmoqda. CHunki mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi,

globallasuvi hozirgi paytda birinchi navbatda xalqaro iqtisodiy hamjamiyatga integrasiyalashuvi darajasiga bog'liq.

O'zbekiston hukumati tashqi iqtisodiy aloqalarni aniq konsepsiya asosida amalga oshirib, bu sohadagi ustuvor yo'nalishlarni belgilash va barcha xorijiy davlatlar, iqtisodiy hamda moliyaviy tashkilotlari bilan ikki tomonlama manfaatdorlik siyosatini olib bormoqda. O'zbekiston mahsulotlarning xalqaro standartlari va sifat belgilarini tan oladi. Respublikada ichki mahsulotlarga shtrixlangan kodlar joriy etish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

Hukumat tomonidan eksport uchun ishlab chiqarilgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini ta'minlash borasida ishlar olib borilmoqda. Bu ishlar jumladan:

- eksport qiluvchi tovarlarga xalqaro registrarlarga mos keladigan sertifikatlarni ishlab chiqish va joriy etish dasturlari asosida bu mahsulotlarni xalqaro xom ashyo birjalarida majburiy sertifikatsiya qilish va ro'yxatdan o'tkazish;
- sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlarining sifatlarini xalqaro standartlarga mos keladigan sertifikatsiya tizimini rivojlantirish va bu ishga ayrim hollarda ixtisoslashgan chet el kompaniya va agentliklarini jalb etish orqali amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda tashqi iqtisodiy aloqalarni kengaytirish zarurati tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi sub'ektlarni faollashtirish va qo'llab - quvvatlash maqsadida institusional infratuzilmani yanada mustahkamlashni taqozo etmoqda. SHu maqsadda respublikamizda:

- eksport qiluvchilarni qo'llab-quvvatlash va tashqi savdo milliy markazini tuzish;
- milliy eksport qiluvchilarni qo'llab-quvvatlash, mahsulotlar, xizmatlar va ishlarni rag'batlantirish hamda moliyaviy himoyalash, uzoq va qisqa muddatli kreditlar berish uchun eksport-import bankini tuzish;
- savdo uylarining chet ellardagi tijorat tarmoqlari, hissadorlik jamiyatlari va qo'shma korxonalarini tuzish hamda ular tomonidan ilg'or savdo kompaniyalari, marketing va konsalting firmalarining tajribasini o'rganish rejalashtirilmoqda.

SHuningdek, O'rta Osiyo mintaqasidagi mamlakatlar integrasiyasini rivojlantirish ishlari ham davom ettirilmoqda. Bu mintaqa o'zining tabiiy va ish resurslari bilan chet el investorlari uchun istiqbolli bozor hisoblanadi. Bugungi kunda bu mintaqadagi milliy qonunlar, normativ hujjatlarni yaqinlashtirish, iqtisodiy integrasiyani chuqurlashtirishga qaratilgan shart-sharoitlar, mintaqaviy institutlar yaratish ishlari jadal olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi MDH bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantiradi va uning hududidagi mintaqalarni o'zbek mahsulotlari eksport qilinadigan asosiy bozorlardan biri deb qaraydi.

O'zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatida AQSH va Evropa bilan aloqalarni yanada rivojlantirishni ustuvor masala deb biladi. SHuningdek, biz Osiyo mintaqasida, birinchi navbatda, YAponiya va Koreya Respublikasi bilan munosabatlarni kengaytirish tarafdorimiz. Qo'shni Xitoy Xalq Respublikasi va Rossiya bilan an'anaviy aloqalarimiz yanada kengayib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi hukumati Jahon savdo tashkiloti (JST) ga a'zo bo'lishni ustuvor yo'nalishlardan biri deb hisoblaydi, chunki unga a'zo bo'lish respublikamizning xalqaro iqtisodiy hamjamiyatga integrasiyalashuvini yanada chuqurlashtiradi. 1998 yil sentyabr oyida O'zbekiston Respublikasi JST kotibiyatiga «Tashqi savdo haqidagi Memorandumni» taklif etdi va hozir bu hujjat uning ishtirokchilari tomonidan o'rganilmoqda.

SHuningdek, respublikamizda JST a'zolari bilan ikki tomonlama kelishuvlarni amalga oshirish hamda tashqi iqtisodiy faoliyatni bosqichma-bosqich erkinlashtirish, joriy qonunchilikni GATT, JST talablariga moslashtirish sohasida ham ishlar amalga oshirilmoqda.

CHet el ekspertlari tomonidan baholanishicha, O'zbekiston Respublikasi qazilma boyliklari trillion AQSH dollariga teng va ularni ishlash uchun kafolatlangan qaytim bor. O'zbekistonda chet el sarmoyalarini jalb etish, kichik, o'rta biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun keng imtiyozlar yaratilgan. Ayniqsa, chet el sarmoyasini jalb etishga qaratilgan muhit ularning egalari uchun imtiyoz va qulayliklar tizimi bilan ifodalanadi.

Eksportga mo'ljallangan ishlab chiqarishni rivojlantirish va mahsulotlarni tashqi bozorga chiqarish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- eksport mahsulotlarini tashqi bozorda sotish uchun keng savdo va xizmat ko'rsatish shoxobchalarini vujudga keltirish;
- maqsadli va chuqur marketing tadqiqotlarini, reklama ishlarini yo'lga quyish;
- chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va korxonalarni texnikaviy modernizatsiyalash uchun zarur bo'lgan moliyaviy mablag'lar ajratish;
- eksportni rag'batlantirish maqsadida moliyaviy konsorsiumlar tuzish;
- eksport mahsulotlarini sotishni jadallashtirish maqsadida dilerlik shoxobchalari va konsignasiya omborlarini tuzish;
- xalqaro valyuta kreditlari bozorida qaror topgan foiz stavkalariga asoslanib, eksportbop mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun lozim bo'lgan xom ashyo va butlovchi import mahsulotlarini xarid qilishga valyuta kreditlarini ajratish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

Eksport hajmini ko'paytirish, uning tarkibini kengaytirish va takomillashtirish uchun quyidagi choralarni ko'rish maqsadga muvofiqdir:

- sanoat korxonalarining eksport sohasiga qaratilgan faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;
- korxonalarining raqobatbardosh va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga o'tish borasidagi sa'y-harakatlarini rag'batlantirish;
- ilmtalab va bazaviy sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun bevosita xorijiy investisiyalarni jalb qilish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 11 iyundagi «Respublika paxta tozalash sanoati boshqaruvini takomillashtirish va monopoliyadan chiqarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi UP-2874-sonli Farmoniga binoan Vazirlar Mahkamasi 2001 yil 17 sentyabrda «Paxta tolasi eksportini markazlashtirish tartibini tashkil etish haqida Nizom» ishlab chikdi. Unga binoan Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi «O'zpaxtasanoat» uyushmasi va Tashqi iqtisodiy aloqalar investisiya va savdo vazirligi bilan birgalikda 2006 yil hosildan boshlab paxta tolasi ishlab chiqarish va tola eksporti balansini tuzadi va uning «O'zpaxtasanoat» va TIAI va SV birlashmalari va kompaniyalari bo'yicha taqsimotini hisoblaydi. Paxta tolasini eksport qilish, xaridorlar bilan bitimlar tuzish oldidan amalga oshiriladigan ishlarni tashkil etish

vazifasi TIAI va SV zimmasiga yuklatilgan. U, shuningdek, tashqi savdo kompaniyalari tomonidan bitimlar tuzilishini nazorat qiladi.

«O'z paxtasanoat» uyushmasi, Tashqi iqtisodiy aloqa, investisiyalar va savdo vazirliklari (TIA, ISV) bilan tasdiqlangan balanslarga binoan paxta tolasini har bir chorakda jo'natish grafigini Vazirlar Mahkamasiga tasdiqlash uchun takdim etadi va ular hissadorlik birlashmalari va tashqi savdo kompaniyalari tomonidan ijro etilishini nazorat qiladi.

CHet el xaridorlari bilan bitim tuzishdan oldingi ishlar va tuzish ishlari TIA, ISV ning tashqi kompaniyalariga yuklatiladi, tasdiqdangan paxta tolasini hajmidagi (markazlashgan va markazlashmagan) miqdor bo'yicha kontrakt tuzish ijrosi ustidan nazoratni TIA, ISV amalga oshiradi.

TIA, ISV «O'z paxtasanoati» uyushmasi bilan birgalikda paxta tolasini jo'natish yuzasidan uyushmaning hududiy bo'limlari bo'yicha jo'natish haqida choraklik grafiklarini tuzadi va tasdiqlash uchun Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi. TIAISV va «O'z paxtasanoat» uyushmasi paxta tolasini eksporti grafigining ijrosini doimiy nazorat qiladi.

Makroiqtisodiyot va statistika vazirligi «O'z paxtasanoat» va TIAISV bilan birgalikda har oyning 12 sanasida paxta tolasini balansi va sotish, jumladan, eksporti haqidagi axborotni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etadi.

Bugungi kunda O'zbekistonning paxta tolasini sotib oladigan yirik hamkorlari Arab Amirliklari, Germaniya, Rossiya, Janubiy Koreya, SHveysariya, Buyuk Britaniya, Turkiya, Qozog'iston va Niderlandiya, qisman savdo qiladigan mamlakatlar Ispaniya, Suriya, Portugaliya, Misr va Erondir.

Bundan tashqari o'zbek paxtasi Evropada etakchi o'rinni egallaydi va boshqa paxta navlari bilan muvaffaqiyatli raqobat qiladi. Paxta tolasining yirik iste'molchilari /arbiy va SHarqiy Evropa hamda Uzoq SHarq bozorlarida joylashgan.

An'anaviy Evropa bozorlaridan (Italiya, Germaniya va Fransiya) tashqari yangi bozorlar Osiyo mintaqasida ham ochildi. Jumladan, 250 ming tonna paxta tolasini Tayvan, Indoneziya, Tailand, Xitoy, Koreya, Yaponiya va Gonkongga eksport qilinmoqda. Keyingi yillarda Braziliya va Turkiya mamlakatlariga ham paxta eksport qilinmoqda. Jahon bozorida o'zbek paxtasi «O'rta osiyo tolasini» deb klassifikatsiya qilinadi, uning uzunligi 1-3/32 . Bu esa quyidagicha o'qiladi: o'rtacha tola uzunligi (tola) birinchi klass, «o'rta» sifatli.

Tolamiz narxi «A» indeksiga tegishli parametrlarning kundalik kvotasiga qarab belgilanadi va «Kotton Autluk» kompaniyasi tomonidan nashr qilinadi. Kvotalar bir funtga to'lanadigan AQSH sentlarida ifodalanadi.

12.1-jadval

**O'zbekistonning Jahon bozoriga chiqish bo'yicha muqobil yo'lak(koridor)lari**

<i>Yo'nalish porti</i>	Transport turi	Tranzit mamlakatlar	Bozorlar
Riga porti Latviya	Temir yo'l	Qozog'iston, Rossiya, Latviya	Boltikbuyi mamlakatlari, SHimoliy Evropa, Janubiy va SHimoliy Amerika
Ilichevsk porti Ukraina	Temir yo'l	Qozog'iston, Rossiya, Ukraina	Janubiy Evropa, Uzoq SHarq Janubiy va SHimoliy Amerika
Sankt-Peturburg Rossiya	Temir yo'l	Qozog'iston, Rossiya	Boltiqbuyi mamlakatlari, SHimoliy Evropa, Janubiy va SHimoliy Amerika
Brestom. Belorussiya	Temir yo'l	Qozog'iston, Rossiya	SHarqiy va/arbiy Evropa
Drujba	Temir yo'l	Qozog'iston	Xitoy, Janubiy SHarqiy Osiyo
Petrovsk– Zabaykalsk Rossiya	Temir yo'l	Qozog'iston, Rossiya	Xitoy, Janubiy SHarqiy Osiyo va YAponiya
Naxodka porti Rossiya	Temir yo'l	Qozog'iston, Rossiya	Xitoy, Janubiy SHarqiy Osiyo, YAponiya, SHimoliy va Janubiy Amerika
Poti porti Gruziya	Temir yo'l, parom, avtotranzit	Turkmaniston, Ozorbayjon, Gruziya	Janubiy Evropa, Uzoq SHarq, Janubiy va SHimoliy Amerika
Mersin Bandar- Abbas portlari Eron	Avtomobil	Turkmaniston, Eron yoki Afg'oniston, Eron	Uzoq SHarq, (Hindiston va Pokistonga ham), Janubiy Amerika
MersinBandar- Abbas Eron	Temir yo'l	Turkmaniston, Eron yoki Afg'oniston, Eron	Uzoq SHarq, Hindiston, Pokiston, Janubiy Amerika

O'zbekiston jahon bozoriga chiqadigan portlarga ega emas. SHuning uchun tashqi savdodagi yirik muammo samarali transport «yo'lagi»ni tanlash va eksport-import operasialarini amalga oshirish



hisoblanadi. Paxta tolasi temir va avtomobil yollari orqali jahon bozoriga olib chiqiladi. Jumladan, Respublika Boltiq buyi portlari Venspilga, Klaypeda, Tallin, Riga va Liepayaga, Kavkaz orti Mersin (Turkiya) portiga, shuningdek, Gebel-aoi portiga (BAR), Eronning Bandar-Abbas porti, Vladivostok orqali Naxodka portiga chiqishi mumkin (12.1-davjal).

O'zbekiston bir necha xalqaro paxta tashkilotlari, jumladan, Paxta bo'yicha Xalqaro maslahat qo'mitasi, Liverpool, Gvineya paxta uyushmalarining to'la huquqli a'zosi. Paxta bo'yicha Xalqaro maslahat qo'mitasining Toshkentda bo'lib o'tgan 55-Plenumida O'zbekiston paxtasining jahonda paxta hajmi ko'payishidagi etakchilik roli ta'kidlab o'tildi.

Avval ta'kidlaganimizdek, O'zbekiston paxtasi bugun Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligiga qarashli «O'zmarkazimpeks», «Innovasiya» va «O'zprommashimpeks» savdo kompaniyalari orqali eksport qilinmoqda. Bu kompaniyalar axborot ayirboshlash asosida xalqaro etakchi kompaniyalar bilan birgalikda ishlaydilar. Ular qatoriga Dunovant, Glenkor, Pol Reynhard, Meredis Joun, Luis Drafurs, Ralli Brazers, SHtaxel va boshqalar kiradi. Keyingi yillarda eksport qilinayotgan paxta tolasining narxi «Kotton Autluk» kvotalari yordamida o'rnatilmoqda.

Eksport qilinayotgan paxta tolasining asosiy qismini ikkita tashkilot: «O'zvneshtrans» (temir yo'l) va O'rta Osiyo trans (motorli transport) amalga oshiradi.

Paxta tolasi eksportining iqtisodiy samaradorligi darajasi ko'p jihatdan jahon bozorida kon'yunktura vaziyati va narxlar darajasi bilan belgilanadi. SHu sababli bozor jarayonining rivojlanish tendensiya va qonuniyatlari tahlili alohida ahamiyatga ega.

Bozor muammolari, bozor vaziyatini belgilovchi omillar har doim bir xil emas. Ular o'zaro bog'liqlikda namoyon bo'ladigan kompleks tusga ega.

Bozorning sig'imi, raqobatchilarning bozordagi ahvoli va ularning umumiy sotish hajmidagi ulushi, ayni shu muddatdagi talab va taklifning nisbati, bunday nisbat sabablariga yaqin kelishuvda tovarga bo'lgan talabning o'zgarishi tendensiyalari eng muhim omil hisoblanadi.

Paxta marketingi majmuasida quyidagi tuzilmalar mavjud:

- bozorning potensial imkoniyatlari, ya'ni paxta tolasiga bozor talabi;

- mijozlarni jalb qilish mezonlari va modellari (birjalar, xarid markazlari);
- bozorni segmentlarga bo'lish;
- paxta tolasi narxlari darajalari;
- narx siyosatidaga omillar (chegirmalar, ustamalar);
- qonunlar, me'yorlar, bitimlar va maxsus reglamentlar.

Raqobatchilar kurashi.

Bizning bevosita raqiblarimiz: AQSH, Xitoy, Pokiston.

Potensial raqiblar: Avstraliya, Misr, Jazoir.

Bilvosita raqiblar (sun'iy tolalarni ishlab chiqaruvchilar).

Asosiy raqiblarning baholanishi: bozor kvotalari, bozordagi pozitsiyalar, ustunlik va kamchiliklar.

Jahon paxta bozoridagi raqiblarning holatini tahlil etaylik.

AQSH dunyodagi yirik paxta ishlab chiqaruvchilardan biridir. U geografik hududiy joylashishi, iqlim sharoiti hamda tuproq unumdorligi qulayligi bilan ajralib turadi. AQSH da yiliga o'rtacha 5 mln. 200 ming gektar erga paxta ekilib, gektaridan 700 – 800 kg. tola olinadi. SHunday qilib, hududda yiliga o'rtacha 4,0 – 4,2 mln.tonna paxta tolasi ishlab chiqariladi.

Jahonda paxta eksportining 80 foizi SHimoliy Amerika mamlakatlari ulushiga to'g'ri keladi. Jumladan, Meksika, Kanada, Gonduras, Dominikana Respublikasi bu xom ashyoning yirik xaridorlaridir. AQSHning jahon paxta bozoridagi ulushi 20 – 30 foiz atrofida o'zgarib turadi. Amerika paxta tolasining yirik xaridorlari – Uzoq SHarq mamlakatlari (YAponiya, Janubiy Koreya, Gonkong), shuningdek, /arbiy Evropa mamlakatlari va Kanada.

Keyingi yillardagi Amerika paxtasining yirik iste'molchilariga Xitoy, YAponiya, Kornya, Indoneziya, Meksika, Tailand, Tayvan va boshqalar ham qo'shildi..

Oxirgi yillarda Xitoy paxtani eksport qiladigan mamlakatdan import qiladigan mamlakatga aylandi. Bu xududda paxta hosildorligi yildan-yilga oshib bormoqda. Xitoy paxtasining aksariyat qismi qo'lda, atigi 5 foizi mashinalarda teriladi.

Hindiston paxta etishtirish bo'yicha dunyoda uchinchi o'rinda turadi. Paxta Hindiston aholisi kiyim-kechakka bo'lgan ehtiyojining 90 foizini qondiradi va mamlakat iqtisodiyotida katta rol o'ynaydi.

Hindiston paxtani iste'mol qilish bo'yicha ham jahonda uchinchi o'rinda turadi. Keyingi yillarda paxta ekin maydonlari ortib bordi va 2004 yili 9,8 mln. gektarga etdi. Hosildorlik nisbatan past va o'rtacha. Hindistonda yiliga 3 mln. tonna paxta tolasi ishlab chiqariladi va deyarli barchasi iste'mol qilinadi. Ayrim yillari 150 – 190 ming tonnasi eksport qilinadi. Import qilinadigan paxta tolasi hajmi keyingi yillarda kamayib bordi.

Pokiston 1990 yildan boshlab jahonda paxta etishtirish bo'yicha to'rtinchi o'rinda. Uning ishlab chiqarishdagi ulushi o'rtacha 6,5 foizni, iste'moldagi ulushi esa 5 foizni tashkil etadi.

Bu ko'rsatkichlar keyingi yillarga nisbatan muqim turganligi sababli Pokistonning Jahon paxta tolasi bozoriga, ayniqsa, paxta narxiga ta'siri katta bo'lmoqda.

Paxta etishtirish va uning iste'moliga davlat aralashuvi ham sezilarli darajada.

Jahonda tolalar (paxta, jun, kimyoviy tolalar) iste'molida paxtaning salmog'i 49 %. To'qimachilik xom ashyosi balansida paxta ulushi hali ham ilgariyidek yuqori. Bu, paxtaning universal sifatleri va uni turli maqsaddagi buyumlar ishlab chiqarishda ko'llash mumkinligi tufaylidir.

Mutlaq ko'rsatkichlarga ko'ra, dunyoda paxta iste'moli hajmi oshib bormoqda. Bu, nazarimizda, birinchidan, aholi sonining o'sishi va ip gazlama mahsulotlari iste'moliga talabning oshishi, ikkinchidan, issiq va mo'tadil iqlimli mamlakatlarda paxtadan ishlangan buyumlar zarurligi, uchinchidan, paxtadan ishlangan buyumlarning sun'iy tolalardan ishlangan buyumlarga nisbatan raqobatbardoshligi bilan bog'liq.

Paxta dunyoning 70 dan ortiq mamlakatida etishtiriladi va 100 dan ortiq davlatda iste'mol qilinadi. Dunyoda etishtirilgan paxtaning asosiy qismi AQSH, Xitoy, Hindiston, Pokiston va O'zbekiston ulushiga to'g'ri keladi. Paxta tolasining asosiy iste'molchilari Evropa mamlakatlari, YAponiya, Koreya, Gonkong va Tayvandır. Hozirgi vaqtda dunyo bo'yicha 36,2 mln.gektar erda paxta etishtirilmoqda. Bu jahon dehqonchiligida ishlatiladigan erlarning 2% iga teng.

O'zbekiston paxtasining raqobatbardoshligini ta'minlash borasidagi marketing tadqiqotlarini o'tkazish, bir tomondan, ishlab chiqarishda marketing muhiti va bozorga doir faoliyat shart-sharoitlarini o'rganishni, ikkinchi tomondan esa, respublika paxtachilik majmuining

raqobatbardoshlik pozitsiyalari va ichki imkoniyatlarini, jumladan, uning ishlab chiqarish resurslari va eksport imkoniyatlarini baholashni talab qiladi.

**O'zbekistonning paxta tolasi eksportiga doir strategiyasi.** Har bir mamlakat mutlaq va nisbiy qiyosiy ustunliklardan kelib chiqqan holda ma'lum strategik ahamiyatga molik mahsulotni eksport qiladi. Masalan, Saudiya Arabistoni neftni, CHili qalay va misni, Zair kauchukni eksport qilishga ixtisoslashgan.

O'zbekiston xalqaro mehnat taqsimotida xom ashyo etkazib beruvchilik roli bilan ajralib turadi. Haqiqatan ham respublikaning xom ashyo (asosan paxta tolasi)ni eksport qilish sohasidagi imkoniyatlari g'oyat katta. O'zbekiston dunyoda paxta etishtiruvchi ilg'or beshta mamlakat qatoridan o'rin olgan. U paxta tolasini eksport qilish bo'yicha AQSHdan keyingi – ikkinchi o'rinni egallaydi.

12.2-jadval

Paxtaning asosiy ishlab chiqaruvchilari, ming tonna

	1998-1999 y.	1999-2000 y.	2000-2001 y.
Xitoy	4501	3900	3700
AQSH	3030	3694	4200
Hindiston	2710	2750	2700
Pokiston	1480	1800	1550
O'zbekiston	1000	1150	1100
Turkiya	882	580	840
Avstraliya	726	670	680
Braziliya	521	622	700
YUnoniston	390	428	380
Misr	230	229	186
Boshqalar	2265	2447	2138

Manba: ICAC – The World Cotton Outlook

Paxta narxining pasayishi, kutilganidek, tuxtadi: Sotlook «A» indeksi (ushbu indeks SHarqiy Evropa portlariga kelib tushgan beshta eng past narxlar bo'yicha o'rtacha indeks) 1999 yilning dekabr oyida bir funt paxta uchun 44 sentni tashkil etgan bo'lsa, 2000 yil mart oyiga kelib, 57 sentga etdi, Bu hol paxtaning uch oy davomida narxi 30% o'sishidan dalolat beradi. U quyidagi omillar bilan izohlanadi:

- Xitoyda paxta ishlab chiqarish hajmining va jumladan, dunyo bozoriga taklifining kamayishi kutilmoqda;
- Pokiston taklifi hajmi ham kafolatlanmagan;

AQSHda ishlab chiqarish hajmi oldingi yildagiga nisbatan ancha baland bo'lishi kutilmoqda, biroq shuni ham ta'kidlash kerakki, Sotlook «A» indeksi va Nyu-York narxlarining bir xil sur'atlarda o'sishi kuzatilmadi. 12.2-jadvalda paxtani asosiy ishlab chiqaruvchilari keltirilgan. Mustaqillik yillarida respublika paxta sohasidagi strategiyasini o'zgartirdi. Bu strategiyaning maqsadi paxta sohasidagi yakkahokimlikni bartaraf etib, maksimum miqdorga teng tola ishlab chiqarishdir. Balanslashtirilgan siyosatni amalga oshirish natijasida paxta etishtirish barqarorlashdi, don etishtirish hajmi ortdi va respublikada don mustaqilligiga erishildi.

Paxta tolasini eksport qilishda O'zbekiston jahonda ikkinchi o'rinda turadi, jahonga eksport qilinadigan paxtaning 20 foizini beradi. Respublika bu mavqeni saqlab qolmoqda. Chunki paxta tolasini jami eksport hajmining qariyb 80 foizini tashkil etadi va u valyuta tushumining muhim vositasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi bugun paxta tolasini sotish bo'yicha jahondagi 80 dan ortiq mamlakat bilan sherikchilik qiladi. Respublikamiz iqtisodiy rivojlangan davlatlar, jumladan, AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, SHveysariya, Turkiya singari mamlakatlar bilan savdo oborotini kengaytirgani sezilmoqda.

O'zbekistonning yirik savdo hamkorlari qatoriga Germaniya, Rossiya Federasiyasi, Janubiy Koreya, SHveysariya, Buyuk Britaniya, Turkiya, Qozog'iston, Niderlandiya va Birlashgan Arab Amirliklari kiradi. Keyingi yillarda, shuningdek, Suriya, Ispaniya, Portugaliya, Misr, Eron bilan iqtisodiy aloqalar va savdo sohasida progressiv o'zgarishlar yuz berdi.

Xalqaro maydonda o'zbek paxtasi standarti O'rta Osiyo tolalari klassifikatsiyasiga kiradi: uzunligi 1-3/32, ya'ni 1 klass o'rta tola. O'zbek paxta tolasiga narx «A» indeksiga taalluqli kundalik kvotalarga binoan o'rnatiladi va u «Kotluk LTD» paxta kompaniyasi tomonidan nashr qilinadi. Kvotalar bir paundga to'g'ri keladi, AQSH sentida belgilanadi.

Jo'g'rofiy asos qilib C.I.F. shaklida SHimoliy Evropa portlari olinadi. O'zbekiston dengizga chiqadigan portlarga ega emas. Tashqi savdodagi yirik muammolardan biri eksport-import operatsiyalarini bajaradigan samarali transport yo'lagi (koridor)ni yaratishdir. SHu nuqtai nazardan temir va avtomobil yo'llari imkoniyatlarini yaxshilash zarur. Jumladan, shu tariqa

Respublika Boltiq dengizi portlari: Ventspils, Klaypeda, Tallin, Riga, Liepaya; Zakavkaziya yo'lagi (koridori) orqali Poti-Botumi, Illichevsk, Odessa, undan so'ng Mersin (Turkiya) portigacha; shuningdek, Gebel-Ali (BAA), Eronning Bandar-Abbas porti orqali ham deigizga chiqishi mumkin. Uzoq SHarqda Vladivostok orqali Naxodka portiga paxtani etkazish imkoni bor (12.3-jadval) Transport tarmog'ining bunchalik xilma-xilligi paxta tolasi bozorlardagi yangi xaridorlarga katta imkon tug'diradi. Paxtani eksport qilish borasidagi bu ishlarni amalga oshirishdan tashqari O'zbekiston bir necha xalqaro paxta tashkilotlarining haqiqiy a'zosi bo'ldi. Jumladan, u paxta sohasida Xalqaro Maslahat qo'mitasi, Liverpool paxta ushmasi, Gdineya paxta assosiasiyasiga a'zo.

Paxta sohasida Xalqaro maslahat qo'mitasining Toshkentda o'tkazilgan 55-yalpi majlisida ishtirok etgan hukumat va savdo vakillari O'zbekistonning jahonda paxta ishlab chiqarishni ko'paytirishdagi etakchilik rolini tan olishdi. SHuni ham ta'kidlash zurrurki, keyingi yillarda respublika moliya doiralarida ham barqaror ishonchli obro'ga ega bo'ldi. Endilikda xalqaro ahamiyatga molik bo'lgan ko'pgina chet el banklari Toshkentda o'z vakolatxonalarini ochib, respublika iqtisodiyotiga katta hissa qo'shmoqdalar.

Iqtisodiyotdagi bu sobitqadamlik ishlab chiqarishni qayta texnologik qurollantirishni rag'batlantirish hamda aholining hayotiy ehtiyojlarini hal etuvchi ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni amalga oshirishdan iborat. O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishida eksportga yo'naltirilgan tarmoqlar va mahsulotlar ishlab chiqarish tizimini taraqqiy ettirish katta ahamiyatga ega. SHu sababli iqtisodiyotni rivojlantirishda asosiy urg'u chet el sarmoyasini jalb qilish natijasida shunday tarmoqlarni taraqqiy ettirishga berilishi zurrurki, ular xom ashyo o'rniga raqobatbardosh, tayyor mahsulotlarni eksport qilishga yo'naltirilgan bo'lsin. Bugungi kunda strategik ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlar va loyihalar jumlasiga engil sanoat, turizm, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash tarmoqlarini kiritish mumkin.

Engil sanoatni taraqqiy ettirish va takomillashtirish strukturasi, tizimi «paxtachilik – to'qimachilik sanoati – qayta ishlash sanoati»ni barpo etish rentabellik darajasini bir necha barobar oshirishga hamda respublikada valyuta tushumi miqdorini ko'paytirishga olib keladi. SHu tufayli chet el sarmoyasini, avvalambor, qayta ishlash sanoatiga jalb etish zurrur, chunki xom ashyoni chuqur qayta ishlash qo'shimcha qiymat miqdorini oshiradi.

CHet el kapitalini, ayniqsa, eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishga jalb qilish katta ahamiyat kasb etadi. Respublika ishlab chiqarish tarmoqlarini qayta jihozlash dasturiga binoan engil sanoatga chet kapitalini olib kirish ancha ko'payadi. To'qimachilik sanoatini rivojlantirish dasturiga binoan tarmoqdagi 9 korxonalar texnik jihatdan qayta jihozlanib, paxta tolasini qayta ishlash sifati yaxshilandi, chet el jihozlari importiga asoslangan yangi korxonalar YAponiya, Italiya, Belgiya, Germaniya firmalarining jihozlari bilan qurollantirildi.

### **12.3. Mintaqalarda tayyor mahsulot eksportini ko'paytirish yo'llari**

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida uslubiy ishlab chiqarilgan va barcha unsurlari moslashtirilgan bir butun va ixcham tuzum zarur. Eksportga yo'naltirilgan marketing esa ana shunday talablarga to'la javob beradi.

Marketingning hozirgi zamon konsepsiyasi uzoq rivojlanishni jarayonini boshidan kechirgan. U ishlab chiqarishning sotishga alohida yondashuvi sifatida XX asr boshida, yirik ko'lami ishlab chiqarish shakllanganda, raqobat keskin kuchayganda ajralib chiqqan. Ammo marketing iqtisodiy faoliyatning tizimi sifatida o'z ichiga ko'proq tushunchalarni oladi. Marketing bir tomondan, bozorni, talab, did va ehtiyojni har taraflama mukammal o'rganishni, ishlab chiqarishni ushbu talablarga yo'naltirishni, mahsulotlarni aniq iste'molga mo'ljallagan holda ishlab chiqarishni, boshqa tomondan, bozorda mavjud talab, ehtiyoj va iste'molchilar afzalliklarining shakllanishiga faol ta'sir etishni ko'zda tutadi.

Marketing haqida birinchi marta rasmiy ravishda 1957 yilda, o'sha paytdagi «Jeneral elektrik»ning Prezidenti Jek Makkiterik Amerika marketing assosiasiyasi majlisida gapirgan. U, marketing – integrasiyalashgan, iste'molchiga yo'naltirilgan va biznes falsafasining foydasi ekanligini ta'kidlab o'tgan.

Hozirgi vaqtda «marketing» tushunchasini talqin qilishda ancha katta ziddiyatlar mavjud. Ko'pgina xorijiy mutaxassislar bu tushuncha kengaytirilishi va o'z ichiga no- tadbirkorlik faoliyatini ham olishi kerak, deb hisoblaydilar. Boshqalar marketingni oldi-sotdi bilan bog'lashni ko'zda tutadilar. Amerika marketing assosiasiyasining faol arboblardan, AQSHdagi SHimoli -/arbiy universitetning marketing bo'yicha professori F.Kotler yozishicha, «marketing – kishilik

faoliyatining almashuv vositasida zarurat va ehtiyojlarni qanoatlantirishga yo'naltirilgan turi».

Ma'lumki, halqaro marketingdagi tadqiqotlar tashqi bozor faoliyatining barcha jabhalarini o'z ichiga oladi. Marketing tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlari esa quyidagilardan iborat:

1. Bozorni va sotishni tadqiq qilish:

Masalan, raqobatchilar to'grisida axborot olish.

2. Mahsulotni tadqiq qilish:

Har xil qadoqlash turlarini sinab ko'rish va tadqiq qilish.

3. Talab va taklifni tadqiq qilish:

Mahsulot bahosi bilan unga bo'lgan talab o'rtasidagi bogliqlikni tadqiq qilish.

4. Mahsulot haqida iste'molchilarga ma'lumot berish:

Reklamaning turli variantlarini sinab ko'rish.

5. Mahsulotni xaridorlarga etkazish.

CHakana savdo nuqtalari joylashishini tadqiq qilish.

SHuni ta'kidlab o'tish kerakki, AQSH, YAponiya, /arbiy Evropaning ko'pgina kompaniyalari o'zlarining boshqaruv tizimlarini marketing tamoyillari asosida ko'radi, marketing tadqiqotlarini o'tkazishga chet el farma va kompaniyalari katta mablag'lar sarflaydi. Masalan, AQSHda yillik sotish hajmi 25 mln. dollar bo'lgan kompaniyalar o'z byudjetlarining 3,5 foizga yaqinini marketing tadqiqotlariga sarflaydi. Iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalar ishlab chiqarish vositalari etkazib beruvchi korxonalariga nasbatan bu sohaga ko'proq mablag' sarflaydilar. Ayniqsa, mahsulotlar eksportga yo'naltirilgan, mukammallashtirilgan taqdirda har jihatdan nihoyatda yuqori samara keltiradi. Maketing tadqiqotlari ko'rsatishicha, bu tadbirga sarflangan har bir AQSH dollari o'z egasiga 2,5 dollar bo'lib qaytar, ish sifati yaxshilanar va u bilan band xodimlar katta ma'naviy oziq olar ekan.

Tashqi bozorni tadqiq qilish esa, O'zbekiston Respublikasi korxonalarining xorijiy bozordagi strategik liniyasini ishlab chiqish uchun, aynaqsa, yangi tovarlarni ishlab chiqarish va ularni bozorlarga kiritishda hammadan ham zarurroq masaladir.

Agarda sanoat inqilobi davrida korxonalar iqtisodiyotining asosiy yo'nalishi ishlab chiqirishga qaratilgan bo'lsa, hozirgi vaqtda sharoit tubdan o'zgarib, asosiy e'tibor xalqaro marketingga, tashqi bozorga va iste'molchiga qaratilgan. Demak, yaqin o'tmishda «oldin



tovar, keyin esa bozor turadi» degan bo'lsak, endilikda esa, eng avvalo iste'molchining xohishi bo'lishi lozim va agarda korxonaga o'z tovarini tashqi bozorda joylashtirishni va sotishni hamda foyda olishni xohlasa, u albatta bunday halqaro bozor sharoitlariga va talablariga moslashishi kerak. Korxonaning o'sish va kengayish siyosati asosini esa tashqi bozor uchun xizmat qilish, jahon konyunkturasini yanada chuqurroq o'rganish, uni ichiga kirib, xorij bozorlarini egallash hosil qiladi, desak hech ham mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Ko'p sonli tadqiqotlar va so'rovlar shuni ko'rsatadiki, tashqi bozorni o'rganish marketing faoliyatining muhim yo'nalishi hisoblanadi. Masalan, Germaniya va Buyuk Britaniya esa doimo taxminan  $\frac{3}{4}$  qismligi bozor tadqiqotini amalga oshiradi. Ko'plab /arb korxonalarini boshqarishga marketing bo'yicha yondashishda asosiy shiori, «Ishlab chiqarilganni sotish emas, balki sotiladigan narsani ishlab chiqarish» bo'lib qoldi.

Bozorni batafsil o'rganish uni iste'molchilar guruhlariga va tovarlarning iste'mol xususiyatlariga muvofiq segmentlashni talab qiladi. Xorijiy tajriba ko'rsatadiki, eng muvofiq segment deb ushbu bozorning taxminan 20 foiz xaridorlari firma taqdim qilgan tovar hajmining 80 foizini xarid qilganlari hisoblanadi. Tovar bilan bog'liq bo'lgan masala uni oldindan aniqlangan bo'lajak xaridorlarning ayrim guruhlariga aniq mo'ljallab loyihalashtirishning zarurligidir. Masalan, u tor guruh Bel'giyadagi 15 – 17 yoshli o'smirlar yoki keng –Germaniya bozoridagi kam yoqilg'i sarflaydigan avtomobillar va hokazolar bo'lishi mumkin.

Tashqi bozordagi sotish siyosati ahamiyatli. Marketing faoliyati jarayonida sotish muammosi dastlabki bosqichdayoq hal qilinadi. SHuning uchun sotish siyosati amaliy faoliyatning shakllari va uslublarini tanlashni, sotish siyosatini ishlab chiqish va asoslash esa aniq tovar va tovarlar guruhiga nasbatan quyidagi masalalarni hal qilishni ko'zda tutadi:

- maqsadli bozor yoki uning bo'g'inini tanlash;
- kerakli moliyaviy xarajatlarni belgilash;
- bozorga chiqish tartibi va vaqtini tanlash;
- sotishni rag'batlantirish shakllari va uslublarini belgilash.

Sotish tizimini tanlash korxonaga tarkibida tashqi bozorlarda mahsulotlarni sotish bilan mashg'ul bo'lgan bo'linmalar mavjud

bo'lishini taqazo qiladi. Tashqi bozorlarda sotish tizimi quyidagi ko'rinishlarda namoyon qilinishi mumkin:

- chet ellarda savdo uylari yoki filiallar;
- firma vakillari;
- xorijdagi dillerlar;
- hamkorlikdagi sotish faoliyati;
- boshqa firmalarning sotish tizimidan foydalanish.

Sotishni rag'batlantirish shakllari va kerakli xarajatlarni aniqlash eng samarali vositalarni ko'zda tutadi. Bu vositalarga avvalo quyidagilarni kiritish kerak:

- reklama faoliyati;
- tovar belgisidan foydalanish;
- sotilgan mahsulotlarga texnik xizmat ko'rsatish.

Tashqi bozordagi raqobat muhitini hisobga olish kerak. Garvard universiteti (AQSH) xodimlari tomonidan olib borilgan marketing izlanishlari shuni ko'rsatadiki, o'z raqobatchilaridan bozorga muayyan tovar olib chiqishda bir yilga kech qolgan firma olinishi ko'zda tutilgan foydaning 50 foizidan ajralib qoladi.

Marketing tadqiqotlarining muhim jihatlaridan yana biri tovarning raqobat qobiliyatini aniqlashdir. Bu qobiliyat faqat tovarlarni bir-biriga taqqoslash orqali aniqlanadi.

Asosiy raqobatchilar bo'yicha bozorni sigmentlash xalqaro marketingning muhim unsuridir. U kabi sigmentlash firmaga tijorat zafarini keltiradigan marketing strategiyasini ishlab chiqish imkonini beradi. Masalan, «Kontrol deyta» firmasi Amerika EHM bozorining 70 foizini nazorat qiluvchi EHM raqobatchilari tazyiqiga qaramay, dinamik tarzda rivojlanmoqda. Firmaning yutuqlari siri shundaki, u faoliyatining raqobatchilar hisobga olmagan bozor ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirgan.

Marketing nafaqat asosiy iste'molchilar talablarini batafsil va to'la o'rganish, balki sotishning o'sishi, iste'mol samaradorligi va talabni shakllantirish va rag'batlantirishni ham ko'zda tutadi. Bu maqsadga, birinchi navbatda, kommunikasion siyosat deb nomlangin tizim javob beradi, reklama uning tarkibiga ta'sir qiluvchi kompleks choralar sifatida kiradi.

SHuni ta'kidlash kerakki, xalqaro kompaniyalar reklamani rivojlantirish va amalga oshirish masalalariga katta ahamiyat beradilar.

Masalan, rivojlangan mamlakatlarda reklama iqtisodiyotning ixtisoslashgan sohasiga aylangan va har yili katta mablag'lar sarflanadi. Masalan, reklama faoliyatini moliyalashtirish uchun har yili AQSHda 75 – 78 mlrd. doll. YAponiyada 28 – 28,5 mlrd. doll. g'arbiy Evropada o'rtacha 10 mlrd. doll. sarflanadi. Umuman, reklama tadbirlarida rejalashtirish va amalga oshirishga har yili AQSHdagi yalpi mahsulotning hatto 2 foizigacha, Fransiyada 1 foiz sarflanadi. Bu tovar tannarxining 10 foizini tashkil qiladi. Tovarlar va xizmatlarning alohida turlari uchun reklama xarajatlari 40 foizgacha ham bo'lishi mumkin. Xorijiy davlatlar va mamlakatimiz tajribasiga muvofiq reklamani quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Ob'ektlar bo'yicha reklama qilish:

nufuzli reklama — firmaning raqobatchilaridan farq qilishga qaratilgan;

sotib bitirish reklamasi—arzonlashtirilgan narxlar bo'yicha sotib bitirish haqida e'lon;

tashviqot qilish reklamasi—aniq maqsadni himoya qilishdan iborat.

2. Etkazib berish shakllari bo'yicha (bevosita) reklama. Bunday reklamani—masalan, televidenie orqali avtomobilning sifat afzalliklari haqida reklamaning ahamiyatini ko'rsatish.

3. Mahsulotning xususiyatlari bo'yicha maqsadni ko'zda tutish.

Iste'molchini tovar haqida eslashga majbur qiladigan reklama beriladi.

Reklamanning qiymati ancha yuqori. Masalan, AQSHda televideniya 30 daqiqali reklama vaqti— 100 ming dollar, Ispaniyada esa 50 ming dollar. Ta'kidlash kerakki, ko'pgina mamlakatlarda telereklama uchun cheklashlar mavjud. Masalan, Avstriyada reklama uchun eng ko'p vaqt—20 daqiqa ajratilgan; Germaniyada eng ko'p vaqt kunlik ko'rsatuvning 20 foizini, Ispaniyada esa 10 foizini tashkil qiladi.

SHuni alohida ta'kidlash kerakki, tovarlarning sifat ko'rsatkichi natijasida yillar davomida orttirgan obro'si, markasi har qanday reklamadan ham yuqori turadi. CHunki, tovar eskirishi, modadan qolishi va yo'q bo'lib ketishi mumkin. Biroq uning chidamliligi, sifati, ilg'or konstruksiyasi, go'zal dizayni, did bilan o'rab-joylanishi va boshqa yaxshi tomonlari uning o'rniga ishlab chiqarilgan tovarda namoyon bo'lishi va keyingilarida qaytarilishi xaridor xotirasida qoladi va tovarga

nom berish uchun asos bo'ladi. Bu sifatlar reklama organlari tomonidan tovarning marka timsoliga aylantiriladi.

Reklama qilish ssenariysi ham rejalashtirilishi lozim. Unda avvalo, reklamaning shiori, sarlavhasi aniqlanadi, so'ngra matn beriladi. Reklama shiori nihoyatda yangi, original, matni esa o'ta qisqa, mazmundor, tushunarli bo'lmog'i lozim, 50—60 so'zdan oshmagani ma'qul.

Xorijiy marketingni mukammallashtirishda ilg'or firmalar va chet el tajribasidan fooydalanish yaxshi natijalarga olib kelishi muqarrar. Bu borada keyingi yillarda AQSH, Germaniya, YAponiya kabi mamlakatlar firmalari amaliyotga kirib kelgan tovar sotuvchi va etkazib beruvchilarning iste'molchilarga asosiy tovar bilan butlovchi va qo'shimcha mahsulotlarni ham taklif qilish tajribasi diqqatga sazovordir. Mashhur nemis firmasi «Salamander» poyabzal bilan birga unga kerakli cho'tka, krem va boshqa vositalarni, AQSH firmasi «Katerpillar» traktorlari bilan prisiplarning osma asboblari to'plamini taklif qilmoqda. Bu tajribadan foydalanish respublikamizdagi tovarlar ko'lamini kengaytirish, mashina, asbob-uskunalar va boshqa tovarlar komplektini ta'minlash imkonini beradi.

### 12.3-jadval

#### Jahonda 2004 yilda eng ko'p eksport qilgan davlatlar

O'rin	Davlatlar	Eksport hajmi, mln.\$	Foizda	Aholi soni	Foizda
1	Germaniya	912260	10,2	82,50	1,28
2	AQSH	818775	9,2	281,42	4,37
3	Xitoy	593329	6,7	1242,61	19,3
4	YAponiya	565807	6,3	126,93	1,97
5	Fransiya	448714	5,0	58,52	0,91
6	Gollandiya	358187	4,0	16,11	0,25
7	Italiya	349153	3,9	57,11	0,89
8	Buyuk Britaniya	346863	3,9	58,79	0,91
9	Kanada	316547	3,5	30,01	0,47
10	Belgiya	306509	3,4	10,30	0,16
11	Gonkong (Xitoy)	265543	2,9	6,71	0,10
12	Janubiy	253845	2,8	46,14	0,72

	Koreya				
13	Meksika	189083	2,1	97,48	1,51
14	Rossiya	183452	2,1	145,54	2,26
15	Tailand	182424	2,0	22,89	0,35
16	Singapur	179615	2,0	4,02	0,06
17	Ispaniya	178607	2,0	40,85	0,63
18	Malayziya	126503	1,4	23,27	0,36
19	Saudiya Arabiston	126230	1,4	22,67	0,35
20	SHvesiya	122537	1,4	8,59	0,13
Sobiq SSSR respublikalari					
44	Ukraina	32672	-	-	-
54	Kazakiston	20093	-	-	-
62	Belarusiya	13751	-	-	-
69	Litviya	9269	-	-	-
78	Estoniya	5944	-	-	-
84	O'zbekiston	4280	-	-	-
87	Latviya	3951	-	-	-
90	Turkmaniston	3870	-	-	-
92	Ozorbajon	3615	-	-	-
128	Moldaviya	986	-	-	-
132	Tojikiston	915	-	-	-
139	Qirg'iziston	719	-	-	-
140	Armoniston	705	-	-	-
144	Gruziya	649	-	-	-

Manba: «Trud – 7», 2005., 22 – 29 dekabr, 2-b.

Marketingning asosiy prinsiplaridan biri — xaridorning benuqsonligi, uni xohish-talabini so'zsiz va tezkorlik bilan bajarish zarurligini anglashdir. Marketologlar sa'y-harakatlari natijasida o'tgan asrning 80 yillarida /arb kompaniyalari tomonidan iste'molchilarga 3 – 5 sutka oralig'ida mashina va asbob-uskunalar uchun ehtiyot qismlarni etkazib berish odat tusiga kirgan edi. Hozirgi kunda Angliya kompaniyasi «Lendrover (o'ta yuruvchan avtomobillar), AQSHning IVM kompaniyasi er sharining istalgan joyiga ehtiyot qismlarini etkazib berish va servis xizmatini iste'molchiga so'rov tushgandan so'ng 24 soat oralig'ida amalga oshirishni kafolatlaydi».

Reklamani internet tarmog'iga joylashtirish esa jadal rivojlanish tusini olmoqda. Binobarin, birgina Rossiyada, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, internet tarmog'iga chiqish orqali faoliyat yuritishni tashkillashtirish bo'yicha qilingan ishlarning hajmi 50 mln. AQSH dollaridan oshib ketdi, yakka foydalanuvchilarning soni esa deyarli 1 mln. nafarni tashkil qilmoqda. Biroq reklamani internetda yaratish bo'yicha harajatlar hajmi ham oshib bormoqda.

Hulosa qilib shuni aytish kerakki, marketing tovarlari ko'plab xarid qilish quvvatidan ortiq darajada ishlab chiqarish, iqtisodiy inqirozlar zaminida, taklifning talabdan ustunligi sharoitida paydo bo'lgan. Demak, tovarlarni ular ombor va do'konlarda turib qolmasligi uchun tezkor sotishni tashkil etish lozim. Bunga bozor va xaridor ehtiyojini chuqurroq bilish orqali erishish mumkin. SHu bois eksportdagi qiyinchiliklarni tezkor bartaraf etish uchun marketingdan to'laroq foydalanmoq kerak. Marketing yordamida mamlakatdagi qo'shma korxonalar yoki boshqa korxonalarni joylashtirish o'rmini ham aniqlash mumkin. Bu strategik masala hisoblanib, korxonaning tashqi bozor ta'sirida rivojlanishiga olib keladi.

Masalan, jahon iqtisodiyotiga integrasiya jarayonida har bir davlat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini ko'rsatadigan asosiy ko'rsatkich - eksport hajmini o'sishidir. Jahon savdo tashkiloti (VTO) ma'lumotlariga ko'ra, birgina 2004 yilda jahondagi barcha davlatlarni eksport hajmi 9153 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi 12.3-jadvalda eng ko'p eksport qilgan 10 ta davlat ko'rsatkichlari keltirilgan.

Keltirilgan raqamlardan ko'rinishicha dunyoda eksport qilish bo'yicha birinchi o'rinda Germaniya turibdi va birgina 2004 yilda bu davlatning eksport salohiyati bir trillion dollarga yaqinlashdi. O'zbekiston Respublikasi esa jahon tovar va xizmat eksportlari ichida 84 o'rinni egallagan.

## **Keys stadii: «O'zbekiston paxtasiga dunyo xaridor»**

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach, barcha sohalar singari qishloq xo'jaligi tarmog'ida ham tub bozor islohotlari amalga oshirila boshlandi. Davlatimiz rahbari iqtisodiyotimizning asosiy sohalaridan biri bo'lgan paxtachilikdagi izchil tarkibiy o'zgarishlarga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu o'z navbatida, mamlakatimizda etishtirilayotgan paxta

tolasining sifatini, shuningdek, davlatimiz eksport salohiyatini ancha oshirish imkonini beradi. 2005 yilda o'tkazilgan birinchi O'zbekiston xalqaro paxta yarmarkasi ushbu salohiyatni yanada rivojlantirish, ko'plab davlatlarning paxtachilik va to'qimachilik sanoati vakillari bilan to'g'ridan-to'g'ri savdo qilish hamda uzoq muddatli shartnomalar tuzish orqali paxtamiz etkazib beriladigan mamlakatlar sonini ko'paytirishga, shuningdek, o'zbek paxtasining jahon bozorida nufuzi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Paxta tayyorlash va qayta ishlashni tashkil qilish tizimini takomillashtirish keyingi yillarda eksport qilinayotgan paxta tolasi sifatini ancha oshirishimizga imkon berdi. Paxta tolasi xalqaro standartlarga muvofiq sertifikatlashning yangi tizimi joriy etildi. Barcha xizmat turlariga ega bo'lgan hamda mahsulotni sifatli saqlash va ortib jo'natishni ta'minlaydigan mintaqaviy terminallar tarmog'i tarzidagi paxta sotishning zamonaviy infratuzilmasi yaratildi.

SHuni qayd etish muhimki, O'zbekiston katta resurslarga ega bo'lgani holda, paxtani chuqur qayta ishlash hajmlarini ko'paytirish bilan bar qatorda chet ellarda paxta tolasi sotishning shakl va usullarini takomillashtirishga, mahsulot eksporti geografiyasini kengaytirishga alohida e'tibor qaratmoqda. 12.4-jadvalda O'zbekiston paxta tolasi eksportining geografik o'zgarishi keltirilgan.

#### **12.4-jadval**

#### **O'zbekiston paxta tolasi eksportining geografik o'zgarishi, foizda**

№		2001 – 2002 yillar mavsumida	2004 – 2005 yillar mavsumida
1	Evropa davlatlari	62	23
2	Mustaqil davlatlar hamdo'stligi	23	20
3	Janubiy sharq va janubiy Osiyo davlatlari	15	57
4	Jami	100	100

Agar 2000 yilgacha an'anaviy bozorda o'zbek tolasining 62 foizi Evropa davlatlariga, 23 foizi MDHga, 15 foizi Osiyo mamlakatlariga etkazib berilgan bo'lsa, keyingi vaqtda dunyo bozorida iqtisodiy globallashuv paxta sanoatiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi.

12.5-jadval

O'zbekistonning jahon paxta tolasi eksportidagi o'rni.

№	Davlatlar	<b>2004 – 2005 yillar mavsumida, foiz.</b>
1	Amerika Qo'shma SHtati	39
2	O'zbekiston	10,6
3	Avstraliya	6,0
4	Braziliya	5,0
5	Gresiya	3,0
6	Boshqa davlatlar	36,0

Manba. 1- Halqaro O'zbekiston paxta yarmarkasi, Toshkent, 2005 yil, oktyabr.



Paxta etishtirish bo'yicha jahonda etakchi o'rinlardan birini egallovchi Xittoyning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lib kirishi esa, paxta bozori geografiyasini o'zgartirib yubordi. 2002 – 2004 yillarda eksport qilinayotgan O'zbekiston paxta tolasining 57 foizi Osiyo davlatlariga, 23 foizi Evropa, 20 foizi Rossiya va boshqa Hamdo'stlik mamlakatlariga ko'chdi. Bu, o'z navbatida, Osiyo mintaqasida yangi paxta bozorining shakllanishiga poydevor yaratadi.

Keyingi yillarda Osiyoning Xitoy, Hindiston, Koreya Respublikasi va muttasil rivojlanib borayotgan boshqa davlatlari to'qimachilik korxonalarida yuqori sifatli o'zbek paxta tolasiga bo'lgan ehtiyoj to'xtovsiz oshib borayotganligi va eksport hajmlari barqaror o'sayotganligi e'tiborga molikdir. 12.5-jadvalda O'zbekistonning jahon paxta tolasini eksportidagi o'rni va salohiyati keltirilgan.

O'zbekiston paxta eksporti sohasida sheriklarimiz bilan nafaqat 2005 yil, balki keyingi yillar hosili uchun ham shartnomalar tuzishga asoslangan hamkorlikning mustahkam tizimini shakllantirish hamda rivojlantirishga intilishimiz va bunga tayyorligimizni ta'kidlab o'tishimiz lozim.

Jahondagi barcha etakchi paxta treyderlari Toshkentda o'tkazilayotgan 1-halqro O'zbekiston paxta yarmarkasida ishtirok etish haqidagi taklifni qabul qilganliklari diqqatga sazovordir.

Ushbu yarmarka 2005 yil oktyabr oyida o'tkazilgan bo'lishiga qaramay, unda 26-davlatdan 200 ortiq kompaniya va firmalar, xususan, Xitoy, Rossiya, Hindiston, Malayziya, Bangladesh, Koreya, Respublikasi, Turkiya, Vyetnam kabi malakat vakillari ishtirok etгани mazkur tadbirning nufuzi balandligidan darak bersa, ikkinchi tomondan, yaqin kelajakda Toshkent nafaqat mintaqamizdagi, balki dunyodagi eng yirik paxta bozoriga aylanishga o'ziga xos zamin yaratadi.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda paxta etishtirish, uni qayta ishlash bo'yicha jahon bozorida raqobatbardoshlik oshirish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Xususan, izchil va sifatli mahsulot ishlab chiqarish orqali o'zbek paxtasining xududiy va jahon bozorida xaridorgiriligini oshirish asosiy ustuvor vazifa qilib belgilandi. SHu bilan birga, olib borilgan islohotlarning asosiy yo'nalishlari etib, sohaga yangi texnologiyalar jalb etish orqali tola ishlab chiqarish tannarhini kamaytirish, eng asosiysi, ishlab chiqarilayotgan tolaning 50 foizgacha respublikaning o'zida qayta ishlash strategik maqsad qilib qo'yildi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun to'qimachilik sanoatida tub burlish

yasaldi. Misol uchun, 1991 yilda respublikamizda atigi 4ta to'qimachilik majmui bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2005 yilga kelib, 130 tadan oshdi va kelajakda undan ham ko'payadi. 12.6-jadvalda O'zbekistonda paxtachilikni rivojlantirish strategiyasi keltirilgan.

Bu strategiyani amalga oshirish maqsadida 2005 – 2006 yillarda respublikada ziyon qurib ishlayotgan 1100 ta shirkat ho'jaligi fermer xo'jaligiga aylantiriladi. O'zbekiston paxta tolasining sifatini va xalqaro raqobatbardoshligini oshirish uchun:

– jahon banki bilan hamkorlikda barcha viloyatlarda paxta tolasini HVI texnologiyasi asosida O'zbekistonda paxta tolasini sifat sertifikatlash markazi laboratoriyalari tomonidan tamg'alash va har bir paxta qopiga majburiy sifat tamg'asi qo'yilishini ta'minlash;

12.6-jadval

O'zbekistonda paxtachilikni rivojlantirish strategiyasi.

№		1980 y.	1990 y.	1995 y.	2001 y.	2005 y.	2007 y.	2010 y.
1	Jami paxta tolasini ishlab chiqarish.mln.t.	2,0	1,59	1,25	1,03	1,2	1,2	1,2
2	Paxta tolasining eksport hajmi.mln.t.	—	—	—	760	860	170	530
3	Paxta tolasini respublikada qayta ishlash hajmi, foiz	—	—	—	20,2	65,4	85	—
4	Paxta etishtirishda fermer ho'jaliklarining ulushi, foiz	—	3	12	19	32	51	—

— paxta tozalash mavsumiga 17 ta paxta tozalash zavodini ta'mirlash va modernizasiyalashtirish;

— 2006 – 2010 yillarda esa 40 ta paxta tozalash korxonasini ta'mirlash va rekonstruksiya qilish natijasida paxta tolasi ishlab chiqarishni 1,5-2%ga va sifatini 1-2 klassga oshirish;

— O'zbekiston paxta tolasi xalqaro «Cotton Outeeook» nashriyoti tomonidan hisobga olingandan so'ng, jahon bozorida Amerika va Avstraliya paxta tolasi qatorida sifatli va qimmatli (sovrundor paxta navi) hisoblanishini e'tiborda tutishi lozim.

— O'zbekistonda paxtachilik kompleksining strategik (kelajak) yo'nalishi quyidagilardir:

— yiliga 3,6 – 3,7 mln.t. paxta xom ashyosini muqobil ravishda ishlab chiqarish;

— seleksiya va urug'chilikka ahamiyat berish, yangi navlarni o'zlashtirish, hamkorlikni oshirish, kasallikka chidamli, yuqori sifatli, tezpushar (120 – 130 kunda pishadigan) paxta navlarni yaratish;

— paxta tolasining sifati va texnik ko'rsatkichlarini yaxshilash, shu jumladan, shtapель uzunligi, rang-barangligi, bir xilligi, ifloslanish darajasi va mikroneyni xalqaro standart va ichki bozorda iste'molchi talablariga mosligini ta'minlash;

— sertifikatlashtirish va sifat standartini yanada takomillashtirish.

## **12.4. Hamkorlikka asoslangan siyosat**

Mustaqillik e'lon qilinib, milliy valyuta joriy etilgach, O'zbekiston sobiq sho'ro davridagi xom ashyo resurslari va yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan bir yoqlama, samarasiz iqtisodiy aloqalarini to'xtatishi zarur edi. Bunday sharoitda samarasiz, tanazullga yuz tutgan iqtisodiy aloqalardan voz kechib, jahon bozoriga chiqish O'zbekiston uchun iqtisodiy inqirozni engib o'tishning yagona yo'li edi.

O'sha davrda O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning sa'y-harakatlari tufayli mamlakat xalqaro savdo-iqtisodiy aloqalarni, avvalambor, /arbiy Evropaning rivojlangan mamlakatlari, AQSH, YAponiya va iqtisodi jadal rivojlanayotgan boshqa davlatlar bilan kengaytirishga qaratildi. Bu siyosat biron-bir mamlakatga qarshi

yo'naltirilmagan edi. U iqtisodiyotimiz uchun nisbatan qulay savdo sharoiti yaratishga, sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlarda tuzilmaviy o'zgarishlar qilishga imkon beradigan mutanosib xalqaro savdo-iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yishga qaratilgan edi.

Mutanosib tashqi iqtisodiy faoliyatni yo'lga qo'yish jarayonidagi faol chora-tadbirlar O'zbekistonga tashqi iqtisodiy savdoni ham mamlakatlar, ham tarmoqlar miqyosida restrukturizatsiya qilish imkonini berdi. Dastlab O'zbekistonning bevosita savdo aloqalari bo'lmagan xorijiy mamlakatlar, birinchi navbatda dunyoning rivojlangan davlatlari bilan savdo aloqalari salmog'i 2004 yildagi butun tashqi savdo aylanmasida 68,5%ga etdi.

Endilikda O'zbekistonning to'lovga qobiliyatli hamkor sifatidagi xalqaro obro'-etibori oshib bormoqda.

Hamkorlikka asoslangan tashqi iqtisodiy siyosatga quyidagi tamoyillar asos qilinib olingan: mafkuraviy qarashlardan qat'i nazar, tashqi munosabatlarda ochiqlik, teng huquqlilik va o'zaro manfaatli hamkorlik, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik; to'la ishonch negizida ham ichki tomonlama, ham ko'p tomonlama tashqi aloqalarni o'rnatish va rivojlantirish; o'zining milliy davlat manfaatlarini har tomonlama hisobga olish; umume'tirof qilingan xalqaro huquq me'yorlariga rioya qilish va xalqaro andozalarga izchillik bilan o'tish.

Respublikamiz Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi Evropa va Osiyo tiklanish va taraqqiyot banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Hamdo'stlik regional iqtisodiy tashkiloti va boshqa e'tiborli xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlarning teng huquqli a'zosi. Bu xalqaro tashkilotlar faoliyatidagi ishtiroki mamlakatimizga bir qancha yirik davlatlararo loyihalarni birgalikda amalga oshirish, mintaqalararo muammolarni hal etish imkonini beradi.

O'zbekiston dunyoning 140 dan ortiq mamlakati bilan tashqi savdo qilmoqda. Dunyodagi iqtisodiy rivojlangan davlatlar bilan tashqi savdoning ulushi ko'payib bormoqda. YUrtimizda chet ellardan qo'shimcha moddiy-moliyaviy resurslar jalb qilish, jahon fan-texnikasi yutuqlarini iqtisodiyotga joriy etish, aholining sifatli, xilma-xil tovarlarga, ishlab chiqarishni zamonaviy texnika va texnologiyaga bo'lgan talabini qondirish, xizmat sohasini rivojlantirishda chet el tajribalaridan foydalanish, qo'shimcha ish o'rinlarini vujudga keltirish maqsadida olis xorijiy mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy savdo rivojlantirilib borilmoqda.

Tashqi savdo balansi, eksport va import hajmlari tahlili ahamiyatlidir. 2003 yil oxirida valyuta bozorini erkinlashtirish va milliy valyutaning joriy operatsiyalar bo'yicha konvertasiyalanishini ta'minlash yuzasidan ko'rilgan chora-tadbirlar tashqi savdo faoliyatida muayyan ijobiy natijalarga erishishda muhim omil bo'ldi. 2004 yilda 2003 yildagiga nisbatan tashqi savdo aylanmasi 129,6%ga ko'paydi va 86,7 mlrd. dollarni tashkil etdi (12.7-jadval).

Savdo balansining o'sishi ijobiy bo'ldi va 2003 yildagiga nisbatan ortib, 1982,8 mln. dollarni tashkil etdi. Tahlil qilinayotgan davrning o'ziga xos xususiyati xorijiy mamlakatlar va MDH mamlakatlari bilan tovar ayirboshlashdagi ijobiy qoldiqqa (sal'do) erishganligidadir. Vaholanki, o'tgan uch yilda MDH mamlakatlari o'rtasida qoldiq salbiy bo'lgan edi. 2004 yilda ijobiy qoldiq 34,2 mln. dollarni tashkil qildi. Lekin hali ham ijobiy qoldiqning asosiy qismi xorijiy mamlakatlar hissasiga to'g'ri kelmoqda va 982,8 mln. dollarni tashkil etmoqda.

12.7-jadval

O'zbekiston tashqi iqtisodiy faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari  
(mln. doll.)

Ko'rsatkichlar	2005y.	2003 y.	2004y.	Hajmining o'zgarishi, %
				2004 – 2003
Tashqi savdo aylanishi	9500,1	6686,2	8669,0	129,6
MDH davlatlari	3403,4	2105,4	3002,6	142,6
Xorijiy davlatlar	6096,7	4583,4	5666,4	123,6
Eksport	5408,8	3725,0	4853,0	130,3
MDH davlatlari	1722,6	969,2	1528,4	157,7
Xorijiy davlatlar	3686,2	2755,8	3324,6	120,6
Import	4091,3	2964,2	3816,0	128,7
MDH davlatlari	1680,8	1136,2	1474,2	129,7
Xorijiy davlatlar	2410,5	1828,0	2341,8	128,1
Savdo balansi	1317,5	760,8	1037,0	x
MDH davlatlari	41,8	- 167,0	54,2	x

Xorijiy davlatlar	1275,7	927,0	982,8	x
Tashqi savdo aylanishi tarkibi, %	100	100	100	x
MDH davlatlari	35,8	31,5	34,6	x
Xorijiy davlatlar	64,2	68,5	65,4	x

Manba: O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2004 yil, № 8, SISM, T.: 2005. 64-b, 2005 yil, SISM, T.: 2006. 41-b,

Eksport tarkibida ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Barcha yirik tovarlar guruhlari bo'yicha 2003 yildagiga nisbatan eksport hajmi ko'paydi. YUqori o'sish tayyor mahsulotlar hissasiga to'g'ri keldi. Mashina va uskunalarni eksport qilish 1,7 marta va oziq-ovqat tovarlari eksporti 1,8 marta o'sdi. Natijada eksportda mashina va uskunalarining ulushi 7,4% (2003 yil), kimyo mahsulotlariniki – 4,7% va oziq-ovqat tovarlarining ulushi 3,8%ni tashkil qildi. Eksportga chiqarilgan qishloq xo'jaligi texnikalari, kabel-o'tkazgich mahsulotlari, yarim o'tkazgich uskunalar, o'g'itlar, parfyumeriya va pardoziy buyumlari, plastmassalar va meva-sabzavot mahsulotlarining hajmlari o'sdi. Engil sanoat mahsulotlari orasida boshqa tovarlar guruhiga kiruvchi to'qimachilik kiyimlari, trikotaj gazlamalar va kiyimlar eksporti ortdi. Xizmatlar eksporti hajmi 72%ga oshdi. Ular orasida avvalgi davrlardagidek 70%dan ko'prog'ini transport xizmatlari tashkil etdi.

Tashqi savdo mamlakatlararo rivojlantirilishi O'zbekistonga uning tarmoqlar bo'yicha yo'nalishini ham ancha takomillashtirish imkonini berdi, eksportda xom ashyo resurslari, avvalo, paxta tolasi miqdori kamaydi va tayyor mahsulot hajmi ortdi. Importda oziq-ovqat va nooziq-ovqat iste'mol mollari hajmi qisqardi hamda iqtisodiyotni modernizatsiyalash va tuzilmaviy qayta qurish uchun zarur mashina va uskunalar, zamonaviy texnologiyalar salmog'i keskin o'sdi.

O'zbekiston–Rossiya azaldan yirik iqtisodiy hamkorlardan biridir. Rossiyaning O'zbekiston tashqi-savdo aylanmasidagi ulushi 1999 yildagi 13 foizdan 2004 yilda 17 %gacha o'sdi. Faqat 2004 yilning o'zida ikki mamlakat o'rtasidagi tashqi savdo aylanmasi eksport hajmi 17,7 %, import 24 %ga o'sdi. Bu borada yanada jadal yuksalish uchun yaxshi imkoniyatlar mavjud.

Savdo aylanmasi tarkibi yanada takomillashib, unda ikki mamlakat iqtisodiyotidagi tuzilmaviy o'zgarishlar o'z aksini topa

boshladi. Masalan, 2003 yilda O'zbekistondan Rossiyaga eksport hajmida asosiy ulushni mashina va uskunalar (23%), paxta tolasi (7%) tashkil qildi. Vaholanki, 1994 yilda bu ko'rsatkichlar tegishli ravishda 11 va 64 % edi.

Rossiyadan O'zbekistonga eksport hajmida ham asosiy ulushni mashina va uskunalar (38%), kimyo mahsulotlari (20%), yog'och, qog'oz, karton, mebel (24%) tashkil etdi. 1994 yilda esa, Rossiya O'zbekistonga asosan energiya manbalari (39%), oziq-ovqat mahsulotlari (15%), qora metall (14%) eksport qilgan edi.

O'zbekistonning Rossiya bilan aviasozlik sohasidagi hamkorligi ham sezilarli darajada faollashdi. Natijada «V.P.CHkalov nomidagi Toshkent aviasiya ishlab chiqarish birlashmasi» davlat aksionerlik jamiyati bazasida yuk va yo'lovchi tashuvchi zamonaviy havo kemalarini hamkorlikda ishlab chiqarish rivojlanmoqda. E'tiborli tomoni shundaki, Toshkent aviasiya zavodi tuzilgan shartnomalarga muvofiq 2005 yilda Rossiya va boshqa mamlakatlarga 15 ta samalyot etkazib beragan bo'lsa, kelajakda IL-114 rusumli havo kemasi YAK-40 va AN-14 xavo kemalari o'rnini butunlay egallaydi.

«O'zDEUavto» qo'shma korxonasi ham rossiyalik sheriklar bilan hamkorligi yanada faollashmoqda. Bir tomondan, uning Rossiyaga eksporti salmog'i ortmoqda. Taxminlarga ko'ra, eksport hajmi 2004 yilda 25 ming avtomobilni tashkil etdi. Ikkinchi tomondan, rossiyalik po'lat quyuvchilar mahsuloti sifatining ortib borayotganligi O'zbekiston avtomobillari uchun issiq-sovuq usulda xarid qilinadigan mahsulotni Rossiyaning «Sevrostal» kompaniyasidan olish imkonini beradi. SHunisi ahamiyatga molikki, O'zbekistonning aviasiya va avtomobil zavodlari Rossiya Federasiyasining 957 korxonasiga butlovchi qismlar va materiallar uchun buyurtma bergan.

O'zbekiston va Rossiya savdo aloqalari faollashib borayotganining sababi nimada? Javob aniq – har ikki mamlakat iqtisodiyotida o'sish kuzatilmoqda.

Iqtisodiy rivojlanishning barqaror sur'ati, u bilan bog'liq savdo va to'lov balansining ijobiy sal'dosi, aholi real daromadlarining mutassil o'sayotgani shundan dalolat beradiki, Rossiya tobora qulay, xududiy jihatdan yaqin, to'lovga layoqatli bozorga aylanmoqda. Bu bozorga o'zbek tovar ishlab chiqaruvchilari o'zlarining xilma-xil mahsulotlarini etqazib berishi mumkin.

Rossiya sarmoyadorlarining O'zbekiston iqtisodiyotiga keng miqyosda investisiya kiritishga qiziqishi tobora ortib bormoqda. Bu, avvalo, neft va gaz qazish, ularni qayta ishlash, telekommunikasiya, kon sanoati, metallurgiya, mashinasozlik, asbobsozlik, elektrotexnik mahsulotlar ishlab chiqarish, qurilish materiallari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kayta ishlash kabi eksportga yo'naltirilgan sohalar va boshqa istiqbolli tarmoqlarda o'z ifodasini topmoqda.

Jumladan, 2004 yilning aprelida Rossiyaning «Gazprom» kompaniyasi bilan «SHoxpaxta» gaz konida gaz qazib olish va undan foydalanishdagi ishtiroki bo'yicha mahsulot taqsimoti to'g'risida bitim imzolandi. Ayni paytda «Gazprom» bilan Ustyurt neft-gaz konlarida tabiiy gaz geoloji-qidiruv ishlariga, qazib olish va yiliga 10 mlrd.kub metr hajmida realizasiya qilish mo'ljallangan loyihaga 1,4 mlrd. AQSH dollari miqdorida sarmoya kiritilishini ko'zda tutuvchi bitim ishlab chiqilmoqda.

«Lukoil» kompaniyasi bilan mahsulot asosida Qandim, Xauzok, SHodi gaz konlarida tabiiy gaz qazib olish va birgalikda realizasiya qilish bo'yicha yirik bitim tayyorlanmoqda. Bunda «Lukoil» kompaniyasi 1 mlrd. AQSH dollari miqdorida investisiya kiritadi va loyihaning amalga oshirilishi 200 mlrd.kub metrga yaqin tabiiy gaz qazib olish imkonini beradi.

Mashinasozlik, asbobsozlik, elektrotexnika sanoatidagi texnologik kooperasiyaga asoslangan samarali aloqalar tiklanmoqda. Kabel mahsulotlari, elektrotexnik mashinalar, jihozlar va apparatura ishlab chiqarish sohalarida 19 ta O'zbekiston-Rossiya qo'shma korxonasi faoliyat yuritmoqda. 33 ta qo'shma korxonada sanoat va maishiy turdagi asbob-uskunalar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Mashinasozlik, mashina va jihozlarni ta'mirlaydigan 68 ta qo'shma korxonada tuzilgan.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini kayta ishlash sohasida integrasiya chuqurlashmoqda. Bu sohada 9 ta O'zbekiston-Rossiya qo'shma korxonasi, jumladan, mashhur «Baltimor», «CHerkizovo» va boshqa kompaniyalar bilan hamkorlikda tuzilgan korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda.

«Vimm Bill» kompaniyasi yirik «Toshkentsut» birlashmasi aksiyalarining 77 %ini xarid qilish hakida shartnoma imzoladi. Ushbu hujjatda sut mahsulotlarini qayta ishlash va meva



sharbatlari ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonada tuzish uchun 20 mln. dollar sarmoya kiritish ko'zda tutilgan.

So'nggi paytlarda Rossiya va O'zbekiston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikning kengayishi iqtisodiy sharoit va o'zaro manfaatlarni ifodalovchi tabiiy jarayonga aylandi.

## **12.5. Xitoy – strategik sherik va yirik hamkor**

O'zbekiston tashqi siyosatida Xitoy bilan munosabatlar alohida o'rin tutadi. BMT Xavfsizlik kengashining doimiy a'zosi, iqtisodiy jadal rivojlanayotgan bu davlat bilan hamkorlik qilish iqtisodiy rivojlanishda, milliy va mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashda, globallashuv jarayoni chuqurlashayotgan va turli siyosiy o'zgarishlar davri bo'lgan hozirgi sharoitda xalqaro siyosat maydonidan munosib o'rin egallashda katta ahamiyat kasb etadi. Xalqaro muammolarni echishda tobora faol qatnashayotgan, dunyoda e'tirof etilgan «Xitoy modeli» tufayli yalpi ichki mahsuloti bir necha yildan buyon 7 – 8 foiz miqdorida barqaror o'sib kelayotgan bu davlat dunyoning etakchi mamlakatlari qatoridan joy olgan.

Xitoy O'zbekiston bilan hamkorlikni yuksak qadrlaydi. Zero, tashqi dunyo bilan aloqalarni keng ko'lamda rivojlantirish yo'lidan borayotgan mamlakatimiz o'z mintaqasida xavfsizlikning asosiy tayanchi vazifasini o'tayotgani, uning yuksak siyosiy nufuzi va iqtisodiy salohiyati xalqaro miqyosda e'tirof etilmoqda.

Xalqlarimiz qadimdan Buyuk Ipak yo'li orqali bir-biri bilan aloqa qilib, fani va madaniyatini boyitib, tajriba almashib kelgan. Xitoyliklar ayrim qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xususan, uzum va beda etishtirishni O'rta Osiyo xalqlaridan o'rganishgan. Bu erda esa CHin yurtining ipakchiligi va eritish texnikasi o'zlashtirilgan.

O'zbekiston – Xitoy munosabatlarini rivojlantirish Buyuk Ipak yo'li orqali o'rnatilgan va ravnaq topgan tarixiy aloqalarni tiklash hamda zamonaviy hamkorlikni kengaytirish nuqtai nazaridan ham dolzarbdir. Ikki mamlakat davlat rahbarlari o'rtasidagi o'zaro hurmat va ishonch, munosabatlarimizning huquqiy poydevori mustahkamligi buning uchun qulay zamin yaratmoqda.

SHiddat bilan o'zgarayotgan bugungi siyosiy, ijtimoiy - iqtisodiy vaziyat nafaqat O'zbekiston va Xitoy kabi yaqin qo'shni

davlatlar, balki butun dunyo mamlakatlari hamjihatlikda ish olib borishini taqazo etmoqda. Globallashuv jarayoni ijtimoiy - iqtisodiy hamkorlikni hamda transport va kommunikasiya aloqalarini rivojlantirishni, terrorchilik, ekstremizm, transmilliy uyushgan jinoyatchilik, narkotik moddalar va qurol-yarog' kontrabandasi, ommaviy qirg'in qurollari tarqalishining oldini olishni, siyosiy aloqalarni yanada rivojlantirishni talab qilmoqda.

Mana shu masalalarning o'ziyiq O'zbekiston - Xitoy munosabatlarida hamkorlik uchun keng faoliyat maydoni mavjudligini ko'rsatadi. Eng muhimi, aloqalarni rivojlantirishdan, bir-birini qo'llab-quvvatlashdan ikki mamlakat ham birdek manfaatdordir.

Ikki do'st mamlakat – Xitoy va O'zbekiston o'rtasidagi ko'p tomonlama hamkorlik munosabatlari, xususan, o'zro manfaatli savdo - iqtisodiy aloqalar tobora rivojlanib bormoqda. Tabiiyki, iqtisodiy sohadagi hamkorlikni yanada taraqqiy ettirishda xitoylik ishbilarmonlar bilan birgalikda tashkil etilayotgan qo'shma korxonalar muhim o'rin tutadi. Bugunga kelib, mamlakatimizda Xitoy sarmoyasi ishtirokida tashkil etilgan 101 korxonalar faoliyat yuritmoqda.

«Bright Oceans» (VOSO), ayniqsa, o'z mahsulotlari bilan mamlakatimiz bozorida mustahkam mavqega erishgan Xitoy korporatsiyasi hisoblanadi. Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Xu Szi'ntaoning O'zbekitonga davlat tashrifi dirasida «Brayt Oshn» korporatsiyasi prezidenti Den Vey janoblari ham mamlakatimizga keldi. Fan ta'lim rivojiga katta e'tibor qaratayotgan korporatsiya rahbari safar davomida respublikamiz O'rta maxsus, kasb-xunar ta'limi markazida bo'lib, ta'lim islohotlarining borishi bilan tanishdi va beg'araz yordam sifatida markazga 15 ta kompyuter taqdim etdi.

## **12.6. SHanxay hamkorlik tashkiloti – xavfsizlik va hamkorlik garovi.**

SHanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT) tuzilganiga ham ko'p bo'lgani yo'q. Lekin 2001 yildan buyon o'tgan qisqa vaqt davomida u o'zining samaradorligini to'la namoyon etdi va jahon hamjamiyatining e'tiboriga tushdi. 2002 yili Sankt-Peterbung shahrida tashkilotning asosiy ta'sis hujjati – xaritasi qabul qilindi. 2004 yildan Pekinda uning

Kotibiyati, Toshkentda esa Mintaqaviy aksiterror tuzilmasi (MATT) doimiy faoliyat ko'rsata boshladi.

SHHT asosiy vazifalari xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash hamda savdo iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishdir. SHU yo'nalishdagi hamkorlik izchil rivojlantirilmogda. 2020 yilgacha bo'lgan davrda ko'p tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlikni ko'zda tutuvchi dastur qabul qilingan, terrorchilik, ekstremizm va ayirmachilikka qarshi birgalikda kurash to'g'risida bitim imzolangan.

Keyingi paytda yurtimizda xalqaro miqyosdagi bir qator muhim siyosiy voqealar bo'lib o'tganidan yaxshi xabardormiz. Jumladan, SHanxay hamkorlik tashkilotining Toshkent sammiti (2004 yil. iyun) mintaqamiz istiqboliga doir qabul qilingan muhim hujjatlarga, xalqaro terrorizm va ekstremizmga qarshi birgalikda kurashish, a'zo davlatlar o'rtasida iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash borasidagi aniq amaliy natijalarga boyligi, ishchanlik ruhida o'tgani bilan butun dunyo jamoatchiligi e'tiborini o'ziga tortdi.

Bu nufuzli uchrashuvning yuksak saviyada o'tishi va umuman, mazkur anjumandan ko'zlangan maqsad va vazifalarga ershishda sammit ishiga raislik qilgan O'zbekiston rahbari xizmati katta bo'lgani ham ko'pchilik tomonidan haqli ravishda e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, Prezidentimizning ushbu anjumandagi nutqida SHanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT) faoliyatini yanada takomillashtirish, xalqaro terrorizm va diniy eksremizmga qarshi kurashish, mintaqamizdagi iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha ilgari surilgan g'oya va takliflar sammit ishining ma'no-mazmunini belgilash va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

YUrtboshimiz o'z nutqida sammit ishtirokchilariga murojaat qilar ekan, kun tartibiga qo'yilgan masalalar haqida to'xtalib, quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tdi: - «O'ylaymanki, Toshkent sammiti SHHTning tashkiliy jihatdan shakllanishi va avval tuzilgan tashkiliy tuzilmalar va institutlarni aniq ma'no- mazmun bilan to'ldirishdagi yakuniy bosqich sifatida tarixda qoladi».

Hozirgi vaqtda Pekinda SHHTning kotibiyati ish olib bormoqda.

Toshkentda Mintaqaviy antiterror markazi tuzildi. O'tgan davr mobaynida bu masala bo'yicha uch bor yig'ilish o'tkazgan O'zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vazirlari kengashi o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni izchil bajarmoqda, SHHTning

Muvofiqlashtiruvchilar kengashi tezkor, o'ta muhim ishlarni amalga oshirmoqda.

Ushbu sammit arafasida SHHTga a'zo mamlakatlar xavfsizlik kengashlari kotiblarining uchrashuvi hamda iqtisodiyot va savdo vazirlarining majlisi samarali o'tganini alohida qayd etish zarur. Bularning barchasi haqida gapirganda, shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'tgan davrda bajarilgan jami ishlar SHHT mamlakatlari, birinchi galda, Rossiya va Xitoy rahbarlarining SHanxay hamkorlik takiloti o'z zimmasiga shu mintaqada yashovchi xalqlar xavfsizligi va barqarorligi hamda faravonligini ta'minlash mas'uliyatini olishga qodir bo'lgan nufuzli xalqaro tashkilotga aylantirishga qaratilgan qat'iy irodasi va azmu shijoati tufayli amalga oshirildi.

SHHT faoliyati istiqboli va samaradorligi ko'p jihatdan BMT xavfsizlik kengashining doimiy a'zolari bo'lmish ana shu ikki etakchi davlat – Rossiya Federasiyasi va Xitoy Xalq Respublikasining faol ishtiroki va hamkorlikdagi harakatlariga bog'liq.

Davlatimiz rahbari Markaziy Osiyodagi vaziyatga baho berar ekan, butun dunyoda xavfsizlik va barqarorlikka tahdid va xavf-xatar oshib borayotgan bir sharoitda bu mintaqada o'zining geosiyosiy va geostrategik ahamiyati hamda boy tabiiy - iqtisodiy, mineral-xom ashyo va birinchi navbatda uglevodorod zahiralari tufayli xalqaro hamjamiyat diqqat markazida bo'lib kelayotganini qayd etdi. Xususan, Afg'onistondagi tiklanish jarayoni bilan bog'liq masalalarga e'tiborni qaratdi.

Voqealar ijobiy yo'nalishda rivojlanayotganiga qaramay, Afg'oniston vaziyatni barqarorlashtirish va mamlakatni tinch yo'l bilan qayta tiklash uchun jiddiy yordamga ehtiyoj sezmoqda. Bu zaminda giyohvand moddalar ishlab chiqarish hajmi ortib borayotgani, ayniqsa, katta xavotir uyg'otadi.

Mintaqada mamlakatlaridagi vaziyatga xavf soladigan xalqaro terroristik, ekstremistik va ayirmachi kuchlarning faollashayotgani ham qattiq tashvish uyg'otmay qolmaydi.

Islom Karimov hozirgi kunda har bir mamlakatning va butun mintaqaning manfaatlarini inobatga olgan holda, kommunikasiya va transport sohasi, suv-energetika va xom ashyo zahiralari, insoniy salohiyatdan oqilona foydalanishga doir loyihalarni amalga oshirish bo'yicha harakatlarni o'zaro kelishish va muvofiqlashtirish masalalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etayotganini ta'kidladi. Mintaqaga xorijiy

kapital va investisiyalarni jalb etish, shu maqsadda bu xududdagi barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan sharoit va qoidalarni shakllantirish lozimligini uqtirib o'tdi.

«Markaziy Osiyo mustaqil davlatlari har biri o'ziga xos tarixiy, etnik-madaniy ildizlarga, diniy va ijtimoiy turmush tarziga, o'z mentalitetiga ega bo'lgan mamlakatlar va xalqlar yashaydigan mintaqa ekanini doimo yodda tutish muhim O'zbekiston Prezidenti – ularning har biri vazmin, juda e'tibor bilan, ta'bir joiz bo'lsa, hurmat-ehtirom bilan yondashishni talab qiladi-dedi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti.

Markaziy Osiyoda yuz berayotgan ko'plab voqealarni tushunishning kaliti va mintaqada barqarorlik va xavfsizlikni saqlash borasidagi murakkab muammolarning echimi ko'p jihatdan ana shunday yondashuv zahirida mujassamlashadi. Aynan ana shu omillarni hisobga olmaydigan barcha tashabbuslar samarali va muvaffaqiyatli bo'lmaydi.

Biz shunga qat'iy aminmizki, SHHTning binosini ko'tarib turadigan asosiy ustunlar, eng muhim yo'nalishlar xavfsizlik va iqtisodiyot bo'lishi zarur. Ana shu ikki ustun yoki ta'bir joiz bo'lsa, aravaning ikki g'ildiragiga tayangan holdagina, SHHT faoliyati samaradorligi va uning xalqaro nufuzini, shiddat bilan o'zgarayotgan dunyodagi vaziyatga mos tarzda harakat qilishini ta'minlash mumkin.

Islom Karimov O'zbekiston SHHTning ustuvor vazifasi sifatida e'lon qilingan xalqaro terrorism, ekstremizm, ayirmachilik va giyohvand moddalar savdosiga qarshi murosasiz kurashni so'zsiz qo'llab-quvvatlashini ta'kidladi.

SHHTga a'zo davlatlar rahbarlari ishtirokida rasman ochilayotgan Mintaqaviy antiterror markazining faoliyati ayni ana shu maqsad va vazifalarga qaratilgan, dedi davlatimiz rahbari va ushbu tuzilma faoliyatini takomillashtirish haqida to'xtalib, jumladan, qo'yidagi amaliy taklif va mulohazalarni ilgari surdi:

«Mintaqaviy antiterror tuzilmaning o'z vaqtida ishga tushirilishi SHHTga a'zo barcha mamlakatlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari davlat rahbarlarining bu masalaga shaxsiy e'tibori tufayli amalga oshdi».

Mintaqaviy antiterror tuzilmaning maqomi, faoliyat yo'nalishlari SHHTning davlat boshliqlari darajasida tasdiqlangan asosiy hujjatlari bilan belgilab berilgan. SHHTning turli darajadagi uchrashuvlarida

Mintaqaviy antiterror tuzilma faoliyatini bevosita shakllantirish va tashkil qilish bilan bog'liq jami 9 ta xujjat qabul qilindi.

«Mintaqaviy antiterror tuzilma muvaffaqiyatli faoliyat olib borishining eng muhim sharti – bizning Markaziy Osiyo mintaqasi va butun dunyodagi xavfsizlik va barqarorlikka qarshi qaratilgan xavf-xatar va tahdidlarga umumiy hamda yagona yondashuv va qarashimiz, desam, umumiy fikrni aytgan bo'laman», – dedi yurtboshimiz.

Mamlakatlarimiz va xalqlarimiz xavfsizligiga bir xilda tahdid solayotgan xatarlarning umumiylikini anglash bizni birlashtirishi zarur va shart.

Ikkinchidan, Mintaqaviy antiterror tuzilmani SHHT mamlakatlarining tegishli xizmatlari vakillari qo'yilgan vazifalarni yuksak professional darajada hal etishga qodir bo'lgan yuqori malakali mutaxassislar bilan to'ldirish o'ta dolzarb ahamiyatga ega. Mintaqaviy antiterror tuzilmaning bosh idorasi xodimlari ularni vakil qilib yuborgan mamlakatlar poytaxtlaridagi o'z hamkasblari bilan bog'lanishlari, muloqot qilishlari va doimiy aloqada bo'lib turishlari juda muhim.

Uchinchidan, biz ishonamizki, faqat maxsus xizmatlar va huquq - tartibot idoralari o'rtasidagi yuqori darajadagi ishonch va yaqin hamkorlikka tezkor ahamiyatga ega bo'lgan axborotlar bilan o'z vaqtida almashish, turli xavf-xatarlarga qarshi oldindan zarba beradigan tadbirlarni hamkorlikda aniq rejalashtirish va amalga oshirishni ta'minlaydigan haqiqiy samarali aloqalarni yo'lga qo'yish imkonini beradi.

To'rtinchidan, Mintaqaviy antiterror tuzilma BMT, ASEAN, Interpol, Evropol singari etakchi xalqaro tashkilotlarning antiterror markazlari bilan amaliy hamkorlik uchun ochiq bo'lishi lozim.

Beshinchidan, agarki xalqaro terrorism va uning ortida turgan ekstremistik markazlar va kuchlar katta moliyaviy va boshqa resurslarga, o'zgarayotgan vaziyatga qarab tez shaklini o'zgartirish va moslashish qobiliyatiga ega bo'lsa, bunday balo-qazoga qarshi kurashish ularga maxsus, ko'p tomonlama hamkorlik usullarini va birinchi navbatda oldindan payini qirqish ishlarini qo'llashni talab qiladi.

Oltinchidan, SHHT ish yuritishning faqat kuch ishlatish va huquq-tartibot usulari bilan cheklanib qolmasligi lozim. Muammoga kengroq qarash zarur. Bizning nazarimizda, terrorismning mafkuraviy

negizi va manbalarini tag-tomiri bilan qo'porib tashlash uchun butun bir tabirlar majmui, jumladan, ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim, targ'ibot - tashviqot yo'nalishidagi ishlarni amalga oshirish lozim.

Mintaqaviy antiterror tuzilmaning muvaffaqiyatli ishlashi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bo'yicha O'zbekiston bundan keyin ham bor kuch va imkoniyatlarini ishga soladi, deb ishontirib aytmoqchiman,-dedi mamlakatimiz rahbari.

Biz faqat terrorchilik ko'rinishlarining o'ziga, portlashlar sodir etib, begunoh odamlarning umriga zomin bo'layotganlarga qarshi kurash bilan cheklanmasligimiz kerak. Bular aslida biz terrorizm deb ataydigan nayzaning bir uchi, xolos.

Avvalambor, nafrat va terrorchilik mafkurasini yaratayogan ko'p sonli radikal va ekstremistik markazlarga, odamlarning ongini zaharlayotgan va birinchi galda yoshlarni yo'ldan ozdirayotgan, aytish mumkinki, bo'lajak terrorchilarni tayyorlaydigan bamisoli konveyer yaratayotganlarga qarshi kurashish darkor».

O'zbekiston Prezidenti hech qaysi mamlakat narkoagressiya, xalqaro terrorchilik, diniy ekstremizm va ayirmachilik kabi xududdan boshqa xududga o'tishiga befarq qaraydigan shunchaki «tranzit» bo'lolmasligi va bo'lishi ham mumkin emasligini alohida ta'kidladi. Afsuski, ba'zi qo'shni xududlarda bu borada o'zgacha fikrlar ham quloqqa chalinmoqda. YOvuzlik nayzasi hozircha guyo boshqalarga qaratilganiga ishonib, bunday ofat va tahdidlarga qarshi qat'iy kurashdan o'zini chetga olishga urinish xatarli xato bo'lishi mumkin. CHunki xavfsizlik yaxlit va bo'linmaydigan tushuncha ekanini hayotning o'zi takror va takror isbotlamoqda. SHu bois «SHHTning javobgarlik hududi» degan tushuncha iste'molga kirishga haqli va buning uchun barcha asoslar bor.

SHHTning iqtisodiy tuzilmalarini kuchaytirish zarurati haqida to'xtalib, Prezidentimiz sammit ishtirokchilarining e'tiborini yana bir muhim masalaga qaratdi. Markaziy Osiyo umumiy bozorini shakllantirishni biz bu vazifani tubdan hal etishning echimlaridan biri deb bilamiz. Bu vazifaning amalga oshirilishi, bizning nazarimizda, mintaqa mamlakatlari va xalqlarining tub strategik manfaatlariga mos kelgan bo'lur edi. Rossiya, Xitoy va boshqa mamlakatlarning faol ishtirokida umumiy bozor tuzish bugun amalda bo'lgan tor milliy doiradagi bozorlar o'rniga mintaqada tovarlar va xizmatlarning, mehnat va sarmoyaning yagona yondashuv, yagona qonuniy me'yor

va qoidalar joriy etilgan yirik va juda keng ko'lamli bozorini shakllantirish imkonini beradi.

SHU tariqa xorijiy sarmoya va ilg'or texnologiyalarni jalb etish uchun keng imkoniyatlar ochiladi. Bu esa pirovardida iqtisodiyotni barqaror o'stirish va odamlar turmush darajasini oshirishni ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Islom Karimov O'zbekiston tomoni sammit yig'ilishida Markaziy Osiyo xududi orqali o'tadigan yirik transport-kommunikasiya loyihalari, transport yo'laklari va yo'nalishlari borasida ilgari surilgan g'oya va takliflarni qo'llab-quvvatlashini ta'kidladi. Bu g'oya va takliflar o'z navbatida SHHTga a'zo davlatlar bilan Evropa Ittifoqi, janubiy va Janubi-SHarqiy Osiyo mamlakatlari o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarni kuchaytiruvchi omilga aylanishi mumkinligiga e'tiborni qaratdi.

Afg'onistonni mintaqaviy muammolarni echishga jalb etish, mamlakatni tinchlik yo'li bilan qayta tiklash jarayonida zarur yordamni ko'rsatish maqsadida SHHT davlatlarining Afg'onistonga ko'maklashish bo'yicha o'zaro kelishilgan, aniq qo'shma loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan hamkorlik dasturini ishlab chiqish va qabul qilish maqsadga muvofiq bo'lur edi.

«SHanxay hamkorlik tashkiloti tuzilganiga uch yil bo'ldi,—dedi Islom Karimov o'z nutqi yakunida. — O'tgan davr mobaynida erishilgan asosiy natija shuki, SHHT amaliy faoliyat ko'rsatayotgan nufuzli xalqaro tashkilot sifatida shakllanib bo'ldi».

## **12.7. Keys stadii: «O'zbekiston—Malayziya hamkorligi»**

Malayziya bir mahallar neft-gaz, palma yog'i va qalayi zahiralarga boyligi bilan mashhur edi, aniqrog'i, xom ashyo o'lkasi edi. Bugun u yuksak sur'atlar bilan taraqqiy etib borayotgan, rivojlangan davlatlarga har tomondan teng kelib qolgan mamlakat desak, xato bo'lmaydi.

U dunyodagi eng ilg'or texnologiyalarni ta'bir joiz bo'lsa, zudlik bilan o'zlashtirib olgan, kompyuter bilan aloqador sohalarda faoliyat ko'rsatadigan firma va kompaniyalar eng ko'p joylashgan mamlakatlardandir.



Ayni paytda ushbu mamlakat Janubi-sharqiy Osiyodagi eng nufuzli tashkilot bo'lmish ASEANga raislik qilmoqda. Avvalo, shuni ta'kidlash o'rinliki, ASEANni ta'sis etishda Malayziya asosiy tashabbuskor bo'lgan. Demak, ushbu davlat bilan hamkorlik orqali O'zbekiston jahonning katta bir mintaqasi mamlakatlari bilan munosabatlarni rivojlantirishga yo'l ochadi.

Malayziya ayni vaqtda Islom konferensiyasi tashkiloti (IKT)ga raislik qilmoqda. Bu esa mamlakatning nafaqat ushbu tashkilot a'zolari orasida, qolaversa, butun musulmon dunyosida obro'-e'tibori yuqori ekanligidan dalolatdir. YA'ni, O'zbekiston Malayziya bilan hamkorlik vositasi orqali IKT a'zolari bilan ham munosabatlarni faollashtirish imkoniga ega. Diniy ekstremizm, dinni niqob qilgan xalqaro terrorchilik tahdidi tobora oshayotgan hozirgi vaqtda esa bu g'oyat muhim ahamiyatga molik masaladir.

Iqtisodiy jihatdan qaraganda ham Malayziya bilan hamkorlik har tomonlama manfaatlidir. YUqori texnologiyalarni o'zlashtirish borasida, O'zbekiston mahsulotlarini Janubi-sharqiy Osiyo bozorlariga olib chiqish va bu mintaqadan sarmoya jalb qilishda Malayziya bilan aloqalarni kengaytirish maqsadga muvofiq. YUqorida zikr etilgan siyosiy omillarning o'zi bu fikrga yaxshigina asos bo'lishi mumkin.

Ikki tomonlama munosabatlarga doir siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy masalalar, shuningdek, xalqaro ahamiyatga molik muammolarga yondashuvlarning yaqin yo o'xshashligini nazarda tutgan holda, O'zbekiston doim xalqaro maydonda ushbu davlatni qo'llab-quvvatlab keladi. Misol uchun, mamlakatimiz BMT huzuridagi tuzilmalarga a'zolik borasida ko'p marotaba Malayziyaning nomzodini yoqlagan: 1997 yili—EKOSOSga, 1998 yili xavfsizlik kengashining nodoimiy a'ziligiga, 1997, 2001 va 2005 yillari YUGoslaviya bo'yicha xalqaro tribunalga, 2003 yili Ruanda bo'yicha xalqaro tribunalga, 2004-yili xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish bo'yicha qo'mitaga.

Malayziyaga ham O'zbekiston bilan hamkorlik Markaziy Osiyo va MDH mamlakatlari bozorlariga yo'lni qaytarish imkonin beradi.

2005 yil 2 – 4 oktyabr kunlari Kuala-Lumpurda O'zbekiston Prezidenti Islom Karimov Malayziya Qirolli Tuanku Sayyid Sirojuddin Jamallullayl bilan muloqotda keng qamrovli masalalar yuzasidan fikr almashdi. Mamlakat bosh vaziri Abdulla Badaviy bilan tor doirada va kengaytirilgan tartibda o'tkazilgan muzokarada esa barcha sohalarda

o'zaro hamkorlikni hamda xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasidagi munosabatlarni rivojlantirishga oid masalalar muhokama etilib, tegishli amaliy chora-tadbirlar belgilab olindi. Avvalo, aloqalarning huquqiy poydevori yanada mustahkamlandi. Prezident Islom Karimov va Abdulla Badaviyning qo'shma bayoni qabul qilindi. Unda hamkorlikning tamoyillari va istiqbollari bayon etilib, munosabatlarni rivojlantirish borasida tomonlarning yakdilligi, qator xalqaro va mintaqaviy masalalarga qarashlari hamohangligi ta'kidlandi.

SHu bilan birga, O'zbekiston va Malayziya hukumatlari o'rtasida havo transporti qatnovi to'g'risidagi bitim, shuningdek, Savdo bo'yicha qo'shma qo'mita, sayyohlik hamda mineral resurslarni o'zlashtirish sohaslarida, xavfsizlikni ta'minlash va terrorchilikka qarshi kurashda hamkorlikka oid anglashuv memorandumlari, aloqa va axborotlashtirish texnologiyalari sohasidagi ahdlashuv bayonnomasi imzolandi.

Safar asnosida Prezident Islom Karimov Malayziya parlamentida bo'lib, Senat Raisi Abdul Hamid Pavante va Vakillar palatasi Spikeri Ramli BINNGa Tolib bilan uchrashdi. Muloqotda mamlakatlarimiz o'rtasidagi palamentlararo aloqalarni rivojlantirish, o'zaro munosabatlarining huquqiy asosini yanada takomillashtirish masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Tashqi ishlar Vaziri Hamid Albar bilan muloqot esa ikki tomonlama siyosiy hamkorlik, ASEAN konferensiyasi tashkiloti kabi tuzilmalar doirasidagi ko'p tomonlama aloqalar bilan bog'liq masalalar muhokamasiga bag'ishlandi.

Islom Karimov shuningdek, Malayziyaning sobiq bosh vaziri Maatxir Muhammad bilan uchrashdi. Katta siyosiy nufuzga ega taniqli siyosat va jamoat arbobi Maxatxir Muhammad O'zbekiston—Malayziya munosabatlariga oid masalalarni yaxshi biladi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston rahbarining tashrifiga Malayziya tomoni katta tayyorgarlik ko'rdi. Savdo bo'yicha qo'shma qo'mita tashkil etish borasida kelishuvga erishilgan, lekin hali bu haqdagi hujjat imzolanmagan edi. SHunday bo'lsa-da, safarning ikkinchi kuni qo'mita o'zining ilk majlisini o'tkazdi. Bu esa tomonlarining o'zaro hamkorlikni rivojlantirish borasidagi qarashlari hamohang, maqsadlari mushtarak ekanligidan yana bir dalolatdir.

Qo'mita yig'ilishi ikki mamlakat ishbiarmonlarining biznes-forumiga ulanib ketdi. Qatnashchilar safi bir necha bora kengayib,

biznesmenlar bevosita o'zlarini qizqtirgan masalalar yuzsidan muzokara o'tkazdilar, imkoniyat, shart-sharoit va boshqa omillar bo'yicha savol-javoblar belgilangan vaqtdan ancha uzoq davom etdi.

Forum yakunida O'zbekiston va Malayziya ishbilarmon doiralari o'rtasida jami 16 hujjat imzolandi. Ular bank-moliya, sanoat, aloqa va axborotlashtirish texnologiyalari, engil sanoat, oziq-ovqat, qishloq xo'jaligi kabi ko'plab muhim sohalarda hamkorlikni nazarda tutadi. «Petronas» korporatsiyasi bilan tuzilgan 2 hujjatni ham qo'shib aytadigan bo'lsak, iqtisodiy majmua bo'yicha 18 ta kelishuv rasmiylashtirildi. Ularning moliyaviy qiymati 400 million AQSH dollaridan oshadi.

SHu o'rinda «Petronas» korporatsiyasi haqida qisqacha to'xtalib o'tish o'rinlidir. 1974 yil 17 avgustda toshkil etilgan mazkur yirik transmilliy korporatsiya hozir 30 mamlakatda faoliyat yuritadi. Dunyodagi eng qudratli 500 korporatsiya safida turuvchi «Petronas»ning faoliyat doirasi juda keng. Bular neft va gaz konlarini qidirish, o'zlashtirish, qayta ishlash, neft mahsulotlari va suyultirilgan gaz savdosi, marketing tadqiqotlari o'tkazish bilan bog'liq ko'plab tadbirlardir.

«Petronas»ning salohiyati haqida Kuala-Lumpur markazida qad rostlab turgan mo'jiza ham yaxshi tasavvur beradi. Ayni shu nom bilan ataluvchi «giz» minora nafaqat Malayziya poytaxti, balki butun malakatning ramzi va fahriga aylangan. 1998 yilda bunyod etilgan bu qo'shminoraning balandligi salkam 452 metr ga teng. Ulardagi idoralar, do'konlar, ko'rgazma va konferensiya zallari, galereyalar, oshxona-yu ko'ngil-ochar maskanlarning jami maydoni 214 ming kvadrat metr ga etadi. Bu 48 ta futbol maydoni, demakdir. «Petronas» korporatsiyasi asosiy pudratchi sifatida uning qurilishiga 800 million AQSH dollari sarflagan.

SHu tariqa O'zbekiston Janubi-sharqiy Osiyo mintaqasidagi etakchi davlatlardan yana biri bilan hamkorlikni rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar ochdi, aloqalar poydevorini yanada mustahkamladi. Davlatimizning siyosiy hamjihatlik, halqlarimizni esa diniy va madaniy qadriyatlar bir-biriga yaqinlashtirib turadi. Iqtisodiy hamkorlik uchun keng imkoniyatlar maydoni mavjud. Ayniqsa neft-gaz, yuqori texnologiyalar, engil sanoat, savdo va sarmoya sohasini alohida ta'kidlash joiz. Prezident Islom Karimovning Malayziyaga davlat

tashrifi ana shu boy mustahkam asosga ega o'zaro munosabatlarni yangi bosqichga ko'tardi.

## **Qisqacha xulosalar**

Jahon bozoriga integrasiyalashuvda O'zbekiston paxta majmui eksport salohiyati jahondagi raqobatning asosi hisoblanadi.

Jahon paxta tolasi bozorida dinamik o'zgarishlar sharoitida o'zbek paxta tolasining raqobatbardoshligi xalqimiz manfaatini belgilovchi asosiy ko'rsatgichdir.

TIFda paxta tolasi eksport salohiyatini oshirish asosan marketing faoliyatiga bog'liq.

O'zbekistonning paxta tolasi eksportiga doir strategiyasi asosan xalqaro mehnat taqsimoti asosida amalga oshirilmog'i lozim.

Mintaqaviy barqarorlik mintaqa ko'lamida integrasiya jarayonini rivojlantirish masalalarini hal qilishda asos hisoblanadi. O'zbekiston va BMT hamkorligi mamlakatimiz jahon iqtisodiyotiga integrasiyalashuvining poydevori xizmatini o'taydi. O'zbekistonning mintaqaviy birlashmalar bilan iqtisodiy hamkorligi integrasiyalashuvning tarixiy qismidir.

MDH mamlakatlari bilan shunday hamkorlik mintaqaviy hamkorlikning teng huquqligini ta'minlaydi. O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan integrasiyalashuvi xalqlar o'rtasidagi manfaatlarni ifodalaydi.

Jahon iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyalarini diqqat bilan kuzatar ekanmiz, ayonlashadiki, O'zbekiston iqtisodiyotining yuqori o'sish sur'ati jahon iqtisodiyotiga chuqur integrasiyalashuv asosida xorijiy investisiya hamda eksport salohiyati barqaror rivojlanishi tufayli ta'minlanishi mumkin.

O'zbekiston, boshqa mamlakatlar singari, o'z tashqi iqtisodiy siyosatini o'zining milliy manfaatlaridan kelib chiqib va sheriklik manfaatlarini hurmat qilgan holda yuritadi. Taraqqiyot yo'lida AQSH, Yaponiya, Rossiya, Xitoy, va Evropa davlatlari bilan hamkorlik qiladi hamda xudud xavfsizligi va integrasiyaga o'z hissasini qo'shishda davom etadi.

O'z navbatida shuni ham aytish kerakki, davlatimiz rahbari nutqida ko'tarilgan masalalar ijrosini ta'minlash, avvalambor, mintaqamizda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, SHanxay

hamkorlik tashkiloti faoliyatiga yangicha ma'no-mazmun baxsh etish, uning samaradorligini oshirishdek ezgu maqsadlarga xizmat qiladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy siyosati nimaga asoslangan ?
2. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyati qanday rivojlanmoqda?
3. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyati SHHT davlatlari o'rtasida qaysi davlatda yaxshi rivojlangan?
4. Rivojlangan davlatlar orasida savdo-sotiq qaysi davlatlar bilan yaxshi o'rnatilgan?
5. Nega Rossiya rivojlanib borayotga sarmoyador hisoblanadi?
6. Eksport va importning jug'rofiy tarkibi qanday tashkil topadi?
7. Rossiya, AQSH, Yaponiya, Xitoy bilan iqtisodiy munosabatlar qanday yo'lga qo'yilgan?
8. Kelajakda ustuvor iqtisodiy sherikchilik qaysi davlatlar bilan amal qiladi?
9. SHHT tashkilotining maqsadi nimalardan iborat?
10. Jahon iqtisodiyotiga integrasiyalashuvda O'zbekiston Respublikasi paxta majmuasi qanday eksport salohiyatiga ega?
11. Eksportni rivojlantirish va jahondagi raqobatbardoshlikni oshirish ko'rsatkichlari salohiyati-chi?
12. Jahon bozoriga integrasiyalashuvda O'zbekiston paxta majmuasining eksport salohiyati qanday?
13. Jahon paxta tolasi bozorlaridagi dinamik o'zgarishlar sharoitida o'zbek paxta tolasi qay darajada raqobatbardosh?
14. O'zbekistonda paxta ishlab chiqarish, uning iste'moli va eksporti dinamikasi haqida nimalarni bilasiz?
15. O'zbekiston Jahon bozoriga chiqishining muqobil yo'lak (koridor)lari bormi?
16. Tashqi iqtisodiy faoliyatda paxta tolasi eksport salohiyatini oshirishning qanday yo'llari mavjud?
17. O'zbekistonning paxta tolasi eksportiga doir strategiyasi nimalardan iborat?
18. O'zbekiston Respublikasining Jahon hamjamiyati bilan hamkorligi haqida nimalarni bilasiz?
19. O'zbekiston Respublikasida tashqi siyosiy va iqtisodiy aloqalarning shakllanish jarayonini qanday izohlaysiz?

20. O'zbekiston jahon hamjamiyati integrasiyalashuvda qanday o'rin tutadi?
21. Xalqaro integrasiyalashuvda BMT faoliyati qanday o'ringa ega?
22. O'zbekistonning mintaqaviy xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi nimalarni ko'zda tutadi?
23. O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan mustaqil iqtisodiy integrasiyalashuvdagi o'rni qanday ahamiyatga ega?
24. Sizing fikringizcha, O'zbekistonning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan integrasiyalashuvi qanday ahamiyatga ega?

### **Asosiy adabiyotlar**

1. «O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «To'g'ridan –to'g'ri xususiy xorijiy investisiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni. – Xalq so'zi, 2005 y. 12 aprel'.
2. I.A Karimov “Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demaklashtirish va yangilash, mamlakatni modernizesiya va isloh etishdir. T.: O'zbekiston, 2005.
3. A.E. Ishmuxamedov va boshqalar. – «O'zbekiston milliy iqtisodiyoti».– T.: TDIU, 2004y.
4. A.E. Ishmuxamedov va boshqalar. – «Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari». O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2004y.
5. Internet veb-saytlari.

[www.micro-macroiqtisodiyot.fan.uz](http://www.micro-macroiqtisodiyot.fan.uz).

[www.makroiqtisodiyot.narod.ru](http://www.makroiqtisodiyot.narod.ru)

## **13-BOB. MINTAQALARNING IJTIMOIIY- IQTISODIY RIVOJLANISHINI TARTIBGA SOLISH**

### **13.1. Xududlar iqtisodiy rivojlanishini tartibga solishning maqsad va vositalari**

O'tgan asrning 70- yillarigacha «iqtisodiy rivojlanish» deyilganda mamlakatning ishlab chiqarishni aholi o'sish sur'atlaridan yuqoriroq sur'atlarda oshirish qobiliyati tushunilar, rivojlanish jarayonining miqdoriy o'lchovi sifatida «iqtisodiy rivojlanish darajasi» tushunchasi xizmat qilar, u mamlakat milliy daromadini uning aholisi soniga bo'lish orqali aniqlanar edi.

Ko'rinib turibdiki, iqtisodiy o'sish sur'atlari iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishning asosi hisoblanadi. Demak, milliy daromadining o'sish sur'atlari qanchalik yuqori bo'lsa, aholisining o'sish sur'atlariga nisbatan tezroq ortgan mamlakatda iqtisodiy rivojlanish darajasi shunchalik osha boradi.

Tahlillar ko'rsatadiki, rivojlanayotgan mamlakatlarning ko'pchiligi yuqori o'sish sur'atlariga erishgan bo'lsa-da, bu boradagi ko'rsatkichlarni uzoq vaqt saqlab qola olishmagan. Chunki ularda iqtisodiy o'sish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga olib kelmagan.

SHuning uchun ham o'tgan asrning 70-yillariga kelib, «iqtisodiy rivojlanish» tushunchasi sifat jihatidan boyitilib, milliy iqtisodiyot tuzilmasi, qazib oluvchi va qayta ishlovchi tarmoqlar nisbati, eksport tarkibi, mamlakat aholisining ma'lumot darajasi, ehtiyojlari tarkibi va boshqalar bilan ifodalana boshladi. Keyinchalik esa iqtisodiy tadqiqotlar chuqurlashuvi bilan rivojlanishga ijtimoiy va siyosiy omillar sezilarli ravishda ta'sir ko'rsatuvchi ko'p qirrali jarayon sifatida qaraldi.

«Iqtisodi rivojlanish» tushunchasi o'tgan asrning oxirgi choragida mazmunan chuqurlashdi. Bunga fan-texnika inqilobi va uning ta'sirida ishchi kuchi sifatiga qo'yiladigan talablar oshishi sabab bo'ladi. «Inson kapitali» qo'yilmalari samarali iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi ob'ektiv zarurat sifatida tan olindi.

Jahon bankining ma'ruzasida (1991y.) iqtisodiy rivojlanishga inson taraqqiyotiga qaratilgan jarayon sifatida qaraldi. Unda ta'kidlanishicha, «taraqqiyotning maqsadi – hayot sifatini yaxshilash hisoblanadi. Hayot sifatining yaxshilanishi, xususan, kambag'al

mamlakatlarda, eng avvalo, daromadlar ko'payishi va faqat bugina emas, balki, yaxshiroq ta'lim olish, ovqatlanish va sog'liqni saqlash imkoniyatlari tengligini, shaxsiy erkinlikni kengaytirish va boy madaniy hayotni ko'zda tutadi»\*.

YUqoridagi ta'rifda shu narsaga e'tibor berish kerakki, hayot sifatining yaxshilanishi birinchi navbatda barcha aholi daromadlarining o'sishiga – mamlakatda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha pul daromadlarining o'sishiga bog'liq qilib qo'yiladi.

Endi esa «iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish» tushunchasini ko'rib chiqaylik. Ushbu tushunchaning muayyan ta'riflari mavjud. Masalan, V.I. Kushkin tahriri ostidagi chiqqan darslikda ifodalanishicha, «iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish – vakolatli davlat organlari, tashkilotlari tomonidan ma'lum bir ijtimoiy-iqtisodiy vazifalar, maqsadlarga erishishga qaratilgan qonunchilik va nazorat xarakteridagi chora-tadbirlar tizimini qo'llash hisoblanadi»\*.

A.S. Bulatov tahriri ostidagi darslikda esa ushbu tushuncha quyidagicha ta'riflangan: «iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish – bu, davlatning, jamiyatning xo'jalik hayotiga va u bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy jarayonlarga ta'sir etish jarayoni bo'lib, uning natijasida ma'lum bir doktrinaga asoslangan davlatning iqtisodiy va ijtimoiy siyosati amalga oshiriladi»\*.

Biz ikkinchi ta'rifni ma'qul ko'ramiz, chunki u respublikamiz sharoitiga mos.

Endi esa, «xududlarning iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish» tushunchasiga ta'rif berib ko'raylik va uning o'zi nimani anglatishini aniqlaylik. Ta'rif berishdan oldin ushbu tushunchaning zarurati nimada ekanligini ko'rib chiqamiz.

---

\* World Development Report. 1991/N/Y/^ Oxford University Press? 1991.P4.

\* Государственное регулирование рыночной экономики: Учебник для вузов// Под общ.ред. В.И., Кушлина Н.А Волгина.; ред.кол.: Владимирова А.А. и др. – М.: ОАО НПО Экономика, 2000 - 210-б

\* Экономика. Учебник. 3-е изд, перераб. и доп. / Под ред.д.э.н., проф. А.С.Булатова. \_М.: Юристь, 2000 - 220-б.



Jahon tajribasi ko'rsatmoqdaki, iqtisodiyotni davlat tomonidan samarali boshqarishga mahalliy xususiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar mahalliy hokimiyat organlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan hal etilgandagina erishiladi. Bunda respublika hokimiyat organlari e'tibori umummilliy xususiyatdagi qarorlarni qabul qilish, iqtisodiyot rivojlanishining istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash va shu asosida faoliyat ko'rsatish, qonunni himoya qilish va himoyalash kabi ishlarga qaratilgan bo'ladi.

SHunday qilib, xududlarning iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish zarurati ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni (bandlik, ijtimoiy himoya, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish va boshqalar) o'zlariga biriktirilgan daromadlar manbalari hisobiga hal etishda ko'proq erkinlik va vakolatlar berilganda yuzaga keladi.

Demak, xududlarning iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish-respublika xokimiyat organlari tomonidan xududlarning iqtisodiy rivojlanishiga hamda bu rivojlanish bilan bog'liq ijtimoiy jarayonlarga ta'sir etish vositasi bo'lib, uning natijasida xududiy siyosat ro'yobga chiqadi.

«Xududiy siyosat» atamasi keng tarqalgan bo'lsa-da hali uning yagona ta'rifi mavjud emas. Bu o'rinda undan «xududlarning iqtisodiy rivodlanishini davlat tomonidan tartibga solish» atamasiga sinonim sifatida foydalanamiz, chunki xuddi shunday mazmun /arb adabiyotlarida «xududiy siyosat» atamasiga beriladi.

Turli mualliflar «xududiy siyosat»ga turlicha ta'rif berishadi. M.V.Stepanov tahriri ostidagi o'quv qo'llanmada aytilishicha, «xududiy siyosat – davlat iqtisodiy siyosatining muhim tarkibiy qismi. U o'z ichiga ham markaziy (respublika), ham mahalliy hokimiyat organlari tomonidan amalga oshiriladigan hamda ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish jarayonlarini tartibga solishga qaratilgan turli hil qonunchilik, ma'muriy va iqtisodiy tadbirlar majmuasini oladi»\*. «Biznesning katta izohli lug'ati»da (Colins) esa, «xududiy siyosat – bu, mamlakatning turli xil jo'g'rofiy rayonlari o'rtasida sanoat faoliyatining,

---

\* Региональная экономика: Учебное пособие. Под ред. М.В.Степанова. – М.: ИНФРА-М, Изд-во Рос.эконом.акад.,2001. 15 – 16 – б.

bandlik va farovonlikning muvozanatlashgan taqsimotini o'rnatish bilan shug'ullanuvchi siyosat)\* deyilgan.

Xullas, «Xududiy siyosat»ning ta'riflari ko'p. Ularni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, xududiy siyosat markaziy (respublika) hokimiyat organlarining xududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga har tomonlama ta'sir ko'rsatish maqsadidagi xatti-harakatidir. Xududiy siyosatning bosh maqsadi – ijtimoiy ziddiyatlar yuzaga kelishiga zamin yaratuvchi, mamlakat yoki uning xududlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi tengsizliklarni mumkin qadar kamaytirishdan iborat.

Davlat xududiy siyosatining asosiy maqsadlariga quyidagilar kiradi:

- mamlakatda xududiy siyosatning iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va tashkiliy asoslarini yaratish;
- xududlarning iqtisodiy imkoniyatlaridan qa'ti nazar, yagona minimal ijtimoiy standartlarni va teng ijtimoiy himoyani ta'minlash, fuqarolarning ijtimoiy huquqlarini kafolatlash;
- xududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tenglashtirish;
- atrof I – I muhit ifloslanishini to'xtatish hamda uning ifloslanishi oqibatlarini yo'qotish, xududlarni kompleks ekologik himoya qilish;
- o'ta muhim strategik ahamiyatga ega xududlarni ustuvor rivojlantirish;
- xududlarning tabiiy - iqlim xususiyatlaridan to'liq foydalanish;
- o'zini-o'zi boshqarish kafolatlanishini ta'minlash.

YUqoridagi maqsadlardan kelib chiqqan holda xududiy siyosatning vazifalari quyidagilardan iborat:

- iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishga, mintaqalarda ko'p ukladli iqtisodiyotni, shu jumladan, kichik tadbirkorlikni shakllantirishga, tovar, mehnat va kapitalning umumdavlat va xududiy bozorlari hamda institutsional va bozor infratuzilmasi shakllanishiga ko'maklashish;

---

\* Пасс К. и др. Большой толковый словарь бизнеса, Русско-английский, англо-русский. - М.: Вече, АСТ, 1998 . 469 – б

- xududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish jarayonidaga juda ham katta farqlarni kamaytirish, ularda aholi farovonligini oshirishning o'z iqtisodiy bazalarini mustahkamlovchi sharoitlarni bosqichma - bosqich yaratish;
- xududlar iqtisodiy tuzilmasining iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan o'zini oqlaydigan darajasiga erishish, bozor sharoitida ularning raqobatbardoshligini oshirish;
- xududlararo infratuzilmaviy tizimlarni (transport, aloqa axborot va boshqalar) rivojlantirish;
- ekologik va favqulodda holatlarga uchragan, ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan, demografik va migrasion muammolar mavjud xududlarga davlat tomonidan yordam ko'rsatish.

Endi esa xududiy siyosat vositalarini ko'rib chiqamiz. Siyosatni amalga oshirish vositalari sifatida mikro va makro darajada qo'llaniladigan turli xil bevosita va bilvosita, ma'muriy-huquqiy va iqtisodiy regulyatorlar (instrumentlar) xizmat qiladi. Xududiy siyosatni amalga oshirish vositalari quyidagi shakllarda bo'lishi mumkin:

1. Xududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishni prognoz qilish.
2. Xududlar iqtisodiyoti va ijtimoiy soha ob'ektlarini rivojlantirishda davlatning to'g'ridan - to'g'ri ishtiroki.
3. Davlat buyurtmalarini joylashtirish.
4. Mahalliy xokimiyat imkoniyatlari chegaralangan faoliyat sohalarida xududlarga tashkiliy, huquqiy va axborot ko'magini ko'rsatish.
5. Iqtisodiy mexanizm va regulyatorlarni qo'llash.
6. Erkin iqtisodiy xududlarni tashkil qilish.

Prognoz qilish – xududiy taraqqiyot strategiyasini ilmiy asoslash va xududiy siyosatni ishlab chiqishning muhim tarkibiy qismi, prognozlarni ishlab chiqishdan asosiy maqsad – yuz berayotgan va kutilayotgan jarayonlarning rivojlanishini, xududiy siyosat va uni amalga oshirish vositalarining variantlari, u yoki bu boshqaruv qarorlarining oqibatlarini baholash.

Mintaqaviy siyosatni amalga oshirish shakllaridan biri davlatning mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha

maqsadli dasturlari hisoblanadi. Ularga hozir ham, kelajakda ham alohida e'tibor berish kerak.

Xudud iqtisodiyoti va ijtimoiy soha ob'ektlarini rivojlantirishda davlatning to'g'ridan-to'g'ri ishtiroki manzilli tartibga solish yo'llaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Bunga misol tariqasida mamlakatda investision loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirishni keltirish mumkin.

Xududiy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solishning asosiy iqtisodiy mexanizimi byudjet tizimi hisoblanadi. Byudjetlar qonuniy aktlar asosida qabul qilinadi va ishlatiladi.

Xududiy rivojlanishning makroiqtisodiy regulyatorlari davlatning soliq, kredit, investision, narx, ijtimoiy va boshqa siyosatning xududlar bo'yicha differensiasiyalashgan parametrlari sifatida namoyon bo'ladi.

SHunday qilib, xududlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish davlat iqtisodiy siyosatining muhim tarkibiy qismidir.

### **13.2. Xududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining nazariy va uslubiy asoslari**

Xududiy nazariyalarni (shu jumladan, xududiy siyosat nazariyalarini) o'rganishga oxirgi o'n yilliklarda nisbatan kamroq e'tibor berildi. To'g'ri, xududiy iqtisodiyot bo'yicha anchagina tadqiqotlar qilindi. Ularning natijalari kitob holida nashr etildi. Ammo, xududiy iqtisodiyotning nazariy asoslari ularning ayrimlaridagina ko'rib chiqildi. Biz mavjud xududiy nazariyalarni mintaqalar iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishning amaliy masalalarini hal etishda foydalanish imkoniyati nuqtai nazarida tahlil etishga harakat qildik.

Xududiy siyosat nazariyalari xududlar iqtisodiy rivojlanishining davlat tomonidan tartibga solish yo'nalishlarini shakllantiradi. Biroq bu nazariyalarning o'ziningina o'rganish bilan chegaralanib qolish to'g'ri emas, chunki ulardan ko'pi mintaqalarning iqtisodiy o'sishi nazariyalariga asoslangan (boshqacha qilib aytganda, mintaqalarning iqtisodiy o'sish sur'atlarida farqlar yuzaga kelishiga sabab bo'luvchi omillarni aniqlamasdan turib, xududiy siyosat haqida gapirish noto'g'ri). Xududiy o'sish nazariyalarini ko'rib chiqishda ikki xil asosiy yondashuv mavjud. Birinchisi – xududlarda iqtisodiy o'sish modellarini qo'llash.

Bunday modellarni mamlakat iqtisodiyotining o'sishini izohlash uchun ishlab chiqilgan modellarga o'xshatish mumkin (development economics). Ikkinchisi esa, alohida korxonalar va firmalarning xatti-harakatlarini tahlil etishga asoslanga. Chunki mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishini, avvalambor, ularning faoliyatigina aniqlab beradi. Kompaniyalar o'z faoliyatini u yoki bu xududda olib borishlarining sabablari joylashtirish nazariyalari orqali ko'rib chiqiladi.

Tahlil etilayotgan nazariyalarni ishlab chiqish bilan ham iqtisodiy geografiya mutaxassislari, ham iqtisodchilar shug'ullanishgan. Chunki iqtisodiy geografiya bilan xududiy iqtisodiyot o'rtasida aniq bir chegara o'rnatishning iloji yo'q.

Turli mamlakatlarda xududiy nazariyalarning turli yo'nalishlariga ustuvorlik berilgan. Eng kuchli ilmiy maktablar Germaniya, SHvesiya, Buyuk Britaniya, AQSH va Fransiyada shakllangan. Germaniyada an'anaviy ravishda ko'proq joylashtirish nazariyalariga (Y.G. Fon Tyunen, V.Launxard, A.Veber, A.Predel, A.Lesh, R.Gors va boshqalar); hududiy o'sish muammolarini tadqiq etishga (X.Zibert) va xududiy rivojlanishni tartibga solishga (V.Kristaller va A.Lesh) e'tibor qaratilgan.

XX asrning birinchi yarmida joylashtirish nazariyalari bilan Stokgol'm maktabi doirasida SHvesiyada faol shug'ullanishgan. 1920 – 1930 yillarda T.Palander ishlari mashhur bo'lgan. Sal keyinroq G.Myurdal xududiy o'sishning asos modellaridan birini yaratdi. Mintaqashunoslar orasida ham joylashtirish, ham xududiy rivojlanishni tartibga solish nazariyalarining rivojlanishida muhim rol o'ynagan SHved olimi X.Xegerstrandning ham nomini aytib o'tish mumkin.

Fransuz iqtisodchilari va iqtisodiy geografiyashunoslari ijtimoiy masalalarga doim katta qiziqish bilan qarashgan. Xududiy nazariyalarda ular «o'sish qutblari» va «rivojlanish o'qlari» urbanistik konsepsiya bilan bog'liq bo'lgan ilmiy yo'nalishlar rivojlanishiga katta hissa qo'shishgan (F. Peru, J.R.Budvvil, P.Pot'e).

Xududiy nazariyalar sohasida Rossiya iqtisodchilari va geograflari tomonidan ham katta tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ular asosan g'arb olimlari fikrlarini rivojlantirganlar. Bu borada ayniqsa, universitet rayon maktabining iqtisodiy va ijtimoiy geografiya vakillari o'ziga xos xususiyatga ega bo'lishgan. N.N.Baranskiy, N.N.Kolosovskiy, I.A.Viti, YU.G. Saushkin kabi olimlar ushbu yo'nalishni mustahkamlashga katta hissa qo'shganlar.

**JOYLASHTIRISH NAZARIYALARI.** Joylashtirish nazariyalarini statik va dinamik nazariyalarga ajratish mumkin. **Statik nazariyalar** XIX asrning birinchi yarmidayoq paydo bo'lgan. **Dinamik nazariyalar** esa bir asrdan so'ng - XXasr boshlarida yuzaga kelgan. **Dastlabki joylashtirish nazariyalari** hozirda **klassik standart nazariyalari** deb atalib, ular Y.G.Fon Tyunen, V.Launxard, A.Veber nomlari bilan bog'liq. Ushbu nazariyalarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

– alohida olingan biror qishloq xo'jalik yoki sanoat korxonasining ko'rib chiqilishi;

– joylashtirishning barcha omillari to'g'risida ma'lumotlarni to'plab, ularni umumlashtirib, korxonani qurish (ishlab chiqarishni joylashtirish)ning optimal joyi to'g'risida aniq javob olish mumkinligi to'g'risida takliflar mavjudligi.

Y.G. Fon Tyunen tovar ishlab chiqarishning ob'ektiv qonuniyatlari mavjudligini aniqlagan birinchi olim hisoblanadi (uning birinchi ishi 1826 yilda paydo bo'lgan). Tyunen qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish bozorida sanoat mahsulotlari bilan ta'minlovchi shahargacha bo'lgan masofaga qarab joylashtirish, ixtisoslashish va qishloq xo'jaligini yuritish usullarini tanlash modellarini taklif etdi. Tyunen modelida joylashtirishning asosiy omili sifatida transport xarajatlari namoyon bo'ladi.

V.Launxard ham sanoat korxonalarini ko'rib chiqib, transport omili hal qiluvchi omil, deb hisoblagan. Uning fikri sanoat korxonalarini joylashadigan joy to'g'ri tanlanganligini xom ashyo, yordamchi materiallar va tayyor mahsulotlarni keltirish uchun transport xarajatlarini minimallashtirish bilan asoslangan edi.

A.Veber sanoatni joylashtirishning to'liq nazariyasini (XX asrda paydo bo'lgan) birinchi bo'lib ishlab chiqqan olimdir. Veber nazariyasiga ko'ra, optimal joylashtirishning asosiy mezonini ishlab chiqarish va sotishning jami xarajatlarini minimallashtirish sanaladi. Bunda transport, mehnat, xom ashyo va energiya xarajatlari hamda aglomerasiya omili ham hisobga olinishi kerak.

**Klassik standart nazariyalar** 1920 yillarda A.Predel va T.Palander tomonidan tanqid qilinadi. A.Predel muvofaqqiyatli joylashtirish joylarini ko'rsatib o'tgan (ya'ni optimal joylashtirish joyini matematik aniqlash imkoniyatini inkor etgan). T.Palander maxsus (turli

xil tarmoqdagi korxonalar uchun) va umumiy standart nazariyalarini taklif etdi.

Joylashtirish nazariyalari rivojlanishi yangi bosqichining (taxminan XX asr o'rtalarida boshlangan) ko'zga ko'ringan vakillari Avgust Lyosh va Devid Smit hisoblanadi. Ularning nazariyalari yangi yoki neoklassik standartlar bilan ataladi (bu erda «neoklassik» tushunchasining neoklassik iqtisodiyot nazariyasiga aloqasi yo'q). Neoklassik nazariyaning klassik nazariyadan farqi shundaki, unda ishlab chiqaruvchilar optimal xududiy joylashuvni ta'minlay oluvchi sanoat ishlab chiqarishi joylashuvining umumiy nazariyasini yaratish mumkin emasligini tushunib etishlari lozim. Unga ko'ra, xususiy tadbirkorlar tomonidan ishlab chiqarishning joylashish joyini tanlash sub'ektiv amalga oshiriladi. Optimal joylashtirishning mezoni sof foydani maksimalashtirish hisoblanadi.

Statik nazariyalarning rivojlannishi hozirgacha davom etmoqda. Ular asosan korxonani joylashtirish omillari sonining ko'payishi yo'nalishida amalga oshirilmoqda. Undan tashqari, bir zavodli emas, balki ko'p zavodli sanoat firmalari ko'rib chiqila boshlandi (Raynoxold Grosning 1980 yillar boshlaridagi ishlari). Aynan ko'p zavodli sanoat firmalari hayotda ko'p bo'lib, aksariyat hollarda ularning tarkibiga iqtisodiyotning uchinchi sektori korxonalari ham kiradi. Bunday kompaniyalarda optimal joylashtirish muammosiga yondashuv bir zavodli firmalarga nisbatan tubdan farq qiladi. Ko'p zavodli firmaning asosiy maqsadi tarkibidagi korxonalarni shunday joylashtirishki, bunday joylashtirish natijasida minimal va kompaniya foydasi maksimal bo'lsin.

Joylashtirishning dinamik nazariyalari, yuqorida aytib o'tilganidek, XX asrning birinchi yarmida vujudga keldi. Birinchi sodda dinamik konsepsiya sifatida X.Xotelling modelini aytish mumkin. U 1920 yillardagi ishida bir - biri bilan o'zaro raqobatlashadigan ikkita ishlab chiqaruvchi korxonani optimal joylashtirishni isbotlab bergan.

Dinamik nazariyalarda statik nazariyalardan farqli ravishda ko'proq ko'p zavodli kompaniyalar ko'rib chiqiladi. R.Vernoning mahsulot ishlab chiqarish sikli konsepsiyasini garchi, u mintaqaviy nazariya doirasidan chetga chiqib ketgan bo'lsa ham, joylashtirishning dinamik nazariyasi deb hisoblash mumkin (1960 yillarda paydo bo'lgan). Vernoning asosiy tezisi shundan iboratki, har bir mahsulot chegaralangan hayotiy siklga ega bo'lib, shu davrda ishlab chiqarish

jarayoni hamda uni optimal joylashtirishda o'zgarishlar ro'y berib turadi. Mahsulotning hayotiy sikli bir qancha bosqichni (ishlab chiqarish, o'zgartirish, ulg'ayish, standartlashtirishni) o'taydi. Ular bir-biridan joylashtirishning asosiy omillaridagi nisbatlari bilan farq qiladi.

Hozirda dinamik nazariyalar soni ko'p emas. Dinamik konsepsiyalar doirasida sanoat firmalarining xududiy rivojlanish bosqichlari ajratiladi. Har bir bosqichda kompaniyalar o'z faoliyatini joylashtirishning turli mezonlaridan foydalanishadi. Masalan, Storper va Uolker bunday bosqichlarning to'rttasini ajratadi. Birinchisi – «lokalizasiya» – yangi sanoat firmalari va korxonalarining yangi xududlarda joylashuvi. Ikkinchisi – «selektiv suburbanizasiya» – dastlab tanlangan xududlarda bozor holatlari mustahkamlangan sari ushbu firmalar quvvatlarining oshirib borilishi. Uchinchisi – «dispersiya» – sanoat firmalarining chetga (pereferyaga) tomon harakati. Va nihoyat, to'rtinchisi – «joylashuvchi og'irlik markazlarini ko'chirish» – sanoat tuzilmasining yangilanishi ta'siri ostida ishlab chiqarishni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish. Masalan, texnologik yangiliklar asosida, talab tuzilmasining tarkibiy o'zgarishi hisobiga, eski tarmoq va ishlab chiqarish evolyusiyasi natijasida.

Firmalar – yangilanish jarayonining tashuvchilari ko'pincha oldin paydo bo'lgan yirik sanoat markazlaridan tashqari joylashadilar. Bu esa jarayonni yana «lokalizasiya» bosqichiga qaytaradi.

### **13.3. Xududiy o'sish nazariyalarini tahlil etish masalalari**

Xududiy o'sish nazariyalari tahlilini boshlashdan oldin, u bilan bog'liq ikkita masalani ko'rib chiqish zarur. Birinchisi – «o'sish» va «rivojlanish» kategoriyalarining nisbatlari, ikkinchisi – o'sish muammolari ko'rib chiqiladigan mintaqalar chegaralarini aniqlash. «O'sish» va «rivojlanish» kategoriyalarining o'zaro nisbatlarini aniqlashga keladigan bo'lsak, davlat tomonidan tartibga solishning umume'tirof etilgan asosiy maqsadi oddiy o'sish emas, balki rivojlanish hisoblanadi. Bu haqda P.Samuelson shunday degan edi: «ishlab chiqarishning faqatgina oddiy miqdoriy o'sishiga intilish kerak emas (hatto aholi jon boshiga ham). U bilan birga jamiyatning hamma ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasi ichki rivojlanishiga erishish zarur»\*.

---

\* Самуэльсон П. «Экономика». Т2 – М.: ВНИИСИ, 1992.



Keyinchalik esa ko'pincha olimlar shu narsani ta'kidlashdiki, nazoratsiz miqdoriy o'sish butun insoniyatga xavf solishi mumkin. Chunki u ekologik, energetik, xom ashyo va boshqa global muammolarni tug'diradi.

SHunga qaramasdan, xududiy nazariyalar doirasida va asosan xududiy siyosatning amaliy chora-tadbirlarini amalga oshirishda gap ko'proq iqtisodiy o'sish haqida boradi. Birinchidan, «iqtisodiy o'sish»ni «rivojlanish»ga qaraganda miqdoriy baholash mumkin. SHuning uchun ham uni tadqiqotlarda va amaliyotda qo'llash ancha oson. Ikkinchidan, bir mamlakat doirasida iqtisodiy o'sish sur'atlaridagi xududiy notengliklar haqida gapirish to'g'riroq bo'ladi. SHuni ham aytib o'tish kerakki, ko'pgina tadqiqotchilar «o'sish» deganda «rivojlanish»ni tushunadilar.

Xududiy o'sish nazariyalarini ikki guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga ishlab chiqarish funksiyasiga asoslangan neoklassik nazariyalar, ikkinchisiga neokeynschilar, institusionallar va iqtisodchi – geografiyashunoslar modellarining sintezi bo'lgan kumulyativ o'sish nazariyalari kiradi (aniqroq qilib aytganda esa, birinchi bo'lib kumulyativ o'sish modelini institusionalistlar taklif etishgan, so'ng uni iqtisodchi-geografiyashunoslar rivojlantirishgan, neokeynschilar esa xududiy siyosat tadbirlarini amalga oshirishda unga tayanishgan).

Neoklassik maktab haqida gapiradigan bo'lsak, bu erda xududiy o'sish sur'atlaridagi farqlar yo'nalishidagi dastlabki tadqiqotlar umummilliy iqtisodiy o'sishni tushuntirishda foydalanilgan nazariyalarga asoslangan. Ushbu usulni birinchi bo'lib Dj.Bors qo'llagan.

Bunday yondashuv 1960 yillarning o'rtalarigacha mashhur bo'lgan, undan hozirgi paytda ham foydalaniladi. Bu erda asosiy e'tibor iqtisodiy tizimning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishga yo'naltirilgan omillarga qaratiladi. Ushbu yondashuvga ko'ra, xududiy o'sish parametrlari tabiiy resurslarning miqdori va sifati, mehnat resurslarining miqdori va malakasi, kapital zahirasi va texnologiya darajasi bilan aniqlanadi.

O'sishning ko'pgina oxirgi neoklassik modellarida dastlabki modellar kabi kapitalni investisiyadan keladigan daromad kam, yuqori rivojlangan xududlardan keladigan investision daromadi yuqori bo'lgan, sust rivojlangan xududlarga ko'chirish yo'li bilan xududlar o'rtasidagi farqlarni kamaytirishga intilishlar mavjud. Aksincha, ish haqi darajasi

past xududlarda daromadlar kamroq bo'ladi, shuning uchun ham mehnat resurslari ko'proq rivojlangan xududlarga ko'chib o'tishadi. Biroq oxirgi neoklassik modellarda xududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasini bir-biriga yaqinlashtirish masalasiga ehtiyotkorlik bilan yondashilgan.

A.Lesh shuni ta'kidlaganki, tenglashtirish faqatgina stixiyali bozor kuchlari orqali juda ham sekin amalga oshadi.

Kumulyativ o'sish nazariyalarida asosiy model muallifligi G.Mtordalga tegishli. Ko'p holatlarda u butun bir mamlakatlar misolida, qay tarzda ixtisoslashuv va miqyos samarasi yordamida arzimas ustunliklarga ega bo'lgan xududlar vaqt o'tishi bilan uni ko'paytirishlari mumkinligini ko'rsatadi.

Ushbu yondashuvdan shunday xulosaga kelish mumkinki, o'sish markazlari (qutblari) kabi xududlar ustunliklari ularning tez rivojlanishini ta'minlasa, bir paytning o'zida kam rivojlangan mintaqalar orqada qolishi yanada chuqurlashishi mumkin. Ushbu konsepsiya N.Koldora va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida matematik ko'rinishga keltirilgan.

O'ziga xos «o'sish qutblari», yirik sanoat markazlariga aylanayotgan shaharlar to'plamining shakllanishi haqida X.Richardson ham yozgan. Uning fikricha, aynan xududiy aglomerasion tejam muhiti bunda muhim rol o'ynaydi. U texnika taraqqiyotini va mehnat unumdorligini rag'batlantiradi, korxonalarni joylashtirish jarayonlariga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Richardson modeli asosida neoklassik modeldagi kabi funksiya yotadi. U o'sish sur'atlari bilan kapital jamg'arish sur'atlari, mehnat taklifining ko'payishi va texnika taraqqiyoti tezligi o'rtasidagi aloqalarni aks ettiradi.

Dj. Fridman fikriga ko'ra, iqtisodiy o'sish ko'proq shaharlarda yuz beradi (biroq olimlar-urbanistlar faqatgina ustunliklarni emas, balki yirik shaharlarning kamchiliklarini ham aytib o'tadilar). Fridman «markaz-pereferiya» nazariyasining klassigi hisoblanadi. U mamlakatda o'sish markazlari (ular «yadro»lar deb ataladi) shakllanishining to'rt bosqichini ajratadi:

1. O'z atrofidagi xududlarga kam ta'sir ko'rsatuvchi lokal yadrolarning mavjudligi.
2. Keng pereferiyaga ta'sir ko'rsatuvchi va o'sish qutblarini shakllantiruvchi eng kuchli yadroning paydo bo'lishi.

3. O'sish qutblarida potentrik tuzilma shakllanishiga olib keluvchi yana ko'pgina yadrolarning rivojlanishi.
4. YAdrolarning baqquvat pereferiyaga ega urbanistik poliareal tuzilmaga aylanishi.

CHekka (pereferiya) xududlarning (rivojlanish markazida va ulardan tashqarida bo'lgan) rivojlanishini tasvirlashda Dj. Fridman, T.Xegerstrand va boshqa qator olimlar taklif etgan «yangiliklar diffuziya»si sxemasidan foydalaniladi.

J.R.Budvil' o'sish qutblari nazariyasini rivojlantirishga sezilarli hissa qo'shdi. Uning konsepsiyasiga ko'ra, ishlab chiqarishning rivojlanishi iqtisodiyotning hamma tarmoqlarida bir xil bo'lavermaydi. Har doim dinamik, ya'ni «propul'siv» deb ataluvchi tarmoqlarni ajratish mumkin. Ular butun iqtisodiyotning rivojlanishi uchun rag'batlantiruvchi hisoblanadi va «rivojlanish qutblari» sifatida namoyon bo'ladi. V. Leontevning «xarajatlar – ishlab chiqarish» tipidagi o'zaro aloqalar tizimi orqali yangiliklar samarasi butun iqtisodiyotga tarqaladi. Ishlab chiqarish konsepsiyasi jarayoni hisobiga, «promul'siv» tarmoqlar aniq bir nuqtada (rayonda) – «o'sish markazlarida (qutblarida) to'planadi». J.R. Budvil' V.Kristallarning markaziy o'yinlar nazariyasiga asoslangan holda ularning ierarxiyasini taklif etdi. O'sish qutblari orasida quyidagilar ajratiladi:

- uchinchi sektor tarmoqlarida ixtisoslashuvchi va yaqinidagi qishloq joylariga xizmat ko'rsatuvchi kichik va o'rta «klassik» shaharlar;
- qaysi xududlarning iqtisodiy rivojlanishi davlat tomonidan rag'batlantirilishi kerak va nima uchun? Tashqi ta'sirlar hisobiga rivojlanayotgan, diversifikasiyalangan iqtisodiy tuzilmaga ega o'rta kattalikdagi sanoat korxonolari;
- propul'siv tarmoqlarni o'z ichiga oluvchi, iqtisodiyot tuzilmasi rivojlangan yirik shahar aglomerasiyalari;
- bir qancha shahar tizimlarini qamrab oluvchi va xududiy tuzilmalar evolyusiyasini aniqlab beruvchi integrasiya qutblari.

Xududlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish (yoki xududiy siyosat) nazariyalari quyidagi ikkita asosiy savolga javob berishi kerak:

- qaysi xududlarning iqtisodiy rivojlanishi davlat tomonidan rag'batlantirilishi kerak va nima uchun? Boshqacha qilib aytganda,

xududiy siyosatning maqsadlari va ob'ektlari qanday bo'lishi kerak, xududlarning iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishning zarurati bormi?

- tanlangan xududlarning iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantirish usullari qanday bo'lishi kerak?

Birinchi savolga javob xududiy o'sish nazariyalaridan kelib chiqadi. Neoklassik nazariyaning asosiy xulosasi shundan iboratki, vaqt o'tishi bilan mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishi darajasi tenglashadi. Xududiy nazariyalar rivojlanishining dastlabki bosqichida ushbu ilmiy maktab tarafdorlari, xududlar iqtisodiy rivojlanishiga davlatning aralashuvi maqsadga muvofiq emas, degan xulosaga kelishadi. Biroq shu bilan birga ular, tabiiyki, ijtimoiy masalalarni hal etish muammoli xududlarga moliyaviy yordam ko'rsatish zaruriyatini inkor etishmagan.

Kumulyativ o'sish nazariyasi tarafdorlari esa, xududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlar kamayishi yoki ko'payishini hisobga olib, aksincha, faol xudud siyosatini olib borishni taklif etishgan. Xududiy siyosatning xududlar iqtisodiy rivojlanishi darajasidagi farqlarni kamaytirish maqsadini ular shakllantirilgan (yoki boshqacha qilib aytganda, xududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasini tekislash; bu erda «tekislash» deganda, tenglikka erishish emas, balki farqlarni kamaytirish tushuniladi). Bundan kelib chiqadiki, davlat ancha orqada qolgan xududlarning iqtisodiy rivojlanishini rag'batlantirishi kerak.

Dastavval, xududlarning iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish nazariyalari ushbu ikkita yondashuv bilan chegaralanar edi. Biroq bunda neoklassik nazariya tarafdorlarining fikrlari amaliy tasdig'ini topmas – qisqa muddatda xududlarning iqtisodiy rivojlanishidagi farqlar yo'qolmas edi. SHuning uchun ham davlatni xududlarning iqtisodiy rivojlanishiga u yoki bu darajada aralashishiga to'g'ri kelar edi.

G. Kameron uch oqimni ajratadi: birinchisi – «neintervalistlar» bo'lib, ular xududiy o'sishga davlat tomonidan aralashish zaruriyatini inkor etadilar; ikkinchisi – «adaptorlar» bo'lib, ular stixiyali bozor kuchlarini kamaytirish va ishchi kuchi migrasiyasi hamda investisiyalarni rag'batlantirish hisobiga tabiiy jarayonlarni tezlashtirish yo'li bilan xududlar rivojlanishiga uncha sezilarli bo'lmagan to'g'rilashlar kiritib turish tarafdori; uchinchisi – «radikal qayta

quruvchilar» bo'lib, intensiv tartibga solishni amalga oshirish tarafdorlari bo'lishgan.

«Adaptorlar» g'oyasining mohiyati davlatning tartibga solish vazifasi sifatida tabiiy jarayonlarni ularning yo'nalishini o'zgartirmasdan turib tezlashtirishdan iborat. YANada aniqroq aytganda, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish xususiy kompaniyalar manfaatlari korxonalarini rivojlantirish va joylashtirishning umumiy tendensiyalariga mos tushganda samarali bo'ladi. Bu esa, sanoati rivojlanmagan xududlarda sanoatni rivojlantirish uchun sharoitlar mavjud yoki bunday sharoitlar paydo bo'layotganda yuz beradi. Ular esa davlatning maqsadli siyosati bilan mustahkamlanadi.

Xududiy iqtisodiy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solish nazariyalarining «pionerlari» S.Dennison va A.Lesh hisoblanadi. Ular rivojlanishni tartibga solishda bir-biridan tubdan farq qiluvchi ikkita konseptual yondashuvga asos solishgan. S. Dennisonni «faol qayta quruvchilarga» kiritish mumkin, A. Leshni esa, yuqorida qayd etib o'tilganidek «adaptorlar»ga. S.Dennison urushdan oldingi Buyuk Britaniya uchun jiddiy muammo bo'lgan depressiv hududlarni tartibga solishni ko'rib chiqqan. U asosiy e'tiborini sanoat investisiyalari geografiyasiga bevosita usullar yordamida ta'sir etishga qaratgan. Bu usullar sanoatga yangi kapital qo'yilmalarini joylashtirish ustidan markazlashgan nazoratni o'rnatish bilan bog'liq bo'lgan.

A. Lesh xududlarning iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solishni ancha keng sohalar bo'yicha ko'rib chiqqan. SHu bilan birga u xududiy iqtisodiyotning o'zini o'zi tartibga solish qobiliyatlarini yuqori baholagan. U konkret xududlarda tabiiy jarayonlarning kechishini engillashtiruvchi chora-tadbirlardan tanlab foydalanishni taklif etgan; ishlab chiqarishni ko'chirish, raqobatni rag'batlantirish uchun imtiyozli sharoitlar yaratish tarafdori bo'lgan hamda investisiya kiritishning eng yaxshi yo'nalishlari haqida axborot beruvchi markaziy byuro yaratishni taklif qilgan. Bularning hammasi, Leshning fikriga ko'ra, xududiy notengliklarni tekislashning etarli sharti bo'lgan kapital mobilligini oshirishga olib keladi. Dennisondan farqli ravishda A. Lesh qoloq xududlarda investisiyalarni rag'batlantirishni maqsadga muvofiq, deb hisoblamagan.

SHuni ham aytib o'tish kerakki, 1940 yillar oxirida xududlar iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish nazariyalari rivojlanishiga E Guver ham sezilarli hissa qo'shgan. U davlatning tartibga solish

maqsadlariga xususiy korxonalarni mukammal joylashtirish, muammoli xududlar iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatish, ishlab chiqarish o'sishini rag'batlantirish va xudud iqtisodiy tuzilmasini yaxshilashni kiritgan. E.Guver tartibga solish chora-tadbirlarini ikki guruhga ajratgan. Birinchisi – qaytaruvchi bo'lib, ular stixiyali bozor kuchlari faoliyatining salbiy oqibatlarini yumshatishga; ikkinchisi – oldini oluvchi hisoblanib, ular uzoq istiqbolda bandlikning holatini yaxshilashga qaratilgan. U shu bilan birga iqtisodiy kon'yunktura holatiga qarab, iqtisodiyotning turli tarmoqlariga nisbatan selektiv (tanlama) tartibga solishni amalga oshirish zarurligini ta'kidlab o'tgan.

Biroq, E.Guver uzoq muddatli tartibga solishning muhimligi haqida to'xtala turib, xududiy chora- tadbirlarni birinchi navbatda qisqa mudatli, antisiklik tartibga solish bilan bog'lagan.

SHunday qilib, xududiy nazariyalarni o'rganish mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan va amalga oshirilayotgan xududiy tartibga solish tadbirlari uchun uslubiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu albatta, ushbu yo'nalishga e'tibor kuchaygan hozirgi davrda muhim ahamiyat kasb etadi. Ulardan samarali foydalanish mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini belgilab beradi.

### **Qisqacha hulosalar**

Iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi ijobiy holatlar bilan birga xududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jarayonida echilishi kerak bo'lgan muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Ularga quyidagilar kiradi:

– xududiy statistikada xududlarning ijtimoiy-iqtisodiy holatini baholash hamda amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun etarli darajada hisob olib borilmaydi va chop etilmaydi. Xududlarda aholining real daromadlari va bu daromadlar o'sishi, xudud byudjeti xarajatlari yo'nalishlari va devisit, transfertlar, pul emissiyasi darajasi, inflyasiya darajalari, eksport va importning real hajmi, aholining maktab yoshidagi qismini umumta'lim maktablari bilan qamrab olish kabilar haqidagi ko'rsatkichlarni topish qiyin;

– mamlakatda xududiy siyosat yoki hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish konsepsiyalari mukammal darajada ishlab chiqilmagan. Xududiy rivojlanishni tartibga solishni o'rganishda bu tadbirning aniq maqsadlari, tamoyillari, yo'nalishlari va mexanizmlari mukammal emasligi aniqlandi.

– xududiy rivojlanishni tartibga solishning qonuniy asoslari, xususan, xududiy siyosat asoslari bo'yicha qonun va qarorlar, farmonlar mavjud emas;

– xududlarda boshqaruv islohotlar talablariga to'liq javob bermaydi. To'g'ri, bu borada ma'muriy islohotlar doirasida ijobiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Biroq mahalliy hokimiyat organlarining funksiyalari, vazifalari va vakolatlari aniq belgilanmagan va chegaralanmagan;

– xududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini baholash uslubi nomukammal. Ularning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini baholovchi va mahalliy hokimiyat organlari xizmatchilari malakasini oshiruvchi ixtisoslashgan tashkilot va markazlar yo'q.

– mahalliy byudjetlar moliyaviy avtonomiyaga ega emas, ular markazga juda ham kuchli bog'langan. Mahalliy hokimiyat organlari hali ham mahalliy byudjetlarni qabul qilish bo'yicha va yuklatilgan vazifalarni amalga oshirish uchun etarli moliyaviy baza bilan ta'minlanmagan;

– xududlarning iqtisodiy rivojlanish borasidagi asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha differensiasiya darajasi ortib bormoqda. Eng katta tafovut sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi bo'yicha kuzatilmoqda, u 20,1 martani tashkil etgan.

## **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Xududlarning ijtimoiy rivojlanishini tartibga solish asoslari nimalardan iborat?
2. Xududlarning iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish asoslari nimalardan iborat?
3. Xududlarning ijtimoiy rivojlanishini tartibga solishdan maqsad nima?
4. Xududlarning iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish qanday maqsadni ko'zda tutadi?
5. Xududlarning ijtimoiy rivojlanishini tartibga solish qanday vazifalarni bajaradi?
6. Xududlarning iqtisodiy rivojlanishini tartibga solish-chi?
7. Xududlar ijtimoiy rivojlanishining nazariy asoslari nimalardan iborat?
8. Xududlar iqtisodiy rivojlanishining nazariy asoslari-chi?

9. Xududlar ijtimoiy rivojlanishining metodik asoslari nimalardan tashkil topgan?

10. Xududlar iqtisodiy rivojlanishining metodik asoslari nimalarni o'z ichiga oladi?

### **Asosiy adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investisiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni. – Xalq so'zi, 2005y., 12 aprely.

2. R.H Alimov, S.A /anixo'jaev., va boshqalar. Mahalliy iqtisodiyot va menejment– T: TDIU, 2004.

3. L.M Tashpulatova., Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati. – Toshkent. 2004.

4. A.E. Ishmuxamedov. «O'zbekistrn milliy iqtisodiyoti». Darslik T., 2005y urdiev.

5. A.E.Ishmuxamedov, Z.A.Djumaev, Q.Jumaev «Makroiqtisodiyot» Darslik,T. 2005y

6. Internet veb-saytlari.

[www.ceep.Uz](http://www.ceep.Uz).

[www.bearingpaint.Uz](http://www.bearingpaint.Uz)



## **14-BOB. MINTAQALARNI IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANISHNI IMKONIYATLARI**

### **14.1.O'zbekiston xududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi**

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov Oliy Majlisning Qonunchilik palatasi va Senati qo'shma majlisidagi 2004 yilda respublikamizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari, iqtisodiy islohotlarning borishini baholash hamda 2005 yilda iqtisodiyotni isloh etish va modernizasiyalashning asosiy ustuvor masalalariga bag'ishlandi. Ma'ruzada ta'kidlaganidek, 2004 yilda iqtisodiyotni erkinlashtirish izchil, aniq maqsadga yo'naltirilgan holda amalga oshirildi. Natijada makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishning barqaror sur'atlari ta'minlandi: ichki mahsulot 7,7 %, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 6,2 %, pullik xizmatlar ko'rsatish esa 7,9 % ga ko'paydi.

Qat'iy pul-kredit siyosati yuritilishi tufayli o'rtacha yillik pul massasi ichki mahsulot hajmiga nisbatan 10,9 % qisqardi. Inflyasiya darajasi 2002 yildagi 21,6 % o'rniga 3,8 %ni tashkil etdi. Aholining real daromadlari yil davomida 12,3 % ko'paydi. Almashtirish kurslarini birlashtirish va valyuta siyosatini erkinlashtirish borasida olib borilgan izchil chora-tadbirlar joriy operatsiyalar bo'yicha milliy valyuta konvertasiyasini ta'minlash va halqaro valyuta jamg'armasi bitimining VIII moddasiga qo'shilish imkonini berdi. Uzoqni ko'zlab siyosat yuritish natijasida iqtisodiy faoliyat birmuncha faollashdi. Jumladan, tashqi savdo aylanmasi hajmi 17,3 %, eksport hajmi 24,6% bo'lib, tashqi savdo aylanmasida 760 million AQSH dollaridan ortiq miqdorda ijobiy salbdoga erishildi.

Mamlakat iqtisodiyotiga jalb etilgan investitsiyalar hajmi qariyb 2 trillion so'mga etdi, bu esa o'tgan yildagiga qaraganda 4,5 % ko'p, demakdir.

2004 yili kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tartibli rivojlandi. Kichik biznesning mamlakat ichki mahsulotidagi ulushi 35,5 I %ga etdi. Bugungi kunda byudjet korxonalarida ishlayotganlar iqtisodiyotda band bo'lganlarning 57 I %dan ko'prog'ini tashkil etadi.

2004 yilda jalb etilgan sarmoyalar asosan mamlakat iqtisodiyotida etakchi tarmoqlar bo'lgan ijtimoiy sohalarga, ta'lim va

tibbiyot sohasini rivojlantirishga yo'naltirildi. Ayni vaqtda korxonalarining o'z mablag'lari, tijorat banklari kreditlari va to'g'ridan-to'g'ri jalb etilayotgan xorijiy investisiyalarning bu boradagi ulushi ortib bormoqda. Masalan, kapital ko'yilmalar tarkibidagi bunday sarmoyalarning hissasi o'tgan yildagiga nisbatan 57 foizdan 63 foizga o'sdi. Xorijiy investisiyalar va kreditlar o'zlashtirilishining umumiy miqdori 602,3 million AQSH dollarini tashkil etdi. To'g'ridan-to'g'ri kiritilayotgan chet el sarmoyalari va kreditlari qariyb 1,6 marta ko'paydi.

O'zbekistonda ham boshqa davlatlar singari investision loyihalarni moliyalashtirishning tashqi manbalari bilan bir qatorda, ichki manbalardan ham oqilona foydalanish uchun ushbu sohaning huquqiy va iqtisodiy asoslarini ta'minlash, uning ochilmagan, tadqiq qilinmagan qirralarini o'rganish hamda amaliyotga tatbiq etish lozim.

Xududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi YAIM o'sishini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasida ikki palatali parlamentning (Qonunchilik palatasi va Senat) shakllanishi esa xududlardagi iqtisodiy-ijtimoiy vaziyatga ularning Senatdagi vakillari orqali ta'sir etish uchun imkoniyat yaratadi.

Birgina 2004 yil natijalariga ko'ra, respublika hududlari (Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 viloyat va Toshkent shahri) barqaror sur'atlarda rivojlandi. Agarda respublikada asosiy ko'rsatkich hisoblangan YAIMning o'sish sur'atlari 2003 yildagiga nisbatan 107,7% bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Qoraqalpog'iston Respublikasida 108,7%, Toshkent viloyatida 109,0%, Sirdaryo viloyatida 108,4%, Xorazm viloyatida 108,2%ni tashkil etdi. Jizzax va Namangan viloyatlarida mazkur ko'rsatkichlar YAIMning respublika darajasida bo'ldi. Toshkent shahri (104,0%), Farg'ona viloyati (104,9%), Qashqadaryo (105,7%) va Surxondaryo viloyatlari (105,9%) YAIMning yuqori sur'atlarda o'sishi bo'yicha respublika darajasidan past ko'rsatkichga erishdi. YAIMning yuqori sur'atlarda o'sishi ko'rsatkichlari iqtisodiyotning real sektori rivojlanishi va ijobiy tendensiyalar bilan bog'liq. 29.1 jadvalda O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotida xududlarning ulushi keltirilgan.

Unda ko'rinib turganidek, 2004 yil va 2003 yilga YAIMning ulushi Toshkent shahrida (14,0%dan 13,8%gacha), Farg'ona (8,5%dan 8,3%gacha), Toshkent (9,8%dan 9,7%gacha), Surxondaryo (5,3%dan 4,8%gacha), Samarqand (7,3%dan 6,6%gacha), Qashqadaryo (7,1%dan

6,8%gacha) va Andijon viloyatlarida (6,9% dan 6,7gacha) kamaydi, Buxoro (6,1%dan 6,3%gacha), Jizzax (2,8%dan 3,1%gacha), Namangan (4,3%dan 4,6%gacha) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasida esa (2,4%dan 2,6%gacha) ortdi. Boshqa barcha viloyatlarda bu boradagi xududiy tarkib o'zgaradi.

Aholi jon boshiga YAIM ishlab chiqarish indeksida ham ma'lum o'zgarishlar sodir bo'ldi (14.1. jadval). Asosan mazkur o'zgarishlar ikkinchi va uchinchi guruhlarda kiruvchi xududlarga taalluqli. Birinchi guruhga kiruvchi hududlar 2003 yildagi darajada qoldilar. Oldingi yillardagi kabi mazkur guruhga Navoiy, Buxoro, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahri kiradi.

Ikkinchi guruhda quyidagi o'zgarishlar sodir bo'ldi: indekslar Sirdaryo (0,754dan 0,768gacha) va Jizzax viloyatlarida (0,702dan 0,768gacha) o'sdi, bu esa mazkur viloyatlarga birinchi guruhga kirishga imkon berdi; Farg'ona, Qashqadaryo, Andijon, Surxondaryo va boshqa viloyatlarda indekslar 2003 yildagiga nisbatan sezilarli darajada pasaydi.

Uchinchi guruhda 2003 yil ko'rsatkichlariga nisbatan indeks darajasi ko'tarilgan bo'lsa, Qoraqalpog'iston Respublikasida saqlanib qoldi va eng past darajaga (0,423) ega bo'ldi. Qoraqalpog'iston Respublikasida aholi jon boshiga YAIM 199,2 ming so'mga to'g'ri keldi. Bu Toshkent shahri ko'rsatkichidan 4 marta, respublikaning o'rtacha ko'rsatkichidan 2,5 marotaba kam.

2004 yilda ko'pgina xududlarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish sur'atlari yuqori bo'ldi. Andijon viloyati (135,8%), Qoraqalpog'iston Respublikasi (123,5%), Samarqand (113,4%), Jizzax (112,8%) va Toshkent viloyati (109,6%) respublikaning o'rtacha ko'rsatkichidan (109,4%) yuqori ko'rsatkichlarga erishdi. Ushbu xududlardagi ijobiy natijalarga etakchi tarmoqlarda ma'lum darajada tayyor va mahalliy mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining o'sishi hisobidan erishildi.

Sanoat ishlab chiqarishi rivojlanish darajasining indeksi 2003 yildagiga nisbatan Qoraqalpog'iston Respublikasida (0,193dan 0,207gacha), Andijon viloyatida (0,960dan 1,028gacha), Qashqadaryo (0,967dan 1,050gacha), Toshkent (1,537dan 1,650gacha) va Surxondaryo viloyatlarida (0,286dan 0,295gacha) yuqori bo'ldi. Qolgan viloyatlarda mazkur indeksning pasayishi kuzatildi. Navoiy (4,431), Toshkent (1,650), Qashqadaryo (1,050) va Andijon (1,028) viloyatlari mazkur ko'rsatkichlar bo'yicha etakchilik qilib kelmoqda.

## 14.1.Jadval

O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotida hududlarning  
ulushi, foizda

№	Xududlar	2003 yil	2004 yil
1	Qoraqalpog'iston Respublikasi	2,4	2,6
2	Andijon	6,9	6,7
3	Buxoro	6,1	6,3
4	Jizzax	2,8	3,1
5	Qashqadaryo	7,1	6,8
6	Navoiy	5,3	5,3
7	Namangan	4,3	4,6
8	Samarqand	7,3	6,6
9	Surxondaryo	5,3	4,8
10	Sirdaryo	2,0	2,0
11	Toshkent	9,8	9,7
12	Farg'ona	8,5	8,3
13	Xorazm	3,7	3,7
14	Toshkent shahri	14,0	13,8
	YAIMning takomillashmagan qismi	14,3	15,8

Manba: O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2004 yil № 8, SISM,  
T.: 2005. 88-b.

Sanoat mahsulotlarini aholi jon boshiga ishlab chiqarish ko'rsatkichlarining eng past darajasi ya'ni (64,6 ming.so'm) Qoraqalpog'iston Respublikasiga to'g'ri keladi. Bu hududda ushbu ko'rsatkich Navoiy viloyati ko'rsatikichidan 21 marotaba, Toshkent shahri ko'rsatkichiga nisbatan 7 marotaba kam bo'ldi. Buni Qoraqalpog'iston Respublikasining sanoat salohiyati pastligi bilan izohlash mumkin.

dan (97,3%) tashqari barcha viloyatlar 2004 yilda yuqori ko'rsatkichlarga erishdilar. Respublika darajasidan (113,4%)

yuqori ko'rsatkichlarga erishgan Andijon (145,3%), Farg'ona (119,2%) Qashqadaryo (117,1%), Jizzax va Surxondaryo viloyatlari (har biri 115,2%dan) shunday xududlar qatoriga kiradi.

O'zbekiston xududlarini aholi jon boshiga YAIM ishlab  
chiqarish bo'yicha guruhlash

2003 yil	Indeks	2004 yil	Indeks
I. YUqori daraja	1,000 yuqori	I. YUqori daraja	1,000 yuqori
Navoiy viloyati	1,685	Navoiy viloyati	1,705
Toshkent shahri	1,682	Toshkent shahri	1,678
Buxoro viloyati	1,053	Buxoro viloyati	1,085
Toshkent viloyati	1,041	Toshkent viloyati	1,032
II. O'rta daraja	0,500dan 1,000gacha	II. O'rta daraja	0,500dan 1,000gacha
Farg'ona viloyati	0,785	Sirdaryo viloyati	0,768
Qashqadaryo viloyati	0,782	Jizzax viloyati	0,768
Andijon viloyati	0,764	Farg'ona viloyati	0,759
Sirdaryo viloyati	0,754	Qashqadaryo viloyati	0,747
Surxondaryo viloyati	0,734	Andijon viloyati	0,744
Jizzax viloyati	0,702	Xorazm viloyati	0,669
Xorazm viloyati	0,681	Surxondaryo viloyati	0,657
Samarqand viloyati	0,669	Samarqand viloyati	0,601
Namangan viloyati	0,543	Namangan viloyati	0,572
III. Past daraja	0,500gacha	III. Past daraja	0,500gacha
Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,400	Qoraqalpog'iston Respublikasi	0,423

Manba: O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2004 yil № 8, SISM,  
T.: 2005. 89-b.

Halq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish bo'yicha Navoiy viloyati

Xalq iste'moli tovarlari (XIT) ishlab chiqarish indeksi (aholi jon boshiga) Andijon (1,847dan 2,259gacha), Buxoro (1,458dan

1,477gacha), Jizzax (0,655dan 0,723gacha), Surxondaryo (0,356dan 0,403gacha), Sirdaryo (0,669dan 0,677gacha), Farg'ona (0,844dan 0,903gacha) va Namangan viloyatlarida (0,561dan 0,573gacha) yuqori bo'ldi; Qashqadaryo, Toshkent, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahrida mazkur ko'rsatkichning pasayishi kuzatildi. Aholi jon boshiga XIT ishlab chiqarishda 10 ta xududda respublikaning o'rtacha darajasida past ko'rsatkich qayd etildi; eng past ko'rsatkich (28,5 ming.so'm) Qoraqalpog'iston Respublikasida edi. Xududlardagi XIT ishlab chiqarish ko'rsatkichlari pastligiga viloyatlarda mahalliy bozorlarni mahalliy tashkilotlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar sust amalga oshirilishi, kichik biznes tuzilmasini qo'llab-quvvatlash va uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarni sotib olishga iste'mol kreditlari berish mexanizmi sekinlik bilan joriy qilinishi asosiy sabablardan hisoblanadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirish bo'yicha 2004 yilda barcha xududlar yuqori ko'rsatkichlarga erishdilar. Xorazm (114,1%), Toshkent (112,8%), Namangan (112,7%), Sirdaryo (111,8%), Jizzax (111,2%) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi (112,5%) bu borada respublikaning o'rtacha ko'rsatkichlaridan (110,1%) yuqori darajaga erishdilar. Bunday yuqori sur'atlar bilan rivojlanishga fermer va dehqon xo'jaliklari samarali faoliyat yuritganliklari tufayli muvaffaq bo'lindi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini aholi jon boshiga etishtirish (indeks hisobida) 10 xududda respublikaning o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori bo'ldi. Biroq, bu indeksning ko'pgina xududlarda pasayishi, Buxoro, Sirdaryo, Xorazm va Jizzax viloyatlarida esa o'sishi kuzatildi.

2004 yilda 5 ta xududda – Andijon (37,5%ga), Qashqadaryo (18,6%ga), Navoiy (12,2%ga), Namangan (4,5%ga) va Farg'ona viloyatlari (9,6%ga) investisiyalar bo'yicha yuqori sur'atlarga erishildi; Bunday vaziyat yuqorida sanab o'tilgan viloyatlarda bir qancha ob'ektlar qurilishi tugatilganligi va respublika byudjeti bo'yicha moliyalash qisqarishi tufayli yuz beradi.

2004 yilda Buxoro, Sirdaryo, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahriga investisiyalarning salmoqli qismi yo'naltirildi. Ular asosan yangi korxonalarini qurish va qayta qurishga, yangi sanoat quvvatlarini yaratishga, ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish va ekin maydonlari hosildorligini oshirishga sarflanadi.

Buxoro viloyatida «Uzpolcharm» QK, «Buxoro-go'sht» AJ barpo etildi. Bundan tashqari investisiyalar hisobiga viloyatda turizm sohasini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi. Sirdaryo viloyatida «Lola model», «Mos-anteks», «Sayxunmebel» va «Altay» QKlari tashkil etildi. Investisiyalar Toshkent viloyatida asosan ijtimoiy infratuzilmani shakllantirishga, Jizzax viloyatida esa suv xo'jaligi infratuzilmasini shakllantirish va er unumdorligini oshirishga sarflanadi.

Aholi jon boshiga investisiyalar indeksi Buxoro (0,701dan 1,174ga), Jizzax (0,583dan 0,611ga), Surxondaryo (0,600dan 0,641ga), Sirdaryo (0,592dan 0,819ga), Toshkent (0,827dan 1,085ga), Xorazm (0,437dan 0,874ga) viloyatlari va Toshkent shahrida (2,864dan 3,088ga) yuqori bo'ldi. Qolgan xudularda ularning pasayishi kuzatildi.

CHakana savdo tovar ayirboshlash bo'yicha 2004 yilda Andijon viloyatidan tashqari (89,2%) barcha viloyatlarda, ayniqsa, Navoiy (123,5%), Toshkent viloyatlari (111,5%) va Toshkent shahrida (114,2%) yuqori sur'atlardagi o'sish kuzatildi. Mazkur ko'rsatkich bo'yicha yuqori darajadagi o'sish sur'atlari qishloq joylarda chakana savdo ob'ektlari, maishiy xizmat va umumiy ovqatlanish korxonalarini barpo etish va ulgurji bo'g'inni faollashtirish hisobiga ta'minlandi. Andijon viloyatida esa mazkur ko'rsatkichning past darajadaliigi bu boradagi ish juda sust tashkil etilganligi va aholining xarid qobiliyati etarli emasligi bilan bog'liq.

CHakana savdo tovar ayirboshlash indeksi (aholi jon boshiga hisoblaganda) ko'pgina hududlarda o'sdi, jumladan, Navoiy, Toshkent viloyatlarida va Toshkent shahrida bu ko'rsatkich yuqori bo'ldi. Andijon, Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand viloyatlarida mazkur ko'rsatkich sezilarli darajada past, 10 xududda esa pullik xizmatlar ko'rsatish respublikaning o'rtacha ko'rsatkichidan (184,1ming so'm) past bo'ldi. Mazkur ko'rsatkichning eng yuqori darajasi Toshkent shahrida (518,5ming so'm), eng past darajasi (92,5 ming so'm) Qoraqalpog'iston Respublikasida qayd etildi.

2004 yilda aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish bo'yicha barcha hududlarda yuqori ko'rsatkichlarga erishildi. Ko'rsatkichlari respublikaning o'rtacha darajasidan (113,8%)yuqori bo'lgan hududlar Andijon (132,7%), Navoiy (121,8%), Farg'ona (119,6%), Xorazm (119,2%), Jizzax (118,5%), Namangan (117,4%) va Buxoro viloyatlari hisoblanadi.

Aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish ko'rsatkichining yuqori sur'atlarda rivojlanishiga ta'lim, sog'liqni saqlash, shahar transportida yo'lovchilarni tashish aloqa hamda internet xizmatlarining o'sishi sabab bo'ldi.

Aholi jon boshiga pullik xizmatlar ko'rsatish 2004 yilda ko'pgina hududlarda yuqori bo'ldi, faqat Qashqadaryo, Samarqand viloyatlarida va Toshkent shahrida pasaydi.

Tahlil qilinayotgan vaqt mobaynida YAIM (2003 yildagi 4,2 martadan 2004 yilda 4,0 martaga), sanoat ishlab chiqarishi (mos ravishda 23,3dan 21,4gacha) va pullik xizmatlar (11,1 tadan 10,6 ga) tarmoqlararo tabaqalashuvning asosiy ko'rsatkichlari pasayishi, boshqa ko'rsatkichlari XIT bo'yicha (7,2dan 7,4martaga), investisiyalar bo'yicha (6,5dan 8,2ga), qishloq xo'jaligi mahsulotlari bo'yicha (3,3dan 3,4ga) va chakana savdo tovar ayirboshlash bo'yicha (5,0dan 5,6ga) esa o'sish kuzatildi.

Xududlararo tabaqalanishning shakllanishiga katta iqtisodiy salohiyatiga ega bo'lgan Navoiy viloyati (YAIM va sanoat) va Toshkent shahri (tovar ayirboshlash va pullik xizmatlar) katta ta'sir ko'rsatdi.

2004 yil yakunlariga asoslanib, tarmoqlar rivojlanishi bo'yicha hududlar reytingini aniqlash quyidagi xulosalarga olib keldi. Bunda hisob-kitoblar asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha ball tizimida olib borildi (sanoat, investisiya, qishloq xo'jaligi, chakana savdo tovar ayirboshlash va pullik xizmatlar).

YUqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan birinchi guruhga (7,5-10 ball) – Andijon, Buxoro, Jizzax, Toshkent va Xorazm viloyatlari kirdi. Ikkinchi guruhdan esa (6,5-7,5 ball) Namangan, Sirdaryo, Samarqand, Farg'ona, Surxondaryo viloyatlari, Qoraqapog'iston Respublikasi va uchinchi guruhdan (5,3-6,5 ball) Navoiy, Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahri joy olishdi.

2003 yil bilan taqqoslaganda Farg'ona, Sirdaryo, Xorazm, Toshkent va Jizzax viloyatlari reytingi ko'tarildi, Navoiy, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarining reytingi pasaydi.

2004 yilda xududlar iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishining ijobiy natijalaridan biri Qoraqapog'iston Respublikasi, Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlari kabi kam rivojlangan xududlar iqtisodiy salohiyati oshishi va YAIM, sanoat mahsulotlari va pullik xizmatlar bo'yicha tabaqalashuv pasayishi hisoblanadi. Biroq, sanoat mahsulotlari va xalq iste'moli tovarlari ishlab chiqarish bo'yicha yuqori



va past darajada rivojlangan xududlar o'rtasidagi farq bugungi kunda ham saqlanib qolmoqda. Bu esa, davlat tomonidan hududlarni iqtisodiy - ijtimoiy rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan yagona tadbirlar aniq maqsadlarga yo'naltirilishini va xududlar tabiiy -iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqib ish yuritishni talab etadi.

2005-2006 yilda iqtisodiyotni xududiy tartibga solishni takomillashtirish bo'yicha muhim vazifalarga ma'muriy islohotlarni chuqurlashtirishning nomarkazlashtirish yo'nalishi bo'yicha, amalga oshirilayotgan kam rivojlangan xududlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish, shu jumladan, qishloq joylarni rivojlantirish, mahalliy boshqaruv tashkilotlarining moddiy - texnika va moliyaviy bazasini mustahkamlash jarayonini takomillashtirish kiradi.

## **14.2. Xududlarning iqtisodiyotga investisiyalarni jalb qilish xususiyatlari va imkoniyatlari**

Xududlar rivojlanishida o'ziga xos o'rin tutuvchi moliyalashtirishning turli xil manbalari mavjud. Ularni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin: davlat byudjeti mablag'lari; korxonalarining o'z mablag'lari; aholi mablag'lari; chet el investisiyalari; byudjetlardan tashqari fondlarning mablag'lari va hokazolar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy iqtisodiyotimiz uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi xudud ob'ektlari moliyalashtiriladi, xususiyl moliyalashtirish kengayib, xususiyl sektor rivojlangan sari davlat byudjeti mablag'lari hisobiga investisiyalash ortib boradi. Bunday hollarda bozor iqtisodiyotiga o'tib borayotgan davlatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham davlat byudjeti tomonidan tibbiyot, fan va madaniyat, maorif va boshqa ijtimoiyl sohalari loyihalari moliyalashtiriladi hamda bu maqsadga muvofiqdir. Bunga misol qilib keyingi paytlarda mamlakatimiz xududlarida keng miqyosda qurilib, foydalanishga topshirilayotgan tibbiyot muassasalari, akademik liseylari hamda kasb-hunar kollejlari va boshqalarni keltirish mumkin.

29.3-jadvalda O'zbekiston Respublikasi viloyatlarida kiritilgan investisiyalarning hajman o'sishi keltirilgan. Undan ko'rinib turibdiki, YAIMning o'sishi sanoat eng rivojlangan Andijon viloyatida 25,5%, Farg'ona viloyatida 18,6%, Namangan viloyatida atigi 9,9%ni tashkil etgan. Farg'ona vodiysi viloyatlari orasida sanoat eng past darajada rivojlangani Namangan viloyatidir.

Qishloq xo'jaligi tarmog'i bo'yicha eng yuqori darajaga Namangan (45,7%), Farg'ona (38,1%), Andijon (37,2%) viloyatlari erishgan, ular respublikamizning o'rtacha ko'rsatkichlaridan ancha yuqorilagani qayd etildi. Savdo va umumiy ovqatlanish tarmog'i bo'yicha viloyatlar va respublika ko'rsatkichlari bir-biriga yaqinligi kuzatildi. Bunda viloyatlarga rivojlanish maqsadlari uchun davlat byudjeti, mahalliy byudjetlar hamda boshqa manbalar hisobidan mablag'lar ajratiladi.

Respublikamizda korxonalar rivojlanib, moliyaviy jihatdan barqarorlashib bormoqda. SHundan kelib chiqib, korxonalarda o'z-o'zini moliyalashtirishning yangi manbalari shakllanmoqda. Korxonalarning o'z-o'zini moliyalashtirish manbalari quyidagilardan tashkil topgan: korxonaning taqsimlanmagan foydasi; amortizasiya ajratmalari fondi; aksiyalar chiqarish hisobiga shakllantirilgan mablag'lar; maxsus fondlar.

YUqoridagi mablag'lar manbaidan korxonalar o'z ishlab chiqarishini yo'lga qo'yish, modernizatsiyasi yoki texnik-texnologik jihatdan yangilanish, aylanma mablag'larini ko'paytirish uchun foydalanishlari mumkin.

Davlat tomonidan olib borilayotgan qo'llab-quvvatlash siyosatida korxonalariga, ayniqsa, endigina ish boshlayotgan sub'ektlarga xorijiy investisiya yoki boshqa turdagi kichik va o'rta korxonalariga soliq imtiyozlari berish ham alohida ahamiyat kasb etmoqda. Korxonalar muayyan imtiyozli davr mobaynida soliq to'lovlarini amalga oshirmaydilar va shu hisobdan qoladigan summalarni ham o'z ishlab chiqarishini kengaytirishga yo'naltiradilar. Bundan tashqari korxonalar o'zlariga keraksiz bo'lgan asosiy vositalarni sotish yoki ijaraga berish orqali ham qo'shimcha mablag'larga ega bo'lishlari mumkin.

Investisiya loyihalarini turli xil manbalar hisobiga moliyalashtirishda bank kreditlari alohida ahamiyat kasb etadi. SHuni hisobga olib, mustaqillikning dastlabki yillaridanoq mamlakatimizda bank tizimini rivojlantirishga katta e'tibor berildi. Bugungi kunda mamlakatimizda 40 ga yaqin tijorat banklari faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu banklar mamlakatimizdagi barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga o'z faoliyatlarini rivojlantirishlari uchun kreditlar ajratishmoqda.

Masalan, 2001 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, respublikamizda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ajratilgan umumiy kreditlar hajmi

138,9 milliard so'mni, bunday kreditni olgan tadbirkorlik sub'ektlari 10335 tani tashkil etdi. Ajratilgan bu kreditlar evaziga 45300 ta yangi ishchi o'rinlari yaratildi, 83,1 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi va xizmatlar ko'rsatildi. SHu jumladan, xorijiy kredit liniyalari orqali xorijiy valyutada ajratilgan kreditlar miqdori 228,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

Kichik va o'rta biznes sub'ektlariga milliy va xorijiy valyutada ajratilgan kreditlarning 83,4 mlrd.so'mi yoki 60%i sanoatga, 25,4 mlrd. so'mi yoki 18%i aylanma mablag'larni to'ldirishga, 16,0 mlrd. so'mi yoki 12%i qishloq xo'jaligiga, 5,2 mlrd. so'mi yoki 4 %i qurilishi hamda maishiy xizmat ko'rsatishga va 8,9 mlrd. so'mi yoki 6 %i boshqa tarmoqlarga yo'naltirilgan. Keyingi yillarda mamlakatimizning eng yirik va rivojlangan banklari ham investisiya loyihalarini moliyalashtirishda ijobiy ishlarni amalga oshirishmoqda. Jumladan, asosiy kapital va qurilish-mantaj ishlariga kiritilgan investisiyalar respublikamiz viloyatlari bo'yicha 2003 yilda quyidagicha taqsimlangan: kiritilgan 1194,2 mlrd. so'm investisiyalarning Qashqadaryo viloyatiga 206,7 mlrd. so'mi yoki 17,3%i, Toshkent shahriga 230,6 mlrd. so'mi yoki 19,3%i va Farg'ona viloyati 103,1 mlrd. so'mi yoki 8,6%i berilgan. Uchta xududga – kiritilgan investisiya: Sirdaryo (2%), Surxondaryo (3,6%), Xorazm (3,8%) viloyatlariga kiritilgan investisiya jami viloyatlarga to'g'ri kelgan investisiya hajmining atigi 10 %ini tashkil etadi.

Samarqand, Buxoro, Namangan, Toshkent viloyatlari sharoit va imkoniyatlari yuqori bo'lsa-da, investisiya jalb etishda orqada qolishmoqda.

Umuman olganda esa, loyihalarni moliyalashtirishda bank kreditlariga talab bozor iqtisodiyoti sharoitida ham oddiy, ham majburiy holatdir. Rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida aholi mablag'lari investisiya loyihalarini moliyalashtirishning zarur manbalari hisoblanadi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda qimmatli qog'ozlar bozorining taraqqiy etgani aholi mablag'larini to'g'ridan-to'g'ri investisiyalarga yo'naltirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Respublikamizda ham qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Aholining bo'sh mablag'larini jamg'arish tijorat banklarida amalga oshirilmoqda va ushbu jamg'arma mablag'lari ko'proq qisqa muddatli kreditlarga yo'naltirilmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyoti xududlarning rivojlanishi sifat jihatdan yangi holatga – barqarorlikka va iqtisodiy o'sishga o'tishning muhim sharti yuqori darajada investision faollik hamda kapital hosil qiladigan investisiyalar samaradorligi oshirilishini talab etadi. YAIMning bor-yo'g'i 1 % ga o'stirish uchun ishlab chiqarishga investisiyalar hajmi 3 % dan kam bo'lmagan miqdorda ortishi lozim.

O'zbekiston xududlarida iqtisodiy o'sish va tuzilmaviy qayta qurish uchun haqiqiy shart-sharoitni yaratish ham muhim masalalardan biridir. Keyingi yillarda investisiya sohasiga umumiy transformasion pasayish kuchli ta'sir qildi. SHu bilan birga, investisiyalar YAIM dinamikasi bilan moslashgan ancha tezkor sur'atlarda qisqardi. Binobarin, investisiyalarning 2004 yilgi o'sishi islohotlardan oldingi darajadagi tiklanishning ijobiy tendensiyasi hamdir. Taxminlarga ko'ra, YAIM tarkibidagi yalpi jamg'arma ulushi pasayishda davom etadi.

Islohotlarning birinchi bosqichida, investisiya sohasidagi tanglik salbiy miqdoriy o'zgarishlar asosidagi investision model ta'komillashmagani sabab bo'lgan transformasiyalarning turli jihatlari bilan ajralib turadi. Bu davrda investisiyalarni takror chiqarish tuzilmasida salbiy siljishlar yuz berdi. Asosiy fondlarni tiklash va yangilashda investisiyalash tendensiyasi ustun bo'lib keldi. Bu esa, vujudga kelgan vaziyatda moliyaviy tavakkal nuqtai nazaridan tushunarli. Ammo takror chiqarish jarayonlarining strategik rivojlanish mavqeidan qaraganda istiqbolga ega emas. Texnologik tuzilma ham faol elimentar ulushning pasayishiga olib keldi. Jihozlar va uskunalarning salmog'i 1990 yildagi 34% dan 1995 yilda 1 % gacha pasaydi, 2001 yilda esa 32%ga ortdi. Investisiyalar pasayishi oqibatida sanoatning ko'pgina tarmoqlarida ishlab chiqarish asbob-uskunalari tanazzulga uchradi. Umuman, sanoat bo'yicha asosiy fondlarning emirilishi 2001 yil 1 yanvarda 47,7%ni, shu jumladan, elektr energiyasida 48,7%ni, rangli metallarda – 46,5%, kimyo va neft sanoatida 52,6%ni, mashinasozlik va metallni qayta ishlash tarmog'ida 4%ni tashkil etdi.

Bugungi kunda mamlakatimiz xududlari iqtisodiyotida ijobiy makroiqtisodiy harakatlar ko'zga tashlanmoqda. Ishlab chiqarishda muayyan siljishlar va tiklanish, investisiya jarayoni birmuncha faollashgani kuzatilmoqda. Endilikda sanoati o'rta rivojlangan mamlakatlar yo'lidan borib, xom ashyo, konversiya va xarbiy sanoat majmuasini, yuqori texnologik korxonalarini bozor maqsadlariga

yo'naltirish, samaradorligi yuqori bo'lgan qayta ishlash sanoatini shakllantirish bo'yicha texnologik tafovutlarni engish singari global masalalar hal etilishi lozim.

O'zbekiston iqtisodiyotidagi tuzilmaviy o'zgarishlar va mahsulotlarimizning past raqobatbardoshligi ularga bo'lgan ishlab chiqarish va iste'mol talabini cheklaydi. Bu esa, o'z navbatida, investisiyalar ko'payishi iqtisodiy o'sishga ko'rsatadigan ta'sirning past mul'tiplikativ samarasini belgilamoqda. Iqtisodiyot real sektorining investisiyalash samaradorligini, avvalo, ularni davlat tomonidan aniq belgilangan ustuvor buyulishlarga faol tarzda yo'naltirish orqali oshirish mumkin. Ushbu yo'nalishdagi amaliy qadamlar nafaqat investisiyalar hajmi oshirilishini, balki ularning milliy xo'jalik tuzilmasini takomillashtirishga qaratilgan o'sishini anglatadi. SHu jihatdan davlat investisiya siyosatining 1998 – 2004 yillardagi yo'nalishlari ishlab chiqarish investisiyalari xududiy tuzilmasi o'zgarishining tahlili e'tiborga loyiqdir. U 29.3-I jadvalda eks ettirilgan.

Asosiy kapital, xudud ishlab chiqarish investisiyalari kiritilishining tarmoq manzarasi uning dinamikasidagi quyidagi xususiyatlaridan dalolat beradi:

- birinchidan, engil sanoat, yoqilg'i sanoati, neftni qayta ishlash, uy-joy qurilishi va ko'mir sanoatidan tashqari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida investisiya zaxiralari keskin pasaymoqda;
- ikkinchidan, chiqarilayotgan mahsulotga talab cheklanmaganligi sizilmoqda va shu bois katta moliyaviy barqarorlikga ega bo'lgan, eksportga mo'ljallangan xom ashyo tarmoqlariga investisiya oqimi kuchaydi. Investisiya tangligi mashinasozlik va metallga ishlov berish tarmoqlariga birmuncha sezilarli ta'sir qildi, investisiya qo'yilmalari 19,9%dan 2,9%gacha qisqardi.

Mashinasozlik, qishloq xo'jaligi, metallurgiya, qurilishga kiritilgan ishlab chiqarish kapitali kamayganda ushbu jarayonni, taraqqiyot omili, deb hisoblash mumkin bo'lardi. Uy-joy qurilishiga keltirilgan investisiyalar bundan mustasno. CHunki, 2000 yilda ularning ulushi 200%ni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'sib bormoqda. Binobarin,

uy-joyga mablag'ning uzoq vaqtga qo'yilishi nafaqat inflyasiyadan ishonchli himoya, balki xususiy kapital uchun katta daromad

14.3-jadval

O'zbekiston Respublikasiga kiritilgan investisiyalarning o'sishi, foiz hisobida

Xududlar	1998 y	1999 y	2000 y	2001 y	2002 y	2003 y	2004 y
Qoraqalpoqiston Respublikasi	137,0	102,0	83,0	106,0	114,0	118,0	98,3
Andijon	119,8	102,0	101,0	118,0	105,0	106,9	62,5
Buxoro	65,5	98,0	108,0	119,0	103,0	100,6	168,2
Jizzax	100,3	105,0	111,0	78,0	112,0	83,5	111,0
Qashqadaryo	114,5	120,0	93,0	130,0	94,0	111,7	81,4
Navoiy	81,8	107,0	116,0	107,0	98,0	109,6	87,8
Namangan	75,4	100,4	103,0	96,0	100,1	101,7	95,5
Samarqand	118,8	100,6	104	107,0	99,8	107,9	109,6
Surxondaryo	118,0	103,0	102,0	116,0	101,0	104,0	102,0
Sirdaryo	102,0	109,0	106,0	104,0	84,0	105,5	150,9
Toshkent	120,1	95,0	107,0	112,0	102,0	108,3	122,0
Farg'ona	134,2	108,4	102,0	109,0	108,0	95,9	90,4
Xorazm	195,0	104,0	107,0	96,0	103,0	91,6	22,0
Toshkent shahri	107,8	102,0	92,0	106,0	81,0	106,8	121,6
O'zbekiston Respublikasi	115,0	102,0	101,0	104,0	103,6	104,5	104,6

Manba: O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2004, №3, 78-b.; 2004 yil № 8, SISM, T.: 2005. 93-b.

manbai hamdir. Shu o'rinda eslatib o'tish kerakki, faqat mashinasozlik iqtisodiyotini qayta tuzish yo'nalishidagi investision yorib o'tishgina? mustahkam ijobiy o'zgarishlarga rivoj berishi mumkin. Bu holda akseleratorning? an'anaviy modelining mexanizmi namoyon bo'ladi. Undagi sof investisiyalar miqdoriga sabab ishlab chiqarish hajmining o'sishidir. Investisiya faolligi, investisiya tangligidan xolos bo'lish, iqtisodiy o'sishga zamin yaratish muammosi quyidagicha hal etilishi mumkin:

- mablag'larni uzoq vaqtga qo'yish uchun barqaror motivasiyalar mexanizmini yaratish;
- kapital qo'yilmalarni muntazam moliyalashtirish uchun manbalar izlash va ularni boshqarish, ichki jamg'armalardan foydalanishda investisiya yo'nalishini ta'minlash;
- investisiyalarni qabul qila oladigan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish.

O'zbekiston Respublikasida investisiyalar umumiy hajmida barcha darajalardagi byudjet mablag'lari ulushi kamaydi va chet el investisiyalari oshib bormoqda.

Masalan, O'zbekiston kiritilgan investisiyalar tarkibidagi ijobiy o'zgarishlardan biri paxta tolasi eksporti qisqarishi evaziga olinadigan investisiyalar kamayishidir. Uning xorijiy investisiyalar ishtirokidagi qo'shma korxonalar eksporti bo'yicha ulushi 2004 yilda 1,%ga pasaydi (14.4. jadval).

Respublikada 2005 yilda mashina va uskunalar eksporti 2 barobar, xizmatlar 1,6 qora va rangli metallar eksporti 1,7 barobarga oshdi. Rangli metallar eksporti oshishiga asosan jahon bozoridagi qulay narxlar kon'yunkturasi sabab bo'ldi.

Xududlarga kiritilgan xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatida engil avtomobillar, avtobuslar, elektrotexnika vositalari, meva-sabzavot mahsulotlari, alohida xizmatlar, to'qimachilik mahsulotlari, neftni qayta ishlash mahsulotlari va boshqalar katta o'rin egalladi. Ishlab chiqarilayotgan va eksport qilinayotgan mahsulotlar bo'yicha «O'zavtosanoat» AJ, «O'zbekengilsanoat» DAK, «YOg'moytamakisanoat», «Oziq-ovqat», «O'zeltexsanoat» uyushma (assosiasiya) larining ulushi yuqori bo'ldi.

## 14.4-jadval

## O'zbekistonda xorijiy investisiyalar ishtirokidagi qo'shma korxonalar eksportining tovar tarkibi, foizda

	2004 yilda 2003 yilga nisbatan % da	2004 yilda 2005 yilga nisbatan % da	2003 y.	2004 y.	2005 y.
Jami	139,1	104,8	100	100	100
Paxta tolasi	96,7	47,4	3,3	2,3	1,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	127,6	122,8	4,2	3,9	4,5
Kimyo mahsulotlari	156,0	170,6	2,3	2,6	4,2
Energetika mahsulotlari	149,0	103,4	3,3	3,6	3,6
Qora va rangli metallar	137,4	172,8	0,8	0,7	1,2
Mashina va uskunalar	203,3	159,4	19,8	28,4	43,3
Xizmatlar	157,7	102,3	4,4	5,	4,9
Boshqalar	119,6	73	62,3	53,5	37,3

Manba: O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2004 yil № 8, SISM, T.: 2005. 69-b. va 2005 yil SISM, T.: 6 45-b.

Xorijiy investisiyalar ishtirokidagi qo'shma korxonalar eksportining xududiy tarkibida Navoiy (28,8%), Andijon (26,2%), Toshkent (11,5%), Farg'ona (10,7%) viloyatlari va Toshkent shahri (13,1%) etakchi o'rin tutadi (14.5-jadval).

Mazkur xududlar ulushiga xorijiy investisiyalar ishtirokidagi qo'shma korxonalar umumiy eksportining 90,3%i to'g'ri keladi. Bunga asosan mashinasozlik, oltin qazib chiqarish, kimyo va engil sanoat mahsulotlari hisobiga erishilgan.



Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Surxondaryo, Sirdaryo va Xorazm viloyatlari xorijiy investisiyalar ishtirokidagi qo'shma korxonalarining eksportdagi ulushi respublikada mavjud xorijiy investisiyalar ishtirokidagi bunday korxonalar eksporti hajmining atigi 1% ini tashkil etdi.

14.5-jadval

O'zbekistonda xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalar  
(XIK) eksportining xududiy tarkibi, foizda

Xududlar	XIKlarning xududlar eksporti hajmidagi ulushi		2004 yilda 2003 yildagiga nisbatan, %da
	2003 y.	2004 y.	
O'zbekiston Respublikasi	15,2	16,2	139,1
Qoraqaopog'iston Respublikasi	2,3	2,6	164,4
Andijon	62,8	82,0	203,7
Buxoro	11,9	8,4	104,2
Jizzax	3,1	3,0	122,4
Qashqadaryo	8,7	7,6	116,6
Navoiy	63,7	57,9	137,9
Namangan	24,4	27,8	100,3
Samarqand	19,0	18,7	130,2
Surxondaryo	5,7	1,4	135,9
Sirdaryo	6,7	4,4	72,4
Toshkent	27,4	15,1	101,3
Farg'ona	47,5	55,4	117,0
Xorazm	10,4	6,0	84,4
Toshkent	6,3	6,8	146,9

Manba: O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2004 yil № 8, SISM, T.: 2005. 70-b.

Ta'kidlash kerakki, xorijiy investisiyalar ishtirokidagi qo'shma korxonalarining eksportdagi ulushi Andijon viloyatida 2, Qoraqalpog'iston Respublikasida 1,6 barobar o'sdi. Sirdaryo va Xorazm viloyatlarida esa eksport hajmi qisqardi.

Xududlar eksportida Andijon (82,0%), Navoiy (57,9%), Farg'ona (55,4%), Namangan (27,8%), Samarqand (18,7%) va

Toshkent (15,1%) tashkil etdi. Viloyatlarida xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalar ulushi ayniqsa katta bo'ldi. Mazkur xududlarda oltin qazib olish (Navoiy viloyatida), avtomobil va avtobuslar (Andijon va Samarqand viloyatlari), kimyo sanoati (Toshkent viloyati), neftni qayta ishlash mahsulotlari (Farg'ona viloyati) ishlab chiqarish bo'yicha joriy investisiyalar ishtirokidagi katta korxonalar joylashgan. Eksportga yo'naltirilgan mahsulot ishlab chiqarishda xududiy nomutanosibliklar, shu jumladan, muhim hisoblangan bozor infratuzilmasi rivojiga aloqador tafovutlar O'zbekistonda xududiy iqtisodiyot turli darajada rivojlanganligi bilan izohlanadi.

Davlat kapital qo'yilmalari ulushining ko'pligi davlatning faol xo'jalik yuritish, tarmoqlar va korxonalarni byudjet hisobidan moliyaviy ta'minlashga boliq. Xalq xo'jaligini byudjet hisobidan moliyalashtirish boshqa manbalardan olingan investisiyalardan ko'ra tezroq kamaymoqda. Natijada yakunlanmagan qurilish ob'ektlari ko'paymoqda, investisiyalarni o'zlashtirish muddatlari uzaymoqda. Bu esa investorlar uchun ularning samaradorligi va salohiyati pasayishiga sabab bo'lmoqda.

Korxonalar va tashkilotlarning xususiy mablag'lari investisiya zahiralari shakllanishida asosiy manbaga aylanib qolmoqda. Ammo ularning moliyaviy holati asosan keskin yomonlashmoqda. Bu rentabellikning pasayishi va zarar bilan ishlayotgan korxonalar ulushi energetika, qishloq xo'jaligi sohalarida ko'payishiga olib kelmoqda.

SHuningdek, hozirga qadar amal qilgan soliq tizimi ham korxonalarining investision imkoniyatlariga putur etkazadi.

Foydaning kamayishi, korxonalarining investisiyalarga yo'naltirish mumkin bo'lgan xususiy mablag'larini kamaytiribgina qolmaydi, balki retabellik darajasi va haqiqiy foiz stavkasi o'rtasidagi o'zaro nisbatni yomonlashtirib, ishlab chiqaruvchilarning qarzi mablag'larini jalb etish imkoniyatlariga ham salbiy ta'sir o'tkazadi. Eslatib o'tish joizki, ishlab chiqarishda qo'yilmalar samaradorligi bilan depozitlar bo'yicha stavkalar o'rtasidagi oxirgi foyda ayirmasining ortish salohiyati investorlarning ishlab chiqarishga kapitallari qo'yilmasini to'xtatib turibdi. Investisiyalar korxonalarining kuchli manbasi bo'lishi amortizasiya foiziga putur etkazmoqda. Amortizasiyaga chiqarilgan summalar investisiya jamg'armalariga nisbatan hamma manbalar hisobiga kamaymoqda. Oqibatida ular nafaqat

asosiy fondlarni yuqori texnik darajada yangilash, balki sarflanayotgan fondlarni shunchaki almashtirish uchun ham etarli bo'lmayapti.

Buning sababi uzoq vaqt mobaynida asosiy fondlar qiymatini qayta baholash va amortizasiyaning eskirib qolgan me'yori qo'llanib kelinganligidadir. Amortizasiya tannarxini oshirish sababli korxonalar fondlar qiymati bilan qiyoslanganda amortizasiyaga chiqarilgan summalarni va mahsulotlar narxini pasaytiradi.

Kapital qo'yilmalarini moliyalashtirish uchun davlat byudjeti xarajatlari tegishli ob'ektlarni davlat tasarrufidagi chiqarish va xususiylashtirish hisobiga kamaytiriladi. Ammo xususiylashtirilgan ko'pgina korxonalarda ham xuddi davlat tasarrufidagi korxonalaridagi kabi moliya mablag'lari surunkali etishmaydi. SHuning uchun ular jamg'armalarni deyarli to'plamaydi va kapital qo'yilmalarini keskin qisqartiradi. Nodavlat sektor mablag'larining moliyalashtirish manbalari bo'yicha imkoniyatlar tarkibidagi ulushi ko'payishi ularning mutlaq hajmlariga teng emas.

Investisiya tavakkalchiligining yuqoriligi, qolaversa, yanada samarali va tez qoplanadigan pul qo'yilmasi bo'shlig'i to'ldirilganligi tufayli hanuzgacha ishlab chiqarishga pul mablag'lari qo'yilmayapti.

Milliy banklarning barchasi o'z ish faoliyatini ta'minlaydigan kapital aylanishi muddatlariga bog'liq holda faoliyat yuritmoqda. Fond bozoriga savdo va bank ishi jabhalaridan keladigan spekulyativ kapital hozircha asosan qisqa muddatli maqsadlarni ko'zlayapti. U nisbatan kam daromadlilik tufayli uzoq vaqtga mo'ljallangan yirik qo'yilmalarni amalga oshirishdan manfaatdor emas.

Davlat korxonasi va tashkilotlarining byudjet kapital qo'yilmalari va investisiyalari qisqarayotgan sharoitda mamlakat investisiyalari faolligi farqlari xususi sektoridagina rivojlanadi. Rossiya va O'zbekistonning ko'pgina iqtisodchilari va tahlilchilari (Ablakin, A.Martinov, V.Dzasarov)ning fikricha, iqtisodiyotni barqarorlashtirish va mustahkam o'sishga erishish maqsadida investisiyalash uchun mamlakatda vujudga kelgan sharoitda aralash iqtisodiyotga xos bo'lgan barcha ehtimolli moliya zahiralarni aniqlash va ularni investisiya maqsadlariga o'tkazish usullarini topish muhimdir. Tahlillar respublika hududlarining ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlari bo'yicha quyidagi xulosalarni beradi:

- kapital qo'yilmalar umumiy hajmining pasayishi va investisiya sohalaridagi vaziyatning og'irlashuvi, xududlarda ishlab chiqarish

moddiy-texnik ba'zasining emirilishi bilan birga kechadigan, uzoq davom etadigan investisiya tangligi O'zbekistonning ayrim xududlari iqtisodiyoti uchun xosdir;

- ichki investisiyalarning asosiy ichki balansi korxonaning xususiy manbalari mablag'lari bo'lib qolmoqda;
- makroiqtisodiyot nobarqaror sharoitda amortizasiya fondi hajmlari kamayishiga ularning takror ishlab chiqarish qobiliyatining yo'qolishi sabab bo'ladi;
- yoqilg'i-energetika majmui, kon-metallurgi, to'qmachilik tarmoqlarida va transport tizimida eng katta investisiya faoliyati kuzatilmoqda.

Sobiq ittifoq o'rnida vujudga kelgan boshqa mamlakatlardagi kabi O'zbekistonda ham investisiyalash jarayoni transformasiyasi yuz bermoqda. Lekin, bunda bozor iqtisodiyotining barcha imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanilmayapti. Iqtisodiyotning real sektorini investisiyalashda xususiy kapital hozircha muhim o'rin tutmayapti. Jonlanish davrida o'tish sust kechmoqda, real sektorga investisiya kiritishning bozor instituti hanuzgacha o'ta sekin rivojlanmoqda. Sug'urta, nodavlat fondlari va boshqa investisiya tuzilmalari ham boshlang'ich holatda ekanligi milliy jamg'armalar zarur darajada kattalashtirilishiga va kelgusida investisiya qo'yilmalariga aylantirilishiga yordam bermasligiga sabab bo'lmoqda.

Bank sektorida faoliyat ishlab chiqarishda foydalanish uchun mablag'larni katta ko'lamda yo'naltirish maqsadida istiqbolli kredit liniyalari ochishga to'liq qaratilmagan.

Ko'pchilik xududlarda banklarning kapitallashtirish darajasi ham, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning investisiya kreditlariga bo'lgan talabiga nisbatan to'lov qobiliyati ham past bo'lganligi sababli o'z ishlarida etarlicha investision yo'nalishlarni topolmayotganliklarini ko'rsatmoqda. Xududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorida aniq ko'rsatilgan. Bu qaror ijrosi respublikada bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish, uning barqaror rivojlanishiga erishish, tijorat banklari ish samaradorligini oshirish, xududlardagi investisiya jarayonlari va iqtisodiyotni tarkiban o'zgartiradi, chet el investisiyalari to'g'ridan-

to'g'ri kirib kelishida keng ishtirok etib O'zbekiston xududlarining rivojlanish sur'atlari oshishini ta'minlaydi.

### **14.3. Kichik tadbirkorlikni keng rivojlantirish yo'llari**

Rivojlangan xorijiy davlatlar amaliyotiga ko'ra kichik va o'rta biznes korxonalari iqtisodiy konyunktura o'zgarishlariga tez moslasha oladigan, yangi texnika va texnologiyalarni doimiy talab qiladigan, mexanik unumdorligi yuqori bo'lgan xo'jalik sub'ektlaridir. Bu xususiyat kichik va o'rta biznes korxonalarining iqtisodiy o'sish, aholi bandligini ta'minlashdagi mavqei oshishiga olib keldi. Masalan, AQSHning «Millitors» korparasiyasi xom ashyo va butlovchi qismlarni 30 mingtasini kichik va o'rta biznesdan sotib oladi.

O'zbekiston hududlarida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor yo'nalishlari qatoriga xususiy tarmoq va kichik tadbirkorlikni (KT) rivojlantirish kiradi. SHu nuqtai nazardan ham ularni rivojlantirishni jadallashtirish va YAIMdagi ulushini ko'paytirish, bozor iqtisodiyotiga mos tovar va xizmatlar bozorini shakllantirish hamda mahsulot eksportini oshirishda asosiy vazifalar quyidagilar hisoblanadi: davlat tashkilotlarining xususiy tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvini cheklash, xususiy tadbirkorlarni resurslar va sotish bozoridagi ishtiroki doirasini kengaytirish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash va qo'shimcha soliq imtiyozlarini joriy etish.

Tadbirkorlik erkin faoliyat yuritishi uchun kafolatlarning ta'minlanganligi, ularni davlat tomonidan ro'yxatga olishning ixcham mexanizmi joriy etilishi, kredit mablag'laridan foydalanish doirasining kengayishi. Xududlarda kichik tadbirkorlikni rag'batlantirish bo'yicha amalga oshirilgan keng qamravli chora-tadbirlar, sirasiga kiradi. O'tgan davr mobaynida ushbu vazifalar muvoffaqiyatli amalga oshirilyapti. Masalan, birgina 2004 yilda tijorat banklari tomonidan KT sub'ektlariga 353,6 mlrd. so'm yoki 2003 yildagiga nisbatan 71,4 mlrd. so'm ko'p kredit berildi. SHuni ham eslatib o'tish kerakki, ko'plab xududlarda makroiqtisodiy muhit shakllanmagan, inflyasiya past darajada – 3,7%, milliy valyuta kursi barqarorligi, KTning YAIM ulushi – 35,6%gacha o'sgan yoki 2003 yildagiga nisbatan 0,6% yuqori bo'lishi ta'minlangan.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2004 yil 1 yanvardagi Farmoniga muvofiq kichik tadbirkorlik sub'ektlari toifasiga quyidagilar kiradi:

- yakka tartibda faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkorlar;
- mikrofirmalar, ishlab chiqarish tadbirkorlari o'rtacha yillik band bo'lgan ishlovchilari soni 20 nafardan kam bo'lmagan, xizmatlar va boshqa noishlab chiqarish sohalarida 10 nafardan kam bo'lmagan, ulgurji chakana va umumiy ovqatlanishda 5 nafardan kam bo'lmagan;
- kichik korxonalar, tarmoqda band bo'lgan o'rtacha yillik ishlovchilar soni: engil sanoat, oziq ovqat, metallni qayta ishlash, mebel va qurilish materiallari tarmog'ida 100 nafardan kam bo'lmagan, mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishi va qayta ishlash, qurilish va boshqa sanoat ishlab chiqarishi sohalarida 50 nafar; fan, transport, aloqa, xizmatlar sohasi (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), umumiy ovqatlanish korxonalari va boshqa noishlab chiqarish sohalarida 25 nafar.

14.6-jadval

O'zbekiston Respublikasi YAIM va YAXMda kichik tadbirkorlikning ulushi, foizda

Xududlar	Jami		Jumladan					
	2004 y.	2005 y.	kichik korxonalar		mikrofirmalar		yakka tartibdagi tadbirkorlar	
			2004 y.	2005 y.	2004 y.	2005 y.	2004 y.	2005 y.
O'zbekiston Respublikasi	35,6	38,2	5,3	6,5	13,3	13,0	17,0	16,7
Qoraqapog'iston Respublikasi	42,9	48,9	3,6	9,4	23,1	25,6	16,2	13,9
Andijon	38,6	38,7	3,5	5,2	9,2	9,5	25,9	24,0
Buxoro	39,7	44,4	4,9	8,3	13,6	16,2	18,2	19,9
Jizzax	57,2	64,4	1,2	2,5	32,0	35,8	24,0	26,1
Qashqadaryo	40,6	38,4	2,7	2,8	20,8	18,8	17,1	16,8
Navoiy	21,2	20,9	2,3	1,5	8,5	9,0	10,4	10,4
Namangan	47,7	51,4	6,7	8,6	17,3	16,7	23,7	26,1
Samarqand	52,6	54,5	8,6	5,3	12,9	17,7	31,1	31,5
Surxondaryo	46,9	45,9	4,0	6,3	19,3	16,5	23,4	23,1

o								
Sirdaryo	61,3	58,8	2,8	7,0	36,3	33,3	22,2	18,2
Toshkent	36,1	36,3	8,7	7,9	8,8	10,9	18,6	17,5
Farg'ona	41,5	43,9	4,9	5,5	16,4	19,5	20,2	18,9
Xorazm	45,3	54,2	2,8	6,7	18,7	23,0	23,7	24,5
Toshkent shahri	43,5	54,2	15,4	19,3	12,5	19,6	15,6	15,4

Manba: O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2004 yil № 8, SISM, T.: 2005. 70-b. va SISM, T.: 2006. 158-b.

O'zbekiston xududlarida tadbirkorlik yil sayin rivojlanib bormoqda. KTning YAIMdagi ulushi barqaror o'sishi ko'p jihatdan kichik korxonalar tomonidan ishlab chiqarish hajmi oshirilishi bilan bog'liq. Xususan, bu boradagi ko'rsatkich mikrofirmalarda 6 % o'sgan. KT ulushining ortishi barcha viloyatlarda yalpi xududiy mahsulot ko'payishi va uning o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. O'zbekiston xududlarida yalpi ichki mahsulot va yalpi ichki mahsuloti (YAIM)da kichik tadbirkorlikning ulushi 14.6-jadvalda aks ettirilgan.

14.6-jadvalda ko'rsatilganidek, KTning ortishi barcha viloyatlar yalpi xududiy mahsuloti ko'payishi va uning o'sishiga ta'sir ko'rsatgan. Fermer xo'jaliklari soni ko'payishi evaziga KTning YAXMdagi ulushi yuqoriligi, hususan, Sirdaryo 61,3%, Jizzax viloyatida 57,2%ligi qayd etildi. SHuningdek, bu xo'jaliklar ulushi qishloq xo'jaligida kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyati turlari o'sishi evaziga Samarqand (52,6%), Namangan (47,7%), Surxondaryo (46,9%) va Xorazm (45,6%) viloyatlarda ham oshgan. Bu boradagi ko'rsatkich Qoraqalpog'iston Respublikasi, Farg'ona, Qashqadaryo va Buxoro viloyatlarida respublikaning o'rtacha darajasidan yuqori bo'lgan.

Respublikamiz xududlarida kichik biznes korxonalari faoliyatini rivojlantirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda chet el investisiyasi kiritilgan korxonalar soni 2004 yil boshida 3539 tagacha etdi.

O'zbekiston hukumatining investisiya dasturida kichik biznes korxonalarini rivojlantirishga, ularni kredit liniyalari hisobidan moliyalashtirishni kengaytirishga alohida e'tibor berilgan.

Bozorda raqobatda yutib chiqish eng asosiy maqsadlardan biri hisoblanadi. Buning uchun ishchi kuchi egasidan bir qancha fazilatlar, jumladan, o'z kasbining bilimdoni bo'lish hamda dunyoqarashining kengligi, kompyuter texnologiyalari va xorijiy tillardan kamida bittasini mukammal bilish va amalda ulardan oqilona

foydalana olish, zamonaviy fan-texnika yutuqlaridan xabardor bo'lish va ularni amaliyotda qo'llay bilish, innovasiya, yangilikka intiluvchan bo'lish, mehnat intizomiga qat'iy rioya etish hamda uni buzmaslik va hokozolar talab etiladi.

Mehnat bozorida raqobatning yuzaga kelishi quyidagi ob'ektiv shart-sharoitlarni taqazo etadi:

- birinchidan, erkin bozor iqtisodiyotining mavjudligi va amalda bo'lishi. Bunda ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklif erkin holda o'zgaradi, malakasiga qarab ishchi kuchini mustaqil tanlash imkoni tug'iladi, mehnat bozorida etakchi o'rinni egallovchi mehnat birjalari erkin faoliyat ko'rsatadi. Bu mehnat birjalari iste'molchilarga malakali ishchi kuchini taklif eta oladilar;
- ikkinchidan, raqobatga kirishuvchilarning ko'pligi. Qachonki, mehnat bozorida o'z tovari bilan qatnashuvi sub'ektlar ko'pchilikni tashkil etsa, raqobat o'z mohiyatiga ega bo'ladi. Xuddi shu holatda ular orasida raqobatga intilish kuchayadi. Har bir ishtirokchi yangilik joriy etishga, mehnat unumdorligini oshirishning eng arzon, eng maqbul yo'llarini izlab topishga harakat qiladi;
- uchinchidan, mehnat bozori faoliyatini erkinlashtiruvchi qonun va me'yoriy hujjatlarning mavjudligi va amaliyotda ulardan mukammal foydalanish. Bunday qonunlar mavjud qonunbuzarliklarga chek qo'yadi va mehnat bozorini oshkora ravishda yuzaga chiqarishni ta'minlaydi.

Respublikamiz iqtisodiyotidagi tub ijobiy o'zgarishlar mehnat bozorida raqobatchilik muhitini shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. CHunonchi, boshqariladigan bozor iqtisodiyotidan erkin bozor iqtisodiyotiga o'tish barcha sub'ektlarning mustaqil faoliyat ko'rsatishni ta'minladi, barcha sohalar faoliyatini erkinlashtiruvchi konstitusion, huquqiy asoslar esa, sub'ektlarning mehnat huquqini mustahkamladi. Respublikada raqobatlashuvchi mehnat resurslari etarli va bu ko'rsatkich aholining tabiiy o'sishiga to'g'ri mutanosib (proporsional) tarzda o'zgarimoqda. Hozirgi kunda respublikamiz aholisi



soni 25 milliondan ortiq bo'lib, shundan 45 foizga yaqinini mehnatga qobiliyatli yoshdagilar tashkil etadi. Mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholi o'sishining to'rtidan uch qismidan ko'prog'i qishloq joylariga to'g'ri keladi. Respublika miqyosida aholining tabiiy o'sish ko'rsatkichi yil sayin pasayib bormoqda va bu iqtisodiyotimiz uchun ijobiy holat hisoblanadi. Ammo shunga qaramay, respublikamizda ishsizlar va ish joyini izlayotganlar bor. Rasmiy statistik ma'lumotlarga qaraganda, 2004 yilda ish izlovchi sifatida ro'yxatga olinganlar soni 425 ming kishini tashkil etgan. Bularning 73,6 foizi qishloq joylarida yashovchilardir.

Qishloq joylaridagi mehnat bozorining asosiy muammosi ishchi kuchi taklifining ishchi kuchi talabiga nisbatan ortiqchaligidir. Bunga sabab bu joylarda qishloq xo'jaligidan boshqa sohalarning etarli darajada rivojlanmaganligidir. SHu sababli qishloq joylardan shaharlarga ish izlab kelganlar soni ortmoqda. Hozir qishloq joylarda taxminan 2 millionga atrofida ortiqcha ishchi kuchi zahirasi mavjud, ishsizlarning ham asosiy qismi qishloq joylarga to'g'ri keladi.

Keyingi yillarda respublikamizda ishsizlar sonining o'zgarib turishi kuzatilgan. Ma'lumotlarga qaraganda, bu ko'rsatkich 2002 yilning oxirida 34,8 ming kishini, 2003 yilning oxirida 32,2 ming kishini, 2004 yilning oxirida esa 34,9 ming kishini tashkil etgan. Shunga mos ravishda bandlik ham ortgan. Mehnat bilan band aholining o'rtacha yillik soni 2003 yilda 9589 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, 2004 yilda bu ko'rsatkich 9910,6 ming kishiga etgan, ya'ni 103,4 foizga ko'paydi. Shuni ta'kidlash joizki, bular respublika iqtisodiyotida ishsizlik muammosi yo'q, degani emas. Demak, o'tish davridagi eng dolzarb muammolardan biri ishchi kuchiga bo'lgan talabning shakllantirilishidir. Albatta, bu muammoni hal etish asosan yangi ishchi o'rinlarini tashkil etishga bog'liq bo'lib, qishloq joylarda esa qishloq xo'jaligidan boshqa sohalari: tadbirkorlik va noishlab chiqarish sohasini rivojlantirish muhim. Lekin, hozirgi sharoitda barcha ishsizlar uchun yangi ishchi o'rinlarini yaratish juda qiyin. SHu sababli ularning bir qismini eksport qilish lozim.

Ishchi kuchi eksporti – ishchi kuchining biror mamlakatga ma'lum muddatga shartnoma asosida foydalanish sharti bilan sotilishidir. U boshqa eksport tovarlaridan ma'lum muddatga foydalanilishi bilan farq qiladi. Ishchi kuchi eksporti talaygina foydali jihatlarga ega. CHunonchi:

- mamlakatimizda ishchi kuchi taklifiga talab etarli darajada emas. Ishchi kuchi eksporti esa, bu muammoni hal etishga yordam beradi. Eksport natijasida ishsizlar ma'lum ish bilan ta'minlanadilar;
- ishchi kuchini jahon bozoriga chiqarish raqobatchilik muhitining ancha sifatlilik, mukamallik, ishonchlilik kabi bir qancha talabalarni qo'yadi. Bozordagi mavjud muddatli raqobatga bardosh bergan har qanday tovar, tabiiyki, ichki bozorda ham yuqori sifatga va yuqori qimmatga ega bo'ladi. SHu bilan birga jahon mehnat bozoriga tovarlar – ishchi kuchi eksporti ilg'or mamlakatlar tajribasini, zamonaviy mukammal texnologiyalar sirini yanada puhtaroq egallashda yuqori sifatga erishish, o'z kasbi bo'yicha zarur axborotlar hajmini kengaytirib, malakaviy samaradorlik darajasini mustahkamlash imkonini beradi;
- xorijiy mamlakatda malaka oshirayotgan ishchi kuchida til o'rganish imkoniyati paydo bo'ladi;
- ishchi kuchi eksportidan kelgan tushum YAMMning tarkibiy qismi bo'lmish milliy daromad o'sishiga olib keladi;
- ishchi kuchi eksporti, o'z navbatida, malakali ishchi kuchi importining kamayishiga olib keladi. Natijada respublikamizning malakali ishchi kuchiga bo'lgan talabi o'z ishchi kuchi hisobiga qondiriladi va ortiqcha xarajatga hojat qolmaydi;
- eksport qilingan ishchi kuchi mamlakatga chet el valyutasi tushumini ko'paytiradi.

O'zbekistonning eng muhim muammolaridan biri – aholini mehnat bilan band qilish xududiy dasturlari ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda. Har yili o'rtacha 350 ming yangi ish joylari, asosan aholining ko'payishi va yashirin ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan qishloq joylarda yaratilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda ishsizlik ko'rsatkichlari yuqori emas ya'ni 0,4 foizni tashkil etadi.

Aholi bandligining tarmoqlar bo'yicha o'zgarishini tahlil qilish shuni ko'rsatmoqdaki, qishloq va o'rmon xo'jaligida ortiqcha ishchi kuchlarining boshqa sohalarga o'tishi natijasida bu sohalarda

bandlar deyarli 10 foizga kamaydi. Aholi bandligining umumiy miqdori qurilish, uy-joy, kommunal va maishiy xizmatning noishlab chiqarish turlarida, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport, ijtimoiy ta'minot sohalarida, shuningdek, bozor infratuzilmasi sohalarida ya'ni moliya, kredit, sug'urta muassasalarida, boshqaruv idoralarida o'sdi.

Xalq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha aholining ish bilan bandligi haqidagi ma'lumotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mehnat bilan band bo'lgan aholining sanoatdagi, qishloq xo'jaligidagi ulushi kamayib bormoqda. O'zbekistonda mehnat organlari tomonidan ishga joylashtirilganlar soni 2004 yilda 2000 yildagiga nisbatan 131,3 foizga oshgani 14.7-jadvalda keltirilgan.

14.7-jadval

O'zbekistonda mehnat organlari tomonidan ishga joylashtirilganlar soni  
(ming nafar)

Viloyatlar	Ishsizlarning jamoat ishlariga jalb qilinishi				2004 yilda 2000 yildagiga nisbatan, %	
	2000 y	2001 y	2002 y	2004 y		
1	2	3	4	5	6	7
O'zbekiston Respublikasi	246,4	280,6	318,1	323,6	77,2	131,3
Qoraqalpog'iston respublikasi	20,1	22,3	23,7	19,0	-1,1	94,53
Andijon	21,5	22,7	24,8	25,7	4,2	119,5
Buxoro	12,8	12,3	13,1	15,6	2,8	121,9
Jizzax	11,3	12,2	13,3	13,5	2,2	119,5
Qashqadaryo	18,1	17,9	19,5	21,3	3,2	117,7
Navoiy	6,8	12,4	14,4	15,7	8,9	230,9
Namangan	33,6	35,8	37,7	38,3	4,7	114
Samarqand	26,9	35,1	40,6	41,2	14,3	153,2
Surxondaryo	11,3	12,3	13,6	19,1	7,8	169
Sirdaryo	4,7	5,1	6,0	10,0	5,3	212,8
Toshkent	14,9	16,3	17,3	15,1	0,2	101,3
Farg'ona	33,1	44	61,9	54,7	21,6	165,3
Xorazim	15,3	15,3	14,6	18,8	3,5	122,9
Toshkent shahri	16,0	16,9	17,6	15,6	-0,4	97,5

Manba: Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari. T., 2004y.

Ulardan ma'lum bo'lishicha, ishsizlar Qoraqalpog'iston Respublikasida 2004 yilda 2000 yildagiga nisbatan atigi 94,5%ni tashkil etdi. Bu xududda ishsizlarni jamoat ishlariga jalb qilish sust bormoqda.

Respublikada bandlik muammosining echimi xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirish istiqbollari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, shu nuqtai nazardan, ushbu sohaning rivojlantirilishi uchta asosiy maqsadni ko'zlaydi, mavjud bo'lgan kichik korxonalarni qo'llab-quvvatlash; kichik biznesning yangi sub'ektlari yaratilishi, norasmiy asosda ishlayotgan kichik korxonalarni asta-sekinlik bilan rasmiy sektorga birlashtirish.

Qoraqalpog'iston Respublikasida kichik biznes rag'batlantirilganda quyidagilar ta'minlanishi zarur:

Respublikada ijtimoiy bozor infratuzilmasi rivojlanganligi nafaqat chet el sarmoyasi faoliyatiga, balki uning oqib kelishiga imkon ham tug'dirmasligi mumkin. Shuning uchun uning me'yorlarini saqlash va rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Shu munosabat bilan telealoqa, avtomagistral, birja tarmoqlari, lizing, vositachilik tuzilmalarini takomillashtirish va shakllantirish tuzilmalarini sarmoya bilan ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

*Kichik korxonalariga bevosita moliyaviy yordam ko'rsatish.*

Bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, shu kabi faol tadbirkorlar uchun qo'llanilgan mul'tiplikasiya ta'sirida moddiy ishlab chiqarishning turli xil tarmoqlarida va xizmat sohalarida yangi ish joylari yaratish imkoniyatlari ko'payadi. Ishchi kuchining mehnat bozorida davomli taklifi demografik rivojlanishga bog'liq bo'ladi, shu bilan ta'lim, sog'liqni saqlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish sohalaridagi bevosita davlat siyosati ta'siriga, soliq, pul-kredit, xududiy siyosatga ham to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'ladi.

Bu bandlik ta'minlanishida mehnatni tartibga solish milliy siyosati asosida majmualiy yondashuv tushuniladi. SHunga muvofiq, ushbu siyosatning maqsadlari strategiyasi (qisqa, o'rta va uzoq muddatli) aniqlanadi. YAqin kelajakdagi tadbirlar dasturi ishsizlarga vaqtincha moddiy yordam ko'rsatish bilan ularga ko'mak berish va ishsizlikning oldini olish masalarini o'z ichiga olishi kerak. Ishchi kuchiga talabni

rag'batlantirish, yangi ish joylarini yaratish va sarmoya faoliyatini jonlantirish, ish haqi va daromadlarni tartibga solish o'rta muddatli rejada bosh bo'g'in hisoblanadi.

Uzoq muddatli davomli mehnat qilishni xohlaganlarning hammasiga erkin, unumdor (daromad) bandlik uchun kerakli bo'lgan sharoitlar yaratish ko'zda tutiladi. Butun iqtisodiyotning rivojlanishini ta'minlash, avvalo, zamonaviy texnologiyalarni keng joriy qilishga ya'ni talabga ko'ra, zaruriyatni hisobga olgan holda, ishchi kuchining malakasi, kasbiy bilimi mahorati va saviyasiga bog'liq bo'ladi.

Birinchidan, mehnat bozoriga chiqadigan, ayniqsa, avval uy xo'jaligida va norasmiy sektorlarda band bo'lgan barcha toifadagi ishchi kuchining zamonaviy maxsus kasb-hunar bilan qamrab olinishini ta'minlash zarur.

Ikkinchidan, mehnat bozorida ishchilarning raqobatbardoshligini va moslashuvchanligini oshirish, kerak bo'lganda kasbiy yoki mehnat faoliyatini almashtirish uchun shart-sharoit yaratish maqsadida tor doiradagi mutaxassislikdan kompleks kasblarga tayyorlash va yangi texnologiya bo'yicha o'qitishga o'tish lozim. Bu, birinchi navbatda, bo'shatilgan ishchilarga tegishli bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Uchinchidan, kasb ta'limining milliy tizimi mehnat bozori ko'rsatkichlari va talablariga javob berishi va unda ma'lum kasb yoki mutaxassislikka oid ishchi kuchiga bo'lgan talab to'liq hisobga olinishi kerak.

Ishsizlikda, tavakkalli yoki majburiy bandsizlik ham mavjud bo'lib, unga nogironlar, yosh bolali onalar, malakasiz ishchilar, kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lmagan yoshlar duchor bo'ladilar.

Nogironlarni unumli band qilish maqsadida ularning imkoniyati cheklanganini va mehnatga loyqlik darajasini baholab, ishga joylashishiga ko'maklashish lozim. Bunda ish beruvchilarning qiziqishlarini oshirish uchun majburlash choralariga nisbatan moliyaviy va boshqa rag'batlantirishlar samaraliroq hisoblanadi. Bularga rioya qilmagan korxonalar nogironlarni reabilitatsiyalash jamg'armasiga jarima to'laydilar. Tushgan mablag'lar nogironlarni kasbiy reabilitatsiyalash bo'yicha xizmatlarni moliyalashtirishga, kvotadan ortiq joylarni yaratadigan ish beruvchilarni rag'batlantirishga, maxsus ustaxonalarni jihozlashga va pul bilan ta'minlashga sarflanadi.

Yosh bolali ayollarni muvaffaqiyatli va oqilona ishga joylashtirishning o'ta muhim jihatlari mavjud:

- xizmatlari arzon baholi maktabgacha tarbiya muassasalarining mavjudligi;

- mehnat bozori tomonidan talab qilinadigan ta'lim va malakani oshirish;

- ishlab chiqarishdagi mehnat bilan bolaga qarash va uy xo'jaligini olib borishga imkon beradigan tartibli ishlar uyg'unlashuvini tashkil etish.

Yoshlarni malakali o'qitish bilan ularning shaxsiy korxonalari yaratilishini uyg'unlashtiradigan dasturlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Bu samarali usul bo'lib, unga yoshlarni mehnat bozoriga kirishidan oldin kasbiy yo'nalishda tayyorlash yo'li bilan asosiy ijtimoiy hayotga hozirlash orqali erishildi.

Mehnat resurslari bilan ko'p ta'minlangan respublikamiz mehnat bozori rivojlanish konsepsiyasining asosiy maqsadi – mehnatga layoqatli aholi bandligining kamayishi, ishsizlikning o'sishi, yangi ish joylari yaratilishining sustligi mehnat unumdorligining pasayishi, inflyasiya mavjudligi, mulkchilikning turli shakllari sekinlik bilan amalga oshirilishi, haqiqiy mehnat daromadlari kamayishi kabi sharoitlarda ishchi kuchiga talabni oshirish va uning taklifini kamaytirish bo'yicha kompleks tadbirlar ishlab chiqishdan iborat. Ular o'tish davrida O'zbekiston milliy iqtisodiyotini chuqur tarkibiy o'zgartirish va erkinlashtirish hamda, isloh qilishning strategik maqsadlariga asoslanib ishlab chiqiladi.

Buni hisobga olgan holda mazkur konsepsiyaning strategik maqsadlari qilib quyidagilarni belgilash mumkin:

- ijtimoiy yo'naltirilgan mehnat bozorini bosqichma-bosqich shakllantirish;

- ish bilan band bo'lmagan mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlovchi hamda ishchi kuchiga bo'lgan talab va taklifni tartibga soluvchi mustahkam rivojlangan mahalliy hamda xorijiy bandlik xizmati tashkilotlari tizimini takomillashtirish;

- yangi ish joylarini tashkil etishga, aholining bandlik darajasini oshirishga va ishlab chiqarish salohiyatidan unumli foydalanishga asos bo'luvchi chuqur iqtisodiy tarkibiy islohotlarni shakllantirish;

- aholining ish bilan oqilona bandligini shakllantirish;

– qayta ishlash sanoati, xizmat ko'rsatish va shaxsiy mehnat tarmoqlarida yangi ish joylarini yaratish, o'smirlar, ko'p bolali ayollar, nafaqaxo'rlar va nogironlar uchun mehnatning kafolatlashtirilgan mintaqalarini tashkil qilish;

– ishchi kuchiga talabni oshirish va ishsizlikning kamayishini ta'minlovchi kichik va o'rta biznes hamda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish;

– mulkchilikning ijara, jamoa, xissadorlik va xususiy shakllari va shaxsiy yordamchi xo'jaliklarni rivojlantirish;

– ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni mahalliy va xorijiy samarali texnologiya va texnika bilan ta'minlash;

– sanoat korxonalari va ishlab chiqarish ijtimoiy infratuzilmasi ob'ektlarini vujudga keltirish;

– mahalliy xodimlarning malakasini, raqobatbardoshligini va chet elga yuborilishi ko'lamini oshirish, ularda yangi iqtisodiy, ma'naviy va mafkuraviy tafakkurni shakllantirish;

– har bir band bo'lmagan kishiga ixtiyoriy va mustaqil ish joyini tanlash hamda mehnat qilish imkoniyatlarini yaratish;

– mehnat bozori, ishsizlik va aholi bandligidagi jarayonlarni tartibga soluvchi iqtisodiy, tashkiliy hamda xususiy mexanizmlarni takomillashtirish.

Mazkur maqsadlarga uzluksiz erishish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi mehnat bozori rivojlanishining asosiy bosqichlari va vazifalarini aniq belgilash zarur.

## **14.4 Kichik biznesning mamlakat rivojlanishidagi ahamiyati**

O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan keng miqyosli islohotlarning asosiy yo'nalishi ko'p ukladli iqtisodiyotni shakllantirish, erkin raqobat muhitini vujudga keltirish, mulkdorlar qatlamini barpo etish kabi sifat o'zgarishlariga qaratilgan. Bu maqsadlarga erishish mamlakat miqyosida bir qator ta'sirchan vositalarning, chora-tadbirlarning ishlab chiqilishini va hayotga tatbiq etilishini taqozo etadi. Bu borada kichik va o'rta biznesni keng rivojlantirish alohida muhim yo'nalishlardan biri ekanligi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning Oliy Majlisning XIV sessiyasida so'zlagan ma'ro'zasidagi ushbu fikrlarda o'z ifodasini topdi: “eng muhimi esa, biz

iqtisodiyot tarkibida kichik, oʻrta va xususiy biznes munosib oʻrin egallashiga, yaqin ikki-uch yil ichida kichik va xususiy korxonalar sonini ikki baravar koʻpaytirib, yalpi milliy mahsulotda ularning ulushini kamida 25 foizga etkazishga erishmogʻimiz lozim”.

SHunday qilib, oʻz iqtisodiyotining rivojlanish darajasi va tarkibiga koʻra turlicha boʻlgan jahon mamlakatlarida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning yangi bosqichiga koʻtarilish zarurati va bir qator obʻektiv sabablar kichik biznes sohasining keng rivojlanishi uchun imkon yaratdi.

Kichik biznesning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi oʻrni va ahamiyati bu soha tomonidan amalga oshiriluvchi vazifalar orqali namoyon boʻladi. Bunday vazifalarning turli-tumanligi esa kichik biznes sohasining ham jahondagi barcha mamlakatlar uchun, ham oʻz xususiyatlari bilan ajralib turuvchi har bir alohida mamlakat uchun qandaydir darajada ahamiyat kasb etishidan darak beradi.

Kichik biznesning iqtisodiyotdagi ahamiyati toʻgʻrisida soʻz yuritilganda, eng avvalo, uning isteʼmol bozoridagi muvozanatni taʼminlash vazifasini taʼkidlash lozim. Uzoq yillik xoʻjalik yuritish tajribasidan maʼlumki, oʻta darajada yiriklashgan ishlab chiqarish ehtiyojlar va talab tuzilishidagi oʻzgarishlarga qiyin moslashuvchan harakatchanlik borasida oʻta sust hisoblanadi. Bundan farqli oʻlaroq, kichik biznes iqtisodiyotning eng moslashuvchan, oʻzgarib turuvchi talabga tez javob beruvchi soha hisoblanib, turli ehtiyojlardan kelib chiqqan holda, isteʼmolchi uchun zarur boʻlgan mahsulot va xizmatni etkazib berish muammosini zudlik bilan hal etadi. SHu bilan birga, ular aholi ehtiyojlarining oʻzgarishi natijasida mahsulot turlarini oʻzgartirish va ishlab chiqarishga joriy etishni yirik ishlab chiqarishga nisbatan kam xarajat qilgan holda amalga oshira oladilar.

Maʼlumki, yirik korxonalarining muayyan turdagi mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishdagi etakchilik mavqei iqtisodiyotda yakkahukmronlik holatining paydo boʻlishi va avj olishiga olib keladi. Misol tariqasida keltirish oʻrinliki, 90-yillarning boshida (sobiq Ittifoqda) maishiy ahamiyatdagi mahsulotlarning 239 ta muhim turidan 82 turini ishlab chiqarish bitta korxonada va deyarli 90 turini ishlab chiqarish ikkita korxonada amalga oshirilardi. Oʻta yakkahukmronlashgan ishlab chiqarishning bu roʻyxatini yana davom ettirish mumkin. Natijada tovarlar va xizmatlar bozorida oʻz taʼsirini va hukmini oʻtkaza olish imkoniyati mazkur korxonalar mahsulotining sifati, sotish narxlari xamda ular boʻyicha qoʻshimcha xizmatlar



ko'rsatish va kafolatlar yaratish borasidagi izlanishlarni susaytiradi. Bunday sharoitda kichik biznes korxonalari iqtisodiyotga harakatchanlik baxsh etish vazifasini bajarish vositasi sifatida maydonga tushishi mumkin. Bu mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojlarni iste'molchi uchun yirik ishlab chiqarishdagiga va nisbatan afzalroq xususiyatlar bilan qondirishga harakat qiladi va kichik biznes yirik korxonalarining iqtisodiy raqibiga aylanadi. O'z navbatida, yakkahukmron ishlab chiqaruvchi ham u bilan "hisoblashishga", mahsulot va xizmatlarning narxi, sifati ustida izlanishlar olib borishga majbur bo'ladi, bir so'z bilan aytganda raqobat muhiti vujudga keladi.

### **14.5. Kichik korxonalar rivojlanishidagi xorijiy tajribalar**

Kichik korxonalar uchun aynan yirik ishlab chiqarish mahsuli bo'lgan tovar va xizmat turlarini ishlab chiqarib, raqobatda g'olib chiqish o'ta murakkab bo'lgan holdir. Odatda kichik korxonalar yangi mahsulotlar ishlab chiqarish va ularning yangi texnologiyalarini yaratish orqali raqobatda engib chiqishga erishadilar. Chunki aynan kichik korxonalarda yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishga tatbiq etilishi, ilmiy-texnikaviy yangiliklar, yangi texnologiyalarning joriy etilishi jarayoni juda tez amalga oshadi. Xususan, XX asrning 61 ta yirik kashfiyotlaridan 48 tasi mayda va o'rta korxonalarda ochilgan. Antibiotiklar, insulin, avtomatik o'zatlama, vertoletlar, kineskoplar, sellofan, kserokopiya, sharikli ruchkalar, "Rolaroid" fotokamerasi, mikrokompyuterlar kabi haqiqiy inqilobiy yangiliklar kichik firmalar tomonidan yaratilgan va birinchi bo'lib o'zlashtirilgan (24, 3-b). Mutaxassislarning bergan bahosiga ko'ra, Yaponiyadagi kichik firmalarda tajribaviy ishlab chiqarishni bir hafta mobaynida yo'lga qo'yish mumkin ekan. Holbuki, yirik korxonalarda bir hafta tajribaviy ishlab chiqarishni tashkil etish to'g'risidagi taklifni ko'rib chiqish va uni korxonaning turli bo'limlarida tasdiqdan o'tkazishning o'ziga ham etmaydi.

Zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlangan kichik korxonalar jahon andozalariga mos sifatli mahsulotlar ishlab chiqara oladilar. Hozirda ishlab chiqarishning u yoki bu tarmoqlarida etakchilik qilayotgan barcha yirik korporasiyalar o'z faoliyatini yangi mahsulotlar yaratish va ishlab chiqarish bo'yicha kichik firmalar tariqasida boshlagan.

YAponiyada kichik korxonalar negizida “Xonda”, “Sanio”, “Nissan” va boshqa shu kabi eng zamonaviy ilmiy yo’nalishdagi ishlab chiqarishga ixtisoslashgan va jahonga dong taratgan firmalar etishib chiqdi.

Kichik biznesning ahamiyatli tomonlaridan yana biri shundaki, u yirik kompaniyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni bilvosita rag’batlantiruvchisi hisoblanadi. Ko’pincha kichik korxonalarning yirik yakkahukmron ishlab chiqarishga bog’liqligi ta’kidlanadi. Biroq, bu bog’liqlik bir tomonlama bo’lmay, balki o’z navbatida yirik korxonalarning faoliyatini kichik biznes yordamisiz tasavvur etish mumkin emas. Ko’plab mayda va o’rta kompaniyalar yirik korxonalar uchun turli ishlarni bajarib, butlovchi detal va qismlarni etkazib berib, ularning ichki pudratchisiga aylanadilar. Ichki pudrat tizimi yakkahukmron ishlab chiqaruvchilar uchun o’ta foydalidir. Boshqaruv xarajatlarini qisqartirish, mahsulot tannarxini pasaytirish va sifatini oshirish, kam natija beradigan turli ishlarni mayda tadbirkorlarga yuklash yirik korxonalarning kapital tejashlariga imkon yaratadi.

#### **14.6. Kichik korxonalar samaradorligi**

Kichik korxonalarda mahsulot birligi qiymatiga to’g’ri ustama xarajatlar (boshqaruv xarajatlari) yirik korxonalarga qaraganda ancha past. Bularning barchasi xalq xo’jaligi miqyosida sezilarli tejamkorlikka olib kelishi mumkin. Pol’shalik iqtisodchilarning hisob-kitoblariga ko’ra, mayda ishlab chiqarishga investisiya qilingan har bir zlotiy yirik sanoatga qo’yilgan mablag’ga nisbatan 4,5 baravar ko’proq o’sishi ta’minlagan.

Ishlab chiqarish xarajatlarining nisbatan tejamli bo’lishi natijasida, tabiiyki, daromad ham yuqori bo’ladi. Kichik firmalarning ishlab chiqarish miqyoslari jihatidan yirik ishlab chiqarish oldidagi imkoniyatlari ancha cheklangan bo’ladi. SHunga qaramay, AQSHlik mutaxassislarning ma’lumotlariga ko’ra, kichik firmaga qo’yilgan bir dollar yirik firmaga nisbatan 17 baravar ko’proq daromad keltiradi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko’rsatmoqdaki, kichik va o’rta biznes mazkur mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalarini kengaytirishda muhim rol o’ynaydi. Masalan, Germaniyada (500 kishigacha ishlovchilar mavjud bo’lgan) kichik va o’rta firmalar hissasiga eksportning 40%i, Fransiyada deyarli 36%i YAponiyada 39%i to’g’ri keladi.

Kichik korxonalarining ahamiyati, ayniqsa, nisbatan kichik ko'lamdagi yangi bozorlarni o'zlashtirishda yaqqol namoyon bo'ladi. Mavsumiy, milliy, mahalliy tavsifdagi ba'zi mahsulot va xizmatlar talab hajmiga ko'ra yirik ishlab chiqarish uchun kam salohiyatli hisoblanadi. SHuning uchun kundalik turmushda kerak bo'ladigan uy-ro'zg'or buyumlarini ishlab chiqarish va maishiy xizmatlar ko'rsatish ko'proq kichik korxonalar zimmasida bo'ladi.

Kichik biznesning ijtimoiy sohadagi xizmatlaridan biri - bu aholining ish bilan bandlik darajasini oshirishdir. O'z navbatida u mazkur vazifani bajarishga ikki yo'l orqali yondoshishi mumkin. Birinchisi, yangi ish o'rinlarini barpo etish.

Ikkinchisi, vaqtincha bo'sh bo'lgan yoki ish bilan qisman band bo'lgan aholini ishga ajlb etish, yoki boshqacha aytganda ikkilamchi bandlikni ta'minlash. Aholining ish bilan bandligi va qo'shimcha daromad olish imkonini yaratish orqali jamiyatdagi ijtimoiy muvozanatni saqlashga katta hissa qo'shish mumkin. Jumladan, bugungi kunda AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Italiya, YAponiyada jami ish joylarining 2/3 qismi kichik biznes hisobiga tashkil etilgan. O'zbekistonda bu sohada band bo'lganlar soni 1mln.ga yaqin kishini (xalq xo'jaligida band bo'lganlarning taxminan 7 foizini) tashkil etadi. Bu sohada bir qancha hududiy tafovutlavr mavjud. Xususan, kichik va o'rta korxonalarda faoliyat ko'rsatayotganlarning xalq xo'jaligida band bo'lgan barcha aholiga nisbatan ulushi Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida 14 foizdan, Andijon va Toshkent viloyatlarida esa mos ravishda 4 va 5 foizni tashkil etmoqda.

Bugungi kunda eng dolzarb muammolaridan biri - atrof-muhitning muhofazasi muammosidir. Bir necha o'n yillar davomida ekstensiv xo'jalik yuritish orqali tabiatga o'tkazilgan tazyiq, er osti va er usti boyliklaridan isrofgarlik bilan foydalanish hozirda o'z oqibatini ko'rsatmoqda. Endilikda atrof-muhitni ifloslantiruvchi, o'zidan zararli chiqindilarni chiqaruvchi, tirik organizmlarni zaharlovchi yirik korxonalar faoliyatiga mutloq barham berish zarur. Bu muammo mahalliy xom ashyolar, yirik sanoat korxonalarining chiqindilarini qayta ishlash qobiliyatiga ega bo'lgan, ishlab chiqarishda chiqitsiz texnologiyalardan samarali foydalanuvchi hamda, eng muhimi, atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatmaydigan texnologiyalar asosida ishlovchi kichik korxonalarini tashkil etish orqali hal etilishi mumkin.

Kichik korxonalar iqtisodiyotning rivojlanishidagi muhim vazifalardan biri shundaki, u aholining ishbilarmonlik faolligini oshirishning samarali vositasi hisoblanadi. Natijada, markazlashgan tarzda foydalanishning iloji bo'lmagan ichki zahiralari - aholining pul mablag'lari, moddiy va mehnat resurslarini harakatga tushirish imkoni vujudga keladi. SHuningdek, kichik biznesga keng yo'l ochish orqali xalqning ma'naviy qadriyatlarini - milliy hunarmandchilikni yanada rivojlantirishga, unutilgan sohalarni qayta tiklashga imkon yaratiladi.

## **14.7. Kichik korxonalar chegaralarini aniqlash mezonlarini belgilash**

Kichik va o'rta korxonalar chegaralarini aniqlash mezonlarini belgilash dolzarb muammolardan hisoblanadi. Mezonlar - bu ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muayyan tarixiy chegarasida sifat va miqdor jihatidan o'ziga xos maqsadli dasturdir. Jahonning 75 mamlakatida kichik va o'rta korxonalarni tavsiflashda mezon rolini bajaruvchi 50 dan ortiq turli statistik ko'rsatkichlar mavjud. Ko'rsatkichlarning bu qadar ko'p va xilma-xilligi kichik biznes sohasini belgilashning xilma-xilligidan kelib chiqadi.

SHunga qaramay, mezonlarning o'zini ham umumiy xususiyatlariga ko'ra bir necha guruhga ajratish mumkin. Miqdoriy mezonlar guruhi bu muammoga nisbatan ko'proq darajada aniqlik kirita oladi. Bu guruhdagi ko'rsatkichlarning umumiy belgisi - iqtisodiy hodisa va jarayonlarni belgilab, uning qaysidir bir jihatiga miqdoriy ahamiyat baxsh etish hisoblanadi.

Miqdoriy mezonlar orasida korxonalar ko'lamini eng asosiy o'rin egallaydi. Korxonalar ko'lamini (hajmi) - bu mahsulot ishlab chiqarish uchun foydalaniluvchi korxonada to'plangan mehnat vositalari va ish kuchining miqdorini aks ettiradi.

Korxonalar ko'lamini belgilashda unda band bo'lgan xodimlar soni asosiy ko'rsatkich bo'lib, umumiy xalqaro mezon hisoblanadi. Bu ko'rsatkich amaliyotda qo'llash uchun juda qulaydir.

Tahlil qilish oson amalga oshuvchi ko'rsatkichlar: asosan ish bilan band bo'lganlar soni, sotish hajmi (aylanma) va balans qiymatidan xorijiy mamlakatlarda kichik biznesga, odatda, ishlovchilarning soni 1 dan to 500 kishigacha bo'lgan korxonalar quyidagicha chegaralar asosida taqsimlanadi, ya'ni: 1 dan 20 kishigacha - hunarmandchilik

korxonasi, 20 dan 100 gacha - kichik, 100 dan 500 kishigacha - o'rtacha korxonalar. Turli mamlakatlarda ko'lam jihatidan tuzilish chegaralari o'zaro farq qiladi. Masalan, kichik tadbirkorlikning ahamiyati juda katta bo'lgan Yaponiyada bu sohadagi korxonalar 7ta guruhga ajratib ko'rsatiladi: 1 dan 4 kishigacha, 5 dan 9 gacha, 10 dan 29 gacha, 30 dan 49 gacha, 50 dan 99 gacha, 100 dan 299 gacha va 300 dan 499 kishigacha.

Biroq, ishlovchilar soni korxonalar hajmini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanmasda, uning o'zini alohida holda qo'llash hech qachon kutilgan natijani bermaydi. Chunki xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari uchun mutloq mezon bo'lgan yagona statistik ko'rsatkich mavjud emas. Mazkur ko'rsatkichlarni belgilashning murakkabligi avvalo shunda namoyon bo'ladi, ular xalq xo'jaligining barcha soha va tarmoqlari uchun bir xilda ahamiyat kasb etmaydi. Masalan, xizmat ko'rsatish yoki savdo sohasida yirik hisoblanuvchi korxonalar qayta ishlash sanoatida o'rtacha, hattoki mayda korxonalar hisoblanishi, shuningdek, oziq-ovqat sanoatidagi o'rtacha korxonalar o'zining miqyosiga ko'ra ko'mir qazish sanoatida mayda korxonalar hisoblanishi mumkin.

Bu narsalar korxonalar miqyosini belgilashda xodimlar sonining o'ziga etarli emasligini ko'rsatadi. Mehnatni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishning hozirgi darajasida ayniqsa yangi, yaxshi jihozlangan korxonalarda xodimlar soni doim ham ishlab chiqarishning haqiqiy miqyoslarini aks ettira olmaydi. SHuning uchun bir qator Evropa mamlakatlarida korxonalar o'lchamini tavsiflash uchun xodimlar soni ko'rsatkichi bilan bir qatorda, ishlab chiqarilgan mahsulot hamda ishlab chiqarish fondlari hajmi ko'rsatkichlaridan ham foydalaniladi.

Jumladan, Germaniyada kichik va o'rtacha korxonalarini tavsiflovchi miqdor mezonlari ikkita ko'rsatkichga asoslanadi: yillik aylanma hajmi va ish bilan band bo'lganlar soni (shuningdek, mazkur korxonaning kapitalida boshqa firma va tashkilotlarning ishtiroki darajasi 1/3 dan ortmasligi lozim). Bu uslubga muvofiq, xalq xo'jaligining mazkur sohasiga quyidagilar kiritiladi:

1. O'ziga xos firma sifatidagi barcha erkin kasb egalari (vrachlar, notariuslar, soliq, reklama va boshqa yo'nalishlar bo'yicha maslahatchilar, auditorlar, pedagoglar, matbuot va san'at xodimlari, mustaqil faoliyat yurituvchi muhandislar va h.k.).

2. Ishlovchilar soni 1 dan 49 kishigacha hamda yillik aylanmasi 1 mln. markagacha bo'lgan kichik korxonalar.

3. Ishlovchilar soni 50 dan 499 kishigacha hamda yillik aylanmasi 1 mln. dan 100 mln. markagacha bo'lgan o'rta korxonalar.

SHuningdek, AqSHda yillik aylanma million dollardan oshmasa kichik biznes hisoblanadi. YAponiyaning kichik va o'rta korxonalar bo'yicha Oq kitobi kapitali 10 dan 100 mln. iengacha bo'lgan kompaniyalarni kichik va o'rta, 100 mln. iendan yuqorisini esa yirik korxonalar tarkibiga kiritadi.

Kichik biznes ishi bo'yicha ma'muriyat xodimlari kichik firmalarning mutq ko'lamlarini ishlovchilar soni, savdo aylanmasi hajmi bo'yicha hamda tarmoq va geografik mansubligiga ko'ra nisbatan to'la turkumlanishini ishlab chiqishga urinib ko'rdilar. Ularning turkumlashiga muvofiq, statistik hisobotlarda firmalar ko'laminin mezonini bo'lib sotishdan olingan yillik daromad hisoblanadi. Agar ulgurji savdoda sotishdan yillik daromad 5 dan to 22 mln. dollargacha bo'lishi ko'zda tutilsa, chakana savdo va aloqa sohasida bu ko'rsatkich tegishli 2 va 3 mln. dollarni tashkil etadi. qurilishda esa 7,5 dan to 12 mln. dollar chegarasida bo'ladi.

SHunday qilib, miqdoriy mezon ko'rsatkichlari ham turlicha bo'lib, ularni 2 guruhga ajratish mumkin: asosiy ko'rsatkich - ish bilan band xodimlar soni, va yordamchi ko'rsatkichlar: tovar va xizmatlar sotishning yillik hajmi, kapital miqdori, yillik aylanma, tovar aylanmasi va h.k.

Kichik biznes sohasini belgilashda miqdor mezonlaridan tashqari sifat hamda kombinasiyalashgan mezonlardan ham foydalaniladi. V.SHepelev kichik korxonalarni belgilashning sub'ektiv mushohadalarga asoslangan sifat mezonlari tarkibini quyidagicha belgilaydi:

- ❖ ishlab chiqarilgan mahsulotlarning nisbatan katta bo'lmagan miqdori;
- ❖ cheklangan resurs va quvvatlar;
- ❖ boshqaruvning kam rivojlangan tizimlari;
- ❖ menejmentning doimiy tavsif kasb etmasligi;
- ❖ asosiy boshqaruv lavozimlarini korxonaning tashkilotchilari (mulkdorlar) yoki ularning qarindoshlari egallashlari va h.k

SHu bilan birga u mezonlarga sifat jihatdan yondoshuvning asosiy kamchiligi - firmaning ichki ma'lumotlariga erishish hamda mezonlarning o'zini keng spektr bilan bog'liq bo'lgan amaliy qo'llanishining mushkulligi deb ta'kidlaydi.

Sifat mezonlarining ahamiyati shu bilan belgilanadiki, ular kichik biznes sohasiga kiritiluvchi korxonalarni boshqa yirik ishlab chiqarish sohasidan farqlovchi o'ziga xos xususiyatlarini, ichki tabiatini o'zida mujassamlashtiradilar va aks ettiradilar. SHunday ekan, bunday mazmundagi ko'rsatkichsiz hech qachon kichik biznes to'g'risida to'la tasavvur hosil qilish mumkin emas.

## **14.8. Keys stadii «Aholi daromadlari va turmush darajasini oshirish yo'llari»**

**Davlat ijtimoiy siyosatining maqsadi** – jamiyatda aholining asosiy hayotiy ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan qulay ijtimoiy muhit va shart-sharoitlarni yaratishdir.

### **Ijtimoiy siyosat asoslari:**

- iqtisodiy faoliyat erkinligi;
- aholining mehnat faolligini oshirish;
- aholini adresli ijtimoiy himoyalash;
- aholiga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlantirish.

### **Aholi turmush darajasini belgilaydigan omillar**

- makroiqtisodiy omillar – inflyasiya, soliq va pul-kredit siyosati;
- demografik o'sish;
- ish bilan bandlik darajasi, mehnat bozori, ish vaqti;
- uy-joy va kommunal xizmatlar bilan ta'minlanganlik;
- aholi salomatligi;
- ta'lim darajasi;
- ijtimoiy ta'minot tizimi.

**YAlpi daromad (YAD)** – insonning jismoniy, aqliy va moddiy holatini saqlab borishga yo'naltiriladigan pul va natural vositalar jamuljami. YAD quyidagilardan tarkib topadi:

- Mehnat xaqi;
- Pulli shakldagi ijtimoiy transfertlar;
- Mulkdan keladigan daromadlar;
- Tadbirkorlik faoliyatidan keladigan daromadlar;
- Uy xo'jaligida (dexkon xo'jaligida) etishtirilgan mahsulotni sotishdan keladigan daromad;
- Dexkon xo'jaligidan keladigan natural tushumlar qiymati;
- Tekin xizmatlar (imtiyozlar) qiymati;
- Uy xo'jaligiga keladigan boshqa tushumlar.

Aholining daromadlariga ta'sir etadigan omillar

– **Tashqi**

- iqtisodiy va jo'g'rofiy holat;
- tabiiy-iqlimiy sharoitlar;
- tabiiy resurslar;
- aholi tarkibi va demografik salohiyat;
- moliyaviy ta'minlanganlik;
- mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi;

– **Ichki**

- aholining iste'mol va sarf - xarajatlari darajasi;
- pul jamgarmalari;
- ko'chmas mulk va uy xo'jaligi aktivlari;
- ta'lim va salomatlik;
- ish bilan bandlik;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan Aholi daromadlari va turmush darajasini oshirish borasida, joylarda davlat hokimiyati organlariga qo'yilgan ustuvor vazifalari:

- bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish;
- xususiy sektorning ildam rivojlanishini ta'minlash, uning mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini ko'paytirish;
- kichik biznes va dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish borasidagi ishni chuqurlashtirish va miqyosini kengaytirish;
- bank va moliya tizimlari islohotini chuqurlashtirish;
- uy-joy-kommunal xo'jalikni isloh qilish;
- soliq siyosatini takomillashtirish.

**Mintaqaning iqtisodiy va ijtimoiy salohiyati.**

**Iqtisodiy salohiyat** – yalpi mintaqa mahsulotini ishlab chiqarish uchun xo'jalik kompleksi tarmoqlarining jami qobiliyati

**Iqtisodiy salohiyatning tarkibiy qismlari:**

- ishlab chiqarish salohiyati;
- inson resurslari;
- tabiat resurslari.

**Ijtimoiy salohiyat** – aholi ehtiyojlarini ta'minlash bo'yicha ijtimoiy sohani jami qobiliyatlari.

**Ijtimoiy salohiyatning tarkibiy qismlari :**

- mehnat salohiyati;



- ijtimoiy xizmat ko'rsatishni moliyalashtirish;
- ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat tashkilotlarining quvvati.

Aholi daromadlari va turmush darajasini oshirishni ta'minlash borasida mahalliy darajada amalga oshirilishi lozim bulgan chora-tadbirlar.

- yangi qurilish, rekonstruksiya amalga oshirilishi va ishlab chiqarishning modernizasiyalashishi, kichik biznes ildam rivojlantirilishi hisobiga yangi ish o'rinlari yaratilishini rag'batlantirish
- dehqon xo'jaliklarini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash;
- mintaqa miqyosida bozor infratuzilmasini rivojlantirish; (transport, aloqa, muhandislik kommunikasiyalari va moliyaviy infratuzilma);
- uy-joy-kommunal majmuini rivojlantirish;
- ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini saqlash va rivojlantirish;
- aholini ijtimoiy himoyalashning adresliligini ta'minlash;
- ish haqi, pensiyalar va nafaqalar to'liq va o'z vaqtida to'lanishini ta'minlash;

### ***Qisqacha xulosalar***

Kichik biznesning iqtisodiyotdagi ahamiyati avvalo, uning iste'mol bozoridagi muvozanatni ta'minlashdan iborat.

Kichik biznes yirik korxonalarining muayyan turdagi mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishda yakkahukmronlik holati paydo bo'lishining oldini oladi.

Kichik biznesning ahamiyatli tomonlaridan yana biri shundaki, u yirik kompaniyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning bilvosita rag'batlantiruvchisi hisoblanadi.

Kichik va o'rta korxonalar chegaralarini aniqlash mezoni - bu ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muayyan tarixiy chegarasida sifat va miqdor jihatidan o'ziga xos maqsadli dasturdir.

Mamlakat iqtisodiyotiga jalb etilgan investisiyalar hajmi qariyb 2 trillion so'mga etdi, bu esa o'tgan yildagiga qaraganda 4,5 % ko'p demakdir.

2004 yili kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tartibli rivojlandi. Kichik biznesning mamlakat ichki mahsulotidagi ulushi 35,5 %ga etdi. Bugungi kunda byudjet korxonalarida

ishlayotganlar iqtisodiyotda band bo'lganlarning 57 %dan ko'prog'ini tashkil etadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida milliy iqtisodiyotimiz uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqaruvchi xudud ob'ektlari moliyalashtirilmoqda, xususiyl moliyalashtirish kengayib, xususiyl sektor rivojlangan sari davlat byudjeti mablag'lari hisobiga investisiyalash ortib boryapti. Bunday hollarda bozor iqtisodiyotiga o'tib borayotgan davlatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham davlat byudjeti tomonidan tibbiyot, fan va madaniyat, maorif va boshqa ijtimoiyl sohalar loyihalari moliyalashtiriladi hamda bu maqsadga muvofiqdir. Bunga misol qilib keyingi paytlarda mamlakatimiz xududlarida keng miqyosda qurilib, foydalanishga topshirilayotgan tibbiyot muassasalari, akademik liseylar hamda kasb-hunar kollejlari va boshqalarni keltirish mumkin.

### ***Nazorat va muhokama uchun savollar***

- 1 Kichik biznesning mamlakat ijtimoiyl-iqtisodiy rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati qanday?
- 2 Respublikamizda kichik biznesning rivojlanishi bo'yicha qanday hududiy tafovutlar mavjud?
- 3 Kichik korxonalarining yirik korxonalariga nisbatan samaradorlik ko'rsatkichlari qanday?
- 4 Kichik korxonalar chegaralarini aniqlash mezonlarini belgilashdan maqsad nima?
- 5 Kichik korxonalar samaradorligi qanday aniqlanadi?
- 6 Kichik korxonalar rivojlanishi bo'yicha qanday xorijiy tajribalarni bilasiz?
- 7 O'zbekiston xududlarining ijtimoiyl-iqtisodiy rivojlanishi imkoniyatlari kanday?
- 8 Xududlarning iqtisodiyotga investisiyalarni jalb qilish xususiyatlari qanday?
- 9 Xududlarning iqtisodiy imkoniyatlari nimalardan iborat?
- 10 Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish yo'llari qanday?
- 11 Xududlarda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishning ahamiyati nimadan iborat?
- 12 Xududlarda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishning hozirgi holati kanday?
- 13 Kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda davlatni roli qanday?
- 14 Kichik tadbirkorlikning rivojlantirishning istiqboli nima?

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. A.E. Ishmuhamedova L.A. problema' razvitiya predprinimatel'stva i malogo biznesa uchebnie posobie T.2005 g.
2. A.E. Ishmuxamedov va boshqalar «O'zbekiston milliy iqtisodiyoti» o'quv qo'llanma.2004 y.
3. A.E. Ishmuhamedov va boshqalar «Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari» o'quv qo'llanma. 2004y.
4. M.S. Mirsaidov Tadbirkorlik asoslari. –T.: O'zbekiston, 2002.
5. Internet ma'lumotlari.  
[WWW.ceep.uz](http://WWW.ceep.uz).  
[WWW.bearingpoint.uz](http://WWW.bearingpoint.uz).  
[WWW.pca.uz](http://WWW.pca.uz).  
[www.makroiqtisodiyot.narod.ru](http://www.makroiqtisodiyot.narod.ru)  
[www.nigorabonu.narod.ru](http://www.nigorabonu.narod.ru)

## **15-BOB. O'ZBEKISTONDA MINTAQALARNI IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI**

### **15.1. Xududlarni innovasion strategiyasini aniqlash uslubi**

Xududiy innovasion strategiya makro va mikroinnovasion strategiyalar oralig'idagi strategiya hisoblanadi. Uning roli har qanday ishlab chiqarish va innovasion jarayon o'zining hududiy joylashuviga egaligida bo'ladi. Davlat darajasidagi makrostrategiya markazlashgan resurslarni aniq, xududdagi korxonalar va tashkilotlarga joylashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Bu korxonalar va tashkilotlarda mahalliy xom ashyolar, ishlab chiqarish va mehnat resurslari hamda infratuzilmalardan foydalaniladi. Agar ko'rsatilgan elementlardan birortasi etarli darajada rivojlanmagan bo'lsa, bunda mazkur xududda makroinnovasiya strategiyasini amalga oshirish chegaralanib qoladi. Makro darajadagi xududiy muammolarni hisobga olishning zaruriy qirralaridan biri har qanday davlatning alohida xududlarini rivojlantirishga ahamiyat berishdir. Aks holda, alohida xududlarni ijtimoiy-iqtisodiy chegaralash hududiy muammolarning keskinlashuviga olib keladi. Sobiq SSSR, YUGoslaviya, Hindiston, Braziliya, Kanada va boshqa mamlakatlardagi holat buning misolidir.

Agar makrodarajalar va mikrodarajalar innovasiyaga nisbatan ko'rib chiqilsa, unda xududiy rivojlanish bu holatda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Har bir xudud o'zining shaxsiy manfaatlariga ega bo'ladi. SHunday qilib, xududiy strategiyaning qo'llanish va amalga oshirish zarurligi jihatidan muvofiqlashtiruvchi to'rt asosiy omilni ajratish mumkin:

- makroinnovasiya xududiy strategiyalarining nuqtai nazarlari;
- xududiy rivojlantirishning davlat siyosati;
- xududlar rivojlanishining ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy maqsadlari;
- korxonalarining mikro-innovasiya strategiyasi.

Xududiy innovasiya strategiyasining tashkiliy ta'minotidan foydalanishi.

Xududiy inovasiya strategiyasi makro va mikro darajada shakllanganligi munosabati bilan tashkiliy tuzilmalar tomonidan bu strategiyalarni shakllantirish jarayonining boshqarilishi ham shu darajalarda bo'lishi lozim.

Hozirgi makrodarajada mavjud bo'lgan tashkiliy shakllantirish ilmiy-texnika taraqqiyotining boshqarilishida biroz bo'lsada shu modellashtirishning xududiy jihatlari bilan bog'liq. Ayrim mamlakatlarda xududiy innovasiya jarayonlari boshqaruv bo'yicha maxsus davlat organlari tuzilgan. Masalan, Kanada ilmiy-texnika federal va provinsial qo'mitasi.

Bu strategiyani tanlagan tashkilot turli tarmoqlarda radikal innovasiyani amalga oshirish hisobiga raqobatli imtiyozni shakllantirishga harakat qiladi. Radikal innovasiyani amalga oshirgan tashkilotlar yangi segment yaratish hisobiga yuqori daromadni yaratish imkonini qo'lga kiritadi. Bu borada yangi texnologiyani qiziqqan tashkilotlarga sotish muqobil hisoblanadi.

15.1-jadval

### **Xududiy innovasion strategiya**

Xududiy strategiyaning nomlanishi	Strategiya tartibi
<b>Xududiy strategiya</b>	
'zini ta'minlash	Boshqa xududlardan tovar keltirish bilan bog'liqlik kamaytirish
lization	O'zining intellektual ishlab chiqarishi va xom ash

	resurslarini ishga solish hisobiga rivojlanishni ta'minlash
boshqa resurslarni jalb qilish	Rivojlanishni intellektual hamda boshqa tur resurs yordamida va boshqa hududlardagi resurslar hisobiga ta'minlashga intilish
mavjud imkoniyatlardan foydalanish	Rivojlanishni o'z xududidagi mavjud hollardan foydalanish hisobiga ta'minlash
hududni rivojlantirishning davlat makrostrategiyasi	
cheqarlangan ustuvor rivojlanish	Ayrim ustuvor hududlarda azaldan yuksak rivojlanish darajasiga erishgan bo'lgan davlat resurslarining konsentratsiyalanganligi
resurslar me'yordagi rivojlanish	Xududlarning darajalarini zaruriy resurslar bilan yo'naltirish hisobiga tenglashtirish
resurslarni mutanosib taqsimlash	Resurslarni alohida hududlar orasida mutanosib taqsimlangan parametrlar bo'yicha taqsimlash
makroinnovasion strategiyaning hududiy jihatlari	
resurs konsentratsiya	Makroinnovasiya strategiyasini yuqori rivojlangan hududlarning cheqarlangan doiradagi potensialini foydalanilgan holda amalga oshirishga intilish
resurs lokalizatsiya	Makroinnovasiya strategiyasining imkon bo'lgan hududlarning potensialini jalb qilish va rivojlanish hisobiga amalga oshirish

Statistika shuni ko'rsatadiki, innovasiyani yaratish va tatbiq qilish bir tomondan, yuqori darajadagi tavakkalchilik hisoblansa, boshqa tomondan, iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda investisiya o'rtacha darajada 3 barobardan ziyod daromad keltiradi.

Rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda investisiya bilan innovasion firmada shug'ullanish qanchalik foyda keltirishini allaqachon bilganlar. Bu, odatda **venchur** investisiyalash holida amalga oshiriladi. Uning g'oyasi shundan iboratki, venchur kapitalistning investision portfelida mavjud turli-tuman loyihalar orasiga tavakkallik taqsimlanadi va innovasiyadan kelib tushadigan yuqori daromadlar orqali qoplanadi. Masalan, venchur kapital hisobiga tashkil topgan Digital Equipment Amerika innovasion kompaniyasining aksiyalari 10 yil ichida 750 martadan ziyodga qimmatlashdi.

Venchur investisiyalash tavakkalchiligini pasaytirishning asosiy usuli – oldingi bosqichning natijalariga qarab, bosqichma-bosqich moliyalashtirishdir. SHu bilan birgalikda har bir «qo'porish» oldingiga nisbatan ko'p bo'lishi kerak. Innovasiya biznesni davlat qo'llashi texnologik pork shaklini olmoqda. Bu birinchi marta AQSHda paydo bo'lgan va u bilan birga infratuzilmada innovasion tashkilotlar tomonidan ma'qul shartlar asosida kerakli uskunalar, laboratoriyalar, xonalar, ixtisoslashtirilgan axborotlar manbalari mavjud bo'lgan. Radikal texnologiya yoki mahsulot yaratishda muvaffaqiyatga erishgan innovasion firmalarning katta muammolaridan biri ishlab turish, ya'ni «tirik qolish» hisoblanadi. Elektronika va kompyuterlar sohasida AQSHdagi yuzlab innovasion firmalardan faqat bir necha o'ntasi ahamiyatli natijaga erishdi va faqat «Apple» kompaniyasi kuchli xalqaro tashkilotga aylanishga muvaffaq bo'la oldi.

SHu dalil ahamiyatliki, 70% dan kam bo'lmagan tadqiqotlar baquvvat (mustahkam) yirik tashkilotlar laboratoriyasida o'tkaziladi, radikal innovasiyalar esa tadbirkor-innovatorlar tomonidan kichik firmalarda amalga oshadi. Bunga ko'plab izoh ko'rsatish mumkin. CHunonchi: birinchidan, tadbirkor kuchli ichki motivasiyaga ega va unda 2 ta muqobillik mavjud: yutish yoki yutqazish; ikkinchidan, avtonom va yirik tashkilotlarda tashkil topgan madaniyat unga ta'sir qilmaydi; uchinchidan, kichik firma katta tavakkalchilikka yo'l qo'yishi mumkin, chunki u hech narsani yo'qotmaydi. Biroq, qator katta tashkilotlar bunga yo'l qo'ya olmaydilar, chunki buning xatari «ongli» darajada yuqori.

## **15.2. Xududlar iqtisodiyotini rivojlantirishdagi innovasion shart-sharoitlar**

O'zbekiston va uning mintaqalarida vujudga kelgan iqtisodiy sharoitlarning innovasion jarayonlari o'z-o'zini faollashtirish uchun to'liq zaminga ega emas. Ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish uchun iqtisodiy mexanizm yaratilmagan, ishlab chiqarish sektori uchun investisiya zahiralari to'plash mexanizmi ham mavjud emas, shuningdek kapitalning tarmoqlararo aylanishini tashkil qila oladigan investisiya institutlari shakllanmagan. Bularning hammasi O'zbekistondagi innovasion jarayonni jonlashtirishga qodir investisiya siyosatini amalga oshirish mexanizmini yaratishni zaruratini keltirib chiqaradi.

Iqtisodiyotni jadallashtirish sharoitlarida mazkur mexanizm bir necha blokni o'z ichiga olishi kerak:

- markazlashtirilgan kapital qo'yilmalarni (davlat va mahalliy byudjetlardan) oqilona taqsimlashga va ulardan samarali foydalanishga yordam beradigan iqtisodiy vositalar va tashkiliy choralar;

- investisiya faoliyatining moliyaviy bazasini mintaqaviy darajada mustahkamlashning iqtisodiy mexanizmi;

- korxonalar va tashkilotlarning xususiy jamg'armalari o'sishiga ko'maklashadigan iqtisodiy usullar;

- xususiy tadbirkorlar investision faolligini rag'batlantirishning iqtisodiy mexanizmi;

- aholi jamg'armalarini iqtisodiyotni investisiyalash maqsadlariga jalb etish qurollari;

- to'g'ridan-to'g'ri va zayomli chet el investisiyalarini jalb qilish bo'yicha choralar.

Investisiya siyosatini amalga oshirish mexanizmi o'z yo'nalishidagi turli kanallarni harakatga keltiradi va rag'batlantirib, bir vaqtning o'zida bir necha yo'nalishda amal qiladi. Bunda avvalambor, kapital harakatini to'g'ridan-to'g'ri boshqarish tizimini o'zlashtirish zarur.

Masalan, markazlashtirilgan kapital qo'yilmalarning taqdim etilishi qoidadan ko'ra ko'proq istisno bo'lib qolishi kerak. SHuningdek, investisiya loyihalarining samaradorligi va ularning tuzilmaviy siyosatga muvofiqligi markazlashtirilgan kapital qo'yilmalar ajratishning asosiy mezonini bo'lib qolishi zarur.

Bozor munosabatlari sharoitida kapital va ayniqsa uning markazlashgan manbalari uchun eng muhim iqtisodiy dastak – kredit tizimidir. Kredit tizimi mexanizmi kredit aktivlari diforsasiyasi, kredit hajmlari va foizlarining pasayish tomon o'zgarishi, ularni tanlov asosida taqdim etish tizimi orqali harakatga keladi. Ssuda foizi stavkalari va shart bo'lgan bank rezervlari me'yorining boshqarilishi inflyatsiya darajasiga, narxlar dinamikasiga, milliy valyuta kursiga, kapital va mahsulot eksporti hamda importiga ta'sir etadi. Uzoq muddatli kreditlashni rivojlantirish uchun uning yangi shaklini – garov asosida kreditlashni joriy qilish va undan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ham milliy, ham xorijiy xususiy tadbirkorlik kapitalining davlat tomonidan boshqarilishi va iqtisodiy rag'batlantirish tizimi

investisiya siyosatini amalga oshirish bo'yicha butun iqtisodiy mexanizmga muhim qismga aylanishi zarur. Masalan, Janubiy-SHarqiy Osiyo mamlakatlarida iqtisodiyotning tezkor sur'atlarda rivojlanishi, xususiyl tadbirkorlikning shiddatli o'sishiga xususiyl sektor uchun imtiyozli iqlim mavjudligi bo'lmoqda. Sabab aynan qulay investisiya iqlimi xususiyl biznes ishchanligining yuksak darajasini qo'llab-quvvatlaydi. Imtiyozli investisiya rejimining bir qancha ustunliklari bor: milliy lashtirish kafolati yoki kapitalning to'liq qaytarilishi; foydaning repatriyasi kafolati; bojxona prateksionizmi; liberal soliqqa tortish va boshqalar.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda "CHet el investisiyalari to'g'risida" gi qonun amal qilmoqda. Ma'lumki, xususiyl kapitalni ma'muriy usullar yordamida iqtisodiyoti rivojlantirilishi zarur bo'lgan xududlar, tarmoqlar va ishlab chiqarishga yo'naltirib bo'lmaydi. Xususiyl kapital iqtisodiyotning katta boshlang'ich qo'yilmalarni talab qilmaydigan, sarmoyaning tez qoplanishini ta'minlaydigan, ishonchli sotuv bozoriga ega bo'lgan eng daromadli sohalariga intiladi. Bunday sohalarga savdovositachilik faoliyati, uy-joy qurilishi, qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlash va boshqalar kiradi. Bu borada shuni ham nazarda tutish kerakki, "Kalta" pullar bozori to'yinib bo'ldi va yirik moddiy ishlab chiqarishga tobora ko'proq mablag'lar kiritishni mo'ljallayapti. Xususiyl kapital iqtisodiyot ehtiyojlari va foyda olish imkoniyatiga ancha aniqroq javob beradi. SHuning uchun xususiyl kapital davlat amaldorlaridan ko'ra, "o'sish nuqtalarini" yoki investisiyalash ustuvorliklarini ancha aniqroq topadi. Demak, xususiyl kapitalni investisiyalash jarayonidagi ustuvor yo'nalishlardan biri erkin aylanishni ta'minlaydigan puxta tashkiliy iqtisodiy mexnizmdir. Jahon tajribasini, shu jumladan rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasini o'rganish ko'rsatmoqdaki, fiskal imtiyozlar tizimining shakllanishi davlatning takror ishlab chiqarish jarayonida tutgan o'rni, sanoatlashtirish, tuzilmaviy qayta qurish, iqtisodiyotni zamonaviylashtirish, bandlik va h.k. muammolarni hal qilish xususiyl kapitaldan foydalanish bilan bog'liq.

Soliq siyosati ko'p jihatdan umummilliy masalalar va mintaqaviy taraqqiyotning ustuvor yo'nalishlari bilan o'zaro bog'lanishi zarur. SHu bilan birga soliq rag'batlantirilishini faqat davlat strategiyasi taraqqiyoti yo'lida ko'zdan kechirish yaramaydi. Janubiy-SHarqiy Osiyo mamlakatlarida soliq siyosati va xususiyl investisiyalarni rag'batlantirish amaliyotining g'oyaviy asosi soliq bo'lib, u investisiyalarga



yo'naltiriladigan daromadlarni kamaytiradi. SHuning uchun xususiy sektorga katta soliq solish qonunga aylangan. Soliq preferensiallari hisobiga investision tovarlarning narxlarini pasayadi, soliq to'langanidan keyin esa xususiy kapitalning foyda me'yori natijasida kapital qo'yilmalar ham o'sadi.

Soliqning rag'batlantirish tizimi O'zbekistonda ham rivojlanishi muqarrar. Bunga eng katta foydalarga da'vo qilayotgan xorijiy kapital bosimi ham sabab bo'ladi. Xususiy milliy kapitalning investision faolligini rag'batlantirishga qaratilgan soliq imtiyozlari tizimining rivojlanishida quyidagilarni ko'zda tutish kerak:

- berilgan imtiyozlardan qat'iy tarzda samarali foydalangan holda yuridik shaxslar daromadlarining ishlab chiqarishni investisiyalashga qaratilgan qismiga soliq solish bo'yicha imtiyozlar;

- ulardan ba'zilarini kuchaytirish, ya'ni yaratiladigan shart-sharoitlarni yaxshilash;

- soliqqa tortiladigan ob'ektlar sonining ko'payishiga yordam beradigan tadbirlar doirasini kengaytirish.

Soliq imtiyozlarining eng muhim shakllari quyidagilar: daromad solig'idan ozod qilish, investisiyalar yoki investision soliq krediti uchun soliq chegirmalari, tezlashtirilgan amortizatsiya, kelgusi yillardagi foydalar hisobiga zararlarni qoplash, bir qator bevosita soliqlardan ozod etish.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda investisiyalarni soliq bo'yicha rag'batlantirishning keng tarqalgan chorasi – daromad solig'idan vaqtincha ozod qilishdir. Erkin soliq rejimi o'z kapitalini ishlab chiqarishga investisiyalaydigan kompaniyalarga imtiyozlar doirasini birmuncha kengaytirishga ahamiyat berish zarur.

Masalan, Singapurning eksport yo'nalishdagi korxonalarida ma'lum muddatga eksportdan tushgan daromadning o'stirilgan summasi soliqqa tortilishdan 10 yildan 15 yilgacha ozod qilinishi mumkin. Taylandda esa soliqning imtiyozi miqdori korxonaga qaysi tarmoqqa mansubligiga ko'ra belgilanadi va uch yildan sakkiz yilgacha muddatga o'rnatiladi, keyingi besh yilga esa tegishli korxonani daromad solig'i to'lashdan qisman (50%) ozod qilish ko'zda tutiladi.

Qimmatbaho texnika vositalari narxi bo'yicha haqni bir necha yillik muddatda to'lash hisobiga sotib olinishiga imkon beradigan lizing rivojlanishini rag'batlantirish, bunda soliq ham o'ziga xoslik kasb etadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasining ko'rsatishicha, lizing operasialari uchun maxsus soliq imtiyozlarini belgilash maqsadga muvofiqdir. Quyidagi ma'lumotlar investisiyalar muammosini hal etishda lizingning ahamiyati haqida muayyan tasavvur beradi: AQSHda mashina va jihozlarga qo'yilgan mablag'larning 25 – 30 %i lizing asosida sarflanadi. Avstraliyada bu boradagi ko'rsatkich 33%ni tashkil etadi, Angliya, Fransiyada investisiya kafolatlari muammosi ishlab chiqarishni texnik qayta qurollantirish uchun korxonalar tomonidan lizing shartnomalari tuzilgan vaqtdayoq muvaffaqiyatini, amaliy echimini topadi. Kafolatlar mexanizmi asosidagi investision moliyalashtirishning bunday sxemasidan foydalanilganda korxonalar jihozlarini bir necha yil mobaynida sotib olish hisobiga xarajatlarini kamaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Lizing operasialari nafaqat jihozlar ijasini, balki kapital qo'yilmalar istiqbolini moliyalashtirishning o'ziga xos yangi tuzilmasini ham o'z ichiga oladi. Bunda ijara munosabatlari, garov ostida kreditli moliyalashtirish elementlari, qarz majburiyatlari bo'yicha hisob-kitoblar amal qiladi.

Moliyaviy lizing odatdagi kreditlar bilan qiyoslanganda ancha samarali. Negaki moliyaviy lizingda mablag' qadrsizlanishdan kafolatlanadi. Moliya tavakkallari lizing to'lovlarini kafolatlaydigan jihozlar bilan ta'minlovchilar, sug'urta kompaniyalari hamda garov depozitiga pul kiritadigan banklar o'rtasida taqsimlanishi mumkin.

U mazmunan kapital qo'yilmalarining davlat tomonidan moliyalashtirilishi, shaklan esa soliqqa tortiladigan daromadni kamaytiradigan soliq chegirmasidir. Farqi shundaki, bunda korxonalarga qoldirilgan soliq krediti miqdori muayyan vaqt o'tganidan keyin davlatga qaytariladi. Odatda, investision soliq krediti jihozlar bahosiga nisbatan foizlarda belgilanadi va bevosita soliq yoki soliqqa tortilgan daromad summasidan chegirilib tashlanadi. Masalan, AQSHda xizmat muddati 3 yildan kamroq ob'ektlarga kapital qo'yilmalardan 6%li soliq chegirmasiga va uning boshqa ko'rinishlariga kiritilgan kapitalga 10% li chegirma qilishga ruxsat berilgan. Bunday usuldan foydalanish korxonalar uchun ham foydali, kelgusida sarfni ortig'i bilan bemalol qaytarib oladigan davlat ham manfaatdor.

Ko'rsatkichlariga ko'ra, imtiyozlilar maqomiga ega bo'lmagan kompaniyalarga investisiyalar kiritilishini rag'batlantirish uchun janubiy-sharqiy Osiyo mamlakatlarida keng qo'llanayotgan

investisiyalar uchun soliq chegirmalari imtiyozlarning muqobil shaklidir. Mazkur imtiyozning mohiyati shundaki, unga ko'ra korxonalar daromadining bir qismi soliqqa tortilmaydi, bir qismiga qo'yilgan kapital miqdori hamda taqdim etiladigan chegirma stavkalari asosida belgilanadi.

Respublikamiz soliq qonunchiligida asosiy faoliyatni investisiyalashda yangi texnika va texnologiyalarni joriy etishga yo'naltiriladigan daromadning bir qismini soliqdan ozod etish ko'zda tutilgan. Bizningcha, bu jarayonda investision soliq kreditidan foydalanish ancha ko'proq samara bergan bo'lardi. Bunda korxonani rekonstruksiya qilish vaqtida hosil bo'lgan zararlarni kelgusi foydalardan chegirish kabi rag'batlantirish usulidan ham foydalanish mumkin. Bu holda daromadning soliqqa tortiladigan qismi kamayadi. Mazkur imtiyozni birlamchilik maqomiga ega bo'lgan korxonalarga taqdim etish maqsadga muvofiqdir. Madomiki, investisiyalarni moliyalashtirishda korxonalar va tashkilotlarning xususiy mablag'lari muhim o'rin tutar ekan, bunda korxonalar darajasida kapital jang'arishni harakatga keltiradigan mexanizmni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Asosiy fondlarni qayta baholash indeksining ortishi inflyasiyadan va kapital qo'yilmalari narxlarini indeksidan orqada qolyapti. Ishlab chiqarishga kiritiladigan investisiyalarni ko'paytirishning ilg'or usuli – chet elda keng qo'llanilayotgan jihozlarning asosiy turlarini tezkor amortizatsiya qilishdir. Tezkor ammortizatsiyaning iqtisodiy mazmuni ekspluatatsiyaning birinchi yillarida emirilish summasini foydadan soliqqa tortilishdan oldin chegirish imkoniyati bilan izohlanadi. Tezkor amortizatsiya vaqtida soliq va iqtisodiy amortizatsiyalar miqdori o'rtasida katta farq hosil bo'ladi va bu farqdan maqsadli foydalanish vaqtida soliqqa tortiladigan foyda kamayadi. Asosiy kapital aylanishni tezlashtiradi, ishlab chiqarishni yangilash va texnik jihatdan takomillashtirish uchun yangi xarajatlarni rag'batlantiradi. O'zbekistonda tezkor amortizatsiya usullarini, ayniqsa, yuqori texnologik ishlab chiqarishlar uchun qo'llash maqsadga muvofiqdir. Tezkor amortizatsiya normativlaridan foydalanish ekspluatatsiyaning birinchi yillaridayoq jihozlar qiymatining qariyb 60% ini hisobdan chiqarishga va jihozlarni jadal yangilash hamda investisiya mablag'larini ta'minlashga imkon yaratadi.

Boshlang'ich va investision soliq chegirmalari rag'batlantiruvchi vosita bo'lgan amortizasiya siyosati ham tavsifa etiladi.

Sotib olingan jihozlar ekspluatatsiyasining birinchi yilida taqdim etilgan boshlang'ich chegirmalarni oddiy amortizasiyaga chiqarilgan summalar to'ldiradi. Investision chegirmalar tizimi sharoitida kiritilgan qiymat ustida muayyan qoldiq vujudga keladi. Sanoatning birlamchi tarmoqlariga texnika va jihozlar uchun boshlang'ich chegirma esa 30% hollarda yangi mashina va jihozlar xarid qilingan yoki ishga kiritilgan yildagi 100%li chegirma qo'llanishi mumkin.

Amortizasiya hisobiga asosiy fondlarning takror ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish va mablag'larni amortizasiya hisobida ishga solmay, to'xtatib qo'yishning oldini olish uchun soliqqa tortishdan to'la ozod qilgan, maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o'rnatish sharti bilan mablag'larni maxsus fondlarga to'plagan ma'qul. SHuningdek, amortizasiya fondlari mablag'lari ortiqcha jamg'arilsa yoki bankrotlik tahdid solsa, sotish ham mumkin.

Puxta amortizasiya siyosati, amortizasiyaga chiqarilgan summalar haqidagi qonunlar, me'yoriy hujjatlar, yo'riqnomalar va boshqalar paket bilan mustahkamlangan bo'lishi kerak. Bu summalar 5 – 7 yildan so'ng tuzatilish va jihozlarni jadal amortizasiyalash orqali ishlab chiqarish apparatini yangilash, fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini tatbiq etish qonuni kuchga kirganida keyingi 3 – 5 yillik muddatda mashina va jihozlarning asosiy turlarini ro'yxatdan chiqarish amortizasiyaning inter va me'yoriga o'tilishi (bazaviy me'yorning 20%i da) uchun qulay imkoniyatlarni yaratish kerak.

Investisiya faolligiga ta'sir qilishning yuqorida taklif etilgan to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita usullaridan foydalanish kapital real sektorga oqib kelishiga, investisiya faoliyati jonlanishiga va shu orqali barqaror iqtisodiy o'sishga yordam beradi.

Xususiylashtirilgan korxonalariga ishlab chiqarish quvvatlarini texnik qayta jihozlashga, yangi texnologiyalarni tatbiq etishga yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri investisiyalarni jalb qilish maqsadida bir qator korxonalar aksiyalar paketlari sarmoyador tomonidan ob'ektning qiymatiga kiritiladigan yoki qo'shimcha qabul qilinadigan investision majburiyatlarni qabul qilish bilan amalga oshiriladi.

Iqtisodiy islohotlar amalga oshirilgan yillar mobaynida xududlardagi yoqilg'i-energiya tarkibida xom ashyo tarmog'ining ulushi yuqori bo'ldi. Bu YAIM ishlab chiqarish tarkibining shakllanishi bilan

izohlanadi. Respublika xududlaridagi energiya resurslari iste'moli tarkibida energiya sig'imi yuqori bo'lgan tarmoqlar ulushi 53%ni, elektroenergiya iste'moli umumiy hajmida sanoat ishlab chiqarishi ulushi 50%ni tashkil etadi. Energiya iste'moli tarkibida energiya sig'imi yuqori bo'lgan tarmoqlar ulushi 1991 yildagi 49%dan 2004 yilda 68%ga ortdi. YAIMga nisbatan energiya sarfini kamaytirish, bu borada rivojlanayotgan mamlakatlar darajasiga erishishga ishlab chiqarish tarkibida nisbatan kam energiya talab qiladigan innovasion va qayta ishlash tarmoqlari ulushini orttirishga qaratilgan chora-tadbirlar foyda berdi. Birgina iqtisodiyotda yuz bergan tarkibiy o'zgarishlar hisobiga 1976 – 1985 yillarda rivojlangan mamlakatlar milliy daromadining energiya sig'imi o'rtaacha 17 – 27%ga pasaydi.

Bundan tashqari, po'lat, sement, mineral o'g'it, mis, qora metallarni qayta ishlash kabilarda energiya sig'imi yuqori bo'lgan mahsulotlarga energiya sarfi tahlili sanoati rivojlangan mamlakatlar ishlab chiqarish jarayonlarida energiya sarfi pasayganligini ko'rsatadi. Xalqaro Energiya Agentligi (XEA) ekspertlari tomonidan amalga oshirilgan tatqiqotlar natijasi ko'rsatishicha, sanoati rivojlangan mamlakatlarda po'lat ishlab chiqarishga energiya sarfi 1980 – 2000 yillarda 2 barobar, bir tonna sement ishlab chiqarishga 20 – 30 %kamaygan.

O'zbekistonda innovasion loyihalarni joriy etish natijasida bu boradagi ko'rsatkichlar samaradorligi sezilarli darajada yomonlashdi yoki islohotlargacha bo'lgan davrdagi darajasida qoldi. Natijada xom ashyo va qazib olish tarmoqlarida energiya sig'imi ko'rsatkichi jahon ko'rsatkichidan 30 – 45% yuqori bo'lmoqda.

Qayta ishlash tarmoqlaridagi ishlab chiqarish quvvatlaridan to'la foydalanmaslik sababli energiya sig'imi islohotlar davrida 9 – 10% ortdi. Bu esa, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning ichki va jahon bozorida raqobatbardoshlik darajasining pasayishga olib keldi.

Iqtisodiyotni jadallashtirish va innovasion loyihalarni asosiy sohalarda joriy qilishga qaramasdan xizmatlar sohasida energiya sig'imi oshib bormoqda. Bugungi kunda respublikamiz xududlari uy xo'jaliklari va kommunal xo'jalik xizmatlari ulushiga mamlakat umumiy energiya iste'molining 36%i to'g'ri kelmoqda. Energiya xizmatlarining yalpi xarajatlari rivojlangan mamlakatlar ko'rsatkichiga qaraganda 2 barobar ko'p.

Hisob-kitoblar natijalari ko'rsatishicha, energiya sig'imini kamaytirishga yo'naltirilgan innovasion o'zgarishlarni amalga oshirish va qayta ishlash tarmoqlarini rivojlantirish YAIM energiya sarfini 33-35%ga kamaytirish imkonini yaratadi.

Innovasion loyihalari asosida yoqilg'i va issiqlikni tejash borasida tarkibiy omillar bilan bir qatorda tashkiliy va texnik chora-tadbirlarni ham amalga oshirish nazarda tutildi, ya'ni aniq maqsadli energiya tejamkorligi bo'yicha siyosat olib boriladi. Buning uchun O'zbekiston juda katta – 8 – 10 mln.t.e. energiya zahirasi bo'lgan tashkiliy va texnik salohiyatga ega. Bu salohiyatning 30%i xom ashyo va qayta ishlash sanoati, 45%i uy-joy kamunal xizmatlari, 25%i iqtisodiyotning boshqa sohalari va tarmoqlariga to'g'ri kelidi\*. SHu boisdan ham iqtisodiyotni jadallashtirishning ustuvor yo'nalishlarida asosiy e'tibor respublikada uy-joy va kommunal xo'jaligini isloh qilish va innovasion texnologiyalari iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan qo'shimcha investisiyalarni shakllantirish asosi bo'lgan tarif bo'yicha tartibga solish orqali innovasiya faoliyatni rag'batlantirish ko'zda tutilgan.

“Viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish strategiyasi va axolining turmushini yaxshilash” dasturining taxminiy qurilishi:

1. Viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini asosiy tendensiyasi (omillari)
  - 1.1. Bandlilik, foyda va axolining turmush darajasi.
    - 1.1.1. Demografiya va bandlik
    - 1.1.2. Xayot darajasi
  - 1.2. Iqtisodiy sektorning real rivojlanishi
    - 1.2.1. Umumiqtisodiy omillar
    - 1.2.2. Ishlab chiqarish
    - 1.2.3. Qishloq xo'jalik
    - 1.2.4. Xizmatlar
  - 1.3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
  - 1.4. Moliya institutlari
  - 1.5. Soliq solish, byudjet tushumi va chiqimi

---

\* И=тисодиётда таркибий ызгаришлар шароитида ё=ил\и энергия ресурслари истеъмоли, Ызбекистон и=тисодиёти. Тащлилий шарщ. 2004 йил №8, СИСМ, Т.: 2005. 123-б

- 1.6. Xuquqni ximoya qilish institutlari
- 1.7. Investision faoliyat
- 1.8. Tashqi iqtisodiy faoliyat
- 1.9. Ijtimoiy soxa
  - 1.9.1. Ta'lim
  - 1.9.2. Sog'liqni saqlash
  - 1.9.3. Uy joy kamunal xo'jaligi
- 1.10. Ekologiya va o'rab turgan muxit
- 1.11. Fuqorolik jamiyati
- 1.12.** Mintaqalarni boshqarish tizimi

## **2. *Strategiyaning maqsadi, vazifasi va mexanizmi***

- 2.1. Strategik rivojlanishning maqsadi
- 2.2. Strategik rivojlanishning maqsadiy yo'nalishlari
  - 2.2.1. Qishloq xo'jaligini samaradorligi oshirish
  - 2.2.2. Qishloq xo'jalik maxsulotlarini qayta ishlaydigan tarmoqlarni rivojlanishi
  - 2.2.3. Xususiy sektorni rivojlanishini tezlashtirish
  - 2.2.4. Bozor infrastrukturasi tuzish va xususiy sektor rivojlanishi uchun riqobatlilik muxitini yaratish
  - 2.2.5. Soliq-byudjet tizimini rivojlantirish
  - 2.2.6. Tashqiiqtisodiy faoliyatni rivojlantirish

## **3. *Iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy shartlar strategiyaning maqsadiy yo'nalishlariga erishish***

- 3.1. Markaziy va maxalliy organ xokimiyatlarning birlashib ishlashi.
- 3.2. Strategiyaning respublika miqyosida amalga oshirish maqsad va mexanizmlari
  - 3.2.1. Soliq-byudjet tizimi
  - 3.2.2. Bank-kredit tizimi
  - 3.2.3. Tashqi iqtisodiy faoliyat
  - 3.2.4. Qishloq xo'jaligi
  - 3.2.5. Kichik biznes
  - 3.2.6. Qishloq xo'jalik maxsulotlarini qayta ishlash

## **3.3. *Tuman miqyosida strategiyaning amalga oshirishni meyor va mexanizmlari***

- 3.3.1. Bank-kredit tizimi
- 3.3.2. Tashqiiqtisodiy faoliyat
- 3.3.3. Qishloq xo'jaligi
- 3.3.4. Kichik biznes

- 3.3.5. Transport va kamunikasiyalar jamiyatlarini rivojlanishi
- 3.4. Fuqorolik institutsiyalari
- 3.5. Strategiyaning mintaqalarda amalga oshirish bosqichlari
- 3.6. Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining 2010 yilgacha bo'lgan ma'lumotlari
- 3.7. Strategiyaning amalga oshirish monitoringi
- 3.8. Strategiyaning amalga oshirishda tavakkal qilish

### **15.3. Tadbirkorlikni rivojlantirish yo'llari**

Rivojlangan xorijiy davlatlar amaliyoti shuni ko'rsatadiki, kichik va o'rta biznes korxonalarini iqtisodiy kon'yunkturaning o'zgarishlariga tez moslash oladigan, innovatsion texnika va texnologiyalarni doimiy talab qiladigan, mehnat unumdorligi yuqori bo'lgan xo'jalik sub'ektlari hisoblanadi. Ularga xos bo'lgan ushbu xususiyatlar kichik va o'rta biznes korxonalarini iqtisodiy o'sishiga, ularning aholi bandligini ta'minlashdagi mavqei oshishiga olib keldi. Masalan, AQSHning "General Motors" korporatsiyasi xom ashyo va butlovchi qismlarni 30 minggacha mol etkazib beruvchidan sotib oladi. Ularning asosiy qismi kichik va o'rta biznes korxonalaridir. Yaponiyaning "Mitsubishi" va "Nadidzima" korporatsiyalarini olaylik. Birinchi korporatsiyaga 32%, ikkinchi korporatsiyasi esa 42% mahsulot subpudratchilar, ya'ni kichik korxonalar tomonidan etkazib beriladi.

Mamlakatimizda ham kichik va o'rta biznes korxonalarini faoliyatini rivojlantirish hukumatimiz iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Respublikamizda chet el investitsiyasi kiritilgan korxonalar soni 2005 yil boshida 2412 taga etdi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi ko'shma korxonalar xududiy tarkibi 15.2-jadvalda keltirilgan.

O'zbekiston hukumatining investitsiya dasturida kichik va o'rta biznes korxonalarini rivojlantirishga, ularni kredit liniyalari hisobidan moliyalashtirishni kengaytirishga alohida e'tibor berilgan.

Xususiy tarmoq va kichik tadbirkorlikni rivojlantirishni jadallashtirish va uning YAMMdagi ulushini ko'paytirish, bozor iqtisodiyotiga mos tovar va xizmatlar bozorini shakllantirishda asosiy vazifalar quyidagilar hisoblanadi: davlat tashkilotlarining xususiy tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvini cheklash, xususiy tadbirkorlikni resurslar va sotish bozorlaridagi ishtirokini kengaytirish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash va qo'shimcha soliq imtiyozlarini joriy etish.

15.2-jadval



O'zbekiston xududlarida chet el investisiyasi kiritilgan korxonalar soni  
(2004 yil 1  
yanvar holatiga)

Hududlar	Ro'yxatga olinganlari	SH
O'zbekiston Respublikasi	3539	
Qoraqalpog'iston Respublikasi	45	
Viloyatlar:		
Andijon	108	
Buxoro	59	
Jizzax	34	
Qashqadaryo	49	
Navoiy	39	
Namangan	73	
Samarqand	138	
Surxondaryo	44	
Sirdaryo	39	
Toshkent	209	
Farg'ona	89	
Xorazm	37	
Toshkent sh.	2576	

*Manba: O'zbekistonning statistik axborotnomasi. – T.2005., 76-b.*

Kichik tadbirkorlikni rag'batlantirish bo'yicha amalga oshirilgan keng qamravli chora-tadbirlar, xususan, tadbirkorlik erkin faoliyat yuritish uchun kafolatlar ta'minlanganligi, ularni davlat tomonidan ro'yxatga olishning ixcham mexanizmi joriy etilishi, kredit mablag'laridan foydalanish doirasi kengayishi ijobiy natijalar bermoqda. Birgina 2004 yilda tijorat banklari tomonidan KT sub'ektlariga 353,6 mlrd.so'm yoki 2003 yildagiga nisbatan 71,4 mlrd.so'm ko'p kreditlar berilgan. 2005 – 2006 yillarda davlat tassarrufidan chiqarish va xususiylashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan dasturning amalga oshirilishi yangi mulkdorlar shakllanishi va xususiy sektorni rivojlantirishga turtki bo'ldi. 2007 yilga kichik biznesning YAIMdagi ulushini 45% etkazish vazifasi qo'yilgan.

Kichik va o'rtv biznes korxonalarida investisiya jarayonlarini chuqurlashtirish borasida quyidagi jiddiy muammolar mavjud:

Kichik va o'rta biznes korxonalarida eksport-import xorijiy kapital va kreditlar bilan bog'liq operatsiyalarini tashkil qiluvchi va amalga oshiruvchi menejer va xodimlarning malakasi pastligi.

Bu o'rinda eslatib o'tish kerakki, N.Siropolisning AQSHdagi kichik va o'rta biznes korxonalarini faoliyatini tahlil qilish natijalari ular muvaffaqiyatsizligining 92%i boshqaruv sifati pastligi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. R.Nek ham kichik va o'rta korxonalar boshqaruvida tajriba va malaka etishmasligini ular faoliyatidagi muvaffaqiyatsizliklarning asosiy sabablaridan biri deb hisoblaydi.

Ushbu muammoning nozik jihati shundaki, xalqaro operatsiyalarni amalga oshirish o'ziga xos murakkabliklarga ega. Masalan, kichik tijorat banklari tomonidan kichik va o'rta biznes korxonalarining to'lov majburiyatlari yuzasidan qo'yiladigan, hujjatlashtirilgan akkreditivlar yirik tijorat banklari tomonidan tan olinmasligi mumkin.

Kichik va o'rta biznes korxonalarining aksariyatida umumiy pul oqimi zaifligi natijasida ularning to'lovga qobillik darajasi past bo'ladi. Bu, korxonalarining tijorat banklari kreditlaridan, xorijiy tashkilotlar kredit liniyalaridan foydalanishlariga, eksport-import operatsiyalarini amalga oshirishlariga to'sqinlik qilmoqda;

Kichik va o'rta biznes korxonalariga tijorat banklari tomonidan xalqaro hisob-kitob xizmati ko'rsatishda jiddiy muammolar mavjudligi.

Ushbu muammoning mohiyati shundaki, korxonalar import to'lovini amalga oshirishda ta'minlangan akkreditivlardan keng ko'lamda foydalanishmoqda. Bunda, avvalo, asosiy hisob-kitob shakli bo'lgan, hujjatlashtirilgan akkreditivlarga jiddiy e'tibor qaratilmog'i lozim. Respublikamiz tijorat banklari kichik va o'rta korxonalarining to'lov majburiyatlari bo'yicha javobgarlikni o'z zimmalariga olishlari va buning uchun tegishli kommission to'lov undirishlari lozim. CHunki xorijiy tovar etkazib beruvchi korxonalar uchun to'lovning kafolatlanganligi asosiy omil hisoblanadi.

Bu borada Respublika tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankida ma'lum tajriba mavjud. Milliy bankning bosh kredit boshqarmasi ayrim davlat korxonalarining hujjatlashtirilgan akkreditiv bo'yicha to'lov majburiyatlarini bank kreditlari hisobidan to'lashni amalga oshiradi.

Respublikamizda ham kichik va o'rtta biznes korxonalarining hujjatlashtirilgan akkreditivlar bo'yicha to'lov majburiyatlari banklar hisobidan to'lanishi ushbu korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishga kuchli turtki beradi.

Kichik va o'rtta biznes korxonalarining investision maqsadlar uchun kreditlar olish imkoniyatini oshirish uchun hukumat kafolatini joriy etish lozim.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda kichik va o'rtta biznes korxonalarining bank kreditlari olish imkoniyatini oshirish maqsadida hukumat banklari mazkur korxonalar uchun katta miqdorda kafolat bermoqda. Respublikamizda ham hukumat kafolatlarini kichik va o'rtta biznes korxonalarining akkreditivlar shaklidagi to'lov majburiyatlari bo'yicha berilishini tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

Respublikamiz xududlarida chet el investisiyasi kiritilgan korxonalar mahsuloti, ish va xizmatlari hajmi 2003 yilda avvalgi yilgiga nisbatan oshdi (15.3-jadval).

Shuni ta'kidlash lozimki, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshirish maqsadida ularni saqlash va tashqi xarajatlarini davlat byudjeti mablag'lari evaziga qoplaydigan maxsus fond joriy etish lozim.

### **15.3-jadval**

CHet el investisiyasi kiritilgan korxonalar mahsuloti, ish va xizmatlari hajmi (mln.so'm)

<i>Xududlar</i>	<b>2002 y.</b>	<b>2003 y.</b>
<b><i>O'zbekiston Respublikasi</i></b>	1044174,0	1418706,2
<i>Qoraqalpog'iston Respublikasi</i>	2215,9	3157,6
<b><i>Viloyatlar:</i></b>		
Andijon	222372,0	318875,6
<i>Buxoro</i>	6180,6	14687,8
<i>Jizzax</i>	2749,1	4707,5
<i>Qashqadaryo</i>	14918,9	18821,8
<i>Navoiy</i>	131958,9	168378,3
<i>Namangan</i>	26462,5	41314,0
<i>Samarqand</i>	38030,2	49145,3
<i>Surxondaryo</i>	5023,0	6288,1
<i>Sirdaryo</i>	6043,1	8740,8
<i>Toshkent</i>	112279,8	156413,9
<i>Farg'ona</i>	71951,9	108227,2
<i>Xorazm</i>	5613,2	13804,1
<i>Toshkent sh.</i>	398374,9	506144,2

***Manba: O'zbekistonning statistik axborotnomasi. – T.2004., 77-b.***

Kichik va o'rta biznes korxonalarining eksport qilayotgan tovarlari miqdori, odatda, yirik korxonalariniki kabi katta bo'lmaydi. Bu esa, transport xarajatlarining eksport tizimidagi salmog'i oshishiga olib keladi. SHu sababli hukumat tomonidan transport xarajatlari qoplanishi va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash joylari tashkil etilishi kichik va o'rta biznes korxonalarining tashqi savdo faoliyati bo'yicha xarajatlari keskin kamayishi va ularning raqobatbardoshligi oshishiga olib keladi.

Kichik va o'rta biznes korxonalarini investisiya faoliyatini rivojlantirish ob'ektiv zarurat bo'lib, umummilliy iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Xalqaro hamkorlik asosida tadbirkorlik uchun 2003 yilda 71,94 mln. AQSH dollari miqdorida kredit ajratilgan va 2003 yilning oxirigacha shundan 389.3 mln. AQSH

dollari jalb etilgan va undan foydalanilgan, 2005 yilda esa to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalarning hajmi oshishi kutilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi uchun investisiya zahiralarning chet el manbalariga murojaat etilishi o'tish davridagi ham strategik, ham joriy masalalarni hal etish zaruriyatiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Bu vazifalardan eng muhimlari:

- milliy iqtisodiyotni qayta tuzish;
- mintaqalarning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotidagi nomutanosibliklarni yo'qotish;
- mamlakatning eksport salohiyatini oshirish;
- import o'rnini bosadigan ishlab chiqarishlarni rivojlantirish;
- iqtisodiyotning raqobat muhitini rivojlantirishga yordam beradigan xususiy va aralash sektorlarini shakllantirish;
- bozor infratuzilmasini yaratish;
- ilg'or chet el texnologiyasi, nou-xau va boshqaruvchilik tajribasini jalb qilish.

Bu sohadagi hamma nuqtai nazarlarni hamda so'nggi yillardagi amaliyotni umumlashtirish, chet el investisiyalarini jalb qilish siyosatida ayrim xatolar mavjud bo'lganda chet el kapitali qo'yilmalarini rag'batlantirish bo'yicha iqtisodiyotning bozor transformasiyasi ehtiyojlari va vazifalariga o'xshash ta'sirchan mexanizm yo'q, degan xulosaga kelishga imkon berdi.

CHet el kapitalini O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri kiritish boshqa ustunliklarga ham ega. Darvoqe, bu ustunliklar chet el kreditlari bilan qiyoslanganda juda katta. CHet el tadbirkorlik kapitalining jalb qilinishi ham ichki bozordagi monopoliizm bilan kurashishning faol vositasidir.

Bunday kapital nafaqat mamlakatning etishmayotgan investisiya zahiralari oshishiga xizmat qiladi, balki uning yordamida milliy ishlab chiqarish kuchlaridan foydalanish samaradorligini jonlantirish, ko'tarish ham mumkin. U shuningdek, chet el kreditlari bilan qiyoslanganda mamlakat qarzdorligini oshirmaydi, shu orqali valyutaning chet elga oqimini kamaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotning rivojlanmagan infratuzilmasiga, foydalanilmagan qonunchilik va investisiyalash uchun shakllanmagan iqlimiga qaramay, bozor islohotlari yillari (1991 – 2004

yillar) davomida bu xududlarda chet el investisiyalari ko'rinishida 13 mlrd. dollardan ortiq mablag' o'zlashtirilgan edi.

Bizning baholarimizga ko'ra, agar to'g'ridan-to'g'ri chet el investisiyalarining butun hajmi davlat uchun birlamchi bo'lgan dasturlar bo'yicha ishlab chiqarishni investisiyalashga sarflaganda edi, O'zbekistonda allaqachon YAIMning barqaror o'sishiga erishilgan bo'lardi. Lekin 2004 yilda xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatining natijalari ijobiy bo'ldi. Eksport importga nisbatan o'sganligi va eksport importni koplash koeffitsientining 2003 yildagi 0,66%dan 2004 yilda 0,67%ga oshganligi kuzatildi. Respublika xududlarida xorijiy kapitallar ishtirokidagi «SurxonTeks», «YAdemtekstil», «Emteks», «Baliqchi», «Iskovuttesk», «Elektron hisoblash» kabi qo'shma korxonalar foydalanishga topshirildi.

SHunga qaramasdan, iste'mol tovarlarini ishlab chiqarish tarkibi deyarli o'zgarishsiz qoldi. Iqtisodiyot va sanoat ishlab chiqarishini isloh qilish natijasida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sur'atlarining o'sishi davom etdi. Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning yuqori sur'atlari Navoiy viloyatidan tashqari barcha viloyatlarda ta'minlandi. Nisbatan yuqori ko'rsatkichlar quyidagi xududlarda kuzatildi: Andijon (45,6%), Farg'ona (19,2%), Qashqadaryo (17,1%) viloyatlarda (15.4-jadval). Mamlakat xududlarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sishiga ko'p jihatdan kichik tadbirkorlik sub'ektlari, jumladan, non va non mahsulotlari, meva va sabzavot konservalari, vino, alkogolsiz ichimliklar ishlab chiqaruvchi kichik korxonalar faoliyatining faollashganligi ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlari Toshkent shahridan tashqari barcha xududlarida yuqori bo'ldi. Toshkent shahrida tovar ishlab chiqarish ko'rsatkichlari pastligiga shaharda joylashgan «Koka-Kola» va «SHakar investmente» qo'shma korxonalarida xom ashyo etishmasligi natijasida ishlab chiqarish hajmi kamayib ketishi sabab bo'ldi.

Ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarning asosiy qismi paxta va ipak mahsulotlari, trikataj, to'qmachilik, gilam mahsulotlari va payabzal ishlab chiqaruvchi xududlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bunday xududlarga Buxoro (20,5%), Farg'ona (14,1%), Andijon (11,5%) viloyatlari va Toshkent shahri (12,3%) kiradi. Navoiy viloyatidagi kimyo majmui korxonalarida engil sanoat mahsulotlarini

ishlab chiqarish hajmi pasayishi viloyat va respublikaning bu boradagi ko'rsatkichlariga salbiy ta'sir etdi.

Xorazm viloyatida gilam va gilam mahsulotlari ishlab chiqarishning 2004 yilda 40,2% o'sishi 2003 yilda viloyatda «Xiva Karpet» korxonasi foydalanishga topshirilganligi natijasidir.

Ammo amaliyot ko'rsatmoqdaki, iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichida to'g'ridan-to'g'ri chet el investisiyalari savdo-vochitachilik faoliyati sohasida qo'shma korxonalar barpo etishga, konsalting xizmatlarini ko'rsatishga, konsalting bank sektoriga, keyinchalik esa chet el firmalari boshqaruviga o'tkazilgan sanoat ob'ektlarining qarzlarini to'lashga va muomiladagi mablag'larni to'ldirishga yo'naltiriladi. Iqtisodiyot erkinlashuvi chet el investorlari O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy tarmoqlariga investisiyalarini yo'naltirilishiga yo'l ochib berdi: qora va rangli metallurgiyaga chet el qo'yilmalari 63,5%ni, neft-gaz kompleksiga to'g'ridan-to'g'ri chet el investisiyalarining umumiy oqimi 19,8%ni tashkil qildi va kapitalning umumiy hajmida chet el investisiyalari oshdi.

Nazarimizda, chet el kapitalini jalb qilish va undan foydalanishning eng muhim muammolaridan biri investisiya qo'yilmalari shaklini to'g'ri tanlashdir.

## 15.4-jadval

O'zbekiston xududlarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish dinamikasi  
(o'tgan davrga nisbatan %da)

Xududlar	2000y.	2001y.	2002y.
O'zbekiston Respublikasi	106,2	107,6	108,4
<i>Qoraqalpog'iston Respublikasi</i>	105,9	113,5	104,3
Andijon	92,6	123,7	97,8
<i>Buxoro</i>	105,9	107,4	103,3
<i>Jizzax</i>	123,6	119,3	159,3
<i>Qashqadaryo</i>	113,1	112,7	108,5
<i>Navoiy</i>	115,5	99,98	114,5
<i>Namangan</i>	124,3	111,8	118,1
<i>Samarqand</i>	92,4	102,6	102,5
<i>Surxondaryo</i>	111,9	100,9	114,8
<i>Sirdaryo</i>	110,1	120,2	103,0
<i>Toshkent</i>	112,5	114,1	106,6
<i>Farg'ona</i>	111,3	98,1	106,4
<i>Xorazm</i>	107,8	94,0	95,0
<i>Toshkent sh.</i>	111,3	101,3	120,2

Manba: O'zbekiston iqtisodiyoti. Tahliliy sharh. 2005 yil. T.: 2006. 101-  
b



Bunda quyidagi asosiy mezonlarni e'tiborda tutish lozim: faoliyat sohasi va mahsulot turi (texnologik murakkab); loyiha qo'yilmalari (mayda, o'rta, yirik); chet el kapitalini jalb qilishning strategik maqsadi (jihozlar), importidan to'ishlab chiqarishning boshqaruvchilik tajribasidan foydalanishga qadar.

Xududning investisiya imkoniyatlari etarli, ammo ishlab chiqarishi zamonaviylashtirishi zarur bo'lgan yirik loyihalarni amalga oshiradigan (masalan, neft-kimyoda) shartnomaviy QK tashkil qilish maqsadga muvofiq.

Xom ashyo tarmoqlari, birinchi navbatda tog'-kon sanoati va yoqilg'i-energetika komplekslari chet el investorlarida eng katta qiziqish uyg'otmoqda. Bu erda QK bilan qiyoslaganda, ayniqsa, razvedka va uglevodorodlar qazib chiqarish sohasida mahsulotni taqsimlash uchun tuzilgan shartnomalar ancha foydalidir. Bu turdagi shartnomaning ustunligi daromadlar xususiy ulushi oshishining oddiy va ta'sirchan mexanizmi, shartnomalarning soliq va huquqiy rejimi avtonomligidir.

Uzoq muddatli ijara shartlariga ko'ra, konsessiyalar, ya'ni yangilanadigan va yangilanmaydigan tabiat zahiralariidan foydalanish huquqining xorijiy tadbirkorlarga taqdim etilishi, xo'jalik faoliyatining boshqa turlarini amalga oshirish. Respublika eksport salohiyatini orttirishning eng samarali usullaridan biridir.

Ichki jamg'armalardan foydalanishning kuchsiz shakllari ham mamlakat ichida-samarali va samarasi ham korxonalar hamda tarmoqlar o'rtasida, ham qator mamlakatlarning tarmoq va sohalari o'rtasida kapital aylanishining ikki taraflama mexanizmi yo'qligi iqtisodiyot mustahkamligiga salbiy ta'sir etadi, uning o'sish imkoniyatlarini kamaytiradi.

SHu sababli O'zbekistonning uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasi chet el kapitali va ichki investisiyalar jalb qilinishini, avvalo, kapitalni ommaviy investordan haqiqiy mulkdorlar qo'liga o'tkazish mexanizmi bo'lgan to'laqonli fond bozori tashkil etilishini talab qiladi. Mamlakatimizda fond bozori va fond madaniyatining mavjudligi kapitalga erkin talab va taklifni ta'minlaydi. Bu esa, asl bozor iqtisodiyotining real sektori tiklanishi va uni rivojlantirishga yangi investisiyalar jalb etilishiga imkoniyat yaratadi. Investision institutlar esa, o'z navbatida, nafaqat yirik korxonalar, balki o'rta va hatto mayda korxonalar bo'yicha portfellarini diversifikasiya qiladi. Boshqacha

aytilganda, xususiylashtirish jarayoni strategik investor monopolistlar izlash yo'lidan emas, balki oddiyroq sxemasi bo'yicha borishi kerak.

Ishlab chiqarishga investisiyalar olish va qo'yilmalarni ko'plab ishtirokchilar orasida taqsimlash hisobiga shu qo'yilmalar (hatto, uncha samarali bo'lmagan tarmoqlarga ham) tavakkal kamoyishining haqiqiy imkoniyati – taklif etilayotgan sxemaning asosiy afzalligida.

O'zbekistonga chet el investorlarini jalb etayotgan bunday sektorlarga quyidagilar kiradi: mineral xom ashyo zahiralari, ayniqsa, neft va gazni qazib chiqarish, energetika, qora va rangli metallurgiya, transport, kommunikasiya, bank sektorlari va boshqalar.

Da'vogarlar yo'qligi tufayli loyihani to'xtatib qo'yish xavfi ham bo'lmaydi. Davlat o'z tasarrufida aksiyalarning nazorat paketini yoki "Tilla aksiyalarini" qoldirishi va korxonani ustidan nazoratini saqlab qolishi mumkin. Ko'zdan kechirilayotgan yondashuv amalga oshirilganda holda, korxonani boshqarish, qayta tiklash, bank xizmati va boshqalarni yo'lga qo'yishga zaruriyat tug'ilganda xorijiy firmalarni jalb qilish yurtimiz tuzilmalari tomonidan amalga oshiriladi. Bu esa, o'z navbatida, o'zbek iqtisodiyoti taraqqiyotiga turtki beradi.

Albatta, portfelli investisiyalash korxonani xalqaro standartlar bo'yicha audit baholashni, chet ellarda reklama qilishni, aksiyalar jahon fond bozorlari lizinglariga kiritilishini, boshqa ishlarini o'tkazishni, qo'shimcha xarajatlar va vaqtni talab qiladi. Ammo pirovardida bu jarayondagi xarajatlarning hammasi o'zini oqlaydi va ishlab chiqarishga samarali investisiyalar oqimi kuchayishiga, ishlab chiqarish o'sishiga olib keladi.

Iqtisodiy o'sishga strategik jihatdan urg'u berilishi ham chet el kapitalini ko'p miqdorda jalb qilish, ham ichki jamg'armalar hisobiga iqtisodiyotning real sektoriga investisiyalar jalb qilishni talab etadi. Ko'pchilik iqtisodchilar mamlakatda investisiyalarni moliyalashtirishning ichki manbalarini ko'zdan kechira turib, davlatning byudjet mablag'laridan tashqari, asosan barcha mulk shakllaridagi korxonalar va tashkilotlar, fermer xo'jaliklarining xususiy mablag'larini ko'zda tutgan edilar. Masalaning bunday qo'yilishi bozor munosabatlari shakllanishining boshlang'ich davriga mos tushgan edi. Bu boshlang'ich davr esa, ijtimoiy-iqtisodiy tanglik, ishlab chiqarish pasayishi, inflyasiyaning yuqori darajasi va aholi daromadlarining past darajasi bilan ajralib turardi. Bozor islohotlari chuqurlashgani, iqtisodiyot

jonlanish davriga o'tgani, pul daromadlari o'sgani sayin hamda uzoq muddatli istiqbolda iqtisodiy noma'lumlik yo'qotilishi bilan aholi jamg'armalarining, investisiyalarning salohiyatli manbai sifatidagi o'rni va ahamiyati ortib boradi. Ushbu manbalar socialistik tuzumda investisiyalarni moliyalashtirishda hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Aholi jamg'armalari tabiatini ko'rib chiqamiz. Aholi jamg'armalari faqat daromadlar xarajatlardan oshgan sharoitda yig'iladigan va daromad bilan uning iste'mol qilingan qismi o'rtasidagi ayirma aniqlanadigan to'plangan pul zahiralari summasidir.

Xudud aholi jamg'armalari banklar va boshqa moliyaviy institutlar tomonidan to'planib, kapital qo'yilmalarni moliyaviy ta'minlashda qatnashadi. Bank va moliyaviy institutlar esa, o'z navbatida, erkin pul mablag'larini moliyaviy va moddiy boylikning turli shakllariga qo'yadi, ularni xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga investisiyalar uchun qarzga beradi.

### **Qisqacha xulosalar**

Iqtisodiy o'sishga strategik jihatdan urg'u berilishi ham chet el kapitalini ko'p miqdorda jalb qilish, ham ichki jamg'armalar hisobiga iqtisodiyotning real sektoriga investisiyalar jalb qilishni talab etadi. Ko'pchilik iqtisodchilar mamlakatda investisiyalarni moliyalashtirishning ichki manbalarini ko'zdan kechira turib, davlatning byudjet mablag'laridan tashqari, asosan barcha mulk shakllaridagi korxonalar va tashkilotlar, fermer xo'jaliklarining xususiy mablag'larini ko'zda tutgan edilar. Masalaning bunday qo'yilishi bozor munosabatlari shakllanishining boshlang'ich davriga mos tushgan edi. Bu borada Respublika tashqi iqtisodiy faoliyat milliy bankida ma'lum tajriba mavjud. Milliy bankning bosh kredit boshqarmasi ayrim davlat korxonalarining hujjatlashtirilgan akkreditiv bo'yicha to'lov majburiyatlarini bank kreditlari hisobidan to'plashni amalga oshiradi.

Respublikamizda ham kichik va o'rta biznes korxonalarining hujjatlashtirilgan akkreditivlar bo'yicha to'lov majburiyatlari banklar hisobidan to'lanishi ushbu korxonalarining tashqi iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishga kuchli turtki beradi.

Mamlakatimizda ham kichik va o'rta biznes korxonalarini faoliyatini rivojlantirish hukumatimiz iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Respublikamizda chet el investisiyasi kiritilgan korxonalar soni 2005 yil boshida 2412 taga etdi. Xorijiy

investisiyalar ishtirokidagi ko'shma korxonalar xududiy tarkibi 31.2-jadvalda keltirilgan.

O'zbekiston hukumatining investisiya dasturida kichik va o'rta biznes korxonalarini rivojlantirishga, ularni kredit liniyalari hisobidan moliyalashtirishni kengaytirishga alohida e'tibor berilgan. Xususiy tarmoq va kichik tadbirkorlikni rivojlantirishni jadallashtirish va uning YAMMdagi ulushini ko'paytirish, bozor iqtisodiyotiga mos tovar va xizmatlar bozorini shakllantirishda asosiy vazifalar quyidagilar hisoblanadi: davlat tashkilotlarining xususiy tadbirkorlik faoliyatiga aralashuvini cheklash, xususiy tadbirkorlikni resurslar va sotish bozorlaridagi ishtirokini kengaytirish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash va qo'shimcha soliq imtiyozlarini joriy etish.

Xususiylashtirilgan korxonalariga ishlab chiqarish quvvatlarini texnik qayta jihozlashga, yangi texnologiyalarni tatbiq etishga yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri investisiyalarni jalb qilish maqsadida bir qator korxonalar aksiyalar paketlari sarmoyador tomonidan ob'ektning qiymatiga kiritiladigan yoki qo'shimcha qabul qilinadigan investision majburiyatlarni qabul qilish bilan amalga oshiriladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Xududiy innovasion strategiya nima?
2. Xududiy strategiya qanday tartibga va tuzilishga ega?
3. Xududiy rivojlantirishda muqobil strategiya qanday aniqlanadi?
4. Iqtisodiyotni rivojlantirishda innovasion shart-sharoitlar nimalardan iborat?
5. Amortizasiya nima?
6. Energiya sig'imi qanday aniqlanadi?
7. Innovasion loyihalar qanday foyda beradi?
8. Iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishda qaysi hududlar peshqadamlik qilmoqda?
9. Innovasion loyihalarni moliyalashtirishda aholi jamg'armalaridan qanday foydalaniladi?

### **Asosiy adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. – T: "O'zbekiston", 2003.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investisiyalarni jalb etishni rag'batlantirish

borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni. – «Xalq so'zi», 2005y., 12 aprel.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni. – «Halq so'zi», 2005y., 2 may.
4. I.A. Karimov “Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demaklashtirish va yangilash, mamlakatni modernisasiya va isloh etishdir.” – T.: “O'zbekiston”, 2005.
5. A.E. Ishmuxamedov O'zbekiston milliy iqtisodiyoti. Darslik. T.2005 y.
6. Internet veb-saytlari.  
[www.ceep.Uz](http://www.ceep.Uz).  
[www.bearingpaint.Uz](http://www.bearingpaint.Uz).  
[www.pca.uz](http://www.pca.uz).

## **16-BOB. MINTAQALARDA ATROF MUHITNI MUXOFAZA QILISH VA ULARDAN OQILONA FOYDALANISH BO'YICHA HAMKORLIK**

### **16.1. Atmosfera havosining ifloslanishi**

Jami chiqindilarning 51,9% uglerod oksid, 16,0% - oltingugurt dioksidi, 17,9% - uglevodorodlar, 8,9% - okidli azoti, 6,1% - qattiq chiqindilar va 0,2% - boshqa turli zararli chiqindilar hisobiga to'g'ri keladi.

Stasionar manbalar chiqindilari orasida oltingugurt dioksidi, uglevodorodlar, qattiq chiqindilar, harakatlanuvchi manbalar orasida esa uglerod oksidi va uglevodorodlarning ulushi katta.

Sanoat markazlaridagi atmosfera ifloslanish indeksi (AII) ning o'zgarish dinamikasi atmosfera havosi sifatining yaxshilanish tendensiyasi mavjudligini ko'rsatadi. Respublikaning ko'pgina

shaharlari va sanoat markazlarida AII me'yor darajasida. 2000 yilda atmosfera havosining ifloslanish darajasi (AII - 5-6) Nukus, Olmaliq, Toshkent, Fvrg'ona shaharlarida kuzatildi. Atmosfera havosi eng iflos shahar - Navoiy (AII - 7,62).

SHu bilan birga, ayrim shaharlarda sanitar-gigiena me'yoring o'rtacha 1 dan 3,5 PDK o'k (o'k - o'rtacha kunlik) martagacha ortib ketish hollari uchraydi: chang - Olmaliq, Buxoro, Guliston, qarshi, qo'qon, Navoiy, Nukus, Samarqand, Toshkent; oltingugurt dioksidi - Olmaliq; azot dioksidi - Olmaliq, Navoiy, Toshkent, Farg'ona, Marg'ilon, Termez; fenol - Angren, Navoiy, Farg'ona; ammiak - Andijon, Navoiy, CHirchiq, Toshkent; troposfera ozoni - Olmaliq, Angren, Bekobod, Navoiy, Toshkent, Farg'ona, CHirchiq.

Navoiy - respublikadagi eng iflos shahar bo'lib hisoblanadi.

## **16.2. Stasionar manbalardan chiqadigan chiqindilar**

Stasionar manbalardan atmosferaga 150 dan ko'p turdagi ifloslantiruvchi chiqindilar, shu jumladan, yuqori darajali xavfli - og'ir metallar, pyatiokisъ vanadiy, benz(a)piren, ozon, mishъyak i boshqalar chiqadi. Xududiy jihatdan ularning taxminan 90 foizi Toshkent, qashqadaryo, Farg'ona, Buxoro, Navoiy va Sirdaryo viloyatlari hissasiga to'g'ri keladi. Aynan ushbu mintaqalarda ekologik «iflos» mahsulotlar ishlab chiqaradigan respublikaning asosiy sanoat salohiyati to'plangan. Bular qora va rangli metallurgiya, ximiya neft ximiyasi, gaz va neft qazib chiqarish hamda uni qayta ishlash, energetika va qurilish materiallari sanoati korxonalarini tashkil etadi.

Statistika ma'lumotlariga ko'ra, 2000-yil O'zbekistonda 81 mingdan ortiq atmosferani ifloslantiruvchi stasionar manbalarga ega bo'lgan 1971 ta korxonalar ro'yxatga olingan. Ular umumiy quvvati 192822,1 ming m<sup>3</sup> bo'lgan 11756 ta gaz va changdan tozalash uskunalari (GCHTU) bilan jihozlangan. 2000 dan ortiq korxonalar chang ushlagich va gaz tozalagich vositalar etarli darajada ta'minlanmagan. Zararli chiqindilarni tozalash samaradorligi 70,1 foizni tashkil etadi, chunki 77% asbob-uskunalar jismoniy va ma'naviy jihatdan eskirgan.

Stasionar manbalar tomonidan chiqarilayotgan zararli moddalarning 34,1%i energetika korxonalari, 31,9% «O'zbekneftgaz" MK, 16,5% metallurgiya, 3,8% qurilish industriyasi, 3,6% kommunal xizmat ko'rsatish, 2,6% ximiya sanoati hissasiga to'g'ri keladi. Boshqa korxonalarining ulushi 7,4% dan ortmaydi. CHiqindilar asosan Toshkent,

qashqadaryo, Farg'ona, Buxoro va Navoiy viloyatlari hisasiga to'g'ri keladi.

**Neft va gaz sanoati, neft va gaz transportirovkasi tizimi.** Neft va gaz qazib chiqarish va uni qayta ishlash tarmog'i stasionar manbalardan chiqindilar chiqarish bo'yicha eng etakchi o'rinni egallaydi. 2000 yilda ular 241,3 ming t ni tashkil etdi, shundan 100,9 ming tonnasi (44%) - uglevodorodlar. Tarmoq korxonalarida har yili 100 mln.m<sup>3</sup> dan ortiq tabiiy gaz yonib yotadi, ularni tashish chog'ida ro'y beradigan avariya va quvurlar teshilishi hisobiga yana 12 mln.m<sup>3</sup> yo'qotiladi. Bu esa o'z navbatida nihoyatda qimmatli bo'lgan resursning hayf ketishiga va atmosferaning qo'shimcha ifloslanishiga olib keladi.

**Energetika majmuasi.** Energetika - atmosfera havosini bulg'alovchi eng yirik manba bo'lib hisoblanadi. Respublikadagi jami elektr energiyaning 87% issiqlik elektr stansiyalarida ishlab chiqariladi. Issiqlik energiyasi yirik issiqlik elektr stansiyalarida ham (50,2%), mahalliy qozonxonalarda ham (49,8%) ishlab chiqariladi va respublikaning ushbu mahsulotga nisbatan talabini 35% ga qondiradi.

Stansiyalarda eski va iqtisodiy jihatdan o'zini oqlamaydigan uskunalardan foydalanilmoqda, issiqlikdan foydalanish samaradorligi juda past (29,8%dan 35,1%gacha). Issiqlikdan foydalanish samaradorligining pastligi o'z navbatida atmosferaga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalar hajmining ortishiga olib keladi. Jumladan, 1 kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarish jarayonida 6 tonna miqdorida ifloslantiruvchi modda chiqarilmoqda.

Qora va rangli metallurgiya. qora va rangli metallurgiya korxonalarini asosan Toshkent va Navoiy viloyatlarida joylashgan. Tarmoq korxonalarini tomonidan atmosferaga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi moddalarning yalpi hajmi 123,6 ming tonnani tashkil etadi. SHundan 95 ming tonnadan ko'prog'i (77%) oltingugurt dioksidi hissasiga to'g'ri keladi. Rangli metallurgiya korxonalarini og'ir metallar aerozoli, oltingugurt kislotasi, sianid, fluorid kabi eng iflos moddalarni chiqaradi.

Respublikada atmosfera havosini ifloslantiruvchi eng yirik manbalaridan biri - Olmaliq tog'-kon metallurgiya kombinati hisoblanadi. Korxonada oltingugurt dioksidi, fluorli vodorod kabi moddalar yordamida Olmaliq shahri havosining ifloslanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda.

Qurilish majmuasi. Majmua korxonalari tomonidan atmosferaga chiqarilayotgan ifloslantiruvchi chiqindilar miqdori 27,6 ming tonnani tashkil etib, ularning aksariyat qismi chang va uglerod oksidi hissasiga to'g'ri keladi. qurilish sanoati va sement ishlab chiqarish Ohangaron, Bekobod, qarshi, Navoiy, Nukus shaharlaridan atmosferaga chiqayotgan zaharli changlarning asosiy manbai bo'lib qolmoqda.

Kimyo majmuasi. Atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalarning 3%i ushbu tarmoq hissasiga to'g'ri kelib, uning asosiy korxonalari Olmaliq, qo'qon, Farg'ona, Samarqand, Navoiy, CHirchiq shaharlarida joylashgan. Kimyo sanoati korxonalari joylashgan xududlarda havoning ifloslanishi asosan nitrat ammoniy, ammiak, azot dioksidi, aseton, ftorli vodorod kabi moddalar hisobiga ro'y bermoqda. Buning sababi texnologik va gaz tozalash uskunalarning jismoniy va ma'naviy jihatdan eskirganligi bilan bog'liq.

### **16.3. Atmosfera havosining ifloslanishiga harakatlanuvchi manbalarning ta'siri.**

Avtotransport majmuasi (avtomobil transporti, qishloq xo'jalik mashinalari, yo'l-qurilish texnikasi, yoqilg'i quyish shaxobchalari) - atmosfera havosining ifloslantiruvchi asosiy harakatlanuvchi manba bo'lib, uning salmog'i yalpi sanoat va energetika chiqindilariga nisbatan ikki marta ko'pdir. Avtotransport chiqindilari havoni ugar gazi, oksisli azoti, uglevodorodlar, benz(a)piren, aldegidlar, hamda qo'rg'oshin bilan ifloslantiradi.



2000 yilda avtotransport chiqindilari atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalarning 67, 8 foizini tashkil etdi. Harakatlanuvchi manbalardan chiqadigan chiqindilarning asosiy qismi Toshkent, Farg'ona, Samarqand, qarshi, Andijon shaharlari va Toshkent viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi. Ayrim shaharlarda, xususan, Toshkent, Samarqand, Andijon va Buxoroda avtotransport chiqindilari havoga chiqadigan yalpi zararli moddalarning 80 foizdan ko'prog'ini tashkil etdi.

Avtotransportdan atmosfera havosiga chiqadigan zararli moddalar bir qator muammolarni keltirib chiqaradi.

- motor yoqilg'isi sifat talablariga javob bermaydi, tarkibida ko'p miqdorda oltingugurt moddasi bo'lgan etilli benzin va dizel yoqilg'isidan keng foydalanilmoqda;

- avtotransportdan ko'p miqdorda zararli chiqindilar chiqishiga asosiy sabablardan biri ularning eskirganligi bilan bog'liq. Davlat sektorida 50 foiz, xususiyl sektorda 40 foiz avtotransport vositalaridan 10 yildan ko'p vaqt davomida foydalanib kelinmoqda.

- korxonalarining diagnostika bazalari juda zaif bo'lib, ularda yoqilg'i sifatini nazorat qiluvchi asboblari etishmaydi. Natijada, har kuni davlat sektoriga qarashli 150 mingdan ortiq avtotransport vositalari ekologik nazoratdan o'tkazilmasdan reyslarga chiqarilmoqda;

- avtotransportlarning siqilgan tabiiy va yoqilgan neftli gazlarga o'tish jarayoni nihoyatda sekinlik bilan amalga oshirilmoqda. Hozirgi paytda respublika bo'yicha 10 mingdan kamroq avtomobil gaz yoqilg'isi yordamida ishlatilmoqda, (jami avtomobil parkining 1%dan kamrog'i).

## **16.4. CHegarabo'yi xududlarida atmosfera havosining ifloslanishi**

80-yillardan boshlab, atmosferaga ftorli vodorod va boshqa zararli moddalarni chiqaruvchi Tojikiston alyuminiyl zavodining ishga tushirilishi bilan Surxondaryo viloyati shimoliyl xududlarining ekologik holati keskin yomonlashdi. 1982-1989 yillar davomida ushbu korxonaya quvvatlarini oshiraya borib, loyihadaya belgilangan darajagaya etkazdi. Har yili atmosferagaya 40 ming tonnagachaya ifloslantiruvchi moddalar, jumladan 300-400 tonna ftorli vodorod chiqardi. Tojikiston alyuminiyl zavodidan chiqadigan iflos moddalar Hisor vodiysi bo'ylab nisbatan tor yo'nalishdaya tarqaladi va Sariosiyo tumani hududining 80% ini qamrab oladi.

Boshgidromet ma'lumotlariga ko'ra, ftorli vodorodning o'rtacha konsentrasiyasi 1983-1990 yillar davomida 1,5-2 PDK dan kamaygani yo'q. Ba'zi yillari ayniqsa, yoz faslida Sariosiyo tumanida ftorli vodorodning o'rtacha oylik konsentrasiyasi 3 martadan ham ortib ketdi. Oltinugurt dioksidi va azot dioksidi, ftorli vodorod va oltinugurt dioksidi qo'shilishi natijasida atmosfera havosining ifloslanishi yanada kuchaydi.

Sariosiyo tumani atmosfera havosining ftorli vodorod va boshqa zararli moddalar hisobiga ifloslanishi bu erda yashovchi aholining salomatligiga yomon ta'sir ko'rsatdi. Tuman qishloq xo'jaligiga (ayniqsa, tut ipak qurti, uzum, sitrus o'simliklari, yirik shoxli qoramollarga) sezilarli darajada ziyon etkazildi.

Ushbu salbiy holatlarga barham berish maqsadida O'zbekiston va Tojikiston davlat va hukumat rahbarlari ishtirokida bir qancha uchrashuvlar o'tkazildi va tegishli qarorlar qabul qilindi.

## **16.5. Suv resurslarining holati va ulardan foydalanish**

Orol dengizi havzasidagi deyarli barcha daryolar chegarabo'yi xududlar hisoblanadi. Amudaryo havzasida Amudaryo, qashqadaryo, Surxondaryo, Zarafshon, SHERoboddaryo joylashgan bo'lib, ulardan qashqadaryo va SHERoboddaryo O'zbekiston xududidadir.

Amudaryo suvining kimyoviy tarkibi Turkmanistondagi ekin maydonlaridan chiqqan suvlar va Termiz shahri korxonalarining oqova suvlaridan shakllangan.

1997-2000 yillarda Termez, Amudaryoning minerallashuv darajasi 600 mg/lni, XPK esa 3,9-4,4 mg/lni tashkil etdi. Daryoning quyilishiga kelib, tuzlar va organik moddalar miqdori mos ravishda 1476,3 (1,5 PDK) i 29,6 mg/lni tashkil etdi. Daryoning eng iflos qismi qiziljar aholi punkti yaqinida bo'lib, u erda fenol - 2-6 PDK, neft mahsulotlari - 5.2-1.8 PDK, azot ammoniy - 0.1-0.3 PDK, nitrit - 0.7 -3.7 PDKni tashkil etadi.

Amudaryo suvining IZV bo'yicha sifati Termez 1996 yil darajasida saqlanmoqda, ya'ni II klass - toza suv, boshqa stvorlarda 1997 yilda III klass - nisbatan ifloslangan suv, 1998-2000 yillarda mos ravishda yana II klass - toza suv ko'rinishiga qaytdi.

### ***Qisqacha xulosalar***

Respublikaning ko'pgina shaharlari va sanoat markazlarida atmosfera ifloslanish indeksi me'yoridan ortiqcha. Ayniqcha, Nukus,

Olmalıq, Toshkent, Fvrg'ona shaharlarining bu sohadagi ko'rsatkichlari yuqori. Atmosfera havosi eng iflos shahar - Navoiy (AII - 7,62).

Stasionar manbalar chiqindilari orasida oltingugurt dioksidi, uglevodorodlar, qattiq chiqindilar, harakatlanuvchi manbalar orasida esa uglerod oksidi va uglevodorodlarning ulushi katta.

Neft va gaz qazib chiqarish va uni qayta ishlash tarmog'i stasionar manbalardan chiqindilar chiqarish bo'yicha eng etakchi o'rinni egallaydi.

### ***Nazorat va muhokama uchun savollar***

- 1 Stasionar manbalar chiqindilari deganda nimani tushunasiz?
- 2 Harakatlanuvchi manbalar chiqindilari deganda nimani tushunasiz?
- 3 Sanoat tarmoqlaridan qaysi biri chiqindilar chiqarish bo'yicha eng etakchi o'rinni egallaydi?
- 4 Atmosfera havosi eng iflos shahar qaysi?
- 5 O'zbekistonda qaysi daryo havzasining ifloslanish darajasi yuqori?
- 6 Avtotransportlardan chiqadigan zararli moddalar qanday muammolarni chiqaradi?

### ***Foydalanilgan adabiyotlar***

1. Mintaqaviy iqtisodiyot, O'zbekiston Milliy universiteti 2003.
2. Z.YU. Yo'ldoshov Milliy iqtisodiyot, o'quv qo'llanma T. 2004.
3. L.M. Toshpo'latova Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati. Toshkent, 2004.
4. Doklad po sostoyaniyu oxrane okrujajuhey prirodnoy sredoy i ispol'zovanie prirodno'x resursov. –Tashkent, 2002
5. Ishmuxamedov L.A. i drugie ekonomiki prirodopol'zovanie T.: 2005 g.

## Izohli lug'at

*Akselerator (accelerator)* – iqtisodiyotda iste'molchilik sarf-xarajatlar hajmi o'zgarishi bilan yuzaga keladigan kapital qo'yilmalar hajmi o'zgarishini tavsif etuvchi ko'rsatgich. Akselerasiya prinsipining mohiyati shundan iboratki, iqtisodiyotda iste'molchilik xarajatlari dinamikasi investisiyalar hajmi dinamikasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi: iste'molchilik xarajatlarining sezirarli o'sishi investision faollikni yuzaga keltiradi, rag'batlantiradi va aksincha.

*Aktivlar (assets)* – iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining pul va moliyaviy mablag'lari, asosiy va aylanma fondlari qiymati.

*Amortizasiya (depreciation)* – foydalanish jarayonida asbob-uskunlar qiymatining eskirgani sayin mahsulot hisobiga o'tkazish jarayoni. Asosiy jamg'armalar iste'mol narxini to'la yoki qisman tiklash uchun amortizasiya orqali amalga oshiriladigan narxini to'latishi zarur. Asosiy jamg'armalar sarfini qoplash uchun ularga ketgan sarflarni tayyorlanayotgan mahsulotga singdirib borish asosiy jamg'armalarning amortizasiyasini tashkil etadi. Asosiy jamg'armalarning amortizasiyasi mahsulot tannarxini o'z ichiga oladi.

Bu korxonalar tashkilotlarga asosiy jamg'armalarning moddiy va ma'naviy sarfini qoplash uchun mahsulotlarni sotish orqali mablag' tulashtirish imkonini beradi.

*Alternativ variantlardan tanlov (tradeoff)* – tanlab olingan variant alternativ variantdan voz kechish evaziga amalga oshirilishini taqozo etuvchi qaror qabul qilish zarurati. Makroiqtisodiy atamalar doirasida iqtisodiy atamalar siyosatning chora-tadbirlar ishlab chiqish jarayonida u yoki bu g'oyalarning tanlov-muammolarini belgilash uchun ishlatiladi. Masalan, ishsizlikning o'sishi va inflyatsiya jadalligi, foydaning o'sishi yoki ish xaqining oshishi orasidagi tanlov muammosi.

*Asosiy fondlar va ularning bahosi (capital stock)* – turli xo'jalik sub'ektlari va fuqarolarning pul mablag'larini aniq bir maqsad yo'lida birlashtirish va ishlatish.

*Asosiy narx (base price)* – xalq xo'jaligini rivojlantirish va statistik hisob olib borishda indekslarni hisoblash va to'lashgacha hisoblangan narx.

*Byudjet taqchilligi (budget deficit)* – davlat byudjetida xarajatlarning daromadlardan ustun bo'lishi.

*Band aholi (employees)* – ijtimoiy ishlab chiqarishning fuqarolik sektorida band bo'lgan va mamlakat qonunchiligi tomonidan belgilangan normalarga mos ravishda hisobga olinadigan mehnatga layoqatli yoshdagi aholi.

*Bandlik darajasi (rate of employees)* – bandlar umumiy sonining mehnatga layoqatli yoshdagi aholiga nisbati.

*Bartaraf etilgan inflyasiya* – iqtisodiyot doirasida boshqariladigan yoki tabiiy, qo'yilgan narxlarni boshqarish davomidagi inflyasion jarayonlarning o'ziga xos ko'rinishi. Direktiv tarzda belgilangan narxlar darajasi saqlangan holda inflyasiya muomaladagi pul miqdorining ko'payishi va uning sotib olish salohiyati pasayishi. Bularning ta'sirida talab keskin oshib, tovar va xizmatlar taxchilligi o'sadi va bu aholining vaqtinchalik qondirilgan talabi ortishi orqali namoyan bo'ladi.

*Bank krediti (banking credit)* – daromad (%) ko'rinishida foyda olish uchun bank tomonidan qarzga pul berish.

*Belgilangan almashuv kursi (fixed exchange rate)* – milliy valyutaning chet el valyutalariga nisbatan an'anaviy tarzda belgilanadigan qiymati va o'zgarmas tizim.

*Byudjet soliq siyosati (fiscal policy)* – byudjet siyosatida davlat o'z istagi bilan byudjet xarajatlari va daromadlarini shakillantirgan holda 3 xil byudjet siyosati yuritadi. Byudjet xarajatlari, transfer xarajatlari shaklidagi xarajatlar. Daromadlar esa uch manbadan kelishi mumkin: soliqlardan, xazina tomonidan, chiqarilgan qimmatbaho qog'ozlar sotilishidan va byudjet tomonidan ma'lum qismi markaz tomonidan bank emmissiyasi hisobiga yopilishidan. SHunga ko'ra, davlat xarajatlar va daromadlarni boshqarish orqali byudjet siyosatini yuritadi.

*Bozor munosabati (market clearing)* – bozordagi talab va takliflarning miqdoran va tarkibiy jihatdan bir-biriga muvofiq kelishi. Agar shunday muvofiqlik bo'lmasa, bozor muvozanati izdan chiqadi.

*Bank rezervlari (reservers)* – bankda saqlanayotgan naqd pullar, markaziy bankda saqlanayotgan foizsiz depozitlar.

*Baho, narx (price)* – tovar qiymatining puldagi ifodasi. Mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlarni va foydani ko'rsatadi.

*Bozor narxi (market price)* – iqtisodiyotda jami talablarga ko'ra o'zgarmas holda qoluvchi narxlar.

*Valyuta kursi* – mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligida ifodalangan bahosi.

*Giperinflyasiya (hyper-inflation)* – haddan tashqari inflyasiya, narxning shiddat bilan o'sishi, pul qadrlarining g'oyat tez pasayishi, pul topishga intilishning minimal darajaga kelishi bilan xarakterlanadi.

*Davlat byudjeti (state budget, local budget)* – asosan davlat (viloyat, shahar, tuman, muassasa, tashkilot va boshqalar) ning ma'lum muddatdagi (yil, kvartal, oy) daromadlari va xarajatlarining pul hisobi.

*Devalvatsiya (devaluation)* – mamlakat savdo va to'lov balansining keskin yomonlashuvi, valyuta kursining pasayishi bilan bog'liq holda milliy pul birligi qiymatining rasmiy tartibda pasaytirilishi.

*Deflyasiya (deflation)* – inflyasiya davrida muomaladagi qog'oz pulni kamaytirish; davlat tomonidan muomaladagi pul miqdorini kamaytirishga qaratilgan moliya va pul-kredit tadbirlarini qo'llash bilan amalga oshiriladi.

*Depozitlar (deposits)* – omonatga asrab qo'yilgan: 1) bank va omonat kassalariga qo'yilgan omonatlar; 2) bank daftardagi yozuvlar; 3) kredit muassasalariga saqlash uchun topshirilgan qimmatbaho qog'ozlar (aksiya va obligatsiya).

*Dividend (dividend)* – hissadorlik jamiyatlari foydasining bir qismi bo'lib, aksiyaning soni va turiga qarab har yili hissadorlar orasida taqsimlanadi.

*Diskont (dicount)* – markaziy bank tomonidan tijorat banklariga beriladigan qarzlarga qo'yiladigan foiz.

*Daromad (income)* – ishlab chiqarish natijasida tushgan pul (foйда).

*Daromadning mavjud miqdori (disposable income)* – sarf-xarajatlar va jamg'armalar uchun ishlatish maqsadida iqtisodiy sektorlar qo'lida mavjud bo'lgan daromadlar; daromadlar va to'g'ri soliqlar orasida farq bilan aniqlanadi.

*Doimiy, davomiy inflyasiya (cronic inflation)* – nisbatan yuqori yoki past inflyasiya darajasi uzoq muddat davomida ushlab turiladigan iqtisodiy vaziyat. Barqarorlikka erishgunga qadar davomli, yuqori inflyasiya darajasi sodir bo'lgan mamlakatlarga misol qilib, Braziliya, Isroil, Meksika, Peru, Argentinani keltirish mumkin.

*Davlat iste'moli* – davlat iste'moli uchun mahsulot va xizmatlarga, shuningdek, xususiy sektorda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlarga ketgan xarajatlar.

*Diskont* (discount) – markaziy bankning tijorat banklariga kredit berishdagi foiz stavkalari.

*YOpiq iqtisodiyot* (*closed economy*) – tashqi iqtisodiy bozorda keng savdo- iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lmaydigan iqtisodiyot.

*Jami taklif* (*aggregate supply*) – mamlakatda ishlab chiqarilgan hamma tovar va xizmatlarning jami qiymati. Bu tovar va xizmatlar milliy mahsulot ham deb ataladi.

*Jamg'armaga moyillik* (*propensity to save*) – daromadda jamg'arma hissasi qanchani tashkil etishi.

*Jami talab* (*aggregate demand*) – mamlakatning real xarid qobiliyatini aks ettiruvchi ko'rsatkich; jami xarajatlar deb ham ataladi. Unga davlatning iste'mol xarajatlari, xususiy sektor iste'moli, jami investisiyalar va eksport-import xarajatlari kiradi.

*Jami band aholi* (*employees*) – band bo'lgan aholi va harbiy xizmatchilar.

*Ishsizlik* (*unemployment*) – aholining iqtisodiy faol qismi ish topa olmasligi, mehnat rezerviga aylanishi.

*Ishsizlikning darajasi* (*unemployment rate*) – ishsizlar umumiy sonining ishchi kuchiga bo'lgan nisbati.

*Ishsizlikning tabiiy darajasi* (*natural rate of unemployment*) – real va potensial yalpi milliy mahsulotning o'sishi bir-biriga mos keladigan iqtisodiy rivojlanish davri oraliqlariga xos bo'lgan ishsizlik darajasi. U iqtisodiy rivojlanishning haqiqiy va strukturaviy ishsizlik ko'rsatkichlari yig'indisi sifatida ham hisoblanishi mumkin. SHuningdek, NARU (*natural rate of unemployment*) atamasi ishsizlikning o'smaydigan darajasi ko'rsatkichi tarzida ham qo'llaniladi. Bu ko'rsatkich ijtimoiy jihatdan nisbatan neytral bo'lib, inflyasiyaning turg'un, barqaror darajalari hamda real va potensial yalpi milliy mahsulot (YAMM) mos tushgan holatidagi ishsizlik darajasini aks ettiradi.

*Ish haqi* (*wage, nominal*) – pul, qiymat shaklidagi ish haqi.

*Import* (*import*) – mamlakat ichki bozorlarida sotish uchun chet el mollarini, kapitalini va texnologiyasini olib kelish. Import xalqaro mehnat taqsimoti natijasidir. U vaqtni tejashga, xalq xo'jaligi, aholi

ehtiyojini qondirish vazifalarini muvaffaqiyat bilan hal qilishga ko'maklashadi.

*Investisiya (investment)* – ishlab chiqarishni rivojlantirish maqsadida mamlakat yoki chet ellarda iqtisodiyotning turli tarmoqlariga uzoq muddatli kapital kiritish. Investisilarning moliyaviy va real turlari mavjud.

*Iste'mol narxlari indeksi (consumer price index)* – odatda, oila tomonidan iste'mol qilinadigan tovar va xizmatlar narxi bazis davrga nisbatan o'zgarishining o'rtacha darajasini aks ettiradigan ko'rsatkich, inflyasiya ko'rsatkichi sifatida ishlatiladi.

*Ishlab chiqaruvchilar narxlarining indeksi (producer price index)* – bazis davr oralig'ida xom ashyo, materiallar va oraliq tovarlar narxi o'zgarishining o'rtacha darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkich. YAMMning maksimal darajada detallashtirilgan komponentlari narxini solishtirma narxlarga o'tkazishda ishlatiladi.

*Indeksar – YAMM deflyatorlari (GNP deflators)* – YAMM ko'rsatkilarini solishtirma narxlarda aks ettirish uchun ishlatiladigan indeksar guruhi. Ularga narxlarning agregat indeksi, YAMM deflyatori narxlari indeksi, iste'molchi narxlari indeksi, shuningdek, maxsus tashkil qilingan indeksar kiradi.

*Indeksasiya (indexation)* – iqtisodiyotdagi narxlarning o'rtacha darajasi o'zgarishiga bog'liq ravishda ish haqi va boshqa daromadlarni tuzatish, kelishtirish tizimi.

*Inflyasiya (inflation)* – pulning qadrsizlanishi, muomaladagi pulning qadrsizlanishi, pul massasining tovarlar massasidan ustunligi natijasida tovar bilan ta'minlanmagan pullarning paydo bo'lishi. Inflyasiya tovar bahosining ochiqchasiga va yashirin ravishda oshib ketishiga olib keladi.

*Inflyasiya darajasi (rate of inflation)* – ma'lum vaqt ichida (oy, yil) narx darajasining foizda o'zgarishi.

*Iste'mol krediti (consumer credit)* – markaziy bank tomonidan barqarorlik davrida qo'llaniladigan pul siyosati vositasi (instrumenti). U banklar tomonidan berilishi mumkin bo'lgan ichki kreditning maksimal miqdori rasmiy ravishda belgilanishini taqozo etadi.

*Iste'mol (consumption)* – kishilarning iqtisodiy talablarini qondirish jarayonida ijtimoiy mahsulotdan foydalanish, ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining oxirgi bosqichi.



*Ist'ebol xarajatlari* – makroiqtisodiyotda uy xo'jaligi va qurilish xarajatlarini qamrab oladigan xarajatlar.

*Ishlab chiqarish funksiyasi (production function)* – mahsulot ishlab chiqarish uchun mazkur korxonaga zurrur bo'lgan barcha kishilar va mehnat qurollari harakatlari majmui.

*Ishchi kuchi (labour force)* – odamlarning mehnat qobiliyati, hayot ne'matlarini ishlab chiqarish jarayonida ishga solinadigan jami jismoniy va ma'naviy kuchlar.

*Ishchi kuchi hissasi (labour force rate)* – odamlarning mehnat qobiliyati, hayot ne'matlarini ishlab chiqarish jarayonida ishga solinadigan jami jismoniy va ma'naviy kuchlar.

*Ish vaqti (hours of work)* – ishlab chiqarishda band bo'lgan aholining ishlagan vaqtining hajmi.

*Ish vaqtining umumiy soatlari soni (total hours of work)* – o'rtacha statistik ishlovchi band bo'lgan ish vaqtining o'rtacha soatlari soni.

*Iqtisodiy o'sish* – real milliy daromad yoki mahsulotning aholi jon boshiga o'sishi.

*Import qilishga moyillik (propensity to import)* – daromadda importga qaratilgan xarajatlar hissasi.

*Investisiyalarga bo'lgan moyillik (propensity to invest)* – iste'mol xarajatlarining daromaddagi hissasi.

*Iste'mol qilishga moyillik (propensity to consume)* – iste'mol xarajatlarining daromaddagi hissasi.

*Ichki iste'mol uchun mo'ljallangan tovarlar (nontraded goods)* – tashqi bozorda sotishga mo'ljallanmagan, ichki iste'mol uchun ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar (ko'chmas mulk, xizmatlarning ayrim turlari).

*Ishlab chiqaruvchilar narxi (producers price)* – tovar va xizmatning bazis narxi, soliqlarni qamrab oluvchi va subsidiyalar olib tashlangan narx.

*Kapital eksporti* – tijorat maqsadida amalga oshiriladigan eksport.

*Kutilayotgan inflyasiya darajasi (expected rate of inflation)* – mavjud ijtimoiy, iqtisodiy axborotlar, ma'lumotlar asosida alohida shaxs va korxonalar tomonidan kutiladigan bo'lg'usi davrdagi inflyasiya darajasi.

*Likvidlik (liquidity)* – turli korxonalar, birlashmalar, firmalar va banklarning o'z qarzini to'lay olish yoki boshqa majburiyatlarini bajara olish imkoniyati.

*Markaziy bank (Central bank)* – mamlakatning jami kredit tizimiga rahbarlik qiladi, davlat pul-kredit siyosatini olib boradi, pul va qimmatbaho qog'ozlar emissiyasini monopoliya huquqida amalga oshiradi.

*Muomaladagi pullar (currency)* – mamlakatning pul birligi va uning tipi (oltin, kumush, qog'oz): pulga tenglashtirilgan to'lov vositalari: pul hisob- kitoblari taqozo etadigan xalqaro iqtisodiy ayirboshlash va boshqa aloqalarda qatnashadigan vositalar.

*Milliy daromad (national income)* – milliy ishlab chiqarishda olinadigan daromad yoki iqtisodiyotning barcha turdagi daromadi bahosi.

*Mehnat umumdorligi (labour productivity)* – mehnat mahsuldorligini, ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini ifodalovchi umumlashma ko'rsatkichlardan biri.

*Mulk (property)* – muayyan qiymatga ega bo'lib, biron bir shaxsga qarashli narsa.

*Makroiqtisodiyot (macroeconomics)* – barqarorlashtirish, bir birlik milliy valyutamizni mustahkamlash, kapital qurish dasturi, iqtisodiyotning tarkibiy jihatdan yangilash yo'lini davom ettirish rejasini yoki mulkdorlar sinfini yangilash, qonunchilik yoki huquqiy tarkibni mustahkamlash.

*Nominal YAMM (nominal GNP)* – joriy narxlarda aks ettirilgan yalpi milliy mahsulot.

*Narxlar indeksi (price index)* – har xil vaqt oralig'ida tovar va xizmatlarga narxning muvozanati o'zgarishini aks ettiruvchi ko'rsatkich.

*Narxlar korrektirovkasi (price adjustment)* – narxlarning bozor vaziyati o'zgarishiga moslashuv jarayoni.

*Nominal almashuv kursi (nominal exchange rate)* – milliy valyuta va chet el valyutalari birliklarining odatda mavjud bo'lgan nisbati. Ushbu nisbat ham qat'iy belgilangan, ham chayqalib turuvchi asosda amalga oshirilishi mumkin.

*Nominal foiz stavkasi (nominal interest rate)* – ma'lum davr ichida (oy, yil) qarzga olingan pul birligiga to'langan pul miqdori. Depozit shartlarida va qimmatli qog'ozlarda aktivlarning nominal qiymati o'sishiga belgilanadigan foiz stavkalari deyiladi.

*Oraliq iste'mol (intermediate consumption)* – ishlab chiqarishning bir bosqichida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning ishlab chiqarishning boshqa bosqichida mehnat predmetlari sifatida ishlatilishi.

*Ortiqcha taklif (excess supply)* – mavjud narxlarda tovar va xizmatlar taklifi ularga bo'lgan talabdan ustun bo'ladigan iqtisodiy vaziyat, shuningdek, ortiqcha ishlab chiqarish.

*Ortiqcha talab (excess demand)* – mavjud narxlar holatida tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talab takliflardan ustun bo'ladigan iqtisodiy vaziyat, shuningdek defisit deb ham ataladi.

*Ochiq iqtisodiyot (open economy)* – tashqi iqtisodiy bozorda keng savdo- iqtisodiy va moliyaviy aloqalarga ega bo'lgan iqtisodiyot.

*Potensial YAMM (potential GNP)* – mavjud sarmoya resurslari va ishchi kuchi hisobiga erishish mumkin bo'lgan ishlab chiqarish hajmi.

*Paritet (parity)* – tenglik, teng huquqli, teng vakillik asoslarida biron bir iqtisodiy (siyosiy) harakatda ishtirok etish.

*Pasayish (recession)* – iqtisodiy faollikning pasayishi bo'lib, bu faoliyatning o'sishi bilan xarakterlanadi.

*Pulga bo'lgan talab (demand for money)* – mamlakat aholisining jamg'arish va iste'mol qilish, oldi-sotdi va har xil iqtisodiy bitimlar tuzish uchun egalik qilmoqchi bo'lgan miqdori; iste'mol, foiz stavkasi, operasion xarajatlar va boshqa funksiyalar bilan ifodalanadi.

*Pul bazasi – MV (monetary base)* – muomaladagi naqd pullar, korxonalarining kaccadagi pullari va tijorat banklarining milliy bankdagi zahirasi.

*Real YAMM (real GNP)* – solishtirma doimiy narxlar orqali aks ettirilgan YAMM. U joriy narxlarda hisoblangan YAMMni narxlarning o'zgarish ko'rsatkichi (inflyasiya darajasi) hisobiga to'g'rilash yo'li bilan hisoblanadi.

*Real ish haqi (real wage)* – narxlar o'zgarishi darajasi hisobiga tuzatish kiritilgan nominal ish haqi (yoki nominal ish haqidan narxlar o'zgarishi darajasining hisobga olingani).

*Real almashuv kursi (real exchange rate)* – ikki mamlakatdagi narxlar darajasining o'zaro nisbati, ular o'rtasidagi munosabatni hisobga oluvchi almashuv kursi. Muayyan mamlakatlardagi nominal almashuv kursi narxlari indekslarini ularning o'zaro nisbatiga bo'lish orqali hosil bo'ladi.

*Real foiz stavkasi (real interest rate)* – ma’lum davr ichida depozit schyotlardagi va qimmatli qog’ozlardagi aktivlarning real qiymati o’sishi yuz beradigan foiz stavkasi; nominal foiz stavkasidan shu davr oralig’ida kutilayotgan nominal foiz stavkasi.

*Rasional kutishlar (rational expectations)* – ishlab chiqaruvchilar va iste’molchilar o’zlarida mavjud bo’lgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy ma’lumotlar asosida eng rasional tarzda o’z iqtisodiy xulq-atvorini rejalashtiradilar, deb ta’kidlovchi nazariya.

*Revalyatsiya (reevaluation)* – mamlakat pul birligi rasmiy kursini chet el valyutalariga nisbatan oshirish.

*Soliqlar (taxes)* – milliy daromadni taqsimlash jarayonida uning bir qismini davlat ixtiyoriga olish shakli, soliq, byudjet va byudjetdan tashqari pul fondlarini tashkil etishning asosiy vositasi.

*Soliq siyosati* – mamlakat taraqqiyoti kapital qo’yilmalarni moliyalashtirishda “majburiy jamg’armalar” tashkil qiluvchi asosiy omillardan biri.

*Sarf-xarajat balansi (spending balance)* – makroiqtisodiyotda YAMM ni ishlab chiqarishga ketgan jami xarajatlar va yaratilgan yalpi milliy mahsulotning oxirgi iste’mol maqsadida ishlatilishi orasidagi balans.

*Solishtirma afzallik (comparative advantages)* – ayrim iqtisodiy agentlarning tovar va xizmatlarni kamroq xarajatlar evaziga ishlab chiqarish xususiyati. Makrodarajada solishtirma afzalliklar prinsipi ishlab chiqarish va eksportning samarali strukturasi shakllantirish uchun qo’llaniladi.

*Subsidiya (subsidy)* – davlat byudjeti hisobidan korxonalar, tashkilotlar va xorijiy davlatlarga beriladigan mablag’. Subsidiya bozor iqtisodiyotini tartibga solish vositasi hisoblanadi.

*Savdo balansi (merchandise trade balance)* – eksport va import tushumlari va to’lovlarini aks ettiruvchi balans. Unda savdo bitimida ko’zda tutilgan, ammo joriy davrda amalga oshirilmaydigan to’lovlar va tushumlar o’z aksini topmaydi.

*Savdo balansining difisiti (trade deficit)* – iqtisodiy sur’atlarning hisobot davri oxiriga kelib, import bo’yicha qilingan jami xarajatlar eksport daromadlaridan oshadigan vaziyatgacha o’sishi.

*Savdo balansining ijobiy salbdosi (trade surplus)* – hisobot davri oxiriga kelib, eksport bo'yicha jami daromadlar import bo'yicha xarajatlardan ustun kelgan vaziyat.

*Sanoat sikli (business cycle)* – iqtisodiyotning vaqti-vaqti bilan qaytarilib turuvchi turli rivojlanish bosqichlari. Umumiy ishbilarmonlik faolligining oshishi va pasayishi, shuningdek, tushumlar bilan karakterlanadi.

*Cof milliy mahsulot (net product)* – makroiqtisodiy ko'rsatkich; YAMM va amortizatsiya ajratmalari jami miqdorining ayirmasi.

*Tijorat banki (Commercial bank)* – qo'yilmalar shaklidagi pul kapitallari va jamg'armalar hisobiga barcha tarmoq korxonalarini uchun universal bank harakatlarini amalga oshiruvchi kredit muassasasi. Tijorat banki kredit sistemasining etakchi bo'g'inidir. Uning harakatlarida sanoat va savdo korxonalarini kreditlash asosiy o'rin egallaydi. Bank, shuningdek, komission muomalalarni ham olib boradi.

*To'lov balansi (balance of payment)* – bu shunday iqtisodiy tushunchaki, u orqali mamlakatlarning tashqi iqtisodiy munosabatlari holatini, xalqaro miqyosda to'lovga qobilligini bilish mumkin. To'lov balansi shunday hujjatki, unda mamlakatlar xorijiy davlatlarga ulashgan va xorijiy davlatlardan kelgan barcha to'lovlar va tushumlarning haqiqatdagi miqdori aks ettiriladi, shartnomalarda ko'zda tutilgan, ammo hali kelib tushmagan to'lovlar yoki tushumlar summasi o'z aksini topadi.

*Tarkibiy ishsizlik (structural unemployment)* – iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish, eskirgan tarmoq va kasblar bartaraf etilishi, ishchi malakasi pastligi yoki umuman yo'qligi natijasida yuzaga keladigan majburiy ishsizlikning ko'rinishi.

*Tashqi dunyo* – muayyan mamlakatni tashqi iqtisodiy aloqalar olib boruvchi iqtisodiy agentlar bilan birlashtiruvchi institusional sektor.

*Talab etilgunga qadar saqlanadigan depozitlar (demand deposits)* – bankdagi qo'yilmalarda talab etilgunga qadar saqlanadigan pul vositalari.

*Tijorat krediti (comercial credit)* – qisqa muddatli qarz (1 yil muddatgacha beriladi); sotib olinadigan tovarlarga to'lash uchun pul shaklida beriladigan qarz.

*Transfert to'lovlari (transfer payment)* – o'tkazma to'lovlar, ya'ni davlat byudjetidan aholiga va xususiy tadbirkorlarga beriladigan to'lovlar.

*Tovar eksport qilish* – mamlakat ichkarisida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni chetga sotish hamda xorijdagi sheriklarga ishlab chiqarish va talab xarakteriga ega xizmatlar ko'rsatish.

*Uzoq muddat davomida ishlatiluvchi tovarlar (durable goods)* – iste'molchilarga uzoq vaqt xizmat qiladigan (1 yildan kam) tovarlar. Uzoq vaqt xizmat qiladigan tovarlarga avtomobil, muzlatgich va boshqa maishiy xizmat tovarlari kiradi.

*Friksion ishsizlik (frictionfl unemployment)* – bir ishdan boshqa bir ishga o'tish bilan bog'liq bo'lgan vaqtinchalik ishsizlik. Yashirin ishsizlik (hidden, latent, disguised) – ishlab chiqarish jarayonida ob'ektiv holda ishchilar sonini ham talab etadigan, lekin amalda ishlab chiqarishda ortiqcha bo'lgan ishchilar soni.

*Faktor daromad (factor income)* – ishchi kuchi, kapital mulk, ishlab chiqarish omillari qo'llanishi natijasida yuzaga keladigan daromad.

*Foyda (profit)* – qo'shimcha mahsulotning pul shakli; korxonalar, tarmoqlar va butun xalq xo'jaligi ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini umumlashtiruvchi ko'rsatkich. Korxonalar moliyaviy ahvoli, iqtisodiy rag'batlantirish fondini shakllantirish imkoniyatlari, byudjet va yuqori turuvchi organlar bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi foyda hajmiga bog'liq.

*Foiz (interest)* – daromad, o'z mulkini boshqa jismoniy va huquqiy shaxslarga foydalanishga berish va undan foyda olish.

*Foiz stavkasi (interest rate)* – kredit yoki qarz stavkasi kapitali evaziga to'lovning foiz ko'rsatkichi. Odatda, qarzga olingan pul belgisining bir birligiga to'g'ri keladigan yillik to'lovni aks ettiradi.

*Filips egri chizig'i (Phillips curve)* – inflyatsiya darajasi dinamikasi va ishsizlik darajasi dinamikasi yoki real YAMMning potentsialdan og'ishi orasidagi o'zaro bog'liklikni tafsiflovchi va grafikda ifodalovchi vosita.

*Xususiylashtirish (privatization)* – davlat mulkini, iqtisodiyotdagi davlat sektorini xususiylashtirish. Xususiylashtirish davlat mulki monopoliyasini tugatish, erkin sohiblik tashabbusiga yo'l

ochish, bozor iqtisodiyotini rag'batlantirish maqsadida amalga oshiriladi.

*SHaxsiy daromad (personal income)* – jismoniy shaxslarning soliq to'lagunga qadar daromadi.

*SHaxs sarmoyasi* – kapital sifatida yondashuv ikki tomonlama xususiyatga ega bo'ladi. Uning salbiy tomoni shundaki, bunday qarashlar ijtimoiy muammolar va mehnat kapital tomonidan ekspluatasiya qilinishi haqidagi fikrlarga ulanib ketadi. Bunday hollarda kapital mehnatni ekpluatasiya qilar ekan, u holda inson kapitali ham mehnatni ekspluatasiya qiladimi, degan fikrni keltirib chiqarishga urinishadi. Insonga kapital sifatida yondashuvning ijobiy tomoni shundan iboratki, bunday yondashuv resurslardan samarali foydalanishni va ularning oqilona taqsimlanishini ta'minlaydi.

*Eksport (export)* – tovarlar, xizmatlar va kapitallarni tashqi bozorda realizasiya qilish maqsadida chetga chiqarish.

*Yalpi milliy mahsulot – YAMM (gross national product-GNP)* – iste'molchilarning yil davomida mahsulot yaratish uchun qilgan xarajatlari qiymatini jamlash orqali, ya'ni, mahsulotni umumiy pul qiymati aniqlanishi orqali hisoblanadi. Hozirgi yalpi milliy mahsulotga davlatning tovarlar va xizmatlarni sotib olishga qilgan xarajatlari hamda xususiy investisiyalar ham qo'shiladi. Daromadlarga, ya'ni, ish haqi, foiz, renta va foyda jamiyat tomonidan mahsulotlar uchun qilingan xarajatlar sifatida qaralib, ularni jamlash orqali hisoblanadi. Hozirgi vaqtda yalpi mahsulotni hisoblashda jamiyatda iqtisodiy o'sish aniqlanadi, «yalpi investisiya» va «xususiy investisiya» tushunchalari qo'llanmoqdaki, bunda ular yil davomida qurilgan uylar, fabrika, zavod, mashinalarni ifoda etadi.

*YAMM darajalaridagi farqlar ( GNP gap)* – potensial va real YAMM darajalari orasidagi farq.

*YAMM deflyatori narxlar indeksi (GNP implicit price deflator)* – joriy narxlardagi YAMMni solishtirma narxlardagi YAMMga nisbatan tafsiflovchi ko'rsatkich yoki nominal YAMMning real YAMMga nisbati.

*O'zgaruvchan almashuv kursi (flexible exchange rate)* – ichki muvozonatni tiklash maqsadida mamlakat almashuv kursiga ega bo'ladigan xalqaro hisob-kitoblar tizimi.

*Qarzlilar* – “zayomlar” (*borrowing*) – ma’lum bir muddatga qaytarib olish sharti bilan berilgan mablag’lar. Qarzlilar quyidagicha bo’lishi mumkin: tijorat foizsiz qarzlilar, imtiyozli qarzlilar hamda ichki va tashqi qarzlilar. Jismoniy, yuridik shaxslarning qarzlilari esa ichki qarzlilarga kiradi.

*Qarz berish (crediting)* – pul yoki tovarlarni qaytarish sharti bilan ma’lum muddatga berish.

*Qadrsizlanish (depreciation)* – milliy valyutaning narxi chet el valyutalari bahosidan pasayishi.

*Qimmatbaho qog’ozlar (securities)* – egasiga qandaydir kapital yoki mol-mulkka egalik qilishi huquqini tasdiqlovchi va foiz, dividend ko’rinishda daromad keltiruvchi hujjat.



## Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T: O'zbekiston, 2003.
2. O'zbekiston Respublikasining «Sug'urta faoliyati to'g'risida»gi Qonuni. – Xalq so'zi, 2002y., 28 may.
3. O'zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida»gi Qonuni. – «Xo'jalik va xuquq», 2000 y., 9-son.
4. O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik sub'ektlarining faoliyati tartibga solinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgarish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida»gi Qonuni. – «Toshkent oqshomi», 2005 y., 22 sentyabr.
5. O'zbekiston Respublikasining «Fuqorolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida»gi Qonuni qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida. – «Xalq so'zi», 2005 y., 23 sentyabr.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Aholini ijtimoiy muhofaza qilish va kommunal xizmat ko'rsatish korxonalarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni. – Xalq so'zi, 2005y. 23 sentyabr.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investisiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni. – Xalq so'zi, 2005y., 12 aprel.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. – Xalq so'zi, 2005y., 15 aprel.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining Monopoliyadan chiqarish, raqobat va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat qo'mitasini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni. – Xalq so'zi, 2005y., 2 may.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ipoteka kredit berishni qo'llab - quvvatlash jamg'armasi faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori. – Xalq so'zi, 2005y. 6 may.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Qishloq xo'jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo'nalishlari to'g'risida»gi Farmoni. – Xalq so'zi, 2003 yil, 25 mart.
12. I.A. Karimov «Bank tizimi, pul momilasi, kredit, investisiya va moliyaviy barqarorlik to'g'risida». – T.: «O'zbekiston», 2005.
13. I.A. Karimov «Erishgan marrallarimizni mustahkamlab, islohotlar yo'lidagi izchil borish – asosiy vazifamiz». – Xalq so'zi, 2004y., 10 fevral.
14. I.A. Karimov «Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir». – T.: O'zbekiston, 2005.
15. I.A. Karimov «Ozod va obod vatan, erkin va faravon hayot–pirovard maqsadimiz». – T.: O'zbekiston, 2000.
16. I.A. Karimov Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. – Xalq so'zi, 2003 yil, 25 aprel.
17. I.A. Karimov O'zbekiston iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirishi yo'lida. – T.: O'zbekiston, 1995.
18. I.A. Karimov O'zbekiston: milliy istiqloq, siyosat, mafkura. – 1-tom. T.: O'zbekiston, 1996.
19. I.A. Karimov Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. – 2-tom. T.: O'zbekiston. 1996.
20. I.A. Karimov Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – 3-tom. T.: O'zbekiston. 1996.
21. I.A. Karimov Bunyodkorlik yo'lidan. – 4-tom. T.: O'zbekiston. 1996.
22. I.A. Karimov O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston. 1997.
23. O. Abdurahmanov Xorijiy mamlakatlarda soliq tizimlari. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun o'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2003.
24. K.X. Abdurahmanov Mehnat iqtisodiyoti – (nazariya va amaliyot). Darslik. – T.: Mehnat, 2004.
25. O. Abdurahmanov Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimi. – T.: Fan, 2004.
26. R.X. Alimov., S.A. /anixo'jaev va boshqalar. Mahalliy iqtisodiyot va menejment. – T.: TDIU, 2004.

27. D.K. Axmedov., A.E. Ishmuxamedov., K. Jumaev., Z.A. Djumaev., «Makroiqtisodiyot». – T.: TDIU, 2004.
28. T.A. Agapova., S.F. Seregina Makroekonomika testo'. Uchebnoe posobie. – ASA, 2003.
29. YU.V. Babina., V.V. Moskvina Ekonomicheskaya geografiya Rossiya. – M.: 2003.
30. V.P. Kolesova., M.N. Osnovoy Mirovaya ekonomika. Ekonomika zarubejno'x stran. Uchebnik. 3-e izdanie – M.: Flinta, 2001.
31. V.M. Kudrov Mirovaya Ekonomika. Uchebnik – M.: Delo, 2004. – 528
32. V.N. Leksin., A.N. Shvesov Gosudarstvo i regiono'. Teoriya i praktika gosudarstvennogo regulirovaniya territorial'nogo razvitiya. – M.: URSS, 2000.
33. B.L. Vorkuev Modeli makroekonomiki. – M.: Ekonomika 2004.
34. Vasel'ev L.N., Murav'ev E.A. Metodo' upravleniya innovatsionnoy deyatelnosti. Uchebnoe posobie – M.: KnoRus, 2005.
35. YU.P. Vasel'ev Razvitiya innovatsionnoy deyatelnosti v SSHA ili kak udvoit' VVP – M.: Ekonomika, 2005.
36. L.P. Vladimirova Prognozirovaniye i planirovaniye v usloviyax ro'nka. Uchebnoe posobie. – 5-e izdaniye perer. i dop. – M.: Dashkov i K. 2005.
37. A.G. Grenberg Osnovo' regional'noy ekonomiki. Ucheb; -4-e izd – B.M.: Izdatel'skiy dom GU VSHE, 2004.
38. YU.V. Danilov., Z.YU. Yuldashov Natsional'naya ekonomika. – T.: Yangi asr avlodi 2003.
39. A.E. Ishmuhamedov., M.T. Askarova O'zbekiston milliy iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. – T.; TDIU, 2004.
40. A.E. Ishmuhamedov va boshqalar. Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU. 2004.
41. A.E. Ishmuhamedov va boshqalar. Jahon iqtisodiyotiga integratsiya. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2004.
42. A.E. Ishmuhamedov va boshqalar. Xorijiy mamlakatlarda iqtisodiyotini tartibga solish. O'quv qo'llanma.– T.: TDIU, 2004
43. A.E. Ishmuhamedov va boshqalar. Makroiqtisodiyot–2. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2003.
44. S.N. Ivashkovskiy Makroekonomika.– M.: Delo, 2002.

45. B.N. Kuzo'k., YU.V. YAKoves Rossiya 2050 strategiya innovasionnogo proro'va.– M.: Ekonomika 2004.
46. G.M. Kasimov., B.J. Maxmudov Osnovo' nasional'noy ekonomike. Uchebnik dlya vo'sshix uchebno'x zavedeniy. – T.: Mehnat, 2004.
47. Z.A. Jumaev Munisipal iqtisodiyot.– T.: TDIU, 2004.
48. A.S. Juraev., B.S. Xo'jamqulov, B.S. Mamatov Investisiya loyihalari tahlili. – T.: SHarq, 2003.
49. Makroekonomika. Teoriya i Rossiyskaya praktika: Ucheb. (Pod. redaksiya A.G.Gryazovoy, i.N.N. Dumnoy), 2-e izdanie perer. i dop. – M.: KnoRus, 2005.
50. E.X. Maxmudov Praktikum po dissipline. Ekonomika kapital'nogo stroitel'stva. - Uchebnoe posobie. – T.: TGEU, 2005.
51. E.X. Maxmudov., M. Isakov., R. Najimadinov Sbornik seminar'skix i prakticheskix zadach po kursu. Ekonomika predpriyatiya.– T.: TGEU, 2005.
52. Mahalliy iqtisodiyot va menejment. – T.: TDIU, 2004.
53. Kempbell Makkonell, Stenli Bryu. Ekonomiks. Prinsipo' problemo' i politika. V 2-x tomax.– M.: Respublika.,1992.
54. N. Gregorii Menk'yu. Makroekonomika.– M.: MGU. 1994.
55. X.N. Nabiev Makroiqtisodiy statistika (o'quv qo'llanma).– T.: TDIU. 2001.
56. N. Samuel'son. Ekonomika vvodno'y kurs.– M.: Progress, 1996.
57. P. Xeyns Ekonomicheskij obraz mo'shleniya.– M.: Novosti, 1991.
58. B.M. Nakryaresk'skiy Mirovaya ekonomika.– M.: Mejdunarodno'e otnosheniya.– 2004.
59. G.G. Nazarova Jahon iqtisodiyotiga integrasiyalashuv: tajriba va amaliyot.– Monografiya.– T.: TDIU, 2005.
60. L.S. Tarassevichi dr. Makroekonomika. – M.: Ekonomika, 2004.
61. L.M. Tashpo'latova Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyati. – T.: TDIU, 2004.
62. A.S. Turdiev Investision faoliyat boshqaruvini takomillashtirish yo'llari. – T.: NIIEK i RPS, 2001y.

63. S.V. Чепель, L.I. SHibarshova Sbornik keysov po dissiplinam. Makroekonomika i mikroekonomika. (Uchebnoe posobie) – T.: TGEU, 2005. (pod redaksiyey professora Ishmuxamedov A.E.).
64. R.X. SHodiev, E.R. Mahmudov Jahon iqtisodiyoti. Darslik. – T.: /ofur /ulom, 2005.
65. M. SHarifxo’jaev O’zbekiston Republikasi Oliy Majlisining senati. – T.: SHarq 2005.
66. Ekonomicheskiy rost i faktoro’ razvitiya sovremennoy Rossii. Pod red. K.A.– Xubieva M.: Ekonomika, 2004.
67. M.T. Hakimova Makroiqtisodiyot. – T.: O’qituvchi, 1996.
68. S.S. /ulomov Tadbirkorlik va kichik biznes. – T.: O’qituvchi, 2002.
69. Bozor iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyoti. S.S. /ulomov, I. SHarifxo’jaevlarning umumiy tahriri ostida.–T.: O’qituvchi, 2000.
70. T.F.Yutkina Nalogi i nalogooblojenie.– M.: Infra-M, 2001.

#### **Internet veb-saytlari**

1. Internetdagi rasmiy saytimiz: [www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)
2. Elektron pochta manzili: [info@tsue.uz](mailto:info@tsue.uz)
3. Novosti Uzbekistana – [www.uzreport.com](http://www.uzreport.com)
4. O’zbekiston iqtisodiyoti O’zbek, rus, ingliz tilida elektron nusxasi quyidagi veb saytlarda berilgan: [www.cup/uz](http://www.cup/uz), [www.bearingpoint.uz](http://www.bearingpoint.uz), [www.pca.uz](http://www.pca.uz).
5. [www.makroiqtisodiyot.narod.ru](http://www.makroiqtisodiyot.narod.ru)
6. [www.tdiu-makro.narod.ru](http://www.tdiu-makro.narod.ru)
7. [www.micro-macroiqtisodiyout.fan.uz](http://www.micro-macroiqtisodiyout.fan.uz)

**Bitiruv malakaviy ishlar, MD va ma'ruza matnlari mavzularini  
rektor tavsiya qilgan 15 ming nomdagi mavzulari**

1.	Mintaqalarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni rivojlantirish shart-sharoitlari va istiqbollari
2.	Tashqi iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish yo'llari
3.	Davlat byudjeti-moliya siyosatining asosiy vositasi
4.	Iqtisodiyotni modernizasiya qilish sharoitida sug'urta tizimini takomillashtirish yo'nalishlari
5.	Iqtisodiyotni modernizasiya qilish sharoitida sug'urta bozorini rivojlantirish
6.	O'zbekiston mintaqalarida xalqaro turizmni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari
7.	O'zbekiston iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash omillari
8.	O'zbekiston iqtisodiyotida tabiiy monopoliyalar faoliyatini tartibga solish va raqobatni rivojlantirish
9.	O'zbekistonda pullik xizmatlarni jadallashtirish yo'llari
10.	O'tish iqtisodiyotidagi mamlakatlarda moliya tizimini rivojlantirish (O'zbekiston misolida)
11.	Bozor iqtisodiyoti sharoitida investisiya tizimi va uni tashkillashtirish yo'nalishlari
12.	O'zbekiston Respublikasida paxtachilikni tartibga solish yo'llari
13.	O'zbekiston xududlariga chet el investisiyalarini jalb qilish va uni takomillashtirish yo'llari.
14.	O'zbekiston mintaqalarida qishloq xo'jaligini rivojlantirish
15.	O'zbekistonda bank tizimini rivojlantirish yo'llari.
16.	Geostrategik ustuvor va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash yo'llari.
17.	O'zbekistonda jahon xo'jaligi aloqalari va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash.
18.	O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish.
19.	Erkinlashtirish sharoitida O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining raqobatdoshligini oshirish.
20.	O'zbekiston Respublikasida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi ko'rsatkichlar tizimi.
21.	O'zbekistonning milliy taraqqiyot modeli va unda turizmning o'rni.
22.	O'zbekiston Respublikasida turizm xizmatini rivojlantirish

	istiqbollari.
23.	Xududlarda mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish istiqbollari.
24.	O'zbekiston Respublikasida byudjet-soliq siyosati.
25.	Mintaqa ishlab chiqarish darajasini tahlili. (Qoraqalpog'iston misolida).
26.	Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida iqtisodiyotni rivojlantirish yo'llari.
27.	O'zbekistonda iqtisodiy o'sishni ta'minlash yo'llari.
28.	O'zbekistonda tabiiy monopoliya sub'ektlari faoliyatini tartibga solishning ahamiyati va o'rni.
29.	O'zbekiston Respublikasida sanoatni rivojlantirish istiqbollari.
30.	Bozor iqtisodiyoti sharoitida O'zbekistoning investisiya siyosati.
31.	O'zbekistonda soliq yuklarini kamaytirish yo'llari.
32.	Fermer xo'jaligini rivojlantirishni xududiy jihatlari.
33.	O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatini samaradorligini oshirish yo'llari.
34.	O'zbekiston xududlarida sanoatni rivojlantirish yo'llari.
35.	Qishloq xo'jaligida er-suv resurslaridan samarali foydalanish yo'llari.
36.	O'zbekistonda tadbirkorlikni rivojlantirish yo'llari.
37.	O'zbekiston Respublikasida aholining ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish.
38.	O'zbekiston Respublikasida pul-kredit siyosatini takomillashtirish yo'llari.
39.	SHaxarlarning bozor iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi: muammolar va echimlar.

<b>MUNDARIJA</b>		
<b>Kirish</b>		3
<b>I-BOB.</b>	<b>MINTAQAVIY IQTISODIYOT FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI</b>	5
1.1	Mintaqaviy iqtisodiyot fanining mohiyati	5
1.2	Mintaqaviy iqtisodiyot fanining boshqa fanlar bilan aloqalari	7
1.3	Mintaqaviy tadqiqotlarning uslublari.	8
	qisqacha xulosalar	9
	Nazorat va muxokama uchun savollar	9
	Adabiyotlar	9
<b>2-BOB.</b>	<b>MINTAQALARNING MINERAL XOM ASHYO VA TABIIY RESURLARI</b>	10
2.1.	Mineral-xom ashyo resurslari tushunchasi. mazmuni va ularning xududiy joylashuvi hamda uning iqtisodiyotda to'rtgan o'rni	10
2.2.	Bozor iqtisodiyoti sharoitida mineral-xom ashyo resurslaridan oqilona foydalanish	12
2.3.	O'zbekiston Respublikasi mineral-xom ashyo resurslarining hozirgi holati	13
2.4.	Bozor iqtisodiyoti sharoitida mineral-xom ashyo bazasini mustaxkamlash. ulardan foydalanishni takomillashtirish.	14
	qisqacha xulosalar	15
	Nazorat va muxokama uchun savollar	15
	Adabiyotlar	16
<b>3-BOB.</b>	<b>O'ZBEKISTONNING MA'MURIY-HUDUDIY BO'LINISHI</b>	17
3.1.	O'zbekiston ma'muriy-hududiy bo'linishining qisqacha tarixi	17
3.2.	O'zbekiston ma'muriy-hududiy bo'linishining hozirgi holati	18
3.3.	O'zbekiston shaharlari.	19
3.4.	Xududiy va mahalliy xokimiyat organlarining isloh qilish yo'llari.	21
	qisqacha xulosalar	22



	Nazorat va muxokama uchun savollar	23
	Adabiyotlar	23
<b>4-BOB.</b>	<b>ISHLAB CHIQUVCHI KUHLARNI JOYLAHTIRISH</b>	24
4.1.	Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish bo'yicha xorijiy nazariyalar	24
4.2.	Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish qonuniyatlari	25
4.3.	Ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish tamoyillari.	27
	qisqacha xulosalar	29
	Nazorat va muxokama uchun savollar	29
	Adabiyotlar	30
<b>5-BOB.</b>	<b>MIKTAQALAR AHOLISI VA MEHNAT RESURLARI</b>	31
5.1.	O'zbekiston mintaqalarining demografik holati	31
5.2.	Mehnat bozorining rivojlanishi va uni tartibga solish	35
5.3.	«Ijtimoiy siyosat» tushunchasi, ijtimoiy siyosatning xususiyati, ahamiyati va rivojlantirish zaruriyati	45
5.4.	Ijtimoiy siyosat asoslari	47
5.5.	CHet mamlakatlarda ijtimoiy muhofaza	50
5.6.	Respublika iqtisodiyotining ijtimoiy yo'naltirilganligi	53
5.7.	Davlat byudjetidan ijtimoiy ehtiyojlar uchun yo'naltirilgan sarf-xarajatlar	54
5.8.	Ijtimoiy siyosat muammolari va istiqbollari	56
	qisqacha xulosalar	57
	Nazorat va muxokama uchun savollar	28
	Adabiyotlar	59
<b>6-BOB.</b>	<b>O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA SANOAT TARMOFINI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDIY JIHLARI</b>	60
6.1.	Sanoat tarmoqlari va ularning rivojlanish ko'rsatkichlari	60
6.2.	Strategik ahamiyatga ega tarmoqlarning milliy iqtisodiyotdagi o'rnini.	66
6.3.	O'zbekistonning neft mustaqilligi asoslari	68
6.4.	qisqacha xulosalar	71
	Nazorat va muxokama uchun savollar	71

	Adabiyotlar	72
<b>7-BOB.</b>	<b>QISHLOQ XO'JALIGINING HUDUDIIY IXTISOSLASHUVI</b>	73
7.1.	Agrosanoat majmuini rivojlantirish muammolari	73
7.2.	Agrosanoat majmui rivojlanishining asoslari	75
7.3.	Agrar siyosatdagi ustuvorliklar	81
7.4.	Qishloq ho'jaligi ravnaqida kredit muhim omil	83
7.5.	Fermer xo'jaliklarining mintaqaviy xususiyatlari	86
7.6.	Fermerlik harakati va uning imkoniyatlari	92
7.7.	Mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish yo'llari	98
<b>7.8.</b>	Eksport – fermerlar faoliyatining bosh yo'nalishi	101
<b>7.9.</b>	Fermer xo'jaliklarini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash yo'llari	106
	qisqacha xulosalar	113
	Nazorat va muxokama uchun savollar	115
	Adabiyotlar	115
<b>8-BOB</b>	<b>MINTAQALARDA KOMMUNIKASIYA MAJMUASI</b>	117
8.1.	Transportning xalq xo'jaligidagi ahamiyati va uning tarkibi.	117
8.2.	Temir yo'l va avtomobily transporti.	117
8.3.	Havo, suv va quvur transporti.	118
8.4.	Havo transporti.	119
8.5.	Suv transporti.	120
	qisqacha xulosalar	121
	Nazorat va muxokama uchun savollar	121
	Adabiyotlar	121
<b>9-BOB.</b>	<b>O'ZBEKISTONNING RESPUBLIKA, MINTAQA, VA MAXALLIY BOSHQARUV ORGANLARI O'RTASIDAGI VAKOLATLARNI TAQSIMLASH MEXANIZMI.</b>	122
9.1.	Davlat hokimiyatining turli pog'onalari o'rtasida vakolatlarni taqsimlashning vazifalari va tamoyillari	122
9.2.	Respublika, mintaqaviy va mahalliy boshqaruv organlari o'rtasida vakolatlarni taqsimlash jarayonining hozirgi holati	124

9.3.	Respublika, mintaqaviy va mahalliy boshqaruv organlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va aloqalarning samaradorligini oshirish yo'llari	127
	qisqacha xulosalar	132
	Nazorat va muxokama uchun savollar	132
	Adabiyotlar	133
<b>10-BOB</b>	<b>MINTAQAVIY IQTISODIY SIYOSAT</b>	135
10.1.	Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning mohiyati va vazifalari	135
10.2.	Mintaqaviy iqtisodiy siyosat bo'yicha xorijiy tajribalar	137
10.3.	Mustaqillik yillarida O'zbekiston mintaqaviy siyosatining asosiy yo'nalishlari.	138
10.4.	qisqacha xulosalar	140
10.5.	Nazorat va muxokama uchun savollar	140
	Adabiyotlar	140
<b>11-BOB.</b>	<b>MINTAQALAR MOLIYACI VA UNI TARTIBGA SOLISH</b>	141
11.1.	Hududiy moliyaning mohiyati va tarkibi.	141
11.2.	Mahalliy byudjet - mahalliy boshqaruv organlari asosiy moliyaviy manbasidir.	141
11.3.	Mol - mulk solig'ining mahalliy byudjetdagi roli	142
11.4.	Byudjetlararo munosabatlar.	143
11.5.	qisqacha xulosalar	145
11.6.	Nazorat va muxokama uchun savollar	145
11.7.	Adabiyotlar	145
<b>12-BOB.</b>	<b>MINTAQALARNING TASHQI IQTISODIY ALOQALARI VA EKSPORTNI KO'PAYTIRISH YO'LLARI</b>	146
12.1.	Jahon hamjamiyati bilan hamkorlik	146
12.2.	Paxta kopleksining eksport salohiyatini rivojlantirish	156
12.3.	Mintakalarda tayyor mahsulot eksportini ko'paytirish yo'llari	165
12.4.	Hamkorlikka asoslangan siyosat	175
12.5.	Xitoy – strategik sherik va yirik hamkor	180
12.6.	SHanxay hamkorlik tashkiloti – xavfsizlik va	181

	hamkorlik garovi.	
12.7	Keys stadii: «O'zbekiston—Malayziya hamkorligi»	186
	qisqacha xulosalar	189
	Nazorat va muxokama uchun savollar	190
	Adabiyotlar	191
<b>13-BOB.</b>	<b>MINTAQALARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI TARTIBGA SOLISH</b>	192
13.1.	Hududlar iqtisodiy rivojlanishini tartibga solishning maqsad va vositalari	192
13.2.	Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining nazariy va uslubiy asoslari	196
13.3.	Hududiy o'sish nazariyalarini tahlil etish masalalari	200
13.4.	qisqacha xulosalar	205
	Nazorat va muxokama uchun savollar	206
	Adabiyotlar	206
<b>14-BOB.</b>	<b>MINTAQALARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI IMKONIYATLARI</b>	207
14.1.	O'zbekiston hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi	207
14.2.	Hududlarning iqtisodiyotiga investisiyalarni jalb qilish xususiyatlari va imkoniyatlari	213
14.3.	Kichik tadbirkorlikni keng rivojlantirish yo'llari	223
14.4.	Kichik biznesning mamlakat rivojlanishidagi ahamiyati.	232
14.5.	Kichik korxonalar rivojlanishidagi xorijiy tajribalar.	234
14.6.	Kichik korxonalar samaradorligi.	235
14.7.	Kichik korxonalar chegaralarini aniqlash mezonlarini belgilash.	236
14.8.	Keys stadii «Aholi daromadlari va turmush darajasini oshirish yo'llari»	239
	qisqacha xulosalar	241
	Nazorat va muxokama uchun savollar	242
	Adabiyotlar	242
<b>15-BOB.</b>	<b>O'ZBEKISTON MINTAQALARNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI</b>	243

15.1.	Xududlarni innovasion strategiyasini aniqlash uslubi	243
15.2.	Hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishning innovasion shart-sharoitlari	245
15.3.	Tadbirkorlikni rivojlantirish yo'llari	252
	qisqacha xulosalar	261
	Nazorat va muxokama uchun savollar	262
	Adabiyotlar	263
<b>16-BOB.</b>	<b>MINTAQALARDA ATROF MUHITNI MUXOFAZA QILISH VA ULARDAN OQILONA FOYDALANISH BO'YICHA HAMKOLRLIK</b>	264
16.1.	Atmosfera havosining ifloslanishi	264
16.2.	Stasionar manbalardan chiqadigan chiqindilar	264
16.3.	Atmosfera havosining ifloslanishiga harakatlanuvchi manbalarning ta'siri.	266
16.4.	CHegarabo'yi hududlarida atmosfera havosining ifloslanishi	267
16.5.	Suv resurslarining holati va ulardan foydalanish.	267
	Nazorat va muxokama uchun savollar	268
	Adabiyotlar	268
	Izohli lug'at	269
	Adabiyotlar	280
	Internet veb-saytlari	283
	Bitiruv malakaviy ishlar, MD va ma'ro'za matnlari mavzularini rektor tavsiya qilgan 15 ming nomdagi mavzulari	288

A.E.Ishmuhamedov, M.R.Rahimova,  
L.A.Ishmuhamedova

## **MINTAQAVIY IQTISODIYOT**

**(Darslik)**

**Muharrir: Rahimova X.**

Texnik muharrir: Talipova N.X.

Kompyuterda sahifalovchi va dizayn: Safarov O'

**MCHJ "RAM-S" bosmaxonasida bosildi. 700096, Toshkent sh,  
Muqumiy ko'chasi, 178-uy. Shartli bosma tabog' – 15,3 Adadi 500 nusxa**